ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-4-2
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года

Хива-2022

Бош муҳаррир:
Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Бош муҳаррир ўринбосари:
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир ҳайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.	*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*
Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.	*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*
Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д.,проф.	*Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.*
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д.,проф.	
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.	*Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.*
Бабаджанов Хушнут, ф.ф.н., проф.	*Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.*
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.	*Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.*
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф,	*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик*
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.	
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.	*Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.*
Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.	*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.	*Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.*
Жуманиёзов Зохид Отабоевич, ф.ф.н., доц.	*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.	
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.	*Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.*
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.	*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.	*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.	*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*
Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.	*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*
Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.	*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*
Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.	*Худайберганова Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д., проф.*
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4-1 (88), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 330 б. – Босма нашрнинг электрон варианти - http://mamun.uz/uz/page/56

ISSN 2091-573 X
Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Murodov H.S. Mustaqillikning dastlabki yillarida turizmni rivojlantirish huquqiy asoslarining yaratilishi va tashkiliy jihatlari 6
Turdiyev I.U. XV- asr oxirida Qozog‘iston dashtlaridan kelgan dashti-qipchoq o‘zbeklari 11
Umbarova N. Qashqadaryo Qo‘ng‘irotlarining qadimdan qolgan qadriyatlari 13
Yusupov H. Xiva madrasalarida mudarrislar faoliyati 16
Абдуллаев У. Ўрта Осиё халқларининг оила – никоҳ муносабатлари тарихидан 18
Азаматова Г.Б. Меҳнат миграциясида хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг халқаро ва миллий ҳуқуқий асослари 23
Алманов Қ. Бахмал тумани ўзбек ва қирғизларининг оилавий маросимларида исломгача мавжуд диний урф-одатларнинг кўринишлари 27
Бегалиева Д.Э. “Хива хонлари Кўринишхона” сидаги расмий қабул маросимлар 30
Бобоев Ф.С. Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши курашнинг кучайишида сайлов тизимининг таъсири 33
Бобожонова Ф.Х. XX аср бошларида Бухоро амирлигида таълим тизимини ислоҳ қилиш ҳаракатлари 35
Васиева Д.И. Ўзбекистонда олий таълим тизимини янги босқичга кўтариш ва самарадорлигини оширишнинг истиқболлари 39
Жуманазаров Х. Шарқ табобатида табиб тушунчаси ва фаолияти 41
Жураев И. XX – XXI аср бошларида Мирзачўл воҳаси маҳаллий аҳолисининг этник таркиби ва тил хусусиятлари 45
Инобатов А.Б. Деҳқон хўжаликларида грек ёнғоғини етиштириш имкониятларини ривожлантиришнинг ўрни ва аҳамияти 50
Курбанова З.И. Влияние Аральского экологического кризиса на одно их традиционных занятий каракалпаков - скотоводство 54
Қурбонова М.Б. Марказий Осиё халқлари моддий маданиятида “Наврўз гўжа” анъанавий таоми таҳлили 57
Махмудов Б.З. Темурийлар даврида фан ва маданиятга бўлган эътибор 59
Мирзаев Б.М. Хоразмлик адиб – Қосим ибн Ҳусайн фаолиятига назар 62
Мубинов М.А. Внешнеполитическая деятельность Бухарского эмирата 64
Отегенов Х.М., Торениязов Ж.Е. XIX асрдаги Амударёнинг чап соҳили бўйларидаги қўрғон-шаҳарлар 67
Рахимов А.Э. Қарши магистрал каналининг қурилиш тарихи ва насос станциялари 70
Сатимов Б. Хоразм воҳаси оғир қуролланган отлиқ аскарлар – ктафрактарийлар вужудга келган ҳудуд сифатида 73
Холиқов Ғ.Ж. Ўзбекистонда аҳоли саломатлиги йўлида халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик 76
Холмўминов М., Қолқанатов А. Хотин-қизларни маданий-маърифий соҳага жалб қилишда клубларнинг ўрни 78
Ҳамидова М.Ҳ., Мирзаев Ш.Р. Бухоро тарихий мажмуаларининг янгиланиши йўлида 85
Юсупов Ш.Х. Амир Темур ва Темурийлар давридаги Хоразм шаҳарсозлик маданияти тараққиётининг ёзма манбалар асосида археологик жиҳатдан ўрганилиши 88
Юсупова Р.Қ. Қашқадарё вилояти тўй маросимлари ҳусусида 90

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Akramova N.M. Word-formation models in network sociolect in the speech of english-speaking youth 95
Aslonova N.M., Djumaniyazova Z.N. A review of German grammar tenses 97
Atadjanova M.A. O’zbek, rus va ingliz tillarida pedagogik terminologiyaning struktur - semantik tahlili 98
Farmonova Sh. Linguocultural analysis of phraseological expressions of human emotional state in English 101
G‘afforov A. Qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gapli qo‘shma gaplarning shakllanishi 103
Hamdamov U. Oybekning simvolistik she’rlari xususida 105
Jumaniyazov A.J., Polvanova N.M., Allaberganova F.I. Son komponentli aniqlovchili (attributuv) qo`shma so`zlarning leksik-semantik tahlili 108
Karimova Y., Radjapova F. F.Nitshening “Zardusht tavallosi” asarining o‘zbek tiliga tarjimasida so‘z qo‘llash mahorati 110
Kosimov A. Metaforaning o’rganilishiga doir yondashuvlar 114
Madaminova Q.A., Djumaniyazova Z.N., Urinova M.S. Lexicology: the process of loan creation in the English language 116
Mirhaydarova N. The semantic field of the category "spirituality" in russian and uzbek 118
Muslixiddinova R., Yarashova N.J. Sadriddin Ayniyning “Doxunda” asarida qo‘llanilgan maqollarning semantik tadqiqi 120
Mutalov D. O'zbek va turk tillarida nutq fe'llarining qiyosiy tadqiqi 122
Nishonov U.I. Research of translation problems scientifically-technical terminology 124
Nurova Yu.U. Jahon tilshunosligida etnolingvistikaning nazariy tadqiqi 126
Pulatova D.D. Murojaat shakllarining yoshga ko‘ra xoslanishi 129
Pulatova M.T. Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur” asarida Amir Temur obrazi 133
Rahimova B.B. Ezgulikni madh etuvchi doston 135

Rahmatullayeva N.E. Lingvokulturologiya – tilshunoslikning yangi yo'nalishi 138
Sabirova Z. Globallashuv hodisasi va adabiy tafakkur 139
Saidova H.H. Turkiy mifologiyada ko'k tangri dini va uning bosh ilohi tangri obrazi 142
Sayfullayev B.D. Development of bilateral political relations between Uzbekistan and India 144
To'raeva B.B. Badiiy makon konsepsiyasining struktur-semantik mohiyati 146
Tolibova N.N. History of the study of english phraseological units 150
Turayeva X. Ethel Lilian Voynichning inqilobchi qahramon obrazlar yaratishdagi mahorati 153
Valiyeva N.A. Xitoy tili frazeologik birliklarida "tinchlik" subkonsepti 155
Xalimova N.A. XX asr o'zbek hikoya va qissalarining ingliz tiliga tarjimalarida badiiy mahorat masalalari 158
Xusinova Sh.X. The notion of nicknames are as an anthroponomical unit in onomastics of the uzbek language 161
Абдуллаева Н., Рахмонова Ф. Сонетда образ намоён бўлиши 163
Акбарова М., Кадымова Д.Р. Художественный мир Н.В. Гоголя – родник русской прозаической литературы 165
Артикова З.З. Хитой тилида 把 "bǎ" жамловчи ном ҳисоб сўзининг ривожланиши, эволюцияси 168
Вахитов Ю.С. Поэтические маски Николая Олейникова 171
Гафуров Б.З. Формы глагола как важный компонент в рекламном тексте медицинских услуг и фармацевтических продукций 173
Гафурова Н.И. Қурилишга оид термин ва таржима қилиш маслаласига оид 176
Даниева М.Дж. Матн мундарижасида жамланадиган ахборотларни шакллантиришда сўз бирикмаларининг улуши 178
Зарипова Р. Эркин Воҳидовнинг таржимонлик маҳорати 181
Исмоилова Ш., Усманова Н.К. Литературная сказка - это жанр авторского фантастического литературного произведения 185
Курбанова М.М. "Гекльберри Финн саргузаштлари" романидаги сюжет ва конфликт ҳақида баъзи мулоҳазалар 190
Муминов М.Т., Нархожаева Н.А. Лингвокультурологический аспект русских и узбекских сказок 193
Олимова Х.В. Сўзларнинг грамматик хусусиятларини аниқлашда таснифий белгиларининг аҳамияти 195
Орипова Г.М., Юнусалиева Г.А. Мустақиллик даври лирикасидаги шаклий-мазмуний янгиланишлар 197
Ражабов Ф. Бўрон Бек Аслон ижодида инсонпарварлик ғояларининг ифодаланиши 200
Расулова Г.К. Айрис Мёрдокнинг «Тузоқда» романида сюжет ва унинг бадиий-эстетик функциялари 203
Рахимов З.А. "Кўҳна дунё" романида бадиий нутқ ва қаҳрамон талқини 206
Рахманова А.Х. Особенности исламской цивилизации в рецепции Бунина 208
Рофеева Ш.Д. Понятие "знание" в семантике английских и узбекских фразеологизмов 211
Рустамова Г.Б. Халқ достонларида дарахтлар билан алоқадор образларнинг семантик серқирралиги 213
Ўрозбоев А., Раҳманов Р. Хоразм Маъмун академияси электрон кутубхонаси: яратиш ва ишлаш тамойиллари 216
Усманова С.С. Бадиий адабиётда психологизм етакчи тасвир усули сифатида 221
Файзиханова Л.А. Эстетические взгляды Н.Г.Чернышевского 224
Хайдаров И.Т. Суғурта терминларининг шаклланишида синтактик муносабатлар 228
Шербекова Г.Я. Никоҳ тўйи қўшиқларида келин ва куёв образларининг бадиий тавсифланиши 232
Эштўхтарова Б.Б. Инглиз ва ўзбек тилларида "head/бош" концептини ифода этувчи фразеологик бирликларнинг уникал хусусиятлари 235
Ярашова Н. Болалар адабиётида маъно кўчишининг лингвокогнитив аспекти 238

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Abdunazarova I.M. Interactive technologies in teaching English language 242
Adilova F.O. Tyutorning faoliyati va o'qituvchining faoliyati, gurux raxbari o'rtasidagi farq 243
Akhmedova A.A. Psychological factors in foreign language teaching 246
Amirqulov J.Ch. Futbol o'yinida hujum turlari va qo'llanilishi 248
Atabaeva N.Dj. The ways of increasing students' motivation in learning the English language 250
Azizova M.A. Teaching listening in ESP classes 252
Begizova M. Creative-organizational model of professional training of the future teachers 254
Boltaeva D.B. Developing intercultural communication competence in students 256
Dehqonova S. Pedagogical approache in educating youth on the basis of spiritual heritage 259
Ergashev M., Baxromova A. Teaching vocabulary in gifted preschool children through non-traditional methods 261
Ergashev M., Mahkamova M. The role of children's literature in learning languages 262
Isaqova Z., Ikramova M., Bo'tayev A. Texnologiya fani o`qituvchisining o`quv jarayonidagi ta`sirchanligi va kasbkorlik sifatlari 264
Ismailova R., Kulijanov U., Khabibrahmanova D. Modern methods in teaching foreign languages 266
Kattaboeva D.K. Language learner's autonomy in english language learning process 270
Khudoykulova U.A. Innovative approaches to teaching Russian 272
Kushmatova D.E., Khakimova H.Kh. Postulates for a healthy lifestyle in Abu Ali Ibn Sina's canon of medicine 273
Makulov Sh.Z. Involving students in sports clubs in higher education institutions 275
Mamatov Sh.N. Rivojlangan shaxsni shakllantirishda jismoniy madaniyat va sportning ijtimoiy ahamiyati 276

Mirsagatova P.A. Qurilish terminologiyasining turdosh fanlar terminologiyalari bilan o‘zaro bog‘liqligi va umumiy terminologiya bazasini shakllantirishi 278
Mirzayeva S.R., Rahmonberdiyeva S.A. Developing listening and critical thinking skills by literary works for B2 level learners 280
Najmutdinova G. Teaching English in technical universities 282
Parpieva M.M. Education of students in the spirit of patriotism in teaching the russian language 283
To‘raqulov I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish usullari 285
Yaxshiboyev Z.A. Jismoniy tarbiya tizimida yengil atletikani o‘rni 287
Zakirova Z.Z. The impact of case studies in developing students' critical thinking skills in EFL classroom settings 290
Ахмедова М.Э. ОТМ филологик таълимда ўқув топшириқларини такомиллаштиришнинг педагогик-дидактик ва прагматик хусусиятлари 291
Жаббаров О. Алкоголизм, инсон хулқ-атворининг жиддий муаммоси 295
Кодирова Ш.С. Инглиз тилига ўқитишда тўғри талаффузга ўргатиш кўникма ва малакаларини шакллантириш 297
Қаршиева Д.Р., Асатуллаев А.Н. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг педагогик асослари 298
Маматкулова М., Усманова Н.К. Стиховедческие методические аспекты изучения лирики в школе с нерусским языком обучения 301
Мулладжанов У.А. Ёшларга соғлом турмуш тарзини шакллантиришда жисмоний тарбия ва спортнинг ўрни 304
Муратова Г.С., Очилова Н.Р. Хавфсизлик соҳасида "Ҳаёт хавфсизлиги асослари" қоидаларини ўқитишнинг самарадорлиги 306
Рашидова З.Ҳ. Маданият ва санъат соҳаси педагогикасида ижодий ишлаб чиқаришнинг моҳияти 308
Рўзиева К.Я. Немис тили дарсларида бўлғуси кадрларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг айрим педагогик жиҳатлари 312
Рузметова Д. А. Нофилологик олий ўқув юрти талабаларига потенциал лексикани ўргатишнинг лингводидактик муаммолари 314
Суюндиков Н.С., Ахмедова Т.Б. Лотин тили грамматикаси ва лексикасини ўқитишда инновацион таълим технологисини қўллаш 317
Тоштемирова Н.Д. Оналик ва болаликни муҳофаза қилишда "соғлом авлод учун" ҳайрия фондининг ўрни 319
Усманова Г.Т. Роль интерактивной доски при обучении иностранному языку 321
Хамидова Х.Ш. Использование CLIL- метода при изучении иностранного языка в неязыковых вузах 324
Хаятова Н.И. Инновационные подходы в достижениях новых результатов в обучение французского языка 326

ТАРИХ ФАНЛАРИ

УЎК:94(575.1) 323

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI VA TASHKILIY JIHATLARI

H.S. Murodov, tayanch doktorant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Maqolada O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida turizmni rivojlantirish maqsadida jahon standartlariga javob beradigan turizm industriyasi va infratuzilmasini barpo etishi, xususiylashtirishning amalga oshirilishi, xorijiy investorlargning jalb etilishi va ularga berilgan imtiyozlar, Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O`zbekistonning ishtiroki hamda sohadagi ba`zi muammoli masalalar atroflicha o`rganilgan. Ilmiy kuzatishlar natijasida soha rivoji bilan bog`liq xulosa berilgan.*

Kalit so'zlar: *"O`zbekturizm", Buyuk Ipak yo'li, xalqaro turizm, Buxoro, imtiyoz, vakolatxona, viza, konvertatsiya.*

Аннотация. *В статье рассмотрено развитие туризма в Узбекистане как независимого государства: строительство индустрии и инфраструктуры, соответствующих мировым стандартам, закрепление приватизации, привлечение инвесторов и предоставление им льгот, участие Узбекистана в реконструкции Великого Шелкового пути и некоторые другие вопросы , проблемные вопросы были детально изучены. Научные разработки управлялись в соответствии с отраслевыми разработками.*

Ключевые слова: *«Узбектуризм», Великий шелковый путь, международный туризм, Бухара, привилегия, представительство, виза, конверсия.*

Abstract. *The article considers the development of tourism in Uzbekistan as an independent state: the construction of industry and infrastructure that meets international standards, securing privatization, attracting investors and providing them with benefits, Uzbekistan's participation in the reconstruction of the Great Silk Road and some other issues, problematic issues have been studied in detail. Scientific developments were managed in accordance with industry developments.*

Key words: *"Uzbektourism", the Great Silk Road, international tourism, Bukhara, privilege, representation, visa, conversion.*

Dunyo turizmi XX asrning so`nggi choragida jadal rivojlanish bosqichiga qadam qo`yib, rivojlangan davlatlar o`z milliy turizmining barqaror rivojlanish yo`lini ya`ni modelini yaratdilar. Natijada turizm sohasi katta miqdorda valyuta hamda ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan farovon turmushga erishishda asosiy omillardan biri sifatida o`rin egalladi. Bu davrda O`zbekiston turizmi jahon turizmi rivojidan uzilib qolgan davr bo`lib, ayniqsa 1987-1990 yillar iqtisodiy inqirozi sohani yanada falaj holatga keltirib qo`ygan edi. Mustaqilligini e`lon qilgan O`zbekiston hukumati oldida jamiyatda yig`ilib qolgan muammolarni bartaraf etish va inqiroz botqog`iga botgan iqtisodiyot sohalarini qayta izga solish kabi juda dolzarb vazifalar turar edi. O`zbekiston mustamlaka bo`lgan davrda turizmi sanoati kommunistik mafkura nazorati ostida hamda boshqaruvning sotsialistik shakli rejimida alohida soha sifatida rivojlanmadi. Mustaqil davlat sifatida xalqaro standartlarga javob beradigan turizm industriyasi hamda infratuzilmasini barpo etish, tizim rivoji uchun xalqaro me`yorlarga javob beradigan tartib – qoidalarni ishlab chiqish maqsadida "O`zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risidagi farmon 1992 yil 27 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan qabul qilindi [1;B.2.]. Ushbu PF-447-son farmoni xalqaro standartlarga mos milliy sayyohlik tizimini yaratish, turizm industriyasi infratuzilmasini rivojlantirish, jahon turizm bozoriga chiqish, sohani boshqarishni takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi [2;B.lex.]. Farmonning 1- bandiga ko`ra, Respublika kasaba uyushmalariga qarashli turizm va ekskursiyalar kengashi, xalqaro yoshlar turizmi bo`yicha "Sputnik" byurosining "Intur-Toj" qo'shma korxonasi, O'zbekiston Vazirlar Kengashi qoshida "Sayyoh-Intur" xo'jalik birlashmasining sobiq Ittifoq davlat chet el turizmi komiteti korxonalari asosida "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi barpo etildi. Tashkilot faoliyati tavsifi berilgan 2- bandga ko`ra mamlakatda turizm sohasidagi yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali sohaning xo`jalik tarmoqlari kompleksini rivojlantirish, ekskursiyalar uchun tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash, barcha turizm turlarini rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarni yaratish, sayyohlik markazlariga chet el sarmoyalarni jalb etish yo`li bilan zamonaviy sayyohlik komplekslarni barpo etish, xorijiy tadbirkorlar ishtirokida qo'shma turistik xizmatlar va korxonalarni barpo etish orqali dunyo turizmi talablariga javob beradigan yangi turistik marshrutlar va xizmatlarni olib kirish belgilangan.Mazkur farmonning 3 – bandida esa butun mamlakat bo`yicha turizm sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirilishini ta`minlaydigan muvofiqlashtiruvchi bosh organ ekanligi qonunlashtirildi.

Turistlar, mehmonlar va boshqa maqsadda keluvchi fuqarolarga oid dastlabki tartib qoidalari borasida 1992-yil 7-sentabrdagi VM-415-31-son qarori bilan tasdiqlangan xorijiy fuqarolarning turist maqomida O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlarining Vaqtinchalik qoidalari qabul qilinib, shu asosda kirish va chiqish, bo`lish va yashash tartiblari belgilandi [3;B.lex.]. Keyinchalik bu borada yangi tartiblar belgilandi [4;B.lex.]. PF-447-son farmoni ijrosini ta`minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 20-oktyabrda 484-son "O`zbekturizm" milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida qarorni qabul qildi [5;B.90.]. Mazkur qarorning 1-va 2- bandiga ko`ra "O`zbekturizm" MK xo`jalik uyushmasi ekanligi va tarkibidagi jami 16 ta korxona va tashkilotlar uning muassisi ekanligi tasdiqlandi. Tashkil etilgan vaqtda "O‘zbekturizm" tarkibida 121 ta korxona mavjud bo`lib, shu bilan birga kompaniyaning har bir viloyatdagi hududiy bo'limlar ham tashkil etildi [6;B.90-91.]. Ushbu qarorning 2- bandiga asosan tashkilot Vazirlar Mahkamasiga hisobot berishi, respulika qonunlari, qaror va farmoyishlari hamda yuqori organ tasdiqlagan o`z qarori va Ustavi asosida boshqarilishi, o`zini valyuta va mablag` bilan ta`minlashi bilan birga to`la xo`jalik hisobda barcha ijtimoiy – iqtisodiy masalalarni mustaqil amalga oshirishi, davlat mulkini xususiylashtirishda o`z korxonalari nomidan ishtirok etishi kabi huquqlari belgilangan. Qarorning 3-bandiga asosan "O`zbekturizm" MK bosh organi Kengash tomonidan boshqaruvni va taftish komissiyasini saylashi, xodimlarga ish haqi to`lash tizimni belgilashi, milliy kompaniyaning 118 kishdan iborat katta ishchi apparati(7 ta boshqarmadan iborat) va hududiy bo`limlari tashkil etilishi, kompaniya raisiga 4 nafar o`inbosar va shu jumladan 1 nafar birinchi o`rinbosar tayinlashga ruxsat berildi[7;B.lex.]. "O‘zbekturizm" MK tashkiliy tuzilmasi katta va ko`p sonli bo`lsada, lekin boshqaruvda muammolar ko`p bo`lgan. Boshqaruvdagi raqamlarni taqqoslaydigan bo`lsak, mustaqillikgacha bo`lgan davrda ushbu sohadagi bosh organ bo`lgan "Turizm va ekskursiyalar Kengashi" ishchi apparatida 90 kishi faoliyat yuritgan bo`lsa[8;B.180-181.], "O‘zbekturizm" MK vorisi bo`lgan Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi markaziy ishchi apparat jami 43 nafar xodimdan iborat bo`lishi belgilangan edi [9;B.lex.]. "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi respublikadagi 14 ta ma`muriy birliklarda turizm bo‘yicha tegishli hududiy bo‘limlarini tashkil etishi va qarorning 4- bandi 3-ilovasiga ko`ra, "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkiliy jihatlari ham belgilanib, viloyatlardagi hududiy filiali boshqaruv xodimlari tuzilmasi jumladan boshqaruvchi, birinchi o`rinbosar, o`rinbosar va 7 ta bo`limdan iborat holda tashkil etilishi tasdiqlangan[10;B.lex.]. "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasiga yangi turistik tashkilot tuzish, bo`linmalarni tugatish va qayta tashkil etish,xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o`rnatish, xorijda vakolatxona, tijoriy hamda reklama byurolari ochish, sertifikat berish, chet el firmalarini akkreditatsiya qilinishini ta'minlash hamda taftish qilish kabi huquqlar mazkur qarorning 5- bandida qayd etilgan. Qarorning 6- bandida, kompaniya ixtiyoriga berilgan davlat mulkini boshqa tadbirkorlik tuzilmalariga ijaraga berish huquqi, 7- bandga muvofiq, 1980 yillar ikkinchi yarmida Hindistonning "Tata" va "Larsen" firmalari ishtirokida Toshkent, Buxoro, Samarqand shaharlari da ko`p cho`zilgan mehmonxona komplekslari qurilishini tezroq yakunlash borasida tizimli ishlar belgilab berilgan. Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 15 fevraldagi 82- son qaroriga asosan "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasining Ustavi tasdiqlandi[11;B.lex.]. Ustav VII bo`lim, 21- banddan iborat bo`lib, uning mazmunida tashkilotning respublika bo`yicha turizm sohasida davlat boshqaruvi bo`yicha vazifalari, funksiyalari va boshqa huquqlari tasdiqlangan. Unga ko`ra quyidagilar :

a) Yuridik shaxs sifatida to`la xo`jalik hisobidagi o`zini o`zi mablag`, valyuta bilan ta`minlashi hamda faoliyati turizm sohasiga aloqador bo‘lgan firma, korxona va tashkilotlarga litsenziya va sertifikatlar berish

b) Xorijiy tajribani o`rganish natijasida mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning yagona siyosatini amalga oshirish hamda jahon standartidagi turistik servis xizmatlarini joriy etishi

c) Xorijda va respublikadagi sud majlislarida turistik korxonlar huquqlarini himoya qilish, xorijiy davlatlarda vakolatxonalar, byurolar va markazlar ochish, chet el kreditlari va sarmoyalarini olib kirish va hamkorlikdagi loyihalarni rivojlantirishi

d) "O‘zbekturizm" boshqaruvi yuqori organi Kengash bo`lib, unga rais rahbarlik qilishi, Kengash boshqaruv va taftish komissiyasi hisobotini qabul qilishi, kompaniya mintaqaviy bo`linmalarni tashkil etishi, boshqarishi

e) "O‘zbekturizm" Boshqaruvi 7 kishidan ya`ni rais, birinchi o`rinbosar, o`rinbosarlar, apparat va tarkibiy bo`linma rahbarlaridan iborat bo`lib, u Kengashning ijro organi sifatida yig`ilishlar orasida unga rahbarlik qilishi kabi vazifa va funksiyalari tasdiqlangan.

O`zbekistonda mustaqillikning dastlaki yillarida "O‘zbekturizm" milliy kompa niyasi tashkil etilishi va uning huquqiy asoslari ishlab chiqilish natijasida sohada jahon turizmi rivojlanishi tajribasini o`rganish hamda o`lkada sayyohlikning tarixiy ildizlari mavjudligini hisobga olib, milliy turizmning o`ziga xos milliy modeli yaratila boshlandi. Turizmning davlat tomonidan boshqarilishi asosida markaziy va hududiy bo`limlar faoliyati yo`lga qo`yildi. Xususiylashtirishgacha bo`lgan davrda ya`ni milliy turizm modelini yaratish bo`yicha boshlangan islohotlar tufayli 1993 – 1994 yillarda "O‘zbekturizm" tarkibiga kiruvchi jami

20 turdagi 159 ta (164 ta) korxona, tashkilot va muassasalar soha faoliyatini tashkil etishda asosiy rol o`ynagan [12;B.44-48.]. "O'zbekturizm" MK faoliyatining dastlabki yillarida uning Ustavi da belgilangan vazifalaridan biri kadrlar masalasi ham jiddiy muammolardan biri bo`lib, bu borada viloyat boshqarmalarida kadrlar ta`minoti bo`yicha ahvol quyidagicha edi[13;B.40-42.]. 1993 yilda "O'zbekturizm"ning viloyatlardagi hududiy bo`limlarida jami 83 ta tashkilot faoliyat ko`rsatib, ulardagi jami 2686 ta shtat bo`yicha ish o`rnidan 2348 tasi band etilgan holda, jami 338 ta turistik soha bo`yicha kadrlar yetishmovchiligi muammosi mavjud edi [14;B.40-42.]. Bu borada dastlabki davrda tashkil etilgan Markaziy Osiyo turizm instituti (SITE) [15;B.33.], Iqtisodiyot universiteti bilan ikkinchi mutaxassislik bo'yicha mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash to'g'risida shartnoma imzolanishi bilan bir vaqtda o`rta bo`g`inda ishlaydigan kadrlar masalasida yangi talab va takliflar hukumatga taqdim etildi[16;B.111.]. Malakali kadrlar tanqisligi hozirgacha o`z dolzarbligini yo`qotmagan. Milliy kompaniya ilk davrdagi belgilagan vazifalari amalga oshirilishi bilan joylashtirish vositalari va ulardagi o`rin joylarining ko`payishiga ta`sir qildi. Jumladan 1991 yilda turistik tashkilotlardagi mavjud jami o`rinlar soni 7841 ta bo`lib[17;B.188-189.], dastlabki choralar natijasida 1993 yil oxiriga kelib, "O'zbekturizm" ning 14 ta hududiy bo`limlaridagi joylashtirish vositalarida umumiy o`rinlar soni 9858 taga (Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg`onadagi qurilayotgan mehmonxonalardagi 1 160 ta o`rinni ham hisoblaganda 11 518 ta o`rin mavjud) ko`paydi [18;B.49.]. Sayyohlik industriyasining zamonaviy rivojlangan xalqaro turizm bilan globallashuvida xususiylashtirish jarayoni ijobiy ta`sir ko`rsatd. 1994 yilda ishlab chiqilgan «Turistlik korxonalarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi» chuqur tizimli - institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994—1995 yillar mobaynida «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasining 87,8% turistlik obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirildi. Natijada turizm sohasidan olinayotgan daromadlarning keskin o`sishiga erishildi: 1993 yilda 11,3 million so`m miqdorida daromad olinib, bundan 2,1 million so`m foyda ko'rilgan bo'lsa, 1994 yilda 221,3 million so`m daromad va bundan 110,6 million so`m foyda olingan[19;B.6-15.]. O`zbekiston hukumati qayta tiklanayotgan xalqaro turizm yo'nalishi – Buyuk Ipak yo`li ahamiyatini, ayniqsa uning milliy turizm sohasini rivojlantirishdagi muhim rolini to`g`ri belgilab, 1995-yil 2-iyunda "Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O`zbekiston respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-1162-son farmoni qabul qilindi[20;B.lex.]. Unga ko`ra sohaning quyidagicha strategik vazifalari belgilandi: **Birinchidan,** Buyuk Ipak yo'lidagi Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zonalar barpo etish hamda ushbu shaharlardagi aeroportlar va temir yo'l vokzallarida xorijiy sayyohlar uchun bojxona tartiblarining xalqaro standartlarga mos soddalashtirish, **Ikkinchidan,** Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda yangi tashkil etiladigan sayyohlik tashkilotlari dastlabki foydani olgunga qadar uch yil mobaynida barcha turdagi soliqlardan ozod qilinishi, shuningdek, mazkur tashkilotlar va firmalar foyda (daromad) olgan birinchi yili foyda (daromad) solig'ining 50 foizini, ikkinchi yili — 75 foizini, uchinchi yildan boshlab — 100 foizini to'lashi, **Uchinchidan,** chet ellik investorlargaa turizm yo`nalishida qo'shma korxonalar tashkil etgan uchun avvalgi imtiyozlarga qo'shimcha ravishda, olib chiqib ketiladigan foydadan 5 yil muddatgacha soliq undirilmasligi, **To`rtinchidan,** turizmda islohotlarni chuqurlashtirish, jahon standartlari miqyosidagi kichik va o'rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog'i shakllantirilish, tarixiy-madaniy meros keng ko'lamda targ'ib qilish, ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosatini hamda turizmda uzviy kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo'yicha Idoralararo kengash tuzish, **Beshinchidan,** qadimiy shaharlardagi yodgorliklarni asrash va foydalanish bo`yicha "Meros" dasturini ishlab chiqish hamda xalqaro turizmni rivojlantirish bo`yicha muammolarni joyida bartaraf etilishi uchun shaxsiy javobgarlik vazirlik va tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatilishi kabi milliy turizm industriyasi va infratuzilmasi rivoji uchun xizmat qiladigan vazifalar shular jumlasidandir. PF-1162-son va VM-210-son qarori asosida 1995 yil 1 iyuldan O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi davlat hududida kuchga ega bo`lgan yagona turistik viza tartibini o`rnatdi [21;B.74.]. Mamlakatda madaniy merosni saqlab qolish, muqaddas qadamjolarni tiklash, nomi unutilayotgan ajdodlarimiz xotirasi hamda merosini abadiylashtirish, obodonlashtirish uchun keng ko'lamda amalga oshirish ishlari boshlandi. Shuningdek, xalqaro turizm infratuzilmasini rivojlantirish va "Buyuk ipak yo'li" turistik yo'nalishini rivojlantirish to'g'risidagi Hukumat qaroriga muvofiq, kompaniya London va Berlin shahrida bo'lib o'tadigan yirik xalqaro turizm almashinuv yarmarkalarida ishtirok etish orqali milliy turistik mahsulotlar va loyihalarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish faoliyatini olib bordi [22;B.2.]. 1995-2000 yillarda Buyuk Ipak yo'lida joylashgan qadimiy shaharlarda madaniy merosni asrash, tadqiq va tashviq etish, ularning to`liq ro`yxatini tuzish, ilmiy ta`mirlash va usta-kadrlar masalasi, madaniy meros yodgorliklaridan turizmni rivojlantirish uchun yanada samarali foydalanish kabi tadbirlarni o'z ichiga olgan "Meros" dasturi 1995 yil avgustda ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etilishi turizmni rivojlantirish yo`lidagi choralardan biri bo`ldi[23;B.6-13.]. O`zbekistonda milliy turizm sohasini rivojlantirishning asosiy talablaridan biri bo`lmish jahon me`yorlariga

javob beradigan mehmonxona xizmatlarining milliy me`yorlarini ishlab chiqildi. Bunda xalqimizning mehmondo`stlik va mehmonnavozlik kabi azaliy qadriyatlari, xislat va fazilatlarining ham ta`siri o`ziga xoslikni yaratishga xizmat qildi. Jumladan "O`zbekiston Respublikasida mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish qoidalari" ishlab chiqilib, Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 12-yanvarda 389-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan[24;B.lex.]. Mazkur qoidalarga ko`ra, ish rejimi, ro`yxatdan o`tkazish, band qilish tartibi, muhandislik tizimlari va uskunalari bilan jihozlanishi, majburiyatlar, ma`lumotnoma, mehmonxona fuqarolarning yashash joyidan qat'i nazar, xususiy tadbirkor bilan kelishilgan muddatga, lekin 45 kundan ortiq bo'lmagan muddatga vaqtincha yashashi joyi, tranzit vizasi bo'lgan xorijliklarga 72 soatgacha vaqtinchalik yashashga ruxsat berilishi kabi jahon standartlariga javob beradigan tartib va qoidalar butun respublika hududidagi mehmonxonalar uchun majburiy ekanligi belgilandi. Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 8-avgustda 346-son "Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorni qabul qilib, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga a'zo sifatida yangi tuzilma Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasini(XSTU) tashkil etilishi, uni boshqarish (qarorning 3, 4 ilovalari) va mazkur tashkilot Buyuk ipak yo'lini tiklashda, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirishda, a`zo bo`lgan xususiy sayyohlik tashkilotlariga axborot, maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish maqsad va vazifalarni bajarishini hisobga uning tuzilishi tasdiqlandi [25;B.lex.]. Yuqoridagi farmon ijrosini ta`minlash maqsadida 1999 yil 15 aprelda "2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida" farmon qabul qilinib, quyidagilar belgilandi[26;B.lex.]: **Birinchidan,** sayyohlik tashkilotlari uchun qo`shimcha bojxona imtiyozlari berilib, unga ko`ra xorijdan import qilinadigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, turistik xizmatlarga mo'ljallangan transport vositalari uchun bojxona poshlinalari to'lashdan 3 yil muddatga ozod qilinishi hamda turistlarga erkin ayirboshlanadigan valyuta hisobidan xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish tartibini va buning uchun maxsus kassalar tashkil etish, **Ikkinchidan,** O'zbekiston Respublikasining AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiyadagi elchixonalarida madaniyat va turizm masalalari bo'yicha maslahatchi lavozim tashkil etilishi hamda turizm bo`yicha kuchli oliy o`quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlashni kuchaytirish borasida "Umid" jamg`armasi faoliyatini kengaytirish kabi yangi tartiblar va o`zgarishlar belgilandi.

O`zbekistonda turizm sohasi rivojlanish talablari va xalqaro standartlarga mos normativ huquqiy hujjat yaratish borasidagi sayi harakatlar natijasida "Turizm to'g'risida"gi Qonuni 1999-yil 20-avgustda qabul qilindi[28;B.lex.]. Ushbu qonunning yangiliklaridan biri uning matnida qo`llanilgan turizm sohasi bilan bog`liq tushunchalarning ya`ni turizm, turistik faoliyat, ekskursiya faoliyati, tur, gid (ekskursiya yetakchisi), sertifikat kabilarning ta`riflari (3, 13-moddalarda) berilganligidir. Qonunning 4-moddasida turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanib, bunda doim e`tibor berilgan yo`nalishlardan tashqari shu davrgacha kam e`tibor berilgan bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish borasida, turizm sohasining ilmiy ta'minotini tashkil etish va rivojlantirishga, fuqarolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta'minlash kabi yo`nalishlarga e`tibor kuchaytirilishi belgilandi. Mazkur qonunning 5,6,7-moddalarida davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari, 8-modda turistik faoliyatni litsenziyalash ya`ni litsenziya asosida faoliyat amalga oshirilishi, 9-moddada turistik faoliyatni moliyalash manbalari, 10-moddada turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va uning majburiyligi, bu boradagi kamchiliklar litsenziyaning amal qilishini to'xtatib qo'yishga yoki litsenziyadan mahrum etishga sabab bo`lishi belgilangan. Jumladan 14,15-moddalarda turistlar huquqi va majburiyatlari, 16, 17- moddalarda turistik faoliyat subyektining huquqlari va majburiyatlari, 18, 19-moddalarda turistlarning xavfsizligiga davlat tomonidan kafolati berilishi va uni ta`minlash chora tadbirlari, 20-moddada sayyohlarni sug'urta qilish va uning majburiyligi kabi normalar joriy etilish bu jahon sayyohlik normalariga milliy turizmning me`yoriy huquqiy normalarini moslashtirish yo`lidagi ijobiy qadam edi[29;B.lex.].

Xulosa qiladigan bo`lsak, mustaqillikning dastlabki yillarida inqirozga uchragan turizmni alohida xalq xo`jaligining mustaqil soha sifatida qayta tashkil etish masalasi kun tartibiga qo`yildi. "O`zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risidagi farmonning qabul qilinishi respublikada mustaqil soha sifatida sayyohlik industriyasini tashkil etish uchun qo`yilgan dastlabki qadam edi. "Buyuk Ipak yo'li"ni tiklash harakatlari va O`zbekistonning bu boradagi ijobiy qadamlari, "Meros" dasturi ishlab chiqilishi kabilar avvalambor xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo`ldi. Chet el va mahalliy sarmoyadorlar uchun imtiyozlar berilishi turizm industriyasida mehmonxona va boshqa obyektlar soning ko`payishiga ijobiy ta`sir qildi. Turizm sohasidagi o`zgarishlar bilan bir qatorda milliy turizm imijiga salbiy ta`sir qilayotgan tartiblar, muammolar ham mavjud edi. Jumladan:

a) "O`zbekturizm" MK ning hududiy bo`limlari va turistik tashkilotlarda soha bo`yicha malakali kadrlarning tanqisligi[30;B.40-42.]

b) Turistik infratuzilmaning bir tekisda rivojlanmaganligi (Surxondaryo, Qashqa- daryo va Farg'ona vodiysi viloyatlarida turistik infratuzilmaning yaxshi rivojlanmagani turistlarni bu yerga ko`proq kelishiga to‘sqinlik qilgan) [31;B.330.].

c) Jahon turizm bozorida milliy turistik mahsulotning targ`ibot tashviqoti ya`ni faol reklamasi yo`lga qo`yilmaganligi[32;B.59.].

d) "O`zbekturizm" MK boshqaruvi tizimidagi kamchiliklarnig mavjudligi[33;B.75.].

e) Viza tartibidagi kamchilik va noqulayliklar, bojxona va chegaradagi turistlarni bezdiradigan rasmiyatchiliklarning ko`pligi[34;B.117.].

f) Turistik mavsum davrida asosiy turistik markaz bo`lgan tarixiy shaharlarda joylashtirish vositalarining kamligi va o`rin joylarning yetishmasligi, O`zbekistonga aviachiptalarning yuqori narxlari - "narx-qiymat" jihatidan turistik yo'nalish sifatida cheklangan jozibadorligi hamda mehmonxona sanoatidagi narxlarning xizmat ko'rsatish darajasiga mos kelmasligi kabilardir[35;B.152-154.]. Bu jihatdan olib qaraganda qonun chiqaruvchi va boshqa davlat organlarining o`z faoliyatida mavjud davr talabi, taklifi, xalqaro turizmning o`sishi ehtiyojlari va sayyohlikning barcha turlarini jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratadigan huquqiy normalarni ishlab chiqishdagi faoliyati davr talabini va turizmga aloqador ilg`or xalqaro standartlarni o`zida to`la aks ettira olmaganligi bilan izohlash mumkin. Turizm hozirgi kunda faol rivojlanayotgan hamda republikadagi ijtimoiy – iqtisodiy muammolarga yechim topayotgan yetakchi sohalardan biriga aylanayotgan jarayonda uning tashkiliy, me`yoriy huquqiy asoslari jahonning ilg`or tartib va tajribalarini o`zida aks ettirmog`i zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish. 2-varoq
2. https://lex.uz/docs/223878
3. https://lex.uz/ru/docs/-492518
4. https://lex.uz/docs/-512233?ONDATE=21.11.1996%2000#-5054146
5. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.42-Ish. 90-varoq.
6. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.42-Ish. 90-91-varoq.
7. https://lex.uz/docs/-514856?ONDATE=20.10.1992%2000#-515391
8. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.12-Ish.180-181-varoqlar
9. ПП-2666-сон 02.12.2016. Об организации деятельности Государственного комитета Республики Узбекистан по развитию туризма (lex.uz)
10. https://lex.uz/docs/514851?ONDATE=20.10.1992%2000#515541
11. https://www.lex.uz/uz/docs/566556?ONDATE=15.02.1993
12. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.40-Ish.44-48-varoqlar.
13. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.40-Ish.40-42-varoqlar.
14. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.40-Ish.40-42-varoqlar.
15. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.12-Ish.33-varoq.
16. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.12-Ish.111-varoq.
17. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.12-Ish.188-189-varoqlar.
18. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.40-Ish.49-varoq.
19. I.S.Tuxliev. Turizm asoslari. Samarqand.2008 B-6-158
20. https://lex.uz/docs/-182051?ONDATE=02.06.1995%2000#-1491810
21. T.Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari(O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2019. B-74
22. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish. 2-varoq.
23. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.38-Ish.6-13-varoqlar.
24. https://lex.uz/docs/813934
25. https://lex.uz/docs/-838278?ONDATE=08.08.1998%2000#-905240
26. PF-2286-сон 15.04.1999. 2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida (lex.uz)
27. 830-I-сон 20.08.1999. Turizm to‘g‘risida (lex.uz)
28. 830-I-сон 20.08.1999. Turizm to‘g‘risida (lex.uz)
29. O`zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.40-Ish.40-42-varoqlar.
30. M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov. Turizm: nazariya va amaliyot. Toshkent.2018 B-330.
31. M.T.Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari(O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2019. B-59
32. O`sha joy. B-75
33. M.T. Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihataari "Fan" Toshkent.2013.B-117
34. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1503-M-Fond. 1-Ro`yxat.44-Ish 152-154-varoqlar

UO'K 902

XV- ASROXIRIDA QOZOG'ISTONDASHTLARIDANKELGAN DASHTI-QIPCHOQ O'ZBEKLARI

I.U. Turdiyev, doktorant, SamDu, Samarqand

Annotatsiya. *Dashti-qipchoq qabilalarining avlodlari bo'lgan eng yirik subetnik guruh-o'zbeklarning o'troq hayotga o'tishi 20-asr boshlarida yakunlangan. Birinchi guruh shaharlar va yirik qishloqlarda joylashib aholi soni jihatdan ustunlik qila boshladi.*

Kalit so'zlar: *Dashti-qipchoq, O'zbek, Barlos, Turkiylar, Shayboniyxon, Sartlar, Qang'lilar, Abulxayrxon, Amudaryo, Sirdaryo.*

Аннотация. *Расселение крупнейшей субэтнической группы - узбеков, потомков дашти-кипчакских племен, завершилось в начале 20 века. Первая группа расселилась в городах и крупных селах и стала доминировать по численности населения.*

Ключевые слова: *Дашти-Кипчак, Узбек, Барлос, тюрки, Шайбаниxан, Сартлар, Канглилар, Абулхаирхан, Амударья, Сырдарья.*

Abstract. *Расселение крупнейшей субэтнической группы - узбеков, потомков дашти-кипчакских племен, завершилось в начале 20 века. Первая группа расселилась в городах и крупных селах и стала доминировать по численности населения.*

Keywords: *Dashti-Kipchak, Uzbek, Barlos, Turks, Shaibanikhan, Sartlar, Kanglilar, Abulkhairkhan, Amudarya, Syrdarya.*

XV asr oxirida Shayboniyxon boshchiligida Qozog'iston dashtlaridan kelgan Dashti-qipchoq o'zbeklari (Xon O'zbek davridan XIV asr Oltin O'rda ko'chmanchilarining nomi) assimiliyatsiyasidan keyin vujudga kelgan.

XX asr boshlariga kelib o'zbeklar orasida allaqachon uchta yirik subetnik guruh ajraldi: sartlar-vohalarning qadimgi o'troq aholisi; turklar O'rta asrlardagi o'g'uzlar va Chingizxon qo'shinlari tarkibiga kirgan turk-mo'g'ul qabilalari bilan aralashib, yarim ko'chmanchi hayot kechirgan O'rta Osiyodagi mo'g'ullarga qadar yashagan turkiy qabilalarning avlodlari.

Dashti-qipchoq qabilalarining avlodlari bo'lgan eng yirik subetnik guruh-o'zbeklarning o'troq hayotga o'tishi 20-asr boshlarida yakunlangan. Birinchi guruh shaharlar va yirik qishloqlarda joylashib aholi soni jihatdan ustunlik qila boshladi. Ikkinchi guruh boshqa ikki guruhdan son jihatdan sezilarli darajada kam edi. O'rta Osiyo xonliklari XIX asrda Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin o'zbeklarning milliy konsolidatsiya jarayoni sezilarli darajada kuchaydi.

O'zbeklarning etnik tarkibi batafsil tahlil qilinsa uning tarkibida qipchoq komponentining asosini ko'rish mumkin. Masalan, Barlas etnonimi Chingizxon davridan ma'lum. Rashid ad-dinning yozishicha, Chingizxon o'z o'g'li Chag'atoyga ajratgan to'rt ming kishilik qo'shinni, barlaslardan iborat [1] va ular ham jaloirlar kabi asli mo'g'ul qabilasidan bo'lgan "barulos"lar bo'lib, mo'g'ul tilidan tarjima qilinganda barulos "qalin, kuchli" degan ma'noni anglatadi. Bu shuningdek, "qo'mondon, rahbar, jasur jangchi" degan ma'noni anglatadi va qabila a'zolarining harbiy jasorati bilan bog'liq edi.

Agar XIII asrning 30-40-yillarda barlas va jaloirlarda mo'g'ullarga xos belgilar bo'lgan bo'lsa, XIV asr 60-70-yillarga kelib ularning har ikkisi ham turkiylashuv jarayonini boshidan kechirgan Ular birinchi navbatda, turkiy shevalarni o'zlashtirishgan, shuningdek, hududdagi mahalliy turkiy aholi bilan o'zaro assimilyatsiya jarayoniga kirgan. Barlos va jaloirlar asosan Qashqadaryo viloyati hududida o'rnashib qolgan.

Barloslar - Qashqadaryo vohasiga XIV-asrning birinchi yarmida kelib joylashdilar. Ular o'zi ham barlas qabilasidan bo'lgan va ularga homiylik qilgan Amir Temur davrida boshqa hududlarga tarqala boshlagan. Ma'lumki, uning vafotidan keyin ham barlaslar temuriylar davlatlarida sharafli mavqeni egallaganlar. Xususan, ularning bir qismi Bobur bilan birga uning qo'shinlari Dashti-qipchoq o'zbeklari tomonidan mag'lubiyatga uchragach, Hindistonga yo'l oladi. XVI asrda Barlaslar Amudaryoning o'ng va chap qirg'og'ida yashagan. Bu vaqtga kelib, bu qabila unga boshqa qabilalarning qo'shilishi hisobiga o'sib bordi, chunki bu qabila bilan ittifoq tuzish obro'li hisoblangan. Ammo keyinchalik Shayboniylar hokimiyati o'rnatilgach, barlaslar o'z mavqeini yo'qotdilar.

Buxoro xonligi davrida barloslarning bir qismi o'z nomini va an'anaviy ichki birligini saqlab qolgan holda yarim ko'chmanchi turmush tarzini saqlab qolgan va chorvachilik bilan shug'ullanishda davom etgan. Bu, asosan, qabila a'zolari o'rtasida nikoh tuzishda, shuningdek, barlas qabilasining a'zolarining o'ziga xos "tashrif qog'ozi" bo'lib xizmat qilgan o'ziga xos notiqlik qobiliyatida namoyon bo'ldi.

Samarqand viloyatiga yaqin joylashgan Shahrisabz barlaslari, aksincha, ajdodlari Hisorda uzoq vaqt yashab, so'ng o'z ona yurtlariga – Qashqadaryo vohasiga qaytgan, deb hisoblaydi. Yuqori Tarag'ay

(Qashqadaryo) qishlog‘i aholisi o‘rtasida tarqalgan rivoyatga ko‘ra, ular o‘tmishda bu yerlarni tashlab Hisorga ketishgan va u yerdan faqat XIX asr boshida qaytishgan. Boshqa manbalarga ko‘ra, XVIII asr o‘rtalarida Mang‘it Muhammad Rahim 20 mingga yaqin barlas oilasini Samarqand va Shahrisabz hududlariga ko‘chirdi[2].

O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida ikki xil turdagi barlaslar – oltibachcha va kalxofizi bor. Oltibachiyalar olti aka-ukadan kelib chiqqanligi aytiladi. Shuningdek qozibachcha, pulatbachcha, oqsoqbachcha, nematbachcha kabi urug‘ va qabilalar ham mavjud. 1926 yildagi tumanlashtirish ma’lumotlariga ko‘ra, Yuqori Qashqadaryoda 710 barlas qayd etilgan bo‘lib, ular Sayot, Xasantepa, Ommagon, Toshqaloq, Ayoqchi, Xonaqa, Tarag‘ay qishloqlarida yashagan. Bu qishloqlarda tolibbachcha, qozibachcha, ne‘matbachcha kabi qabilalar yashagan.

Hozirda Samarqand va Qashqadaryo Jizzax viloyatlarida barlos etnik nomlari saqlanib qolgan, biroq O‘zbekistonning boshqa viloyatlarida barlos nomi faqat etnotoponim shaklida uchraydi, masalan, Surxondaryoning Sariosiyo tumanidagi Barlas qishlog‘i. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi Barlos qishlog‘i, Qashqadaryo viloyatining Qatag‘on qishlog‘idagi qatag‘onlarning kichik bir guruhi o‘zlarini barlaslardan deb biladi va yashash joylarini Barlostup deb ataydilar.

Barlas shevasi o‘zbek tilining qarluq-chigil shevasiga mansub bo‘lib, ko‘p jihatdan o‘zbek tilining shahar shevalariga yaqin. Shu bilan birga, qipchoq shevalarida qisman uchraydigan belgilar bu shevaning lisoniy xususiyatlariga xosdir. Ammo qipchoq shevasi shahar shevalariga mansub bo‘lmagani uchun, ehtimol, barlas shevasi qarluk-chigil va qipchoq shevasi oralig‘idagi sheva, ya‘ni o‘zbek tili shevasining alohida turiga mansubdir[3].

Do‘rmonlar – bu qabila eng yirik va zich joylashgan o‘zbek urug‘laridan biridir. Do‘rmonlar haqidagi ma’lumotlarni ko‘plab rus va chet ellik sayohatchi-tadqiqotchilarning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yozilgan asarlarida uchratish mumkin .

Ba‘zi manbalarda qayd etilganidek, do‘rmonlar kelib chiqishiga ko‘ra mo‘g‘ul qabilalaridir. Bu etnik guruh XV asrda Abdulxayrning Dashti Qipchoqdagi o‘zbeklar xoni etib saylanishida qatnashgan, keyinchalik Shayboniyxonni qo‘llab-quvvatlagan va ular bilan birga Movarounnahr hududiga kelib joylashgan. Do‘rmonlar-o‘zbeklarning alohida guruhi Afg‘oniston Turkistonida Shayboniyxon qo‘shinlari tarkibida Balx va Qunduzni bosib olishda qatnashgan. Qunduzning birinchi o‘zbek hukmdori do‘rmon O‘risbek bo‘lganligi qayd etilgan. Ular hatto Ashtarxoniylar sulolasi davrida ham o‘z nufuzlarini saqlab qolishga harakat qilganlar.

XX asr boshlarida do‘rmon o‘zbeklari turli joylarda – Balx (Shimoliy Afg‘oniston), Zarafshon, Sirdaryoning yuqori havzasi va Xorazmda yashagan.

Yuqoridagi hududlardan tashqari do‘rmonlar Hisor vodiysida (Regard janubida) joylashgan Do‘rmon va Garau, Qo‘rg‘ontepa bekligidagi (Tojikiston), Do‘rmanpech va Gishtmazor qishloqlarida ham yashaganlar. Do‘rmonlarning bir qismi Sheroboddaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Xojigi qishlog‘ida istiqomat qiladi.

1924-yilda Hisorda 5579 ta, Xorazmda, hozirgi Urganch viloyatida 1700 ta do‘rmon qayd etilgan. Do‘rmonlar shuningdek Zarafshon va Toshkent vohalarining turli aholi punktlarida ham tarqoq holda yashagan. Masalan, hozirgi vaqtda Toshkent viloyati Qibray tumani hududida Do‘rmon qishlog‘i, Do‘rmon bog‘i kabi etnotoponimlar mavjud.

Do‘rmonlarning moddiy madaniyati, xo‘jaligi va etnografik xususiyatlari bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borgan N.G.Boroznaning qiyosiy tahliliga ko‘ra, do‘rmonlarning genonimlari ham boshqa o‘zbek urug‘lari kabi qozoq va qirg‘iz genonimlariga o‘xshashdir [4]. Bundan xulosa qilish mumkinki, O‘rta Osiyo hududida do‘rmonlar qozoqlar, qirg‘izlar va turkmanlar orasida ham bo‘lib, bu xalqlarning shakllanishida u yoki bu darajada ishtirok etgan. Ularning shevasida "j" tovushi qo‘llanilishi bilan qipchoq lahjasiga tegishli[5].

Qang‘li – eng qadimiy etnik guruhlardan biri bo‘lib, o‘zbeklar, qoraqalpoq va qozoq xalqlari tarkibiga kiradi. Tarixchilar “Qang’li” nomini qabila yoki qabila birlashmasi nomidan shakllangan deb hisoblaydilar[6]

Mo‘g‘ullar bosqiniga qadar, XI asr o‘rtalarida qipchoqlar bilan ittifoqqa kirgan qang’lilar Irtish mintaqasidagi dashtlarda, Sirdaryoning quyi oqimidan Dneprgacha bo‘lgan hududda yashaganlar. Mo‘g‘ullar bosqini oqibatida qang‘lilar shimolga, Janubiy Ural mintaqasiga ko‘chishi va boshqirdlar bilan assimilyatsiya bo‘lishiga olib keldi. Sirdaryo qirg‘oqlari, Talas va Chu vohalarida yashagan qang‘lilar Xorazm vohasining o‘troq aholisiga aylandi[7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Q.Sh.Shaniyazov, O‘zbek xalqining shakllanish jarayonlari. Toshkent, 2001. 8-12-betlar
2. Q.Sh.Shaniyazov, O‘zbek xalqining etnik tarixi. Toshkent: Fan, 1974.- 342-bet.
3. Qo’chqorHakimov. Jizzax viloyati toponimlari. Jizzax. 2014. 40-bet
4. Языки мира [Текст].- Бишкек: Кыргызстан, 1997. Т.2: Тюркские языки.- 543 с

5. Борозна, Н.Г. Некоторые черты традиционной свадебной обрядности узбеков-дурменов южных районов Таджикистана и Узбекистана / Н.Г.Борозна // Сов. этнография.- 1970.- №2.- С.80-86.

6. Шевяков А.И. Этнический состав населения Нуратинских гор и прилегающих районов (Материалы полевых исследований 1989-1998 гг.) // Восток. М., 2002. – С. 76-78.

7. Абуль, Гази. Родословное древо тюрков [Текст] / Абуль Гази (хивинский хан); пер. и предисл. Г.С.Саблукова, послесл. и примеч. Н.Ф.Катанова.- Казань, 1906.- 336 с.

UO'K 903

QASHQADARYO QO'NG'IROTLARINING QADIMDAN QOLGAN QADRIYATLARI

N.Umbarova, director, TATU Qarshi filiali Akademik litseyi, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu malolani yozishda mavjud yozma manbalar, tarixiy-etnografik adabiyotlar asosida Qashqadaryo viloyatida yashovchi qo'ng'irotlarning moddiy va nomoddiy madaniyati, ijtimoiy ahvoli, etnik tarixiga oid materiallar keltirilgan. Shuningdek o'zbek xalqiga xos urf-odatlar va xo'jalik faoliyatiga daxldor ma'lumotlar aks etgan.*

Kalit so'zlar: *Qo'ng'irot, o'tov, chorvachilik, voxtamg'ali, oytamg'ali, shishak, shirvoz, xurjun, urug', orqa yurt, etnik tarix, urug'lar o'rtasidagi munosabatlar*

Аннотация*. Данная статья основана на имеющихся письменных источниках, исторической и этнографической литературе, материальной и нематериальной культуре, социальном статусе, этнической истории колоколов, проживающих в Кашкадарьинской области. Он также содержит информацию о традициях и хозяйственной деятельности узбекского народа.*

Ключевые слова: *кунгират, утов, скот, вохтамгали, ойтамгали, ширвоз, хурджун, семя, глубинка, этническая история, родство между племенами.*

Abstract*. This article is based on the available written sources, historical and ethnographic literature, material and intangible culture, social status, ethnic history of the bells living in Kashkadarya region. It also contains information about the traditions and economic activities of the Uzbek people.*

Key words*: kungirat, utov, cattle, vokhtamgali, oytamgali, shirvoz, khurjun, seed, hinterland, ethnic history, kinship between tribes.*

Jahon miqyosida xalqlarning kelib chiqishi masalasi qadimdan kishilik jamiyatida juda ko'p marotaba qiziqishga sababchi bo'lgan. Bizning mamlakatimizda ham o'zbek nomining kelib chiqishi bahs munozaralarga sababchi bo'lgan. Qadimdan yurtimizda yashab kelgan turli xil etnoslarining yashab aralashuvi natijasida o'zini erkin his etgani uchun "o'zbek" deb atalgan. O'zbeklarning esa turli davrlarda shakllangan 92 urug'i mavjud. O'zbek urug'lari orasida esa qo'ng'irot urug'i juda katta salmoqqa ega.

O'zbekistonning turli viloyatlarida urug' vakillari tashkil etadi. Har bir hududda yashovchi qo'ngirotlar turli shart-sharoit, yashash tarzi, urf-odati, iqlim xususiyati jihatidan boshqa hududda yashovchi urug'doshlaridan farq qilarli jihatlari mavjud. Qashqadaryoda yashovchi qo'ng'rotlar vohaga xos "etnografik makon" bo'lib, aynan bu yerda turli madaniyatlar, xo'jalik turmush tarzlari, xilma- xil etnoslar va etnografik guruhlarga xos milliy ananalarning uyg'unlashuvini kuzatish mumkin. Ayni maskur uyg'unlik o'zbek xalqi tarkibidagi qo'ng'irotlarga xos xususiyatlar: soddalik, mehmondo'stlik, jasurlik, bag'rikenglik, so'z va ish birligi, fe'l -atvoridagi o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, jo'shqin musiqa va raqsga bo'lgan qiziqish mintaqa qo'ng'irotlariga xosdir. Qolaversa, qo'ng'irotlarda asrlar davomida shakllanib kelgan an'analar asliga yaqin holatda yetib kelganligi xalq og'zaki ijodi namunalarida o'z aksini topgan. Mahalliy dostonchilik maktablari va baxshichilik an'analari o'ziga xos maktabga ega. Bayram va tuy tadbirlari esa kurash va ko'pkari kabi xalq o'yinlari ham qo'ng'irotlarga keng tarqalgan.

Qo'ng'irotlar haqidagi dastlabki malumotlar XIII asrga borib uchraydi. Mug'ul xoni O'qtoy o'z buyruqlarining birida qo'ng'irotlarni eslab o'tgan. Urug' haqidagi keyingi malumotlarni esa 1247-1318-yillarda yashab o'tgan mashhur tarixchi Rashidduddin Fazlulloh ibn Imoduddavla al-Hamadoniyning "Jome ut-tavorix" asarida qo'ngirotlar dastlab Xitoy bilan Mo'g'uliston chegaralarida yashagan. Ushbu asarning yana bir qiymati shundaki, qo'ng'irotlar, balki boshqa o'zbek xalqi tarkibidagi barlos, kenagas, jaloir, sulduz, qiyot, qiyon, nirun kabi urug'larning etnik tarixi shu qadar chiqallashib ketgan va ular turkiy xalqqa mansubligi takidlanadi. [A1:11 b]

Qo'ng'irotlar mintaqadagi etnosiyosiy jarayonlarda muhim o'rin tutgan. Xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida yozilishicha Amir Temur ham dastlab qo'ng'irot sulolasi bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashga harakat qilgan. Chingizxonning ota tomonidan bo'lgan buvisini onasi Quvaqaroq qo'ng'irotlardan bo'lganligini buyuk davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi " asarida qayt etilgan. [A2: 78 b]

Umuman olganda qo'ng'irot urug'I haqidagi malumotlar undan keyingi davrlarda juda ko'plab uchraydi. Shayboniyxon tomonidan XVI asr boshidan boshlab Dashti Qipchoq o'zbek urug'larining

Movoraunnahr tomon ko‘chishi natijasida ko‘plab qabilalar qatori qo‘ng‘irot urug‘i ham bu o‘lkaga kela boshlagan. Bu haqidagi ma’lumotlar Muhammad Solihning “Shayboniynoma ”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnomai Shohiy”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Abulg‘ozi Bahodurxonning “Shajarai turk” asarlarida qayt etilgan.

Qo‘ng‘irot urug‘i o‘zbeklardan tashqari qoraqalpoq va qozoq xalqlarida ham mavjud bo‘lib, bu xalqlarning Markaziy Osiyoda bir biriga qo‘shni istiqomat qilganliklari uchun uchratishimiz mumkin. O‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i yurtimizning katta hududlarida istiqomat qiliob kelmoqda. So‘nggi davrda 92 bovli o‘zbek qavmi nomma-nom qayt etilgan to‘rtta qo‘lyozma borligi aniqlandi. Ularning katta qismi Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Qo‘ng‘irotlar o‘zbek qabilalarining barcha an’anaviy guruhlarida qayt etilgan. Shuni aytish kerakki, qo‘ng‘irot urug‘i uch xonlikda ham katta mavqega ega bo‘lgan. Ularning yashash tarzi urf odatlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Qo‘shni urug‘lar bilan yaqin munosabatda bo‘lgan. Abulg‘ozi Bahodirxon davrida davrida Xiva xonligida yashayotgan 32 ta qabilaviy guruhni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarini inobatga olib ularni 4 katta guruhga bo‘ladi: qiyot-qo‘ng‘irot, nukus-mang‘it, qang‘li -qipchoq, uyg‘ur- nayman. Bundan ko‘rinib turibdiki qo‘ng‘irotlar qiyot urug‘i bilan yaqin aloqada yashagan. Xiva xonligida hokimiyatni qo‘lga olgan qo‘ng‘irotlar asrlar davomida Amudaryo bo‘yida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan. Buxoro va Xiva xonliklari o‘rtasidagim kurash natijasida XVII-XIX asrlarda qo‘ng‘irot urug‘i bir- biridan uzoqlashib munosabatlarda uzilishlar sodir bo‘lgan. Xiva qo‘ng‘irot urug‘i amirlikning Sharqiy tog‘ va tog‘oldi hududlarida yashovchi voha qo‘ng‘irotlaridan farq qila boshlagan. Buxoro amirlari chorvador qo‘ng‘irotlarni Surxondaryo va Qashqadaryoning Sherobod va G‘uzor cho‘llaridagi bepoyon dashtlarni vasiqa tarzida inom etishgan.

Rus tatqiqotchilaridan biri N.A Mayev XIX asrda amirlik hududida keng dasht hududida qo‘ng‘irotlar istiqomat qilishini aytib o‘tgan. Buxoro amirligini harbiy maqsadlarda o‘rgangan D. Logofet Surxon vohasida yashagan o‘zbek urug‘lari genealogiyasi haqida qiziqarli malumotlarni yozib ketgan. [A3 13-14b] Buxoro amirligi davrida G‘uzor, Boysun, Sherobod, Kerki va Termiz bekliklari qo‘ng‘irot urug‘i yerlari hisoblangan, amir Muhammad Rahimbiy davrida bo‘ysunishni istamagan qabilalarni yashab turgan joyidan ko‘chirish siyosatini olib borgan natijada Qashqadaryo qo‘ng‘irotlari Qamashi, Dehqonobodning olis qishloqlari, Yakkabog‘, Shahrisabz va Qarshi tumanlariga borib joylashgan. Shohmurod amirligi davrida Denov va Uzun tumanlaridagi yuz urug‘iga qarshi kurashda qo‘ng‘irotlardan foydalanib o‘sha hududlarni qo‘ng‘irotlarga bergan. Rus istilosi davrida Amir Muzaffarning taslimchilik siyosati uning katta o‘g‘li Abdumalik to‘raning ruslarga qarshi kurashida qo‘ng‘irot oqsoqollaridan yordam so‘raydi, ammo, ularning qo‘shilmasligidan g‘azablangan Abdumalik to‘ra G‘uzordan Sherobod orqali Termiz yaqinigacha qo‘ng‘irot uylariga o‘t qo‘yishga buyruq beradi, natijada qo‘ng‘irotlar Bobotog‘ tomon qochadi. Shu ma’lumotlardan kelib chiqib Qashqadaryoda qo‘ng‘irot vakillari asrlar davomida shakllanib kelinganligini ko‘rishimiz mumkin.[A4 323 b]

Etnograf B. Karmisheva qo‘ng‘irotlar 5 ta katta urug‘dan iborat: vaxtamg‘ali, qo‘shtamg‘ali, qonjig‘ali, oyinni va tortuvlidan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Qo‘ng‘irot nomi kelib chiqishiga sabab “qo‘ng‘ir ot ” deb atalgan etnonimdan kelib chiqqan. Qo‘ng‘ir otli kishi katta ko‘pkarilarda qo‘ng‘ir ot (mallarang) bilan qatnashib nom qozongan. Uning nomi keyinchalik butun urug‘ga nisbatan ishlatila boshlagan. Qo‘ng‘irotlar orasida eng katta urug‘ vaxtamg‘ali bo‘lib, u 18 ta katta urug‘ga bo‘linadi: ochamayli, barmoqli, taroqli, chanchiqli, qozoyoqli, cho‘michli, qaychili, ishqili, qiyg‘oqli, jilontamg‘ali, bolg‘ali, qoraqo‘ng‘irot, bugajili, uyuvli xandaqli, irg‘oqli, tovoqli, aboqli, kesovlidan iborat.[A1 55 b]

Qo‘shtamg‘ali urug‘i 16 urug‘dan iborat: to‘lang‘it, tilovmat, kal, barmoq, sovribuzar, zombiri, kusa, o‘troqi, bandikuchuk, oqpichoq, cholbachcha, mavlish, qoraqalpoq, chalikadan iborat.

Qonjig‘ali urug‘i 14 urug‘dan iborat: ulus, cho‘llik, quyun, qoraursoq, maltaka, qo‘ldovli, qorabo‘y, do‘stna, to‘pqora, qurtug‘ay, nug‘ay, jilkillak, gala, qoraxonjig‘ali kabilardan iborat.

Oyinni urug‘i 12 ota urug‘idan iborat: qovqa, churan, beshbola, to‘por, qachay, qoraqalpoq, oytamg‘ali, kal, hojibachcha, turkman oyunli, oqtana oyinli, qora oyinli kabilardan iborat.

Tortuvli 6 ota urug‘dan iborat: tug‘us, mo‘nka, maydatovoq, cho‘noq, obodli, ura kabi urug‘lardan iborat.

XX asrning 50-yillarida Qarshi cho‘lini obod qilish natijasida Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, G‘uzor tumanlarida Nishon hududida Qo‘ng‘irot urug‘i vakillari deportatsiya qilingan. Natijada an’anaviy chorvachilik bo‘lgan qo‘ng‘irotlar dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlagan. Ko‘chirtirib keltirilgan aholi o‘zlarining “orqa yurt” tushunchasini sedan chiqarishgan, Nishon qo‘ng‘irotlari 3 ota urug‘idan yuqorisini bilmaydi, tog‘li qo‘ng‘irotlar esa 7 ota urug‘ini sanab berishadi. Ko‘chirtirilgan aholi vakillari majburiy tarzda o‘zlarini eski aqidalarini unutishgan va xardurilar (har joydan kelgan aholi) bilan qo‘shilib ketgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo qo‘ng‘irotlari Dehqonobod, Qamashi, G‘uzor, qisman Yakkabog‘, Qarshi, Nishon tumanlarida ko‘pchilikni tashkil qilishadi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan qadriyatlar qo‘ng‘irot urug‘I vakillari tomonidan avloddan avlodga munosib tarzda yetib kelgan. An’analarning o‘ziga xosligi to‘y, bayram, bazmlarda yaqqol seziladi. O‘troq aholiga mansub chorva boqishning qo‘ra yaylov usuli shakllangan bo‘lsa, yarim o‘tloq aholida yaylov tizimi ustun turgan. Chorvachilikning hadisini olgan qo‘ng‘irotlar asosan qo‘y-echki, qoramol hamda yilqichilk sohalarida juda katta tajribaga ega. Ular yaylov uchun qulay bo‘lgan G‘uzor, Dehqonobod tog‘larida va Nishon cho‘llarida umrguzonlik qilib kelmoqda, o‘z navbatida qo‘ng‘irotlar turmush tarzida yaylov chorvachiligi ucgun xarakterli bo‘lgan asosiy xususiyat, chorvani yil bo‘yi yaylovdagi o‘tlar bilan oziqlantirgan. Ularning chorvachilikdagi yutug‘i (qo‘ng‘irot-qo‘y) deb nomlangan qo‘y zotini yaratishgan. Shuni aytish kerakki, qo‘ng‘irotlar chorvachilik bilan shug‘ullanib, cho‘pon bo‘lishni eng mashaqqatli kasb deb hisoblaydi. Shu bois, Qashqadaryolik qo‘ng‘irotlar: (chorva asrash, molning tuyog‘idan qattiq ish. Uning barcha qiyinchiliklariga chidaydigan odam chorva qiladi.) deb ta’kidlaydi. Chorvachilikka xos bo‘lgan muhim xususiyat cho‘pon tayoq berish an’ana hisoblanadi. Tayoqni doimo cho‘ponlar chet joyda saqlashgan. Yaylovga chiqqanda tayog‘I doimo o‘zi bilan birga yurgan. Xalq orasida “cho‘ponning tayog‘idan, kelinning oyog‘idan ” degan gap yuradi.

Qo‘ng‘irolar o‘z tamg‘asini chorvasiga slogan. Chorvachilk an’anasiga ko‘ra qo‘y va echkilarning o‘ng qulog‘iga en (belgi), yilqi va qoramollarning orqa soniga tamg‘a bosilgan shu sabab nafaqat qo‘ng‘irotlarda urug‘ shahobchasi, balki chorvasi ham tamg‘asiga qarab farqlangan. Tamg‘alar borasida har bir urug‘ning tamg‘asi boshqasiga o‘xshamagan. Xususan, Qo‘ng‘irot qo‘shtamg‘alilarining tamg‘asi qo‘sh tamg‘a bo‘lsa, oytamg‘alilarning tamg‘asining ko‘rinishi oy shaklida bo‘lgan. Qo‘ychilikda qo‘ng‘irotlarga doir atamalar mavjud chunonchi, yangi tug‘ilgan qo‘y bolasi “qo‘zi” bir yoshga oshgani “shirvoz”, ikki yoshdan oshgani “shishak”, undan kattasi “chori” va “panji”, undan keyingisi “mangi” deb atalgan . Ularni yoshini aniqlashda tishlariga qarab aniqlashgan.[A1 89b]

Qo‘ng‘irotlar yaylovga borganda o‘tovda yashaydi. O‘tovning eshigi janubga qaragan bo‘ladi. O‘tovning ichida echki terisidan bo‘lgan po‘stak hamda jundan to‘qilgan kigizlar tushaladi. Buning sababi kigiz hamda po‘stak bor joyda ilonlar va hashoratlar yaqinlashmaydi. Qo‘ng‘irotlar hech qachon uyni ham o‘tovni ham qiblaga qaratib qurmaydi. Bunga sabab esa Qashqadaryoning g‘arbiy qismida shamollar kirib kelishi sabab qilib olingan. Uylarning eshigi doimo tog‘ga qaragan bo‘ladi. Xalq ichida gap yuradi “Tog‘day bo‘lib yursin “ degan ma’no anglatadi. Uy ichida dasturxon yoyganda uning ochiq qismini qiblaga qaratmaydi.

Qo‘ng‘irotlarga xos qadriyatlar bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Ulardan to‘y marosimlarga oid qadriyatlar juda qiziqarli. Misol uchun sovchilikka borayotgan paytda qizning yetti pushtini so‘rash eng birinchi masala hisoblanadi. To‘y o‘tkazish sanasi belgilash ham “Kun unglash” deb atalgan marosimga bog‘liq. Unda urug‘ oqsoqollari vakillaridan biri kuyovning uyi kelinning uyiga nisbatan kunchiqarda yoki kunbotar tomonga joylashganligiga qarab juft yoki toq kunni belgilaydi. Sovchilik marosimida o‘rtaga tushgan odam “bakovul” etib saylanadi va to‘yning asosiy tashkilotchilaridan biri hisoblanadi.

Qo‘ng‘iorotlar hunarmandchiligida o‘ziga xos qadriyatlar mavjud bo‘lib, ulardan: mato to‘qish, kashtado‘zlik, gilamchilik, zargarlik, temirchilk, zargarlik kabi turlari ma’lum va mashhur. Qo‘ng‘irotlar asosan uy hunarmandchiligini chorvachilik bilan qo‘shib olib borgan. O‘tov qurish va uni ichini bezashga e’tibor qaratishgan. Hunarmandchilikning rivojlanishida ayollarning o‘rni katta. Xususan, yoz faslida mahalliy usulda gilam to‘qishgan. An’anaga ko‘ra qizlarni turmushga berayotganda mahsus gilam- “qiz gilam” to‘qishgan. Gilam to‘qish kasbini uy sharoitida avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Qizlar yoshlikdan urchuq yigirish, o‘rmak to‘qish hunarini o‘zlashtirishi shart bo‘lgan. Uy hunarmandchiligida gilam, sholcha to‘qish, kigiz bosish, xalta, xurjun, uy-ro‘zg‘or buyumlari va qora uylar kabi buyumlarni tikishgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek xalqi ma’daniyati shakllanishida qo‘ng‘irot urug‘ida mavjud urf-odatlar avloddan-avlodga an’ana shaklida yetib kelishida o‘z hissalarini qo‘shishgan. O‘ziga xos chorvadorlik xususiyati boshqa qo‘shni urug‘lar bilan hamohang holda shaklantirgan. O‘z xalqi tarixini o‘chib ketmasligi uchun an’anaviy baxshichilikni avlodlarga yetkazib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Usmonov. M. O‘zbekiston qo‘ng‘irotlari etnik tarixi, xo‘jalik xususiyatlari va identiklik transfotmatsiyasi - T., 2020
2. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T., 1994
3. Кармишева. Б. Очерки этнической истории южнъх раёнов Таджикистана И Узбекистана – М., 1976.
4. Shoniyozov.K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni – T., 2001.

UO'K 93/94

XIVA MADRASALARIDA MUDARRISLAR FAOLIYATI

Yusupov H., mustaqil tadqiqotchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xiva madrasalaridagi mudarrislar va ularning faoliyati haqidagi ma'lumotlar aks etgan.*

Kalit so'zlar: *Mudarris, oxun, ulamo, voiz, imom, qozi, fiqh, madrasa, eski maktab.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о преподавателях Хивинских медресе и их деятельности.*

Ключевые слова: *мударрис, ахун, улемы, проповедник, имам, судья, фикх, медресе, старая школа.*

Abstract. *This article provides information about teachers in Khiva madrassas and their activities.*

Key words: *Mudarris, axun, ulama, preacher, imam, judge, fiqh, madrasa, old school.*

Mudarris (arab-dars beruvchi) – madrasa o'qituvchisi. Madrasalar o'qitiladigan muayyan fandan dars bergan. Hozir xorijiy Sharq mamlakatlari, shuningdek, O'zbekistondagi madrasa va diniy universitetlarda faqat diniy ilmlardan emas, dunyoviy fanlardan dars beruvchilar ham mudarris deb ataladi.

Urganch va Xiva madrasalarida islomiy va dunyoviy ilmlar sohasida Xorazmlik allomalardan tashqari Sharqning turli mamlakatlaridan kelgan mashhur ulamolar ham mudarrislik qilgan.

Urganch va Xiva madrasalarida ta'lim olgan xorazmlik allomalardan Muhammad ibn Ibrohim Abu Abdulloh as-Sinoiy, Muhammad al-Gurganjiy, Muhammad ibn Arslon Zahriddin al-Xorazmiy, Abu Muayyad al-Xorazmiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Xorazmiy va boshqalar keyinchalik Bag'dod, Damashq, Suriya, Iroq, Hijoz, Buxoro va Samarqand madrasalarida mashhur olimlardan tahsil olib o'z bilimlarini oshirganlar, ularning ko'plari shu o'lkalarda salohiyatli madrasalarda mudarrislik qilib, shogirdlar yetishtirishgan.

Xiva madrasalarida o'z davrining mashhur allomalaridan Muhammad Yusuf oxun, Salim oxun, Xudoybergan oxun, Muhammad Sharif oxun, Siddiq oxun, Muhammad Yoqubxo'ja oxun, Muhammad Rizo oxun, Otaniyoz oxun va boshqa ellarda mashhur bo'lgan olimlar mudarrislik qilishgan.

Javoharla'l Neruning bobosi ham Xiva madrasalarida ta'lim olgan. Maxtumqulining otasi Davlatmamad Ozodiy (1700-1760) Xiva madrasalaridan birida dars bergan.

Ma'rifatchilikda Xivadagi Arabmuhammadxon madrasasi mudarrisi **Muhammad Yusuf hoji Doiy** alohida ajralib turadi. U Xivada, Ichan qal'a mahallasida 1824-yilda tug'ilgan. Avval Xivadagi eski maktabda, so'ng Buxoroda Mir Arab madrasasida ta'lim oldi. O'zining bilimini mukammallashtirish hamda dunyo ko'rish uchun haj bahonasi bilan Makka, Madina, Jidda, Shom, umuman olganda, Arabiston mamlakatlari bo'ylab sayohatga chiqadi. U arab xalqlari turmushi, urf-odatlari, islom aqidalarini o'rganib, ona yurtiga qaytib kelgach, Xivaning katta 100 mullavachcha ta'lim oladigan Arab Muhammadxon madrasasiga mudarris etib tayinlanadi [1].

Doiy o'zining keskir, to'g'riso'zligi, haqiqatparvarligi bilan ajralib turardi. U hatto Feruzning xon bo'lishiga qaramasdan, uning ba'zi g'azallaridagi nuqsonni hech tap tortmay tanqid qilar, she'riyat qonun-qoidalari bo'yicha unga ta'lim berardi.

Doiyning fe'lini yaxshi bilgan Feruz o'zlari orasidagi mansab tafovutlariga e'tibor bermaslikka intilar va uni ustodi sifatida hurmat qilar edi. Doiy Xivadagi Jome masjidiga voiz qilib tayinlanadi. U bu yerga yig'ilgan musulmonlarga zamona, odamiylik, to'g'rilik, insof, adolat, qarz va farz to'g'risidagi Qur'oni sharifdagi oyatlardan, hadislardan ta'lim beradi.

Shoir Tabibiy Doiy to'g'risida shunday yozadi:

Erur Doiy ul voizi xushkalom
Ki, haq so'zni elga yeturgay mudom.
Bu ashhor kelmish aning fikrati
Ki ko'pdur nazar aylasang hikmati.

Tabibiy bergan ma'lumotlarga ko'ra, u zamonasining hassos shoiri, o'tkir so'z ustasi va yetuk xattoti bo'lgan:

Erur Doiy Oxundi neku xasol
Ki, va'z ila doim degusi maqol…
Gahikim qilur erdi fikri g'azal,
Bu ab'yot ila ko'rguzubdur masal.

Doiy Oxund sifatida Bolta devon – Nodim, Muhammad Yusuf devon –Chokar, Bobojon tarroh – Xodimlarni o'z tarbiyasiga olib, ularga fors-tojik tilidan, xat ilmidan ta'lim beradi. U shoir sifatida "Devoni Doiy"ni tuzdi. Bundan tashqari, shoir she'rlari boshqa qo'lyozma devon va bayozlarga kiritildi.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi Xorazm adabiy harakatchiligining yirik vakili Muhammad Yusuf Xoji – Doiy 1909-yilda Xivada 85 yoshida vafot etdi.

Xudoybergan oxund – Ojiz 1837-yilda tug'ilgan bo'lib, Nizomiddin Xotibning o'g'lidir. U yoshligida Urganch, keyinchalik Xivaning Sayid Sholikarboy madrasasida ta'lim olgach, ana shu madrasada imom va mudarrislik vazifasida ishda qoldirildi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, Muhammad Aminxon madrasasiga mudarris bo'ladi va Ojiz taxallusi bilan Feruzga payrov she'rlar yaratadi.

Ojiz – Xudoybergan Xivaqiy "Mishkot ul-masobih" asarining III-IV jildlarini, "Kanz ul-Ibod fi sharh il-avrod" ("Avrod tungi ibodat sharhi to'g'risida") degan kitoblarni o'zbek tiliga tarjima etgan.

Ojiz xushovoz xonanda va musiqashunos bo'lib, olti yarim Xorazm maqomini to'laligicha bilgan va mahorat bilan ijro etgan. Ojiz Feruz vafotidan keyin Xivaning qozikaloni vazifasida ishlab, adolat bilan ish yuritdi. U 1919-yilda 82 yoshida Xivada vafot etgan.

Muhammad Sharif oxund – Haqiriy qozi Muhammad Karimning o'g'li bo'lib, Olloqulixon madrasasida oxunlik qilgan. U eski maktab, so'ngra madrasa ta'limini olib, o'ta ilmli kishi bo'lib yetishadi. To'rtko'lda 10 yil qozilik vazifasida ishladi. Keyinchalik g'azal, muxammas, ruboiylar yozib, Feruz saroyidagi mushoiralarda faol ishtirok etgan. U Urganchda vafot etgan.

Yusufiy 1860-yilda Xivaning Ichan qal'asida Muhammadrizo qushbegi mahallasida Muhammad Amin Xalifa oilasida dunyoga kelgan. U madrasani tugallagandan so'ng, Feruz tomonidan imtihon qilingach, undagi bilim va oqilona fikr-mulohazalar tufayli Ko'hna Urganchga qozi vazifasiga ishga yuborildi. To'qqiz oydan so'ng Yusufiy Xivadagi To'ramurod to'ra madrasasiga mudarrislik vazifasiga ishga taklif etiladi. Ana shundan boshlab, u she'riyat bilan shug'ullanib, g'azal, ruboiy, muxammaslar yozib, saroydagi she'riy mubohasalarda aktiv ishtirok etadi. U "Devoni Yusufiy" nomli bir kitob tartib beradi. 1918-yilda 58 yoshida vafot etadi.

Ibodulla Xokiy Oxund Ibrohim oxun o'g'li Dishon qal'ada ruhoniy oilasida 1842-yilda dunyoga keladi. Otasining ta'sirida mudarris bo'lib yetishadi. "Ibodulla oxun o'zi past bo'yli, ko'sanamo soqolli, xush qiliqli odam edi. O'zi bilan so'zlashgan vaqtda, yana so'zlashsam deb orzu qilar edingiz, o'zi ilmli odam edi", deb yozadi Xodim o'zining "Xorazm navozandalari" nomli asarida. U Xokiy va Foniy taxalluslari bilan shehrlar yozadi. Feruz farmoyishiga muvofiq, arabiy, forsiy kitoblarni turkiyga tarjima qiladi. Ayniqsa, "Tarixi Komil"ning yettinchi jildini mahorat bilan tarjima etgan. U 1914-yilda, 72 yoshida Xivada vafot etadi.

Muhammad Yoqubxo'ja, taxallusi – Xolis, asli, hozirgi Yangiariq nohiyasiga qarashli Beshariq qishlog'ida tug'ildi. Ma'lumotni avval o'z qishlog'idagi eski maktabda, so'ngra Arabmuhammadxon madrasasida shoir va olim Doiydan oldi. U Xivada arab, fors-tojik tillarini yaxshi bilgan, kuchli tarjimon bo'lib yetishadi. Xolis juda xushtabiat, xushmuomalali, xalqqa mehr-shafqatli, agar bir parcha non topsa, yetim-yesirlarga berib, ularning xolidan xabardor bo'lib turadigan saxiy inson bo'lgan. Feruz taklifiga binoan saroyga chaqirtirilib, allomayi zamon Bayoniy va Mirzolar qatorida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lib, Laffasiy ta'biri bilan aytganda, "Bu kishi Xiva xonligining xizmatlarida kitobxonlig' vazifasida ishlab, turli arabiy va forsiy tarix kitoblarini tarjima qilib, forsiy va arabiy lisonidan chiqarub, turkiy lisoni birla joma kiyguzib, ziynatlik tahrirlar qilur erdi". U xattotlik va tarjimonlikdan tashqari, she'riyat bilan shug'ullandi. U Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Munis, Bayoniy, Mirzo, Feruz g'azallariga taxmislar bitib, badiiy yetuk she'rlar yozdi. Mazkur she'rlarda zamonadan nolish, turmushdagi illatlar, dunyoviy sevgi, insonga yaxshilik qilish kabi muhim fazilatlar tarannum etiladi.

Muhammad Yoqubxo'ja 1907-yilda "Tarixi farishta" asarining bir qismini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qiladi. Bungacha u 1903-yilda zamonasining yetuk tarjimonlari Muhammad Sharif Mahdum va Rafe' Oxundlar bilan hamkorlikda Al Mahsudiyning "Muravvijuzzixob va maodinul-javohir" (Oltin va javohirlar koni) asarini arab tilidan o'zbek tiliga o'girib, katta tajriba orttirgan edi. Muhammad Yoqubxo'ja Xorazmiy Muhammad Tohir Eshonning "Tazkirai ul-avliyo" asarini 1912-yilda tarjima qilib, bu asarda o'z unvonini "domulla Muhammad Yoqub beshariqlik" deb ko'rsatgan edi.

Muhammad Yoqubxo'ja 1916-yilda Abdurahmonxonning tarixga oid mashhur asari "Tarjimoni tarixi Abdurahmonxon" asarini xushxatlik bilan ko'chirdi.

U xorazmlik mashhur olim Tohir Muhammad ibn Muhammad Toyibi Xorazmiyning "Silsilayi xo'jagoni naqshbandiya" ("Naqshbandiya xo'jalarining silsilasi") nomli asarini 1909-yilda o'zbek tiliga tarjima etdi. Bu asarda naqshbandiya tariqatidagi 32 ta shayx to'g'risida ma'lumot berilgan edi. Xolis ko'chirgan "Shohnoma" Sharqshunoslik ilmgohida saqlanmoqda.

Shunday qilib, Muhammad Yoqub oxund XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazmda yetishib chiqqan mohir xattot, yetuk tarjimon va nozikta'b shoir sifatida qadrlanishga loyiqdir. U Xivada vafot etdi.

Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziy 1844-yilda Xorazm viloyatining hozirgi Shovot tumanidagi Bo'yrachi qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Xo'janiyoz Boboniyoz o'g'li o'z davrining teran fikr, ilmga e'tiqodli, adabiyot va san'atga ixlosmand kishisi bo'lgan. Shuning uchun ham u o'g'lining ilm olishi, yaxshi

tarbiya ko‘rib voyaga yetishi uchun jiddiy uringan. Otaniyoz ham otasining umid va ishonchlarini to‘la oqlaydigan darajada layoqat sohibi bo‘lgan. Boshlang‘ich ta’limni o‘z qishlog‘ida olgach, u Xivaga kelib, Arabxon madrasasida tahsil ko‘radi, diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallab, ma’rifat ahli orasida e’tibor topadi. Otaniyoz Xivada 18 yil yashab, badiiy ijod va ilm bilan shug‘ullanadi, oxunlik maqomiga erishadi, so‘ngra Buxoroga kelib, yetuk ulamolar, fiqh ilmi bilimdonlaridan ta’lim oladi. Uning bu xususdagi nufuz va obro‘si el orasida keng tarqalgan bo‘lib, shulardan biri keksalar tilidan yozib olingan: “Buxoroyi sharifda tahsil ko‘rib qaytgan Otaniyoz oxun ilmda benazirligi bilan nom chiqaradi. Xorazmlik boylardan biri o‘g‘lini Buxoroda o‘qitish niyatida Otaniyoz oxun tahsil ko‘rgan mudarris huzuriga olib boradi va maqsadini izhor qiladi. Shunda mudarris: “Ilm izlab uzoq yo‘l bosib, o‘g‘lingizni Buxoroga keltiribsiz. Bizdagi ilmning barchasini Otaniyoz qora degan yigit (oxunning laqabi) Xorazmga olib ketdi. Daryo Xorazmga qarab oqdi. Farzandingiz undan bahrayob bo‘lsin”, degan ekan. Shuningdek, Otaniyoz oxun arab va fors tillarini o‘rganib, riyoziyot, nujum, san’at va boshqa fanlardan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. Bobojon Tarroh ham bu fikrni ta’kidlab yozishicha, “U eski maktabni to‘liq bitkazib, madrasa ta’limini ham to‘liq olg‘on. Soz ilmiga qiziqib, Polvon Mirzaboshining olti maqomiga yarim maqom qo‘shishda Mirzoga yordamlashg‘on” [2].

Xivada madrasada tahsil olish yillari Otaniyoz uchun chinakamiga o‘qib-o‘rganish, ilm va bir necha sharq tillarini qunt bilan egallash davri bo‘lgan. Laffasiy “Tazkirayi shuaro” sida bu xususda mulohaza yuritib deydi: “Otaniyoz otasining rizoligi birlan Xivaga kelib, ilm tahsili uchun madrasada istiqomatlar qilib, onchalig‘ riyozatlar ko‘rib, o‘zining qobiliyatliligi orqasida bir necha muddatlar mehnatlar ko‘rib, xatmi kitob qiladur. Ammo Niyoziykim Otaniyoz qora mulaqqablig‘ bo‘lub, ondag‘ xushxat, xushxon bo‘ladurki, zamon Arastu Aflotunlari Niyoziyning qalam raxshin chobukvorliq bilan, varaqlar sahifayi sahrosida xushraftorlik bilan surishiga musallam qilib, angushtlarin hayrat dandonlari bilan tishlab, alhazar qilur edilar” [3].

Darhaqiqat, Niyoziy faqat ilmi bilan emas, xushxatligi bilan ham tez dovrug‘ taratadi. Bundan xabar topgan Muhammad Rahimxon uni o‘z saroyiga chorlaydi va unga o‘z devonxonasining birinchi kotibligi vazifasini topshiradi. Shu bilan barobar Niyoziyni Abdullaxon madrasasiga mudarris etib ham tayinlaydi. U mansabdor va mudarris bo‘lishiga qaramasdan, o‘zining oddiyligi, kamtarligi, ayniqsa, xalq bilan, muomala-munosabatidagi tabiiylikni sira boy bermagan edi. Bobojon Tarroh aytmoqchi, “O‘rta bo‘yli, soqoli moshguruch, xushbichim, dono” bu odamning “xalq bilan armoyishi” va ilm ahli bilan aloqasi hamisha yaxshi bo‘lgan [4].

Xullas, Xivadagi Arabmuhammadxon, Muhammad Aminxon, Sherg‘ozixon va boshqa madrasalarda zamonasining yetuk oxundlari Ollaquli oxund, Muhammad Yoqub oxund, Muhammad Sharif oxund, Muhammad Yusuf oxund, Muhammad Rizo oxun kabi zamonasining yetuk olimlari yoshlarga ta’lim-tarbiya berib, maorif va madaniyat ravnaqiga samarali hissa qo‘shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Rahim D., Matrasul Sh. Feruz shoh va shoir qismati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991, 91-b.
2. Bobojon Tarroh Azizov-Xodim. Xorazm navozandalari. –T: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994, 65-b.
3. Laffasiy. Tazkirayi shuaro. –Urganch: Xorazm, 1992, 103-104-betlar.
4. Abdurasulov A. Xiva (Tarixiy-etnografik ocherklar). – Toshkent: O‘zbekiston, 1997, 44-b.
5. Xudoyberganov K. Xiva xonlari shajarasi. – Xiva: Xorazm, 1996, 36-b.

УЎК:392.51.(512.133)

ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИНИНГ ОИЛА – НИКОҲ МУНОСАБАТЛАРИ ТАРИХИДАН

(Фарғона водийси материаллари асосида)

У.Абдуллаев, проф., т.ф.д., Андижон машинсозлик институти, Андижон

Аннотация. *Ушбу мақолада Фарғона водийсига оид тўпланган этнографик материалллар асосида, Ўрта Осиё халқларининг оила-никоҳ муносабатлари тарихи ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *Оила, никоҳ,фотиҳа тўй, эндогам, эгзагам, левират, сороратқалин, Наливкин, Антипина К.И.*

Аннотация. *В данной статье описывается история семейно-брачных отношений народов Средней Азии на основе собранных этнографических материалов Ферганской долины.*

Ключевые слова: *Семья, брак, благословение венчания, эндогама, эгзагам, левират, сорорат, махр (плата за невесту) Наливкин, Антипина К.И.*

Abstract. *This article describes the history of family and marriage relations of the peoples of Central Asia based on the collected ethnographic materials of the Ferghana Valley.*

Key words: *Family, marriage, wedding blessing, endogam, egzagam, levirate, sororatt, mahr (bride fee), Nalivkin, Antipina K.I.*

Маълумки, урф-одат ва маросимлар маиший турмуш ва оила ҳаёти билан боғланган ижтимоий ҳодисадир. У жамият тараққиётининг илк даврлариданоқ шаклланиб, ривожланиб келган. Кишилар ўз ҳаётлари давомида кўплаб урф-одат ва маросимларда иштирок этишга тортиладилар, бевосита унинг қатнашчисига айланадилар.

Инсоннинг ҳаёт йўли билан боғлиқ ҳолда бажариладиган маросимларнинг аксариятини оилавий урф-одат ва маросимлар ташкил қилади. Шу кунга қадар оила масалалари билан шуғулланган тадқиқотчилар ўзбек, тожик, қирғиз, туркман, қорақалпоқ, уйғур ва бошқа шу каби маҳаллий халқларнинг оила-никоҳ муносабатларида ва у билан боғлиқ урф-одат, маросимларида ўтган асрнинг бошларига қадар матерарлакал ва патриарлакал тартибларнинг қолдиқлари сақланиб қолганлигини тасдиқлайдилар. Узоқ ўтмишга хос бўлган бундай жиҳатларни оиланинг тузилишидан тортиб оилавий урф-одат маросимларида кузатиш мумкин бўлади.

XIX аср бошларида Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқларида оиланинг асосан икки шакли мавжуд бўлиб, булардан биринчиси, "катта патриархал оилалар" иккинчиси эса, "кичик" ёки "оддий оилалар" номи билан илмий адабиётларда юритилади.

Юқорида кўрсатиб ўтилган оила шакллари жумладан "катта патриархал оилалар" фарғоналиклар учун ҳам хос бўлган. Эр-хотин Наливкинлар бундай типдаги оилаларни ўзбек бойларида кўпроқ учрашишини таъкидлаганлар(1). Тадқиқотчи М.А.Бикжанова ҳам катта оила ҳақида тўхталиб, водийнинг шимолий қисмида жойлашган чекка қишлоқлардаги бундай оилаларда оила аъзоларининг сони 60-70, ҳатто 100 нафаргача етишини айтиб ўтади (2). Шунингдек, этнографлар О.А.Сухарева ва М.А.Бикжановалар Фарғона материаллари асосида бундай катта оилаларни бўлиниб кетиш жараёнини кузатар эканлар, оқибатда нафақат кичик оилалар, балки ўтиш даври учун хос бўлган алоҳида турдаги - икки никоҳланган авлоддангина (ота-она билан ўғил-келинлар ва уларнинг фарзандлардангина) иборат оилалар вужудга келишини ҳам кўрсатадилар. Муаллифлар бу турдаги оилаларни "бўлинмаган оила" деб номлайдилар. Уларнинг фикрича бундай оилалар XIX аср охири - XX аср бошлари учун характерли бўлган (3).

Шуни ҳам айтиб ўтиш ўринлики оиланинг ушбу ҳар уч шакли аҳолининг хўжалик йўналиши ва турмуш тарзидан қатъий назар барча этник жамоаларда учрайди. Бу ҳақида Антипина К.И., Абрамзон С.М., Шониёзов К., Толстова Л.С., Василева Г.П., Задыхина К.Л., Жданко Т.А., Потапов Л.П., Бекмуродова А.Т., эр-хотин Наливкинлар, Кисляков Н.А. ва Ишонқулов Х.Г. каби тадқиқотчиларнинг асарларидан етарлича маълумотлар олиш мумкин.

XIX-XX аср бошларида фарғоналикларда учрайдиган барча бундай патриархал катта оилаларда ҳам Ўрта Осиё ва Қозоғистоннинг бошқа ҳудудларида бўлгани каби оилавий муносабатлар патриархал тартиблар асосига қурилган эди. Катта патриархал оилаларда оила бошлиғи-ота афторитар мавқеига эга бўлиб, оила билан боғлиқ барча масалаларни ҳал қилишда у асосий роль ўйнаган. Шу жумладан, оила-никоҳ муносабатларда ва оилавий урф-одат, маросимларни бажариш ва ташкиллаштиришда ҳам оила бошлиғининг мавқеи асосий аҳамият касб қилган.

Ўрганилаётган даврда Ўрта Осиё ва Қозоғистоннинг барча халқларидаги каби водийликларда ҳам никоҳнинг бир неча тарихий шакллари сақланиб қолган эди. Хусусан, "эндогам" (яқин қариндош уруғлар ўртасидаги ички никоҳ),, "эгзагам" (ўзга уруғ-элатлар (бегоналар) билан бўладиган ташқи никоҳ), "левират" (бева қолган ака ёки уканинг хотинига уйланиш), "сорорат" (хотини вафот этган йигит унинг синглисига уйланиш) каби никоҳ шакллари шулар жумласидандир.

Шуни айтиб ўтиш ўринлики "эгзогам" никоҳга нисбатан халқлар орасидаги муносабат ҳар хил бўлган. Бир қатор этник жамоаларда (хусусан ўзбек, тожик ва уйғурларда) бундай никоҳ маъқулланса, бошқа халқларда (чунончи, қозоқ ва қирғизларда) "эгазагам" никоҳлар тақиқланган. "Эгзагам" никоҳларга қўйилган тақиқ ҳам турлича бўлган. Агар қозоқ ва туркманларда ҳам ота, ҳам она томон қариндошларидан бирига никоҳланиш тақиқланса, қирғизларда, жумладан фарғоналик қирғизларда она томон қариндошларидан бирига уйланиш мумкин бўлган. Бироқ вақт ўтиши билан «эгзагам» никоҳлардаги чеклаш ўз кучини йўқота борган. Масалан, қирғизларда ота томон қариндошларидан бирига уйланиш учун одатда етти авлод ўтган бўлиши шарт ҳисобланган. Лекин, XIX асрнинг 80 йилларига келиб уч ва хатто икки авлоддан кейин ҳам никоҳланиш мумкин ҳисобланган (4).

Никоҳдаги бундай чекланиш этник муҳит таъсирида ҳам ўзгарган. Маълумки, қорақалпоқларда ҳам "эгазагам" никоҳ қатъий ҳисобланган (5). Л.С.Толстова фарғоналик қорақалпоқларда XIX асрда бу чекланиш барҳам топганлигини таъкидлайди. Фикримизча, бунга сабаб биринчидан, водийлик қорақалпоқларни бошқа ҳудуддаги қорақалпоқлар билан алоқаси

йўқолган бўлса, иккинчидан, ўзбек халқи урф-одатларининг таъсирида бундай чекланиш йўқолиб борган(6).

Бундай ҳолатни қирғизларда ҳам кузатиш мумкин. XIX аср охири XX аср бошларида ўзбек ва тожиклар таъсири остида ўтроқлашган қирғизлар орасида ҳатто икки авлод доирасида ҳам ўзаро никоҳланиш ҳоллари кўпайган(7).

Таъкидлаб ўтганимиздек "левират" никоҳ шаклида бева қолган аёлга эрининг акаси ёки укаси уйланиш одати бўлган. Бу одат Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқларида кенг учрайди(8). Ўрганилаётган даврда "левират" никоҳ шаклини қолдиқлари Фарғона водийси ҳудудида яшаб турган халқларда ҳам кузатилади. Чунончи, бу одатни Жанубий қирғизларда, водийлик қипчоқларда туркларда, фарғоналик қорақалпоқларда ва бошқа яримўтроқ (яримкўчманчи) аҳолида учратиш мумкин бўлган.

Фарғона қорақалпоқларида эри вафот этган келин унинг ака-укаларидан бирига, марҳумнинг ака-укаси бўлмаса, яқин қариндошлари бирига никоҳланган. Бу ҳолатда "жесеремезди башқаға бермаймиз" (яъни "бевамизни ўзгага никоҳламаймиз") тартибига амал қилинган. Фарғона водийси қорақалпоқларни ўрганган Л.С.Толстованинг ёзишича, баъзан бева аёлни ёш болага никоҳлаб қўйиш ҳоллари ҳам учраб турган(9).

Бева қолган аёлни эрнинг яқинларига қайта никоҳланишдан кўзланган асосий мақсад, бу иқтисодий масала бўлиб, қалин, маҳр ва ниҳоят болалар тақдири билан боғлиқ бўлган. Эри вафот этган аёл ўзи учун тўланган қалинни бир қисми қайтариши керак ҳисобланган. Бунга имкон бўлмаган бева "левират" удумига амал қилган. Патриархал оила тартиблари билан боғлиқ ҳолда бева аёлни оиладан кетиб қолиши мақсадга мувоффиқ ҳисобланмаган.

Эр-хотин Наливкинлар ўз ишларида кўчманчи халқларда бева аёлнинг аҳволи ҳақида тўхталиб, "у марҳумнинг ака-укаларидан бирига турмушга чиқиши шарт бўлган" деб ёзадилар. Ўтроқ, ўзбек ва тожик аёли аксинча яримкўчманчи халқларнинг аёлига нисбатан бу ҳолатдан эркинроқ эканликларини ҳам таъкидлайдилар: Эри вафот этгач қалин қайтариш мажбурияти аёлда барҳам топади. Бева эркин бўлиб қолади. Фақат, одоб юзасидан бир-икки йилга қадар турмуш қурмайди. Бева сорт аёли шароитга қараб бу давр ичида эридан қолган уйда болалари билан яшаб турган ёки бошқа жойга кўчиб ўтган(10). Бундан кўринадики, водийнинг ўтроқ аҳолисида "левират" удумига риоя қилиш қатъий бўлмаган ёки XIX асрдаёқ бу одат барҳам топиб борган.

"Сорорат" одати яъни унаштириб қуйилгандан ёки никоҳлангандан кейин вафот этган келин ўрнига синглисини никоҳлаш одати Ўрта Осиё, хусусан фарғоналиклар орасида ҳам учраган. Биз кўриб чиқаётган даврда бу одат ўтроқ аҳолида деярли кузатилмайди.

Бундан ташқари, ўтмишда ўзбек, тожик, қирғиз, қозоқ, туркман, қорақалпоқ ва бошқа этник жамоаларда никоҳнинг ўзига хос яна бир шакли-"чақалоқлар никоҳи" ҳам кенг тарқалган эди. Бу удумга кўра чақалоқ ҳали дунёга келмасдан аввал ёки бешиклигидаёқ икки оила қудалашганлар. Ҳали туғилмаган фарзандларни унаштирган оилалар ўзаро "белқуда" ҳисобланган. Бу удум фарғоналик қорақалпоқларда "аклой қуда тусу" деб юритилган. Кўп ҳолларда фарзандлар чақалоқлигида ёки болалик даврларида ҳам унаштирилган. Бу одат туркий тилли халқларда "бешик кетти" деб аталган. Тоғлик тожикларда эса "гоҳваро бахши" номи билан маълум бўлган. Воҳа тожикларида бу одатга нисбатан ҳар икки атама ҳам тенг қўлланилган.

XIX аср охири XX аср бошларида никоҳланиш учун келиннинг ота-онасига қалин тўлаш одати ҳам сақланиб қолган эди. Ўзбек, тожик, қирғиз, қозоқ, туркман, уйғур, қорақалпоқ ва бошқа маҳаллий этник жамоаларда қалин моҳият жиҳатидан бир хил умумийлик касб қилади. Фақат, этноснинг хўжалигини йўналиши, унинг турмуш тарзи, ижтимоий-иқтисодий мавқеидан келиб чиқиб ҳамда турли тарихий-этнографик ҳудудларда қалин тўлаш ўзига хос ва локал хусусиятлари билан фарқланади. Қалин тўлашдаги бундай ўзига хослик унинг миқдори, тури, вақти ва бошқаларда акс этади. Айниқса, қалин тўлашнинг ўзига хос томонлари ва фарқланиши икки хил хўжалик шаклига эга бўлган, ўтроқ-деҳқон ва яримкўчманчи ҳамда яримўтроқ чорвадор-деҳқон жамоалари ўртасида аниқ намоён бўлади. Шуни ҳам айтиш керакки, XIX-XX аср бошларида никоҳнинг бу ибтидоий шакли турли этник жамоалардан турли хил даражада сақланиб қолган эди. Айрим халқларнинг оила-никоҳ муносабатларида у барқарор бўлса, бошқаларида номиналь характер касб қилади. Шу кунга қадар тадқиқотчилар томонидан қалиннинг ижтимоий-иқтисодий асослари, унинг пайдо бўлиши ва ривожланиш тарихи, турли хил даврлардаги кўриниши ва миқдори ҳамда бошқа шу каби жиҳатлари ҳақида бир қанча фикр-мулоҳазалар билидирилган(11).

Фарғона водийси аҳолиси учун ҳам тўла маънода тааллуқли бўлган ушбу фикр-мулоҳазалардан қуйидаги тушунчаларни умумлаштириш мумкин:

а) *Қалин* никоҳ тузилишининг асосий шарт сифатида патриархал муносабатлар шароитида ривожланган. У тараққий этган мулкчилик муносабатлари замирида мавжуд бўлиб, аёллар пул ва мулкка тенглаштирилади ва алмаштирилади;

б) *Қалин масаласи* ўзининг дастлабки тараққиёт босқичларида умумжамоага (уруғ, қабилага) тегишли бўлган. Яъни уни тўлаш ва қабул қилишда уруғ ёки қабиланинг барча аъзолари иштирок қилганлар. «Куёвнинг қариндош уруғлари моддий ёрдам кўрсатиб қалин тўлаш учун бир неча бор йиғилганлар» деб ёзган эди, бу ҳақида И.Д. Старинкевич(12). Қалинни кейинги трансформацион жараёнида эса бу масала оила ва яқин қариндошлар доирасидагина хал қилинадиган бўлди.

в) *Қалиннинг таркиби* этнос хўжалигининг шакли яъни унинг қандай маҳсулот ишлаб чиқараётганлигига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлган. Чорвадор халқлар томонидан қалин учун тўлов чорва билан, деҳқончилик ва ҳунармандчилик билан шуғулланаётган аҳолида эса асосан пул ва бошқа деҳқончилик маҳсулотлари билан тўланган.

Эр-хотин Наливкинлар XIX асрнинг 80 йилларида Фарғона водийсининг шаҳар жойларида қалин асосан пул билан, қишлоқ жойларида эса чорва ва буғдой билан тўланганлигини ёзадилар(13). Бу маълумотлардан фарғоналик яримкўчманчи (яримўтроқ) қирғиз, қипчоқ, қурама, турк, қорақалпоқ ва юзларда қалинни асосан ўзлари етиштираётган чорва билан, деҳқонлар буғдой, пул билан, ҳунарманд ва савдогар шаҳар аҳолиси эса пул билан тўланганликларини билиб олиш унчалик қийин эмас.

г) *Қалиннинг миқдори* ҳам шарт-шароитларга боғлиқ бўлган. Хусусан, XIX-XX аср бошларида чорвадор халқлардан унинг ҳажми ўтроқ аҳолига нисбатан кўп бўлган. Жумладан, фарғоналик қирғиз, қипчоқ, турк, қорақалпоқ, қурама каби этник жамоалар водийлик ўтроқ аҳолига нисбатан кўпроқ қалин тўлаганлар. Ҳар бир этник жамоада қалиннинг ҳажми қудалашаётган оилаларнинг иқтисодий-ижтимоий мавқеига қараб дифференциялашган. Бадавлат, аслзодалар хонадонида қалин миқдори юқори бўлса, қудалашаётган камбағал оилаларда камроқ ҳажмдаги қалин асосида ҳам никоҳлар тузилган. Албатта, қалиннинг ҳажми келиннинг шахсий сифатларига ҳам боғлиқ бўлган. Эр-хотин Наливкинлар Фарғона водийси ўтроқ аҳолиси ҳақида гапириб ота-онаси ўта камбағал бўлган хонадоннинг қизи ёки етим қиз 12-15 руб. миқдордаги қалинга ҳам турмушга узатилганлигини, айни вақтда бой савдогарларда қалин миқдори бир неча рублни ташкил қилишини айтиб ўтадилар(14).

д) *Қалиннинг яшовчанлиги* ҳам турли этник жамоаларда ва турли тарихий-этнографик ҳудудларда турлича бўлган. XIX аср охири - XX асрнинг бошларида Фарғона водийсидаги иқтисодий ўзгаришлар, хусусан яйлов ва ўтлоқларни деҳқончилик учун жадал суръатларда ўзлаштирилиши оқибатида чорва молларининг сони камайиб борганлигини олдинги саҳифаларда айтиб ўтган эдик. Бу ҳол яримкўчманчи ҳамда яримўтроқ қирғиз, қипчоқ, қурама, турк, юз каби этник жамоалар орасида батамом ўтроқликка ва деҳқончилик билан шуғулланишига ўтишини тезлаштирганлиги ҳақида ҳам тўхталганмиз.

Мавжуд иқтисодий-ижтимоий шароит ва ўтроқ аҳоли таъсири остида фарғоналик қирғиз, қипчоқ, қурама, турк, минг, юз каби этник жамоаларда қалинга муносабат, унинг таркиби ва миқдори ўзгариб борган. Энди мазкур этнослар келин учун қалинни нафақат чорва билан балки пул ва деҳқончилик маҳсулотлари билан ҳам тўлайдиган бўлдилар. Унинг миқдори ҳам аста-секин камайиб борган.

Умуман, аҳоли орасида натурал хўжаликни инқирози, пул-товар муносабатларини ривожланиб бориши патриархал муносабатларни емирилишига, патриархал катта оилаларни бўлиниб кетишига ва қолаверса оила-никоҳ муносабатларида бир қатор жиддий ўзгаришларни юз беришига олиб келди. Бундай шароитда қалин ҳам моҳият жиҳатидан ўзгарди. Бироқ, чуқур тарихий илдизга ва ҳали батамом барҳам топмаган натурал хўжалик юритиш усулларининг қолдиқларига асосланган ҳолда қалин водий аҳолиси орасида XX асрнинг биринчи ярмига қадар ҳам сақланиб қолди. Айни вақтда водий аҳолиси ўртасидаги қалин кўп жиҳатлари билан (яъни миқдори, таркиби ва ҳатто шартлик даражаси билан) бошқа минтақалардагидан жиддий фарқ қилар эди. Ушбу ўзига хос жиҳатлари ҳақида қисман тўхталиб ҳам ўтдик.

Келин учун қалин тўлаш шарти ва унинг миқдорининг катталиги аҳоли орасида бир неча хил қадимий, ўзига хос удумларни яшовчанлигини таъминлади. Булар ичида "қаллиқ ўйин" ва "қиз олиб қочиш" одатлари алоҳида эътиборга моликдир.

"Қаллиқ ўйин" удуми Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқларининг кўпчилигида учрайди. Айниқса XIX-XX аср бошларида қадимий бу одатнинг илдизлари қирғиз, қозоқ, қорақалпоқ, яримкўчманчи ва яримўтроқ ўзбекларда, туркманларда ҳамда бир гуруҳ тожикларда сақланиб қолган эди. Қирғизларда-''кюйёёлёё'' ёки "кюйёёлёё боруу", қозоқларда "жасирин бору", "урин келю" ёки "қалыдиқ оунау", қорақалпоқларда "куйеулеу" ёки "куйеулеп журу", яримкўчманчи ўзбекларда

“қаллиқ”, ёки “қаллиқ ўйин”, тоғлиқ тожикларда эса “кинголбози”, “ниспотози” каби атамалар билан номланувчи ушбу одат мазмун жиҳатдан барча этник жамоаларда бир хилдир(15).

XIX-асрнинг 70-йилларида Зарафшон воҳаси яримўтроқ ўзбекларида мавжуд бўлган, бундай удум ҳақида А.Д.Гребенкин шундай ёзади “... “Пата тўй” ва қаллиннинг бир қисми тўлангандан кейин куёв келин билан тез-тез никоҳ муносабатларига киришади, келиннинг ота-онаси эса буни гўёки сезмаётгандек қилиб ўзларини кўрсатадилар”(16). Аслида эса ҳатто икки ёшни учршувлари учун маълум шарт-шароитлар ҳам яратилган. Одатда бундай учрашувларнинг ташаббускори куёв-келиннинг аммаси ёки холаси бўлган. “Қаллиқ ўйин” удумидаги бу хусусият барча этник жамоалар учун ҳам хосдир.

Ушбу одат Фарғона водийси қишлоқ аҳолисининг айрим гуруҳларида ҳам мавжуд бўлганлиги ҳақида тадқиқотчилар гувоҳ берадилар. Хусусан, К.Ш.Шониёзов Фарғона қипчоқларида, С.М.Абрамзон Жанубий қирғизларда, Л.С.Толстова водийлик қорақалпоқлардаги бу удум ҳақида ўз ишларидан маълумот келтирганлар(17).

Айни чоғда эр-хотин Наливкинлар ушбу удум шаҳар аҳолиси орасида бўлмаганлигини айтиб ўтадилар. Н.А.Кисляков ҳам “Фарғонанинг ўтроқ аҳолиси орасида бу одат мавжуд эмас эди”, деб ёзади. Унинг фикрича, ўтроқ ўзбек ва тожикларда қалин миқдорини камлиги ҳамда потиҳа тўй билан тўй орасидаги даврни қисқалиги “қаллиқ ўйин” удумига эҳтиёж қолдирмаган(18). Бироқ, баъзи бир яримўтроқ аҳоли билан қўшни яшаган ўтроқ аҳоли қишлоқларидан қандайдир кўринишда бу одат сақланиб қолганлигини тасдиқлаб турувчи маълумотларни ҳам учратиш мумкин. Масалан, этнограф М.Д.Савуров Фарғона вилояти Ўзбекистон туманидаги айрим ўтроқ ўзбек қишлоқларида бу одат XX аср бошларида мавжуд бўлганлигини дала материалларини йиғиш даврида қайд қилган эди(19). Балки, бу яримўтроқ аҳоли урф-одатларнинг таъсиридир. Лекин шу нарсани ҳам назардан қочирмаслик керак-ки, биз тўхталиб ўтаётган ушбу қадимий удум қачонлардир ўтроқ аҳоли турмуш тарзида ҳам мавжуд бўлганлигига шубҳа қилмаса бўлади. Чунки “қаллиқ ўйин” удуми ҳам ҳеч шубҳасиз ўз тарихий илдизи билан матерархал муносабатлар ҳукмрон бўлган жамиятга бориб тақалади. Маълумки, бу даврда аёл киши учун “тўлов” тартиби мавжуд бўлмай, уруғлар орасида бўлган никоҳда эр киши аёл уруғига кўчиб ўтган. Яъни никоҳ матерарлакал ҳарактер касб этган. Фақат оила-никоҳ муносабатларининг кейинги тараққиёти давомидагина қалинга асосланган никоҳ пайдо бўлди.

“Қаллиқ ўйин” моҳияти жиҳатидан икки ёшни эр-хотинлик муносабатларини бошланганлигидан далолат беради. Шониёзов К. таъкидлашича, ўзбекларнинг қарлуқ қабиласида келин куёв билан бунай учрашувлардан сўнг хомиладор бўлмаса, аҳоли орасида қораланган(20). Фарғоналик қорақалпоқлар “куйеулеп журу” даврида туғилган болани “онг жақта туш” яъни “ўнг томонда туғилган бола” деб атаганлар. Қалин тўла тўланиб келин куёвникига кўчиб ўтганда чақалоқ ҳам бешиги билан ота хонадонига олиб келинган(21). Хуллас, қадимий тарихга эга ушбу удумнинг қолдиқлари XX аср бошларидан эътиборан халқ турмуш тарзидан йўқолиб борди.

Қалин билан боғлиқ холда пайдо бўлган одатлардан яна бири бу “қиз олиб қочиш” одатидир. Бу одат ўтмишда асосан чорвадор кўчманчи халқларда учрайди. Фарғона водийси аҳолиси орасида бу одатни кўпроқ қирғизларда учратиш мумкин бўлган. XX аср бошларида ва ундан олдинги даврларда ҳам бу одатни халқ орасида оммалашиб кетган одат деб бўлмайди. Негаки қиз олиб қочиш ўтмишда бир қатор салбий оқибатларга, хусусан турли уруғ-қабилалар ўртасида душманлик кайфиятини пайдо бўлишига ва ҳатто ўзаро тўқнашувлар бўлишига олиб келган. Шу сабаб, фавқулотда ҳоллардагина (яъни қалин тўлаш қийинлашган, қизнинг ота-онаси бўлғуси никоҳга қарши бўлгандагина) қиз розилиги билан бу удум амалга оширилган. Қизни олиб қочиш йўли билан уйланиш удуми водийнинг ўтроқ аҳолиси учун хос эмас. Бироқ, айрим тадқиқотчилар қирғизлар овулларига қўшни жойлашган ёки ўзбек-қирғиз аралаш яшайдиган қишлоқларда бу одатни ўзбеклар орасида ҳам учратиш мумкин бўлганлигини айтадилар(22). Ўтроқ ўзбек ва тожикларда бу удумни айрим ҳолларда учрашини фавқулотда ҳодиса деб баҳолаш керак. Негаки бу одатни ўтроқ аҳоли орасида тарқалишига аввало ҳеч қандай ижтимоий-иқтисодий асос йўқ, қолаверса ислом дини чуқур илдиз отган водийнинг ўтроқ аҳолисида қиз олиб қочиш қаттиқ қораланган. Эҳтимол, алоҳида ҳолларда ўзбек-қирғиз аралаш оилаларда бу удумга риоя қилингандир.

Хуллас, юқорида келтириб ўтилган маълумотлардан кўриниб турибдики, XX аср бошларига қадар Ўрта Осиё ва Қозоғистон, жумладан фарғоналикларнинг оилавий турмушида материархат ва патериархат жамоасига хос кўплаб қадимий тартибларнинг қолдиқлари сақланиб қолган эди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Наливкин В, Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганской долины. Казан 1886. С. 214.

2. Бикжанова М.А. Семья в калхозах Узбекистана.-Ташкент, 1959. С.23-24.

3. Сухарева О.А, Бикжанова М.А. Прошлое и настоящее селенея Айкыран. Ташкент. 1955 г., С. 155, 173-177.

4. Гроденков Н.И. Киргизи и каракиргизи Сирдарьинской области.-Ташкент, 1889. Т. I. С. 27-28.
5. Жданко Т.А. Каракалпаки Хорезмского оазиса // ТХАЭЭ. Т. I.-Москва, 1952.
6. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины.-Нукус 1959 г; Ўша муаллиф. Материалы по этнографии ферганских каракалпаков // КСИЭ.-Москва, Т.21. С.25.
7. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Жалақудуқ тумани Қонди қишлоғи. 1999 йил; Жуманазаров Э. Қирғиз ва ўзбекларнинг никоҳ удумлари тарихидан (XIX аср охири-XX аср) // Ўзбекистон тарихи.-1999.-№3. Б. 51.
8. Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари турмуш тарзидаги "ливерат" ва "сорорат" никоҳ шакллари ҳақида батафсил қаранг: Кисляков Н.Л. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана- Ленинград, 1969. С. 90-94. Абрамзон С.М. О пережитках ранных форм брака у киргизов (К вопросу о генезисе института левирата и сорората) // История, археология и этнография Средней Азии.-Москва, 1968. С.282-291.
9. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины... С. 112.
10. Наливкин В, Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения… С.231.
11. Кисляков Н.А. Семья и брак у таджиков.-Москва, 1959. С.136-180. Ўша муаллиф. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана… С.65-85; Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связей. Ленинград 1971. С.233-238. Жумагулова А. Семья и брак у киргизов Чуйской долины.-Фрунзе, 1960. С. 34-36.
12. Старынкевич И.Д. Формы заключения брака у турецких племен Сибири и у кочевников Средней Азии // МАЭ.-Ленинград, 1930. Т.IX. С. 233.
13. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения... С. 202.
14. Наливкин В., Наливкина М. Очерки быта женщины оседлого туземного населения... С. 201-202.
15. Абрамзон С.М. Киргизи и их этногенетические и историко-культурные связи... С.226; Диваев А.А. О свадебном ритуале киргизов Сыр-Дарынсско области. Казань 1890. С.16; Гребенкин А. Узбеки-Руский Туркистан//СТР.-Москва 1972-Вып. II. С. 66. Потапов Л.П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков "Курнград"//Научная мқсль. Ташкент-Самарқанд. 1930.-№1. С.49; Шаниязов К. Узбеки-карлуки Ташкент 1964. С.145; Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины... С.119; Кисляков Н.А. Пережитки матерархата в брачных обрядах народов Средней Азии // КСИМК. Вып. 27.-Москва, 1957. С.22-24. Ўша муаллиф. Семья и брак у таджиков... С.84-87.
16. Гребенкин А. Узбеки-Руский Туркистан... С. 66.
17. К.Шаниязов К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компоента).-Ташкент. 1974. С.113; Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи... С.226; Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины... С.119.
18. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана… С. 65-85.
19. Савуров М.Д. Коротко об экспедициях // СЭ.-1987.- №3. С.139-140.
20. Шаниязов К. Узбеки-карлуки... С.145.
21. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины... С.119.
22. Жуманазаров Э. Қирғиз ва ўзбекларнинг никоҳ удумлари тарихидан... №3. 52-53-бетлар.

УЎК 94.575.1+314.74

МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ ХАЛҚАРО ВА МИЛЛИЙ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Г.Б.Азаматова, ассистент, Жиззах политехника институти, Жиззах

Аннотация. *Бугунги кунда меҳнат миграциясида хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш асосий масаладир. Чунки ҳақ-ҳуқуқларини билмаган хотин-қизлар меҳнат миграциясида турли қийинчиликларга дуч келмоқда. Шу сабаб мақолада халқаро ва миллий ҳимоя тизимини такомиллаштириш, меҳнат миграциясида хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва шароит яратиш масаласи ёритилган.*

Калит сўзлар: *глобаллашув, миграция, хотин-қизлар, чет эл, меҳнат миграцияси, ташқи миграция, хорижий фуқаролар, Конвенция.*

Аннотация. *Сегодня защита прав женщин в трудовой миграции является ключевым вопросом. Потому что женщины, не знающие своих прав, сталкиваются с различными трудностями в трудовой миграции. По этой причине в статье затрагиваются вопросы совершенствования международной и национальной системы защиты, защиты прав женщин в трудовой миграции, их всесторонней поддержки и создания условий.*

Ключевые слова: *глобализация, миграция, женщины, иностранцы, трудовая миграция, внешняя миграция, иностранные граждане, Конвенция.*

Abstract. *Today, the protection of women's rights in labor migration is a key issue.Because women who do not know their rights face various difficulties in labor migration.For this reason, the article addresses the issues of improving the international and national protection system, protection of women's rights in labor migration, their full support and creation of conditions.*

Key words: *globalization, migration, women, foreign, labor migration, external migration, foreign citizens, Convention.*

Ҳозирги глобаллашув жараёнида миграцияда хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга оид халқаро ҳамкорлик долзарб аҳамият касб этади. Айнан, Ўзбекистон Республикасида истиқлолнинг

дастлабки йилларида бозор иқтисодиётига ўтиш даври билан боғлиқ ижтимоий-иқтисодий муаммоларидан бири ҳам хотин-қизларнинг хорижий мамлакатларда меҳнат қилиши - нолегал миграциядан иборат эди. Хорижий мамлакатларга катта маош тўланадиган ишларга норасмий таклифларга ишонч билдириб, аксарият хотин-қизлар трафик (одам савдоси) қурбонларига айланди[1]. Халқаро ҳамжамиятда хотин-қизлар траффиги кенг тарқалаётган муаммолардан бўлиб, турли мамлакатлардан алдов йўли билан олиб кетилаётган хотин-қизларни катта даромад олиш мақсадида қулликка сотиш ишлари билан жиноий гуруҳлар шуғулланмоқда. Жиноятчи гуруҳлар аёл ва боладан энг жирканч мақсадларда фойдаланишни одат қилдилар[2].Хотин-қизлар бошқа мамлакатларга олиб кетилиб, хоҳлаган йўсинда ишлатилиши ёки хорижга пул топиш иштиёқида уй хизматчиси, официант, бўлиб чиқиб кетиб турли таъсирларга дуч келмоқда[3].Иш берувчиларнинг ёлланма меҳнаткаш мигрантларга ҳеч қандай кафиллик бермаслиги натижасида ўз ҳақ-ҳуқуқларини билмаган мигрант хотин – қизлар азият чекмоқдалар. Ушбу муаммонинг ҳал қилиниши керак бўлган муҳим ижтимоий аҳамиятидан келиб чиқиб, меҳнат миграциясини тартибга солиш хукумат томонидан эмиграция ва иммиграция ҳақидаги қонун ва қарорларни қабул қилиш билан амалга оширилмоқда. Бу борада қатор ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 12 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет эллардаги меҳнат фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори[4] га мувофиқ, меҳнат миграцияси жараёнларини тартибга солиш, Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет элда ва хорижий фуқароларнинг Ўзбекистон Республикасида ишга жойлашишини таъминлаш масалаларини ҳал этиш, Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ҳузуридаги Ташқи меҳнат миграцияси масалалари агентлиги ҳамда фуқароларнинг чет элларда ишга жойлашишини таъминлаш бўйича минтақавий бюролар зиммасига юкланган. Агентлик томонидан 2017 йил 6 ойида хусусий меҳнат шартномаси асосида Туркияда меҳнат фаолиятини амалга ошириш мақсадида 3 нафар, Хитой ва Малайзия давлатларида ишлаш учун 2 нафардан 4 нафар, ҳамда Озарбайжонда ишлаш учун 6 нафар, Германия, Швецария, Қозоғистон, Францияда 1 нафардан 4 нафар ва Бирлашган Араб Амирликларида ишлаш учун 4 нафар жами – 21 нафар Ўзбекистон Республикаси фуқароларига рухсатномалар берилди[5]. Ҳукуматнинг юқорида номи қайд этилган қарори доирасида фуқаролар, шунингдек, мазкур агентлик томонидан бериладиган рухсатномаларга асосан шахсий меҳнат шартномалари бўйича меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун чет элга чиқиш ҳуқуқига эгадир. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 15 майдаги "Меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун чет элларга кетаётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳисобга олишни такомиллаштириш тўғрисида"ги 97-сонли қарори[6] қабул қилинган. Ушбу қарорнинг 4-бандига асосан Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳар йили меҳнат мигрантлари билан чуқурлаштирилган социологик тадқиқотларни ўтказиб боради. Тадқиқот натижалари аёл мигрантларнинг йилдан йилга ортганлигини кўрсатади(1-жадвал).

Мигрантларнинг жинси бўйича маълумот, фоизда



	2012	2013	2016	2017
аёл	13,9	12,9	15,4	19,1
эркак	86,1	87,1	84,6	80,9

1-расм.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги "Бандлик соҳасида давлат сиёсатини янада такомиллаштириш ва меҳнат органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 5052-сонли фармони[7] ички ва ташқи миграцион жараёнларни тартибга солиш, аҳоли бандлигини таъминлаш, норасмий меҳнат миграцияси ва норасмий бандликнинг ўсиб кетмасилиги борасида олиб борилаётган чора-тадбирларнинг мантиқий давоми бўлди. 2018 йил 16 октябрь куни Ўзбекистон Республикасида норасмий равишда фуқароларни хорижга меҳнат қилишга жўнатиш билан машғул бўлган шахсларнинг фаолиятига,

ноқонуний меҳнат миграциясининг авж олишига, инсон ҳуқуқлари поймол этилишининг олдини олиш ва ташқи меҳнат миграциясини ташкил этиш борасидаги давлат монополиясини чеклаш мақсадида дастлабки даврда давлатнинг қаттиқ назорати, лицензиялаш тартибида хусусий ишга жойлаштириш бўйича рекрутинг хизматларини йўлга қўювчи “Хусусий бандлик агентликлари тўғрисида” ги ЎРҚ - 501-сон қонун[8] нинг қабул қилингани муҳим аҳамиятга эга бўлди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июлдаги “Ташқи меҳнат миграция тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 3839-сонли қарори[9] нинг қабул қилиниши ташқи меҳнат миграцияси жараёнларини тартибга солиш, хорижда меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун халқаро шартномалар тузиш, уларнинг республика ташқарисида иш жойларига хавфсиз тарзда етиб боришини таъминлаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш каби муҳим масалаларга эътибор қаратиш лозимлигини кўрсатмоқда[10]. 2018 йил ноябрь ойида мамлакатимизнинг Халқаро миграция ташкилотига 173 - аъзо бўлиб кириши Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари таъминлашга, ташқи меҳнат миграциясининг самарали тизимини йўлга қўйишга хизмат қилмоқда.

Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг 2018 йил 12 декабрда бўлиб ўтган ялпи мажлисида “Халқаро миграция ташкилоти Конституциясини ратификация қилиш тўғрисида”[11] ги Ўзбекистон Республикаси қонуни қабул қилинди. Халқаро миграция ташкилоти Конституциясида унинг фаолиятининг асосий тамойиллари, тузилиши ва ҳуқуқий соҳалари белгилаб берилган бўлиб, унда мигрантларнинг ташкилий ҳаракатланиши, миграцион хизматлар кўрсатишни таъминлаш (йиғим, танлов, миграцияга тайёрлаш, тил ўргатиш, мигрантларга ахборот бериш, тиббий кўрикдан ўтказиш ва бошқалар), мигрантлар ҳуқуқини самарали таъминлаш, халқаро давлат ва нодавлат ташкилотлар билан ҳамкорлик қилишда кўмаклашишнинг асосий мақсад-вазифалари кўрсатилган[12]. Халқаро миграция ташкилоти аъзо давлатлар билан ҳамкорлик доирасида “меҳнат миграцияси”, “миграцияни бошқариш ва салоҳиятни мустаҳкамлаш соҳаларида техник ҳамкорлик”, шунингдек, ватанга ихтиёрий қайтиш, одам савдосига қарши кураш йўналишлари бўйича дастурларни ҳам амалга оширади[13]. 2020 йил 5 ноябрь куни Ўзбекистон Республикаси ҳукумати билан Халқаро миграция ташкилоти ўртасида ҳамкорлик бўйича 6 та моддадан иборат Битим [14] имзоланди. Битим доирасида Халқаро миграция ташкилоти ўзининг бошқарувчи органларининг тегишли қарорлари ва Ҳукуматнинг рухсати ҳамда мавжуд молиявий имкониятлардан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистон Республикасида салоҳиятни ошириш, миграция масалалари буйича маслаҳат хизмати ва техник ҳамкорлик, миграция ва соғлиқни сақлаш, халқаро миграция ҳуқуқи, миграция ва атроф-муҳит, миграция ахбороти, одам савдосига қарши кураш, маҳаллий ва хорижий фуқаролар миграцияси, кўчирилган ва бошқа ёрдамга муҳтож шахсларга ёрдам кўрсатиш, малакали инсон ресурсларини қайтариш ва қайтариш билан боғлик бўлган дастурларни амалга оширади. Жаҳонда ҳар куни миллионлаб аёллар ўз бошидан қийноқ, зўравонлик, очлик, қашшоқлик, дискриминация, қуллик, эксплуатация каби ҳолатларни бошидан ўтказмоқда.“Ҳеч ким қийноққа солиниши, зўравонликка, шафқатсиз ёки инсон қадрқимматини камситувчи бошқа тарздаги тазйиққа дучор этилиши мумкин эмас”[15]. 2020 йилнинг 18 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида МДҲ Давлат раҳбарлари кенгашининг видеоанжуман[16] шаклида бўлиб ўтган саммитида давлат раҳбари Ш.Мирзиёев МДҲ ҳудудида ишловчи меҳнат мигрантларининг малакаси, касбий салоҳияти ва тиббий кўрикдан ўтганлиги бўйича ҳужжатларни ўзаро тан олишнинг давлатлараро ягона механизмини яратиш ҳамда меҳнат миграцияси бўйича ҳамкорлик Дастурини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш ташаббусини илгари сурди. МДҲ саммитида Ш. Мирзиёевнинг ташаббуси ташқи миграцияда банд бўлган (шу жумладан, қийин вазиятга тушиб қолган) одамларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқини ҳимоя қилиш, муносиб иш шароитини яратиш каби долзарб вазифаларни қамраб олди. Шу ўринда, МДҲ давлатлари ўртасида меҳнат миграцияси бўйича ҳамкорлик Дастурини ишлаб чиқишда давлатлар ўртасидаги меҳнат миграцияси масалаларининг ҳуқуқий асосларини белгиловчи халқаро ҳужжатлар қоидалар муҳим аҳамиятга эга бўлишини эътироф этиш лозим. Йилдан-йилга миграция муаммоларининг тобора кенгайиб бораётганлигини инобатга олиб ва ватанидан олисда ишлаётган мигрантлар манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси 1990 йил 18 декабрьда “Барча меҳнат муҳожирлари ва уларнинг оилалари ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида” ги халқаро конвенцияни қабул қилган[17]. Мазкур конвенция меҳнаткаш мигрантлар, уларнинг оила аъзоларининг қабул қилувчи мамлакат ҳудудида барча турдаги инсон ҳуқуқлар ва кафолатлардан фойдалана олиши, камситилмаслиги, турли шаклдаги мажбурий меҳнатга жалб қилинмаслиги, қийноқлардан ҳимояланиш каби муҳим қоидаларни белгилайди. Халқаро Меҳнат Ташкилотининг 1949 йилги Меҳнат миграцияси тўғрисидаги (қайта кўриб чиқилган) 97-сонли конвенцияси мигрант

меҳнаткашларга уларни иш билан таъминлашда ёрдам бериш, хусусан, уларни аниқ ахборотлар билан таъминлаш учун тегишли бепул хизмат кўрсатишга қаратилган қоидаларни ўз ичига олади[18]. Халқаро Меҳнат Ташкилотининг 1975 йилги Меҳнаткаш-мигрантлар тўғрисидаги (қўшимча қоидалар киритилган) 143-сонли конвенция уни ратификация қилган давлатдан ҳам ўзининг юрисдикцияси доирасида, ҳам бошқа давлатлар билан ҳамкорликда меҳнаткаш-мигрантларнинг яширин кўчиш ҳаракатларига ва мигрантларнинг ноқонуний ёлланилишига йўл қўймаслик учун барча зарурий чораларни кўришни талаб қилади[19]. Шунингдек, мазкур Конвенция иш кучи траффикининг ташаббускорлари, улар қайси давлатда ўз фаолиятини юритишидан қатъи назар, таъқиб қилинишини талаб қилади. Барча меҳнат мигрантлари учун ҳуқуқий кафолатларни белгиловчи фундаментал халқаро ҳужжатларнинг ратификация қилиниши ва давлатлар ўртасидаги муносабатларда самарали қўлланилиши келгусида мигрант хотин-қизларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва қабул қилувчи давлатларда улар учун белгиланган кафолатлардан фойдалана олишлари учун имкониятларни янада кенгайтирган бўларди.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикасида ташқи меҳнат миграциясини фаоллаштириш –меҳнат бозорида катта мутоносибликни таъминловчи соғломлашаётган иқтисодиёт шароитида табиий ҳолдир. Бугунги кунда ҳеч бир давлат иқтисодиётда жаҳон ҳамжамиятидан ажралган ҳолда юксак натижа ва ютуққа эриша олмайди. Миграция жараёнларида фаол иштирок этаётган хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишда халқаро ҳамкорлик муҳим аҳамият касб этади. Барча қабул қилинган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, энг аввало, мустаҳкам ва замонавий қонунчилик асосини яратиш, Ўзбекистон Республикаси фуқароларини, жумладан, хотин-қизларни мамлакат ичида ва хорижда меҳнат миграцияси тизимини, хусусан, хотин-қизлар иштирокида такомиллаштиришга қаратилган. Юқорида келтирилган ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларнинг қабул қилиниши ва улар ижросининг таъминланиши миграция соҳасидаги ҳамкорлик алоқаларининг ривожлантирилишига, меҳнат миграциясининг салбий оқибатларини камайтириб, унинг ижобий аҳамияти оширишига хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ғаниева Г.Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи:янгича ёндошув, муаммолар ва ечимлар (мустақиллик даври 1991 - 2005 й.).дисс.тарих фанлари номз. – Тошкент, 2006. – Б.125.
2. Маткаримова Г., А.Алимов. Одам савдоси: муаммо ва ечимлар.Т - 2017 й.3 б.
3. Табышалиева А. Отражение во времени. На изломе веков (заметки к истории положения женщин в Центральной Азии) / Институт открытое общество - Кыргизистан. — Бишкек, 1998. - С. 116.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 12 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет эллардаги меҳнат фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги 505-сон қарори//https://www.lex.uz/ru/docs/246880.
6. Tashqi migratsiya agentligining saytidagi hisoboti. 2018 yil 17 dekabr ma'lumot // http://www.migration.uz/uz/ analitika.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 15 майдаги "Меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун чет элларга кетаётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳисобга олишни такомиллаштириш тўғрисида"ги 97-сонли қарори//https://lex.uz/docs/1202812.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги "Бандлик соҳасида давлат сиёсатини янада такомиллаштириш ва меҳнат органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 5052-сонли Фармони// https://lex.uz/docs/3211749 .
7. Ўзбекистон Республикасининг "Хусусий бандлик агентликлари тўғрисида" ги Қонуни ЎРҚ - 501-сон қонуни//https://lex.uz/docs/3992869.
8. https://lex.uz/docs/3811317.
9. Кучаров Ш. Ташқи миграция - бугун ва эрта: таҳлил ва муносабат// https://review.uz/oz/post/povshaya-konkurentosposobnost-nashix-grajdan.
10. "Халқаро миграция ташкилоти конституциясини ратификация қилиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Халқ сўзи, № 268 (7196) 27/12/2018,15.
11. Muydinov D. Policy social review of the participation of the Republic of Uzbekistan in the international migration processes. Uzbekistan Journal of Oriental Studies: Vol. 1 : Iss. 2 , Article 8.
12. Ходжаева М. Мавлуда ХОДЖАЕВА: Халқаро миграция ташкилоти конституцияси ратификация қилинди: бу нимани англатади?// https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/24561/.
13. Ўзбекистон Республикаси ҳукумати билан Халқаро миграция ташкилоти ўртасида ҳамкорлик.//https://www.lex.uz/ru/docs/5137320
14. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.Т.: "Ўзбекистон".2019 .
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида МДҲ саммити бўлиб ўтди //Янги Ўзбекистон, 2020йил 19 декабрь, №247(247).
16. Инсон ҳуқуқлари: Парламент аъзолари учун қўлланма. Ўзбекча нашр масъул муҳаррири академик А. Саидов - Тошкент: Baktria press, 2019.- 52-б.
17. Migration for Employment Convention (Revised), 1949 (No. 97)// URL: https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100_INSTRUMENT_ID:312242:NO.
18. Migrant Workers (Supplementary Provisions) Convention, 1975 (No. 143)// URL:https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100_INSTRUMENT_ ID:312288:NO.

УЎК194.5(575.1)

БАХМАЛ ТУМАНИ ЎЗБЕК ВА ҚИРҒИЗЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИДА ИСЛОМГАЧА МАВЖУД ДИНИЙ УРФ-ОДАТЛАРНИНГ КЎРИНИШЛАРИ

Қ.Алманов, PhD, Гулистон давлат университети, Гулистон

Аннотация. *Ушбу мақолада муаллиф Жиззах воҳаси ҳудудидаги ўзбек ва қирғизларининг оилавий маросимлардаги урф одатлари, уларнинг ўрганилиши тарихи хусусида фикр мулоҳазаларини турли манбаларга асосланган холда ёритиб, баъзи хулосаларни бериб ўтган. Ушбу хулосаларга таяниб биз бу воха аҳолисининг маънавий ҳаёти тўғрисидаги муҳим маълумотларга эга бўлишимиз мумкин.*

Калит сўзлар: *Баҳмал, Чубар, Холтой, Қора, Ўдамали, Сарой, Қирққишлоқ, Қўштамғали, Галдуравут, Дувлат, Шайбек, "чилла кўйлак", "ит кўйлак"*

Аннотация. *В данной статье автор рассматривает традиции узбеков и киргизов в семейных обрядах в Джизакском оазисе, историю их изучения на основе различных источников и делает некоторые выводы. На основании этих выводов мы можем получить важную информацию о духовной жизни жителей этого оазиса.*

Ключевые слова: *Бахмал, Чубар, Холтой, Кара, Одамали, Сарай, Кирккишлак, Куштамгали, Галдуравут, Дувлат, Шайбек, «рубашка чилла», «рубашка собачья».*

Abstract. *In this article, the author discusses the traditions of Uzbeks and Kyrgyz in family ceremonies in the Jizzakh oasis, the history of their study, based on various sources and draws some conclusions. Based on these conclusions, we can gain important information about the spiritual life of the inhabitants of this oasis.*

Keywords: *Bahmal, Chubar, Kholtoy, Kara, Odamali, Saray, Kirkkishlak, Kushtamgali, Galduravut, Duvlat, Shaybek, "chilla shirt", "dog shirt".*

Долзарблиги. Инсоният маънавий маданияти тарихида дин чуқур из қолдирган ва алоҳида аҳамият касб этадиган ҳодиса ҳисобланади. Жамият ҳаётининг туб илдизларигача сингиб кетган бу жараён ўзига хос тадқиқотни талаб қилади. Ибтидоий динлар ва энг қадимги эътиқодлар жуда узоқ давом этган шаклланишни бошдан кечирган. Вақт ўтиши билан тараққиётнинг турли босқичларида ташқи таъсирлар ва ўзгаришларга учраган. Уструшона ҳудудига VIII асрдан бошлаб ислом кириб келган бўлсада, унгача мавжуд бўлган диний эътиқодлар изсиз йўқолиб кетмаган. Изланишлар шуни кўрсатадики, халқимизнинг урф-одат ва маросимларида исломгача мавжуд динларнинг кўринишлари сақланиб қолганлиги эътиборлидир. Чунки ислом дини эзгуликни тарғиб қиладиган, эзгу ният билан йўғрилган диний кўринишларни халқ турмушидан тўлиқ сиқиб чиқармаган. Улар маълум маънода исломлаштирилган ёки халқнинг урф-одат маросимларининг таркибий қисмига айланиб кетган. Бунинг сабаби бу эътиқодларнинг илдизлари жуда теран кетганлиги шу халқ яшаётган табиий муҳит, иқлим, турмуш тарзи, хўжалик фаолияти асосида вужудга келганлигидадир.

Методлар ва ўрганилганлик даражаси. Биз қуйида Бахмал тумани ўзбек ва қирғизларининг урф-одатлари ва маросимларида исломгача мавжуд динларнинг айрим кўринишлари то ҳозирги кунгача сақланиб қолганлигини баъзи мисолларда кўриб чиқишни лозим топдик. Бунинг учун Туркистон тизма тоғ ва Моргузар тоғлари орасида, Сангзор дарёси ўнг ва сўл тамонларида жойлашган, сўлим Бахмал туманининг Чубар, Холтой, Қора, Ўдамали, Сарой, Қирққишлоқ, Қўштамғали, Галдуравут каби асосан 92 бовли ўзбек уруғларининг қирқ, юз, сарой вакиллари яшайдиган қишлоқлари ва қирғиз уруғи вакиллари яшайдиган Дувлат ва Шайбек қишлоғидан тўпланган дала материалларидан фойдаланишга ҳаракат қилдик. Бундай оилавий маросимларни учга бўлиб ўрганишни мақсадга мувофиқ деб топдик:

1- бола туғилиши билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар;
2- тўй билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар;
3- дафн ва мотам маросимлари.

Кўчманчи туркий халқларнинг вакиллари бўлган ўзбек ва қирғиз халқида бола туғилиши оилада катта қувонч ҳисобланади. Бола туғилгандан кейинги қирқ кун чилла даври саналади.

Чилла катта ва кичик чиллага бўлинади. Ундан мақсад бола руҳи ва жисмининг соғломлигини таъминлаш, уни ёмон кўз, ёвуз руҳлардан асраш кўзда тутилган. Бунинг учун ҳар куни уйда исириқ (адрасмон) тутатишган. Бу тутатилаётган адрасмонга чақалоқни кўрган хар бир одам исириқ солиш одати бўлган *(исириқ солиш кийимидан маълум бир ипни олиб тутаётган исриққа солинган).* Шунингдек, болани тутаётган исириқ устида айлантириш одати ҳам бўлган. Бунда болага назар тушмаслиги, назарланмаслиги, кўз тегмаслиги каби, шомонистик ирим сиримлар

қилинган.*(муаллиф).* Болага чилла даврида кийдирилган кўйлак, чилладан чиққач кийдирилмаган *(сабаби чиллашир бўлиб қолади, ўсмайди деб ўйлашга*.[1] Чубар қишлоғида шуни кузатдикки, чақалоққа ёши улуғ қариянинг кийимидан тикилган кўйлак кийгизишган. Бу "чилла кўйлак" ёки "ит кўйлак" дейилган. Бундай одатни Дувлот қирғиз қишлоғида ҳам кузатдик. Яна шунга ўхшаш удум Самарқанд ўзбекларида ҳам борлигини Л.Ф.Моногорова ҳам қайд этади[2]. "Ит кўйлак" негизи қадимги тотемизм ва зардуштийлик динидаги ит ва бўрига бўлган муносабат асосида пайдо бўлган. Чунки қадимги туркий халқларда бу ҳайвонлар муқаддас саналган. Шунингдек, бу ҳудуддан археологик қазишларда ит дафн этилган остадонларнинг топилиши ҳам мазкур фикримизни тасдиқлайди[3]. Этнолог Т.Д.Баялиева қирғиз халқининг эътиқодий қарашлари билан боғлиқ тадқиқотида тотем итнинг калла суяги билан боғлиқ қизиқарли маълумотни келтиради. Қирғизларнинг қарашларига кўра, тотем ит табусига кўра, уни ўлдириш таъқиқланган, итга зарар етказган кишининг фарзанди рахит *(***итий** *яни қийшиқ (муаллиф)* бўлиб туғилган. Рахит болани "даволашда" иссиқ сувга итни калласини солиб, етти кун давомида эрталаб болага ўша сувдан сепишган, сўнгра итнинг калла суягини тоза оқ матога ўраб қабристонга ёки одам оёғи тушмайдиган холи жойга кўмганлар[4].

Ит тотеми билан боғлиқ удумларнинг Шарқ халқларидаги кўринишлари А.П Окладников, С.П. Толстов каби муаррихлар томонидан ўрганилган бўлиб[5], элшунос У.Алибековнинг фикрича, итнинг калла суяги билан боғлиқ удумлар анъаналари ўтмишда бўри калла суяги культи билан боғлиқ бўлган. Тадқиқотларимиз натижасида юқорида келтирилган фикрларга қўшилишимиз мумкин. Бахмал туманидаги ўзбек ва қирғиз уруғи вакиллари истиқомат қиладиган қишлоқларида юқоридаги ҳолатлар деярли бир биридан кескин фарқ қилмаган.

Чилла даврида она ва бола имкони борича бошқалар кўзидан узоқ, алоҳида тутишга ҳаракат қилинган. Бола бешикка беланганда ёстиғи остига нон, пичоқ, қайроқ тош, қалампир қўйилган. Бу болани ёвуз руҳлардан, турли инс-жинслардан асрайди деб ҳисоблашган. Ёш боланинг ёстиғи остига доимо пичоқ қўйишган. Чақалоқлар яхши ухламаса, уйқуси тинч бўлмаса уйқуси тинч кўп ухлайдиган одамларнинг кийимларидан бешик устига ёпиб қўйиш одати ҳам бўлган. Натижада чақалоқлар яхши ухлайди деб ишонилган. Бундай *шомонистик* одатлар ислом динининг таркибий қисми сифатида ишлатилиб келинади. Бундан ташқари, шомонизм билан боғлиқ бўлган ислом динининг таркибий қисмига айланиб кетган аждодлар руҳларга атаб янги туғилган чақалоқларни момолар уйқуга етакласин деган манода *оқ ва қизил* мато парчасидан олиб уни ёқишган ва тутагандан сўнг уни бешик атрофида тоқ сонда 3 марта айлантириб олишган.*(бизнингча 3 марта айлантириш улуғ тангри, аждодлар ва авлодларга ҳурмат маносида).* Шунингдек, чақалоқларнинг *қорин сочини* олиш маросими ҳам ўзбек ва қирғиз уруғи вакиллари оилаларида мавжуд бўлган, бунда уруғнинг ёши улуғ онахон ва момолар қорин сочни олишган ва қорин сочни олган ёши улуғ уруғ вакиласига олинган соч оғирлигидаги тилло бериш ёки сочни олган одамни рози қилиш чақолоқ отасиниг мажбурияти ҳисобланган. Бундан ташқари *Сачала,* деган маросим ҳам бўлган, чақолоқ бешикка солинган вақтда йиғилган уруғ вакиллари устидан ширинликлар сочилган. *(ширин ҳаёт кечирсин маносида муаллиф).* Шу билан бирга, воҳа ўзбек ва қирғизларида келинчаклар сўзаналарида тасвирланган пичоқ тасвири ҳам алоҳида маъно касб этган. Жаҳон халқлари этнографиясида нафақат ўткир қурол, балки металл ва алоҳида ҳолларда темир ёвуз ғайритабиий кучлардан асрайди деб тушунилган[6]. Боланинг қўлига ва бешикка кўзмунчоқ, тумор тақиб қўйилган.

Тадқиқот натижалари. Кўриб турганингиздек, бунинг негизида ибтидоий фетишизм динининг элементлари ётибди. Чилла даврида касофат, бахтсизлик содир бўлмаслиги учун она ва бола ёлғиз қолдирилмаган, хонада эса чироқ ёниб туриши керак бўлган. Бундай хона чиллахона дейилган. Чилла даврида боланинг ота-онаси шомдан кейин кўчага чиқишмаган, шом пайтидан сўнг уйга келган ҳар қандай одам бола ётган хонага киритилмаган. Шунингдек, хонадоннинг бошқа аъзолари ҳам гўдакка, унинг ота онасига кўринмаслиги ҳам керак бўлган. Бунда момолар дастлабки йигирма кунни кичик чилла, дастлабки қирқ кунни эса катта чилла деб атаган. Бу пайтда боланинг ювилган кийимлари қоронғуда қолдирилмаган. Ҳар куни номозшом чоғи исириқ тутатиш одати бўлган. Агар зарурат бўлиб она ва бола қоронғуда қолиб кетса боланинг қўйнига нон солиб қўйилган. Бош кийимига кўзмунчоқ тақилган. Бу билан болага қорунғуда инс-жинс илашса бу инс-жинслар нонни есин, болага тегмасин, кўзмунчоқни олсин, болага зиён етқазмасин деган ният бўлган[7]. Бундан шуни кўришимиз мумкинки бутун Ўзбекистон ҳудудида бола билан боғлиқ ирим- сиримлар ҳудудларда бир-бириникида жуда кескин фақ қилмаган бироз хилма хиллик кўзга ташланади. Бешик ичида 3 бурчак шаклда бўлган туморни ҳам илиб қўйишган *(тумор ичида ҳушбўй ўсимлик дони седана, кунжут бўлган)*, шунингдек қалампирмунчоқ ҳам бешикга илинган сабаби барча ёмон нарсаларни даф қилади деб ишонишган. Ҳалқимизда "аччиқни аччиқ кесади,

заҳарни заҳар кесади" деган гаплар бор. Бунинг замирида аччиқ нарсалар ёвузликни, ёмон назарларни кесади деб ишонишган. Бугунги кунда ҳам воҳа ва водий ҳалқлари аҳолиси ўзларининг уйларини кираверишқисмига кўзга кўринадиган жойига қалампир илиб қўйиш одати бор (*муаллиф*). Бахмал, Зомин ўзбек ва қирғизларида уруғнинг ёши катта азолари ёки чўпонлик касбини танлаган чорвадор ўз фарзандини эркалаб ёки чорвага меҳрли бўлиши учун уни руҳлантириб эсини танигунча, эркалаб, олқишлаб, қўллаб, исмининг ўрнида *"бўри",* "бўри боласи", "бўрибосар*" (итларга ҳам шундай исм қўйилган - муаллиф)* деб мурожаат қилишади. Шунингдек ўғил фарзандларга Бўрибой қиз фарзандларга эса Бўригул исмлари кўплаб қўйилган. Қадимий туркий қавмлардаги она бўрига, шунингдек, ота бўрига топиниш, келиб чиқишини боғлаш, аждод сифатида қараш билан боғлиқ афсоналар[8]бор. У. Алибеков бўри қадимги туркларда ҳосилдорлик, унибурчиш, серпуштлик ҳомийси бўлган деган қарашларни ўз тадқиқотларида келтириб ўтади[9]. Шунингдек, Марказий Осиё халқларида тоғларни улуғланиши замирида уларнинг аждодлари дастлаб тоғларда яшаганлиги, тоғу-тошлар ҳукмдори бўрининг фарзанди эканликлари билан ҳам изоҳланади.

Суннат тўйини кузатганимизда ҳам хатна амалини бажариш вақтида ёвуз руҳ ва ёмон кўздан сақлаш учун уларга қарши бола ёстиғи остига нон, пичоқ, қалампир қўйилган. Хатна маросими оиланинг яқинлари, ёру-биродарларидан иборат кичик даврада ҳамма меҳмонлар тарқалгандан кейин ўтказилган. Суннат тўйи туман қишлоқларида *Чупрон* тўйи хам деб аталган чупрон тўйи бўлаётган вақт ҳам уруғ ёши катта вакиллари белгилаб беришган бу жараён ҳам *(ер қотган вақтда чупрон қилинган)* алоҳида этибор бериладиган иш ҳисобланган. Бу ишни бажарадиган махсус усталар бўлган усталарнинг ишларига баҳо берадиган қишлоқ оқсоқолларидан иборат кузатув кенгаши фаолият юритган.

Бундан ташқари никоҳ тўйи маросимларида ҳам юқоридагига ўхшаш ҳолатларни кузатиш мумкин. Масалан, келиннинг сепи, кийим-кечак, кўрпа-тўшак ва бошқа буюмлар куёвникига олиб борилганда, ҳовлида ёқилган олов атрофида уч марта айлантирилиб, уйга олиб кирилади. Худди шунингдек, келин билан куёв ҳам олов атрофида уч марта айлантирилади. Олов оташрарастлик дини билан боғлиқ. "Олов ёвуз руҳларни ҳайдаши ҳақидаги тасаввурлар жуда кенг, Австралиядан то Баваријагача тарқалган удум ҳисобланади[10]. Олов зардуштийлик динида сиғиниш объекти бўлган бўлса, қадимги туркларда эса магик ҳаракатлар учун зарур нарса сифатида қаралган.

Шунингдек, қадимги турк ва мўғул қабилаларида ҳам оловнинг тозалаш хусусиятига ишонишган, XIII асрда рус князлари оловда тозаланишга мажбур қилинганлигини Л.Гумилев эслатиб ўтади.[11]

Ёки келинни никоҳдан кейин эртаси куни юз очди маросимидан олдин уйдан олиб чиқишади. Келин остонага, дарвозага эгилади, шундан сўнг ошхонага олиб кирилади ва ўчоққа эгилиб салом беради ёки бош уради, қўлини мойга теккизади, "ўчоқ ҳақи" деб ўчоққа мой ташлайди. Кўриб турганингиздек, ўчоққа нисбатан бундай ҳаракат яна оловга ҳурматни, оловхонани ёдга туширади.

Р.Раҳимовнинг тадқиқотларида, Шимолий Тожикистон Туркистон тизма тоғ олди тожикларида "эркаклар уйи" оловхоналарда мавжуд бўлганлигини айтиб ўтади[12]. Демак, бундан биз шуни англашимиз мумкинки, ҳудудда, исломдан олдин мавжуд бўлган зардуштийлик динининг урф-одатлари маросимлари кенг тарқалганлиги кўринади. Никоҳ тўйи билан боғлиқ *юз очар* ва *чимилдиқ йиғиш* одати ҳам бўлган, бунда *ёш ўсмир* оила ёки уруғ вакили тамонидан янги келиннинг юзи даги рўмоли очилган бўлса, ёши улуғ уруғ вакиллари ҳисобланган онаҳонлар тамонидан чимилдиқ йиғилган. Шундан сўнг янги келин шу ҳонадоннинг ҳақиқий азоси сифатида қабул қилинган *(муаллиф).* Юқорида кўриб ўтганимиз каби келин куёв ларни ҳам чиллага солиш одати бўлган. Катта ва кичик чилла деб номланади бу жараён катта чилла 40 кун, кичик чилла 20 кун тарзда жуфт кунлар ҳисобида олинган. Бу кунлар жуда эхтиётқорликни талаб этган уруғнинг ёши катта вакиллари тамонидан қатий назорат қилинган. Номозшом (яни шом номози вақтидан бошлаб) кўчага чиқмаслик, қоронғуда юрмаслик, каби одатлар бўлган.

Дафн маросими *(*тазия, савоби жаноза деб номланади - *муаллиф)* ўзининг қадимий кўринишларини сақлаб қолсада, асосан, ислом дини қоидаларига амал қилган ҳолда ўтказилади. Буларга марҳумнинг учи, пайшанбиси, қирқи, олти ойлиги, йили ва бошқа маросимлари мисол бўла олади. Қадимий диний тасаввурларга кўра уч кунда жон танни тарк этади, шунинг учун Бахмалда барлос уруғи вакиллари тасодифан вафот этганларни уч кунгача сақлашган. Қирқ кунда эса марҳум билан уйи орасидаги алоқа узилади деб ҳисоблашган[13].

Исломда аза уч кун ҳисобланади. Зардуштийликда эса бир йил мотам тутилади. Зардуштийликка кўра марҳумни кўрган кишилар (унга кўра тана ҳаром саналади) бир йил давомида тозаланиши керак. Бунинг учун бир йил муддат зарур, ана шу даврда улар бошқалардан ажралиб, изоляцияда бўлиши, бунинг учун алоҳида рангда кийим кийиши лозим. Туркистон тизма тоғ олди

ўзбекларида аза 9 ой, бир йил давом этди. Марҳумнинг яқинлари шу муддат давомида эркаклар кўк духоба дўппи, аёллар кўк матодан кўйлак кийиб юришади. Юқоридаги урф-одатлар генетик жиҳатдан зардуштийликка ва ундан олдинги ибтидоий динларга бориб тақалади. Шунингдек, (марҳум)майит билан видолашиш учун уруғнинг ёшу қари азолари майит ётган ҳонага кириб чиқишади ва ўзларининг яқинлари билан видолашишади. Яна бир одат борки бу қариндошлар жамоасининг белини маҳкам боғлаган ҳолда сафда туриб овоз чиқариб йиғлаб ўзларининг жигарлари билан видолашиш жараёнидир. Қадимги туркий ҳалқлар тарихини ўрганган Ғ. Бобоёровнинг маълумот беришича бу овоз чиқариб йиғлаш *(жанозага келаётган одамларни кўрганда овоз чиқариб бақириб йиғлайди муаллиф)* қадимий туркий ҳалқларга ҳос ҳислат ҳисобланади, жигаридан айрилмоқ жонидан айрилмоқ билан баробар бўлган. Майитни сувга олиш (ювиш) бошлангандан сўнг овоз чиқариб бақирилмаган. Бу ҳолатлар бугунги Бахмал тумани ўзбек ва қирғиз оилаларида сақланиб қолган.

Хулосалар. Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки бу ҳудуд аҳолиси ислом динига эътиқод қилса-да, уларнинг урф-одат ва маросимларида оташпарастлик, тангричилик, анимистик кўринишлар, магик ҳаракатлар, тотемизм, ғайритабиий кучларга ишониш ва бошқалар ўзини намоён қилади. Шунинг учун уларни бирмунча ўрганиш орқали халқимиз тарихи тўғрисида кўп бўлмаса-да материал бера олишга ҳаракат қилдик. Шунингдек, ўзбек ва қардош қирғиз халқининг урф одатлари бир бирига жуда ўхшаш ва деярли фарқ қилмаслигини юқорида номи зикр этилган қишлоқлар мисолида кўриб чиқдик. Тадқиқотимиз натижасида бу ҳудудда яшаётган уруғ вакиллари воҳа ва водий аҳолисиникига ўхшаш ёки ноўхшаш ўзига хос бой маданият яратганлигини кўрсатди, уларнинг илдизи, моҳиятини очиб бериш ҳар бир авлоднинг муқаддас бурчи саналади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Дала малумоти Бахмал тумани Чубар қишлоғида яшовчи Алманова Меҳринсодан ёзиб олинди 55 ёш.2021 йил

2.Моногорова Л. Семья и семейный быт. Этнографические очерки узбекского сельского населения. Москва.: Наука, 1969. –С 216.

3.Пардаев М.Х. Шимолий-Ғарбий Уструшона илк ўрта асрларда (Қуйи Сангзор воҳаси материаллари асосида).: Тарих фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Самарқанд, 1995. – Б. 138.

4.Баялиева Т.Д. Доисламские верования и их перижитки у киргизов. – Фрунзе: Илим, 1972. – Б. 19-20.

5.Окладников А.П. Истории Якутии. Том I. - Якутск, 1949. –С. 360-361; Толстов С.П. Пережитки тотемизма и дуальной организации у туркмен// ПИДО, 1935, №9-10. – С.3-35.

6.Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков хорезма. М.Изд.АН СССР, 1969. –С. 39-40.

7.Гулжахон Мардонова. Нур тўла уй. Т. "Фан" 2008, 29-31 б

8.Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. I том. М-Л Изд АНССР. 1950, с 215-220. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. Т. "Фан" 2007,28-29 б. Муртоз Ўроз. Турк асотирлари// Сирли олам. 1991, №6 11-6., Короглы Х. Огузский героический эпос. М. 1976. – С.38-39.

9.Алибеков У. Ўзбек халқи этномаданиятида бўрининг "калла суяги культи" хусусида // ГулДУ ахбаротномаси. – Гулистон, 2011. – Б. 36-39.

10.Штренберг Л.Я. Первобытная религия в свете этнографии. – Л., 1936. -С. 371-372.

11.Гумилев Л. Древние тюрки. - М.,1967. -С.85.

12.Рахимов Р. "Мужские дома" в традиционнной культуре таджиков. - Ленинград.:Наука, 1990.

13.Дала маълумотлари Бахмал тумани Холтой қишлоғи Эргаш Қиличбоев 72 ёш

УЎТ 94(575.1)

"ХИВА ХОНЛАРИ КЎРИНИШХОНА" СИДАГИ РАСМИЙ ҚАБУЛ МАРОСИМЛАР

Д.Э. Бегалиева, таянч докторант, ЎзФА Тарих институти, Тошкент

Аннотация. *Ушбу мақолада сўнгги ўрта асрларда Хива хонлиги давлат бошқарувидаги "арз" маросимининг сарой ва жойлардаги ташкилий масалаларнинг баъзи бир жиҳатлари ёритилган.*

Калит сўзлар: *Хива хонлиги, сарой, Кўриншихона, Арзхона, арздод маросими, ов, сайёр арздод маросими.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены некоторые аспекты организационных вопросов во дворцах и местах проведения «жалобной» церемонии в государственном управлении Хивинского ханства в период позднего средневековья.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, дворец, Куриншихона, Арзхона, церемония «жалобы», охота, выездная церемония «жалобы».*

Abstract. *This article describes some aspects of the organizational issues in the palaces and places of the "complaint" ceremony in the state administration of the Khiva khanate in the late middle ages.*

Keywords: *Khiva Khanate, palace, Kurinishkhona, Arzkhona, "complaints" ceremony, hunting, offsite "complaints" ceremony.*

Мазкур мақолада Ўзбек давлатчилигининг ажралмас бўғини ҳисобланган Хива хонлиги тарихида "арздод" деб аталган маросим, унинг сарой ва жойлардаги яъни ҳукмдорнинг турли сафарлари чоғида ўтказилган кўринишини, жумладан бу маросимнинг муҳим сиёсий тадбир сифатида хон ҳокимияти легитимлигини (қонунийлигини) таъминлаш ҳамда бошқарувдаги роли, тарихий воқеликни акс эттиришдаги аҳамияти масалаларини ёритиш мақсад қилиб қўйилган.

Давлатчилигимизнинг тарихий илдизлари шуни кўрсатадики, ҳукмдор томонидан халқнинг арзини тинглаш деярли ҳар бир даврда давлат аҳамиятига молик масала бўлиб келган. Бугунги кунда давлатимиз раҳбарининг тутаётган йўли ҳам айнан мана шу анъаналаримиз билан боғлиқ. 2017 йилнинг "Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили" жорий 2022 йилнинг "Инсон қадри ва маҳалла йили"деб эълон қилиниши бунга ёрқин мисолдир.

"Арздод" жараёни ташкилий жиҳатдан, "мурожаат этикети", яъни ўз арзини баён этишнинг муайян кетма-кетлиги ва расм-русумларини ўз ичига олувчи маросим ҳисобланса-да, лекин, бошқарувнинг жиддий ва таъсирчан воситаси ҳамда ижтимоий-сиёсий тизимнинг муҳим ҳаракатлантирувчиси (механизми) сифатида давлатчилик тарихининг кўплаб жиҳатларини очиб беришга имкон яратади.

"Арздод маросими"нинг асосий кўринишлари. "Арздод маросими" нафақат хон саройдалигида, балки сарой ташқарисида, яъни турли сафарларга чиққан вақтларда ҳам ўтказилган. Шундан келиб чиқиб, ушбу маросимнинг асосий икки шаклини, яъни "саройдаги маросим" ҳамда "жойлардаги "арздод" жараёни"ни кўрсатиб ўтиш лозим.

Саройда хон халқнинг арздодини тинглаши ёки хорижий элчиларни қабул қилиши учун *Кўринишхона* барпо этилган бўлиб, у *Арзхона* деб ҳам аталган. Саройдаги арздод жараёнининг айрим жиҳатларини ёритган У. Абдурасулов Хива хони Муҳаммад Раҳимхон II Феруз (1864-1910) ёз фаслида дим пойтахтни ташлаб чиқиб, ўзининг Қибла Тозабоғ ҳовлисида фуқаролар арзини қабул қилганлигини қайд этиб, хоннинг фармони билан ҳовлида арз қабул қилиш учун, алоҳида арзхоналар ҳам қурилганлигини таъкидлаб ўтган [1].

Баёнийнинг "Шажараи Хоразмшоҳий" асарида Хива ҳукмдори Сайид Муҳаммад Раҳимхон II нинг саройда фуқароларнинг арзларини тинглаш вақтини "пешин намозини ўқиб, ғурубға чаҳорак кам уч соат қолғонда яна кўринишхонаға чиқиб адлу додға машғул бўлур эрдилар" деб қайд этилган [2]. XIX асрнинг 60-йилларида Хоразмда бўлган Арминий Вамбери ҳам хоннинг саройда ҳар куни ҳеч бўлмаганда мажбурий тўрт соатлик арзни тинглаши ва фақат тасодифан касал бўлиб қолсагина бу маъсулиятдан озод бўлганлигини ўз эсладикларида қайд этиб ўтган [3]. Албатта, тасодифий нохуш ҳолатларнинг рўй бериши оқибатида фуқаролар арзи ўз вақтида қабул қилинмаган ёки кечиккан ҳолатлар ҳам бўлган. У. Абдурасулов бу борада фикр билдирар экан, Муҳаммад Раҳимхон II нинг касаллиги сабабли "халқ арз додига чиқишга ярамас бўлди" деган маълумотни келтириб ўтган [4].

"Арздод маросими"нинг жойлардаги сайёр шакли жуда катта сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий аҳамиятга эга бўлган. Аввало, бу тадбир хон саройига бориш имконияти чекланган ёки мавжуд бўлмаган чекка ҳудуд аҳолиси учун катта қулайликлар яратган. Шунингдек, юзага келган сиёсий вазият ва маҳаллий муаммоларни тезкор ва ўз жойида ҳал этиш имконини берган. Мамлакат осойишталиги ва сиёсий барқарорлигини таъминлаш ҳамда жойлардаги маъмурият томонидан йўл қўйилган тартиббузарликларга чек қўйишда эса, жойлардаги арздод маросими алоҳида ўрин тутган.

Саройдан ташқарида ўтказилган арз маросими бевосита хоннинг ов сафари ва ҳарбий юришлари чоғида амалга оширилган. Шу ўринда, ов сафарини муҳим ижтимоий-сиёсий тадбир бўлганлигига урғу бериб ўтиш лозим. Хонларнинг, жумладан, Муҳаммад Раҳимхон I (1806-1825) нинг "ҳар йил икки уч мартаба шикор қилмоқни ўзига лозим тутган"лиги манбада алоҳида таъкидланган [5]. 1819-1820 йилларда хонликда бўлган рус сайёҳи Н.Н. Муравьев ҳам ўз хотираларида Муҳаммад Рахимхон I кўп вақтини шаҳардан ташқарида яъни овда ўтказганлигини қайд этиб ўтган [6]. Хон сулоласи вакиллари, ёш султонлар ўзларининг мерганлик ва эпчиллик маҳоратларини, ҳарбий тайёргарликларини "ов маросимларида" ошириб, мукаммаллаштириб борганлар.

Манбаларда ов сафари "шикорандозлиғ маросими" [7], "шикор тамошаси" [8] каби иборалар билан келтирилган. Жойларда ташкил этилган бундай "арз маросимлари" турли масалаларнинг нисбатан қисқа муддатда ва тўғридан-тўғри ҳал этилишига имкон яратган [9].

Хоннинг шаҳар ташқарисида, жумладан, Кўҳна Урганч, Бадркант, Қиличниёзбой, Тахта, Тошҳовуз, Қорачакўл, Куркуровук, Мойлиўзак каби мавзеларда махсус қўриқланадиган дала ҳовлилари бўлиб, "шикорандозлик маросим"лари ўша жойларда ўтказилганлиги манбаларда келтирилган.

Хива хони Раҳимқулихон (1843-1846) борасида Кўҳна Урганч ҳовлисида ов ва икки кечалик базмдан сўнг шанба куни "фуқаро ва раоё ва ажаза ва ажузанинг (*ожиз ва ожизаларнинг*) арзи аҳволи истифсори" билан машғул бўлганлиги манбада қайд этилган. "Зубдат-т-таворих" асарида кўрсатилишича, Тошҳовузга келганда ҳам хон "фуқаро ва ажазанинг арзи аҳволин эшитмак" билан машғул бўлган. Ов сафари чоғида бажариладиган яна бир муҳим амал зиёрат бўлиб, манбада Раҳимқулихон "арздод маросими"ни адо этиб бўлгач, шайх Нажмиддин ал-Кубро қабрини зиёрат қилганлиги кўрсатиб ўтилган [10]. Азиз авлиёларнинг қабрларини зиёрат қилиш одати ҳар бир ов ёки бошқа сафарлар чоғида амалга оширилганлиги борасида маълумотлар жуда кўп [11].

Ҳукмдор нафақат овда, балки ўз ҳудудларини кўздан кечириш учун сафарга чиққан вақтида йўл-йўлакай ҳам арзларни тинглаган.

Манбаларда бевосита овдаги арз маросими кўриниши тўла тасвирланмаган бўлсада, хонларга нисбатан "фуқаро ва ажаза ва мазлумларнинг доду тазаллумиға [12] етди", "фуқаро ва раоёнинг адлу дод ва пўрсишлиқиға [13] қиём [14] кўргузди", "фуқаро ва ғуробанинг арзи аҳволин истифсор [15] этди" каби ибораларнинг қўлланилишининг ўзи ушбу маросимнинг ўтказилганлигидан далолат беради [16].

Манбада Раҳимқулихоннинг сафари борасида "ҳар манзилда саҳронишин фуқоро ва ажаза ва мазлумларнинг доду тазаллумиға етиб, аҳли зулмнинг дасти тааддийсиға [17] муқорот еткурур эрди" деб келтирилган маълумотдан [18] кўринадики, арз эшитиш маросими ҳукмдор тўхталган ҳар бир манзилда ўтказилган. Демак, хонлар мамлакатнинг катта қисми, айниқса узоқ сафарлари чоғида, чекка ҳудудлардаги фуқароларнинг аҳволи, турмуш тарзи ҳамда мавжуд ижтимоий-сиёсий вазиятдан шахсан ўзлари хабардор бўлиб борганлар.

Ов маросими ҳамда бу жараёнда ўтказиб борилган арздод маросимлари тахт вориси ва шаҳзодаларнинг бошқарувчилик салоҳиятини шакллантиришда муҳим ўрин тутганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиз. Бундай маросимлар уларни нафақат жисмоний ва ҳарбий тайёргарлигини ошириш, балки шароитдан келиб чиқиб, кутилмаган вазиятларда оқилона ҳукм чиқариш ва тўғри қарор қабул қилишни ўргатишда ўзига хос мактаб вазифасини ўтаган.

Хусусан, Хива ҳукмдори Муҳаммад Раҳимхон I нинг ўғли Оллоқулихон (1825-1842) ҳақида "чун девонда халқнинг арзини тинглаб ўтирганда, бутун ақлу-ҳушини жамлаб, гўё охират кунидек адолат ўрнатишга ҳаракат қилар эди. Ташқи кўринишидан чиройли сиёсат олиб бориб, мазмунан адолат кўзи билан подшолик интизомига риоя қилиб, фуқаролар бошига адолат соясин солиб, халқнинг осойишталигин мустаҳкамлаб, мамлакат тинчлигин сақлар эди" деган маълумотлар мавжуд [19]. Аксарият ҳолларда хонлар ҳаётлик чоғларидаёқ тайинлаб қўйилган тахт ворислари давлат бошқаруви ишларига, жумладан халқнинг арзини тинглаш тадбирларига бевосита жалб этилган.

Умумий хулоса сифатида шуни қайд этиш мумкинки, "Арздод маросими" давлатчилик тарихининг қатор муҳим масалаларини очиб беришга хизмат қилади. Аввало, ушбу маросим жиддий ижтимоий-сиёсий аҳамиятга эга бўлиб, давлат бошқаруви ва ҳокимият легитимациянинг таъсирчан воситаси ҳисобланган. Ҳукмдорларнинг сафарлари чоғида ўтказилган жойлардаги ўзига хос "сайёр арздод маросими" олий ҳукмдорга чекка ҳудудлардаги мавжуд сиёсий вазият ва ижтимоий-иқтисодий аҳвол билан шахсан танишиш ва тезкор чораларни қўллаш имконини берган. Шунингдек, фуқароларнинг, айниқса мазлум ва қийин аҳволда қолган аҳолининг арзини тинглаш ҳамда имкон даражасида кўмак бериш одати ўзбек халқининг феъл-атвори ва миллий қадриятлари билан боғлиқлигини кўрсатиб ўтиш лозим. Шу жиҳатдан, мазкур маросим халқ манфаатларига маълум даражада хизмат қилган ва амалий жиҳатдан муайян натижалар берган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. У.В. Абдурасулов. Хиву в поисках справедливости: церемония "Арздод" в Хивинском ханстве.// Ozbekiston tarixi. 2015. № 2. С. 30.

2. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Тошкент. Камалак. 260-бет; Арз ва шикоятлар маҳкамаси-маҳкамаи мазолим. Қаранг: Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. (Муиний тарихлари танламаси) Тошкент. 48-бет.

3. А.Вамбери. Путешествие по Средней Азии. Москва. Восточная литература. 2003. С. 158.

4. У.В. Абдурасулов. Хиву в поисках справедливости: церемония "Арздод" в Хивинском ханстве. //Ozbekiston tarixi. 2015. № 2. С. 36.

5. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент. 2010. Янги аср авлоди. 298-бет.

6. Н.Н. Муравьев. Путешествие в Туркмению и Хиву. Москва. 1822. Ч. II С. 55.

7. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Тошкент. Ozbekiston. 181-бет.

8. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент. 2010. Янги аср авлоди. 266-бет.

9. Ов маросимига доир қўшимча фикрлар учун қаранг: Д.Э. Бегалиева. Хива хонлари саройида шаҳзодалар тарбиясининг айрим анъанавий жиҳатлари// Ozbekiston tarixi. 2013. № 3. 36-46-бетлар.

10. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Тошкент. Ўзбекистон. 181-182-бетлар.

11. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент. 2010. Янги аср авлоди. 262, 268, 411-бетлар.

12. Тазаллумиға-зулмланиш, шикоят. А. Навоий асарлари тилининг луғати. Тошкент. 1984. Том. III 163-бет.

13. Пўрсишлиқиға-сўрамоқ. Қаранг: Форсча-ўзбекча ўқув луғати. А. Рустамов, Қ. Каримов, З.Умаров. Қўлланма. Тошкент. 1975. 55-бет.
14. Қиём-бирор ишга киришмоқ. Қаранг: Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тошкент. Фан. 1993. 347-бет.
15. Истифсор-сўрамоқ, талаб қилмоқ. Қаранг: А. Навоий асарлари тилининг луғати. Тошкент. 1983. Том. II 56-бет.
16. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Тошкент. Ўзбекистон. 41-бет; Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Тошкент. Янги аср авлоди. 430-бет.
17. Тааддийсиға-адоват, зўравонлик. Қаранг: А. Навоий асарлари тилининг луғати. Том. III Тошкент. 1984. 143-бет.
18. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих. Тошкент. Ўзбекистон. 41-бет.
19. О. Муталов. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. Тошкент. 2005. 20-бет.

УУК: 94 (575.1).084.5/.6(043.3)

ЎРТА ОСИЁДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ КУЧАЙИШИДА САЙЛОВ ТИЗИМИНИНГ ТАЪСИРИ

Ф.С. Бобоев, докторант, Ўзбекистон ФА Тарих институти, Тошкент

Аннотация. *Мақолада жаҳон тажрибасида сайлов тизими демократиянинг белгиси ҳисоблансада, бироқ бу масалада совет ҳокимиятининг адолатсиз сиёсати таҳлил қилинган. Совет ҳокимиятининг сайлов тизимидаги адолатсизликлари натижасида Ўрта Осиёда қуролли ҳаракатнинг кучайганлиги очиб берилган.*

Калит сўзлар: *совет ҳокимияти, Ўрта Осиё, қуролли ҳаракат, сайлов тизими, солиқ ва мажбурият, "босмачи", диндор, сиёсий ҳуқуқ.*

Аннотация. *В статье анализируется несправедливая политика советской власти в этом отношении, хотя в мировом опыте избирательная система является признаком демократии. В результате несправедливости советской власти в избирательной системе вскрылся подъем вооруженного движения в Средней Азии.*

Ключевые слова: *советская власть, Средняя Азия, вооруженное движение, избирательная система, налоги и повинности, "басмачи", религиозные, политические права.*

Abstract. *The article analyzes the unfair policy of the Soviet government in this respect, although in the world experience the electoral system is a sign of democracy. As a result of the injustice of Soviet power in the electoral system, the rise of the armed movement in Central Asia was revealed.*

Key words: *Soviet power, Central Asia, armed movement, electoral system, taxes and duties, "basmachi", religious, political rights.*

Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши кураш 1918-1935 йилларда давом этди. Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракатнинг моҳияти бу – большевикларнинг минтақада юритган мустамлакачилик сиёсатига қарши миллий давлатчилик, мустақиллик, аҳолининг ўз ҳуқуқ ва эркинликлари учун курашидан иборат эди. Бироқ Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши қуроли ҳаракат 1935 йилда тугатилган бўлса-да, бироқ яна кейинги йилларда ҳам кураш ғоявий шаклида давом этди.

Ушбу мақолада адолатсиз сайлов тизимининг совет ҳокимиятига қарши қуролли ҳаракатнинг кучайишига таъсир кўрсатган айрим жиҳатлари таҳлил қилинади.

Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши курашнинг кучайишига таъсир кўрсатган омиллардан бири бу – аҳолининг сиёсий ҳуқуқлари, хусусан сайлаш ва сайланиш ваколатидан маҳрум этилиши эди. Асосан собиқ амир ва хон амалдорлари, диний фаолият билан шуғулланган тоифалар, аҳолининг ўзига тўқ, бой, ўртаҳол ва камбағал қатламлари, шу билан бир қаторда "босмачи" сифатида совет ҳокимиятининг рўйхатида бўлганлар сиёсий ҳуқуқлардан маҳрум этилди. Бу аҳолининг сиёсий жиҳатдан камситилиши, жамиятда ижтимоий ва иқтисодий фаолиятини чекланиши эди. Сайлов ҳуқуқидан маҳрум этилиши аҳолининг қуйидаги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий имтиёзларини чеклаганлиги ва мажбуриятлар юклаганлиги учун катта норозиликларга сабаб бўлди:

- овоз бериш ҳуқуқидан маҳрум бўлган;
- солиқ юки оширилган (оширилган ставкалар бўйича солиққа тортилди, ҳар хил турдаги тўловларни тўлашга мажбур қилинди);
- колхозларга ва кооператив аъзоси бўла олмаган, савдо дўконларида хизмат қилиши тақиқланган;
- озиқ-овқат рационидан (карталаридан) маҳрум қилинган;
- яшаб турган жойидан чиқариб юборилган;
- тиббий хизматдан фойдалана олмаган;

- фарзандлари мактаблардан четлатилган;
- эркин кишилар билан никоҳ тузишга рухсат берилмаган;
- армияга сафига олинмай, 18-45 ёшдагилар 3 йил муддатга фронт ортига давлат мажбуриятларини бажаришга сафарбар қилинган (қурилиш ва бошқалар);
- давлат мажбуриятларни (йўлларни, ирригация тармоқларини таъмирлаш, қуриш, юкларни ташиш, ем-хашак тайёрлаш ва бошқалар) бажаришга сафарбар қилинган [1].

Сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш жараёнида партия, совет ва маҳаллий бошқарув органлари томонидан кўплаб адолатсизликлар, қарорларнинг бузилиши, ҳаттоки уларнинг амалиётга мос келмайди жиҳатлари ҳам бўлган. Шунингдек, сайлов қонунчилигида кўрсатилмаган чекловлар қўлланган. Масалан, яшаб турган жойидан ҳайдаб чиқариш, озиқ-овқат рациони ва ҳуқуқидан маҳрум этилиши лозим бўлган шахснинг қолган бошқа оила аъзолари ўзини боқиш имконига эга бўлмаса уларнинг ҳуқуқлари чекланмаслиги кўрсатилган. Бироқ амалда эса оиланинг барча аъзолари ўз ҳуқуқларидан маҳрум этилган. Бундан ташқари, сайлов ҳуқуқини қайта тиклаш учун ариза берган шахсларнинг ишлари юқори органларга топширилгач то у кўриб чиқилгунга қадар шахсга нисбатан ҳеч қандай чекловлар қўйилмаслиги лозим бўлган. Бироқ бу жараён ҳам амалда умуман ишламаган. Шунингдек, сайлов ҳуқуқидан маҳрум этилган шахслар "қулоқ" сифатида рўйхатга олинган шахслар билан бир хил чекловлар ва мажбуриятларни бажарган. Аслида бу жараёнлар жуда чалкаш ва қонунларда тўла ўз ечимини топмаган муаммолар бўлган. Бу масалалар катта норозиликларни юзага келтирган. Шу сабабли СССР Марказий Ижроия қўмитаси Президиуми котиби А.С. Енукидзе 1930 йил 1 мартда "ҳуқуқидан маҳрум қилинган"лар масаласида И.В. Сталинга юқоридаги камчиликлар тўғрисида маълумот берган. Шундан сўнг 1930 йил 22 мартда "СССР сайлов қонунчилиги бузилишларига барҳам бериш тўғрисида"ги қарор Сиёсий бюро комиссияси томонидан тасдиқланган ва ижро учун барча республикаларга юборилган [2].

Бироқ сиёсий ҳуқуқлари чекланган ижтимоий гуруҳлар ўзларининг ваколатларини қайтарилиши учун қаттиқ ҳаракат қилди. Улар сайлов комиссиялари аъзоларига таҳдид қилиб, "ҳуқуқсизлар" рўйхатини йўқотишга ва аёлларнинг сайловларда қатнашишига қарши тарғибот қилдилар. Диндорлар эса "ҳуқуқсизларни" Афғонистонга кўчиб ўтишга ундашди. Шундай ҳолат 1927 йилнинг март ойида Туркманистоннинг Чоржўй, Карки ва қисман Полторатский районларида кузатилади. Бу ишда қўрбошиларнинг собиқ йигитлари ва диндорларнинг алоҳида фаоллиги қайд этилади [3, 257]. Шунингдек, Эски Чоржўйда сайлов ҳуқуқларидан маҳрум қилинганлар сайлов комиссиясига қарши чиқиб шундай деган эди: "Агар ўз ҳуқуқларимизни тикламасак, қўлларимизга қурол оламиз, бизга қарши бўлганлардан қасос оламиз" [3, 287-288].

Большевиклар жорий этган янги тартиб-қоидалар катта норозиликларга сабаб бўлди. Бу ўз навбатида совет ҳокимиятига қарши кучлар сонининг ошишига ва қуролли ҳаракат иштирокчиларининг сафини кенгайишига таъсир кўрсата борди. Масалан, 1925-1926 йилларда Қирғизистоннинг Жалолобад районида овоз бериш ҳуқуқидан маҳрум қилинганлар сони 193 нафар бўлса, бу рақам 1926-1927 йилларда 2237 кишига етди. Фрунзе районида 1925-1926 йилларда овоз бериш ҳуқуқидан маҳрум бўлганлар сони 1652 киши бўлса, 1926-1927 йилларда 2161 кишига этди [4]. Бутун Жанубий Қирғизистонда 1928-1929 йиллардаги қайта сайлов кампанияси пайтида овоз бериш ҳуқуқидан маҳрум бўлганлар сони 12569 кишига етказилди. Бу рақамлар кейинги йилларда яна ошириб борилди [5].

Жанубий Қирғизистонда сайлов йўриқномасининг талабларини ўзбошимчалик билан талқин қилиш натижасида сайлов ҳуқуқидан маҳрум этилганлар рўйхатига барча савдогарлар, савдо-сотиқ жараёнида бозорлар учун анъанавий бўлган воситачилар (даллоллар), ҳунармандлар - декоратив-амалий санъат усталари (заргарлар, гилам ва каштачилар), косиблар ва қишлоқ оқсоқоллари (оқсоқоллар, элликбошилар) киритилиши мумкин эди. Шунингдек, ҳар йили динга қарши тарғиботнинг кучайиши сабабли диний таълимот ва табобат билан машғул бўлган кишилар ҳам овоз бериш ҳуқуқидан маҳрум қилинди [5]. Давлат мажбуриятларини бажариш шу даражада қаттиқ талаб қилиндики, ҳатто соғлиги сабабли далада ишлай олмайдиган кишилар ҳам сайлов ҳуқуқидан маҳрум этилди [6].

1929 йилда Фарғона водийсида Ёрмат Махсумнинг ҳаракатлари кучайди. Натижада шу йилнинг 28 сентябрида Ўзбекистон ССР Компартияси Андижон Округ Комитети ижроия бюроси округда совет ҳокимиятига қарши кураш бўйича махсус қарор қабул қилди. Унга мувофиқ, илгари собиқ "босмачилар"га нисбатан партия ва совет ҳокимияти сиёсатининг бузилишларини, яъни уларга нисбатан адолатсизликларни ўрганиш топширилди. Наманган, Янгиқўрғон, Косонсой ва Норин районларида 5 кун ичида сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилинган ишларни қайта кўриб чиқиш, нотўғри равишда сиёсий ҳуқуқлари чекланган кишиларга имтиёзларини қайтариш ва бу ҳақда тезда

деҳқонларга маълумот бериш белгиланди [7]. Чунки бу даврда сайлов ҳуқуқларининг чекланиши катта норозиликларга сабаб бўладиган омиллардан бири эди. Шунинг учун ҳам айнан шу масалага алоҳида эътибор қаратилди. Шунингдек, 1931 йилнинг бошида Норин ва Отбоши районларидаги қўзғолон қатнашчилари ҳам овоз бериш ҳуқуқидан маҳрум қилмасликни талаб қилиб чиққан эди [8].

Шундай қилиб, сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш:

Биринчидан, барча тоифаларига, яъни бой, ўртаҳол ёки камбағаллигидан қатъи назар қўлланди.

Иккинчидан, маҳаллий бошқарув органлари орасида ўзаро адоватда бўлган ижтимоий гуруҳлардан, уруғлардан вакилларнинг бўлиши сайлов тизимининг бузилишига, оқибатда айрим аҳоли тоифаларининг ноҳақ, адолатсиз равишда сиёсий ҳуқуқларининг чекланишига сабаб бўлди.

Учинчидан, ҳам марказий ҳам маҳаллий бошқарув органлари томонидан аҳолининг сиёсий ҳуқуқларининг ноҳақ равишда бузилиши, чекланиши ва ҳуқуқларини қайта тиклаш учун мурожаатларни ўрганмаслик ёки узоқ вақт чўзилиши Ўрта Осиёда совет ҳокимиятига қарши кураш кўламининг кучайишига таъсир кўрсатди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ш.А. Қамбарова. "Ҳақсизлар"нинг ҳуқуқларини тиклаш жараёнлари (Фарғона водийси мисолида) // "Ўтмишга назар". 2020. № 2. Б. 451-458; Шу муаллиф. Совет харбий қўшинлари таркибида "орқа қўшинлар"ни ташкил топишининг ижтимоий-сиёсий сабаблари // "Academic research in educational sciences". 2021. № 2. Б. 478-484; M. Тагаев. Социальная и религиозная ксенофобия как инструмент политики советского государства. История и неизвлеченные уроки (1929-1936 гг.). На примере материалов юга Кыргызстана // https://www.pluralism.ca/wp-content/uploads/2018/04/Myktar-Tagaev_Russian-Apr2018-FINAL.pdf; Политбюро и крестьянство: Высылка, спецпоселение. 1930-1940 гг. Книга I. Москва. РОССПЭН, 2005. С. 125-132; A.L. Edgar. Genealogy, Class, and "Tribal Policy" in Soviet Turkmenistan, 1924-1934 // "Slavic Review". Summer 2001. Vol. 60. No. 2. pp. 284-285.

2. Политбюро и крестьянство: Высылка, спецпоселение. 1930-1940 гг. Книга I. Москва. РОССПЭН, 2005. С. 129-131; Собрание законов и распоряжений. 1 апреля 1930 г. № 19. С. 360-361.

3. "Совершенно секретно": Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т. 5. 1927 г. –Москва, 2003.

4. Z. Altimişova. 1930'lu yillarda kirgizistan'dan Çin'e göç hareketleri // "Turkish Studies". Volume 8/11. Fall 2013. S. 20.

5. М.Тагаев. Социальная и религиозная ксенофобия как инструмент политики советского государства. История и неизвлеченные уроки (1929-1936 гг.). На примере материалов юга Кыргызстана // https://www.pluralism.ca/wp-content/uploads/2018/04/Myktar-Tagaev_Russian-Apr2018-FINAL.pdf.

6. В.Г. Чеботарева. Противоречия в национальной политике Советской Киргизии (1920-е годы) // "Этнопанорама". 2013. № 1-2. С. 22.

7. Ўзбекистон ПАА, 58-фонд, 5-рўйхат, 473-иш, 25-26-варақлар.

8. ГАРФ, Р-374-фонд, 27-рўйхат, 269-иш, 5-6-варақлар.

УЎК 93/94

XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШ ҲАРАКАТЛАРИ

Ф.Х. Бобожонова, т.ф.н., Бухоро Давлат Университети, Бухоро

Аннотация. *Мақолада XX аср бошларида Бухоро амирлигида таълим тизимини ислоҳ қилиш ҳаракатлари, "Тарбияи атфол" яширин жамияти, Бухоро маорифини умумлаштирувчи хайрия жамияти", "Ширкати Бухорои Шариф" "Баракат", "Маърифат" ширкатлари, "Бухоройи шариф", "Турон" газеталари ва "Маърифат" кутубхонасининг фаолияти манбалар асосида ёритиб берилган. Шунингдек Бухоро амирлигидаги талабаларни дунёнинг ривожланган мамлакатларига ўқишга юбориш масалалари ҳам кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *Ёш бухороликлар, яширин ташкилот, жамият, ширкат, газета, кутубхона, янги усул мактаблари, дарсликлар, фанлар, таълим.*

Аннотация. *В статье описываются усилия по реформированию системы образования в Бухарском эмирате в начале XX века, тайное общество «Тарбияи атфол», «Бухарское благотворительное общество обобщения образования», «Бухарская компания», «Баракат», «Марифат». компании, газеты «Бухара Шариф», «Турон» и деятельность библиотеки «Маърифат» освещается на основе источников. Также были рассмотрены вопросы направления студентов из Бухарского Эмирата на обучение в развитые страны мира.*

Ключевые слова: *Молодые бухарцы, тайная организация, общество, фирма, газета, библиотека, новометодные школы, учебники, науки, образование.*

Abstract. *The article describes the efforts to reform the education system in the Emirate of Bukhara at the beginning of the 20th century, the secret society "Tarbiyai Atfol", "Bukhara Charitable Society for the Generalization of Education", "Bukhara Company", "Barakat", "Marifat". companies, the newspapers "Bukhara Sharif", "Turon" and the activities of the library "Ma'rifat" are covered on the basis of sources.*

The issues of sending students from the Bukhara Emirate to study in the developed countries of the world were also considered.

Keywords: *Young Bukharians, secret organization, society, firm, newspaper, library, new method schools, textbooks, sciences, education.*

Кириш. Бухоро амирлиги ривожланган мамлакатлардан орқада ва узоқ бўлмасин тараққийпарварлик ғоялари бу ҳудудга ҳам кириб кела бошлади. Бироқ янги ва илғор қарашларнинг амирликка кириб келиши катта тўсиқларга учради ва мураккаб кечди. Шунингдек, бу жараёнлар ўзига хос хусусиятларга эга бўлди. Ислоҳотларга талаб ва зарурият айниқса таълим тизимида кучли эди, чунки анъанавий таълим тизимидаги ўқитиш услуби ва ўрганиладиган фанларнинг таркиби давр талабига жавоб бермай қўйди. Мамлакатда савдо-сотиқ ва маҳаллий саноатни ривожлантириш учун Бухоро сармоядорларига замонавий билимлардан хабардор, ҳисоб-китобни яхши биладиган, янгича фикрлайдиган ёш кадрлар керак эди.

Асосий қисм. Бухоролик жадидлар маориф ва тарбия ишларини жонлантириш учун 1908 йилда "Тарбияи атфол" ("Болалар тарбияси") яширин жамиятини ташкил этадилар. Садриддин Айнийнинг қайд этишича, "Жамиятнинг низомномаси эҳтиёж учун ёлғиз илмий бўлиб, сиёсатга қатнашмаслик шарт қилинган бўлса ҳам, жамият аъзолари халқни умумий ислоҳотга ташвиқ қилар, амирнинг идора фасодларини очиб кўрсатар, аҳолини ушбу идораи золимонага қарши қўзғатар эди". [5;233] "Тарбияи атфол" махфий жамиятининг раҳбарлари Садриддин Айний, Абдулвоҳид Мунзим, Аҳмаджон Ҳамдий, Ҳамидхўжа Меҳрий, Ҳожи Рофеъ ва Мукаммал Бурҳоновлар жамиятнинг ёрдами билан янги усул мактабларида саводини чиқариб олган болаларни Оренбург, Қозон, Уфа, Қрим, Россия ва Туркияга ўқишга юбора бошлади. Бундан ташқари "Тарбияи атфол" жамияти жадид мактабларни ташкил этиш ва уларга ўқувчиларни жалб қилиш, шунингдек, талабаларни Бухородан Истанбулга ўқишга юбориш ишлари билан ҳам шуғулланганлар. Жамиятнинг саъй-ҳаракати билан, 1908 йилда Истанбулда бухоролик ва туркистонлик ёшлардан 14 киши таҳсил олган.[10;271] "Тарбияи атфол" махфий жамияти аъзоларининг сони 1909 йил охирига бориб 20 кишига етди. Садриддин Айнийнинг ёзишича, кейинги йилларда жамият аъзолари 28 киши бўлиб, ундан 14 киши мулла ва муллаларнинг ўғли, 3 киши мударрис эди. Жамият фаолиятининг сўнгги йилларида жамият аъзолари сони 100 га яқин бўлиб, уларни Муҳиддин Мансуров, Садр Зиё моддий жиҳатдан қўллаб-қувватлаган.

"Тарбияи атфол" яширин жамиятнинг дастурида қуйидаги вазифалар кўзда тутилган эди:

1) Илмга чанқоқ ёшларга ҳар жиҳатдан: ҳам иқтисодий, ҳам маънавий ёрдам кўрсатиш. Шу муносабат билан Россиянинг Қозон, Уфа, Боқчасарой ҳамда Туркияга ўқувчилар юбориш масаласига алоҳида эътибор берилди. Айниқса, Истанбул шаҳрида таълим олаётган бухоролик талабалар сони йил сайин ошиб, 1912 йилга келиб, 30 дан ошди. Чунки Бухоро мадрасалари илғор ислоҳотлардан анча йироқ, малакали мутахассислар тарбиялаб етиштиришга қодир эмасди.

2) Бухоро амирлигида газета ва журналлар нашр қилинмаса ҳам Россия мусулмон шаҳарларида ҳамда Туркия ва Эронда нашр қилинадиган матбуот намуналари билан бухороликларни таништириб боришга катта эътибор бериш. Россия сиёсий агентлигининг ҳар қандай таъқиб ва тўсиқларига қарамай, жамиятнинг саъй-ҳаракати билан бундай нашрлар амирликда ҳам кенг тарқала бошлади.

3) Ҳамма жадид мутафаккирлари каби ўринсиз сарф-ҳаражатларга, тўй ва маъракаларга сарф қилинадиган катта-катта ҳаражатларга, исрофгарчиликларга қарши чиқиш. Бундай маблағларни фарзандлар тарбиясига, уларни чет элларга ўқитиш учун сарф қилишга даъват этдилар.

Жамият аъзоларининг фаолиятини Садриддин Айний шундай таърифлаган эди: "Жамият аъзоларининг ҳар бири доимо қўйнига икки-уч дона газета ва мажмуа ва бир-икки дона адабий, ахлоқий китоб тиқиб, хоҳ бозорда бўлсин, хоҳ уйда бўлсин, хоҳ қишлоқларда бўлсин, хоҳ темир йўл сафарларида бўлсин, хулосаси, ҳар бир фурсат чиққунча, халққа ўқиб берар, бир оз рағбат кўрсатганларга мажоний янги адабиёт тарқатиб турар, жиддийроқ ва самимийроқ одам қўлга тушса, газета ва мажмуаларга муштарий қилар эди".[4;234]

Жамиятнинг ўз олдига қўйган бирламчи вазифаси Бухоро ўқув муассасаларини тубдан ислоҳ қилиш эди. Бухорода анъанавий мактабларни ислоҳ қилиш иши, амалда бошланган бўлса-да, олий ўқув юрти ҳисобланган мадрасалар ислоҳи бошланмаган, улар илмли ва малакали мутахассислар тайёрлашдан йироқ эди. Шунинг учун "Тарбияи атфол" жамияти иқтидорли ёшларни Оренбург, Уфа, Қозон, Боғчасарой, Истанбул каби шаҳарларда ўқишга юборишни биринчи вазифа сифатида белгилади. Бунинг учун маблағ керак эди. Халқ истиқболи, маърифати учун жон куйдирувчи мулкдорлар ҳам, иқтисодий ёрдам берувчи ҳомийлар-зиёлилар, давлат арбоблари ҳам топилди. Жамиятнинг катта саъй-ҳаракати натижасида фаолиятининг дастлабки йилидаёқ бир гуруҳ ёшлар

Истанбулга ўқишга юборилди. Садриддин Айний бу ҳақда қуйидаларни ёзади: "Икмоли таҳсил учун Усмонхўжа Пўлатхўжа ўғли, унинг биродарлари Атохўжа, Мазҳар Маҳзум Бурҳон Маҳзум ўғли, Абдурауф Фитрат, Муқимбек Истанбулга сафар қилдилар. Абдурауф Фитрат мазкур талабаларнинг энг истеъдодлиси ва энг фозили эди". Истанбулдаги ушбу жамиятда асосан бухоролик ва татар талабалари фаол иш олиб борадилар.

1909 йилда Бухорода жадидлар томонидан "Ширкати Бухорои Шариф" номи билан ширкат тузилди. Унинг асосий вазифаси янги усул мактаблари учун дарслик чоп этишдан иборат эди. Биринчи навбатда Садриддин Айнийнинг тажвид қоидаларини (Қуръоннинг махсус қоидаларини тўғри талаффуз қилиниши) ўз ичига олган "Тарти ул-Қуръон" номидаги дарслигини нашр қилишга қарор қилинади. Уни татар муаллими воситаси билан Оренбург нашриётига топширадилар. Ўша йилнинг ўзида усули савтия (илм қоидалари усули) мактаблари билан танишмоқ учун ширкат томонидан Усмонхўжа, Ҳамидхўжаларни Боғчасарой, Истамбулга юборилади.[8;5]

Бухорода маърифат тарқатишда, китоб, газета, журналлар билан савдо қилишда, бухоролик ёшларнинг маърифий-сиёсий ҳаракатларининг жонланишида ушбу ташкилотнинг аҳамияти катта бўлди. Бу ҳақда Садриддин Айний шундай деб ёзади: "Бу йил яширин жамиятнинг таъминоти билан икки муҳим иш бошланди. Буларнинг бириси "Маърифат" кутубхонаси, иккинчиси "Баракат ширкати" эди. Насрулло Қўшбеги ушбу кутубхона ва ширкатга расман рухсат берганлигидан, ёшлар ҳаётига яхши бир ёрдам етказди".[5;227]

"Баракат" ширкатининг таъсисчилари Фазлиддин Махзум, Абул Ҳаким Махзум, Мирзо Иззатулла Афанди ва Мирзо Абдулвоҳидлар эди. 1915 йилнинг 22 декабрида Бухоро ҳукумати ширкатнинг низомини тасдиқлаб, унинг очиқ фаолияти учун рухсат беради. Ширкат амирликнинг кўпчилик худудларида китоб дўконлари ташкил килиб, зиё тарқатишни мақсад килиб қўяди. А.Фитрат ширкат доирасида Туркияга ёшларни ўқишга жўнатиш учун маблағ тўплаш билан шуғулланади [2]. Садриддин Айнийнинг қайд этишича, "Халқ орасида ушбу ширкат "жадидлар ширкати" деб ном қозонган".

Туркияга ўқишга келган ёшлар томонидан Истанбулда Абдурауф Фитрат бошчилигида 1909 йилнинг охирида "Бухоро таъмими маориф жамияти" ("Бухоро маорифини умумлаштирувчи хайрия жамияти") номи билан очиқ ва расмий бир жамият ташкил этилди. Аҳмад Закий Валидий Тўғоннинг қайд этишича: "Бу жамият Истанбулда бир шўъба очароқ, бу шўъба "Бухоро таълими маориф жамияти" номи билан расмий бир жамият шаклини олди. 1909 йилда Эрон йўли билан Истанбулга келган Фитрат ила Муқимиддин ва Русия йўли билан келган Усмонхўжа, ғулжалик Абдулазиз, Содиқ Ашур ўғли бу жамиятнинг қурувчилари эди".[7;354]

Жамиятнинг хатти-ҳаракати билан Истанбулнинг Галата кўприги ёнидаги Янги Жомеда Туркистон ва Бухоро болалари учун алоҳида мактаб ташкил этилади. 1910 йилда мактабга Бухородан 30 бола ўқиш учун юборилган бўлса, 1911 йилда 15 бола, 1912 йилда 20 бола, 1913 йилда 16 бола юборилади [1].

Жамиятнинг кўмаги билан Фитрат ва бошқа тараққийпарварларнинг асарлари Истанбулда нашр эттирилиб, Бухорога юборилади, яширин жамиятнинг кўрсатмасига кўра, унинг асарларини тараққийпарвар кишилар мамлакатнинг турли жойларига тарқатадилар.

Ёш бухороликлар партияси аъзолари ўзларининг яширин ташкилот сифатидаги йиғилишларини бир оз чеклаган бўлсалар ҳам, улар бундай ҳаракат мухлислари ва тарафдорлари билан анча кенг миқёсда учрашувлар ўтказиб турдилар. Бу йиғилишлар "таълимни яхшилаш чоралари муҳокамаси" баҳонаси билан кўпинча мактабларда, дарс бериладиган хонадонларда ўтказилар, уларда янги мактаб ўқувчиларининг ота-оналари қатнашар ва улар орқали омманинг фикри ўрганиб борилар эди. Бундай учрашувларда кўпинча хориждан келган газеталар, жумладан, Туркияда чиқарилган "Сирот-ул мустақим", Афғонистонда чиқарилган "Сирож-ал-ахбор" газеталаридан намуналар ўқиб берилар эди.

Бухорода маърифатпарварлик ғояларини тарғиб этишда ташқаридан келтирилган газета ва журналлар ҳам катта таъсир кўрсатади. Масалан, Боқчасаройда чиқадиган "Таржимон" газетаси, Бокуда чиқадиган "Мулло Насриддин" ҳажвий журнали, Тошкент ва Самарқандда чиқадиган "Ислоҳ" ва "Ойина" журналлари, Ҳиндистонда чиқадиган "Хаблул матн" газетаси, Мисрда турк ва форс тилида нашр этилган "Чеҳранома", "Парвариш" каби журналлар Бухорога келтириб тарқатилди ва бу ердаги вазиятга сезиларли даражада таъсир этади.

"Бухоройи шариф" газетаси мақолаларида мактабда ўқитиладиган китобларнинг ўз она тилида бўлмаганлиги ачинарли ҳолат эканлиги, ислоҳ масаласи зарурлиги ўз аксини топди. Ушбу газетанинг "Нима қилмоқ керак" номли мақоласида "Қадимда Европа варварликда яшаётган бир даврда Бухоро илмнинг маркази бўлган. Улар бир жойдан иккинчи бир жойга кўчиб юрганларида

Бухоро маданияти юқори даражада ривожланган. Ҳозирда Бухорода илмсизлик, Бухоро деҳқони учун ўз уйи ва қишлоғидан бошқа жойни ёки дунёни билиши шарт эмасдай", деган фикр берилган.

Ёш бухороликларнинг Бухоро амирлигида савдо-сотиқни ривожлантириш учун замонавий билимлардан хабардор бўлган, ҳисоб-китобни яхши биладиган ва янгича фикрлайдиган ёш кадрлар зарурлиги ва бунинг учун уларни хориж давлатларига ўқишга юбориш долзарб масала эканлиги тўғрисидаги мақолалари ҳам "Бухоройи шариф" газетасида босилиб турди.[3]

Мактабларни ислоҳ қилиш масалалари "Турон" рўзномасида ҳам ёритила борди. Газетада босилган "Бизга мадраса керакми ёки мактаб" деб номланган мақоласида муаллиф қуйидаги фикрни келтиради: "Бухоро амирлигида билимлиликлар жуда оз, шунинг учн биз биринчи навбатда мадраса эмас, усули савтия мактабларини очишимиз керак, бошланғич таълимни яхши йўлга қўйишимиз керак. Бунинг учун ўз фойдасини кўзлайдиган диний уламолар томонидан вақф ерларининг талон-торож қилишга йўл қўймаслик керак ҳамда мактабларни ислоҳ қилиш керак".

"Бухоройи шариф" ва "Турон" газеталари Бухорода маданий-маърифий ишларни жонлантиришда катта роль ўйнади. Бу газеталар амирликнинг барча шаҳарлари ва 11 туманида ҳам тарқатилар эди.

Мирзо Сирож XX аср бошида дунёнинг турли мамлакатларида сафарда бўлиб, катта тажриба орттирган. У "Бухорои Шариф" ва "Турон" газеталарига ҳомийлик қилишни ўз зиммасига олган. Мирзо Сирож чет элларда бўлганида у ердаги таълим тизимини, хусусан, олий таълимни ва мактаб таълимини жуда яхши ўрганади, уни Бухородаги таълим билан қуйидагича таққослайди: "Европада мактаб ва мадрасаларни кўриб ёдимга ўзимиздаги мактаб ва мадрасалар келди, эсладиму юрагим ғам ва афсусга тўлди. Нега бизни миллатимиз илмни шунча хор қилиб, уни тарк этади?"... "Эрон уламолари илмга ва санъатга ғайратли, иштиёқли бўлиб, ҳамма шаҳарларида мактаблар очган. Теҳронда жадид анъанавий мактаблари, дорулмуаллимин, дорулфунун, сиёсий мадраса, ҳарбий мадраса, тиббий мадраса мавжуд. Муаллимлари Фарангистонда таълим олишган".[9;85] Мирзо Сирож жадид мактабларини, европача таълим-тарбияни бухороликлар учун қанчалик аҳамиятли ва зарурий эканлигини тушунтиришда, тарғиб этишда жонбозлик кўрсатган. Ушбу газеталар амир ҳукумати томонидан тақиқлаб қўйилганидан кейин, чекланган миқдордаги бошқа газеталар Россиянинг Волгабўйи ва Урал минтақараларидан бу ерга келтириб турилган. [6;364]

1912 йилда Бухоро шаҳридаги жадидларнинг яширин жамияти томонидан "Маърифат" деб аталган бошқа бир ширкат тузилган бўлиб, бу ташкилот шаҳар пассажида Ибн Сино номли китоб магазини ва кутубхона очдилар. Садриддин Айнийнинг қайд этишича, "Маърифат кутубхонасининг исми ва жисмига мувофиқ иши маърифат тарқатмоқдан иборат эди. Унинг мудири яширин жамият аъзоларидан Муҳаммад Мусо бўлиб, ҳайъати идораси ҳам Мирзо Абдувоҳид, Қори Ҳошим ва Ҳожи Сирож каби яширин жамият аъзоларидан иборат эди". Бу жамият халқ орасида маърифат тарқатиш билан шуғулланиб ва матбаачилик соҳасида катта ишларни амалга оширди.

"Маърифат" кутубхонасининг ташкил этилиши муҳим воқеа бўлиб, у хорижда чиқарилган турли адабиётлар, рўзнома ва журналларни Бухорода тарқатиш билан шуғулланди. Шу йўл билан бошқа китоблар қаторида тақиқланган ва амирлик сиёсатига зид бўлган китоблар ҳам яширин сотилар эди ёки уларни кутубхонага келиб ўқир эдилар. Бу ишларда А.Бурҳонов, А.Ҳамдий, Мирзо Сирож Ҳаким фаоллик кўрсатишди. Бироқ уларнинг маърифатпарварлик интилишлари аввал Амир Олимхон томонидан катта қаршиликка учради.

Хулоса қилиб айтганда, Ёш бухороликлар партияси вакиллари XX аср бошида таълим тизимини ислоҳ қилишга жиддий киришдилар. Улар шу мақсад йўлида турли ташкилотлар, хайрия жамғармалари, ширкатлар тузиб, мамлакатнинг нафақат марказида, балки чекка вилоят ва туманларида ҳам кенг олиб бордилар. Улар ташкил этган матбуот саҳифаларида ислоҳотчилик ғоялари, таълим тизимини ислоҳ қилиш муаммолари тўғрисида фаол мунозара олиб бордилар. Бухоролик жадидларнинг мактаб ва маориф ишларини йўлга қўйишларида Туркистон жадидларининг ёрдами катта бўлган. Бироқ уларнинг бундай маърифатпарварлик фаолияти амирлик тузуми даврида етарли даражада қадрланмади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ЎзР МДА, 2-фонд, 1-рўйхат, 168-иш, 24-варақ.
2. ЎзР МДА, 3-фонд, 2-рўйхат, 155-иш, 4-8-варақлар.
3. Бухоройи шариф,. 1912. – 12 апрель
4. Айний С. Асарлар.– Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963. I-том. – Б. 234.
5. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар // Асарлар.– Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963. I-том. – Б. - 233.
6. Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIXв.в). – С.364.

7. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бугунги Турк эли: Туркистон ва яқин тарихи. – Б.354.
8. Йўлдошев Н.А. Фитратнинг Раҳбари нажот асаридан мухтасар фасллар. – Бухоро, 1996. – Б.3.
9. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Туҳафи аҳли Бухоро (Сафарнома). – Душанбе: Адиб, 1992. – 84-85 саҳ.
10. Ражабов Қ. Тарбияи атфол // Ўзбекистон миллий энциклопедияси, VIII-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2004. – Б. 271.

УЎК 903

ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ЯНГИ БОСҚИЧГА КЎТАРИШ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Д.И. Васиева, т.ф.н., доц., Қарши муҳандислик –иқтисодиёт институти, Қарши

Аннотация. *Мазкур мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистон олий таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари, ҳозирги кунда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш энг биринчи навбатда чуқур билимли, етук мутахассис кадрлар тайёрлашга боғлиқ эканлиги, олий таълимда амалга оширилган ислоҳотлар натижасида юз берган ўзгаришлар, бу борада қатор меъёрий ҳужжатлар қабул қилинганлиги, олий таълимнинг қамров даражасини босқичма-босқич оширилиши масалалари муҳокама қилинган.*

Калит сўзлар: *узлуксиз таълим, олий таълим, ислоҳот, таълим, тарбия, ўрта махсус, таълим сифати, инсон омили, ахборот технологиялари, модернизация, молиявий мустақиллик, рақобатбардош, илмий-тадқиқот, маданият, мутахассис, нодавлат таълим, давлат ва жамият.*

Аннотация. *В данной статье определены приоритеты радикального реформирования системы высшего образования Узбекистана за годы независимости. Современное социально-экономическое развитие страны зависит, прежде всего, от подготовки образованных, зрелых специалистов, изменений в системе высшего образования, принятие ряда нормативных документов, постепенное увеличение уровня охвата высшим образованием.*

Ключевые слова: *непрерывное образование, высшее образование, реформа, образование, воспитание, среднее специальное, качество образования, человеческий фактор, информационные технологии, модернизация, финансовая независимость, конкурентоспособность, исследования, культура, эксперт, негосударственное образование, государство и общество.*

Abstract. *In this article, the priorities of radical reform of the higher education system of Uzbekistan during the years of independence, the current socio-economic development of the country depends primarily on the training of well-educated, mature professionals, changes in higher education, a number of normative the adoption of documents, the gradual increase in the level of coverage of higher education.*

Keywords: *continuing education, higher education, face correction, education, education, secondary special, quality of education, human factor, information technology, modernization, educational ability, sustainability , research, culture, life, non - education, and society*

Шиддат билан ривожланаётган бугунги замонамизда ҳар бир мамлакат келажаги, хусусан, барча соҳа ва лойиҳалар муваффақияти билимли ёшларга боғлиқ. Шу боис, давлатимиз раҳбари Президентлик фаолиятининг илк кунларидан бошлаб инсон капиталини ривожлантириш, узлуксиз таълим тизимининг ҳар бир босқичида сифат кўрсаткичини янада яхшилаш масаласига алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Бундай саъй-ҳаракатлар эса педагоглар зиммасига ҳам залворли масъулият юклаяпти. Таълимнинг қайси босқичида бўлмасин, унинг мазмунини ошириш ва сифатини таъминлаш замонавий педагогнинг асосий вазифасига айланмоқда.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев раҳнамолигида амалга оширилаётган ислоҳотлар, биринчи навбатда, демографик жараёнлар ва урбанизацияни, башарият тафаккури ҳамда халқимизнинг ўсаётган сиёсий дунёқараши, онги ва маданияти, умумхалқ манфаати чуқур ўйланган ҳолда амалга оширилмоқда.

Таълим бу ҳар қандай мамлакатнинг энг асосий бўғини ҳисобланади. Айниқса, Олий таълим тизими бу мамлакатга кадрлар тайёрлашнинг илдизи ҳисобланади. Ҳозирги кунда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш энг биринчи навбатда чуқур билимли, етук мутахассис кадрлар тайёрлашга боғлиқ ҳисобланади. Шунинг учун ҳам мамлакатимизда бугунги кунда таълим тизимига катта эътибор қаратилмоқда. Бозор иқтисодига ўтиш ҳамда демократик ва ҳуқуқий давлат тузиш сари амалга оширилаётган ҳаракатлар инсондан ўзининг умуммаданий дунёқарашини кенгайтиришни, умумий ва профессионал омилкорликни доимий равишда ошириб боришни талаб этади. Бугунги кунда мустақил фаолият юритиб, муаммоли шароитлардан чиқиб кета оладиган ва ўзида билимга доимий чанқоқликни сезадиган ҳар томонлама етук кадрларга ижтимоий буюртма сезиларли даражада ривожланмоқда. Бозор иқтисодига ўтиш ҳамда демократик ва ҳуқуқий давлат тузиш сари амалга оширилаётган ҳаракатлар инсондан ўзининг умуммаданий дунёқарашини

кенгайтиришни, умумий ва профессионал омилкорликни доимий равишда ошириб боришни талаб этади. Зеро, Авлоний бобомиз таъкидлаганидек: «Таълим-тарбия биз учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидир». Бу ёндашув ҳар қандай замон ва маконда ҳам тарбия масаласига долзарб вазифалардан бири сифатида қаралганини кўрсатади.

Таълим тизимида, жумладан, олий таълимда амалга оширилган ислоҳотлар натижасида юз берган ўзгаришлар ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, иқтисодий ва маънавий жиҳатдан катта тарихий аҳамиятга эга. Амалга оширилган ислоҳотлар нафақат мамлакатимизда катта ижобий ўзгаришларга олиб келди, ҳатто халқаро майдонда ҳам мамлакатимиз обърў-эътиборини янги босқичга олиб чиқди. Бу борада қатор меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди. Маълумки, "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси", Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сонли фармони ҳамда 2018 йил 5 июндаги "Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора- тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-2752-сонли ҳамда 2019 йил 11 июлдаги "Олий ва ўрта махсус таълим тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4391-сонли қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 3 декабрдаги "Олий таълим муассасаларини босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштиришга ўтказиш тўғрисида"ги 967-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 февралдаги 133-ф-сонли фармойиши бугунги олий таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишга асос бўлиб хизмат қилади.

Олий таълим ислоҳотларининг маҳсули сифатида мамлакатимизда олий маълумот олмоқчи бўлган ҳар қандай фуқаро учун имкониятлар эшиги очилди. Аниқроқ айтганда, ёшидан қатъи назар, олий маълумотни кундузги, кечки ва сиртқи таълим шаклида олишга шароит яратилди. Яъни мамлакатимизнинг ҳар бир фуқароси ёши, миллати ва элатидан қатъи назар, ўзининг Конституцион ҳуқуқларидан тўлиқ фойдаланиш имкониятига эга бўлди.

Ўзбекистонда бугунги кунда олий таълим муассасалари сони 159 тага етди. Шундан университетлар 28 та, хорижий мамлакатлар таълим муассасаларининг 30 та филиалида мутахассислар тайёрлаш йўлга қўйилди. Ундан ташқари нодавлат олий таълим муассасаларининг сони ҳам кенгайиб 24 тани ташкил этмоқда. Олий таълимнинг қамров даражасини босқичма-босқич ошириш, тизимда соғлом рақобат муҳитини шакллантириш, ўқув юкламаларини мақбуллаштириш, таълим жараёнига рақамли технологияларни жорий этиш, олий таълим муассасаларининг молиявий мустақиллигини таъминлаш, профессор-ўқитувчиларнинг маоши ўртача 3,5 баробарга оширилиши - олий таълим ислоҳотларининг дастлабки натижаларидир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда муносиб ҳисса қўшувчи, замонавий билим ва педагогик технологияларни қўллаш кўникмаларига эга, юқори малакали мутахассислар тайёрлаш ҳамда соҳага илғор таълим технологияларини жорий қилиш орқали таълим соҳасини янада такомиллаштириш борасида тизимли тадбирлар белгилаб берилган. Шундан келиб чиқиб, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқлари учун юқори малакали кадрлар етказиб бериш борасида ўтказилган таҳлил натижалари, аввало, таълим соҳаси учун кадрлар тайёрлаш сифатига эътиборни кучайтириш, соҳада илғор хорижий тажрибани кенг жорий этиш, педагогик таълим инфратузилмасини яхшилаш зарурлигини кўрсатмоқда.

Мамлакатни модернизация қилиш, ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан барқарор ривожлантириш учун юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, халқаро стандартлар асосида юқори малакали, креатив ва тизимли фикрлайдиган, мустақил қарор қабул қила оладиган кадрлар тайёрлаш, уларнинг интеллектуал қобилиятларини намоён этиши ва маънавий баркамол шахс сифатида шаклланиши учун зарур шарт-шароит яратиш, соҳада соғлом рақобат муҳитини шакллантириш, жаҳон миқёсидаги рақобатбардошлигини таъминлаш бугунги кун олий таълим тизимининг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. Айни шу вазифаларни амалга ошириш ва бу борада вужудга келадиган муаммо ва камчиликлар юзасидан фикр алмашилади, олий таълим тизими фаолиятини такомиллаштириш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилади.

Олий таълим ислоҳотларининг муҳим қирраларидан яна бири ёшларимизнинг бир вақтда бир нечта олий ўқув юртига ҳужжат топшириш масаласи эди. Мамлакатимизда анча йиллардан буён фаолият юритаётган хорижий олий таълим масканларининг қабул жараёнига ҳавас билан қараб келар эдик. Зеро, бир вақтнинг ўзида мамлакатимиздаги ҳамма хорижий олий ўқув юртларига ҳужжат топшириш мумкин эди. Бу ҳолат бизни ҳам ҳайратга солар, ҳам ҳавасимизни келтирган. Президентимиз айнан ана шу масалада "Ёшларимизга бир вақтнинг ўзида бир нечта олий ўқув

юртига ҳужжат топшириш имкониятини беришимиз, ўйлайманки, уларнинг таълим олиш ҳуқуқларини кенгайтиришга хизмат қилади", - деб таъкидлаган эди. Ҳеч қанча вақт ўтмай ёшларимиз шундай имкониятга эга бўлди.

Жадал ривожланиб бораётган таълим тизими, илм-фан ва технологиялар мутлоқа бошқача мутахассисни тайёрлашни давлат ва жамият олдига вазифа қилиб қўймоқда. Бу эса дунё меҳнат бозорида рақобатбардош, интеллектуал салоҳияти ва профессионаллик даражаси юқори мутахассис-кадрни тайёрлашни, ва бу мутахассис касбий маҳоратидан ташқари хорижий тилларни ва замонавий компьютер технологияларини яхши ўзлаштирган бўлишини талаб қилади. Давлатимиз раҳбари томонидан мактабгача ва бошланғич таълимга ва умуман таълим тизимига эътиборнинг кучайтирилиши жамиятимизнинг ҳар бир фуқаросидан, айниқса, таълим ва илм-фанга масъул- лардан, боғча мураббийсидан тортиб, мактабдаги муаллимлар, олий мактабдаги профессор-ўқитувчилардан ижтимоий онги, тафаккури юқори, ватанга содиқ ёшларни тарбиялаш масаласига ўта жиддий ёндашишни тақозо этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мурабийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2020, 1 октябрь. - №207 (7709)

2. Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020., 1313-сон

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.08.2018., 1269-сон

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь. – www.uza.uz.

6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак, www.press-service.uz

УЎК 33

ШАРҚ ТАБОБАТИДА ТАБИБ ТУШУНЧАСИ ВА ФАОЛИЯТИ

Х.Жуманазаров, PhD, Фанлар академияси Тарих институти, Тошкент

Аннотация. *Мақолада шарқ халқлари тиб илмида даволовчи мутахассис бўлган табибларнинг пайдо бўлиши ва уларнинг тиббий фаолияти таҳлил қилинган. Жумладан, Марказий Осиё халқлари хаётига табиб атамасининг кириб келиши ва даволаш билан шуғулланувчи касб эгалари номини билдирувчи бошқа атамалар тарихи ўрганлиган.* Шунингдек замонавий жамиятда табибларнинг иш фаолият этно-социологик маълумотларга таяниб ёритилган. *Хакимларнинг даволаш тури ва ишига кўра гуруҳларга ажратилиши келтириб утилган.*

Калит сўзлар*: мистик, эмпирик билимлар, табиб, сартарош, уста, жарроҳ, аттор, кўз табиби (каҳҳол), синиқчи.*

Аннотация. *В статье анализируется появление табиб в медицинской науке восточных народов и их врачебная деятельность. В частности, изучал история введения в быт народов Средней Азии терминал врачей и других терминалов, обозначающих имена специалистов, занимающихся лечением. Также работа табибей в современном обществе основывается на этносоциологических данных. Хаким делится на группы по виду лечения и работы.*

Ключевой слова: *мистик, эмпирические знание, целитель, парикмахер, мастер, хирург, лавочник, окулист (каххол), костоправ*

Abstract. *The article analyzes the appearance of tabib in the medical science of the Eastern peoples and their medical activities. In particular, he studied the history of the introduction into the life of the peoples of Central Asia of the terminal of doctors and other terminals denoting the names of specialists involved in treatment. Also, the work of tabibeys in modern society is based on ethno-sociological data. Hakim is divided into groups according to the type of treatment and work.*

Key words: *mystic and empiric sciences, quack, hairdresser, master, visionary, sawbones, shopkeeper, ocular (kahhol), chiropractor*

Шарқ халқларида, жумладан туркий халқларда даволаш билан шуғулланувчи касб эгалари турли номлар билан аталган ва алоҳида улуғланган. Ўрта Осиё халқлари тарихи ҳақида маълумот берувчи манба "Авеста"да ҳам даволаш иши ва даволовчи касб эгаларини тайёрлаш босқичлари ҳақида қимматли маълумотлар учрайди. Чунки, инсон пайдо бўлибдики саломатлик унинг учун энг катта аҳамият касб этувчи жараён ҳисобланган. Тилшунослик, фольклоршунослик ва этнология ҳамда тиббиётга оид асарларда шарқ мамлакатларида даволаш иши билан шуғулланган шахсларнинг фаолияти ва номлари борасида тури маълумотлар келтирилган бўлиб, ушбу мақолада

даволаш иши билан шуғулланувчи касб эгаларининг номи атамаси ва турилари борасида тўхталиб ўтамиз.

Табиб сўзининг маъноси ва келиб чиқиши борасида бир қанча тиббий ва тарихий адабиётларда маълумотлар келтирилган[16:197]. Мавжуд адабиётларда табиб номи билан бирга ҳаким атамаси ҳам учрайди. Табиб (طَبِيبٌ) сўзининг асоси арабча тиб бўлиб, "даво" шаклида ишлатилади. Тиб сўзининг ўзи эса "ислоҳ қилиш", "тузатиш" маъноларида ҳам келади. Тиб қилди деганда "беморни ислоҳ қилди", "тузатди" каби маънолар тушунилган. Тиб сўзининг иккинчи маъноси "моҳирлик", "ҳозиқлик"дир. Ҳаким атамаси эса ҳикмат сўзидан олинган бўлиб, у "донишмандлик", "донолик" маъноларида ишлатилади[22:64]. Тарихдан маълумки, ўзбеклар азалдан табобат билан шуғулланувчи мутахассисларни табиб, бу соҳада етук олим бўлганларни ҳаким деб атаб келганлар[11]. Туркий халқларда табиб маъносини англатувчи бир қанча бошқа сўзлар ҳам бўлган, жумладан, отачи, эмчи, атасағун номлари билан атаганлар[15:71-114]. Табиб шахсини талқин қилишда, уларнинг жамиятда бажарадиган функцияси муҳим аҳамиятга эга. Шу нуқтаи назардан табиб – инсон тана аъзоларини яхши биладиган, касаллик турлари ҳақида тўлақонли билимга эга бўлган ва гиёҳларнинг хусусияти, дори тайёрлаш амалини эгаллаган шахсдир. Ҳаким сўзи табибнинг синонимини бўлиб, табобат илмини моҳирона эгаллаган шахсга нисбатан айтилади. Қадимда ҳам табиблар халқ орасида юксак ҳурмат билан тилга олинган. Сабаби – инсонлар энг оғир дамларда, ўзи учун қадрли бўлган соғлиғи ёмонлашганда уларга мурожаат қилишган. Халқ табобатига хос жиҳатлардан бири – бошқа касб эгаларининг ҳам даволаш амали билан яқиндан шуғулланишидир. Масалан, сартарошлар[20:69], темирчи усталар – жарроҳлик, қон олиш, массаж қилиш, тиш олиш, хатна қилиш ва бошқа усулларни яхши билганлар. Улар халқ томонидан алоҳида эъзозланиб, уста деб аталган[19:19]. Бу касб эгалари табибликка даъво қилмасаларда, ўз касб сирлари билан бирга табобатга доир билимларини ҳам шогирдларига мерос қолдирганлар. Тиббий билимларнинг турфа хиллиги ва касалликнинг хусусиятларига қараб табиблар ҳам соҳаларга бўлинади. Табибларни туркумлашда бирламчи ҳолат уларнинг ихтисослигидир. Қарийб барча халқларда табиблар фаолият турига кўра ўхшаш.

Олимлар халқ табобати билан шуғулланувчиларни иккита катта гуруҳга ажратадилар. Масалан, З. Грзивакс[1:17] "маънавий табиблар" ҳамда "тана хасталиклари табиблари, фолбинлар"га ажратади. Ж. Собиески[3:2] эса "шифобахш гиёҳлар билан даволовчилар", "илоҳий, ғайритабиий кучлар асосида даволовчилар" кўринишида бўлишни маъқул кўради. Ўзбек халқ табобати тарихига оид бошқа адабиётларда табиблар қуйидагича туркумланган: мистик ва эмпирик табиблар[20:65], аралаш турдаги табиблар, маҳаллий дин ёрдамида, сеҳр-жоду усули билан ёки ўз тажрибаси, эгаллаган билими асосида тузатувчи табиблар[2:24]. Мистик табиблар ҳам алоҳида усул ва касбий атрибутларга эга бўлганлар. Улар даволаш усулларига кўра халқ орасида: бахши, фолбин, азайимхон, садқоқчи, дуохон, парихон ва ҳ.к каби номлар билан аталади. Мистик табибларнинг даволаш жараёни бир-бирига ўхшаш ва бу жиҳат уларнинг касбий атрибутларида ҳам яққол кўринади. Улар тасбеҳ, чилдирма, ойна, қамчи, пичоқ[27:42] ва бошқа воситалардан фойдаланадилар.

Эмпирик табобат йиллар давомида изланишлар ва машаққатли тажрибалар ёрдамида инсонни дарддан фориғ этувчи дорилар, даволаш усуллари, тавсияларни ўзида жамлаган. Бу турдаги табиблар табиий воситалар (гиёҳлар, ҳайвон тана аъзолари, минераллар) асосида тайёрланган дорилар ёрдамида касалларни даволайдилар. Эмпириктурдаги табиблар маълум вақт давомида шогирдлик муддатини ўтагач, устозлар олдида имтиҳон топширган ва оқ фотиҳа олгиб, мустақил фаолият юритганлар. Эмпирик табобатнинг мистик табобатдан фарқи шундаки, мистик табобат атроф-муҳит, табиат ҳодисаларининг ғайритабиий томонларини талқин қилиб ёки инсон тафаккури илғай олмаган жараёнларга эътибор қаратиб, ундан шифо тиласа, эмпирик табобат атроф-муҳитдан табиий доривор воситаларни қидиради. Айрим халқларда эмпирик табобат вакиллари баъзи касб эгаларига ёки аҳолининг маълум тоифасига хизмат кўрсатишади ва шу асосда ихтисослиги бўйича турларга бўлинади. Масалан, Эронда фуқаро табиблари, денгизчилар табиби, қуруқликдаги ҳарбий кучларда хизмат қилувчи табиблар ва ҳоказоларга ажратилади[11:13]. Тадқиқот давомида эмпирик табибларнинг умумий даволаш усуллари ва ихтисослигига кўра гуруҳларга ажратиб ўрганилди.

Кишилар мунтазам табиат билан мунтазам алоқага киришиши натижасида турли тан жароҳатларини олишган ва инсон танасини аввалги ҳолга келтириш, уни қайта тиклашга бўлган талаб кучайиб борган сари бу борадаги билимлар қамрови ҳам кенгайиб боради. Шу соҳа вакиллари халқ орасида бугунги кунга қадар синиқчилар-айрим ҳолларда улар шикастабанд[25:10], солувчи, уста[18:265] номлари билан юритилади. Синиқчилар суякнинг синиши, дарз кетиши, чиқиши ва этнинг лат ейиши каби жароҳатларни даволайдилар. Синиқчилар ташҳис қўйишда бемор билан ўзаро оғзаки суҳбатга эмас[4:47], балки кузатиш ва лат еган жойни ушлаб кўришга катта эътибор

беришади. Шикастабандлар суякларни жойлашуви, жароҳатда қай даражада лат еганини катта тажриба ва кучли зеҳн ёрдамида аниқлашган. Улар ҳайвонларнинг суякларини ўрганиб[6:13] ёки қоп ичидаги йирикроқ майдаланган полиз экинларини (масалан, қовоқ) пайпаслаб териб чиқиб тажриба орттирганлар. Синиқчиларнинг муолажаси қуйидагича: улар бемор суягининг синган ва чиққанига қараб тухум сариғи, гилмоя, тахтакач (унинг ўрнига тожикларда[17] ва Хоразмнинг[9:30] баъзи жойларида қамиш новдаси ишлатилган) ёки таёқ ёрдамида беморнинг лат еган жойини дока билан боғлайди. Уқаловчи табиблар пай чўзилиши ёки эт эзилиши юз берса, уқалаш муолажасини қўллаган ва улар халқ орасида силоқчи номи билан танилган[13:16]. Рентген нурлари орқали ташҳис қўювчи аппаратлар билан жиҳозланган травматолог, ортопед каби тиббиёт хизматларининг юзага келиши ва муолажа жараёнида гипсдан фойдаланилиши маълум муддат синиқчилар фаолиятига таъсир ўтказди. Моштабиб Абдужаббор Муҳаммад Собир ўғли: "Рентген нурлари орқали аниқ ташҳис қўйишни инкор қилиб бўлмасада, айрим ўзгаришларни нур ёрдамида ҳам билиш қийин ва гипс бизнинг об-ҳавога ҳамда бемор мижозига мос келишини инобатга олиш зарур"[5:15], –дейди. Чунки, тиббиёт таклиф қилган гипслаш усули ҳам сиқиб оғриқ бериши ва суяк нотўғри битиши каби ҳолатлардан фориғ эмас.

Инсон тана аъзоларини даволаш билан шуғулланувчилардан бири жарроҳлардир. Жарроҳлик амал, дасткори деб ҳам номланган. Жарроҳлик танага ёғоч бўлаклари, тикан ва кейинчалик қурол ўқи санчилиши туфайли пайдо бўлиб, ибтидоий одамларнинг ўзига хос жарроҳлик кўникмаларини ишлаб чиқишига олиб келди[8:5]. Ўзбек халқ табобатида жарроҳлар тиш олиш, хатна қилиш, қон олиш ва бошқа мураккаб амалларни бажарганлар. Баъзи ҳолатларда кишилар темирчи, сартарошларга ҳам шу мақсадда даво истаб боришган.

Жарроҳлик қуроллари махсус ишлов беришни, айрим воситалар билан тозалашни талаб қилади. Илгари табиблар асбобларини темирчиларга буюртма асосда тайёрлатган ва амалиётдан олдин олов, пиёз билан тозалаган бўлсалар, ҳозир соҳани тиббиёт жарроҳлиги тўла қамраб олган. XX асрда табобатга қаратилган давлат сиёсати тиббиётни биринчи даражага кўтариб, табиб жарроҳларни содда, оддий амалиёт билан чекланиб қолишларига сабаб бўлди.

Одатда табиблар беморлар учун зарур дориларни ўзлари тайёрлашган ва қийматига қараб айрим дориларнинг таркиби, тайёрлаш усулини қаттиқ сир сақлашган. Илгари Шарқнинг йирик бозорларида беморларни қабул қилишга махсус мослашган хоналар ва дори сотиладиган растларга жой ажратилган. Масалан, 1740 йилда Хива бозорида дори билан савдо қилувчи 80 та дўкон фаолият юритган[22:28]. Бозорларда гиёҳ савдоси бугунги кунга қадар сақланган. Кузатишлар натижасида маълум бўлдики, республиканинг турли бозорларида савдо қилувчилар фақатгина гиёҳларни териб келиб сотишади, уларнинг айримлари содда дориларни тайёрлашни билсада, мураккаб дорилар тайёраш кўникмасига эга эмас.

Жамиятда тиббий амалиётга бўлган эҳтиёжнинг сақланиб қолиши табибларга нисбатан талабни ошириб, уларнинг мавқеини ҳам мустаҳкамлади. Оқибатда малакали табиблар беморлар билан банд бўлиб, вақтдан унумли фойдаланиш мақсадида оддий дориларни тайёрлаш ва доривор гиёҳларни териш каби юмушларга бошқаларни жалб қила бошладилар. Гиёҳ тўплаш шогирдлари ёки тоғда шу ишни касбига айлантирган кишилар орқали бажарилади. Оқибатда, табибдан ажралмаган ҳолатда гиёҳ терувчи, махсус дори тайёрловчи – доригарлар пайдо бўлган.

Атторлар ҳам жамиятда керакли дорилар билан таъминловчи сифатида танилиб, асосан чекка ҳудудларда яшовчи аҳолини турли доривор гиёҳлар билан таъминлаган. Улар маҳаллий ва четдан келтирилган маҳсулотларни етказиб бериб, камдан-кам ҳолатларда гиёҳларни ўзлари тўплаганлар[21:115]. Атторлар турли савдо вакиллари қаторида тилга олинади ва бозорларда уларнинг ўз дўконлари бўлган, улар нафақат доривор гиёҳлар, балки бошқа маиший ва хўжалик буюмлари билан ҳам савдо қилишгани айтилади[26:258]. Атторларнинг аксарияти бошланғич тиббий билимдан хабардор бўлиб, гиёҳ номлари, қандай хасталикларга даво бўлишини билишган. Атторлар ўз мижозларига эга бўлган. Агар мижоз сўраган дори ўзида бўлмаса, бошқалар орқали ҳам топиб беришга ҳаракат қилган. Барча доригар ва атторлар табиблар билан яқин муносабатда бўлган. Сабаби, биринчидан, таниқли табиб узоқдаги мижозлар билан атторлар орқали алоқа қилса, иккинчидан, машҳур табибнинг дорисига эгалик қилиш аттор учун реклама вазифасини ўтаган, учинчидан, аттор учун айрим дориларни қўллаш бўйича табиб фикри зарур бўлган. XIX асрнинг сўнги чорагида ташкил этилган дорихоналар атторлар фаолиятини чеклаб, дори тарқатиш вазифасини йўққа чиқарган.

Кўз касалликлари билан шуғулланувчи табиблар бўлиб, улар каҳҳол деб аталган. XVI асрга оид қозилик ҳужжатларида Самарқандда кўз табиблари муолажа билан шуғулланган ҳақида маълумот берилади[26:28]. XIX асрда Фарғона водийсида катарактани (кўз гавҳарининг хиралашуви) муваффақиятли даволаган маҳаллий табибнинг муолажа амалиёти ва унинг тиббий

анжомлари ҳақида маълумот учрайди. Бу амалиётни бошқа маҳаллий табиблар билан бир қаторда, кўпгина рус шифокорлари ҳам бевосита кузатиб бориб, амалиёт муваффақиятли бажарилганлигини айтиб ўтиш жоиз. Тошкентда яшаган афғон табиб шифо сўраб келган ўн уч ёшли қизнинг кўзини фақат гиёҳлар билан ўттиз кун давомида муолажа қилиб даволаган[12]. Шунингдек, Чодакда яшаган Суқсур Холмат қизининг кўз касалликларини мувафаққиятли даволагани, жумладан, кўзига оқ тушган кишиларни найқамиш орқали, жарроҳлик йўли билан тузатгани ҳақида ҳам маълумотлар учрайди[7:53].

Эмпирик билимларга асосланган табиблик касбининг пайдо бўлиши инсонларнинг кундалик эҳтиёжидан келиб чиққан бўлса, уларни турли соҳаларга бўлиниши одамнинг жисмоний тузилиши (анатомия)нинг мураккаблиги ва аъзоларда кечадиган хасталикларнинг турли-туманлигидан. Илгари табиблар инсондаги барча дардларга қарши курашиб келган, сўнгра иқлимнинг таъсири, кишиларнинг хўжалик тури, атрофдаги гиёҳларнинг турфа хиллиги ва айрим жойларда фақат бир касалликларни кўп кузатилиши ёки бир географик ҳудудда оммавий равишда касалликларни тарқалиши ҳам табибларни соҳалар бўйича мутахассис бўлиб етишишига сабаб бўлди.

Сўнгги сўз ўрнида айтиш мумкинки, жамиятда юз берадиган иқтисодий ва ижтимоий ҳолатлар, айрим соҳаларнинг тараққий этиши барча соҳаларда бўлгани каби саломатлик маданиятига ҳам таъсир ўтказган. Жумладан юқумли касалликларни тарқалиши, номаълум хасталикларни кузатилиши соғлиқни сақлаш тизимини ва бу борада фаолият юритувчи соҳа вакилларини юзага келишига сабаб бўлди. Шунингдек, урушлар, аҳолини оммавий кўчиши ёки диний қарашлар натижасида маълум даврда ва доирада айрим табобат соҳасига талабни кучайишига (уруш ва кўчиш жараёнида лат ейишлар, жароҳатларни кўпайиши) ёки бошқа соҳаларни турғунликка учрашига (инсон танасини ёриб кўришнинг таъқиқланиши) сабаб бўлган. Тиб илмига давлат томонидан эътибор қаратилиши: турли китобларнинг таржима қилиниши, табибларга тажрибалар ўтказиш ва таълим олиш учун шароит яратилиши ҳам табобат соҳасини юксалтирди. Лекин, Шарқ табобатида табибларнинг алоҳида соҳаларга бўлиниши нисбий жараёндир. Улар бир соҳада табиб бўлсада, доимо бошқа йўналишдаги тиббий билимларга эҳтиёж сезишади. Жумладан, жарроҳлар амалиётдан ташқари инсон суякларининг тузилиши, оғриқ қолдирувчи гиёҳларни билиши зарур. Шарқ табобати инсон организмини яхлит ҳолича ўрганади ва даволайди. Бу халқ табобати бир ғоя остига жамланган мураккаб тармоқли билим эканлигини кўрсатади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Grzywacz Z. Traditional Kazakh medicine in change. – Poznan, 2010.
2. Hohmann S. Ouzbekistan. Instrumentalisation politique de la medecine traditionnelle // Le Courrier des pays de l'Est. – 2008. – № 3.
3. Sobiecki J. The intersection of culture and science in South African traditional medicine // Indo-Pacific journal of phenomenology. –2014. – № 14.
4. Suprapto A. Study on traditional bone healing (research report). – Surabaya: Health Services and Technology Research and Development Center, 1996.
5. Абдужаббор Муҳаммад Собир ўғли. Асрлар ошган табобат. –Тошкент: Davr-press, 2007.
6. Абилқасимов Э. Қазақтин халиқ медицинаси. – Алмати: Атамура, 1993.
7. Баҳромзода Ў. Чодак (қишлоқ тарихидан лавҳалар). – Наманган: Наманган, 2000.
8. Бромлей Ю., Воронов А. Народная медицина как предмет этнографических исследований // СЭ. – 1976. – № 5.
9. Ғойибов М. ва бошқ. Хива табобати. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1995.
10. Жовлиев А. Темур ва Темурийлар салтанати даврида Ўзбекистон ҳудудида жарроҳликнинг ривожланиши // Оила шифокори. 2000 йил 21 апрель.
11. Жураев А. Халқ табобати. – Тошкент: Шарқ, 2008.
12. Икром Мавлон. Олдингдан оққан сув // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1984 йил 13 июль
13. Кадыров А. Об узбекской народной медицине // Сборник научных трудов Министерства здравоохранения Уз ССР ТГМИ. Т. 20. – 1961.
14. Логофетъ Д. Бухарское ханство – под русским протекторатом. Т. 2. – Спб.:Издат. В.Березовский, 1911.
15. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Т. 1. – Тошкент: Фан, 1960.
16. Минибаева З. Народная медицинская терминология у башкир Курганской области // Материалы IV Всероссийской науч. конф. – Уфа, 2010.
17. Монаков Н. Возможность использования способов иммобилизации, применяемых народной медициной в Таджикистане // Известия АН Таджикской ССР ОЕН. Т. 7. – Сталинабад, 1954.
18. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr. 2015.
19. Мўминова Г. Халқ табобати тарихидан // Сиҳат-саломатлик. –1999. –№ 1.
20. Назаров С. ва бошқ. Абу-л-Косим Аз-Захравий ўрта аср амалий жарроҳлигининг асосчиси // Ўзбекистон тиббиёт журнали. – 2002. – № 2–3.
21. Огудин В. Атторы – аптекари народной медицины Мусульманского Востока // ЭО. – 2001. – № 2.
22. Сейфульмулюков И. К вопросу о табибизме в Узбекистане // Медицинская мысль Узбекистана. – 1928. – № 9–10.

23. Собиров Р. Хоразм анъанавий табобатида доривор ўсимликларни ўрганиш ва улардан фойдаланиш. – Хива: Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2011.
24. Сухарева О. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –Москва: Наука, 1976.
25. Ўролов А. Ўтмишдаги даволаш ва шифобахш муассасалар. – Тошкент: Фан, 1990.
26. Усмонов Ш. Илк шифо масканлари // Фан ва турмуш. – 1998. – № 6.
27. Халмуратов Б. Пичоқ рамзи // Moziydan sado. – 2013. – № 4.

УЎК 194.5(576.1)

XX – XXI АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ МАҲАЛЛИЙ АҲОЛИСИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИ ВА ТИЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

И.Жураев, ўқитувчи, Гулистон давлат университети, Гулистон

Аннотация. *Ушбу мақолада муаллиф Мирзачўл воҳаси ҳудудидаги маҳаллий аҳолиниг этник таркиби тил ҳусусиятлари урф одатлари, уларнинг ўрганилиши тарихи хусусида фикр мулоҳазаларини турли манбаларга асосланган холда ёритиб, баъзи хулосаларни бериб ўтган. Ушбу хулосаларга таяниб биз бу воха аҳолисининг маънавий ҳаёти тўғрисидаги муҳим маълумотларга эга бўлишимиз мумкин.*

Калит сўзлар: *Мирзачўл, Гулистон, Суғд, Байовут, Маданият, Дўстлик, Аҳиллик, Мустақиллик, Тажрибакор, Обод, Янги ҳаёт, Чаканд, Ҳовос, Пучуғой, Савот.*

Аннотация. *В данной статье автор пришел к некоторым выводам, осветив на основе различных источников о традициях, языковых особенностях и истории их изучения этнический состав местного населения в Мирзачульском оазисе. Основываясь на этих выводах, мы могли бы получить важную информацию о духовной жизни тех, кто жил в этом воке.*

Ключевые слова: *Мирзачул, Гулистан, Согд, Байовут, культура, дружба, гармония, Независимость, опыт, процветание, новая жизнь, Чаканд, Ховос, Пучугой, Савот.*

Abstract. *In this article, the author came to some conclusions, highlighting the ethnic composition of the local population in the Mirzachul oasis on the basis of various sources about traditions, linguistic features and the history of their study. Based on these conclusions, we could get important information about the spiritual life of those who lived in this wok.*

Keywords: *Mirzachul, Gulistan, Sogd, Bayovut, culture, friendship, harmony, Independence, experience, prosperity, new life, Chakand, Hovos, Puchugoy, Savot.*

Долзарблиги. Ушбу воҳада XX асрнинг иккинчи ярмидан юзлаб аҳоли масканлари – қишлоқ ва маҳаллалар пайдо бўлиб, турли топонимлар вужудга келган бўлса-да, уларнинг катта қисми асосан жойлардаги ҳокимият органлари томонидан берилган "янгича номлар" (Гулистон, Сайхунобод, Бўстон, Маданият, Дўстлик, Аҳиллик, Мустақиллик, Тажрибакор, Обод, Янги ҳаёт, Янги давр ва ҳ.к.) бўлганлиги сабабли уларни воҳа аҳолиси тарихини ўрганишда бирламчи манбалардан бири сифатида баҳолаб бўлмайди.

Табиий географик жойлашувига кўра Мирзачўл Ўрта Осиёдаги йирик текисликлардан бири бўлиб, ҳудудий жиҳатдан Ўзбекистон Республикасининг асосан Сирдарё ва қисман Жиззах вилоятлари, Қозоғистон Республикасининг Туркистон вилоятига қарашли Жетисой ва Шардара (Чордара) туманлари ҳамда Тожикистон Республикаси Суғд вилоятининг Зафаробод туманларини ўз ичига олади [1]. Ушбу воҳа XX аср бошларигача асосан камсонли аҳоли ва кам ўзлаштирилган ҳудуд сифатида билинса-да, Ўрта Осиёнинг Чоч, Жанд (Қуйи Сирдарё), Ўтрор (Ўрта Сирдарё), Исфижоб (Сайрам), Еттисув, Фарғона, Суғд, Тохаристон, Хоразм каби тарихий-географик вилоятларидан бири бўлмиш Уструшонанинг таркибий бир қисми сифатида бу ер қадимги давр ва ўрта асрлардаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва этномаданий жараёнларда муайян даражада бешиклик вазифасини бажарган. Уструшонанинг асосан шимолдаги чўл ва дашт ҳудудларини ўз ичига олган Мирзачўл воҳаси айрим манбаларда ушбу тарихий-географик вилоятнинг энг йирик сиёсий-маъмурий марказларидан бўлган Зомин ўлкасининг бир қисми сифатида кўрсатилиб, Жиззахдан то Чиноз (Тошкент) ҳудудигача чўзилган географик кенгликлар Зомин номи остида ҳам тилга олинган [2].

Методлар ва ўрганилганлик даражаси. XIX асрнинг сўнгги чораги ва XX асрнинг бошларида Мирзачўл Чор Россияси тасарруфига ўтгач, воҳадаги сиёсий ва этномаданий жараёнлар айнан ушбу империя доирасидаги жараёнларга тортилган. Айниқса, бу даврда Ўрта Осиёнинг катта қисмини қўлга киритган чор амалдорлари минтақанинг нисбатан "бўш" жойлари – Еттисув ва Или – Иртиш ҳавзалари (Шимоли-Шарқий Қозоғистон) каби Мирзачўл воҳасини ҳам ўзлаштиришга интилганлар [3].

Қуйида ёзма манба маълумотлари ва топонимик материаллар асосида батафсилроқ кўриб чиқиладиганидек, XX – XXI асрлар оралиғида Мирзачўл воҳаси маҳаллий аҳолисини асосан ўзбеклар, қозоқлар ва тожиклардан ташкил этади. Шу билан бирга, сўнгги юз йиллик давомида воҳада, хусусан, Сирдарё вилоятида ўнлаб туман марказлари ва юзлаб қишлоқлар ташкил топиб, улар аҳолисининг этник таркибининг бир қисмини мазкур маҳаллий халқлар ташкил қилиши баробарида мамлакатимизнинг турли вилоятларидан, асосан, Жиззах, Самарқанд, Қашқадарё, Фарғона, Наманган, Андижон вилоятларидан кўчириб келтирилган ўзбек, қирғиз ва тожик аҳоли ҳам бугунги кунда воҳанинг маҳаллий аҳолисига айланиб улгурган. Бундан ташқари, ҳозирги кунда воҳада рус, татар, месхети турк, озарбайжон, корейс, немис ва бошқалар аҳолининг маълум бир қисмини ташкил этадилар.

Мирзачўл воҳасининг катта қисмини ташкил этувчи ўзбекларнинг тил хусусиятларидан келиб чиқилса, уларнинг сезиларли бир қисми ўзбек тилининг қарлуқ лаҳжасида сўзлашувчи, катта бир қисми эса ўзбек тилининг қипчоқ лаҳжасида сўзлашувчи аҳолидан иборатлиги англашилади. Шу ўринда айтиб ўтиш керак, бу ҳолат Мирзачўл воҳасининг ҳам қадим ва ўрта асрлардан бери маҳаллий аҳолисини ташкил этиб келаётган, аждодлари ўтроқ деҳқон ва кўчманчи чорвадор бўлган аҳоли вакиллари орасида, ҳам XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб воҳага кўчириб келтирилган турли вилоятлар ўзбеклари орасида учрайди. Масалан, Ховос номли аҳоли маскани ва атрофларида қарлуқ шеваси устуворлик қилса [4], Боёвут номли аҳоли масканларида қипчоқ шеваси устунлик қилади. Шунга ўхшаб, Жиззах, Самарқанд ва Қашқадарё воҳаларидан кўчирилган аҳоли орасида ҳам бу иккала шеванинг у ёки бу даражада кўпроқ ишлатилишига дуч келиш мумкин.

У.Ю Алибековнинг фикрича, этнологик кузатувларга кўра, Ўра-тепа атрофидаги Топқоқ, Нижони, Янгиқўрғон; Янгиобод туманидаги Жўлангар, Сармич, Баландчақир, Зомин туманида Пишоғар, Зарбдор туманидаги Оқбулоқ ҳудудларида истиқомат қилувчи ўзбек аҳолиларида уруғ қабилачилик анъаналари унутилган бўлиб, уларни маҳаллий элатларнинг авлодлари жумласига киритиш мумкин. Уруғ-қабилачилик анъаналари унутилган ўзбеклар ушбу ҳудудда истиқомат қилиши К. Шониёзовнинг «Туркийзабон халқларнинг турғун яшовчи қисми нафақат Уструшона вилоятида, Мовароуннаҳрнинг барча вилоятларида қадим даврлардан яшаб келганлиги тарихдан аён» [5] деган фикрининг тасдиғидир [6].

Мирзачўл воҳасининг ғарбий ва жануби-ғарбий қисмларида, Нурота тоғ этакларида унга туташ чўлларда яшаган ўғуз-салжуқлари асрлар давомида маҳаллий этнослар билан ёнма-ён яшаганлар, ўз навбатида, ўзбек этник гуруҳлари таркибига кириб кетган. Шунинг учун ҳам бўлса керак кейинги авлодлари ўзларини ўзбек туркманлари ёки «Нурота туркманлари» деб атаганлар[7], деб ёзади К. Шониёзов. Зомин, Ўратепа туманларида Сирдарё соҳилида мавжуд туркман қишлоқларида ўзбек туркманлари истиқомат қилишаётгани ўғуз этник гуруҳи ўтмишидан дарак беради.

Тадқиқот натижалари. Юқорида айтиб ўтилганидек, бугунги кунда Сирдарё вилояти аҳолиси этник таркиби жиҳатидан кўп миллатли ҳисобланади. Ўзбек, тожик, қирғиз, қозоқ, рус, татар, корейс ва бир неча ўнлаб этник гуруҳлар мажмуасини ташкил этади [8]. География муҳити Мирзачўлнинг жанубий-шарқий қисмини ташкил этган, шимолий томондан қозоқлар, жанубий томондан тожиклар билан қўшничилик чегарасида ўрин олган [9] бўлиб, Мирзачўлни ўзлаштиришда ҳамкорлик фаолиятини олиб боришган [10].

Мирзачўл воҳасида, хусусан, унинг марказий қисми бўлган Сирдарё вилоятидаги жой номлари – топонимлар ҳам воҳа аҳолисининг этник таркиби ҳақида муайян маълумотлар бера олади. XX асрнинг илк чорагидан то XXI бошларигача вилоятда мавжуд аҳоли масканларининг номи билан қисқача танишиб чиқадиган бўлсак, бу ерда ўнлаб қуйидагича туркий (ўзбек, қозоқ, қирғиз) ва форсий (суғдий, тожик) этнотопонимлар борлиги кўзга ташланади.

Мирзачўл воҳаси аҳолиси, хусусан, воҳадаги маҳаллий аҳолининг этник таркибини аниқлаш учун воҳадаги жой номлари – топонимларга мурожаат қилиш орқали бу борада муайян тасаввурларга эга бўлиш мумкин. Қуйида воҳадаги жой номларининг бир қисми билан танишиб чиқамиз.

1. **Мирзачўл** – ўрта асрларда бир қатор ҳукмдорлар, хусусан, Шайбонийлар сулоласи бошқарувчилари бу ҳудуддаги кенг майдонларга сув чиқарган, оқибатда чўлда деҳқончилик бирмунча ривож топиб, суғориш иншоотлари қад кўтарган. Айниқса, Абдуллахон II даврида минтақанинг бир қатор воҳаларида бўлгани каби Мирзачўл воҳасида ҳам кўплаб сув иншоотлари қурилиб, деҳқончилик ишлари ривожлантирилган. С. Қораевнинг ёзишича, XVI аср охиридан бошлаб халқ хон ва мирзоларнинг хизматларини инобатга олиб, "Мирзанинг чўли – Мирзачўл" деб атай бошлаган. Бошқа бир тахминга кўра эса Мирзо Улуғбекнинг ободончилик ишлари туфайли Чиноз – Жиззах чўли "Мирзачўл" деб номланади [11].

2. **Боёвут** – Гулистон туманидаги маҳалла фуқаролар йиғинларидан бирининг номи. Шунингдек, Сирдарё вилоятининг йирик туманларидан бирининг номи Боёвут. Тошкент вилоятида ҳам Боёвут номли қишлоқ мавжуд. Боёвут – 92 бовли ўзбек уруғларидан бири сифатида XVI асрдаёқ Сайфиддин Ахсикандийнинг "Мажму-ат-таворих" асарида қайд этилган [12]. С. Қораевнинг ёзишича, боёвут қадимги мўғул қабилаларидан бири бўлиб, мўғул тилида "бойлар" демакдир [13]. Бошқирд этнографи Р.Г. Кузеев боёвут қабиласининг бир қанча туркий халқлар таркибидаги бой, бойдор, бойлар, боёт (баят) каби этнонимлар билан бир экани исбот қилишга уринган [14]. Мирзачўл воҳасининг жануби-шарқий қисмида жойлашиб, воҳанинг бир бўлагини ташкил этган Жиззах вилоятининг Янгиобод туманидаги қишлоқларда бири Боёт деб аталиб, аҳолиси Сирдарё вилоятидаги боёвутлар билан муайян даражада қариндошлик алоқаларига эга. Шунингдек, XX аср бошларига тегишли Бухоро амирлиги ҳужжатларида Боёт, Баят номли амирликка қарашли қишлоқлар Чоржуй, Бурдалиқ бекликларида ва Бухоро вилоятидаги Сомжон, Қоракўл туманлари таркибида қайд этилган[15]. Айрим тадқиқотчиларга кўра, *боёт* этнонимини *боёвут* этнониминиг қадимги варианти бўлиб, *баят* (боёт) этнонимини Маҳмуд Кошғарийнинг "Девону луғати-т-турк" (Туркий сўзлар девони) (XI аср)да *баят*, *байундур / баяндур* ўғуз уруғлари номлари сифатида тилга олинади [16]. Демак, С. Қораевнинг боёвут уруғини мўғул уруғларидан бири деган қарашига тўлақонли қўшилиб бўлмайди. Яъни мўғул истилосидан қарийб икки аср олдин *баят* (боёт) уруғи туркий уруғлардан бири ўлароқ тилга олинган.

У.Ю. Алибековнинг ёзишича, ўзбек боёвутлари Ўрта Осиёнинг кўплаб ҳудудларида тарқалган. Бугунги кунда Сирдарё вилояти Боёвут, Гулистон туманларида истиқомат қиладиган ўзбек боёвутлари ўзларининг келиб чиқишини Ўратепадаги Навганди қишлоғи билан боғлашади. Тадқиқотчининг аҳоли орасида йиғган маълумотларига кўра, «жов келди» даврида боёвутлар учга бўлиниб кетган: маълум қисми Навгандида қолган, бир қисми Сирдарёнинг сўл соҳилига кўчиб қишлоқ ташкил қилган, учинчи қисми эса Фарғона водийсига кетиб, Сирдарё бўйларига яқин ҳудудда, Бешариқ туманида Новкат қишлоғига асос солганлар [17]. Н.О. Турсунов бошқа этник гуруҳлар билан бирга боёвутлар Шимолий Тожикистоннинг Мирзачўл воҳасига яқин ҳудудлардаги қуйидаги қишлоқларида истиқомат қилишини аниқлаган: Ўткамсой, Сармисоқлида, Қалъачаи калон (ёки Қалъачаи гули сурх), Яхтан (ёки Яҳдон), Капнаса, Қўрғонча, Бекобод (Конибодом яқинида), Кушкак ва ҳ.к [18]. Тадқиқотчиларга кўра, ўтмишда сув манбалари, воҳа ерлари, яйловлар, йирик заминдорлар ва кўчманчи чорвадор уруғлар орасида бўлиб олинганлиги, боёвутлар «жов келди»га қадар Сирдарё ва Ўратепа оралиғида чорва молларини боқиб, умргузаронлик қилганлигидан далолат беради [19]. Н.О. Турсунов боёвутлар қўй, йилқи боқиб, қишлов манзиллари Сирдарёнинг сўл соҳили бўлганлиги, аввалари баҳорги яйлов сифатида ҳам фойдаланганликларини қайд қилади [20].

3. **Ховос** – Сирдарё вилоятидаги туман номи. Мирзачўл воҳасининг жануби-шарқий қисмида жойлашган ушбу туман воҳанинг энг қадимги аҳоли масканларидан бири сифатида билиниб, Ўрта Осиёдаги йирик иқтисодий-маданий марказлардан бири ролини бажарган. Илк бор ривожланган ўрта асрлардаги араб ва форс географлари асарларида Ховас номи остида тилга олинган ушбу жой Уструшонанинг Зомин, Собот (Совот) каби йирик аҳоли масканларидан бири сифатида қайд этилган. Истаҳрий ўзининг "Китоб ал-мамолик ва-л-масолик" асарида Ховосни Зоминдан Банокат (Шош)га элтувчи йирик аҳоли манзили ўлароқ эслаб ўтади [21].

XX аср бошларида Ховосда жами еттита масжид бўлиб, улар "Қизил масжид", "Намозгоҳ", "Оқ масжид", "Қалъа", "Юсуфча", "Боло" ҳамда "Шонатарош" деб номланган. Шунингдек, **Ховоснинг жануби-ғарбида, Карвонсарой деб аталган қишлоқ бўлганлиги Буюк Ипак йўли манзилларидан бири айнан Ховосда жойлашганидан дарак беради.**

Юқорида айтиб ўтилганидек, XVIII асрда хароба айланган Самарқандни тиклаш учун шаҳарга Ўрта Осиёнинг одамларнинг оммавий кўчиб бориши кучайди. Бу ишда бошқалар қатори ховосликлар ҳам фаол қатнашди. Улар Самарқанд шаҳрининг шимолий қисмидаги Ҳайдаробод деган жойда гузар ташкил этиб, мусофирларни ўша ерга жойлаштиришади. Гузар "Ховоси якум" (Биринчи Ховос) ва "Ховоси дуввум" (Иккинчи Ховос) қисмларига бўлинади. Бундан кўринадики, сўнгги ўрта асрларда Ховос нисбатан аҳолиси гавжум жой бўлганлиги туфайли бу ердан аҳолининг бир қисми Самарқандга кўчирилишига қарор қилинган.

Ховосликлар асосан ўзбек ва тожиклардан ташкил топиб, улар орасида маданий жиҳатдан ўзаро яқинлик кузатилади. Ховос ўзбеклари қарлуқ шевасида сўзлашишлари эса бу ердаги ўзбекларнинг анча қадимдан Мирзачўл воҳасининг шарқий қисмида яшаб келганликларини тасдиқлайди.

4. **Миришкор** – Боёвут туманидаги қишлоқ номи. Ўзбек уруғларидан бири "миришкор" деб аталган. Топонимист С. Қораев *миришкор, меришкор, мурушкор* номлари билан аталган аҳоли

гуруҳини ўзбек халқи таркибига кирган ижтимоий гуруҳ деб ёзиш билан бирга, вилоятдаги Миришкор топонимини чўлни ўзлаштиришда "ўз ишининг устаси", "моҳир пахтакор" маъносида бўлса керак деб қарайди [22]. Ушбу аҳоли маскани аҳолисининг катта қисмини зоминликлар, бахмалликла, форижликлар ва қайирмаликлар ташкил этади.

Шу ўринда айтиб ўтиш керак, ўзбекларнинг миришкор уруғи билан боғлиқ жой номлари XIX – XX аср бошларида мамлакатимизнинг бир неча воҳаларида кенг тарқалган бўлиб, Бухоро, Навоий, Самарқанд, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятлари ва Жанубий Тожикистонда ушбу уруққа алоқадор ўнлаб қишлоқлар мавжуд бўлган. Хусусан, XX аср бошларига оид Бухоро амирлиги ҳужжатларида ўнлаб шундай номдаги аҳоли масканлари қайд этилган [23]. XX асрда Самарқанд вилояти Самарқанд, Қўшработ, Пайариқ туманларида, Бухоро вилояти Қоракўл, Вобкент, Пешку, Ғиждувон, Бухоро, Шофиркон туманларида, Навоий вилоятининг Кармана ва Нурота туманларида шу номдаги аҳоли масканлари қайд этилган [24].

Сирдарё вилоятидан фарқли ҳолда мамлакатимиз ва қўшни республикаларда "Миришкор" номли топонимларнинг пайдо бўлиши Қашқадарё воҳаси билан боғлиқ бўлиши мумкин. Қашқадарё воҳасининг жанубий-ғарбий ҳудудлари – қадимдан Касби мавзеси номланган ҳудуд аҳоли орасида "миришкор" деб аталувчи маҳаллий аҳоли яшаб, ўнлаб қишлоқларга эга мазкур аҳоли гуруҳи ўзбек тилининг қарлуқ лаҳжасида сўзлашишган. Анъанавий ўзбек уруғлари рўйхатида учрамаса-да, миришкорлар ўзбекларнинг бир уруғи сифатида билиниб, асосан, ўтроқ турмуш тарзида фаолият олиб борган [25]. Дарвоқе, "миришкор" сўзи ўзбек адабий тилида "деҳқон", "боғбон" маъноларида қўлланилади.

5. **Пучуғой** – XX асрда Ховос туманларидаги қишлоқлардан бирининг номи шундай аталган. *Пучуғой* – ўзбекларнинг қипчоқ уруғи бир тармоғининг номи [26].

6. **Оқчангал –** вилоятнинг Ховос туманига қарашли Оқчангал қишлоғи бугунги кунда Оқчангал маҳалла фуқаролар йиғини деб аталади. Қишлоқ аҳолиси ўзбеклардан иборат бўлиб, аҳоли орасида ўзларини ўзбекларнинг *найман, қўнғирбой, парча-юз, бет-юз* каби уруғ ва уруғ тўпларига мансуб деб билувчи кишилар учрайди.

7. **Ойдин** – вилоятнинг Мирзаобод туманига қарашли маҳалла фуқаролар йиғинларидан бирининг номи. Бу топоним янги жой номларидан бири бўлиб, Мирзачўл воҳасида қўшимча ерларнинг ўзлаштирилиши натижасида пйадо бўлган. Бугунги кунда ушбу аҳоли масканида асосан ўзбеклар яшаб, улар орасида ўз келиб чиқишини *юз* уруғининг *олмачи, сирғали* тармоқлари ҳамда *найман* ва *қирқ* уруғларига мансуб деб биладиган кишилар учрайди. Ушбу учала уруғ вакиллари ҳам Жиззах вилоятининг Зомин, Бахмал ва Ғаллаорол туманлари аҳолиси билан қариндошчилик ришталарига эга бўлиб, XX асрнинг иккинчи ярмида ҳозирги яшаш жойларига кўчиб келишган.

8. **Паймарт** – вилоятнинг Сайҳунобод туманига қарашли маҳалла фуқаролар йиғинларидан бирининг номи. Ушбу аҳоли масканида асосан ўзбеклар яшайди. Бу ернинг ўзбек аҳолиси XX асрнинг иккинчи ярмида Жиззах вилоятининг Бахмал ва Янгиобод туманларидан кўчиб келишган. Қишлоқ номи тожикча негизда ясалган бўлишига қарамай бу ерда тожик тилининг таъсири деярли сезилмай, аҳоли сўзлашув тилида ўзбек тилининг қипчоқча элементлари устунлик қилади.

9. **Нурота** – Сайҳунобод туманидаги қишлоқлардан бирининг номи. XX асрнинг иккинчи ярмида Навоий вилоятининг Нурота туманидан кўчириб келтирилган [27].

10. **Шерхона** – Боёвут туманидаги қишлоқ номи. С. Қораевнинг ёзишича, бу топонимнинг шер (арслон)га алоқаси йўқ. *Шерхона* – этнотопоним: ўзбекларнинг *сарой, тоғчи* ва бошқа қабила-уруғлари таркибида *шер, шербачча, шертўпи, шердан туған* (шердан тарқалган) деган этник шахобчалари бўлган. Тадқиқотчига кўра, Шерхона "шер уруғи вакиллари яшайдиган қишлоқ" деганидир [28]. XIX аср ўрталари – XX аср бошларида Нўғой уруғларидан бири *шир-аючи* (шер-айиқчи) ёки *шира, аючи-қипчоқ* деб аталганлиги ҳам [29] деб диққатга сазовордир.

11. **Увоқ** – Ховос туманидаги қишлоқ. Увоқ (увақ, уақ, вақ) – ўзбеклар, қозоқлар ва яна бир қатор туркий халқларнинг таркибига кирган уруғ. С. Қораевга кўра, увоқ – "ушоқ", "уруғнинг бир парчаси" [30].

12. **Табор** – Боёвут туманидаги қишлоқ номи. С. Қораев ушбу топонимни бу ерда чўлни ўзлаштириш учун кўчиб келган "чўлқуварлар" маскан тутган жой маъносида шундай аташган бўлса керак. Унинг фикрича, *табор* форс тилида "бирга кўчиб юрадиган лўлилар тўдаси ва уларнинг кўч-кўрони, шунингдек, уларнинг қўнган жойи" демакдир [31].

13. **Тўқбой** – Ховос туманидаги қишлоқ номи. Тўқбой – *юз* ва *сарой* каби уруғларининг бир тармоғи, тўпларидан бирининг номи. Ушбу этнотопоним мамлакатимизнинг бир неча вилоятларида учрайди.

14. **Қарапчи** – Боёвут туманидаги қишлоқ фуқаролар йиғинидан бирининг номи. Вилоятнинг Гулистон туманида ҳам Қарапчи деб аталадиган бир қатор аҳоли масканлари ҳам мавжуд.

Қарапчи – ўзбекларнинг *юз* ва *туёқли* уруғлари таркибидаги тўп (тармоқ)лардан бири. Мамлакатимизнинг бир қатор вилоятларида шу ном билан аталувчи этнотопонимлар мавжуд.

15. **Бешбулоқ** – Гулистон туманига қарашли қишлоқ. Бу ернинг аҳолиси асосан Жиззах вилоятининг Зомин туманидан кўчиб келишган. Улар ўзларини ўзбекларнинг "турк гуруҳи"га мансуб деб билишади. Жиззах вилоятининг Зомин, Бахмал, Самарқанд вилоятининг Ургут, Қашқадарё вилоятининг Ҳисор, Сурхондарё вилоятининг Бойсун туманларида, яъни тоғлик ҳудудлара ўзбекларнинг нисбатан қадимий уруғлари – "турк гуруҳи" ва Темурийлар даври билан боғлиқ этнотопонимлар (Турк, Қарлуқ, Барлос, Мусабозори, Калтатой, Чиғатой, Тоғчи, Қовчин ва ҳ.к.) сезиларли миқдорни ташкил этади [32]. Мирзачўл воҳаси билан унинг жанубидан қўшниси Жиззах вилоятининг Сангзор – Зомин минтақаси орасида ўзаро алоқалар ўтмиши қадимга бориб тақалса-да, жиззахликларнинг оммавий равишда Мирзачўлга кўчиши XX асрнинг иккинчи ярмидан бошланади. Сирдарё вилоятининг Сардоба, Оқолтин, Мирзаобод, Гулистон, Сайҳунобод туманларига Сангзор – Зомин минтақасидан аҳоли келиб жойлашган бўлса, вилоятнинг Сирдарё, Гулистон ва Оқолтин туманларида Жиззах вилоятининг Фориш туманидан кўчириб келтирилган аҳоли бирмунча кўпчиликни ташкил этади. Жиззах вилоятининг Янгиобод туманидаги бир қисм аҳоли эса Сирдарё вилоятининг Боёвут, Янгиер ва Ховос туманларига кўчиб, ўз қишлоқ ва маҳаллаларига асос солишади. Мирзачўл воҳасининг бир қисм аҳолисини қозоқлар ташкил этиб, улар воҳанинг шимоли-ғарбий қисмидаги асосан чўл ва дашт ҳудудларида, хусусан, Сирдарё вилоятининг Оқолтин тумани, Жиззах вилоятининг Гагарин, Дўстлик ва Арнасой тумани ҳамда Қозоғистон Республикаси Туркистон вилояти (собиқ Жанубий Қозоғистон вилояти)нинг Жетисой ва Шардара (Чордара) туманларида яшаганлар. Мирзачўл воҳасининг хўжалик турмушида туячилик кенг ўрин тутган қозоқ аҳолиси ўзбеклар билан яқин этномаданий алоқада бўлган. Маълумки, XIX аср охирида Мирзачўл ҳудуди Самарқанд вилояти Хўжанд уездига қарашли бўлиб, асосан у Сават ва Иржар (Эржар) волостларидан ташкил топган эди. Сават волостида маҳаллий аҳолидан асосан ўзбеклар, Иржар волостида эса қозоқлар истиқомат қилишган «Николай – 1» ариғи уларни ажратиб, чегара вазифасини ўтаган, бироқ ҳар иккала миллат дўст биродар бўлиб яшаган. Иржар волостида яшаган қозоқлар *қўнғирот* (қоракўса) ва *рамадон* уруғларига бўлинган [33].

Мирзачўл воҳасида қозоқлар хам аста-секин деҳқонларга айланиб, чорвачилик уларнинг ёрдамчи хўжалиги бўлиб қолади. Уларнинг айримлари ер майдонларига эга бўлган бўлса, бошқалари ерни ижарага олиб ишлашган ёки ижарачиларга ёлланиб ишлашган. Деҳқончилик билан шуғулланаётган қозоқлар ўтроқлашиб колади. Иржар волостида яшаган қозоқлар 3 та турли уруғга мансуб бўлиб, ўзларининг келиб чиқишига кўра турли гуруҳларга бўлинишган. Қўнғирот ота уруғидан *ўрозгелди* ва *қоракўса* уруғига *қоржов, бўлтай, халпе, жетим* тармоқлари ташкил топган эди. Улар, ўз навбатида, 3 та жамоани ташкил қилган: *ақчўрин, кўкчеган, оққум* тўплари.

Мирзачўл воҳаси маҳаллий аҳолисининг сезиларли бир қисмини тожиклар ташкил этади. Маълумки, Мирзачўл воҳасининг бир қисми, хусусан, шарқий бўлаги Ўзбекистон Сирдарё вилоятига қарашли Ховос тумани ва Янгиер шаҳрини ҳамда Тожикистон Республикасининг Зафаробод тумани (Суғд вилояти)ни ўз ичига олади. Шарқий Мирзачўл аҳолиси ўтмишда тарихий Хўжанд ва Ўратепа вилоятлари аҳолиси билан этномаданий алоқаларда бўлиб келган.

Хулосалар. Хуллас, XX – XXI аср бошларида Мирзачўл воҳаси маҳаллий аҳолисининг этник таркиби ва тил хусусиятлари билан қисқача танишиб чиқиш орқали воҳа аҳолисининг этномаданий ҳолати ҳақида муайян тушунчаларга эга бўлиш мумкин. Мамлакатимизнинг кўпчилик вилоятларидан бирмунча фарқли ҳолда Мирзачўлда, хусусан, Сирдарё вилоятида топонимикасида этнотопонимлар нисбатан камчиликни ташкил этади. Бу ҳолат биринчидан ҳудудда аҳоли масканларининг нисбатан камлиги ва уларнинг кўпчилиги асосан XX асрда ташкил этилганлиги билан изоҳланади. Иккинчидан эса вилоятда янги ерларнинг ўзлаштирилиши натижасида мамлакатимизнинг турли вилоятларидан аҳолининг кўчириб келтирилиши ва улар аралаш яшовчи янги аҳоли масканларининг ташкил этилиши жараёнида ўз даври талабларидан келиб чиққан ҳолда жой номларининг шакллантирилиши воҳада тарихий номларнинг нисбатан кам бўлишига олиб келди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул. муҳаррир: А. Муҳаммаджонов. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 122.

2. Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – Б. 15.

3. Алиева Р.Р. Из истории образования русских поселков в Ходжентском уезде // Номаи Донишгоҳ - Учёные Записки - Scientific Notes, №3(52) 2017. – С. 15-23.

4. Файзиева Х.Ч. Ўзбек диалектологияси . – Термиз, 2011. – Б. 41.

5. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 194.

6. Алибеков У.Ю. Сирдарёнинг этник тарихи. (Этноэкологик таҳлил). – Гулистон, 2015. – Б. 45-47.

7. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: «Шарқ» 2001. – Б. 398.
8. Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2016. – Б. 70.
9. Рудзянский Д.И., Анаров А.Н. Сотрудничество Узбекистана и Казахистана в развитии мелиорации // ОНУ. 1986. №3. – С. 24; Сборник решений по сельскому хозяйству. – М., 1963. – С. 286.
10. Эрбутаева У.С. XIX аср охири – XX аср бошларида Мирзачўл қозоқларининг ижтимоий-иқтисодий хаёти ва демографияси // "Уструшона Буюк Ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида)" мавзули республика конференцияси материаллари. – Гулистон, 2016. – Б. 117-120.
11. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари ..., б. 124.
12. «Материалы по истории киргизов и Киргизии». Вып. 1. – М.: Наука, 1973. – С. 211.
13. Қораев С. География жойлар маъноси ..., б. 38.
14. Кузеев Р.Г. Происхождение башкирского народа. – М., 1974. – С. 328.
15. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) // Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Т.: Университет, 2001. – С. 27.
16. Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. Индекс-луғат. Ғ. Абдураҳмонов ва С. Муталлибовлар иштироки ва таҳрири асосида – Т.: Фан, 1967. – Б. 391.
17. Алибеков У.Ю. Сирдарёнинг этник тарихи (Этноэкологик таҳлил). – Гулистон, 2015. – Б. 50-57.
18. Турсунов Н.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана в XVIII – нач. XX вв. (историко-этнографические очерки). – Душанбе: Ирфон, 1991. – С. 195, 236, 278, 345, 347, 351, 353.
19. Пардаев А.Х. Жиззах беклиги – Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача): т.ф.н.... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б. 16.
20. Турсунов Н.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана ..., с. 323.
21. Истахрий. «Китаб ал-масалик вал-мамалик». Йўллар ва ўлкалар китоби. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 170, 185.
22. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари ..., б. 124.
23. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) // Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Т.: Университет, 2001. – С. 97.
24. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана ... – С.168.
25. Қораев С. География номлар маъноси. – Т.: «Ўзбекистон», 1978. – Б. 79.
26. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари ..., б. 124.
27. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари ..., б. 124.
28. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари ..., б. 125.
29. Керейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – Ставрополь: «Сервисшкола», 2009. – С. 48.
30. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари ..., б. 124.
31. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари ..., б. 124.
32. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана– С. 72-80.
33. Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи ..., б. 15.

УЎК:634, 338

ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИКЛАРИДА ГРЕК ЁНҒОҒИНИ ЕТИШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

А.Б. Инобатов, катта ўқитувчи, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент

Аннотация. *Ушбу мақоладаги муаллиф республикада ёнғоғ бизнесини ривожлантириш ушбу жараённинг ҳуқуқий консультациясини кенгайтириш имкониятларини баҳолайдилар. Ёнғоқни ишлаб чиқариш ва экспорт қилиш бўйича кенг таҳлил материалларини тақдим этади.*

Калит сўзлар: *грек ёнғоғи, экспорт, бизнес, рацион, ихтисослаштириш, таваккалчилик, интенсив технологиялар, пайвандлаш, селекция, рақобатбоб навлар, плантация, вегетатив, йиллик самарали ҳарорат миқдори, тоғли ва тоғ олди ҳудудлари.*

Аннотация. *Авторы в данной статье оценивают возможности развития орехового бизнеса в республике и расширение правового закрепления данного процесса. Дают обширные аналитические материалы относительно производство и экспорта грецкого ореха.*

Ключевые слова: *Орех грецкий, экспорт, бизнес, рацион, специализация, риск, интенсивно технологичные сорта, прививка, селекция, конкурентоспособные сорта, насаждение, вегетативный, годовая эффективная температура, горные и предгорные районы.*

Abstract. *The authors in this article assess the possibilities of developing a nut business in the republic and expanding the legal consolidation of this process. They provide extensive analytical materials regarding the production and export of walnuts.*

Keywords: *Walnut, export, business, ration, specialization, risk, intensive technology varieties, grafting, selection, competitive varieties, plantation, vegetative, annual effective temperature, mountainous and foothill areas.*

Кириш. Ҳар бир мамлакат аграр сектори ислоҳотидан кўзланган бош мақсад, озиқ-овқат хавфсизлигига эришиш бўлиб, бу катта ижтимоий-иқгисодий аҳамият касб этади. Ўзини-ўзи озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш зарурияти мамлакатда мустақиллик, иқтисодий хавфсизлик ва ижтимоий барқарорликни сақлаб қолиш шартларидан бири ҳисобланади. Таъбир жоиз бўлса таъкидлаш лозимки, республкамизда саноат асосида ва жаҳон бозорига талабларига йўналтирилган грек ёнғоғи етиштиришга бўлган ҳаракатлар шунингдек глобал ёнғоқ бизнеси экспортбоп аграр маҳсулотлар бозоридаги янги йўналишлардан бири ҳисобланади.

Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йилнинг 1 июнидаги ПҚ-3025-сонли "Ёнғоқ ишлаб чиқарувчилар ва экспорт қилувчилар уюшмасини тузиш ва унинг фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги қарори қабул қилиниши ва унинг ижроси доирасида республикамизга кириб келаётган жаҳон бозори талаблари доирасидаги маҳсулотлар етиштириш имконини берувчи грек ёнғоғи навлари асосида плантациялар ташкил қилиш тадбирлари, республикамизнинг тоғли, тоғ олди лалми деҳқончилик ҳудудлари салоҳиятидан (лалми ер майдонлари, шаклланган тажрибалар, иқлим шароитлари, булоқ сувлари, ер ости сувлари) унумли фойдаланиш имоконини янада кенгайтиради. Шунингдек, мазкур қарор ижроси доирасида ички ва ташқи бозорлар учун рақобатбардош ёнғоқ ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш, хорижий тажрибаларни кенг жалб қилиш ҳисобига замонавий ёнғоқ плантацияларини барпо қилиш ҳамда ёнғоқ етиштириш бўйича илмий асосланган усуллар ва интенсив технологияларни ишлаб чиқишга қаратилган илмий тадқиқотлар кўлами ҳам кенгаймоқда.

Мамлакатимизда ер ресурсларининг чекланганлиги, мамлакатимизда аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш яхшилаш ва озиқ-овқат хавфсизлигига эришишда деҳқон хўжаликларини аҳамияти кенгайиб бормоқда. Чунки, ўтган давр ичида деҳқон хўжаликлари йилдан-йилга ривожланиб, қишлоқ хўжалишги ишлаб чиқаришида муҳим ўрин эгалаб келмоқда.

Мавзунинг долзарблиги ва ҳозирги ҳолати. Глобал табиий-иқлим шароити ўзгариши, жаҳон аҳолисининг ўсиб бориши ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бозоридаги рақобатнинг кучайиши шароитида қишлоқ хўжалиги товар маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларининг иқтисодий хавфсизлиги тизимини яратиш, қишлоқ хўжалиги иқтисодиётининг муҳим таркибий қисми сифатида қишлоқ жойларда уй хўжаликлари таркибида томорқа хўжаликлари ривожланишини рағбатлантириш ва оила тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш институтлари ҳамда механизмларини такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш долзарб масалага айланиб бормоқда. Қарор билан 2017-2021 йилларда ёнғоқ етиштириш ҳажмини янада кўпайтириш бўйича чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилган бўлиб, 2017-2019 йиллар – грек ёнғоғи кўчатларини республикага олиб келиш, 2018-2019 йиллар- ёнғоқларни пайвандлаш учун пайвандтагларни келтириш, 2020 йилда-лаборатория шароитида ёнғоқнинг тегишли минтақа табиий-иқлим шароитларига мос юқори ҳосилдор навларини ишлаб чиқиш, 2018-2020 йилларда ёнғоқ етиштириш ва уни ички ҳамда ташқи бозорда сотишни йўлга қўйиш каби тадбирларни амалга ошириш кўзда тутилган.

Қарор билан ташкил қилинган "Ёнғоқ ишлаб чиқарувчилар ва экспорт қилувчилар уюшмаси" иштирокчилари учун 2020 йилга қадар четдан олиб келинадиган Ўзбекистонда ишлаб чиқарилмайдиган томчилатиб суғориш ускуналари, ёнғоқ етиштириш учун қишлоқ хўжалиги техникалари, ёнғоқ кўчатлари, пайвандтаглари, пайвандўстлари, оналик материаллари божхона тўловларидан озод этилганлиги, республикамизда ёнғоқзорларни плантация шаклида ташкил қилиш имконини кенгайтиради [1].

Плантациялар шаклида бозор талабини ҳисобга олган ҳолда истиқболли грек ёнғоғи навларидан фойдаланиб, ёнғоқзорлар барпо қилиш асосида маҳсулот етиштириш, биринчи навбатда бозоргир, ишлаб чиқарувчига юқори даражада фойда келтириши билан ажралиб турадиган маҳсулотлар миқдорини кенгайтиришга имкон беради.

Асосий қисм. Бугунги ва эртанги тараққиётимиз бевосита боғлиқ бўлган қишлоқ хўжалиги соҳасидаги таркибий ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Айниқса, қишлоқ хўжалик экинларини жойлаштиришда анъанавий ёндошувлардан воз кечиб, деҳқонлар даромадини кўпайтирадиган, экспортга йўналтирилган маҳсулотларни етиштиришга инвестицияларни жалб қилинмоқда.

Ер - сув ва моддий-техника ресурсларидан самарали фойдаланиш дунё мамлакатлари қатори бизда ҳам глобал муаммолардан бири ҳисобланади. Дунё аҳолисининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжи, аҳоли сони ўсишига нисбатан пропорционал равишда ортиб бормоқда. Бу муаммони ҳал қилишда янгича муносабатга ўтиш асосий масала қилиб белгиланди. Сўнгги ўн йилликда пахта майдонлари деярли 2 баробарга қисқартирилиб, уларнинг ўрнига дон, сабзавот, полиз, мойли экинлар экилиб, боғ ҳамда токзорлар барпо этилди. Бу таркибий ўзгаришлар жараёнида ишлаб чиқаришнинг турли шакиллари фаолият юритиб уларнинг ҳуқуқий асослари яратилди. 1998 йил 30 апрелда "Фермер хўжалиги тўғрисида"ги қонун қабул қилиниб, 2020 йил

ҳолатига 90 мингта фермер хўжалиги ҳамда **4559966 деҳқон хўжалиги ва томорқа ер майдонларида** фаолият юритмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг "Деҳқон хўжалиги тўғрисида"ги, "Оилавий тадбиркорлик тўғрисида"ги, "Хусусий корхоналар тўғрисида"ги қонунларида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли Фармонида ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари фаолиятини янада ривожлантиришнинг ташкилий чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2017 йил 10 октябрдаги қарорида қишлоқ хўжалигини жадал ривожлантириш ва таркибий ўзгаришларни чуқурлаштириш йўналишларида қўйилган устувор вазифаларни амалга оширишда ушбу мақоладан кенг даражада фойдаланишга хизмат қилади.

Деҳқон хўжалиги ва томорқанинг ўз етиштираётган маҳсулотга бозордаги талаб ва таклиф нисбатидан келиб чиқиб мустақил равишда баҳо белгилайди. Деҳқон хўжаликлари қишлоқларда бандлик муаммосини ҳал этишда ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Жумладан, деҳқон хўжалигидан келаётган даромаднинг қишлоқ оилалари умумий даромадидаги улуши (бир оила аъзоси ҳисобига) 26 фоизни ташкил этади. Деҳқон хўжаликлари даромади таркибида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сотишдан ва натура шаклдаги даромадлар улуши республика минтақалари бўйича 62,2-70,0 фоизни ташкил этмоқда.

Деҳқон ва томорқа хўжалиги соҳасини ривожлантириш қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ва ҳудудий хусусиятлардан самарали фойдаланиш асосига йўлга қўйилган бўлиши лозим. Бунда маҳсулот етиштириш мавсумийлиги билан биргаликда, маҳсулотларининг ҳатто битта тури ҳам эрта баҳордан кеч кузгача пишиб етилиши (масалан олманинг эртапишар, ёзги ва кузги-қишги навлари мавжуд), шунингдек, ёнғоқли меваларнинг (ёнғоқ, бодом) сақлашга жуда қулайлиги кабилар эътиборга олиниши лозим. Бу хусусиятлар маҳсулотларни бозорга чиқариш жараёнидаги ишларни ташкил этишда муҳим аҳамият касб этади [2].

Деҳқон ва томорқа хўжаликларини барқарор ривожлантиришга таъсир этувчи омиллар муайян чора тадбирларни амалга ошириш даври жойига мос равишда ўзгаришда бўлади. Деҳқон хўжаликларининг хусусиятлари, фаолиятдан кўзланган мақсад, маҳсулот ишлаб чиқаришнинг пировард натижалари ва бошқа мезонлардан келиб чиққан ҳолда юқори натижаларга эришиши учун барча омилларни эътиборга олиш талаб этилади.

Деҳқон хўжаликларида моддий манфаатдорлик юқорилиги боис банд бўлган бир киши ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқариш фермер хўжаликларига нисбатан 1,4 марта, бир гектар экин майдонидан олинаётган маҳсулот қиймати эса 10-12,0 марта юқори бўлмоқда. Шунинг учун деҳқон хўжаликлари салоҳиятидан тўлароқ фойдаланиш, уларни барқарор ривожлантириш учун шароитлар яратиш лозим.

1 -жадвал

Аграр соҳада деҳқон хўжаликлари фаолиятининг натижалари [3]

Т/Р	Кўрсаткичлар	Ўлч бирл	2020 й.
1	Деҳқон хўжаликлари сони	Млн.	4,792
2	Ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотида деҳқон хўжаликларининг улуши	%	64
3	Қишлоқ хўжалиги ерларида деҳқон хўжаликларининг улуши	%	2
4	Хайдаладиган ерларда деҳқон хўжаликларининг улуши	%	11
5	Сабзавот маҳсулотлари етиштиришда	%	66,5
6	Картошка етиштиришда	%	83,4
7	Полизчилик маҳсулотлари етиштиришда	%	51,5
8	Мева ва резавор маҳсулотлари етиштиришда	%	52,2
9	Узум етиштиришда	%	46,4
10	Сут маҳсулотлари етиштиришда	%	96,7
11	Гўшт маҳсулотлари етиштиришда	%	95
12	Деҳқон хўжалигидан келаётган даромаднинг қишлоқ оилалари умумий даромадидаги улуши	%	26
13	Деҳқон хўжаликлари даромади таркибида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сотишдан ва натура шаклдаги даромадлар улуши республика минтақалари бўйича	%	62,2-70
14	Деҳқон хўжаликларида моддий манфаатдорлик юқорилиги боис банд бўлган бир киши ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқариш фермер хўжаликларига нисбатан юқорилиги;	марта	1, 4
15	Деҳқон хўжаликларида моддий манфаатдорлик юқорилиги боис бир гектар экин майдонидан олинаётган маҳсулот қийматининг юқорилиги	марта	10-12,0

Бугунги кунда товар маҳсулоти ишлаб чиқариш ва сотишда деҳқон хўжаликлари ўзига хос устунликка эга. Сўнгги йилларда деҳқон хўжаликларининг даромадлари ортиб ва турмуш

шароитлари яхшиланиб бормоқда.

Тошкент вилоятининг Паркент туманларидаги деҳқон хўжаликларида кўриш мумкин. Деҳқон хўжаликларининг шахсий манфати йўлида қилинган ҳаракат натижаси ижтимоий манфатдорлик ва фаровонликка олиб келмоқда. Бунда ҳеч бир назорат, текширув ёки бошқа бировни аралашувига эҳтиёж йўқдир. Шунинг учун деҳқон хўжаликлари нафақат ўз оилалари даромади ва яшаш тарзини юксалтирмоқда, балки бу мақсадга эришиш йўлида улар билвосита жамият манфаатларига ҳам хизмат қиляпти.

Олиб борилган илмий ишимизда Тошкент вилояти Паркент тумани **Ҳ.Убайдуллаев деҳқон хўжалигининг** асосий кўрсаткичларини таҳлил қилдик. Ҳ.Убайдуллаев деҳқон хўжалигининг асосий томорқаси 15 сотих, бундан ташқари ер майдонига даромад олиш мақсадида грек ёнғоғини ҳам жойлаштирган ердан самаралий фойдаланиб даромадни ошириш учун керакли агротехника ва махаллий ўғитлаш ишларини олиб боради. Оила аъзолари давлат корхоналарида ишлаши билан биргаликда ўз деҳқон хўжалиги асосида олган томорқасида бозор талабига мос ҳолда маҳсулот етиштирилади ва даромад қилинади. Деҳқон хўжалиги оилавий томорқасидан грек ёнғоғи етиштириш натижасида олган даромади ва харажатлари таҳлилини ўрганганимизда қуйдаги натижаларни кўрдик. Оила аъзолари -5 киши шу жумладан мехнатга лаёқатлиги 3 киши оилада 15 сотих шахсий томорқа мавжуд бўлиб, асосан деҳқончилик билан шуғулланиб келинади. Томорқада бозор талабига мос ҳолда маҳсулот етиштирилади ва даромад қилинади. Оилада ёнғоғ экилган майдони – 4 сотихни ташкил қилади. Томорқадан 2021 йилда олинган натижа ва кўчат сонига этибор берсак 6 туп грек ёнғоғи дарахтидан келган даромад кўриниши.

Махсулот ишлаб чиқариш (йиллик) 1 туп грек ёнғоғи дарахти 100 кг ҳосил беради. Жами 6 туп грек ёнғоғи дарахти 6х100=600 кг йиллик ишлаб чиқариш хизмати бир туп грек ёнғоғи дарахти учун мехнат харажатлари кўриниши (50 минг сўм шакил бериш + 20 минг сўм тагини юмшатиш + 20 минг сўм суғориш + 90 минг сўм касалликларга қарши курашиш + 60 минг сўм 4/5 турдаги ўғитларни қўллаш + 70 минг сўм мевасини териш учун + 15 минг сўм меваларни бозорбоб турларга ажратиш + 10 минг сўм йиғилган ёнғоқ мевасини ташиш) = 335 минг сўм жами харажатларни ташки қилди.

Бир туп грек ёнғоғи дарахтидан олинадиган ҳосил мевасига 100 кг ни ташкил қиладиган бўлса, олинадиган ҳосилдорлик натижасини пул қийматига кўринишига келса қуйдагича бўлади (100 х 20 000) = 2000 000 сўм ни ташкил қилди. Олти туп грек ёнғоғи дарахтидан олинадиган ҳосилдорлик натижасини пул қийматида кўринишига айлантирсак 600 х 20 000 = 12 000 000 сўм ни ташкил қилди. Ялпи ҳосил қиймати (12 000 000 - 2 000 000) = 10 000 000 сўмни, Соф фойдаси эса 10 000 000 сўмни ташкил қилди. Агарда янги навларни жойлаштирилса грек ёнғоғи дарахтларини экиш асосида етиштирилган маҳсулотлар баҳолари ҳам анча юқори бўлади. Жумладан, бу борада Тошкент шаҳридаги деҳқон бозорларидаги олиб борилган кузатишлар натижалари кўрсатишича агарда грек ёнғоғига бозор баҳоси шаклланиши жиҳатидан ёндашадиган бўлсак:

- грек ёнғоғи меваси йирикроқ бўлса майда ёнғоқларга қараганда 50 фоизгача қимматроқ сотилиши;
- ўтган йилда йиғиштириб олинган ёнғоқ, янги йиғиб олинган ёнғоққа нисбатан қимматроқ 30 фоизга қимматроқ сотилиши (фақат янғоқнинг янги ёки эскилигини билиш истеъмолчидан бир қадар билимларни ва тажрибани талаб қилади);
- пўчоғидан тозалаб қўйилган грек ёнғоғи мағзи қимматроқ сотилиши билан биргаликда бундай маҳсулотнинг тозаланмаган грек ёнғоғига нисбатан тезроқ бузилишини, чанг ва бошқа зарарли моддалар билан ифлосланишини ҳам эътиборга олиш лозим бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, оила аъзоларининг меҳнати асосида ташкил этилган деҳқон хўжаликлари жамиятнинг бошланғич бўғини экан унинг манфаати ва ҳаёти юксак даражада бўлиши жамиятнинг энг олий мақсади ҳисобланади. Мана шу мақсадга эришиш жамиятимиз инсонларини фаровон яшашини ташкил қилиш бозор муносабатлари ривожланаётган мамлакатимизда мавжуд имкониятлардан оқилона фойдаланиш билан белгиланади. Оила фаровонлиги моддий неъматларни кўпроқ ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш билан белгиланади, бунинг учун оила даромадлари юқори бўлиши керак.

Деҳқон хўжаликлари сердаромад сохалардан бири бўлган грек ёнғоғи ҳисобланиб хорижий янги "Chendler" ва "Cisco", навларидан фойдаланиши ҳисобига ҳосилдорлиги ва даромади оширишда қуйидаги таклифларни берамиз:

- деҳқончилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришда агротехник тадбирларни ўз вақтида ўтказиш;
- деҳқончилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришда янги хорижий навларни жойлаштириш ҳисобига ишлаб чиқаришни модернизациялаш;

- деҳқончилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришда деҳқончиликни илмий асосда ташкил этиш;
- деҳқончилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришига инновацияларни жалб этиш;
- деҳқончилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришда фан техника ютуқларини ишлаб чиқаришга жалб этиш;
- деҳқончилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришда ишчилар малакасини ошириб бориш ва бошқалар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Фермер, деҳқон хужаликлари ва томорқа ер эгалари фаолиятини янада ривожлантириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги Қарори 2017 йил 10 октябрь ПҚ-3318

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 18 мартдаги "Деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер участкаларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 июндаги "Ёнғоқ ишлаб чиқарувчилар ва экспорт қилувчилар уюшмасини тузиш ва унинг фаолиятини ташкил этиш тўғрисда"ги Қарори. Халқ сўзи 2017 йил 17 январ.

4. https://www.uznuts.uz – Ўзбекистон Ёнғоқ ишлаб чиқарувчилар ва экспорт қилувчилар уюшмаси.

5. Inobatov A. Organizational and economic mechanism of increasing efficiency of industrial processing of nuts in Uzbekistan https://ijrcs.org/wpcontent/uploads/IJRCS201911023.pdf // 2019, Б. 124-128.

6. N.S.Khushmatov., A.B.Inobatov "Resource-saving technologies in the cultivation of walnuts in terms of conomic evaluation methodological approaches" Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 1, 2021 P-ISSN: 2204-1990; E-ISSN: 1323-6903 // https://cibg.org.au //pdf // Б. 957-968.

7. A. B Inobatov, N.S.Khushmatov Pricing Formation And Market Variability Characteristics In Walnut Cultivation And Its Delivery To Consumers Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol.12 No.7 , 294-301 online: 16 April 2021

8. A.B. Inobatov "Foreign experience of farming (by the example of farming in Holland)" MODERN TRENDS OF DEVELOPMENT OF THE AGRARIAN COMPLEX p. Salt Zaymishche, May 11-13, 2016 B 1521-1523.

9. A.B. Inobatov, Sh Khamdamov "Regulation of innovative development of agriculture" Priority directions of development of modern science of young scientists agrarians materials of the v-th international scientific-practical conference of young scientists, dedicated to the 25th anniversary of FSBSI "Caspian research institutes of arid agriculture" 11- MAi 13, 2016 B1068-1070.

УДК 93/94

ВЛИЯНИЕ АРАЛЬСКОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КРИЗИСА НА ОДНО ИХ ТРАДИЦИОННЫХ ЗАНЯТИЙ КАРАКАЛПАКОВ - СКОТОВОДСТВО

З.И. Курбанова, Каракалпакский НИИ гуманитарных наук Каракалпакского отделения АН РУз, Нукус

Аннотация. *Мақолада инсоният мавжудлигининг кафолати, инқирозли экологик вазиятларни бартараф этиш воситаси бўлган халқ билимларини унутиш орқали кўрсатилган. Бу билимларнинг унутилиши, халқнинг тажрибаси экологик инқироз ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг инқирозига олиб келади. Жанубий Орол бўйи шароитида кўп ўн йилликлар давомида ўйламай олиб борилган хўжалик фаолияти нафақат табиатга, балки анъанавий маданиятнинг айрим жиҳатларига ҳам салбий таъсир кўрсатди.*

Калит сўзлар: *Қорақалпоқлар, анъанавий маданият, экологик инқироз, қишлоқ хўжалиги, табиий муҳит.*

Аннотация. *В работе освещаются последствия забвения народных знаний, которые являлись гарантом существования людей, средством преодоления кризисных экологических ситуаций. Забвение этих знаний, народного опыта приводит к экологическим кризисам и кризису сельскохозяйственного производства. В условиях Южного Приаралья, необдуманная хозяйственная деятельность на протяжении многих десятилетий, не только губительно сказалась на природе, здоровье населения, но и оказала негативное воздействие на некоторые аспекты традиционной культуры.*

Ключевые слова: *Каракалпаки, традиционная культура, экологический кризис, земледелие, природная среда.*

Abstract. *The paper highlights the consequences of the oblivion of folk knowledge, which was the guarantor of the existence of people, a means of overcoming crisis environmental situations. Forgetting this knowledge, people's experience leads to environmental crises and the crisis of agricultural production. In the conditions of the Southern Aral Sea region, rash economic activity for many decades not only had a detrimental effect on nature, the health of the population, but also had a negative impact on some aspects of traditional culture.*

Key words: *Karakalpaks, traditional culture, ecological crisis, agriculture, natural environment*

История развития человеческого общества сопряжена противоречивыми явлениями. В первую очередь это конфликтные ситуации, возникающие в результате деятельности людей и

окружающей среды, которые приводят к изменению среды обитания. Эти изменения не всегда имеют благоприятные последствия, в некоторых случаях, они приводят к серьезным разрушениям природной среды. Следствием техногенной катастрофы, принявшей форму экологического кризиса в пределах Республики Каракалпакстан, стало усыхание Аральского моря, важнейшего источника жизни народа.

На протяжении XX века природная среда региона испытав трагическое воздействие человека, стала утрачивать свои жизнеобеспечивающие свойства. В результате чего были преданы забвению вырабатывавшиеся веками традиционные материальные и духовные основы образа жизни, особенности природопользования, форм хозяйственной жизни.

Экологический кризис в Каракалпакстане, вызванный усыханием Аральского моря, вызвал озабоченность в среде ученых еще в 1970-е годы. Необдуманная эксплуатация природных ресурсов в названный период приобретает масштабный размах. На протяжении следующих годов кризис продолжает набирать обороты. На сегодняшний день экологическая обстановка в зоне Приаралья остается тяжелой. Произошла утрата качества водных и земельных ресурсов, нарушены состав и устойчивость экосистем, ее продукционные свойства, резко возросла токсичность среды.

В современной научной литературе об Аральском кризисе существует огромный пласт работ. Историография данной проблемы в каракалпакстанской науке обширна и разнообразна. В одном только журнале Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. ежегодно публикуется большое количество работ, посвященных тем или иным аспектам последствий Аральского кризиса [1]. В подавляющем большинстве эти статьи представлены работами биологов, медиков, экологов, экономистов и др. Что касается этнографического аспекта, то проблема Аральской катастрофы и ее влияния на культуру, остается одной из мало освещённых.

В данной статье, на основе полевых данных, собранных в ходе этнографических экспедиций в 2004, 2021 годы, рассматривается один из традиционных видов хозяйственной деятельности каракалпаков - скотоводство в условиях кризиса. Скотоводство у каракалпаков не являлось преобладающим видом деятельности. Каракалпаки успешно сочетали скотоводство с земледелием и рыболовством. Такая комплексность хозяйства вытекала из особенностей ландшафта и климатических характеристик региона.

Хозяйственный опыт населения Южного Приаралья в области животноводства, в разведении крупного и мелкого рогатого скота восходит к далекому прошлому. Давность занятия скотоводством нашла отражение в работе В.Н. Ягодина: «Также, как и каракалпаки XIX в., население Левобережного Кердера использовало в полной мере экологические условия региона. Благодаря ежегодным регулярным разливам Амударьи, затапливавшим пойменные пастбища и заполнявшим озера и разливы, ежегодно возобновлялись заросли камыша, которое население Кердера косило на сено, использовало как подножный корм для КРС, как материал для строительства жилищ, загонов для скота, утепления юрт. Эти условия способствовали пастбищному содержанию КРС – традиционной отрасли скотоводства населения Кердера и позднейших каракалпаков» [2]. Практически все население Хорезмского оазиса и его периферия занималось разведением скота. По наблюдениям А. Каульбарса пастбища в дельте невелики и разобщены, лишь в периоды маловодья Амударьи или зимой, когда водные пространства замерзают, «следуя за отступающими водами, кочевники со своими стадами проникают в самые недра недоступных в другое время двух больших низменностей дельты – Даукаринской и Кушканатауской, где в такое время хороший корм для скота и топливо…» [3]. Более интенсивно эта отрасль развивалась в пустынных, полупустынных и дельтовых районах, и в дельте Амударьи. Крупный рогатый скот выращивала оседлая и полуоседлая часть населения оазиса и дельты реки.

Основным кормом для скота служил камыш, так как каракалпаки не имели возможности совершать большие перекочевки и использовать, таким образом, запасы подножных кормов. Камыш в изобилии рос в местности, покрывая низовья реки. Это же обстоятельство, предполагает П.П. Иванов, повлияло на состав стада, в котором в противоположность казахскому кочевому хозяйству, у каракалпаков преобладал крупный рогатый скот при крайне ограниченном хозяйстве баранов и коз. На зимний сезон каракалпаки производили заготовку камышового корма [4].

Традиционное скотоводство заложило основы в XX веке животноводства республики. В 1960-е годы благодаря богатым пастбищным угодьям в низовьях Амударьи были организованы животноводческие фермы по откорму крупного рогатого скота мясного направления. В результате, к 1970-м годам функционировало 10 животноводческих хозяйств на 100 тыс. голов крупного рогатого скота. Их рентабельность была очень высокой – один центнер мяса обходился в 70-80 рублей [5].

К середине 70-х годов XX века в результате концентрации производства были созданы 8 овцеводческих совхозов, 14 мясного скотоводства и откорма крупного рогатого скота, 1 птицеводческий совхоз [6]. Как вспоминает Утениязов Тилеклес, «*Я был директором совхоза Муйнак. Это животноводческий совхоз. В Каракалпакстане было 5 крупных животноводческих совхозов: Муйнак, Ильич, Еркиндарья, Казанкеткен, Каракалпак, где выращивали крупный рогатый скот. В общей сложности в них имелось до 60 тыс. голов скота. В год наш совхоз сдавал 450 тонн. Еще сдавали арбузы и дыни*» [7].

Опустынивание этого региона свело возможности низовьев Амударьи к минимуму, лишило наш регион условий производить дешевое мясо. Непосредственный убыток от этого составил 128 млн. руб. [8].

На сегодняшний день эта отрасль хозяйствования является одной из пострадавших от последствий катастрофы. Сказалось маловодье последних лет. Такие кормовые культуры, как *жоңышка* (клевер, люцерна), который использовалась в качестве корма для скота, усыхает из-за недостатка воды. Это отмечают современные фермеры: «*Из-за того, что не было воды, посевы люцерны полностью высохли. Так как мы занимаемся выращиванием скота, то это большая проблема. Мы вынуждены ездить на отдаленные участки в поисках корма для животных. Покупать готовый корм дорого, не оправдывает расходы на содержание скота*» [9].

Попытки увеличить поголовье скота на современном этапе предпринимаются. Носят они в основном частный характер. Однако они не дают пока положительной динамики. Например, в аулах Мунакского района (Порлытау, Шеге, Шагырлык) появились предприниматели, занимающиеся разведением крупного рогатого скота, завезенного из других стран. Со слов нашего респондента, имеются определенные трудности с их адаптацией к местным климатических условиям: «*американская – санта гертруда, казахская белоголовая, с трудом приспосабливаются к местным климатическим условиям. Они плохо переносят жару. Кроме того, у нас в летнее время много насекомых, которые угрожают им. Местные породы устойчивы к ним, а вот европейские – нет. Весят они 1,5 тоны, а наши 300 кг. Соответственно и корма они потребляют значительно больше*» [10]. В завершении разговора он подчеркнул, что отсутствие кормовой базы не позволяет значительно увеличить разведение импортного крупного рогатого скота.

Сетует на сложность занятия скотоводством ввиду отсутствия корма житель аула Шагырлык: «*Раньше помимо скотоводства выращивали разные культуры, теперь нет воды, поэтому перестали сажать, тем самым лишились значительного дохода. В этом году посадили люцерну на нескольких гектарах земли, все она погибла из-за отсутствия воды. Даже нет воды для скота. Вода имеется только в колодце (құдық)*» [11].

Ухудшение экологической ситуации, уменьшение количества растительного покрова, необходимого для местного скота привело к тому, что понизилась надои. Женщины старшего возраста рассказывают: «*Раньше мы доили коров два раза в день, утром и вечером. Одна корова давала 5-8 литров молока. Сейчас же доим только раз в сутки и молока получаем мало*» [12]. Связано это в первую очередь с тем, что животные стали хуже питаться, не получают необходимых полезных элементов, потому и урожаи упали и сами животные ослабли. Все это, в конечном итоге, приводит к тому, что в рационе населения доля употребления молока и молочных продуктов, которые издавна составляли одну из основ традиционной кухни, значительно уменьшается.

Большинство респондентов склонно считать, что в сложившихся условиях, наиболее приемлемым в условиях Южного Приаралья является разведение исконно местных пород, неприхотливых, устойчивых к насекомым, не требующих заготовки большого количества кормов. Однако, предпринимая в последние годы на уровне государства решения, позволяют надеяться на новый импульс в развитии животноводческой отрасли. Для поддержки животноводческих проектов в 2019-2020 годы в Бозатауском, Муйнакском, Тахтакупырском и Кунградском районах Каракалпакстана вводятся упрощенные правила реализации проектов в сфере животноводства. Выделяются средства на выращивание пород крупного рогатого скота мясного направления абердин-ангус, герефорд, санта-гертруда, казахская белоголовка [13]. Все это дает надежду, что одна из традиционных отраслей хозяйствования каракалпаков будет развиваться.

Экологический кризис вызвал интерес к изучению экологических традиций народов Каракалпакстана, возрождению тех из них, которые могут быть реально полезной в сложившихся непростых условиях. Важно обратить взоры к возрождению тех видов традиционной деятельности этноса, которая может быть реально полезна в современных реалиях.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бахиев А.Б. Пути сохранения и восстановление растительности Южного Приаралья // Вестник ККО АН РУз. 1992, № 1. С. 23-27.

2. Дошумбаев К.И. Развитие и размещение производительных сил Каракалпакии в условиях ухудшения экологической обстановки в Приаралье // Вестник КК ФАН АН РУз., 1988, № 1. С. 3-7.
3. Иванов П.П. Материалы по истории каракалпаков // Записки института востоковедения. М.,Л.: Издательство Академии наук СССР, 1935.
4. Кабулов С.К. Исследование компонентов природной среды Южного Приаралья в связи с проблемой Аральского моря // Вестник КК ФАН УзССР. 1982, № 1. С. 37-41.
5. Камалов С. Социально-экономическое положение Каракалпакстана и Аральская катастрофа (1917-1990 гг.) // Вестник ККО АН РУз. 1999. № 6.С. 3-7.
6. Каульбарс А.В. Низовья Аму-Дарьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. // ЗРГО.Т.9. СПб., 1881. 621 с.
7. Курбанова З. Полевые материалы 2021. № 1. Муйнакский район. Жалгыз терек ауыл. Жумагамбетова Карлыга, 1966 г.р. казашка.
8. Курбанова З. Полевые материалы. 2021 № 5. Муйнакский район. Шагырлы. Тлеумбетова Арухан, 1953 г.р. каракалпачка.
9. Курбанова З. Полевые материалы. 2021 № 6. Муйнакский район. Шеге. Женалиева Тажигул. 1940 г.р. каракалпачка.
10. Курбанова З. Полевые материалы. 2021. № 4. Муйнакский район. Шагырлы. Утениязов Тилеклесбай. 1949 г.р. каракалпак.
11. Палваниязов М., Сапарниязов Ж. Пути оптимизации природной среды в Приаралье в связи с процессами аридизации и опустынивания // Вестник ККО АН РУз. 1994. № 3. С. 8-11.
12. Реимов Р. Экологическая обстановка ухудшается // Вестник ККОАНРУз. 2001, № 1-2. С. 12-15 и др.
13. Степанов Н.Н. Реальные возможности и спасения Арала и Приаралья // Вестник КК ФАН РУз. 1990, № 1. С. 3-18.
14. Туремуратов У. Снижение уровня Аральского моря и его влияние на природную среду юго-восточного Приаралья // Вестник КК ФАН УзССР. 1985, № 4. С. 38-41.
15. Хусаинов А. О возможности переброски части стока реки Ишим для пополнения Аральского моря // Вестник КК ФАН РУз. Вестник 1979, № 1. С.21-23.
16. Ягодин В.Н. Глава 3. Приаральский микрорайон в VII-начале XIV вв. // Комплекс археологических объектов на возвышенности Крантау. Археология Приаралья. Вып. VII. Ташкент: ФАН, 2008. С. 125-143.
17. https://static.norma.uz/official_texts/2019/ О мерах по ускоренному развитию отраслей животноводства в Республике Каракалпакстан.

УЎК 93/94

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ МОДДИЙ МАДАНИЯТИДА "НАВРЎЗ ГЎЖА" АНЪАНАВИЙ ТАОМИ ТАҲЛИЛИ

М.Б. Қурбонова, т.ф.н., Бухоро Давлат университети, Бухоро

Аннотация. *Мақолада "Навруз гужа" номли анъанавий таом билан боғлиқ урф-одат ва анъаналар, уни тайёрлаш жараёнининг келиб чиқиши ва истеъмол қилинишининг илмий таҳлили кенг ёритилган. Кўриниб турибдики, бу миллий таом Ўрта Осиёдаги ўзбек, тожик, қозоқ, қирғиз ва туркман халқлари моддий маданиятининг муҳим таркибий қисмларидан бири ҳисобланади.*

Калит сўзлар: *Оддий таомлар, тантанали таомлар, жўхори уни, етти хил ўтлар, маҳаллий тегирмон, гринрлер, ноз-неъматлар, палов, кимё, композиция, деҳқончилик култи.*

Аннотация. *В статье представлен научный анализ традиций и обычаев, связанных с обрядовыми аспектами, названием, приготовлением и употреблением блюда «Навруз гуджа», являющегося важным компонентом материальной культуры узбекского, таджикского, казахского, киргизского и туркменского народов Центральной Азии.*

Ключевые слова: *злаковые блюда, ритуальная пища, крупа из сорго зернового, семь видов трав, местная мельница, деревянная ступа, вкусная еда, похлебка, химический состав, аграрный культ.*

Abstract. *The article provided gires scientific analyses of traditions and customs associated with conventional meal called "Navruz guja" and its preparing process origin and consumption. Apparentli, this national meal is considered to be one of the most essential components of material culture of uzbek, tadjik, kazak, Kirgiz and turkmen nations of Central Asia.*

Key words: *Regual meals, ceremonial meal, wnite oatmeal, seven different herbs, local mill, grinrler, delicions food, plov, chemical, composition, agricultural cult.*

Марказий Осиё халқлари турмушида асрлар давомида турли хил масаллиқлардан тайёрланган кундалик ва маросимий таомларнинг ўзига хос бой дастурхони вужудга келган.Ушбу мақолада мазкур халқлар турмушида кенг тарқалган гўжа таомининг кундалик ва маросимий хиллари тайёрланиши билан боғлиқ урф-одат ва анъаналар тарихий –этнологик аспектда ўрганилади.

XIX аср охири XX аср бошида халқ пазандачилигида наботот, яъни донли зироатлардан тайёрланадиган таомлар ўзининг хилма-хиллиги билан ажралиб турган. Бундай овқатлар асосан

бошоқли, дуккакли ўсимликларнинг ёрмаси, уни ёки туйилган донларидан тайёрланган[1]. Ун ва ёрмалар эса сув тегирмонлар, ҳайвон (асосан эшак) кучи билан ҳаракатга келтириладиган маҳаллий тегирмон – харос, каш-каш ҳамда қўл тегирмон – ёрғучоқ ёки ёрматошларда тортилган[2]. Асосан, оқ жўхори ёрмасидан пиширилган "гўжа" таоми камбағалнинг кундалик емиши бўлиб, ўзбекларда ушбу бўтқасимон обиёвғон "жўхори гўжа"[3], "гўжа", тожикларда эса "кашк"[4], " кашки чавари"[5] деб аталганлиги маълум.

Гўжанинг кимёвий таркибида етарли миқдорда барча озиқ моддалар мавжуд. Бир кишига мўлжалланган гўжа таркибида 20 г оқсил моддаси бор, бундан 42 фоизи ўсимлик ва 58 фоизи ҳайвон оқсилидир. Демак, оқсилнинг миқдори мутаносиб нисбатда бўлади. Гўжадаги мой моддаси асосан ҳайвон мойидан ташкил топган (90 фоиз), шунга кўра тўйинган мой кислоталари кўпроқ (51 фоиз). Лекин гўжа таркибида ўсимлик моддалари, минерал бирикмалар ва витаминлар сероб бўлгани сабабли мойнинг парчаланиши ва ҳазм бўлиши осонроқ бўлади. Гўжа фойдали ва тўйимли бўлганлиги учун юқори калорияли таомлар қаторига киради. Гўжа енгил ҳазм бўладиган ва хушхўр таомдир. Уни айрим сурункали хасталикларга чалинганларга, камқон ва ҳомиладор аёлларга, қарияларга тавсия этса бўлади. Гўжа таркибида ҳайвон озиқ моддаларининг кам бўлиши унинг парҳезлик хусусиятини оширади[6].

Оқ жўхори таркибида саломатлик учун зарур бўлган бирикмалар сероблиги халқ тажрибасида синалган ва шунинг учун жўхоридан тайёрланган таомларни ҳамма ёшдаги кишилар хуш кўриб тановул этадилар. Уни тайёрлаш учун оқ жўхори дони сўтасидан ажратиб олинган ва маълум муддат сувда ивитилган. Кейин эса ўғирда аста-секин янчилган. Янчилган жўхори қовузидан ажратилиши учун 3 марта совуқ сувда ювиб, шираси олиб қўйилган. Қозонга сув солиб жўхори қайнатилган, лўппак-лўппак бўлиб пишгандан сўнг, олиб қўйилган шира ҳам солинган. Тайёр бўлган "жўхори гўжа" сал совутиб, сут, қатиқ, қуртава (тож. қурутоба) солиб ичилган. Демак, халқ орасида бу таомнинг сутли гўжа, қатиқли гўжа, қуртава солингани эса ачитма гўжа сингари хиллари яратилган[7]. Марказий Осиё ўзбеклари маҳаллий шевасида бу таом "кўча", қуртава солингани эса "ачитма кўча" деб аталган[8]. "Ачитма кўча" ёки "ачитқи гўжа" Бухоро воҳасида ёз фаслида чанқоқни бостириш учун махсус тайёрланган. Бунинг учун гўжа пиширилиб, қурут эзиб, қуртава ёки қатиқ қўшиб 2-3 кун ачитилган, кейин хумча ва кўзаларга солиб далада ишлайдиган қўшчиларга олиб чиқилган[9]. Этнограф М.Файзуллаева бу таом Сурхон воҳаси Шеробод тумани қишлоқларида "кўчаош", Бойсун тумани тожикларида "кўчахўр", Денов тумани қишлоқларида "кўчашулла" деб номланганлигини қайд этади[10]. Сурхондарё, Қашқадарё, Бухоро, Самарқанд вилоятларида бу таом "кўча" деб аталганлиги маълум[11]. "Кўча" таомини Қашқадарё воҳаси Китоб туманида Наврўз байрами куни маҳалла аҳли кўчада тўпланиб тайёрлаган ва бўлишиб ейишган, косаларни эса ўша ерда синдириб кетишган, деб таъкидлайди Н.Мирзаев[12]. XX аср бошларигача Наврўз сайли куни маҳалла аҳлининг бир ерга йиғилиб, идиш ўрнида ишлатилган ёғоч кади-қовоқдан бир нечтасини ерга уриб синдириш ("кади синдирди") одатига Марказий Осиёнинг кўпгина халқлари амал қилган[13]. Халқ тасаввурида эски идиш товоқларнинг янгисига алмаштирилиши орзу-ниятларнинг амалга ошуви деб тушунилган.

Этнограф Н.П.Лобачева "гўжа оши"ни маросим таоми сифатида Марказий Осиёнинг деҳқон халқлари Наврўзда овқатга ишлатиладиган етти хил ўтлардан, ёки жўхоридан пиширилганлигини қайд этади[14]. А.Шишов эса "гўжа оқланган тариқдан (айрим ҳолларда маккажўхори ёки арпадан) қилинган суюқ бўтқадай таом бўлиб, қатиқ қўшиб ичилган. Бу таомни қишлоқларда фақат камбағал аҳолигина эмас, ҳатто тўқ оилалар ҳам пиширган", - деган маълумотни келтиради[15]. Демак, гўжа оши нафақат оқ жўхоридан, балки арпа ва тариқдан ҳам пиширилган. Бироқ, "жўхори гўжа" Марказий Осиё деҳқонлари кундалик истеъмолида кенг тарқалган. XIX аср охирларига келиб Фарғона водийсида ҳам жўхори ёрмасидан пишириладиган "гўжа" ("гўжа ош") нафақат ўтроқ, балки ярим ўтроқ ва ярим кўчманчи аҳоли орасида ҳам оммалашганлиги маълум[16].

Хусусан, қирғизларда Наврўз куни тариқдан махсус "кочо" ("гўжа") пишириб жамоага тарқатилган[17]. Қадимдан чорвачилик ва деҳқончилик билан машғул Қозоғистоннинг жанубий ҳудудларида яшаган ўтроқ қозоқ деҳқонлари орасида наврўз маросимида Марказий Осиёнинг бошқа халқлари сингари янги йилнинг ёвғон оши "наврўз гўжа" – (қозоқча "науриз коже") пиширилган[18]. Қозоқ деҳқонлари наврўз байрамидан сўнг ер ҳайдашга киришганлар. Худди шу жараёнда Деҳқон Бобо шарафига атаб тайёрланган "наврўз гўжа" - "кудаи коже", яъни " қурбонлик гўжа", "кос коже", яъни "қўш гўжа" деб номланган таом тарқатилган[19]. Деҳқон хўжаликларида ерга ишлов бериш учун қўш ҳўкиздан фойдаланилган. Ўзбекларда ҳам далага "гўжа оши"ни "қўш оши" деб қўшчиларга тарқатиш одати деҳқонларнинг наврўзга атаб ўтказиладиган бугунги кунда эса унутилган архаик маросимидир. Эрта баҳорда биринчи қўш солиш удумини амалга ошириш учун "қўш оши" – "гўжа оши" пиширилган. Деҳқонларнинг биринчи марта ер ҳайдаш учун

қўш ҳўкизларни махсус тайёрлаш одати аграр культлар билан боғлиқ. Марказий Осиёда қадимда ҳўкиз серпуштлик рамзи ҳисобланган ва шунинг учун ҳам ер ҳайдаш жараёнида унинг ғайритабиий хусусияти ерга ва етиштириладиган ҳосилга кўчади деб ишонилган[20]. Марказий Осиёда қадимий диний-мифологик тасаввурлар асосида деҳқончилик соҳасида шаклланган урф-одатлардан кўзланган мақсад баракали ҳосил етиштириш ва уни нобуд қилмасдан йиғиб олишга қаратилган. Ўзбек, тожик, туркман, қозоқ, қирғиз халқлари турмушида анъанавий "наврўз гўжа" таомининг тайёрланиши, унинг истеъмоли, у билан боғлиқ маросим ва урф-одатларга оид локал хусусиятларнинг намоён бўлиши аҳолининг аграр культларга бўлган эътиқодининг маҳсулидир.

Демак, асрлар давомида қўшничилик асосида яшаб келган Марказий Осиё халқлари турмуш тарзининг барча соҳаларида, яъни нафақат ижтимоий, балки маиший турмушида, ўзаро муносабатларида, ишлаб чиқариш соҳасида, моддий маданиятнинг муҳим компоненти таомлар тайёрланиши ва истеъмолида ўзига хос архаик кўринишлар, магик ҳатти-ҳаракатларнинг умумий ўхшашлиги кўзга ташланади.

Марказий Осиё халқлари анъанавий таоми "наврўз гўжа" нинг пиширилиши, уни тановвул қилиш маданияти аждодларимизнинг яратган ва бизгача етиб келган беназир маданий меросидир. Бу маданий меросни илмий нуқтаи-назардан этнологик тадқиқ этиш жараёнида маълум этноснинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўхшашликлари билан бирга ўзига хос локал хусусиятлари ҳам яққол намоён бўлди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Қурбонова М.Б.Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларининг анъанавий таомлари (XIX аср охири XX аср боши). Тарих фанлари номзоди...дисс.-Т.: 1994.-Б.18.
2. Сухарева О.А. Бухара XIX- начало XX в.(Позднефеодальный город и его население). –М.: "Наука".1966. –С.208-210; Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX- начала XX в. -Т.: Фан, 1981. –С.105; Шаниязов К.Ш. О традиционной пище узбеков. // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. -Т.1972. –С.97.
3. Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. –Т.: «Фан», 1974. –С.277.
4. Кашк – жўхори дони туйилмай пиширилган ва қатиқ билан истеъмол қилинган таом.
5. Кашки чавари-жўхори, мош, ловия, пиёз, сабзидан пиширилган қатиқ билан ичилган суюқ таом.
6. Дўстжонов Б. Хоразм таомлари. -Т.: "Ўзбекистон".1994, -Б.28-29.
7. Дала маълумотлари. Когон,Бухоро,Жондор тумани , 1993, 1994 йиллар
8. Ачитқи гўжа ҳақида қаранг: Этнографические очерки узбекского сельского населения. Отв.ред. Г.П.Васильева, Б.Х.Кармышева. –М.: "Наука". 1969. -С.69.
9. Қурбонова М.Б. "Наврўз гўжа" воҳа маросимий таоми сифатида. / "Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)". Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Бухоро, 2017, -Б.63.
10. Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар (Сурхон воҳаси мисолида). -Т.: "Янги нашр".2010.-Б.22.
11. Шаниязов К., Исмаилов Х. Пища. // Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX-начала XX в. -Т.: 1981, -С.110.
12. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. -Т.: Фан, 1991. –Б.50.
13. Рахимов М.Р. Земледелие таджиков бассейнар. Хингоу в дореволюционный период: Историко-этнографический очерк. Сталинабад. 1957. -С.203; Курбанова М.Б. Традиционная пища узбеков и таджиков Бухарского оазиса (конца XIX-начало XX в.). Автореф.дис.канд.истор.наук. -Т.: 1994, -С.18.
14. Лобачева Н.П. К истории календарных обрядов у земледельцев Средней Азии. Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. - М.: "Наука". 1986. С. 16.
15. Шишов А. Таджики. Этнографическое и антропологическое исследование. Часть 1. Этнография,1910. - С.119.
16. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнолараро жараёнлар (XIX -XX аср бошлари). -Т.: "Янги аср авлоди". 2005, -Б.127.
17. Фиельструп Ф.А.Из обрядовой жизни киргизов начала XX века. -М.: Наука. 2002.-С.205.
18. Аргинбаев Х., Захарова И.В. Экспедиция, организованная в 1958 г. Южноказахстанскую область. // Новые материалы по археологии и этнографии Казахстана. Алма-ата; 1961. –С.97.
19. Кармышева Дж.Х. Земледельческая обрядность у казахов. //Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. - М.: «Наука». 1986.-С.53-54.
20. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. –Т.: "Алишер Навоий" номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти". 2007. –Б.134.

УЎК 93/94

ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ФАН ВА МАДАНИЯТГА БЎЛГАН ЭЪТИБОР

Б.З. Махмудов, илмий ходим, Имом Бухорий халқаро илмий тадқиқот маркази, Самарқанд

Аннотация. *Ўзининг 30 йиллик истиқлол тараққиёт йўлини нишонлаётган ўзбек халқи маънавиятини унинг бой, тарихий маънавий мероси, маданий бойликлари ўзига хос урф-одати ва анъаналари кўрсатади. Шундай тарихий, маданий меросларидан бири XIV-XV асрларда юз берган уйғониш-ренессанс давридир. Амир Темур ва Темурийлар даврида Ўрта Осиёда уйғониш давринг*

иккинчи босқичига тамал тоши қўйилди, бой маданий мерос яратилди. Бу даврда шаҳарсозлик, меъморчилик, тасвирий санъат, наққошлик, хаттотлик, илм-фан, адабиёт, мусиқа каби соҳалар, ниҳоятда ривожланди. Ўрта Осиё ренессанси таъсири Хуросон ва Ҳиндистон, ҳаттоки, Европа мамлакатларига ҳам ўз таъсирини кўрсатди. Мазкур мақолада Амир Темур ва Темурийлар даврида Ўрта Осиёда уйғониш давринининг иккинчи босқичига тамал тоши қўйилиб, маданий ва маърифий жиҳаттан минтақа равнақ топгани баён қилинади.

Калит сўзлар: *Амир Темур, Темурийлар, илм-фан, Тараққиёт, Мовароуннаҳр, ўрта аср меморчилиги.*

Аннотация. *Духовность узбекского народа, отмечающего 30-летие независимости, находит свое отражение в его богатом историческом и духовном наследии, культурном богатстве и самобытных обычаях и традициях. Одним из таких историко-культурных наследий является восточный ренессанс в XIV-XV веках. В период правления Амира Темура и Темуридов был заложен фундамент второго этапа развития во всех отраслях в Центральной Азии, создано богатое культурное наследие. В этот период колоссальное развитие получили такие области, как градостроительство, архитектура, изобразительное искусство, живопись, каллиграфия, точные науки, литература, музыка. Влияние среднеазиатского ренессанса затронуло развития Хорасан и Индию, и даже страны Европы. В данной статье описывается второй этап Пробуждения в Центральной Азии в период правления Амира Темура и Темуридов, а также культурно-просветительское развитие региона.*

Ключевое слова: *Амир Темур, Темуриды, наука, развитие, Маверауннар, восточная средневековая архитектура.*

Abstract. *The spirituality of the Uzbek people, which is celebrating 30 years of independence, is reflected in its rich, historical and spiritual heritage, cultural riches and unique customs and traditions. One of such historical and cultural heritages is the Renaissance period, which took place in the XIV-XV centuries. During the reign of Amir Temur and the Temurids, the foundation stone was laid for the second stage of the Renaissance in Central Asia, and a rich cultural heritage was created. During this period, areas such as urban planning, architecture, fine arts, painting, calligraphy, science, literature, music, developed tremendously. The influence of the Central Asian Renaissance affected Khorasan and India, and even European countries. This article describes the foundation stone of the second stage of the revival in Central Asia during the reign of Amir Temur and the Temurids, and the cultural and enlightenment development of the region.*

Key words: *Amir Temur, Temurids, science, development, Maveraunnar, oriental medieval architecture.*

Жаҳон илм-фан тараққиёти тамаддунида Муҳаммад Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Абу Наср Форобий, Имом Бухорий, Маҳмуд Замахшарий каби аллома аждодларимизнинг бой илмий-маънавий мероси Марказий Осиёнинг IX-XII асрлардаги ренесанси нақадар юксак бўлганини ифодалайди. Шарқ маданиятининг мазкур уйғониш даври минтақада кескин рўй берган тарихий воқеалар туфайли бирдан тўхтаб қолган. XIII асрнинг бошида Хоразмшоҳлар давлати Чингизхон қўшинларининг даҳшатли ва аёвсиз ҳужумига учради. Бу ҳужум 1219 йилда Хоразмшоҳларнинг шимолий чегарасидаги Ўтрор қалъасини забт этишдан бошланди. 1220-21 йилларда Хоразмшоҳлар маркази Кўҳна Урганч душман қўлига ўтди. Хоразмшоҳ қўшинлари яхши қуролланган бўлишига карамай, ички низолар ва келишмовчиликлар кучайгани, бирликнинг йўқлиги душман ҳужумига дош беролмай тезда мағлуб бўлишига олиб келди. Шаҳарлар, маданий марказлар вайрон этилди, аҳоли қирғинга учради. Ўлка тамоман мўғуллар томонидан истило қилинди. Марказий Осиёни турли ҳудудларга бўлиб юборган мўғул хонлари ўртасидаги ўзаро низолар ва курашлар ҳам авж олди. Бунинг натижасида мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи салбий тус олиб, маданият ўчоқлари сўнди. Жуда кўп маданий бойликлар, илм муассасалари, мадраса ва кутубхоналар йўқ қилинди. Минтақадаги олимлар, шоиру-ёзувчилар, меъмору-мусаввирларнинг аксари ҳалок бўлди, тирик қолганлари эса турли ўлкаларга қочиб, жон сақлашди.

Шундай шароитда Мовароуннаҳрдаги амирлар сулоласидан Темурбек (1336-1405) майдонга чиқди ва ижтимоий жараёнда тезда кўзга ташланиб, мамлакат ҳаётида жуда катта роль ўйнади [2, 14]. Амир Темур узоқ урушлар ва босқинлардан вайрон бўлган Мовароуннаҳр ва Хуросон ерларини мўғуллар босқинидан озод этди. Марказий Осиёни марказлашган, озод ва мустаҳкам давлат қуриш йўлида бирлаштирди. Бу янги давлатга Самарқанд шаҳрини пойтахт қилди. Амир Темур даврида Мовароуннаҳр дунёдаги энг йирик ва ривожланган давлат сифатида танилди. Рус олими А.Якубовский Темурнинг бу соҳадаги ишлари ҳақида шундай ёзган эди: "У яхши ҳисоб китоблик

хўжайин эди. Мовароуннаҳрга нафақат турли туман бойликларни балки, ҳунарманд, мусаввир, меъмор ва олимларни ҳам олиб келди. Мовароуннаҳр мутахасис ва олимларга бой эди. Лекин фан ва маданият арбоблари, ҳунармандлар қанча кўп бўлса, ҳунармандчилик, маданият илм-фан ҳам шунча тез ривожланади" [3, 356]. Жамиятнинг равнақи ҳақида гап кетганда тарихий манбаларда келтирилган Соҳибқироннинг халқдан ўлпон йиғиш ҳақидаги сўзларини эслаб ўтиш жуда ҳам ўринли. "Амир қилдимки, раиятдан мол-хирож йиғишда уларни оғир аҳволга солишдан ёки мамлакатни қашшоқликка тушириб қўйишдан сақланиш керак. Негаки, раиятни хонавайрон қилиш давлат хазинасини камбағаллашувига олиб келади. Ҳазинанинг камайиб қолиши эса, сипоҳнинг тарқалиб кетишига сабаб бўлади. Сипоҳнинг тарқоқлиги, ўз навбатида салтанатнинг кучсизланишига олиб боради" [4, 143] деб ёзади Амир Темур ўзининг тузукларида. Шундай қилиб, XIV асрнинг охирига келиб Самарқанд Шарқнинг энг гўзал, обод шаҳарларидан бирига айланди. Бу ерда бир-биридан кўркам, муҳташам бинолар ва осмонўпар миноралар, сўлим боғлар барпо қилишга катта эътибор қаратилди. XV аср бошида Мовароуннаҳрга келган испан сайёҳи Руи Ганзалес де Клавихо(?–1412)нинг маълумотига қараганда, Самарқанднинг бойлиги фақат озиқ – овқат мўллиги билан эмас балки шойи матолари, атласи, мўйнадан қилинган кийимлари, турли мамлакатлардан келтирилган сон-саноқсиз моллари, бозор ва майдонлари, кўчаларининг кенг ва кўркамлиги билан кўзга ташланади[5, 82]. Амир Темур ва темурийлар даврида Мовароуннаҳр ва Хуросонда маданият ўз ривожининг юксак чўққисига чиқди. Темурийлар сулоласининг асосчиси улуғ Амир Темурни шу пайтга қадар ўтган жаҳонгирларнинг биронтаси билан ҳам қиёслаб бўлмайди. Бу фикрни улуғ бобомиз ва унинг авлодлари қолдирган улкан моддий маданият ёдгорликларигина эмас, балки жаҳон фан ва маданиятга буюк ва салмоқли ҳисса қўшган Улуғбек, Бобур ва бошқаларнинг темурийлар сулоласидан бўлганлиги ҳам исботлайди [7, 444].

Амир Темур ўз даврида Самарқандни дунёнинг энг кўркам ва гўзал шаҳарларидан бирига – ер юзининг "сайқали"га айлантиришни ўзининг асосий мақсади деб билди ва бу шаҳарнинг шавкати, обрўсига яраша бўлиши учун бутун иқтидорини сарфлади. Соҳибқироннинг буйруғи билан Самарқанднинг тўрт томонида ҳашаматли дарвозалар ўрнатилган, шаҳар атрофи эса зилол сувли ариқлар билан ўралган эди. Зудлик билан барпо этилган қалъа девори, Кўксарой ёнига осмондаги юлдузлар мисол янги кошоналар қўшилиб борди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ёзади: "Мўғул ва Турк улуси Семирқанд дерлар.Темурбек пойтахт қилиб эрди. Темурбекдин бурун Темурбекдек улуғ подшоҳ Самарқандни пойтахт қилғон эмастур. Қўрғонини, фасиланинг устидан буюрдимким, қадам урдилар. Ўн минг олти юз қадам чиқди" [8, 59].

Амир Темур ва темурийлар давлати деярли бир ярим аср Осиё, айниқса, Марказий Осиё тарихида ниҳоятда кўп, ранг-баранг улкан маданий-маънавий бойликларни яратишга, халқ ичидаги истеъдодлар, ижодкорлар учун имкониятлар ҳозирлагани билан маълумдир. Бу давр туркий халқлар маданияти тарихида тамоман янги, узоқ асарларга озуқа берган қатламлар, саҳифалар вужудга келтиргани бнлан машҳурдир. Бундай маданият ва маънавиятни вужудга келтиришда Амир Темур ва сўнгги темурийларнинг яратувчилик, маърифатпарварлик фаолияти, улар оиласидаги отадан ўғил набираларига ўтувчи илм-фан, санъат, маънавиятга ҳомийлик одат-анъаналари ҳам муҳим аҳамият касб этади[9,8]. Мовароуннаҳрда маданият ва санъат шу даражада ривожланган эдики, бугунги кунда Ўрта Осиё санъатшунослик соҳасининг кўзга кўринган тадқиқотчиларидан доктор И.Ремпел ва Г.А.Пугаченколар ўша давр санъатини ҳар томонлама кенг таҳлил қилиб, олиб борилган текширишлари натижасида XIV аср охири ва XV асрнинг бошларида умуман Мовароуннаҳр, Хуросон, Самарқандда янгича давр юзага келганини қайд этиб, шундай ёзади: "Амир Темур ҳукмронлик қилган даврда Мовароуннаҳр Ўрта Осиёнинг оригинал ўзига хос меъморчилик санъати хусусиятларини ҳамда Ўрта ва яқин Шарқда ривожланган бадиий тафаккурни асосини ифодалаган эди"[10,127] деб таърифлайди. Бу тадқиқотчилар XIV аср охиридан бошлаб Мовароуннаҳр Яқин ва Ўрта Шарқ ижодкорларинг бош марказига айланганини, санъатда янги йўналиш пайдо бўлганини таъкидлайдилар. Бу фикрни Амир Темурнинг замондошлари ҳам айтиб ўтган. Масалан: Ибн Арабшоҳ Амир Темурнинг шаҳар атрофидаги саройлари ҳақида ҳикоя қилиб, улар янги услубда қурилганлигини такидлайди. Меъморчиликнинг янги услубини кашф қилиш қисман ўша даврда бутун Шарқда ўзига хос ҳашамат, дабдабага эришган ранг-баранг нақшларда ўз аксини топганлиги айтилади[1,86]. Шу билан бирга, Самарқанд ўзининг шишалари, қоғозлари билан ҳам шуҳрат қозонган. Бундан ташқари, минтақадаги шаҳарларда терига ишлов бериш, пўстиндўзлик каби ҳунарлар ҳам кенг ривож топади. Эътиборли жойи шундаки, Темурийлар даврида касб-ҳунар эгалари мамлакат аҳолисининг энг маданиятли ва обрўли кишилари ҳисобланган. Уларни халқ катта ҳурмат ва эътибор билан эъзозлаган. Темурийлар даврида Мовароуннаҳр ва Хуросон савдогарлари нафақат Осиё мамлакатлари, айни замонда "Буюк ипак йўли" орқали Европа мамлакатлари билан ҳам савдо муносабатларини олиб борганлар.

Темурийзодалар ичида Мирзо Улуғбек фан ва маданият тараққиётига энг кўп ва салмоқли ҳисса қўшган ҳукмдорга айланди. У Самарқандда биринчи фалаккиётшунослик академиясига асос солган шаҳс сифатида машҳур бўлган. Бу шунчаки ривоят ёки афсона эмас, балки жаҳоннинг улуғ алломалари томонидан эътироф этилган ҳақиқатдир. Улуғбек академиясини тарихини ўрганган ва дунёга танитган инсон бу – француз файласуфи ва тарихчиси Волтер (1694-1778) ҳисобланади. Б.Аҳмедов ўзининг "Улуғбек" китобида Волтернинг қуйидаги сўзларини келтиради: "Трансоксианада унинг ўрнига тахтга чиққан машҳур Улуғбек Самарқандда биринчи академиясига асос солди, ер куррасини ўлчашни буюрди ва фалакиётшунослик жадвалларини тузди" [11,112]. Темурийлар даврида Марказий Осиёда китобот, хаттотлик, мусаввирлик, лаввоҳлик (лавҳа чизиш) ва саҳҳофлик (муқовасозлик) санъати ниҳоятда тараққий этди. Мир Али Табризий, Султон Али Машҳадий, Мир Али Китоб, Мирак Наққош, Қосим Али каби ҳаттот, мусаввир, лаввоҳлар ўз соҳасининг жонкуярлари бўлишди. Айниқса, Камолиддин Беҳзод асос солган Ҳирот мусаввирлик мактаби улкан ютуқларга эришди. Бадиий услуб жиҳатдан адабиёт ниҳоятда такомиллашиб, янги поғонага кўтарилди. Замонанинг етук шоирлари Саккокий, Лутфий, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Атоий, Дурбеклар наср ва назмда кўплаб нодир асарлар яратишди. Дурбекнинг "Юсуф ва Зулайхо", Лутфийнинг "Гул ва Наврўз", Алишер Навоийнинг асарлари бадиий адабиётимизнинг беқиёс дурдоналари ҳисобланади. XIV-XV асрларда Мовароуннаҳрнинг асосий шаҳарлари Самарқанд ва Кешда қадимдан анъанавий тус олган илм фанга ва унинг равнақига, юксак эътибор берилди. Шарқ уйғониш даври маданияти, маърифати ислом дини рукнлари, талаблари асосида ривожланган бўлиб, ўз даврининг зиё маскани ҳисобланган Самарқанд илм ва марифатнинг асосий марказларидан бирига айланиб, шарафли "илм ва одоб қуббаси" номини олди[10,111].

Хулоса ўрнида айтиб ўтишимиз керакки, XIV-XV аср бошларида Самарқанд, Бухоро, Ҳирот ва Ғиждувон каби бош шаҳарларда Амир Темур ислоҳотлари давом эттирилиб, олиму-муҳандис, шоиру-бастакор, меъмору-бинокор ва наққошу-мусаввирлар серқирра ижод этишди. Мамлакатнинг равнақи, маънавий камолотида илм-фан ва санъат муҳим ўрин эгаллади. Темурий шаҳзода Мирзо Улуғбек Самарқандни илму-маърифат марказига айлантирди. Ўз замонасининг дорилфунуни ҳисобланган Самарқанд, Бухоро, Ғиждувон мадрасаларида диний ва дунёвий фанлардан таълим берилди, Шамсуддин Ҳавофий, Қозизода Румий, Ғиёсиддин Жамшид, Улуғбек, Али Қушчи каби етук олимлар Самарқанд академиясида илму толибларга сабоқ беришди ва бу даврдаги Ўрта Осиё халқларининг жаҳон цивилизациясига ўзларининг улкан ҳиссасини қўшганликлари дунё олимлари томонидан тан олинади. Шу билан бирга, XIV-XV асрлар Ўрта Осиё, аниқроғи, Мовароуннаҳр ва Хуросон тарихида олий даражадаги маданий – манавий юксалиш даври бўлди. Бу юксалиш Марказий Осиёда уйғониш даврининг тикланиши ва олий даражадаги цивилизацияга қўшган ҳиссаси билан эътироф мумкин. Бу юксалишлар халқимизнинг кейинги маданий ривожланишига катта пойдевор яратди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ибн Арабшох "Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур" (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) I китоб, Тошкент – "Мехнат" нашриёти – 1992
2. *И. М. Мўминов.* Амир Темурнинг Урта Осиё тарихида тутган ўрии ва роли. «Фан», Иккинчи нашри, 1993
3. История народов Узбекистена. Т., Изд. УзССР. 1950 г.
4. Соғуний А, Кароматов Ҳ, "Темур тузуклари" Toshkent "O'zbekiston" 2018
5. Проф.Тоғаев О."Самарқандга,Темур саройига қилинган саёҳат кундалиги (1403–1404)" "Шарқ нашриёти", 1989
6. Сатторий Ҳ."Ҳазрат Соҳибқирон" I том "Шарқ нашриёти", 2016
7. Ш.Каримов, Р.Шамсутдинов. "Ватан тарихи". Т.: "Шарқ нашриёти", 2010
8. З.М.Бобур "Бобурнома" "Юлдузча" нашриёти 1989
9. А. Уринбоев, О. Бўриев "Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида". А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1997,
10. М.Ҳудойқулов, Ф.Тиловатов "А.Темур давлати ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни". Қарши, 2004.
11. Аҳмедов Б. "Улуғбек", Тошкент.: 1989.

УЎК 93/94

ХОРАЗМЛИК АДИБ – ҚОСИМ ИБН ҲУСАЙН ФАОЛИЯТИГА НАЗАР

Б.М. Мирзаев, илмий ходим, Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, Самарқанд

Аннотация. *Мақолада хоразмлик тилшунос, фақиҳ, шоир ва адиб Қосим ибн Ҳусайн ибн Муҳаммад Хоразмийнинг ҳаёти, илмий фаолияти, асарлари ҳақида маълумотлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *Қосим ибн Ҳусайн, фақиҳ, шоир, Ёқут Ҳамавий, мўътазила, Бухоро, Садрул фазоил.*

Аннотация. *В статье представлены сведения о жизни, научной деятельности и творчестве хорезмийского языковеда, правоведа, поэта и писателя Касима ибн Хусейна ибн Мухаммада Хорезми.*

Ключевые слова: *Касим ибн Хусейн, юрист, поэт, Якут Хамави, Мутазила, Бухара, Садрул Фазаил.*

Abstract. *The article provides information about the life, scientific activity and works of Khorezm linguist, jurist, poet and writer Qasim ibn Husayn ibn Muhammad Khorezmi.*

Keywords: *Qasim ibn Husayn, jurist, poet, Yaqut Hamawi, Mu'tazila, Bukhara, Sadrul Fazail.*

Хоразм диёри илм-фанга улкан ҳисса қўшган кўплаб Хоразмийларни етиштириб берган. Хоразмлик алломалар айтилганда аввало Имом Замахшарийни тасаввур қиламиз. Араб тили грамматикаси соҳасидаги алломаларнинг кўпчилиги Замахшарий издошлари ҳисобланади. Шундай зотлардан бири Қосим ибн Ҳусайн Хоразмийдир.

У кишининг тўлиқ исми – Абу Муҳаммад Мажидуддин Қосим ибн Ҳусайн ибн Муҳаммад Хоразмийдир.

Қосим ибн Ҳусайн Хоразмий грамматик олим, араб тили билимдони, насрий ёзувчи, шоир ва моҳир воиз эди, шунингдек, ҳанафий фақиҳларидан, ҳақиқий фазилат соҳиби, арабий илмлар борасида замонасининг пешқадами, ўткир зийрак соҳиби, кучли заковат эгаси. Адабиётнинг моҳир устаси, назм ва наср бобида етук адиб ҳисобланади. У "Садрул фазоил" ("Фазилатли кишилар пешвоси") лақаби билан машҳур бўлган [5:1775].

У Хоразмда, 1160/555 йилда туғилган. Ёшлигида Хоразм илм даргоҳларида дастлабки илмларни эгаллаган. Хоразмий Ироқ, Миср ёки Дамашқ каби марказларга илмий саёҳатлар қилмаган. Унинг илмий саёҳатлари Хоразм ва унинг атрофида бўлган. У илм талабида қуйидаги шаҳарларга борган:

Бухоро. Қосим Хоразмий Бухорога келганини ўзи маълум қилиб бундай дейди: "Мен Бухорога илм талабида, Розий(иддин Найсобурий)нинг қўлида таҳсил олиш учун борганман" [2:2196].

Самарқанд. "Диромус сақт фи шарҳ сиқтуз занд" муқаддимасида бу китобни 1191/587 йилда, Самарқандда тугатганини таъкидлаган. Шунингдек, "Самарқандда баъзи имомлар менга шеър ўқиб берди", деган. Илм йўлидаги сафарларидан сўнг, умрининг қолган қисмини Хоразмда ўтказган.

Қосим Хоразмийнинг устозлари борасида маълумотлар жуда кам. Аллома уларнинг айримларини асарларининг муқаддималарида келтириб ўтган. Улар асосан буюк фақиҳ ва грамматик олимлар бўлган.

Мутарризий Хоразмий. Қосим ибн Ҳусайн уни "Шарҳу сиқтуз занд"нинг муқаддимасида зикр қилиб бундай дейди: "Бизга бу девоннинг матнини Ибн Мутарризий номи билан машҳур бўлган моҳир устоз Бурҳониддин Абу Музаффар Носир ибн Абу Макорим сўзлаб берган". Хоразмий фиқҳ илмини, араб тили грамматикасини Мутарризий қўлида ўрганган. Мутарризий бўлса Имом Замахшарийнинг шогирди ҳисобланиб, тилшунослик соҳасида этук бўлгани сабаб "Замахшарийнинг ўринбосари" лақабини олган [2:2741].

Фахриддин Розий. Хоразмий ўзининг баъзи шеърларида уни мадҳ этган. Бу унинг Фахриддин Розий қўлида шогирд бўлганини билдиради. Аллома ундан ҳадис тинглаган ва унинг илмий мажлисларида қатнашган.

Розийиддин Найсобурий. Аллома ундан таълим олишга борганини эълон қилиб, "Мен Бухорога илм талабида, Розий(иддин Найсобурий)нинг қўлида таҳсил олиш учун борганман", деган. Аллома бу устозини "Тавзиҳ" асарининг бир неча ўрнида эслаб ўтган.

Шайхул ислом Рустоний. Рустонийга бағишланган марсиясини Ёқут Ҳамавийга ўқиб берган. Қосим ибн Ҳусайн булардан ташқари Абдулкарим Анмотий, Ориз Сарахсий, Афзалиддин Ғийлоний каби устозлардан таълим олган.

Қосим Хоразмий ўз даврида машҳур бўлиб, олим ва адиблар унинг илмидан кўп фойда олишган. Алломанинг шогирдлари борасида ҳам маълумотлар жуда кам. Улардан: Ибн Муставфо Арбилий, Малхий, Абу Муайяд кабиларни келтиришимиз мумкин. Муваффақиддин Абу Мафохир Қурбоний алломанинг шогирди ва котиби бўлган. У "Бадоиъул мулаҳ" китобининг нусха кўчирувчиси бўлган.

Машҳур сайёҳ, географ, адиб ва тарихчи – Ёқут Ҳамавий ўзининг "Муъжамул удабо" асарида Қосим Хоразмий ҳақида маълумот бериб, бундай дейди: "Мен ундан туғилган вақти ҳақида сўрадим, у: "Мен беш юз эллик бешинчи йилда, шаъбон ойининг тўққизинчи кечасида туғилганман", деди. Мен Хоразмда унинг уйида бўлганман. Унда ўта гўзал қалб, хуш ахлоқ, очиқ юз, ширин муомалани кўрдим, ундан кўнглим тўлди. У қариган бўлсада кўриниши ажойиб,

қарилиги чиройли, семиз, ҳаракатланиши қийин эди. Унга: "Мазҳабингиз нима?", дедим. У: "Ҳанафий мазҳабидаман. Мўътазила эмасман, мўътазила эмасман. Бухорода фаолият юритганман. Бухоро аҳлининг фикридаман", деб, ўзининг мўътазила эмаслигини изҳор қиларди". Қосим ибн Ҳусайн: "Хоразм Султонига яқин бўлган Шиҳоб Ҳивақий менга мансаб, ёнидан жой ва саройда шеър ўқишим учун ҳар ой ўн динор беришини таклиф қилди. Мен буни қабул қилмадим", деди. Мен: "Яшаш-чи?", дедим У: "Отам менга камбағаллар базўр қаноат қиладиган мерос қолдирган. Қаноат билан роҳатланаман. Шеър ва насрни пул учун эмас, завқ учун айтаман", деди [2: 2191/2198].

Ўз даврининг етук шоири ва адиби даражасига етган Қосим ибн Ҳусайн фақирона ҳаёт кечирган. Бу ҳолни адибнинг машҳур араб сайёҳи Ёқут Ҳамавий билан суҳбатидан ҳам англаш мумкин. Араб сайёҳи шундай ёзади: Қосим ибн Ҳусайн менга: "Умримда бир мартагина менга мурувват қилган кишини биламан, холос. У ҳам бўлса, Бухорода бўлганимда юз берган эди. Бухорога илм олиш, Қуръон қироатини ўрганиш ниятида келган эдим", деди. У Бухорода илм пешволаридан ҳисобланган Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Аҳмад Жайҳоний сингари бир қанча машҳур кишилар ва адиблар суҳбатида бўлади. Улар, Қосим ибн Ҳусайннинг шеъриятдаги маҳоратини кўриб, етмиш динор ҳадя қилишади, яна катта ваъдалар беришади. "Агар муҳтож бўлмаганимда шу пулни олмас эдим", дейди шоир [4:318].

Ёзган китоблари:

Қосим Хоразмий ҳаёти давомида ўнлаб китоблар ёзган. Улар орасида Абу Ало Маъарийнинг "Сиқтуз занд" девонига ёзган шарҳи "Шуруҳ сиқтуз занд" номи билан нашр қилинган. Китоб Табризий, Батлаюсий ва Қосим Хоразмийларнинг шарҳлари билан нашр қилинган.

Қосим Хоразмий "Китобус сабика", "Бадоиъул мулаҳ", "Тажмир фи шарҳил Муфассал лиз Замахшарий", "Тавзиҳ фи шарҳил Мақомот лил Ҳаририй", 'Холватур риёҳийн фил муҳозарот", "Завоя вал хабоя фин наҳв", "Шарҳул абния фин наҳв", "Шарҳул аҳожий лиз Замахшарий", "Шарҳул Анмузаж лиз Замахшарий", "Шарҳул яминий лил Утбий фит тарих", "Зиромус сақт фи шарҳи сиқтуз занд ли Абу Ало Маъарий", "Ужалатус сафар фиш шеър, "Ажоибун наҳв", "Китобус сир фи илмил эъроб", "Лаҳжатуш шаръи фи шарҳи алфозил фиққи", "Бастус сабика фи шарҳил Муфассалъ, "Китобул муфрад вал муаллаф", "Китобул муҳассал лил муҳассала фил баён" каби асарлар таълиф қилган [3:828]. Уларнинг баъзилари бизгача етиб келмаган. Мавжудларининг айримлари ўрганилган, нашр қилинган бўлса, аксарияти қўлёзма ҳолида турибди.

Қосим ибн Ҳусайннинг шеърлари мазмун ва шакл жиҳатидан қадимий араб шоирларига хос хусусиятлари, масалан, бир қадар муболағадорлиги билан ажралиб туради. Шунингдек, шоир шеърларида араб бадавийлари ҳаёти чуқур акс этган. Гарчанд унинг бадавийларга ҳеч бир боғлиқлиги ва араблар орасида яшаганлиги ҳақида бирор маълумот бўлмаса-да, ижодида бадавийлар мавзуи кенг қўламда ифодаланади. Бу эса адибнинг қадимий араб шоирлари, адибларининг асарларини қунт билан ўрганганлигини, бадавийлар ҳаётидан яхши хабардор бўлганини кўрсатади [4:317].

Қосим Хоразмий 1220/617 йили Мўғуллар ҳужуми вақтида вафот этган [1:704].

Ҳозирги замон адабиётшунослигида аллома ҳақида маълумотлар жуда кам. Етук олим ва шоир Қосим ибн Ҳусайн Хоразмийнинг бой илмий меросини ўрганиш, уни кенг жамоатчиликка тарғиб қилиш, Хоразмийларнинг яна бир вакилини танитиш долзарб аҳамият касб этиб қолаверади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абу Муҳаммад Абдулқодир ибн Муҳаммад. Жавоҳирул музийя фи табақотил ҳанафийя. Ҳажр. Миср. 1993. 2 жилд.
2. Ёқут Ҳамавий. Муъжамул удабо. Дорул ғарбил исломий. Байрут. 1993.
3. Исмоил Пошо Бағдодий. Ҳадийяул орифийн. Баҳийя. Истанбул. 1951. 1-жилд.
4. Убайдулла Уватов. Ўзбекистон – буюк алломалар юрти. Маънавият. Тошкент, 2010.
5. Хожи Халифа. Кашфуз зунун. Дору иҳёит туросил арабий. Байрут. 1966. 2-жилд.

УДК 93/94

ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (XVIII-XIX ВЕКА)

М.А. Мубинов, преподаватель, Бухарский Государственный Университет, Бухара

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buxoro amirligining 18—19-asrlardagi tashqi siyosati va diplomatik faoliyati haqida bir qancha muhim ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Buxoro amirligi tashqi siyosatning to'la huquqli va mustaqil sub'ekti ekanligi haqida dalillar mavjud.*

Kalit so'zlar: *amirlik, tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy aloqalar, sarbaz (askar), "Kuchukqaynarja", O'rta Osiyo.*

Аннотация. *В данной статье излагается некоторые важные информации о внешнеполитической и дипломатической деятельности Бухарского эмирата в XVIII-XIX веках. Есть также свидетельства того, сто Бухарский эмират является полноценным и независимым субъектом внешней политики.*

Ключевые слова: *эмират, внешняя политика, социально-политические связи, сарбаз (солдат), "Кучуккайнаржа", Средняя Азия.*

Abstract. *This article presents some important information about the foreign policy and diplomatic activities of the Bukhara Emirate in the 18th-19th centuries. There is also evidence that the Bukhara Emirate is a full-fledged and independent subject of foreign policy.*

Key words: *emirate, foreign policy, socio-political ties, sarbaz (soldier), "Kuchukkainarzha", Central Asia.*

Введение. Активные политические и социально-экономические процессы шли при образовании Бухарского эмирата в Мавераннахре. Даже накануне нашествия Российской империи не прекращалась внешнеполитическая и экономическая деятельность Бухарского эмирата. Достигнуты большие успехи в изучении истории Бухарского эмирата, а также в выражении научных и объективных аналитических взглядов, вызвавшей особый интерес в мировой историографии. Установление внешнеполитических и экономических отношений с Бухарским эмиратом, ведение с ним торговли было важно для Великобритании, Германии, России, Турции, Ирана, в том числе, эти внешние связи были крайне необходимы. Цель написания данной статьи - осветить международные отношения Бухарского эмирата в XVIII-XIX веках и на основе исторических источников, а также доказать, что Бухарский эмират являлся самостоятельным субъектом внешней политики в тот период и играл важную роль во всех отношениях с другими странами в регионе.

Во второй четверти XVIII века Бухарский эмират установил дипломатические отношения с некоторыми иностранными государствами. В частности, в 1779 году эмир Даниялбий аталык назначил Эрназара Максуд угли послом в Россию и Османскую империю, в том числе его задача заключалась в том, что он должен был укреплять двусторонние взаимовыгодные отношения с этими государствами. Посол Бухары был принят тёплом Екатериной II и турецком султаном Абдулхамидом I. Провелись переговоры по Бухара-Османским, Бухара-Российским отношениям [1, с.95]. В 1783-1784 годах Даниялбий аталык отправил послов в Стамбул к Абдулхамиду I во главе Мухаммада Шарифа. Даниялбий послал письмо через послов к имени султана. В ответ султан отправил письмо через Мухаммада Шарифа.

В 1786 году султан Абдулхамид I направил послов во главе Оламдора Махмуда Саида в Бухару, так как турки были недовольны результатам Кючук-Кайнарджинского договора, подписанного с Россией в 1774 году. Султан попросил эмира Шахмурада (1785-1800) оказать туркам политическую, так и моральную поддержку против России, чтобы вернуть Крым, который перешел к России по договору. Очевидно то, что Бухарский эмират в то время был независимым и могущественным государством и вёл полностью независимую внешнюю политику. В частности, в 1786 году эмир Шахмурад с целью решения вопросов Ирана и предотвращения Русско-Турецкой войны с Россией отправил своих послов во главе Палванкула курчи в эту страну. Кроме этого, эмир Шахмурад выступав против господства Российской империи над казахскими джузами, послал письмо через послов к биям казахских джузов [2, с.74-75]. Эти данные показывают, что бухарские эмиры начали свои действия против России в то время, когда российское вторжение не представляло угрозы. Бухарский эмират участвовал в международных отношениях как самостоятельным и полноценным субъектом.

В первой половине XIX века замечались попытки сближения в бухарско-китайских отношениях. Эти попытки принимались бухарцам. Например, эмир Бухары Хайдар (1800-1826) в 1816 году направил послов в маньчжурское официальное учреждение в Кашгаре с целью установления взаимных политических и торговых отношений между двумя странами. Согласно правилам дипломатических отношений государств Средней Азии, послы принесли письмо и подарки от эмира. Несмотря на молчание насчёт того посольства официального китайского правительства Маньчжурии торгово-экономические связи продолжались между Бухарой и Китаем.

Таким образом, государства Средней Азии продолжали торговать с соседними странами в любой политической или экономической ситуации. Среди этих стран развита внешняя торговля Бухарского эмирата с Китаем [3, с.178-179]. В начале XIX века внешние связи Бухарского эмирата более активировались. В 1969 году в Нью-Йорке профессор Йельского университета Г. Хембли

опубликовал свою книгу под названием «Средняя Азия», которая посвящена на историю узбекских ханств. В 13 главе книги автора анализированы ценные сведения о внешней политике Бухарского эмирата. В данной книге освещаются административное устройство, внешняя дипломатия, торговые связи Бухарского эмирата. В 1969 году в Лондоне была опубликована книга Джеймса Ланта «Бухара Бернс», в которой приведены сведения о приезде сотрудника Ост-Индской компании, лейтенанта Александра Бернса в 1831-1832 годах по поручению Английского правительства, проделанных ему работах по установлению дипломатических отношений между Бухарой и Англией, Бухарско-Русско-Турецко-Иранских отношениях [4, с.42]. Во время правления Амира Насрулло были проведены реформы в Бухарском эмирате, а также внешнее влияние и военная мощь эмирата значительно возросли. Но после победы над англичанами в 1845 году эмир Кабула Дост Мохаммадхан отвоевал город Балх от Бухарского эмирата, который когда-то был оккупирован эмиром Шахмурадом. После этого, мангытские эмиры занялись политической деятельностью с целью установления своего господства в среднеазиатском регионе. В произведении Мухаммада Хакимхана Туры «Мунтахаб ат-таварих» излагаются события того периода и отношения Бухарского эмирата с Кокандским ханством. В нём отражаются данные о том, что захват войск эмира Бухары Джиззак, поход на Коканд, поражение правителя Кокандского ханства Мухаммадалихана. Согласно данным произведения Мулла Алим Махдум Хаджи «Тарихи Туркестан» (История Туркестана): в 30-х годах XIX века Бухарский эмират установил политические связи с Ираном, а также в 1834-1835-годах из Ирана в Бухару приглашён Абдусамад Табризи тупчи (пушкарь, артиллерист). На войне против Коканда Абдусамад Табризи возглавил в качестве главой артиллерии. По данным книги Н. Ханикова «Описание Бухарского ханство»: «Осенью 1841 года эмир Бухары послал в Коканд около 1000 солдат, 30 000 узбекских войск, большую армию с 11 артиллерийскими орудиями. Коканд был оккупирован». Таким образом, Бухарский эмират в 1842 году захватил большую часть Мавераннахра и сыграл важную роль во внешней политике этого региона.Политическое давление Российской империи стало значительно усиливаться в 50-х и 60-х годах XIX века. Осенью 1867 года эмир Музаффар послал муфти Мулла Мухаммада Хужа Порсо к Османскому правителю в Стамбул. Мухаммад Ходжа Порсо передал дары и секретное письмо эмира султану Абдулазизу 24 сентября 1867 года. Турецкий султан отказался оказывать военную помощь, но согласился послать артиллерию и военных советников. Турецкий султан дал 50 000 куруш из казны султана и отправил Ходжу Мухаммада Порсона в хадж [5, с.3-9]. Амир Музаффар отправил письмо королеве Англии, в котором сообщил ей о нарушениях прав человека, материальной и моральной поддержке, а также о том, что она правит страной как правитель справедливо. Сохранилось единственное письмо королевы Виктории эмиру Бухары Музаффару 1872 года. Венгерский ученый, путешественник и шпион Герман Вамбери (1833–1905) также отмечает, что в 1865–1867 годах среднеазиатские ханства возлагали свои надежды на Великобританию и Турцию, чтобы избежать российского вторжения. 24 декабря 1867 года посол Бухарского эмира в Стамбуле вручил главному послу Генри Эллабу письмо эмира, но не получил конкретного ответа. Эмир Бухары не ограничился отправкой послов. 7 февраля 1868 года эмир и 14 его чиновников написали письмо британскому правительству, в котором говорилось, что российские военные оккупировали Джизак, Уратюбе и Янгикурган, убив тысячи мирных жителей и мусульман [6, с.3-9].

В заключение следует отметить, что представление о том, что мангытские правители Бухары ничего не сделали против нападения русских, было неверным. Бухарский эмират вёл активную внешнюю политику во всех отношениях с другими странами накануне нападения Российской империи. Выражая свои взгляды и комментарии к теме, мы обратились к источникам с критической точки зрения. Не только внешняя политика Бухарского эмирата но и внешняя деятельность всех среднеазиатских ханств требует более глубокого исследования. Перед историческими исследованиями в этой области стоят серьёзные задачи в будущем.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гулямов Х.Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. –Т.: Фан. 1992. С.95.

2. Раҳмонқулова З. "Бухоро амирлигининг дипломатик алоқолари"//Жамият ва бошқарув. 2002. №3. –Б.74-75.

3. Қўлдошев Ш. Манғитлар даврида Бухоро-Хитой муносабатлари/Бухоро тарихи масалалари(Республика илмий-назарий анжумани материаллари). Бухоро: 2017. –Б.178-179.

4. Авазов Й. Бухоро амирлигининг ташқи иқтисодий алоқалари (XIX-XX аср бошлари)//Мозийдан садо. 2007. -№1. –Б.42

5. Mehmet Saray. Rus ishg`ali devrinda Osmanli davlatining Turkiston hanliklari orasindagi siyasi munasebetler (1775-1875). Қаранг: Ҳайитов Ш. Ҳайитов Ш.А. Россия империяси босқини арафасида Бухоро амирлиги ва Ўрта Осиё хонликларининг дипломатияси/ Бухоро тарихи масалалари(Республика илмий-назарий анжумани материаллари). Бухоро: 2017. –Б.3-9.

6. Содиқов Ҳ. Тарихнинг чигал сўқмоқлари. Қаранг: Ҳайитов Ш.А. Россия империяси босқини арафасида Бухоро амирлиги ва Ўрта Осиё хонликларининг дипломатияси/ Бухоро тарихи масалалари(Республика илмий-назарий анжумани материаллари). Бухоро: 2017. –Б.3-9.

УЎК 93/94

XIX АСРДАГИ АМУДАРЁНИНГ ЧАП СОҲИЛИ БЎЙЛАРИДАГИ ҚЎРҒОН-ШАҲАРЛАР

Х.М. Отегенов, PhD, Қорақалпоқ Давлат Университети, Нукус
Ж.Е. Тореniязов, ўқутувчи, Қорақалпоқ Давлат Университети, Нукус

Аннотация. *Мазкур мақолада XVII-XIX асрларда Жанубий Орол бўйлари, Амударёнинг чап соҳили қирғоқларида жойлашган қўрғон-қалъалар ёзма ва илмий адабиётлар асосида ёритилади.*

Калит сўзлар. *Амударё, қўрғон-қалъа, Қудайберган қалъа, Янги қалъа (Шуманой), Янги қалъа (Қанликўл), Янги қалъа (Кўнғирот), Қипчок, Манғит қалъа.*

Аннотация. *В статье на основе письменной и научной литературы описаны крепости, расположен в XVII-XIX веках на южного Аральского моря, на левом берегу Амударьи.*

Ключевые слова. *Амударья, Курган-кала, Кудайберген кала, Янги кала (Шуманой), Янги кала (Канликуль), Янги кала (Кунград), Кипчак, Мангит кала.*

Abstract. *The article based on written and scientific literature, describes the fortresses of the karakalpaks who lived in the XVII- XIX centuries on the southern coast of the Aral Sea, on the left bank of the Amu Darya River.*

Key words. *Amu Darya, Kurgan-kala, Kudaibergen kala, Yangi kala (Shumanoy), Yangi kala (Kanlikul), Yangi kala (Kungrad), Kipchak, Mangit kala.*

XIX асрда Орол бўйларида, Амударё қуйи оқимида, дарё тармоқларида, географик қулай жойларда қўрғон-шаҳарлар, аҳоли пунктлари вужудга келган. Бу шаҳарлар ҳақида Хива тарихчилари Мунис, Огаҳий, асарларида, Хива хонлари архив ҳужжатларида маълумотлар келтирилган. Шунингдек, XIX асрга оид халқ оғзаки ижодида ва қорақалпоқ адабиётида учрайди (Кунхожа, Ажинияз, Бердақ, Ўтеш ва бошқалар).

Шундай қисқа маълумотлар илмий ва ҳарбий миссиялар аъзоларининг ҳисобатида ва саёҳат кундаликларида (Д. Гладишев, И. Муравин, Г.П. Данилевский, М.Н. Галкин, Н. Каразин, А.В. Каулбарс, В.В. Григорев, Н.И. Веселовский, М.Г. Черняев, А. Кун, А. Вамбери ва бошқалар), Россия элчилари, XVIII-XIX асрларга оид чет эл хариталарида ҳам улар кўрсатилган.

С.П. Толстов раҳбарлигидаги Хоразм археологик ва этнографик экспедициясида қатнашган тадқиқотчилар тамонидан қорақалпоқларнинг тарихини ўрганишга катта ҳисса қўшди.

Академик С. Камалов "Янгидарё" деб номланган даврдаги қорақалпоқлар тарихига оид архив ҳужжатларини, шунингдек ҳудудда ўтказилган дала тадқиқодлари вақтида ёзиб олинган ёзувларни ўрганган. XX асрнинг 70-йилларида маҳаллий этнографлар асосан Х. Есбергенов асарларида қишлоқлар ва турор жой қолдиқлари ўрганилган.

Археолог М. Мамбетуллаев, Ғ. Хожаниязов, тарихчи О. Юсупов қорақалпоқларнинг XVII-XIX асрлардаги шахарлари ва қўрғонларини тизимли ўрганди ва уларнинг тадқиқот натижалари босилиб чиқди.

ҚУДАЙБЕРГЕН – ҚАЛЪА. Қудайберген – қалъаси Қўнғирот туманининг ҳудудида чўл зонада, Кўҳна дарё соҳилининг бўйида қурилган. Шаҳар Хива ҳокими Қудайберген томонидан қурилган деган маълумотлар сақланган. Т. А. Жданконинг 1957 йилда ўтказган тадқиқотларига кўра, унинг деворлари катта даражада зарар кўрган ва бу жойларда, ғишт блокларини аниқлаш мумкин. Жануб деворда очилиш катта жойни ва дарвоза билан алоқадор қурилиш қолдиқларини кўришингиз мумкин. Шаҳар пахсадан солинган қалъа девор билан ўралган. Унинг миноралари ҳам бўлган. Унинг ичида лойдан қурилган жойларнинг қолдиғи сақланмаган. Бошқа шаҳарларга ўхшаб бунда ҳам одамлар асосан қора уйда яшаган бўлса керак[1, 164-167]. Тарихий ва оғзаки маълумотларга қараганда Қудайберген қалъа XIX асрда қурилиб, дарё сувининг қуриб қолишига алоқадор у ердаги аҳоли кўп ўтмай Янги қалъага кўчиб борган. Шўманой ва Қанликўл туманлари чегарасида жойлашган бу қалъа информаторларнинг сўзларига кўра, турар жой 1878-йилда Амударёнинг қадимги Қиятжарған дарёси бўйида қурилган. Қудайберген -қалъа деворлари пахса блокларидан тикланган. Хива архив ҳужжатларида Қудайберган бий Меҳремнинг исми тилга олинади[2,103].

ЯНГИ ҚАЛЪА (Шўманой). Қорақалпоқларнинг қўрғон-шахарларининг бири «Янги қалъа» номида дарёнинг чап томонида уч ерда ёдгорлик бор. Янги қалъа ёки Кўҳна Шўманой қалъаси ҳозирги А. Мусаев номидаги деҳқон хўжалик ҳудудида жойлашган. Қалъа эски «Илақали» ўзак

бўйига текис ерга қурилган. Ёдгорликнинг шарқий томонида янги канал қазилган. Бу қалъанинг ёнидан Қўнғирот ёки Хожелига борадиган карвон йўли бўлган Янги қалъани 1983-йили апрель ойида тарих фанлари номзоди Жумабай Уббиниязов раҳбарлигида бориб назорат ишлари олиб борилиб, унинг расмини ва схема режаси олинди. Ёдгорлик тўрт бурчакли шаклда қурилиб, унинг ичида ҳужра қолдиқлари сақланган. Қалъанинг баландлиги 2,5-2,7 метр, узунлиги 250-350 метр. Жануб томонидаги пахса тирноқларига қамиш ва қизил жинғил тўшалган. Ушбу томоннинг деворида 16 тешик (ўқ отадиган жой) бор. Улар тўғри қурилган[3,79]. Ўқ отар жойларининг ҳажми 18х22 см. трапеция шаклда, узунлиги 90 см. бўлиб қурилган Шаҳар ичидаги бир нечта ҳужраларда китоб бошқа буюмлар қўядиган зина ўринлари сақланган. Қалъанинг эски дарвозаси бўлган, аммо ҳозир уларнинг ўрни сақланмаган.

Янги қалъанинг пайдо бўлиши ҳақида қуйидагича ривоятлар бор.... Хива хони Мадрейим замонида янги қалъа қурилади. Бу қалъада Хивалик Абдирейим бой ҳоким бўлган, кўнгилли қўшинлар сақланган, аҳолидан ушбу қалъада солиқ йиғқан, қалъага яқин ерда йўл ва ўтиш йўли бўлганликдан йўловчилардан бож пули олган. Янги қалъани душмандан қўриқлаган Тилевмурат ботирнинг мардлигини аҳоли ҳеч қачон унутмайди. У ёзма манбаларда ўтган асрдаги сайёҳлар ва Хоразм муаррихларининг асарларида Амударёнинг ўша томонида янгидан вужудга келган қалъа сифатида Янги қалъани эслаб ўтади. Бу қалъанинг пайдо бўлиши ҳақида Муҳаммед Риза Огаҳийнинг «Гулшани давлат» номли қолёзма китобида илк эслаб ўтилади. 1859-йили Хива хони Қўнғиротга юриш қилиб қайтаётганда йўлда чарчаб Чаноқ шайх боғига тушган. Бу ерда хонга атаб ҳужралар солинган. Янги қалъадаги боғ атрофи Янги деворлар билан ўралган, бу ерлар Нурулла бой номи билан аталган. Бундан Қўнғирот йўлида Нурулла бой ерида Янги шаҳар вужудга келганини, унинг Хива хони томонидан солинганини кўрамиз.

Хоразм тарихчиси Баёнийнинг «Шажарайи-Хоразмшахи» номли қолёзма асарида «Янги қалъа» эслатиб ўтилган. Ўтган асрнинг 50-йилларидаги Қўнғирот аҳолисининг кўзғолони Хива хонига катта хавф туғдирди. Хива хони Қўнғирот аҳолисини сувдан қисиш учун Амударё тармоқларига тўсиқ қўйиб, йўл ва ўтиш жойларига қалъа-шаҳар қурдира бошлади. Янги шаҳар қалъанинг пайдо бўлиши 1858-1859 йилларги қорақалпоқларнинг Қўнғирот қўзғолони сабабли, Хива томонидан ҳарбий қалъа сифатида дастлаб шаклланган. Баёнийнинг айтишинша «Янги қалъага» карвонлар келиб турган. Демак, собиқ ҳарбий қалъа шаҳар, сўнг тижорат марказига айланган эди.

Сайёҳ Мирзо Абдурахмон (1873-й) қорақалпоқларнинг ўтроқ макон жойларининг бири «Янги қалъа» деб такидлайди[4, 609]. 1873-йили Хива юришларининг иштрокчиси М. Алиханов-Аварский ҳам «Джана-кала» қалъасини эслайди[5,121]. Рус тадқиқотчиси А. В. Кабульбарс (1873) Шўманой канали бўйида деҳқончилик яхши ривожланганини бу ерларда ўтроқлар кўп эканини кўрсатади[6,553-563]. Янги шаҳар Шўманой ўтроқлари ҳақида Гиршфельд ва Галкин, Степкевич ва бошқалар эслаб ўтган эдилар.

XIX асрнинг иккинчи ярмида Шўманой беклигида Янги шаҳар савдо ва маъмурий марказ бўлганлигини кўрамиз. XIX асрнинг 60-йилларида Қўнғирот инқирозидан сўнг Хива хони томонидан тарқоқ қорақалпоқлар устидан назоратни ва бошқарувини марказлаштириш ва кучайтириш мақсадида кўнгилли қўшинлар жойлаштириладиган, солиқ йиғадиган, савдо-сотиқ ишларини олиб бориш, маъмурий марказ мақсадида Янги қалъа солинганлигини кўрамиз. Қалъанинг Амударёнинг битта тармоғига ва қирғоқ бўйига қурилиши ҳам ҳарбий фортификация талабига жавоб беради. 1894-1899-йиллари Шўманой ариғининг суви қайтиб, Янги шаҳар аҳолиси сувсизликдан қалъадан кўча бошлаган. Янги шаҳар (Кўҳна Шўманой) қалъаси Хива хони томонидан солинган, қалъанинг умр суриши 1859-1899-йилларга тўғри келади[7, 80].

ЯНГИ ҚАЛЪА (Қонликўл). Амударёнинг чап тармоғида Бегжаб, Илақали ўзак бўйларида Янги қалъа номидаги қалъа шаҳарлар бўлган. Ёдгорлик археологлар С. П. Толстов, Т. А. Жданко томонидан тадқиқ қилинди. Янги шаҳар қалъаси деворларида қоровул ўрни, миноралар, ўқ отадиган гезер (уч томонга қараб ўқ отишга мослаштириб солинган жой)лари бор, деворлар-қалъа атрофида чуқур-хандақ қазиган, ичига сувлар тўлдириб, душманлар ўтолмасликлари ушун мустаҳкамлаган. Қонликўл тумани ҳудудида 97х113 м ўлчамда, тўрт бурчак шаклда жойлашган. Тарафлар асосий нуқталарга йўналтирилган. Ўртадаги ҳар бир деворларга дарвоза қурилган. Деворларга пахса блоклари ўрнатилган. Юқори деворнинг ташқи четида бир-биридан 30 см масофада жойлашган декоратив чуқурлар бор. Улар деворни тешмай кенглиги 8-10 см ва баландлиги 55-65 см бўлган бўшлиқни билдиради. Қалъанинг бурчакларида яримта юмалоқ миноралар бор. Барча деворларда бурчаклардан дарвозаларга қадар бўлакларнинг ўрталарида таянчи бор. Деворлари полдан баландлиги ярим метрдан ортиқроқ бўлган тешикларга ўхшаш тешиклар билан жиҳозланган; Шимолий ва ғарбий деворларнинг ўртасида уч бўшлиқ бор. Янги

қалъанинг қурилиши Хожайли-Қўнғирот оралиғидаги бекат йўл бўйи, ўша ҳудудлардаги чорва хонадонларининг қишлов макони, турар жойлари учун қурилган эдилар[8,103].

ЯНГИ ҚАЛЪА (Қўнғирот). Қўнғирот туманининг собиқ Жданов колхозининг ҳудудида жойлашган. Бу қалъани 1946 йили Хоразм экспедициясининг отряди ўрганган. 1957 йили Хоразм Т. А. Жданко бошчилигидаги отряд тадқиқ қилиб, унинг режасини В. Н. Ягодин ва Н. И. Игонин солган ва қалъанинг тузилишини А. В. Гудкова ёзган[3, 164-166].

Янги қалъа 1897 йиллар чамасида Хива хони Мадирейим хон даврида қурилган. Қалъани Хивалик ўзбек устаси қурган, аммо ишчилар қорақалпоқлар бўлган. Унинг бажарган вазифаси турлича эди. Бу ерда ҳоким ва қози, уларнинг бошқарув кенгаши бўлган. Улар атрофидаги аҳолини назорат қилган. Доимо қалъа ичида қорақалпоқ миллатига мансуб бўлган 30-40 га қадар кўнгилли қўшинлар ва ясовулбоши бўлган. Улар қалъани туркманлардан қўриқлаши ва Хожайлидан Қўнғиротга ва Қўнғиротдан Хожайли томонга йўл олган одамларни кузатиб бориши зурур эди. Қўнғирот тумани аҳолисининг такидлашиша, туркманлар доимий тарзда ҳужум ташкил қилган. Шунинг учун туркманларнинг ҳаракатларини кузатиш учун бурчак миноралари да доймий қаравуллар бўлган. Археологлар 1957 йилда Янги қалъанинг аниқ мўлжалланганлигини ҳар битта деворда дарвозаларнинг бор эканлигини аниқлади. Шарқий девор тамонда Хожайлидан келган одамлар учун дарвоза мавжуд эди ва ғарбий дарвоза билан Қўнғиротга чиқиш эшиги бўлган. Бу дарвозалар кўчалари қалъада шимолий ва жанубий дарвозалар кўчаси билан кесишган. Шимолий девори бўйлаб Киндик ўзак канали ўтган. Шимолий дарвозадан товарлар қалъага кириб келган.

Доимий бозор йўқ эди, аммо кўпгина дўконлар мавжуд эди, айниқса гўшт дўконлари. Улар гўшт, чой, шакар, сарёғ сотади. Улгуржи савдо учун аниқ вақт йўқ. Савдодан тушган пулга дўкон эгалари жангчи хўроз, беда, дон, кунжут уруғини сотиб олади. Савдогарлар қора уйларда яшар эдилар. Улар доимий яшовчи Хива, Урганч, Ханқадан келган. Савдогарлар йилига бир марта катта кемаларда келар эди. Улар миллати бўйича ўзбек эдилар, аммо бу ерда улар савдо қилиш учун махаллий аҳолини ёллайди, улар ўзлари учун фоиз билан савдо қилади. Қалъада кўнгилли қўшинлар ва савдогарлар билан бир қаторда ҳунармандлар ва деҳқонлар ҳам яшаган. Қалъада яшаган деҳқонлар оқсоқолга бўйсинган. Қалъадаги ҳунармандлар орасида этикдўз ва заргарлар, темирчилар, арава усталари, қора уй усталари бор эди[2]. Бу шаҳар-қалъанинг бошқа ёдгорликлардан фарқи бунинг мудофаа хандақи бўлмаган.

Янги-қалъа XIX асрнинг иккинчи ярмида, аввалги Эсенгелди бий қалъасида вужудга келган. XIX асрнинг охирида Янги-қалъа Қабул беклар беги қароргоҳида эди. Бу шимолий минтақадаги қорақалпоқларнинг асосий ҳокими. Шуни такидлаш жоизки, XIX асрда Хивадан Оренбургга йўл олган карвонлар чўл бўйлаб юриб, Устюрт платосига асосан Янги -қалъа қўрғони ҳудудига кўтарилади. Янги -қалъа қўрғони ҳақида Л. С. Берг. «1882 йилда Янги -қалъа Амударёнинг суви билан тўлиб тошқан, шундан сўнг шаҳар парчаланиб кетган»-деб ёзади[1,258].

ҚИПЧОҚ ҚАЛЪА. Амударёнинг чап томонидаги жойлашган муҳим қалъаларнинг бири Қипчоқ ҳисобланади. 1753-йили Хивага борган Самара савдогарлари Қипчоқ қалъа устидан ўтганлигини ёзиб қолдирган. 1840-йили қалъада элчи Г.И.Данилевский бўлади. У қалъанинг Қанжиғали ариғининг юқорисида қурилганлигини, қалъада ҳафтасига икки маротаба бозор бўлади, етмишга яқин дўкон, олти масжид бор эканлигини, қалъа аҳолиси қорақалпоқлар, ўзбек ва қозоқлардан иборат деб ёзиб қолдиради. Сўнгра қалъада бўлган Вамбери масжид-мадрасаларнинг кўплигини, уларнинг бири Хожаниёз бий мадрасаси дарёнинг ўнг соҳилида жойлашганлигини ёзади[9,125-126].

Соволев ва Гродековларнинг маълумоти бўйича, 1882-йилга келиб қалъа деворларининг бузила бошлаганини такидлаб ўтади. Қалъа аҳолиси соҳилга хизмат қилган, бу ерда дарёдан ўтказишга мослашган кемалар юрган. Қалъада бўлган А.Е. Россикова Қипчоқни Кўҳна Урганч билан тенглаштиради[10,644-645].

МАНҒИТ ҚАЛЪА. Амударё бўйидаги шахарлар орасида Манғит қўрғони ҳам манбаларда учрайди. Қўрғон деворлар билан ўралган, ичида икки мингга яқин турар жойларнинг бор экани ва у ерда саккиз мингдай одам истиҳомат қилганлиги айтилган[11, 13]. Гладышев ва Муравиннинг отряди Хожайлининг юқорисида Амударёдан ўтган ва ўнг қирғоқдан йўл олиб, Қоравойли ёқасида Манғит қалъасида йиғилиб Қўнғирот шаҳри томонга йўл олган[12, 62].

Манғит қалъаси Қубатоғ ва Қушхонатоғ тепалигидан бироз жануброғда бўлган Қоракўл туманида жойлашган бўлиши мумкин, бу далилни юқорида ёритиб ўтилган Хива отряди маршрутига асосланиб келтириш мумкин. Буни Хива отрядининг маршрути бўйича Манғит қалъаси жойлашган туманлар билан Қоравойлининг кўчма тармоғининг алоқадор бўлганлиги ҳам кўрсатади.

Амударёнинг Қоравойли тармоғида жойлашган Манғит қалъа XVIII асрнинг иккинчи ярмида, аниқроғи 1787-йили бухоролик Жонмурод томонидан эгалланганлиги, қалъага қорақалпоқ султони Абдурахман ҳукимдор бўлганлиги ва ўша даврларда қўшни Нукус қалъасига ҳужум қилиб ўтирганлиги ҳақида маълумотлар учрайди[13, 37]. Бироқ ўша йили Манғит қалъаси фуқоралари Жонмурод иноқ билан биргаликда Муҳаммад иноқ фармони билан Оталиқ арна бўйига кўчирилиб, янги Манғит шаҳрига асос солинади[14, 216].

Янги Манғит шаҳар Амударёнинг чап қирғоғида жойлашган. Шахарда турар жой жамоат иншоотлари қурилишида шахарда туғилган Эшҳмуҳаммад Наққош Шамуратов (1838) катта ҳисса қўшди. У Хивада таҳсил олиб, қурувчи ва наққош бўлди. Эшҳмуҳаммад Наққаш Шамуратов Германияда элчи бўлиб ишлаган. 1880 йилда Эшҳмуҳаммад лойиҳасига кўра Манғитда минора қурила бошлаган. У Манғитни Хива хонлигининг иккинчи пойтахттига айлантиришни орзу қилган. Эшҳмуҳаммад Наққошнинг лойиҳасига кўра Манғиттаги кўчаларнинг кенглиги 16 м бўлишлари зурур эдилар. Уста Эшҳмуҳаммад Наққош Шамуратов ва Манғит ҳокими Ота Мамбет Маҳрам ўртасида ҳеч қандай шартномага эришилмади, ўша сабабли минора қурилиши тугалланмай қолиб кетди.

XIX асрнинг бошларида Манғит йирик сиёсий, бошқарув, савдо, маданий ва ҳунармандчилик маркази бўлган. XIX асрда Манғитда катта бозор, масжид, мадраса, минора ва мусулмонлар мактаби мавжуд эди. 1905 йилда Манғитда рус мактаби очилди, у ерда дастлаб 5 киши ўқиди ва бу мактабда Эшҳмуҳаммад Шамуратов рус тилидан дарс беради.

XX асрнинг бошларида Эшҳмуҳаммад Шамуратов Хоразм ва Қорақалпоқларнинг геотопографик харитасини тузди. У 1911 йилда Манғитда вафот этади[2, 102].

Шуни такидлаб ўтиш керакки, умуман олганда қорақалпоқларнинг ўрганилаётган даврдаги қўрғон қалъари асосан аҳолини ташқи душмандан ҳимоялаш вазифасини бажарган. Жанг миноралари ва деворнинг тешиклари Қорақалпоқ меъморчилигининг келиб чиқиши билан алоқадор бўлган қадимий қалъалар ва Хоразмнинг ўрта аср қалъалари учун характерли бўлган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Жданко Т. А., «Работы каракалпакского этнографического отряда Хорезмской экспедиции в 1957г. [Работа каракалпакского этнографического отряда Хорезмской экспедиции в 1957 году] ", МХЭ, т.IV М .: АН СССР, 1960
2. Мамбетуллаев М., Юсупов О. Города и поселения каракалпаков в XVII-XIX вв. (Материалы к своду памятников материалной и духовной культуры каракалпаков) част 1-я. Вестник ККФАН Уз. 2005. №1-2
3. Юсупов О.Ж. Жаңа-қала Вестник ККФАНУзССР Н. 1983, №3
4. Документи архива Хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков М. Наука, 1967
5. М. Алиханов-Аварский. Поход в хиву 1873 г. Степ Оазис СПб, 1899
6. А.В.Каульбарс Низовя Амудари описания по собственным исследованиям в 1873 г. Спб, 1881
7. Полевые записи Гудковой и Тореева А., сделанные в 1957 году во время работы в этнографическом отряде ХАЭЭ, Нукус, 1962, л.л. 1-14
8. Берг Л.С. Аральское море. Опыт физико-географической монографии. СПб., 1908
9. Вамбери, Очерки Средней Азии (Дополнение о путешествию по Средней Азии) М., 1868
10. Россикова А.Е. По Аму-Даре от Петро Александровска до Нукуса. Русские Вестник 1902
11. Григорьев В. Описание Хивинского ханства и дороги туда из Сарайчиковской крепости // Записки императорского русского географического обьявления. географии], т. II, 1861
12. Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740-1741 гг. Гладышев и Муравин. – СПб., 1851
13. Хожаниязов Ғ.,Ҳакимниязов Ж., Пайзуллаева Ш. Бердак дәўириндеги қорған-қалалар. Н.2015
14. Ғуламов Я. Хоразмнинг сувғорилиш тарихи Т., 1959

УЎК 903

ҚАРШИ МАГИСТРАЛ КАНАЛИНИНГ ҚУРИЛИШ ТАРИХИ ВА НАСОС СТАНЦИЯЛАРИ (1963-1975 ЙИЛЛАРДА)

А.Э. Рахимов, мустақил тадқиқотчи, Ўзбекистон Миллий университети, Тошкент

Аннотация. *Совет ҳукумати томонидан XX асрнинг 60-70 йилларида Қашқадарё воҳасида бунёд этилган энг катта ирригация иншоотларидан бири Қарши магистрал каналининг қурилиш тарихи ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: *Амударё, "Каршистрой", насос станция, агрегат, сув, инженер, чўл, миллат, ҳукумат, лойиҳа, канал, сув омбори, ирригация, машина.*

Аннотация. *История строительства Каршинского магистрального канала, одного из крупнейших ирригационных сооружений, построенных советской властью в 60-70-х годах XX века в Кашкадарьинском оазисе.*

Ключевой слова: *Амударья, «Каршистрой», насосная станция, агрегат, вода, инженер, пустыня, народ, правительство, проект, канал, водохранилище, орошение, машина.*

Abstract. *The history of the construction of the Karshi main canal, one of the largest irrigation facilities built by the Soviet government in the 60s and 70s of the XX century in the Kashkadarya oasis.*

Key words: *Amudarya, "Каршистрой", pump station, unit, water, engineer, desert, nation, government, project, canal, reservoir, irrigation, machine.*

Қашқадарё воҳасида йирик сув иншоотлари ҳисобланган сув омборлари ва суғориш каналлари 1950 – 1980 йиллар оралиғида қурилган бўлиб, бугун ҳам бу иншоотлар вилоятнинг асосий ирригация иншоотлари бўлиб қолмоқда. Бугун мамлакатимиздаги "мавжуд ирригация инфратузилмаси, насос станцияларининг катта қисми ўттиз-қирқ йилдан ортиқ фойдаланилмоқда ва реконструкция ёки капитал таъмирга муҳтож"[1] эканлиги маълум. Қашқадарё вилоятида бир гидрологик йилида 4,5-5,0 млрд. м³ сув сарфланади. Талаб этиладиган сув ресурсларининг 75 фоизи қўшни Туркманистон ҳудудидан, яъни Амударёдан Қарши магистрал каналида, қолган 5 фоизи эса Зарафшон дарёсидан, 20 фоизи Қашқадарё ва унинг ирмоқлари орқали шаклланади[2]. Вилоятдаги демографик ўсиш, саноатлашиш жараёни ва қишлоқ хўжалиги соҳасида сувга бўлган катта эҳтиёж сув ва сув иншоотларидан фойдаланишда замонавий ёндашувларни талаб этмоқда.

XX аср бошларида Ўзбекистон ҳудудида кам қувватли нефть двигателларидан узатма орқали ишлайдиган бор-йўғи 130 та майда насос қурилмалари мавжуд бўлган бўлса, бугун МДҲ да энг йирик, сув кўтариб бериш бўйича дунёда улкан насослардан бири бўлган Қарши магистрал каналининг насос станциялари тармоғи ишлаб турибди[3].

Ўтган асрда Қарши чўлларининг юз минглаб қақраб ётган ерлари ўзлаштирилди. Мазкур ҳудуддаги ерларни қишлоқ хўжалиги ҳисобига киритиш жараёнида янги шаҳарчалар, туман марказлари, шунингдек, республикамиздаги энг мураккаб бўлган ирригация иншоотлари бунёд этилган. Улардан бири Қарши чўлини ўзлаштириш мақсадида қурилган Қарши магистрал канали эди.

СССР Министрлар Советининг қарорига мувофиқ 1963 йилда Қарши чўлини суғориш ва ўзлаштириш бўйича махсус қарор қабул қилинган[4]. Қарши чўлини ўзлаштириш расман 1963 йил 26 августдан бошланган[5]. Қарши чўлини ўзлаштириш ва канал қурилиши лойиҳалари билан собиқ Иттифоқдаги 17 та илмий-тадқиқот институтлари шуғулланди[6].

Қарши магистрал канал ва насос станцияларининг лойиҳасини С. Я. Жун номли Ленин орденли Бутуниттифоқ давлат қидирув илмий тадқиқот Куйбишев "Гидропроект" институтининг 27-экспедицияси инженерлари тузишган[7] бўлиб, мазкур лойиҳанинг ҳаётга тадбиқ этилишини бевосита қурилиш майдонида туриб назорат қилувчи 7 кишидан иборат гуруҳга Евгений Саломонович Гольдман[8] раҳбарлик қилган.

Қарши машина магистрал каналини қазиш ишлари 1964 йилнинг август ойидан бошлаган ва 1964 йилда 53 миллион сўм маблағ сарфланган[9]. Қарши магистрал канали Амударёнинг Пулизиндон бурнидан бошланиб шимол томонга Таллимаржон сув омборигача оқиб боради (бош машина қисми 80 километрча), у ердан каналнинг ўзи оқар қисми бошланади[10].

Амударё сувини Қарши чўлига оқизиш ва Қарши чўлини ўзлаштириш учун махсус "Каршистрой" (Қаршиқурилиш) бошқармаси ташкил этилиб, унинг таркибига кирган ўнлаб трестлар, қурилиш-монтаж колонналари ва ташкилотлар катта ишларни амалга оширган[11]. 1963 йилдан то 1969 йилга қадар янги тузилган бошқарма "Каршистрой", "Средазирсовхозстрой" бош бошқармаси, Республика маблағи ва вилоят хўжаликлари маблағлари асосида ишлаб турган. Ҳукумат 1969 йил 8 августда 1764-р сонли Фармойишга асосан, Қарши чўлини суғориш ва ўзлаштиришнинг биринчи навбати – 200 минг гектар янги ерни ўзлаштиришга 1 миллиард 113 миллион сўм маблағ ажратган[12]. Амударёдан 1-насос станциясигача бўлган 20 километр масофадаги канал ўзанини қазиш ишлари Ўрта Осиё гидромеханизация трести Амударё участкаси коллективи зиммасига юкланади[13]. Қарши машина магистрал каналида Амударё сувини 132 метр баландликка кўтариб берадиган йирик 6 та насос станция бунёд этилди[14].

Чўлда бунёд этилган насос станцияларига ўрнатилган "ОП 10-260 Г", "ОП 11-260 Г" маркали агрегатларнинг биринчисини "Ирмонтажстрой" трестига қарашли 24-механизациялашган кўчма колоннаси бунёд этган[15]. Ҳар бир насос агрегатининг кучи 12 минг киловват-соатга тенг бўлиб, секундига 40 куб метр сув чиқара оларди[16]. Қарши чўлини ўзлаштиришда Урал насосларидан ташқари яна Барнаулнинг темир-бетон плиталари, Челябинск бульдозери, Воронеж экскаватори, Бекобод ва Душанбе цементидан ҳам фойдаланилган[17].

1971 йилга келиб эса "Каршистрой" бошқармасида 43 миллат вакилларидан иборат 11 мингдан зиёд чўлқуварлар ишлаган[18].

Қарши магистрал каналидан фойдаланиш бошқармаси 1972 йил 1 январда Қарши магистрал канали ва 6 насос станцияси номи билан ташкил топди[19]. 1972 йил март ойида

Республика ҳукуматининг "Қарши магистрал каналидан сув оқизишни тезлаштириш тўғрисида"ги махсус қарори қабул қилинган[20]. Бу қарорга асосан, Қарши магистрал канали ва Ульянов каналлари қурилишига асосий эътибор кучайтирилган.

1973 йил июнь ойига келиб, тарихда биринчи марта Қарши чўлига Амударё суви Қарши магистрал каналининг бош қисми, ҳамда 105 километрли Ульянов канали орқали оқа бошлади[21]. Тўртинчи насос станциясидан Ульянов районига қадар чўзилган Ульянов канали қурилган[22].

1974 йилда 1-, 2-, 3- ва 4-насос станцияларида учтадан, 5- ва 6-насос станцияларида эса иккитадан қудратли агрегатлар ишлатилиб, Амударёдан 1 миллиард 267 миллион 105 минг кубометр сув олинган[23]. "Каршистрой"га қарашли 7-қурилиш-монтаж бошқармасининг бошлиғи Владимир Куликовнинг таъкидлашича, насос агрегатларининг диаметри 3,6 метр, оғирлиги 136 тоннадир. 2-, 3-насос станциялари Амударё сувини 49 метр баландликка кўтаради. Ҳар қайси насос станцияси каскадига 60 минг куб метр манолит бетон ётқизилган[24].

1964 йилдан то 1975 йил апрель ойига қадар Қарши магистрал каналида 718889 минг куб метр, каналнинг ишчи қисмида 109977 минг куб метр, насос станцияларида 15669 минг куб метр тупроқ ишлари бажарилган.

1974 йилга келиб Қашқадарё вилояти давлатга 371 минг тонна пахта топширган бўлса, 1975 йилда Қашқадарё вилояти 400 минг тонна пахта етиштирди. 1975 йилга келиб Қарши чўлида ташкил этилган 27 та хўжаликларда 29,5 минг тонна ингичка толали пахта етиштирилди.

Совет ҳукуматининг Қарши магистрал каналини қуришидан ва чўлни ўзлаштиришдан асосий мақсади Марказ саноатининг пахта хом ашёсига бўлган эҳтиёжини қондириш эди. Натижада, иқтисодий ресурсларнинг нотўғри тақсимланиши вилоят саноатининг бир томонлама ривожланишига олиб келган. Бу жараён, айниқса, Қарши чўлига кўчириб келтирилган аҳолининг ижтимоий-иқтисодий, маънавий ҳаётига жиддий таъсир этган.

Шу сабабли, Қарши чўлининг ўзлаштирилиши жараёнларининг ижобий ва салбий жиҳатларини объектив ўрганиш ва илмий жиҳатдан таҳлил қилиш Ўзбекистон тарихида ўрганилиши лозим бўлган мавзулардан бири ҳисобланади. Бугунги кунда икки қўшни Ўзбекистон ва Туркманистон давлатлари иштирокчи ҳисобланган халқаро шартномалар, халқаро ҳуқуқнинг умум эътироф этилган принциплари ва нормаларини ҳисобга олган ҳолда ва ўзаро ҳурмат принциплари асосида давлатлараро манбаларнинг сув ресурсларидан адолатли ва оқилона фойдаланмоқда. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси ва Туркманистон ўртасидаги муҳим бўлган сув хўжалиги масалалари бўйича бир нечта 1996 йил 16 январдаги, 2004 йил 19 ноябрдаги, 2008 йил 10 мартдаги ҳамда 2017 йилдаги ўзаро ҳамкорлик битимлари мавжуд.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 – 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5853-сон фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. - №43 (907) - 815-модда. – Тошкент: Адолат. 2019. –Б. 57.

2. Гловацкий О., Умарова С. "Ўзбекистоннинг суғориш тарихи". "Мозийдан Садо" журнали. №1.(45). 2010. –Б. 21.

3. Ғоипова Т. Қарши чўлида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1984. –Б. 4.

4. Зоҳидова Ҳ. З. Қишлоқ хўжалик статистикаси– Тошкент: "Ўқитувчи", 1978. – Б. 16.

5. Каменев И. "Кураш давом этмоқда". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №36. 20 февраль, 1975.

6. Костюченко Г. К. "Ҳиссамиз". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №113. 9 июнь, 1971.

7. Қашқадарё вилоят Давлат архиви, 594-жамғарма, 1-рўйхат, 1-йиғмажилд, 1-варақ.

8. Қориев М. Ўзбекистон сув омборлари. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1969. – Б. 83.

9. Қурбонов М. "Ирригаторлар аҳди". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №36. 20 февраль, 1975.

10. Қурбонов Ш. "Воҳамизнинг бебаҳо хазинаси". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №200. 9 октябрь, 1974.

11. Қурбонов Ш. "Ягона мақсадни кўзлаб". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №144. 23 июль, 1975.

12. Равшанов Н. "Чўл ва одамлар". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №186. 1 май, 1975.

13. Рижков И. "Суғориш ўлкани ўзгартиради". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №59. 25 март, 1975.

14. Таҳририят. "Факт ва рақамлар". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №243. 14 декабрь, 1971.

15. Тўланов М. "Сунъий денгизнинг биринчи дарвозаси". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №78. 16 апрель, 1971.

16. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005. "Қ" ҳарфи. –Б. 609.

17. Худойқулов М. Қарши чўли. – Тошкент: "Шарқ", 1998. –Б. 34.

18. "Каршистрой" ҳудудий бошқармаси ҳисоботи. "Чўлқуварлар режаси". "Қашқадарё ҳақиқати" газетаси. №25. 5 февраль, 1975.

19. https://water.gov.uz/

20. https://www.lex.uz/

УЎК 94:355(575.1)

ХОРАЗМ ВОҲАСИ ОҒИР ҚУРОЛЛАНГАН ОТЛИҚ АСКАРЛАР – КТАФРАКТАРИЙЛАР ВУЖУДГА КЕЛГАН ҲУДУД СИФАТИДА

Б. Сатимов, мустақил тадқиқотчи, Урганч Давлат университети, Урганч

Аннотация. *Шу пайтгача, Қадимги давр Хоразм ҳарбий санъати тараққиёти масаласи кам ўрганилган мавзулардан ҳисобланиб, тарихчилар олдида турган долзарб муаммолардан биридир. Шу билан бирга, афсуски, Қадимги давр Хоразм ҳарбий санъати масаласига оид манбалар ёки археологик ашёлар жуда кам топилган бўлиб, умумий хулосалар чиқариш учун етарли эмас. Шундан келиб чиқиб, мазкур мақолада муаммо янгича қарашлар ва ёндашувлар асосида таҳлил қилишга ҳаракат қилинган.*

Калит сўзлар: *Қўйқирилганқалъа, Жонбосқалъа, Хумбузтепа, Александр Македонский, хорасмийлар, Франко Кардини, Геродот, катафрактарий, С.П.Толстов, М.М.Мамбетуллаев,*

Аннотация. *До сих пор развитие древнехорезмийских боевых искусств - одна из наименее изученных тем и одна из самых актуальных проблем, стоящих перед историками. Однако, к сожалению, обнаружено очень мало источников или археологических артефактов, связанных с проблемой древнехорезмийских боевых искусств, и их недостаточно для общих выводов. Поэтому в данной статье делается попытка проанализировать проблему на основе новых взглядов и подходов.*

Ключевые слова: *Койкирилганкала, Йонбоскала, Хумбузтепа, Александр Македонский, хорасаны, Франко Кардини, Геродот, катафрактор, С.П. Толстов, М.М. Мамбетуллаев.*

Abstract. *Until now, the development of ancient Khorezmian martial arts is one of the least studied topics and one of the most pressing issues facing historians. However, unfortunately, very few sources or archeological artifacts related to the issue of ancient Khorezmian martial arts have been found and are not sufficient to draw general conclusions. Therefore, this article tries to analyze the problem on the basis of new views and approaches.*

Keywords: *Koykirilgankala, Jonboskala, Khumbuztepa, Alexander the Great, Khorasanians, Franco Cardini, Herodotus, cataphractor, SP Tolstov, MM Mambetullaev.*

Хоразм воҳаси қадимдан жаҳон цивилизацияси тараққиётида ўз ўрнига эга бўлган Ўрта Осиё тарихий ҳудудларидан бири ҳисобланади. Жумладан, ҳарбий санъат соҳасида ҳам Хоразм воҳаси аҳолиси муайян ютуқларга эришганларки, мазкур масала ҳозирликча фақат ҳарбий соҳа тадқиқотчиларининг махсус тадқиқотларидагина ўз аксини топган. Бу ҳолат биринчидан Хоразм воҳаси аҳолиси ҳарбий санъат тараққиёти мавзусининг ниҳоятда суст ўрганилишида бўлса, иккинчидан, бу мавзуни ўрганиш учун асосий маълумот ҳисобланадиган археологик манбаларнинг ҳам камлигидадир.

XX асрнинг 30 – 80 йилларида фаолият юритган Хоразм археологик экспедицияси ходимларининг мақола ва монографияларида фақат Хоразм шаҳар – қалъалари мудофаа тизими хусусиятлари масаласи, ҳарбий қуроллар турларидан эса фақат ўқ – ёй шакли ва ўқ учлари турлари масаласи жуда кенг ёритилгани ҳолда, бошқа ҳарбий қурол – аслаҳалар турлари, уларнинг тараққиёти масалалари четда қолиб кетган. Айниқса, Хоразм воҳаси аҳолиси жанг қилиш усуллари, ҳарбий стратегияси масаласи ва қурол – яроғлар эволюцияси ҳалигача алоҳида мавзу сифатида ўрганилмаган.

Хоразм воҳаси аҳолиси жанг қилиш усуллари ва қурол – яроғлар эволюцияси масаласида илк бор экспедиция раҳбари С.П. Толстов "Қадимги Хоразм" монографиясида "Қанғ отлиқ қўшини" мавзусидаги кичик бўлимида ўз фикр – мулоҳазаларини билдириб ўтган эди ҳамда археологик манбалар асосида оғир қуролланган отлиқ жангчиларнинг катафрактарий шакли айнан Хоразмда шаклланган деган фикрни ўртага ташлаган эди [1.С.211-231].

Унинг фикрига кўра найзабардор оғир қуролланган отлиқ жангчилар билан пиёда фаланга каби қўшин турларининг биргаликдаги ҳаракатига асосланган македон тактикаси Хоразмда катафрактарийларнинг пайдо бўлишига олиб келган [1.С.211-227].

XX асрнинг 60 – 90 йилларида қизғин фаолият олиб борган қорақалпоқ археологлари тадқиқотларида ҳам айнан шу ҳолатни кузатамиз. Яъни, юқорида таъкидлаганимиздек, Хоразм шаҳар – қалъалари мудофаа тизими хусусиятлари масаласига кўпроқ эътибор қаратилди. 1977 йилда қорақалпоқ олими М. Мамбетуллаевнинг Хумбузтепада олиб борган археологик тадқиқотлари даврида топилган оғир қуролланган отлиқ жангчи тасвири туширилган сопол парчаси дунё миқёсида қизиқиш уйғотди. Чунки, бу топилма оғир қуролланган отлиқ тасвири мавжуд бўлган энг қадимги манба ҳисобланган ҳолда (милоддан аввалги IV асрга оид), Хоразмнинг жаҳон

ҳарбий санъати тараққиётида муҳим ўрин эгаллашини ҳам кўрсатарди[2.С.278-281]. Шу билан бирга, дунёнинг ҳеч бир минтақасида мазкур мавзуга оид милоддан аввалги III асрдан қадимий топилма ҳалигача топилмаган. Аммо, бу топилмага дунё олимлари ичида турли хил фикр – мулоҳазалар билдирилгани ҳолда (бу топилманинг таҳлилига оид фикр – мулоҳазалар ҳозиргача ҳам давом қилиб келмоқда ва бу ҳақда қуйироқда батафсил тўхталиб ўтилади) [3.С.286-296; 4.С.184-188; 5.С.491-497; 6.С.66-85; 7.С.141-179; 8.С.161-166; 9.С.116-117], қорақалпоқ олимларининг ўзлари бу масалага тўлиқ ойдинлик киритмадилар. Фақат 26 йилдан кейингина "Хоразмда ҳарбий қурол – аслаҳалар ва ҳарбий иш" мавзусидаги мақолада мазкур топилма муаллифи М.М. Мамбетуллаев бу масалага қисман эътибор қаратган[10.С.21-31].

XX аср охирлари ва XXI аср бошларида бундай тасвирлар ва ҳарбий қурол – аслаҳалар қолдиқлари Хоразмнинг бошқа ёдгорликларидан ҳам топиб ўрганилган ҳамда уларга бағишлаб ёзилган мақола, рисола ва монографияларда Хоразм ҳарбий санъати тарихи мавзуси бўйча қисқа бўлсада, баъзи фикр – мулоҳазалар билдирилиб ўтилган эди. Жумладан, тадқиқотчи Б.И. Вайнберг ўз монографиясида Хоразм воҳаси аҳолисининг ҳарбий санъати ва ҳарбий қуролланиши даражасининг баъзи жиҳатларига тўхталиб ўтган. Масалан, у воҳа ёдгорликларидан топилган қилич ва ханжарлар эволюцияси масаласида ўз фикр – мулоҳазаларини билдириб ўтади. Аммо, у ҳам бу тадқиқотида асосан ўқ – ёй ва ўқ учлари турларига кўпроқ эътибор қаратган. Тадқиқотчи, илк бор мазкур асарида Хоразм воҳаси аҳолиси қуролланиш даражаси ва ҳарбий санъатини кўчманчи чорвадорлар ҳарбий санъатидан алоҳида ажратиб кўрсатган[11.С.123-130].

Юқорида келтириб ўтилганидек мустақиллик йилларида қорақалпоқ олими М.Мамбетуллаев Хоразм аҳолисининг антик даврда ишлаб чиқарган қурол-аслаҳаси тарихи таҳлил қилинган мақолани чоп қилдирди[10.С.21-31].

Мавзунинг асосий мазмуни катафрактарийлар қўшин турининг вужудга келишида Хоразм қандай ўрин тутган деган масалага асосий эътибор қаратадиган бўлсак, шу пайтгача тўпланган археологик манбалар, ёзма манбалар маълумотлари Хоразм бу қўшин турининг асосий ватани бўлган дейишга асослар етарлича. Аммо, бундай хулоса чиқаришга ҳали эрта бўлиб, Хоразм бу янгиликнинг энг асосий марказларидан бири бўлганлиги аниқ.

Шу ўринда катафрактарийлар қўшин тури ҳақида тушунча бериб ўтадиган бўлсак, жангчи ҳам, унинг оти ҳам зирҳ билан ҳимояланган ҳамда ўзига хос услубда жанг қиладиган отлиқ жангчилар гуруҳи катафрактарий деб аталган. Баъзи тадқиқотчилар фикрига кўра, от устига ёпиладиган илк совутлар милоддан аввалги II минг йилликнинг иккинчи ярмида Мисрда ва Крит – Микен Грециясида вужудга келиб, милоддан аввалги IX – VIII асрларда Оссурия давлатида ўз такомилига етган деб ҳисоблайдилар[12.С.167; 13.С.202-203].

Бундай от учун мўлжалланган зирҳлар ҳамда оғир қуролланган отлиқ жангчилар тури кўчманчи скиф қабилаларида, уларнинг Яқин ва Ўрта Шарқ ҳудудларига милоддан аввалги VII – VI асрлардаги юришлари натижасида, милоддан аввалги VI асрда вужудга келган[14.С.35-38].

Б.А. Литвинский фикрига кўра, оғир қуролланган қўшин тури милоддан аввалги VIII – VII асрларда Ўрта Осиёда (аниқроғи Бақтрияда) вужудга келиб, милоддан аввалги V – IV асрларда кенг тарқалган[15.С.126].

Тадқиқотчи Г.А. Пугаченкованинг фикрига кўра, катафрактарийлар кўчманчилар ичида эмас балки, ўтроқ деҳқончилик воҳаларида Бақтрия ёки Парфия ҳудудларида вужудга келиб, милоддан аввлги II асрда улар орқали кейинчалик Хоразм ва кўчманчилар дунёсига кириб борган[16.С.43].

А.М. Хазанов катафрактарийларни Евросиёнинг кўчманчи қабилалар дунёси билан Ўрта Осиё ва Эроннинг ўтроқ деҳқончилик воҳалари доимий алоқалари шароитида вужадга келганлигини таъкидлайди[17.С.13-14].

Аммо, шу ўринда алоҳида таъкидлашимиз лозимки, юқорида келтириб ўтганимиз учала тадқиқотчи ҳам М.Мамбетуллаевнинг Хумбузтепа оғир қуролланган отлиқ жангчи тасвири туширилган сопол парчасини топгунича ўз фикр – мулоҳазалирини билдирган бўлиб, бу ўринда фақат Г.А. Пугаченкованинг катафрактарийлар ўтроқ деҳқончилик воҳаларида вужудга келганлиги тўғрисидаги фикр мулоҳазаси тўғрироқ деб ҳисобланган ҳолда биз ҳам бу фикр – мулоҳазани қўллаб – қувватлаймиз.

Хоразм ҳарбий санъати ҳақида қисқача бўлсада, маълумотларни баъзи европалик олимлар асарларида ҳам олиш мумкин эди. Жумладан, машҳур итальян ҳарбий тарих мутахассиси Франко Кардини оғир қуролланган отлиқ жангчи – катафрактарийнинг вужудга келиш ватанини айнан Хоразм бўлган деб ҳисоблайди[18.С.47].

Германияда яшовчи поляк олими М.-Я.Ольбрихт, В.А. Гаибов ва Г.А. Кошеленколарнинг фикрича эса, Хоразм айнан катафрактарийлар шаклланган ҳудуд бўлган. Жумладан, М. Я. Ольбрихт ҳам С.П. Толстов фикрини маъқуллаб, катафрактарийларнинг Александр

Македонскийнинг оғир қуролланган отлиқ жангчилар билан пиёдалар фалангасига қарши туриш учун ташкил қилинганлигини маъқуллайди. Шу билан бирга у Доро III нинг ҳарбий ислоҳоти ҳамда Спитаменнинг қўллаган жанг услубларини катафрактарийнинг пайдо бўлишида муҳим омил бўлганлигини таъкидлайди[3.С.286-296; 6.С.66-85].

Тадқиқотчи С.С. Иванов Хумбузтепадан топилган сопол парчасидаги оғир қуролланган отлиқ жангчи тасвирини қайтадан таҳлил қилар экан, у бу отлиқ жангчининг эрон – аҳамоний услубида қуролланган жангчи бўлиб, катафрактарий турига кирмайди, деб бизнингча нотўғри хулосага келган[4.С.184-188; 5.С.491-497]. Унинг фикрининг нотўғрилиги шундаки, тасвирдаги жангчининг оёғига кийган махсус оёқ зирҳини у эрон – аҳамоний отлиқ қўшинидаги қуш қанотлари шаклидаги ҳамда оёқни душман қуролларидан ҳимоя қиладиган восита дея тасвирлайди. Аммо, бу тасвирга синчиклаб қаралса, у аҳамонийлар қўллаган ҳимоя воситасига яқин бўлгани билан кўпгина фарқлари ҳам кўзга ташланади. Жумладан, аҳамонийлар отлиқ қўшини тасвири туширилган кўпгина расмларда бу ҳимоя воситаси аҳамонийларда жангчини оёғидан белигача ҳимоя қилиш учун мўлжалланган ҳолда Хумбузтепа тасвирида бу восита жангчининг фақат оёғини ҳимоя қилишга мўлжалланганлиги яққол кўзга ташланадики, бу оёққа кийиладиган зирҳдан бошқа нарса эмас. Қолаверса аҳамонийлар оғир қуролланган отлиқ жангчиси отининг орқаси ёки қуйруқ атрофларига,белига зирҳли совут ёпилмаган. Хумбузтепа отлиқ жангчиси отининг орқа тарафи эса тўлиқ зирҳ билан қопланганлиги кўриниб турибди. Иккинчидан эса, С.С. Иванов узун найза катафрактарийнинг асосий белгиси бўлганлигини ҳисобга олиб, негадир Хумбузтепа жангчисининг найзасининг калта найза эканлигидан нарига ўтмаяпти. Аммо, суворий қўлидаги найзага яхшилаб эътибор берилса, унинг найзаси ҳам узун бўлганлигини (тахминан 3,30 м) аниқ кўришимиз мумкин.

Айнан шу Хумбузтепа катафрактарийси тасвири ҳамда Хоразмнинг Жонбосқалъа, Қўйқирилганқалъа ёдгорликларидан топилган тасвирлар билан солиштириб, В.А. Гаибов ва Г.А. Кошеленколар Хоразм айнан катафрактарийлар шаклланган ҳудуд бўлган деб ҳисоблайдилар [3.С.286-296]. Уларнинг бу фикрини алан қабилалари ҳарбий санъати тадқиқотчиси А.А.Туаллагов ҳам қўллаб – қувватлайди[19.С.22-25].

Кўриниб турибдики, катафрактарийларнинг вужудга келиши масаласида ҳалигача қизғин баҳс – мунозаралар давом қилиб, бу борада бир тўхтамга келинмаган.

Аммо, зирҳ ва совутлар билан ҳимояланган ҳар қандай отлиқ қўшин ҳам доимо катафрактарий қўшин тури сифатида кўрилмаган. Фанда катафрактарий қўшин турининг учта асосий белгиси кўрсатиб ўтилади. Биринчидан, энг асосийси от ҳам жангчи каби зирҳли ҳимоя воситасига эга бўлиши, иккинчиси икки қўл билан ушлашга мўлжалланган узун найза билан қуролланган бўлиши лозим эди. Ва ниҳоят, учинчидан эса, бу қўшиннинг ўзига хос махсус жанг қилиш усули мавжуд бўлиб, бу усул ҳарбий соҳада "сарматча от миниш усули" деб аталган ҳамда отлиқ найзабардорлар қатъий саф тортиб, найзани икки қўллаб ушлаган ҳолда жангга кирганлар[20.С.180-191; 21.С.71-90; 13.С.210].

Илгари, катафрактарийлар қўшин тури биринчи бор аҳамонийлар давлатида шаклланган деган қарашлар мавжуд бўлиб, аммо, ёзма манбалар ва археологик тадқиқотлар маълумотлари етарли бўлмаганлиги учун ҳамда мавжуд маълумотларнинг бу давлат емирилиши даврига (милоддан аввалги IV аср) оид бўлганлиги учун бу масала эътибордан олиб ташланди. Тўғри аҳамонийлар қўшинида оғир қуролланган отлиқ жангчилар мавжуд бўлганлиги аниқ, аммо юқорида таъкидлаганимиздек, ҳар қандай оғир қуролланган отлиқ жангчи ҳам катафрактарий тушунчасига мос келавермайди. Шу билан бирга, Геродотнинг массагетлар қўшини таркибида оғир қуролланган отлиқ жангчиларнинг мавжуд бўлганлиги ҳақидаги маълумоти, милоддан аввалги VI асрга тўғри келадики, Хоразмнинг бу даврда массагетлар билан бир сиёсий иттифоққа кирганлигини ҳисобга оладиган бўлсак, бундай ҳолатда ҳам мазкур қўшин турининг ватани айнан Хоразм бўлганлигининг яна бир исботидир. Қолаверса юқорида таъкидлаганимиздек, Г.А. Пугаченкованинг катафрактарий қўшин тури кўчманчилар дунёсида эмас, балки ўтроқ деҳқончилик воҳаларида шаклланишига кўпроқ зарурият туғилгани ҳолда бунга етарлича сабаблар ва омилларни кўрсатиш мумкин.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш лозимки, Хоразм воҳаси ўз географик жойлашиш ҳудудига кўра (кўчманчилар дунёси билан чегарадошлиги), манбаларда ўз аксини топган сиёсий жараёнларга кўра (аҳамонийлар давлати таркибига кириши, ундан мустақил бўлиб ажралиб чиқиши, Александр Македонский юришлари билан боғлиқ равишда ҳамда эллинистик давлатлар билан ҳам чегарадошлиги ёки улар билан сиёсий муносабатларнинг мавжудлиги) ва ниҳоят иқтисодий жараёнлар, антик даврдаги иқтисодий тараққиёт натижалари ҳам биринчи бор Хоразмда оғир қуролланган отлиқ жангчи – катафрактарийлар вужудга келганлиги айни ҳақиқатдир. Умумий ҳолатда бу масалада аксари тадқиқотчилар ҳам Хоразм катафрактарийлар шаклланган

марказлардан бири бўлганлигини эътироф қиладилар[21.С.49-50; 22.С.65-77; 23.С.74-75,120-138,148-149].

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд – во МГУ, 1948. - 440 с. + 87 табл.

2. Мамбетуллаев М.М. Рельефное изображение всадника на керамической фляге из Хумбуз-Тепе.// СА, 1977, № 3. – М.: Наука. – С.278-281, рис. 1 на внл. н с. 128.

3. Гаибов В.А., Кошеленко Г.А. От Хорезма до Боспора: о "сарматской" посадке всадников//Проблемы истории, филологии, культуры(ПИФК). 2013. №2. С. 286–296;

4. Иванов С.С. К вопросу о тяжелой кавалерии в древней Средней Азии на основе остракона из Хумбуз-тепе// Сборник статей международного форума молодых ученых стран СНГ. Ч. III. – Алматы, 2012. – С. 184-188.

5. Иванов С.С. К вопросу о защитном вооружении ранних кочевников Средней Азии / Вестник КНУ им. Ж.Баласагына, труды ИИМОПа, спец.выпуск к 15-летию ИИМОП, Бишкек, 2011. – С. 491-497.

6. Ольбрихт М.- Я. К вопросу о происхождении конницы катафрактов в Иране и Средней Азии.// Роль номадов евразийских степей в развитии мирового военного искусства. Научные чтения памяти Н.Э. Масанова.// Алматы: LEM. 2010. – С.66-85.

7. Никоноров В.П. К вопросу о парфянском наследии в Сасанидском Иране: военное дело// Центральная Азия от Ахеменидов до Тимуридов: археология, история, этнология, культура. Мат. междунар. науч. конф., посвящ. 100-летию со дня рожд. А.М. Беленицкого. – СПб., 2005. С. 141–179.

8. Симоненко А.В. "Сарматская посадка" – историческая реальность или исторический миф? // Третья кубанская археологическая конференция. Тез. докл. междунар. археол. конференции. – Краснодар-Анапа, 2001. С. 161–166.

9. Горелик М. В.Сакский доспех // Центральная Азия. Новые памятники письменности и искусства. Сборник статей / Отв. ред. Б. Б. Пиотровский и Г. М. Бонгард-Левин. М., 1987. С. 116–117.

10. Мамбеттуллаев М.М. Вооружение и военное дело Хорезма. // Археология Приаралья. Нукус. 2003. Вып.IV. – С.21-31.

11. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. - VIII в. н.э. – М.: Восточная литература, 1999. – с.123 – 130.

12. Пиотровский Б.Б. Ванское царство (Урарту). – М.: Издательство Восточной литературы, 1959. – 341 с.

13. Горончаровский В.А., Никоноров В.П. Илуратский катафрактарий (К истории античной тяжелой кавалерии) // Вестник древней истории (ВДИ). – М.: Наука, 1987. № 1. – С. 201–213.

14. Черненко Е.В. О времени и месте появления тяжёлой конницы в степях Евразии.// Проблемы скифской археологии. / МИА №177. М.: Наука, 1971. С. 35-38.

15. Литвинский Б.А. Древние кочевники "Крыши мира". – М.: ГРВЛ. 1972. – 272 с.

16. Пугаченкова Г. А. О панцирном вооружении парфянского и бактрийского воинства // Вестник древней истории. – 1966. № 2. – С.27 – 43.

17. Хазанов А.М. Сложные луки евразийских степей и Ирана в скифо-сарматскую эпоху.// Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. М.: Наука, 1966. – С. 29 – 44.

18. Кардини Ф. Истоки средневекового рыцарства: Пер. с ит./ Вступ. ст. В. И. Уколовой. Общ. ред. В. И. Уколовой и Л. А. Котельниковой. – М.: Прогресс, 1987. – 384 с., ил.

19. Туаллагов А. А. К вопросу об аланской тяжеловооруженной коннице (по данным археологии)//Вестник Владикавказского научного центра. Том 5, №3. – Владикавказ: Изд – во ВНЦ, 2005. – С.22-25.

20. Хазанов А. М. Катафрактарии и их роль в истории военного искусства // ВДИ. 1968. № 1. С. 180–191.

21. Хазанов А. М. Очерки военного дела сарматов. – М.: Наука, 1971. – 172 с.

22. Перевалов С. М. Сарматский контос и сарматская посадка // Российская археология. 1999. № 4. С. 65–77.

23. Скобелев Д. А. Хочу возразить: о некоторых дискуссионных вопросах сарматоведения. Ответ на статью А. В. Симоненко // Parabellum novum. 2013. № 1 (34). С. 68–149.

УЎК 903

ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ САЛОМАТЛИГИ ЙЎЛИДА ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИК

Ғ.Ж. Холиқов, таянч-докторант, Қарши давлат университети, Қарши

Аннотация. *Мақолада Ўзбекистонда аҳоли саломатлигини мустаҳкамлашда хорижий давлатлар билан ҳамкорлик дастури бўйича олиб борилаётган ишлар ҳақида сўз боради. Республикамизда соғлиқни сақлаши иши ва ривожига хақларо ташкилотлар ҳамкорлик масаласи алоҳида эътибор қаратилди. Ушбу жараённинг ўзига хос жиҳати шундаки, дунёнинг қатор ривожланганган давлатлари билан имзолади ва улар диққат эътиборини қаратди.*

Kalit so'zlar: *Халқаро, ЖССТ, UNFPA, USAID, JICA, тиббий-санитария, Ҳамширалик таълими, Саломатлик, Соғлиқни сақлаш тизими, хавфсизлик, аҳоли саломатлиги.*

Аннотация. *В статье рассматривается работа, проводимая в Узбекистане по программе сотрудничества с зарубежными странами по оздоровлению населения. Особое внимание было уделено сотрудничеству международных организаций в работе и развитии здравоохранения в стране. Особенность этого процесса в том, что он подписался с рядом развитых стран мира и привлек к себе внимание.*

Ключевые слова: *международный, ВОЗ, ЮНФПА, USAID, JISA, здоровье, сестринское образование, здоровье, система здравоохранения, безопасность, общественное здравоохранение.*

Abstract. *The article discusses the work carried out in Uzbekistan under the program of cooperation with foreign countries to improve the health of the population. Particular attention was paid to the issue of cooperation between international organizations in the work and development of health care in the country. The peculiarity of this process is that it has signed with a number of developed countries of the world and they have attracted attention.*

Key words: *International, WHO, UNFPA, USAID, JISA, Health, Nursing Education, Health, Health System, Safety, Public Health.*

Аҳоли саломатлигини ҳимоя қилишда фидокорона меҳнат қилаётган республикамиздаги барча тиббиёт ҳамшираларининг хизматини янада юқорига кўтариш, уларнинг аҳоли саломатлигини сақлашдаги фаолиятларининг аҳамиятини инобатга олган ҳолда ва халқаро ҳамширалар куни муносабати билан Бутун дунё ҳамширалари ҳар йили 12 майда Халқаро ҳамширалар кунини нишонлайди. Ҳамшираларнинг касб байрамини нишонлаш қарори 1899 йилда тузилган хотин-қизларнинг биринчи уюшмаси – Халқаро Ҳамширалар Кенгаши томонидан қабул қилинган.

2007 йилги Халқаро Ҳамширалар куни "Яхши ва қулай иш муҳити: иш шароитининг сифати беморлар парвариши сифатининг гаровидир" шиори остида ўтказилди. Жорий йилнинг 27 апрель куни Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг " 12 май Халқаро Ҳамширалар кунини нишонлаш тўғрисида"ги 177-сонли махсус буйруғи қабул қилинган эди. Шунга асосан, ушбу тадбирни тиббиёт муассасаларида кўнгилдагидек ўтказиш, кўп йиллик меҳнат тажрибасига эга юқори билимли ҳамшираларни рағбатлантириш, қўллаб-қувватлаш билан боғлиқ ибратли тадбирлар бўлиб ўтди[1]. Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритиши билан мамлакат соғлиқни сақлаш инфратузилмасини ривожланган давлатлар даражасига кўтариш, аҳоли соғлиғини ҳимоя қилиш тизимидаги камчилик ва нуқсонларни бартараф этиш вазифаси юзага келди[2].

Жаҳон Соғлиқни Сақлаш Ташкилоти (ЖССТ) – Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг ва саломатлик бўйича махсус агентилги бўлиб, 1948 йил 7 апрелда ташкил топган. Ўшандан буён бутун дунё бўйича 7 апрель Бутун жаҳон саломатлик куни сифатида кенг нишонланиб келинмоқда. Чунки ҳар бир инсон учун энг муҳим нарса унинг соғлиғи эканлиги барчамизга аъён. Инсон саломатлигини ҳеч нарсага тенглаштириб бўлмайди. Ҳаёт мазмуни ҳам инсон саломатлигининг қай даражада эканлигига қараб белгиланади. Тошкент шаҳрининг "Радиссон сас" меҳмонхонасида 6 апрель куни Бутун жаҳон саломатлик кунига бағишланган анжуман бўлиб ўтди. Анжуманни Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни Сақлаш Вазири ўринбосари Н.Шаропов очиб берган эди. Анжуманда ЖССТнинг Ўзбекистондаги раҳбари доктор Мишел Таяд соғлиқни сақлаш соҳасидаги асосий масалалар ҳақида тўхтатилди ва бу йилги Бутун Жаҳон саломатлик кунининг бош мавзуси "Соғлиқни сақлаш тизимидаги халқаро хавфсизлик" эканлиги ҳақида сўз юритди. Ўтган йилларда кўриб чиқилган Халқаро тиббий-санитария қоидаларини 2007 йилда амалга ошириш учун ЖССТ томонидан маъсул гуруҳ тайинлаганлиги, бу гуруҳ ваколати бир йилга режалаштирилиб, унинг асосий вазифаларидан бири халқаро саломатликни химоя қилиш аҳамиятини ошириш ҳамда бутун жаҳон бўйлаб амалий ишлар ўтказилиши назарда тутилганлиги ҳақида тўхталиб ўтилди.

Йиғилишда юқумли касалликлардан ОИТС/ОИВнинг тарқалиш маълумотлари ҳақида ЖССТнинг Ўзбекистондаги вакили И.Исмоилов, Сил касалликлари ҳақида "Сил бўйича глобал ҳолат ва силни тўхтатиш" маърузаси билан Марказий Осиё республикаларидаги силга қарши курашиш бўйича ҳудудий координатор доктор Г.Тсогт ва Ўша пайтда жаҳон муаммоли масалалардан бирига айланган парранда гриппи ҳақида ЖССТ ваколатхонасининг миллий ходими Дилафруз Худойқулова қатнашиб ўзининг қизиқарли маърузаларини баён қилган эди.

Саломатлик кунидаги ушбу анжуманда инсониятга хавф солиб турган сил, парранда грипи ОИТС/ОИВ каби юқумли касалликлар ҳақида, уларнинг олдини олиш учун нималар амалга ошириш лозимлиги, агарда олди олинмаса, бу касалликларнинг тарқалиши даражасигача бўлган маълумотлар берилди. Масалан, ЖССТнинг маълумотларига кўра, 2006 йилнинг охирида Европа ҳудудининг 53 та мамлакатида ОИТС/ОИВ билан 2,44 млн киши касалланган бўлса, Шундан 1,7 млни Шарқий Европа ва Марказий Осиё мамлакатлари аҳолисига тегишли бўлган. Агарда олди олинмаса, 2015 йилга бориб бу касаллик билан дунёнинг 2 млрдга яқин аҳолиси касалланиш хавфи бор эканлиги таъкидлаб ўтилди. Бутун ер юзидаги инсоният саломатлиги ҳар биримиз учун муҳим масалалардан биридир. Чунки ҳозирги ривожланиш, мамлакатлар ўртасида муносабатлар касалликларнинг тез тарқалишига катта имконият яратди. Шунинг учун ҳар қандай касаллик тезда

аниқланиши ва унинг олди олиниши лозим. Зеро, инсон саломатлиги ҳар бир миллатнинг, халқнинг ва мамлакатнинг юксалиш асосини белгилаб беради.

Тошкентда БМТнинг Марказий Осиё ,Озорбайжон ва Қозоғистондаги аҳолининг кўпайиши фонди (UNFPA) ваколатхонаси очилди. Мазкур фонд ривожланаётган мамлакатларга, шунингдек иқтисодиёти янги изга тушаётган мамлакатларга аҳоли кўпайиши масаласини ҳал этишда ёрдам кўрсатишга даъват қилинган. Ривожланаётган мамлакатларга берилаётган ёрдамнинг тўртдан бир қисмига яқини UNFPA алоқа йўллари орқали олишади. Фонд заҳираси 1995 йили 300 миллион АҚШ долларини ташкил этди.

UNFPA фаолияти 1969 йилда бошланди. Фонд барча аёллар ва эркаклар ҳар жиҳатдан соғлом бўлишларига интилади, чунки жамиятнинг бир текисда, беқарор ривожланишида аҳолининг кўпайиб бориши катта аҳамият касб этади. UNFPA мамлакатларининг илтимосига кўра, уларга ёрдам беради. Фонд ўз фаолиятини минтақада 1992 йилда бошлади. Ўшанда янги ташкил топган мустақил давлатга унинг муаммоларини аниқлаш мақсадида БМТ миссияси юборилган.Мазкур миссия репурадиктив саломатлик соҳасида ҳамда оилани режалаштиришда катта ёрдам кўрсатиш заруратини аниқлаб берди. Шу даврдан бошлаб UNFPA минтақалардаги мамлакатларга бир қатор йўналишлар бўйича ёрдам бера бошлади. Шу йил аҳоли ойида Олмаотада минтақавий конференция ўтказилди, унинг ишида Ўзбекистон вакиллари ҳам иштирок этдилар[3].

2007 йил 1-2 май кунлари Тошкент шаҳрининг "Ўзбекистон" меҳмонхонасида "Соғлиқни сақлаш тизимининг бирламчи бўғинини ислоҳ қилиш ва умумий амалиёт врачларини тайёрлаш" мавзусида республика анжумани бўлиб ўтди. Анжуманда Соғлиқни Сақлаш Ташкилоти, USAID (АҚШ Халқаро тараққиёт агентлиги), UNFPA (Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Аҳолишунослик жамғармаси), Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги, "Саломатлик-2" ҳамда "Аёллар ва болалар саломатлигини мустаҳкамлаш" лойиҳаларини тадбиқ этиш бюроси, Тошкент врачлар малакасини ошириш институти , Жаҳон ва Осиё тарққиёт банки, Здрав\Плюс лойиҳаси вакиллари ва бошқа юқори ташкилотлар иштирок этишди. Анжуманни Соғлиқни сақлаш вазири Феруз Назиров "Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш: ютуқлари ва истиқболи" маърузаси билан очиб берди. Хориждан келган меҳмонлардан Нидерландия Соғлиқни сақлаш хизматини ўрганиш институтининг катта илмий ходими Виэко Борма "Соғлиқни сақлаш тизимининг ривожланиши, халқаро тажриба" мавзусида ва Лондон Империал коллежи профессори, Соғлиқни сақлашни бошқариш Маркази директори Рифат Атун "Умумий амалиёт шифокорини бирламчи тиббий-санитария даражасида баҳолаш, тадқиқотлар натижалари таҳлили ва асосий муаммоларни вужудга келиши" мавзусидаги маърузалари билан қатнашдилар. 2006 йил охирига келиб соғлиқни сақлаш ходимлари касаба уюшмаларига аъзо бўлган нодавлат ташкилотларнинг сони 384 тани ташкил этди уларнинг 314 тасида жамоа шартномалари қабул қилинди. Ўзбекистон касаба уюшмаси федерацияси Кенгашининг қарори асосида Соғлиқни сақлаш ходимлари касаба уюшмалари Марказий кенгаши ҳам "Нодавлат сектор ходимларининг ижтимоий –иқтисодий ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоялаш тўғрисида " қарор қабул қилди ва тадбирлар ишлаб чиқди. 2007-2009 йиллар учун қабул қилинадиган жамоа келишувлари ва шартномаларида бу масалага алоҳида эътибор қаратилди.

2009 йил 27 апрелдан 2 май ойигача республикада "Соғлом бола" ҳафталиги ўтказилди. Ҳафталик давомида 6 ойдан 5 ёшгача бўлган 1510 128 болалар ўртасида витамин А тарқатилди[4]. Ўзбекистон Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва Соғлиқни сақлаш ходимлари касаба уюшмаси марказий кенгаши ўртасидаги 2007-2009 йилларга мўлжалланган икки томонлама Жамоа келишуви махсус комиссия томонидан ўрганиб чиқилди ва 2007-"Ижтимоий ҳимоя йили" учун чора-тадбирлар тасдиқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мустақил Ўзбекистон тарихи, А. Собиров, Академия Т-2013, 344- варақ.
2. Ҳамшира журнали -2007. 2-сон. 2-варақ.
3. Ишонч газетаси 1996, 61 сон, 3-варақ.
4. ЎзР ИТТҲ МА , 1-фонд, 1-рўйхат, 819-иш, 146-варақ.

УЎК 93/94

ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ СОҲАГА ЖАЛБ ҚИЛИШДА КЛУБЛАРНИНГ ЎРНИ (XX АСР ТАЖРИБАЛАРИДАН)

М.Холмўминов, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, Тошкент
А.Қолқанатов, магистрант, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, Тошкент

Аннотация. *Мазкур мақолада Ўзбекистон ҳудудида хотин-қизлар клубларининг ташкил этилиши ва ундан кўзланган мафкуравий мақсадлар ҳақида кенг ёритилган. 1919-1920 йилларда*

заминимизда ташкил этилган хотин-қизлар клубларининг ижтимоий-маданий турмуш тарзини шакллантиришдаги аҳамияти катта эди. Ўша даврдаги сиёсий вазиятлардаги, маданий-маърифий ва бошқа соҳаларда клублар ва хотин-қизлар клублари қандай миссияни амалга оширганлиги, аёлларнинг клубларга қизиқиши ва фаол иштирок этиш жараёнлари ҳақида илмий изланишлар ва таҳлиллар олиб борилган. Ўзбекистонда хотин-қизларнинг маданий-маърифий ишларга жалб этилишида клубларда олиб борилган сиёсий ва маънавий ишларнинг аҳамияти бўйича фикр-мулоҳаза ва тарихий материаллар берилган.

Калит сўзлар: *клуб, маърифат, хотин-қизлар, санъат, мафкура, маданият, сиёсат, кутубхона, ҳаваскорлик, жараён, ташвиқот, муассаса.*

Аннотация. *В статье подробно рассказывается о создании женских клубов в Узбекистане и их идеологических целях. Женские клубы, основанные в 1919-1920 годах, сыграли важную роль в формировании социокультурного образа жизни. Были проведены научные исследования и анализ политической ситуации, культурной, образовательной и других сфер того времени, миссии клубов и женских клубов, интереса женщин к клубам и процесса активного участия. Приведены мнения и исторические материалы о роли политической и духовной работы в клубах в вовлечении женщин в культурно-просветительскую работу в Узбекистане.*

Ключевые слова: *клуб, просвещение, женщины, искусство, идеология, культура, политика, библиотека, любительское, процесс, пропаганда, учреждение.*

Abstract. *This article describes in detail the establishment of women's clubs in Uzbekistan and their ideological goals. Women's clubs, founded in 1919-1920, played an important role in shaping the socio-cultural lifestyle. Scientific research and analysis has been conducted on the political situation, cultural, educational and other spheres of the time, the mission of clubs and women's clubs, women's interest in clubs and the process of active participation. Opinions and historical materials on the role of political and spiritual work in clubs in the involvement of women in cultural and educational work in Uzbekistan are provided.*

Keywords: *club, enlightenment, women, art, ideology, culture, politics, library, amateur, process, propaganda, institution.*

XIX асрда Ўзбекистон ҳудудида маданий-маърифий муассасаларнинг фаолиятига янгича тарзда урғу берилган. Айниқса, бу жараёнда хотин-қизларнинг фаоллиги суст бўлганлиги сабабли, маданий-маърифий соҳада бушлиқлар яққол кўзга ташланар эди. Ўша давр сиёсий мафкурасини омма онгига сингдириш учун маданий-маърифий муассасаларида хотин-қизлар клублари, қизил чойхоналар, халқ уйлари, қизил ўтовлар, тарғибот уйлари, сиёсий саводхонлик курслари ташкил этила бошланди. Мазкур муассасаларнинг энг самарали фаолият олиб боргани – хотин-қизлар клубларидир. Хотин-қизлар клуби – маданий-маърифий муассаса бўлсада, амалда советларнинг сиёсий мақсадларини ҳаётга татбиқ этган[1:137].

Аҳоли бу мақсадларни тўғри тушунган. Шунинг учун ҳам клубларнинг сиёсий тизимдаги топшириқлардан узоқлашган ҳолда маданий-маърифий ишларгагина қизиқиши юқори бўлган. Клуб фаолияти иш жараёнида, аёллар ўртасида ҳаёт ва оила учун фойдали машғулот ташкил этиши, янгича анъаналарни оммалаштириши, турли тўгараклар, уй-рўзғор ишларини ўрганиши, бичиш-тикиш, рақс, қўшиқ, ўймакорлик, каштачилик, машинкада ёзишни ўрганиш, ошпазлик-пазандачилик ташкил этиши, талаб ва эҳтиёж юзасидан лекциялар, кинолекторийлар , суҳбатлар, тематик ва савол-жавоб кечалари уюштириш, чой устида суҳбат орқали самарали фаолият юритиши, эскилик сарқитларини бартараф этиши, унга табақалашган ҳолда ёндашиши, шунингдек, маданий ҳаётнинг илк меваларидан баҳраманд бўлаётган, нурга тўла хонадоннинг тенг ҳуқуқли бошқарувчиси бўлган хотин-қизлар орасида "Фойдали маслаҳатлар" номли қуйидаги мавзуларда: овқат пишириш, бежирим кийиниш, уй рўзғор тутиш, бола тарбияси, бичиш-тикиш каби ихтисослар юзасидан сўзловчи газета чиқариш муҳим аҳамиятга эгадир[2:6].

Хотин-қизларнинг ижтимоий-маънавий ҳаётига кириб бориш осон кечмади. Асосан, мутахассислар Москвадан ёки Украинадан келгани билан уларнинг сони ниҳоятда кам эди. Бу ишларга маҳаллий хотин-қизларни жалб этишда улар тинимсиз ҳаракат қилди. Ўша даврдаги энг илғор техника воситаларидан самарали фойдаланишга ҳаракат қилди. Босма нашрлар фаолиятини ривожлантирди. Газета-журналлар сони ортди. Меҳнаткаш аҳолига янада яқинлашиш мақсадида радиодан кенг фойдаланилди. 1920 йиллар мобайнида хотин-қизлар орасида маданий-маърифий ишларни йўлга қўйиш бўйича ҳам анчагина тадбирлар амалга оширилди. Уларнинг асосий вазифаси ишчи ва камбағал деҳқонлардан кутубхоначи, саводсизликни тугатиш ходими, мафкурачи-сиёсатчи каби сиёсий-оқартув ходимлари тайёрлашдан иборат эди, аслида.

Хотин-қизлар клуби асосан, маданий-маърифий муассаса сифатида ташкил этилса да, асосий вазифаси советларнинг сиёсий мақсадларини маҳаллий аҳоли турмуш тарзига олиб кириш ва сингдиришдек ишлардан бир зум бўлса ҳам тўхтамади. Маҳаллий хотин-қизлар бу жараёнлардан ўз манфаатлари учун тўғри фойдаланган ҳолда, ўз ижодий ишларини рўёбга чиқаришга уринди. Чунончи, клублар ўз фаолиятини маҳаллий аҳоли учун ҳам манфаатдор этишга ва шу орқали улардан фойдаланишга ҳаракат қилган.

Хотин-қизлар клуби олдида турган асосий вазифа туб миллат хотин-қизларини совет ҳукумати ва партия олдида турган вазифаларни амалга татбиқ этиш учун ғоявий тарбиялаш билан бирга клуб фаолияти орқали, меҳнаткаш хотин-қизларни маиший аҳволини яхшилаш, маданий ҳаётга жалб қилиш, ижодий имкониятларини намоён этишига эришиш, уларда ижтимоий, ишлаб чиқариш ва маданий кўникмаларни ошириш, иқтисодий мустақиллигини таъминлашни бош мақсад сифатида белгилаган. Клубларда дам олиш маскани сифатида хотин-қизларнинг бадиий ва ижодий имкониятларини намоён қилишига имкониятлар яратилган.

1919 йил 12 ноябрда РКП(б)нинг Туркистон ўлка қўмитасида хотин-қизлар бўлими, 1919 йил декабрда партиянинг Тошкент шаҳар қўмитасида хотин-қизлар бўлими, 1920 йил март ойидан бошлаб эса, хотин-қизлар бўлими қошида хотин-қизлар билан ишлаш шубалари ташкил этилди. 1917-1920 йилларда клублар янги жамият қуришнинг маданий ўчоғи ва бадиий ҳаваскорликнинг, оммага сиёсий-моариф ғоялар тарқатишнинг маркази бўлган.

1919 йил сентябрда Туркистон ишчи ва деҳқон айёллар ташкилоти тузилди. Унинг ташкил топиши билан хотин-қизлар орасида олиб бориладиган маданий-маърифий ишлар аста-секин кучайиб борди. 1920 йил 17 майда ташкилотнинг ташаббуси билан хотин-қизлар ишлари бўйича биринчи съезди бўлиб, унда хотин-қизлардан 106 нафар делегатлар иштирок этган. Маҳаллий шароитларга қараб хотин-қизлар учун маданий-маърифий муассасалар: кўчма ўтовлар, деҳқон аёллар уйлари, қизил чойхоналар барпо этилди. Булар хотин-қизларга маданий-маърифий хизмат кўрсатиш ва маърифат тарқатишда, тарбиялашда катта рол ўйнади. Ўша пайтда хотин қизларни социалистик жамиятнинг фаол қурувчиларига айлантириш ниҳоятда зарурият тусига айланган эди. Делегатларнинг йиғилишлари хотин-қизларни ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий тарбиялашнинг оммавий мактаби бўлиб хизмат кўрсатган. Делегатларнинг йиғилишлари қишлоқ ёки волост аёллари сайлаган вакилларни бирлаштирди ва махсус бириктирилган хотин-қизларнинг ташкилотчилари орқали партия ячейкалари томонидан бошқарилди. Делегатларнинг йиғилишлари қишлоқ советлари, коопеациялар, хотин-қизлар кулблари ва бошқа ташкилотлар билан боғлиқ бўлиб, делегатлар уларнинг ишларида фаол қатнашардилар[3:51].

Хотин-қизлар орасида анжуман, конференция, съезд, семинар-тренингларни тез-тездан ўтказиш одат тусига айлана бошлади. Советлар ҳокимият доираси Шарқ хотин-қизлари турмушининг иқтисодий, маданий, маиший шарт-шароитларидаги ўзига хос хусусиятлардан келиб чиқиб, хотин-қизлар бўлимлари фаолиятини қуйидаги учта йўналишда олиб борди:

–хотин-қизларни тегишли артеллар, касаба уюшмаларига жалб этиш орқали уларни иқтисодий жиҳатдан озод қилишни таъминлаш;

–мактаблар, клублар ва бошқа маданий-маърифий муассасаларни ташкил этиш;

–хотин-қизларни тарғибот-ташвиқот орқали "социалистик қурилиш" амалиётига жалб этишнинг барча формалари билан кенг қамраб олиш асосида сиёсий жиҳатдан тарбиялаш.

Бунда клуб ва маданий-маърифий муассасаларни ташкил этиш орқали хотин-қизларнинг маданият ва санъатга қизиқишини ошириш ва бу ижодий жараёнга олиб кириш зарур эди. Янгидан ташкил этилган клубларда хотин-қизлар томонидан аёллар орасида уларни ижтимоий меҳнатга жалб қилиш ва меҳнатидан фойдаланишнинг ўзига хос механизмлари асосида маданий тарғибот-ташвиқот ишлари самарали олиб борилди.

1920 йилларда республика, вилоят, туман ва овулларнинг совет ташкилотлари қошида ташкил этилган хотин-қизлар бўлимлари хотин-қизларни маданий-маърифий ишларга қизиқтириш бўйича тарғибот-ташвиқот ишларини самарали амалга оширди. Фаоллар масалага дастлабки йилларда жуда эҳтиёткорлик билан ёндашдилар ва ҳар бир хонадонга кириб, ижодкор қизларнинг оила аъзоларига тушунтириш ишлари олиб борди. Махсус хотин-қизлар клублари, артеллар, бригадалар, дўконлар ташкил этилди. 1921-1925 йилларда клублар кенг ишчилар ва хотин-қизларни тарбиялашнинг марказлари сифатида маданият бригадаларин ташкил этиб, дастлабки хотин-қизлар концерт-гастроль фаолиятининг пайдо бўлишига туртки бўлган.

1920 йилларнинг иккинчи ярмидан бошлаб ўзгарган маданий-маърифий, ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий вазият хотин-қизлар клублари вазифаларига ҳам ўзгариш киритди. Яъни, клублар маҳаллий хотин-қизларнинг маданий савияси ва ижодий иқтидорини ошириш учун эмас, балки

советларнинг сиёсий ва иқтисодий мақсадларига йўналтиришга мойиллиги юқори бўлиб қолаверди. Клубларнинг вазифаси янгидан ташкил этилган ўқув юртлари ва саноат ишлаб чиқариш зоналари учун аёл мутахассислар тайёрлашдан иборат қилиб белгиланди.

Курс битирувчилари акушеркалар, мактабгача таълим муассасалари раҳбарлари (таълим муассасаларида маданий-маърифий труппалар, ҳаваскорлик жамоалари бўлган), хотин-қизлар мактаблари ўқитувчиларини тайёрлаш курсларига жалб этилди.

1921 йилда РКП(б)нинг Туркистон Ўлка қўмитасида хотин-қизлар бўлими Туркистон КП МҚ хотин-қизлар бўлимига айлантирилган. Маданий-оқартув, сиёсий-мафкуравий соҳада махсус тайёргарликка эга ходимларнинг етишмаслиги сабабли 1921 йил ўрталарида Тошкентда 200 кишига мўлжалланган тўрт ойлик сиёсий-оқартув, уч йиллик Ломоносов, 1926 йил июнда эса Тошкентда клуб-кутубхона ходимларини қайта тайёрлаш бўйича бир ойлик, 1927 йил февралида Тошкентда маданий-оқартув ходимларининг олти ойлик курслари очилган. Бу ишлар юзасидан Н. Жўраеванинг "Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат" асарида қуйдагича хулосалар келтирилган: бу ишлар негизида советлар манфаати яшириган бўлсада, аёллар манфаатлари маълум даражада ҳимоя қилинди. 1921 йилдан бошлаб совет ҳокимиятининг аёллар аҳволини ўзгартиришга қаратилган радикал чоралари қаторида диний тўйлар, қалин ва кўп хотинлилик таъқиқланди. Никоҳга кириш ёши қизлар учун 9 ёш ўрнига 16, ўғил болалар учун 16 ёш ўрнига 18 ёш деб белгиланди. Бу каби ижобий ўзгаришлар асосан халқимизнинг миллий менталитети ва талаб-истаклари билан амалга оширилган эди.

1921 йил Самарқанд ва Қўқонда илк хотин-қизлар клуби очилган бўлса, 1923 йил 10 августда Тошкентнинг эски шаҳар қисмида ҳам маҳаллий миллат хотин-қизлари учун клуб ташкил қилинди. Дастлаб бу клубга 250 маҳаллий хотин-қизлар жалб қилинган. 1924 йилдан бошлаб Туркистоннинг ҳамма шаҳар ва қишлоқларида клублар очила бошлади. 1924 йилнинг иккинчи ярмида хотин-қизлар клублари Самарқанд, Қўқон, Фарғона, Марғилонда ва бошқа бир қатор шаҳарларда ташкил қилинди[4:277].

Қишлоқларда "деҳқонлар уйи", улар ҳузурида қизил бурчаклар очилди, қизил бурчаклар хотин-қизлар клуби вазифасини бажарди. Масалан, Марғилонда очилган клубга Алихўжаева раҳбарлик қилиб, даставвал клубга 4 нафар яъни, 3 нафари ўзбек, 1 нафари эса, рус миллатига мансуб аёл қатнашган. Қисқа муддатда 230 нафар аёл клуб ишларига жалб қилинган. Маданий-маърифий муассасалар фақат ижодий ишлаб чиқариш билан чекланмасдан, унда маориф ва бошқа муассасалар ҳам фаолият олиб борган. Хотин-қизлар клублари ҳузурида болалар ва оналарга тиббий маслаҳат ва тикувчилик шубалари ҳам ташкил этилган.

Маданий-маърифий муассасалар эски турмушга "ҳужум фронти"ни кенг тус олдириш ва унинг натижаларини мустаҳкамлаш вазифаларини бажариб, хотин-қизларни артелларга, саводсизликни битириш мактабларига, завод ва фабрикаларга жалб этиш ишларини авж олдирди. Тошкентнинг эски шаҳар қисмидаги хотин-қизлар клубида ўтказилган кечаларнинг бирида ўзбек аёли Ҳасанова хотин-қизларга мурожаат қилиб: "Опа-сингиллар! Биз очилган (яъни, паранжини ташлаган) аёллар, энг аввало ўқишимиз ва ўрганишимиз керак. Иш ва пул топиш осон, ўқиб ўрганиш эса қийин, лекин зарурдир. Ўқимай ва ўрганмай ҳеч қандай маданиятга эришиш мумкин эмас" – деган эди[5:16].

Ҳақиқатан ҳам, хотин-қизларимиз саводли бўлишни клуб ишларига фаол қатнашишни хоҳлади. Аммо, бу ишлардан ўша даврдаги ҳукумат ўз манфаатлари йўлида фойдаланиш заруриятидан чекинмади. 1924 йилнинг майида ТАССР ишлаб турган кутубхоналар сони 132 тага, клублар 21 тага, қизил чойхоналар эса қарийб 200 тага етар эди. Мана шу даврда алоҳида хотин-қизлар клубини ташкил қилишга кенг эътибор қаратилди. Хотин-қизлар клуби қошида ҳам халқ маслаҳатчилари ва амалиётчилари учун тўгараклар ташкил этилди. Уларнинг ҳуқуқий ишлардаги фаоллигини ошириш мақсадида 1926 йилда суд органларига маҳаллий хотин-қизлардан 100 дан ортиқ хотин-қизларни халқ маслаҳатчиси сифатида иш олиб боришга имконият яратиб берган. 1926-1927 йилларда Ўзбекистон бўйича 5642 хотин-қизлар халқ маслаҳатчиси сифатида фаолият олиб борган бўлса, 1928 йилда уларнинг сони 10450 тага ёки 41%ни ташкил қилган.

1925 йил 22 июнда РКП(б) МК Ташкилий бюросининг "Партиянинг Совет Шарқи хотин-қизлари ўртасидаги ишлар бўйича вазифалари ҳақида"ги қарорида маҳаллий хотин-қизларни ижтимоий ишлаб чиқаришга жалб қилишда хотин-қизлар клуби муҳим таянч вазифасини бажариши лозимлиги таъкидланди. Шунинг учун хотин-қизлар клубига алоҳида эътибор қаратилди. 1925 йил қизил чойхоналар сони 177 та, 1928 йилда 366 тани ташкил қилган бўлса, клублар ва деҳқон уйлари 140 дан ва 244 таси фаолият юритган. Кутубхоналар сони эса 84 ва 270 тани ташкил этди. 1925-йил март ойидан 1926 йил март ойи ҳолатига кўра хотин-қизлар клубининг сони 11 тадан 32 тага, аъзолар сони эса, 920 тадан 3000 тага, 1927 йилда бўлса, 4723 тага етган.

1925 йил 12 февралдаги Ўз КП(б) МҚнинг "Хотин-қизлар ўртасидаги ишлар ҳақида"ги қарори хотин-қизлар клублари билан бирга деҳқон аёллар қизил бурчаклари ташкил этиш ва қишлоқларда хотин-қизлар клублари сонини ошириш, аҳолига маданий хизмат кўрсатиш жабҳаларида хотин-қизларнинг фаоллигини оширишни янада ривожлантириш кераклигини илгари сурди. Қарорга асос шаҳар ва қишлоқларда деҳқон аёллар қизил бурчаклари, хотин-қизлар кооператив дўконлари ташкил қилинган.

Шунингдек, 1925 йил 15 июнда РКП(б) МҚ Ташкилий бюросининг "Партиянинг Совет Шарқи хотин-қизлари ўртасидаги ишлар бўйича вазифалари" тўғрисидаги қарори ҳам клублар фаолиятини янги босқичга олиб чиқди. 1927 йил 14 январда ВКП(б) МҚнинг "Хотин-қизлар клубининг совет Шарқидаги вазифалари ҳақида"ги қарори маданий-маърифий, ижтимоий-сиёсий жараёнларда клуб фаолиятини янада такомиллаштириш кераклигини исботлади. 1927-1928 йилларда 34 та хотин-қизлар клублари фаолият кўрсатган бўлса, 1928-1929 йилларда уларнинг сони 40 тага етган, 1930 йилларнинг охирида эса, 42 тани ташкил қилган.

1926 йил апрель ойида Ўрта Осиёдаги хотин-қизлар клублари ва қизил бурчаклар ходимларининг II кенгаши ўтказилиб, 1925 йил март ойидан 1926 йил мартигача хотин-қизлар клубининг сони 11 тадан 32 тага, аъзолар сони эса, 920 тадан 3000 тага етганлиги алоҳида таъкидланди.

Шунинг учун ҳам, хотин-қизлар клубларининг асосий вазифаси 1929 йил 23 декабрдаги СССР МИҚнинг "Хотин-қизлар таълими" тўғрисилаги қарорига мувофиқ, ўзбек хотин-қизларини хўжалик қурилишига тортишдан иборат эди. 30-йилларнинг иккинчи ярмида хотин-қизлар клублари тугатилиб, уларнинг вазифаси жойлардаги партия ташкилотлари зиммасига тушди. Бу жараён клублар фаолиятининг ўта сиёсатлашуви билан изоҳланади. Маданий-оқартув муассасалари маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этиб, халқнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш учун эмас, эски иттифоқнинг сиёсий-мафкуравий ғоялари асосида хотин-қизларни тарбиялашдан иборат бўлиши хотин-қизлар клубларининг тугатилишига асосий сабаб эди.

Яна бир жиҳатдан, барча маданий-оқартув муассасалари миллий маданиятга, миллий урф-одат ва диний қадриятларга қарши маданий меросни инкор этиш ғояси (шунингдек, атеистик) асосида фаолият юритгани бўлди.

Советларнинг хотин-қизларни озодликка чиқариш борасида шошма-шошарлик ва зўравонлик усулида амалга оширган сиёсати аёлларнинг бегуноҳ қурбон бўлишига сабаб бўлди. Манбаларнинг гувоҳлик беришича, 1927 йил 27 июнда Қўқон вилояти Бувайда туманининг Полосон қишлоғида деҳқон Абдуқодир Ҳожиматов ўз аёлини паранжи ташлаб фаоллик кўрсатгани учун осиб ўлдирган. Шу ойда Бешариқ туманининг Янгиқўрғон қишлоғида ҳам шундай воқеа содир бўлди. Андижон вилоятининг Назар Маҳрум қишлоғида эса хотин-қизлар орасида иш юритувчи фаоллардан Хадича Эшбоева ва унинг турмуш ўртоғини ўлдирдилар. Тошкентда Кўкалдош мадрасаси минорасидан реакцион диндорлар аёлни қопга солган ҳолатда ерга ташладилар. Бундай даҳшатли воқеаларни кўплаб келтириш мумкин. Умуман расмий ҳужжатларда кўрсатлишича, "Ҳужум" компанияси 1927-1928 йилларда Ўзбекистонда 2,5 мингдан ортиқ фаол хотин-қизлар, қишлоқ, туман кенгашларининг аъзолари, хотин-қизлар клублари ва кутубхоналар мудирлари ўлдирилган[6: 378, 379].

Биринчидан, советлар сиёсатининг нотўғри йўлга қўйилгани, иккинчидан хотин-қизларнинг бирданига европалошувининг қабул қилинмаганлиги бўлди. Бу сиёсий ўйинлар оқибатида маҳаллий аҳоли кўпроқ зарар кўрди. Лекин, маҳаллий аҳоли бу ишларда ўз фаоллигини кўрсатишга ҳаракат қилаверди. Клуб муассасаларидан тўғри фойдаланишни ўрганиб борди. Республикадаги маданий-маърифий муассасаларнинг муҳим вазифаларидан бири хотин-қизлар билан олиб бориладиган сиёсий-тарбиявий ва маданий-оммавий ишларни кенг тус олдириш ва уларни барча маданий-оммавий тадбирларга жалб этишдан иборат, деб ҳисоблай бошлади. Шунинг учун ҳам анчагина хотин-қизлар клубларида катта тарбиявий ишлар амалга оширилди. 1926-1932 йилларда клуб ишларида маданий сайллар, маданий эстафеталар, кўрик-танловлар ўтказилиши аҳоли турмуш тарзига сингдирила бошлади. 1933-1941 йилларда аҳоли ўртасида сиёсий-ғоявий тарбиялаш ишлари, мудофаа-оммавий ишларини кенг ёйдириш ва ҳаваскорлик труппаларининг ишини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилди.

Ўзбек аёлининг шижоати ва меҳнатсеварлиги фан ва маданият соҳаларида ҳам намоён бўлди. 1937 йил Ўзбекистонда бўлиб ўтган олима аёллар биринчи конференциясига 400 га яқин хотин-қизлар қатнашдилар. Улар орасида биринчи ўзбек аёлларидан кимё фани соҳасида тақдиқот олиб борувчи М.А.Хожинова, З.Саидносирова, тиббиёт фани соҳасида З.Умидова ва бошқалар бор эди. Адабиёт ва санъат соҳасида Зулфия, Ойдин, С.Эшонтўраева, Ҳ.Носирова каби аёллар ижод қилдилар[7:384].

Тошкент шаҳрининг Октябрь ноҳиясидаги Калинин номли клубда хотин-қизлар билан кенг кўламда тарбиявий ишлар олиб борилди. Шу ноҳиядаги Оржоникидзе номли кулубда хотин-қизларнинг умумтаълимий савиясини ошириш тўгараги, шунингдек, адабиёт, рус тили ва бошқа қатор фанлар бўйича алоҳида-алоҳида тўгараклар ишлади. Тўгаракларнинг бирида хотин-қизларнинг ўзлари жун иплар йигирдилар ва улардан фронтдагилар учун иссиқ буюмлар тўқиб, уй-розғор ишлари ўргатила бошлади.

Халқ клублар фаолиятини тўғри йўлга қўйди. Сиёсий клублар сони камая бошлади ва айримлари уммуман фаолиятини тўхтатди. Ўзбекистонда хотин-қизларнинг маданий-маърифий ишларга жалб қилиниши бошидан сиёсий мафкурага зид бўлганлиги учун қурбонликларни ҳам талаб этди. Тарих Ўзбекистон хотин-қизларининг жасоратларини ҳам унутмайди. Уларнинг маънавий қаҳрамонлиги қадриятлилиги ғоят ибратлидир. Халқимиз республиканинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида фаол қатнашаётган аёлларнинг – янги давр аёлларининг куч-қудрати билан фахрланади. Улар орсида Ш.Ғойибжонова, М.Б.Егорова, Ф.Ниёзова, Т.Иброҳимова, А.М.Валиева, Ж.Обидова, Э.Б.Рачинская, Э.П.Самойленко, Р.Рустамова, Ш.Каримова, М.Ҳасанова, Н.Йўлдошева ва бошқаларнинг алоҳида ўрни бор[8:61].

Клублар Иккинчи Жаҳон Урушидан кейин ўзининг туб моҳияти маданият ва санъат соҳасига тегишли маданий-маърифий ишлар билан шуғулланди. Масалан Пастарғом клуб системаси катта театрлаштирилган томошалар кўрсатади, турли авлодлар учрашувлари, ишлаб чиқариш илғорларини шарфлаш, адабий ўқишлар уюштириш, тематик кечалар ўтказиш, кўп болалик аёллар учун тантанали йиғинлар уюштириш, кинолекторийлар, концертлар қўйиш каби турли тадбирлар ўтказиб туради [9:9]. Иш ҳарактерига ва маҳаллий шароитга қараб, клуб ишининг "Хотин-қизлар ўртасида ишлаш", "Клуб кутубхонаси иши", "Клубда кино хизмати", "Тўгарак ишлари" каби қўшимча иш соҳалари талабларга амал қилган ҳолда планга киритилиб, тарғибот ишларини ташкил этиш лозимлиги режалаштириш бошлади[10:20]. Клуб ва труппалар негизида ҳаваскорлик ва профессионал театрлар шакллана бошлади. Аввалари фақат эркак кишилар томоша санъати билан шуғулланган бўлса, клублардаги ҳаваскорлик тўгаракларига қатнаб хотин-қизлар ҳам театр томошаларига жалб қилина бошлади Бу борада Хотин-қизлар халқ театри ўз фаоллигини намоён қилди.

Эркаклар театри каби хотин-қизлар театрининг томошалари ҳам кўпинча халқ байрамлари ва урф-одатлари – тўйлар ва бошқа маросимлар билан боғлиқ бўларди. Бироқ улар фақат хотин-қизлар йиғилишларида – оилавий тантаналар, байрамлар муносабати билан, хотин-қизларнинг қишки кечаларида ўтказиларди. Хотин-қизлар халқ театри уларни ғоявий ва эстетик руҳда тарбиялашда сезиларли рол ўйнади. Бу маданият ва санъат соҳасида катта интеграцион воқеалик бўлди. Ўтмишдан ўзбек халқининг театр санъати халқ ҳаваскорлик санъатидан иборат бўлган.

Бу биринчи навбатда импровизация санъатида юқори маҳоратга эришган масхарабозлар ва қизиқчилар театри эди. Булар томошалар якка шахслар ёки озроқ миқдордаги персонажлар қатнашадиган томошалар бўларди. Шуниси диққатга сазоворки, эркаклар труппалари билан бир қаторда хотин-қизлар труппалари ("тўплари") ҳам мавжуд эди, уларда "масхарабоз хотин" ва "қизиқчи хотин" чиқишарди. Инқилобдан олдинги даврда хотин-қизлар оғзаки драмасининг марказий мавзуи аёллар тақдири, уларнинг ҳуқуқсиз аҳволи, айни вақтда ҳаётни севиш, озодлик ва тенг ҳуқуқликка интилишдан иборат бўларди. "Замбур", "Домла эшон", "Лой совун" комедияларидаги ҳажв, аввало, маъмурият ва диндорлар вакилларига қарши қаратилган эди[11: 155, 156].

Клубларда Ҳамзанинг "Бир эшон ўлкаси", "Қозининг сирлари", "Сайлов олдидан", Ғ.Ғуломнинг "Эшон ва Шайтон", "Афанди ўлмайдиган бўлди", "Паранжи" каби спектакллардан парчалар намойиш этилиб, "Ғорлар", "Фан – мўжиза яратади", "Инсон ва меҳнат", "Ҳаёт кўрки" каби мазвуларда тематик кечалар ўтказиш хотин-қизларнинг клуб фаолиятига қизиқишларини оширди. Илмий-оммабоп ва ҳужжатли фильмлар, бадиий фильмлар, китоб кўргазмалари учун марказдан техник воситалар олиб келинди. Клуб ўзининг мана шу вазифаларини бажаришда лекция, суҳбат, халқ дорилфунулари, ташвиқот суди, ташвиқот спектакли, инценировка каби клуб иши турларидан кенг фойдаланган.

Клублардаги тадбирларнинг ранг-баранглиги, мазмундорлиги, хотин-хизларнинг ҳис-туйғуларига таъсир этиб, билим доирасининг кенгайишига, турли касб-ҳунарларни моҳирлик билан эгаллашга ижобий ёрдам кўрсатди. Клубларда "Уч авлод хотин-қизлари", "Қуёш ва ер", "Осмондаги ажойиб ҳодисалар", "Оналарга таъзим", "Фойдали маслаҳатлар" каби оғзаки журналлар, савол-жавоб ва учрашув кечаларида иштирокчилар сони йилдан-йилга юқорилади.

Клуб ишларининг мазмуни ва моҳияти замирида бўлса сиёсий жараёнлар уқтириларди. Ўша даврнинг ғам-ғуссалари ҳам бу томошаларда ўз аксини топарди. 1950-1960 йилларда клубларда

маънавий-маърифий ишлар юқори суръатларда ривожланди. Маҳаллий аҳоли орасида ҳам ҳаваскор мутахассислар етишиб чиқа бошлади. Шу нуқтаи назардан кадрлар тайёрлашни янада такомиллаштириш ва замон талабларига мувофиқлаштириш учун 1974 йилда Тошкент давлат маданият олийгоҳининг очилиши маданий-маърифий ҳаётда малакали кадрлар етишмаслиги каби муаммоларга ечим бўлди. Институтнинг 23 та кафедрасида 300дан зиёд педагоглар талабаларга дарс бера бошлади. 1960 йиллар республикада 2977 клуб бўлса, 1970 йилда 3441 тага, кутубхоналар сони 3418 тадан 5822 тага, музейлар бўлса, 14 тадан 26 тага, киноқурилмалар сони 2178 тадан 3988 тага ошган. Аммо, бу статистик ҳисоботларда ошириб кўрсатишлар бўлган. Аслида эса бундай маданий-маърифий ишларни амалга ошириш имконияти бўлмаган. Клуб ишларини, айниқса, ҳаваскорлик санаътини ривожлантириш мақсадида 1967 йилда ҳаваскорлик санъатининг барча жанрлари бўйича республикада биринчи марта ижодий фестиваль ташкил этилди. Бу ҳар йили ўтказилиши анъанага айланди. 1978 йилда Ўзбекистон давлат тармоғи системасида маданий-маърифий ишларга методик раҳбарликни амалга оширадиган Республика халқ ижоди ва маданий-маърифий ишлар методик маркази, шунингдек, касаба уюшмалари йўли бўйича иттифоқ ҳаваскорлик ижодиёти уйи ташкил этилган.

1980-1981 йилларда Ўзбекистонда 300 та ижтимоий-маданий комплекслар аҳолига маданий хизмат кўрсатган. 1980 йиллари охирига келиб, улар фаолияти янгича танқидий таҳлилни талаб этарди. Аммо, бу 1990 йилларгача мавҳумлигича қолаверди. 1991 йили Ўзбекистон Республикаси ўз Мустақиллигини қўлга киритгач, маънавий-маърифий соҳага алоҳида аҳамият қарата бошлади. Мустақиллик шароитида аёлларни, кўп болали оналарни ҳар томонлама муҳофаза қилишни янада кучайтириш, меҳнаткаш ва ижодкор аёлларни бозор иқтисодиёти билан боғлиқ бўлган муаммоларни ҳал этишда фаол қатнашишга кенг сафарбар этиш, илм-фан соҳасидаги аёлларнинг имкониятларини янада кенгайтириш ва уларни қўллаб-қувватлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг 1991 йил 1 мартдаги Ўзбекистон Республикаси Хотин-қизлар қўмитаси тўғрисидаги фармойиши билан Хотин-қизлар қўмитаси тузилди[12:163].

1993 йилда Ўзбекистонда 2531 та клуб муассасаси, 103 та маданият ва аҳоли дам олиш боғлари, 417 та кутубхона, 58 та музейда бўлиб, унда хотин-қизларимиз касбий фаолият олиб борган. Энди, хотин-қизлар билан аниқ ва режали ишлашадиган қўмита ўз фаолиятини бошлади. Шу йиллари аёлларнинг таълим ва соғлиқни сақлаш соҳаларига кўпроқ тўпланиши кузатилди. Бу аёлларнинг иш ҳақи ва касбий имкониятларга қараб иш танлаши десак, муболаға бўлмайди. Ҳудудларнинг оммавий бўлганлигига қараб, иш ҳақининг қисқариши ёки кўпроқ бўлиши билан ҳам боғлиқ эди. Аёллар ишчи кучининг тармоқлар бўйича тақсимланиши 1998 йил статистика бўйича қуйдагича:

Сектор	%
Таълим	34
Соғлиқни сақлаш	19
Саноат	14
Қишлоқ хўжалиги	11
Савдо, овқатланиш, таъминот, сотиш, сотиб олиш	6
Транспорт ва алоқа	3
Қурилиш	3
Маданият ва санъат	2
Бошқа	8
Жами	100[13:88].

Кўриниб турибдики бу йилларда хотин-қизларнинг маданият ва санъат соҳасидаги фаолияти бироз пасайган, яни 2% ташкил этган. Соҳанинг илмий пойдевори яратила бошлади. Илм-фанда театршунослик, мусиқашунослик, киношунсолик, санъатшунослик, фольклоршунсолик каби янги тадқиқот йўналишлари вужудга келди. Ўзбекистонда маънавий-маърифий соҳанинг баъзи масалаларини аёл олималаримиздан С.Аслетдинова, А.Қосимова, Т.Лекомсева, М.Нурмуҳамедова каби тадқиқотчилар, маънавий-маърифий соҳанинг айрим фалсафий-методологик муаммоларини Х.Шайхова, А.Ч.Гелдиева, О.Нишонова, У.Ўтанова каби тадқиқотчилар ўрганишган[14:120]. Бугунги кунда Янги Ўзбекистонда ижодкор аёлларнинг кенг қўллаб-қувватланиши ва норасмий таъқиқлардан озод этилиши, керак бўлса давлат мукофатлари билан тақдирланишдек ижобий ўзгаришлари кузатилмоқда. Хотин-қизларнинг давлат ва жамият бошқарувидаги роли юқорилади.

Тарихан Ўзбекистонда хотин-қизларнинг маданий-маърифий ишларга жалб қилиниши нафақат хотин-қизларнинг фаоллигини оширди, балким жамият тараққиётига ҳам ката ҳисса қўшди. Аёлларимиз тарғибот-ташвиқот ишларида, маданий-оммавий ижод жараёнида, илм-фан ва бошқа соҳаларда ҳам самарали меҳнат қилиб келмоқда. Уларнинг тарих зарварақларида қолдирган

шонли ва шавкатли мардликларини ўрганиш ва ёшлар орасида кенг кўламда кенг ёйдириш биз каби ёш тадқиқотчиларнинг – олий саодатли вазифасидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Жўраева Н. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-80 йиллари мисолида). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013.

2. Ўзбекистон ССР Маданият минстирлиги Халқ ижоди ва маданий оқартув ишлари Республика илмий-методик маркази. "Хотин-қизлар орасида атеистик тарбия ишларини олиб боришда клубларнинг фаолияти". "Методик тавсиянома". – Тошкент 1998.

3. Нурмуҳамедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. "Ўқитувчи". – Тошкент: Фан, 1993.

4. Жўраев М., Нуриллин Р., Камолов С. ва бошқалар. К2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тошкент: "Шарқ", 2000.

5. Нурмуҳамедова М. Ўзбекистонда маданий-маърифий ишлар. "Ўқитувчи" нашрёти. –Тошкент: 1993.

6. Жўраев М., Нуриллин Р., Камолов С. ва бошқалар. К2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент: "Шарқ", 2000.

7. Ўша жойда– 384 бет.

8. Нурмуҳамедова М. Ўзбекистонда маданий-маъифий ишлар. "Ўқитувчи".–Тошкент:1993.

9. Ўзбекистон ССР Маданият минстирлиги Халқ ижоди ва маданий-оқартув ишлари Республика илмий-методик маркази. "Клуб муассасаларига раҳбарликни марказлаштириш ва Ўзбекистонда маданий комплексларни яратиш". – Тошкент: 1980.

10. Ўзбекистон ССР Маданият минстирлиги Халқ ижоди ва маданий-оқартув ишлари Республика илмий-методик маркази. "Марказлашган клублар системаси фаолиятини программавий-мақсадли планлаштириш". (Методик қўлланма). Типография №4 ТППО "Матбуот". – Тошкент: 1988.

11. Қаранг: Жўраев М., Нуриллин Р., Камолов С. ва бошқалар. К2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.– Тошкент: "Шарқ", 2000.

12. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистоннинг янги тарихи.–Тошкент: "Шарқ", 2000.– 163 бет.

13. Қаранг: Краткий информационний доклад. Женшини в Республике Узбекистан. Азиатский Банк Развитий. Департамент Программ Социалного Развития и Окружаюшей Среди (Восток). Февраль 2001.

14. Алимасов В., Манзаров Й. Ўзбекистонда маънавий-маърифий соҳа: назария ва амалиёт (фалсафий-социологик тадқиқот).–Тошкент: "Наврўз". 2014.

УЎК 902

БУХОРО ТАРИХИЙ МАЖМУАЛАРИНИНГ ЯНГИЛАНИШИ ЙЎЛИДА

М.Ҳ. Ҳамидова, талаба, Бухоро муҳандислик-технология институти, Бухоро
Ш.Р. Мирзаев, доц., т.ф.н., Бухоро муҳандислик-технология институти, Бухоро

Аннотация. *Мақолада бир неча асрлик тарихга эга Бухоро тарихий мажмуалари ва уларнинг аввалги ва ҳозирги ҳолати тўғрисида илмий қарашлар келтирилган. Бухоро вохасида 997 дан ортиқ меъморий ва археологик ёдгорликлар мавжуд бўлиб, улар шу қадимий замин ўтмиши, халкимизнинг юксак маънавияти, бебаҳо санъати, умрбокий миллий анъаналари, кўли гул усталаримизнинг такрорланмас маҳоратидан гувоҳлик бериб турибди.*

Калит сўзлар*. Консервация, Чор Бакр, хонакоҳ, Сумитон, куфийё ёзувлар, ёғоч ўймакорлиги, Бухоро, реставрация.*

Аннотация. *В статье представлены научные взгляды на исторические комплексы Бухары с многовековой историей, их прошлое и современное состояние. В Бухарском оазисе более 997 архитектурных и археологических памятников, которые свидетельствуют об истории этой древней земли, высокой духовности нашего народа, бесценном искусстве, многовековых национальных традициях, уникальном мастерстве наших мастеров.*

Ключевые слова. *Консервация, Чор Бакр, ханакох, Сумитон, куфические надписи, резьба по дереву, Бухара, реставрация.*

Abstract. *The article presents scientific views on the historical complexes of Bukhara with a long history, their past and current state. There are more than 997 architectural and archaeological monuments in the Bukhara oasis, which testify to the history of this ancient land, the high spirituality of our people, priceless art, centuries-old national traditions, and the unique skill of our masters.*

Key words: *Conservation, Chor Bakr, khanakokh, Sumiton, Kufic inscriptions, woodcarving, Bukhara, restoration.*

XXV асрдан зиёд тарихга эга Бухоро вохасида 997 та меъморий ва археологик ёдгорликлар мавжуд бўлиб, улар шу қадимий замин ўтмиши, халкимизнинг юксак маънавияти, бебаҳо санъати, умрбокий миллий анъаналари, кўли гул усталаримизнинг такрорланмас маҳоратидан гувоҳлик бериб турибди. Аммо афсуски Бухоро сўнгги ҳукмдорларининг бепарволиги ва ожизлиги, 1920 йилда кизил армия кисмларининг боскини чоғида шаҳарни аэропланлар билан бомбардимон килгани, шўролар мустабид тузумининг миллий кадриятларни оёкости килиши, халкни ўзлигидан

жудо этишга каратилган сиёсати окибатида кўплаб обидалар ер билан яксон этилди, каровсиз колдирилиб, вайрона ҳолга келтирилди, зиёратгоҳлар, масжид-мадрасалар омборхоналарга айлантирилди [1,2].

Меъморий обидаларни таъмирлаш, кайта куриш, консервация килиш йўлидаги бу катта кўламли юмушларга карамай Бухорода бундай ўзгаришлар учун навбат кутаётган ёдгорлик объектларининг кўплиги, сизот сувлар, шўр ва бошка экологик факторларнинг уларга салбий таъсири бир катор обидаларни зудлик билан таъмирлашга киришишни такозо этарди [3]. Шу сабабли 1999 йилнинг майида вилоят ҳокимлиги ташаббуси билан "Ўзбектаъмиршунослик" лойиҳа институти томонидан ишлаб чикилган ҳужжатлар ва вилоят архитектура-курилиш бошкармаси берган чизмалар асосида Бухоронинг кадимий Сумитон мавзеидаги Чор Бакр меъморий ёдгорлигини умумхалк ҳашари асосида таъмирлаш юзасидан кенгашиб олиш максадида ўтказилган йиғилишда вилоятнинг барча шаҳар ва туманлари ҳокимлари, лойиҳалаш, курилиш ва таъмирлаш ташкилотлари, бинокорлик индустрияси корхоналари, раҳбарлари, усталар, оксоколлар, жами 1100 нафардан зиёд вакиллар тўпландилар. Ушбу умумхалк маслаҳат кенгаши асосида вилоят ҳокимининг 1999 йил 13 майдаги 89-сонли "Чор Бакр тарихий-меъморий мажмуини таъмирлаш тўғрисида"ги карори кабул килинди ҳамда ушбу ишни ва бошка юмушларни марказлаштирилган тарзда молиялаштириш учун хайрия маблағларини тўплайдиган "Бухорои Шариф" жамғармаси ташкил этилди, банкда унинг ҳисоб раками очилди. Айнан шу жамғарма Чор Бакрда олиб бориладиган таъмирлаш ва ободонлаштириш ишларининг бош буюртмачиси килиб белгиланди, катта кўламдаги бу юмушларни жамоатчилик асосида мувофиклаштириб борувчи штаб таркиби тасдикланди. XVI-XIX асрларда бунёд этилган бу ёдгорлик мажмуи ислом оламида машҳур тўрт нафар шайх, авлиё — Абу Бакр Саъд, Абу Бакр Фазл, Абу Бакр Ҳомид, Абу Бакр Тархон номи билан боғлик. Чор Бакрлар авлоди IX асрдан XIX асргача, яъни минг йиллик давр мобайнида Бухоронинг илму маърифати, маънавий ҳаётида фаол катнашиб, катта нуфузга эга бўлишган. Жўйборий шайхлари номини олган бу алломалар сиёсий вокеаларда фаол иштирок этганлар, айникса Бухорони чет эл ҳужумларидан ҳимоя килишда хон ва хонзодаларни, аскару лашкарни жипслаштириш, руҳлантиришда уларнинг ғоявий-маънавий раҳнамолиги ижобий роль ўйнаган. Шу авлодга мансуб валиюллоҳ Ҳазрат Хожа Ислом Жўйборий (1493-1563) шарофатидан Чор Бакр зиёратгоҳида тарихий обидалар кад кўтарган. Шайхлар кабристони, хилхоналар олдига Бухоро ҳукмдори Абдуллахон II томонидан хонакоҳ, масжид, мадраса ва катта боғдан иборат меъморий мажмуи барпо этилган (1559 й.), кейинги асрларда яна кўшимча бинолар курилиб, атрофи чорбоғларга айлантирилган [4]. Хонакоҳ гумбазли хона ва пештокдан иборат. Пешток безагида кошинкори накшлар ва йирик куфий ёзувлар, икки ён томонида гулдасталар бор. Ички безагида ганчкорлик ва кирма намуналари учрайди. Вайрона ҳолга келиб колган хонакоҳ, масжид, мадрасалар гумбазлари кайта курилди, минора, пештоклар шарафлари, Саъдулла Хожа, Акобир Хожа, Насриддин Хожа, Зайнаб Султон Пошша хазиралари пойдеворлари янгиланди, Абу Бакр Саъд, Абу Бакр Фазл, шунингдек, Хожа Ислом, Хожа Калон ва бошка авлиёларнинг кабрлари, кўплаб дахмалар асл ҳолига кайтарилди. Чор Бакрда таъмирлаш ишларини олиб боришда миллий услублар ва анъанавий бинокорлик материалларидан кенг фойдаланилди. Сухор кишлоғида дафн этилган бу зоти шариф зиёратгоҳи собик иттифок замонида энг хароб, каровсиз, шўристон жой эди. Бу ердаги Ҳазрат номи билан аталган жомеъ масжиди бузиб ташланган эди. Мамлакатимиз истиклолга эришган дастлабки йилларда Саййид Мир Кулолнинг когонлик ва хорижлик муршидлари ташаббуси билан курилган кўримсизгина макбара жойини аниклашда хатоликларга ҳам йўл кўйилган эди. Шу сабабли вилоят ҳокимлиги Ўзбекистон мусулмонлари идораси билан келишган ҳолда бир гуруҳ мутахассисларни жалб этиб, аллома хоки кўйилган жойни тўғри аниклаб, бу ерда икки гумбаздан иборат маҳобатли макбарани барпо килиш ишларини бошлаб юборди. Лойиҳа муаллифлари бу зиёратгоҳдаги макбаранинг бирини кошинлар, куфий ёзувлар билан безашни назарда тутилган бўлсалар, иккинчи гумбазни тиклашда оби ғиштларни безакли териш усулидан фойдаланишни лозим деб топдилар. Мармардан янги кабр тоши тайёрланди. Бу ўзгаришлар туфайли макбара оригинал чирой касб этди. Мажмуа ҳудуди кенгайтирилиб, 6 гектарга етказилди. Янги дарвозахона, масжид, зиёратчилар учун меҳмонхона, таҳоратхона курилди, саккиз бурчакли катта ҳовуз, баландлиги 10,5 метрли минора барпо этилди. Янги боғ ташкил килиниб, йўлакларга, макбарага элтувчи зиналарга, зиёратгоҳ ҳовлисига оҳактошдан тайёрланган оби ғиштлар ёткизилди. Зиёратгоҳга Бухоро ёғоч ўймакорлиги санъатига мансуб накшлар билан безатилган маҳобатли дарвоза ўрнатилди.

1365-1436 йилларда яшаб ўтган валиюллоҳ, буюк шоир, файласуф, улуғ тарбиячи, маърифатпарвар зот Ҳазрат Хожа Фахриддин Исматилло бинни Масъуд Бухорий зиёратгоҳи кадимий шаҳар калъасининг Шайх Жалол дарвозаси ёнидан жой олган. 2004 йил 14 февралида

вилоят ҳокимлиги ана шу кадамжода маслаҳат кенгаши ўтказиб, Хожа Исматуллоҳ Бухорий зиёратгоҳи меъморий мажмуини барпо этиш масаласини муҳокама килган эди. Ўшандан кейин ўтган атиги 9 ой мобайнида минглаб бухоролик курувчилар ва халк амалий санъати усталари куч-ғайрати ва шижоатли меҳнати билан меъморлар гуруҳи лойиҳаси асосида кўркам зиёратгоҳ кад кўтарди ҳамда шу йилнинг 14 ноябрида бу ердаги масжидда Рамазон ҳайити намози ўкилди. Ушбу кадамжони барпо этиш чоғида зиёратгоҳга туташиб кетган эски кабристон тартибга келтирилиб, алоҳида дахма курилди. Шаҳарнинг кадимий калъаси бўйлаб меъморий мажмуага бориладиган янги йҳл барпо этилди. Шу йўлдан борган зиёратчилар дастлаб зиналардан баландлиги 5,2 метр бўлган пантеон - айланма бинога дуч келади. Унда Бухоро авлиёлари ва алломаларининг ҳикматлари, улар ҳаёт йўли ҳакидаги маълумотлар жой олади. Қадамжонинг бош иншооти — баландлиги 13 метр бўлган гумбазли макбара зиёратгоҳнинг энг гўзал биноси ҳисобланади. Унинг курилишида жаҳонга машҳур Сомонийлар мақбарасини тиклашда кўлланилган ғишт териш услубидан фойдаланилган. Макбара марказидан бухоролик мармартарошлар ва хаттотлар безаган кабр тоши ўрин олган. Бухоронинг ўзига хос меъморий услуби акс этган тўрт устунли макбара бугунги меъморлар томонидан лойиҳалаштирилган бўлса ҳам кадимий обидалардан сира фарк килмайди. Бугунги кунда кадамжога чирой бағишлаб турган 7 гектарлик боғ, дахма, макбара, масжид айни чоғда кайта тикланаётган кадимий калъанинг бир кисми ҳамда якин орада кад кўтарадиган Шайх Жалол дарвозаси билан яхлит бир мажмуани ташкил этиши зиёратгоҳни лойиҳалаштирган меъморлар олдиларига кўйган максадларининг рўёби бўлади.

Бухоро тарихидан маълумки Беҳиштиён мозори шаҳарнинг табаррук кадамжоларидан бўлиб, бу ерда кўплаб авлиёлар, алломалар дафн этилган. Ушбу мозор Қарши дарвозасининг шимолида бўлган. Аммо ўтган асрнинг 30-40-йилларида Беҳиштиён мозори ҳам, унга туташ кадимий дарвоза ҳам бузиб ташланиб, улар ўрнига ёғ заводи, кейинчалик мактаб ва кооператив техникуми курилган. Ўтмишдаги хатоликлар туфайли руҳи безовта бўлган алломаларнинг хотирасига эҳтиром сифатида шу ерда барпо этилган Беҳиштиён макбараси меъморчиликнинг кадимий анъаналари замонавий унсурлар билан уйғунлашган бугунги давр обидасидир [6]. Сўнгги йилларда нафакат Бухоро шаҳрида, балки вилоят туманларида ҳам обидаларни таъмирлаш, зиёратгоҳларни ободонлаштириш бўйича катта кўламдаги ишлар олиб борилмокда. Вилоят ҳокимлиги ташаббуси билан Вобкент туманидаги Ҳазрат Хожа Маҳмуд Анжир Фағнавий кадамжосининг обод этилгани ана шу йўлдаги саъй-ҳаракатлар натижасидадир. Бу ерда XIII асрда яшаб ўтган буюк тарбиячи, аллома, валиюллоҳ, "Силсилаи шариф"даги ўн иккинчи халканинг пири муршиди макбараси кайта курилди, янги жомеъ масжиди, дарвозахона барпо этилди, кўркам боғ ташкил килинди. Мазкур зиёратгоҳнинг ўзига хос жиҳати шундаки, Маҳмуд Анжир Фағнавий дафн этилган жой аник белгиланиб, кабр устига икки ошиёнли гумбаз тикланган. Бу ердаги ҳовузнинг саккиз бурчакли тарзда курилгани уни анъанавий сув иншоотларидан ажратиб туради [6].

Биринчи президентимиз Ислом Каримовнинг "Юксак маънавият — енгилмас куч" деб номланган янги асарида мамлакатимизда ободонлаштирилаётган зиёратгоҳлар, кайта таъмирланаётган обидалар халкимиз, айникса ёш авлод маънавий оламини юксалтиришга хизмат килиши алоҳида таъкидланган. Аждодларимиз меъморчилик анъаналарини ривожлантириш асосида маданий меросни асраш амалиётини тобора такомилштираётган бухоролик архитекторлар, кўли гул усталар, таъмирловчилар ва бошка мутахассислар ана шу эзгу максад йўлида сидкидил меҳнат килиб, изланишлар олиб бориб, шу йўналишдаги савоб ишларни давом эттираверадилар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Аскаров Ш.Д. Становление социалистический архитектуры в Средней Азии 20-х - нач. 30-х годом. Автореф.дисс. на соискание уч.степени канд.архит. —Т.: 1975.

2.Азимов И.М. Архитектура Узбекистана ХУШ - нач. XX вв. (традиции и локальные особенности). Автореф. дисс. на соиск. уч.степени докт.архит. М.: 2000.

3. Арапов А.В. Исторические памятники Узбекистана. ИТД«СМИ-АЗИЯ» 2008 г.С.10-15.

4. Салимов. Сохранение и использование памятников архитектуры Узбекистана.- Ташкент:Издательство«ФАН»Академии наук республики Узбекистан, 2009 г.С. 287.

5. Қодирова.Т.Ф. Санъат , архитектура ва шаҳарсозлик тарихи (Ўзбекистоннинг XX аср – XXI аср боши замонавий архитектураси). Тошкент— 2012.

6 .Кадырова Т.Ф. Современная архитектура Узбекистана. —Т.: 1974.

УЎК 902

АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДАГИ ХОРАЗМ ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАР АСОСИДА АРХЕОЛОГИК ЖИҲАТДАН ЎРГАНИЛИШИ

Ш.Х. Юсупов, тадқиқотчи, Урганч давлат университети, Урганч

Аннотация. *Ушбу мақолада Амир Темур ва Темурийлар даврида Хоразм ҳудудидаги савдо марказлари ҳамда аҳоли масканларида бунёдкорлик ишларининг олиб борилиши, қурилиш ашёларининг турлари, услублари, боғлар барпо этилишидаги ўзига хослик ва айрим гидроиншоотлар қурилиши ҳақидаги йилномачи муаллифлар томонидан берилган маълумотларнинг замонавий археолог-олимлар томонидан амалий жиҳатдан исботлаб берилганлиги баён этилади.*

Калит сўзлар: *Хоразм, Қўнғирот Сўфилари, Олтин Ўрда, Самарқанд, Шаҳрисабз, Ҳирот, Тошкент, Отамалик Жувайний, Вазир (Девкесган), Адоқ, Тирсак (Шемаҳақалъа), Бўлдумсоз, Урганч, Хива, Ҳазорасп, Оролбўйи, Тўрабек хоним мақбараси, Шоҳи Зинда ансамбли, гидротопоним.*

Аннотация. *В статье описывается информация о ведении строительных работ в торговых центрах и населенных пунктах Хорезма, о видах строительных материалов, методов постройки, особенностях создания садов и построении некоторых гидросооружений в период правления Амира Темура и тимуридов. Указанные данные, приводятся в трудах авторов-хронологов и базируются на суждения современных ученых-археологов.*

Ключевые слова: *Хорезм, Кунградские Суфиды, Золотая Орда, Самарканд, Шахрисабз, Герат, Ташкент, Атамалик Жувайни, Вазир (Девкесган), Адак, Тирсак (Шемахакалъа), Болдумсоз, Ургенч, Хива, Хазарасп, Приаралье, Мавзолей Турабек хонум, Ансамбль Шахи Зинда, гидротопоним.*

Abstract. *In this article, modern archaeologists have practically proved the information provided by the authors of the chronicles about the creative work in shopping centers and settlements of Khorezm region during the reign of Amir Temur and Temurids, types, methods of construction, peculiarities in the construction of gardens and construction of some hydraulic structures is given.*

Keywords*: Khorezm, Kungrad Sufis, Golden Horde, Samarkand, Shahrisabz, Herat, Tashkent, Otamalik Juwayni, Minister (Devkesgan), Adoq, Tirsak (Shemahaqal'a), Boldumsoz, Urgench, Khiva, Hazarasp, Aral mausoleum, Shahi Zinda ensemble, hydrotoponym.*

Хоразм - Темурийлар даври маданияти тарихининг кам ўрганилган саҳифаларидан бири, XIV аср сўнгги чораги ва XV асрдаги шаҳар маданияти тарихи бўлиб, бу муаммо Мустақиллик йилларигача бир ёқлама ўрганилиб келган. Бунинг асосий сабаби Амир Темурнинг Хоразмга юришлари масаласига ўтмишдаги тоталитар тузум давридаги мафкуравий қарашлардан келиб чиқиб, кескин салбий баҳо берилганлигидадир. Кўплаб совет даври адабиётларида унинг Хоразмга юришлари анъанавий феодал жамиятида кечган жараён сифатида, босқинчилик юришлари деб тушунтириб келинди.

Шу даврда нафақат Хоразм, балки Соҳибқироннинг марказлашган давлати ҳудудларидаги чекка вилоятлар ва элатлар тарихи бўйича чуқур объектив тадқиқотлар, илмий ишлар йўқ эди. Зеро, совет тадқиқотларида келтириб ўтилган, Хоразмнинг инқирозли ҳолати археологик тадқиқотлар натижасида ўз исботини топмади.

Расмий сарой тарихчиси Шарафуддин Али Йаздий таъбири билан айтганда: "Темур экин унадиган бир бўлак ернинг бўш қолишига йўл қўймаган", яъни "расмий тарихнинг ифода этишича, умуман экин етиштириш мумкин бўлган ер бекор ётмаган".[2.266] Амир Темур ва Темурийлар даврида шаҳарлар атрофида улкан боғлар барпо этилган. Уларда турли хилдаги дарахтлар ва гуллар етиштирилган[7.16-19].

Устюрт пасттекислигида жойлашган Девкесган-Вазир ёдгорлигининг "пастки шаҳар" қисмида сарой иншооти билан унинг атрофида крест (бут, салб) шаклидаги боғ-парк қурилишларининг жойлашуви С.П.Толстов раҳбарлигидаги Хоразм археологик экспедиция ходимлари тарафидан ўрганилган[10.300]. Бу боғ мажмуаси тўрт бурчак девор билан яхши мустаҳкамланган. Унинг ўртасида кўп хонали сарой қолдиғи жойлашган. Сарой атрофида олдинлари дарахтлар экилган хиёбонлар, тузув юргизилган кўндаланг йўлка хиёбонлар орқали ҳандасий (квадрат) шаклларга бўлинган ва ўнлаган ариқлар ўтказилган участкаларни кашф этган. Оқибатда квадрат шаклли тўрт бурчаклик қайтадан тўғри бурчакли тўртта тарҳга бўлинган. Улар ҳам ўз навбатида саккиз ёки янги квадратларга бўлинади.

Хоразм археологик экспедицияси тадқиқотчиси М.А.Орловнинг фикрича Девкесган – Вазир боғи XIV - XV асрлар билан саналанади[4.164]. Бу даврдаги боғлар икки хилда бўлган: биринчиси мунтазам режа асосида сунъий барпо этилган боғлар, иккинчи тоифадаги боғлар қўриқхонага ўхшаш бўлиб, табиий дарахтзорлардан фойдаланилган. Лекин буларда ҳам ободонлаштириш ишлари олиб борилган[8.16]. Оролбўйи, Хоразм воҳасининг қўшни чўл зонасига хос тез ўзгарувчан кескин континентал табиий иқлим шароитига мос иккинчи тоифадаги боғларни барпо этиш қийин. Шунинг учун асосан воҳада шаҳарлар атрофида боғларнинг биринчи типологик турини ташкил этиш авж олган. Жумладан, бу типдаги сарой-боғ қурилишлари Оролбўйи қалъаларида Хоразмшоҳлар давридан ҳам маълум бўлган. Тарихий йилномалардан бири Отамалик Жувайнийнинг “Тарихи жаҳонкушой” асарида Гурганж атрофидаги “Маишият қароргоҳи - Боғи Ҳуррам”ни эслаб ўтади (XIII аср). Хоразм археологик экспедицияси томонидан Жент боғ-парк, Адақ-Оқ қалъа, Шоҳсанам ва Ёрбакир ёнидаги боғлар аниқланган[5.156-167]. Лекин Амир Темур ва Темурийлар даврида Оролбўйи элатлари атрофида боғ-парк мажмуалари (Девкесган-Вазир) меъморий тарҳга амал қилган ҳолда, боғдорчилик илмига оид темурийлар даври тажрибасида умумийлаштириб қурилган.

Хоразмнинг шимоли-шарқий шаҳар маданияти нуқталарининг бири Бағдод ёдгорлиги. Бу ёдгорлик Кат каби кам ўрганилган. Гурганжда таъсис этилган вақф ҳужжатига асосланган академик Я.Ғ.Ғуломов Темурийлар даврида Бағдод (эски Кердор) канали ва шу номли қишлоқ-элатнинг мавжудлигини таъкидлайди[3.178]. Яъни бу топонимлар Шимолий Хоразмнинг чекка ҳудудларидан бири бўлиб, шарқий Орол бўйлаб Қуйи Сирдарё ҳавзасига кетган карвон йўлида жойлашган қишлоқ манзилгоҳларидан бўлган деган ўринли фикр туғилади. Бу фикримизни чап қирғоқ Сирдарё тармоқларидаги археологик тадқиқотлар ҳам тасдиқлайди.

Эски карвон йўллари ҳаракатда бўлди, янги иншоотлар қурилди, ҳунармандчилик ривожланди. Кейинги давр археологик тадқиқотларда Гурганжнинг Тошқалъа (Каан маҳалласи) деб номланган Амир Темур ва Темурийлар давридаги шаҳар марказидаги кўплаган ҳунармандчилик ва савдо жойлари, расталари очилди[2.467-497].

Қадимшуносlар томонидан ўрганилган XV-XVII асрларга тегишли савдо расталари, ҳунармандчилик маҳалласи Амир Темур юришларидан сўнг ҳам Гурганж савдо маркази бўлиб қолганлигидан далолат беради.

Шарафуддин Али Йаздийнинг “Зафарнома” асарида Соҳибқирон Хоразмга 1388 йилги бешинчи юриши вақтида Гурганждан қочган душманлари Илигмиш Ўғлон ва Сулаймон Сўфини орқасидан ўз аскарларини юбориб “Қумкент ва Қира йўлида жиҳод қилсин, мухолифга еткайлар” деб маълумот беради[11.119]. С.П.Толстов бу шаҳарни ёзма манбалардаги Терсек деб эслаб ўтади, Я.Ғ.Ғуломовнинг фикрича, Қумкент Шемахақалъа ёдгорлиги ҳисобланади[9.312]. Яъни академик Я.Ғ.Ғуломовнинг археологик ва манбашунослик тадқиқотлари Устюрт текислигида жойлашган ўрта аср шаҳри Шемахақалъа Қумкент эканлиги маълум бўлади. Хоразм шаҳарсозлик маданияти асосан Моваруннаҳрдан ташқарида Амир Темурга қарам бўлган чекка элатларнинг ривожланган савдо марказлари каби Темурийлар даври маданияти умумийлиги билан боғлиқ. Бунга танга ва мириларнинг Хивада топилиши Соҳибқирон асос солган дунёвий савдо алоқаларнинг Хоразм воҳаси шаҳарларини ҳам ўзига жалб қилинганидан дарак беради. Булардан бошқа Хоразмнинг Миздахкон, Гурганж, Девкесган ёдгорликларида ҳам Амир Темур ва Улуғбек тангалари учрайди.

Жумладан, Амир Темур Хоразмга 1379/1380 йиллардаги юришларидан сўнг Шаҳрисабз ва Бухорога Хоразмдан меъморлар ва қурувчи усталар жўнатган. Бу вақтда қурилган Шаҳрисабздаги Дор ус-Сиёдат (Ҳазрати Имом) мажмуасидаги Жаҳонгир мақбарасида мовароуннаҳрликлардан бошқа хоразмлик бинокор усталар ҳам қатнашган. Жаҳонгир мақбарасида ташқи кулоҳий гумбаз қиррали гардишга ўрнатилиб, ички тарафдан қовурғалар билан мустаҳкамланган. Бундай услуб ва умумий кўриниш Мовароуннаҳр меъморчилиги учун хос эмас, лекин Кўҳна Урганчдаги Қунғирот Сўфийлари (1360-1388) даврида қурилган ҳашаматли хоним мақбараси кўринишига ўхшаш[12.67]. Шоҳи Зинда ансамблидаги (Самарқанд) Қусам ибн Аббос мақбарасидаги уч қаватли сағана сирти турли рангдаги бўртма парчинлар билан қопланган.

Бухородаги Чашмаи Аюб ёдгорлигининг кулоҳий гумбази Мовароуннаҳр меъморчилигига хос бўлмай, Хоразм меъморчилигига хос бўлганлиги уни қуришда хоразмликлар иштирок этганлигидан далолат беради[6.78].

Умуман олганда ёзма манбалар, археологик тадқиқотлар асосида XIV-XV асрларда (яъни Темурийлар даври) Жанубий Орол бўйи, воҳа ҳудудида эски шаҳарлар Гурлан, Кат, Ҳазорасп, Хива, Ҳонқа, Гурганж, Вазир, Адоқ, Шемахақалъа, Терсек ва Қумкент қишлоғининг мавжудлигини кўрсатади. Хоразмнинг ғарбий ҳудудларидаги геоморфологик, археолого-топографик тадқиқотлар Вазир-Девкесган, Адақ (Оқ қалъа), Шемахақалъа, Бутентау, Узбой ва Сариқамиш атрофларида

Темурийлар даври шаҳар ва қишлоқлар анча кўп жойлашган ҳудудларнинг бири эканлигидан далолат беради.

Умуман, биз юқорида таъкидлагандек, Амир Темур ва Темурийлар даврида Хоразмда бунёдкорлик ишлари ташкил қилинди. Шимоли - ғарбий Хоразмда янги шаҳар маданияти босқичи - Темурийлар даври бошланди деб таъкидлаш мумкин. Бунга мисол сифатида Хоразмнинг XIV аср охири – XV асрга оид бир неча ёдгорликлардаги маданий қатлам, топилмалар, Темурийлар тангалари мавжудлиги, янги масжид ва мақбараларнинг қурилганлигини кўрсатиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч.Том. II. Часть I. - М.,1963.- С.266.
2. Вактурская Н.Н. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // ТХАЭЭ. – Том.II. – М.,1958.-С.467-497.
3. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.178.
4. Орлов М.А. Памятники садово – парковое искусство средневекового Хорезма // ТХАЭЭ. Том I. –М., 1952. – С.164.
5. Орлов М.А. Памятники садово – парковое искусство средневекового Хорезма // ТХАЭЭ. Том I. – М., 1952. – С.156-167.
6. Пугаченкова Г.А. Архитектурное наследие Темура. –Т., 1996. – С.78.
7. Пугаченкова Г.А. Садово-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура и Тимуридов // Труды САГУ. Новая серия, вып 23. Гуманитарные науки. Кн.4. История. – Ташкент, 1951;– Б.16-19.
8. Пугаченкова Г.А. Темурнинг меъморий мероси. – Т., 1996.-Б. 16.
9. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: изд-во МГУ, 1948. – С.312.
10. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: изд-во МГУ, 1948. – С. 300.
11. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома / Муҳаммад Али ибн Дарвиш Али ал-Бухорий таржимаси. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А. Аҳмад ва Ҳ. Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 119-бет.
12. Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // Известия ГАИМК. – Том.6, вып.2. – Л., 1930. – С.58-59; Пугаченкова Г.А. Архитектурное наследие Темура.-Т.,1996. – С.67.

УЎК 93/94

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ТЎЙ МАРОСИМЛАРИ ҲУСУСИДА

(Косон тумани мисолида)

Р.Қ. Юсупова, ўқитувчи, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, Тошкент

Аннотация. *Мақолада Қашқадарё вилояти тўй маросимларининг тарихи ва анъаналари ҳақида сўз юритилади. Хусусан, Косон туманида ўтказиладиган оилавий маросимларнинг бири бўлган, тўй маросимининг тарихий шаклланиш жараёнлари ва ўзига хос хусусиятлари ўрганиб чиқилган.*

Калит сўзлар: *анъана, тўй, томоша, маросим, ижро, маданият, жамият, санъат, фольклор.*

Аннотация. *В статье рассматриваются история и традиции свадебных обрядов в Кашкадарьинской области. В частности, на одном из семейных обрядов, проводимых в Касанском районе, изучены исторические процессы становления и особенности свадебного обряда.*

Ключевые слова: *традиция, свадьба, зрелище, церемония, испольнение, культура, общество, искусство, фольклор.*

Abstract. *The article deals with the history and traditions of wedding ceremonies in Kashkadarya region. In particular, one of the family ceremonies held in Kasan district, the historical formation processes and peculiarities of the wedding ceremony were studied.*

Keywords: *tradition, wedding, spectacle, ceremony, performance, culture, society, art, folklore.*

Халқимиз азал-азалдан орзу-ҳавасли, ҳар бир кувончли дамларини тўй-томошалар билан нишонлаб келган. Вақт ўтгани сари аҳоли сони кўпайгани ва ижтимоий ҳаётимизнинг глобаллашуви оқибатида замонавий тўйларнинг турлари ва шакллари ҳам пайдо бўла бошлади. Миллий анъаналаримиз ва урф-одатлар, турмуш тарзимизнинг хусусиятлари, ижтимоий-иктисодий ва экологик шароитлари билан боғлиқ бўлган ҳолда, ҳар бир вилоятнинг ўзига хос тўй маросимларининг унсурлари шаклланди. Энг аввало Ўрта Осиё, жумладан, Ўзбекистондаги кўп миллат вакиллари дусту-бирodорлик ва тотувликда истиқомат қилиб келмоқда. Ҳусусан, ўзбеклар, тожиклар, қирғизлар, қорақалпоклар, қозоқлар, туркманлар, татарлар ва.ҳ.к. Улар учун кўп болалик ва оила муқаддас тушунча ва асрий анъана ҳисобланади. Кўп болаликнинг ўзига хос хусусиятлари, оила-никоҳ муносабатлари, ахлоқ қонунлари, қариндош-уруғчилик алоқалари бўлади. Маҳаллий аҳолининг ижтимоий тараққиёти эса, турмуш тарзимизнинг барча жабҳалари таъсир кўрсатади.

Ҳақиқатан ҳам оила-никоҳ масаласи, оилалар сонининг купайиши, кўп болалик, аҳоли асосий қисмининг қишлоқ жойларида истиқомат килиши ўзбек тўй-тантаналарининг ўзига хослигини белгилайди ва уларнинг қадимий удумларини сақлашда, авлоддан-авлодга қолдиришда ижобий

анъана мавжуд. Шаҳар аҳолиси ўртасидаги тўй-тантаналар, урф-одат, анъана, удум, таомил ва маросимлар силсиласига нисбатан қишлоқ аҳолиси ўртасида сақланиб келаётган қадимий урф-одатлар, расм-русм, таомил, маросим ва бошқа одатлар талайгина фарқли жиҳатларга эга. Чунки, шаҳарларда тўй маросимлари сўнгги вақтлари ресторанларда ўтказилиши табиий равишда ижтимоий шакл сифатида қабул қилинади. Қишлоқларда эса, тўй томошалар қўни-қўшнилар ва маҳалла-кўйнинг фаоллиги асносида ўтказилади. Шу билан бирга, тўй тушунчаси ер юзидаги барча халқларда мавжуд. Буни ҳар бир халқ ўз урф-одатига мос қилиб нишонлайди. Бу маросимни ҳар бир хақк ўз тилида ўз иборалари билан ифодалайдилар. Аммо мазкур маросим қандай аталмасин, бу сўзлар замирида вақти чоғлик, қувноқлик, янги бахт маънолари уфуриб туради.

Никоҳ тўйи узоқ тарихга эга бўлиб, турли кўринишларда давом этиб келмоқда. Жамият тараққиёти босқичларининг ўзгариши ҳамда турмуш тарзининг ижтимоийлашуви билан никоҳ тўйлари ва уларнинг кўринишлари, у билан боғлиқ бўлган турли урф-одат, расм-русмлар, анъана маросимлар ҳам ўзгариб, замонамизнинг талабларига мослашиб боради. Сайқал топади баъзи хусуиятлари йўқолиб, янгилари пайдо бўлади. Бу ҳолатни никоҳ тўйларининг ҳар хил кўринишларда, замонга қараб, ўзгариб бораётганлигидан ҳам кўриш мумкин. Шуни алоҳида таъкидламоқ зарурки, ҳар бир нарса ҳам ўзининг ибтидосига, кульминациясига ва ниҳоясига эга, ана шундай тарзда ўсиб, ривожланиб, сўнг тараққий этиб, халқ ўртасидан ўзига муносиб ўрин олади. Шу боис никоҳ тўйларимиз ҳам улардан мустасно эмасдир.

“Никоҳ” сўзи арабча сўз бўлиб, эр-хотинликнинг шариат йўли билан қонуний расмийлаштириш, оилавий иттифоқ деган маънони билдиради. Никоҳ тўйлари республикамизнинг турли жойларида “никоҳ тўйи”, “ижоб тўйи”, “уй туширар тўйи”, “катта ялоқ қизартирар тўйи” деб номланган. Никоҳ тўйи ўзида ҳам бир қанча маросимлар мавжуд: уй кўрар (қиз кўрар), совчилик, сеп таҳлар, тўққиз бериш, (тўққиз товоқ), қиз оши (қизлар йиғини), келин тушириш, бақон тутиш, юз очди, келин салом, чорлар каби расм-русмлар мавжуд. Улар ҳозиргача халқимиз орасида сақланиб қолган ва амал қилиниб келинмоқда. Шуниси ҳам алоҳида қизиқиш уйғотади, вилоятларимизнинг тўйлари бири-биридан маълум даражада фарқ қилади.

Никоҳ – икки жинс вакилининг ўзаро розилиги асосида тўзилган иттифоқдир. Никоҳ оиланинг вужудга келишидан бирдан-бир асос бўлгани сабабли у фақат ахлоқ меъёрлари билангина эмас, шунингдек махсус қонун ҳужжатлари билан ҳам тартибга солинган[1:208]. Ўзбек халқи қадим замонлардан ўз ҳаёти давомида турли маросимлар ўтказган ва бу маросимларда Яратгандан яхши орзу-истакларнинг рўёбга чиқишини сўраган. Маросимлар халқ ҳаётининг таркибий қисми сифатида миллий урф-одатлар каби қадрланган [2:1]. Демак, халқимиз тўйни қадрлаган ва уни ўтказишни оддий ҳодиса сифатида қабул қилмаган. Қашқадарё воҳаси ҳам ўзининг гўзал табиати, мафтункор санъати билан ҳаммамизни қизиқтириб келган. Қашқадариё воҳасида ўтказилаётган никоҳ тўйлари ва тўйларда ижро этилаётган фольклор жанрлари, бир томондан, никоҳ тўйларида кенг ифода етилаётган жанрлар билан умумийлик касб этади. Айниқса, лапар, ёр-ёр, келин салом каби маросим лирикасининг жанрлари ана шулар жумласидандир. Иккинчи томондан, воҳадаги никоҳ тўйларида ижро этилаётган шундай жанрлар борки, улар фақат воҳа, қолаверса, қисман Бухоро, Сурхондарё, Самарқанд никоҳ тўйларида ҳам учрайди. Бундай жанрлар сирасига “обло-обло”, “келин ўтирсин”, “ҳазорали” кабиларни киритиш мумкин [3:118].

Аввало Қашқадарё ҳудудида ўтказиладиган никоҳ тўйлари фолклори оригинал ҳамда бетакрорлиги билан аҳамиятли. Иккинчидан, воҳа никоҳ тўйлари фолклори билан қанчалар уйғун ҳамда алоҳида эканлиги, яъни ўзига хослиги билан диққатга сазовордир [4:118]. Айниқса Косон туманида ўтказиладиган тўй маросимининг ўзига хослигига яъни, маданий, маънавий, ахлоқий, тарбиявий жиҳатларига алоҳида эътибор бериш зарур. Оилавий маросимлар этнопедагогикаси ва халқ ижодиёти билан уйғунлашиб кетган. Улар асрлар давомида ёш авлод маънавиятини шакллантиришда муҳим омил бўлган. Тарихан маълумки, Қашқадарёда воҳаси Косон тумани маросимларни ўтказиш жараёнида намоён бўладиган инсонпарварлик, меҳрибонлик, меҳмондўстлик, олижаноблик, иноқлик каби фазилатлар ёшлар тарбиясига ижобий таъсир этади. Қашқадарё воҳаси Косон тумани никоҳ тўйлари ҳам ўзларининг ташкилий қисмларидан бошлаб ниҳоясига етгунча, бир қатор босқичлардан ўтади. Шу боисдан, уларни ҳам катта уч боскичга бўлиб, таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ. Булар:

–тўйгача бўладиган урф-одат, анъана ва маросимлар;

–тўй вақтида ўтказиладиган анъана ва маросимлар;

–тўйдан кейин ўтказиладиган маросимлар.

Тўйгача бўладиган маросимларга эса, тарихий удумларимизга кўра ҳар бир оила, хоҳ ўғил бўлсин, хоҳ қиз, уларнинг жуда ёшлигидан бошлаб фарзандларига атаб сеп йиғадилар, кийим-кечак,

озиқ-овқат маҳсулотларни жамғариб, тўйга атаб мол-кўй боқиб юришга одатланганлар. Халқимиз "Олтидан қилсанг ортади, еттидан қилсанг етади" деган нақлга азалдан амал қилиб келганлар. Чунончи, ҳар бир хонадонда ўғил ёки қиз бола балоғат ёшига етганда ота-она, айниқса бува ва бувилар уларнинг бошларини иккита қилиш орзуси билан банд бўлади. Ўзларича атрофдан, қариндош-уруғлардан, таниш-билишлардан фарзандига муносиб қиз ёки уғил борлигини суриштириб, кўз остиларига олиб юради. Унинг кимлиги, насл-насаби, уй-жойи билан қизиққан. Буни удумларимизга кўра "Қиз кўрди", "қиз кўриш" деб юритилади. "Қиз кўриш" халқимиз орасида "Қиз кўриш" (қиз кўрди) номлари билан аталиб келинган. Бу одатга кўра қиз кўриш учун куёв тарафдан яқин кишилар қатнашган. Улар ҳовлима-ҳовли юришиб, қиз кўрганлар. Бу ишга бўлажак куёвнинг онаси катта ҳаёт тажрибасига эга бўлган, одам руҳиятини яхши тушунадиган, гапдон, эпчил-чаққон, халқ удумларини пухта биладиган, кишилар билан муомала қилишга устакор аёлларни танлаган.

Косон туманида ҳам балоғатга етган қизи бор хонадонларнинг кимлиги, рўзғор тутиши ва меҳмон кутиши, ўзларининг юриш-туришлари, хулқ-атвори, инсоний фазилатларини зимдан кузатадилар. Уй эгаларининг дастурхон солиш, уни тузатиш маҳорати, чой қуйишларидан бошлаб, ўчоқ боши ва ҳовлисининг тоза ва саранжомлигига ҳам разм солинади. Совчи келганда қизлар иложи борича уларга кўринмасликка ҳаракат қилган.

Шуни алоҳида таъкидламоқ керакки, "Совчи келди" удумини нафақат аёллар, балки эркаклар ҳам бажарган. Халқ оғзаки ижодининг намуналари бўлмиш достонларда ҳам айрим ҳолларда совчиликка эркакларнинг боришига гувоҳ бўлганмиз. Лекин, кўпчилик пайтларда қиз кўриш ва совчиликка бориш хотинларнинг иши бўлган. Совчи хотинларнинг қизнинг онаси билан суҳбати, қиз сўраш усуллари, тортишиши, ҳар бирининг ўз томонини мақташ одатлари халқ достонларида зўр бадиий маҳорат билан тасвирланган. Масалан, Алпомиш достонидаги Қоражоннинг онаси Барчинга совчи бўлиб борган жараёнини кўз олдингизга келтириб кўринг. Совчилар қизнинг уйига келганларидан сўнг "Қудачиликка келдик", "Қариндошчиликка келдик" деб таъзим қиладилар.

Айрим ҳолларда эса қизнинг кўча эшиги олдини супирадилар. Буларга жавобан қизнинг онаси ёки қизга якин кишилардан бири "Хуш келибсизлар", деб кутиб олишлари ва уйга таклиф килишлари одат бўлган. Одатдагидек, дастурхон ёзилиб, ҳол-аҳвол сўраганларидан сўнг меҳмонлардан бири ўзларининг мақсадларини айтади. Агар қизнинг онаси йигит томонни яхши билса, йигитни таниса, уларнинг оиласи ёкса "биз отаси, тоғалари билан бир маслаҳатлашайлик улар нима десалар шунга қараймиз" – деб, жавоб берганлар. Совчиларнинг биринчи келишларини айрим туманларда "эшик очди" деб ҳам атаган. Шу билан бирга, бошқа жойларда эса ўзгача атамалар билан номланган. Агар қизнинг онасига бўлажак куёв ва у томон ёқмаса, "Ҳали қизимиз ёш бошқасига унаштириб қўйганмиз" каби жавобларни берган. Совчиларни кузатаётиб қизнинг онаси "Хуш келибсизлар, яна келинглар" дея киноя қилса, аниқ жавоб олиш учун қайта келинглар, деган маънони англатган. Орадан икки-уч кун ўтгандан кейин совчилардан бири кизнинг уйига келган. Шунда қизнинг онаси ўз розиликларини билдиради ва асосий совчиларнинг келишини айтади. Бунда энди бир-икки эркак ва аёллардан ташкил топган совчилар келадилар. Шу куни олинган жавоб кўпгина жойларда "боши боғанди" атамаси билан юритилган.

Таомилга кўра келган совчиларга тугилган иккита нон ва иккита қатлама, бир рўмолча оқ рўмолга берилган. Совчи ушбу тушунчани куёвнинг онасига олиб бориб беради. Куёвнинг онаси эса тугунчадаги икки катламани синдириб, шу ерда тупланган кишиларнинг ҳаммасига улашиб чиқади ва уларга сизлар ҳам тўй кўринглар дея тилак билдирган. Икки нон билан рўмолчани эса совчига топширилган вазифани ўтагани учун тақдим қилади. Бу одат нафақат Косон балким, Қашқадарё вилоятининг қатор туманларида мавжуд. Ўзбекларда совчилар кичик, катта совчиларга бўлинади. "Кичик совчи"лар (кўпинча аёллар) ишни битириб қайтганларидан сўнг "катта совчи"лар тўй харажатларини ва айрим жойларда қалин миқдорини белгилаганлар.

Фотиҳа тўйи якунида ўзлари икки томоннинг келишувига кўра тўй ва никоҳ куни белгиланган. Фотиҳа тўйидан катта тўйигача бўлган вақтда қудалар томонидан товоқ қайтариш, "кўрпа солди", тўққиз, "қизоши" (қиз мажлиси) каби маросимлар ўтказилади. Тўй куни ёки тўйдан кейин бир кун олдин қизнинг отасиникида никоҳ маросими ўтказилади. Куёв яқин жўраси, тоғаси билан бўлажак келин хонадонига боради. Имом бўлажак куёвга эр-хотинликнинг бурч ва ҳукуқларини тушунтиргач, қизнинг янгаси орқали рухсатини олиб кейин, "Хутбаи никоҳ" ўқиган. Келинни куёвникига олиб кетгунча ўтказилган "келин яширар", "тўш ташлар", "ит ириллар", "чироқ айлантирар", "кампир ўлди", "кампир туш кўрди", "соч сийпатар", "ойна кўрсатар", "қўл қисар", "тўшак тўлдирар", каби бир қатор удумлар ўтказилган ва уларнинг айримлари ҳозир ҳам сақланиб қолган[5:37].

Бу тадбирлар давомида авлоддан-авлодга ўтиб келаётган халқ одатлари, фольклор жанрлари (ўлан, лапар, ёр-ёрлар, маросим қўшиқлари), рақслар, ўйин-мусобақалар, дуолардан фойдаланиш ёшларнинг маънавий камол топиб улғайишида катта аҳамиятга эга[6:129].

Келин-куёв унаштирилгандан кейин ҳар икки томон ҳам тўй тараддудига киришганлар, ўз навбатида қариндош-уруғлари, яқин кишиларини тўплаб, тўйга нималар кераклигини, тўй ўтказиш тартибини белгилаб олганлар. Қариндошлари ва якин кишилари етишмовчиликларни аниқлаб олиб беғараз ёрдам бериши мумкин бўлган. Шундан сўнг куёв томонидан бериладиган нарсалар, қалин пули келишиб олиниб, айтилади. Келиннинг ўйига белгиланган куни куёв томондан келишилган миқдордаги нарсаларни 6-8 киши бўлиб олиб борган. Шу билан бирга келинга, ота-онасига, ака-укаларига сарпо-суруқлар, кўрпа-тушаклик матолар, дастурхон ва жойнамоз каби турли нарсаларни совға сифатида ҳадия қилган. Куёв томондан келган меҳмонларни келин томондагилар очиқ чеҳра билан кутиб олиб, уларнинг ҳурматини жойига қўйиб, ясатилган дастурхон атрофига тавозе билан таклиф қиладилар. Меҳмонлар ўтиришгач оқ фотиҳа тортиб икки ёшга яхши тилаклар билдиради. Фотиҳа тўйи олиб келган меҳмонлар жойлашиб олганларидан сўнг, қуда томонни бошланган тўйлар билан яна бир бор муборакбод қилади. Меҳмонларнинг қўлларидан сув олиниб, уларнинг олдига ширинсув (шарбат) олиб келади. Шарбат беришдан мақсад ҳар икки томон бошлаган ишнинг охири ҳам ширинлик билан ўтсин, ёшларнинг турмушлари ширин-тотли бўлсин, деган маънода.

Меҳмонларнинг ҳурмати учун маҳалла ёки қишлоқ оқсоқоллари ва эл-юртнинг мўътабар кишилари таклиф этилади. Ана шундан кейингина олиб келинган нарсалар ўртада очилиб, тўпланганларга кўрсатилади. Агар олиб келинган нарсалар мақсадга молик деб топилса, кам-кўсти бўлмаса, фотиҳа тўйи бошланиб, тўпланган меҳмон ва мезбонларга ош-нон, шира шарбатлар тортилган. Зиёфатдан кейин барча тўпланганлар, маҳалла-қишлоқ мулласи раҳнамолигида икки ёшга бахтли умр, тинч-тотувлик ва серфарзандлилик тилаб, уларнинг ҳаққига дуо уқийдилар. Мазкур воқеа ана шу тантанали фотиҳа ўқишдан олинган бўлиб, кейинчалик, "фотиҳа тўйи" шаклида машҳур бўлиб кетган. Ушбу тўйга тўпланган меҳмонлар ва мезбонларга совғалар инъом этилган. Айникса куёв томондан келган кишилар яхшигина сийланганлар, уларнинг куёвга яқинлиги, ёши улуғлиги ва бошқа хислатларига кўра совғалар берилган. Икки орада бўлажак тўй ва бошқа маросимларни ўтказиш, уларда бўладиган олди-берди масалаларини ҳам ҳал қилиб оладилар. Бу маросимларни Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ туманларида "Тўк-қиз бичар" номи билан юритганлар. Кашкадарё вилоятининг Қамаши, Чироқчи каби туманларида мазкур маросим "Фотиҳа ўқир тўйи" атамаси билан юритилган [7:107].

Косон туманида эса бу маросимлардан кейин куёв қизни отга миндириб олиб кетади. Куёвнинг уйи олдига ёқилган оловдан отда айлантирилиб ўтилади, сўнг уларни хотинлар ўраб уйга олиб киради ва келинни куёвникига олиб кетаётганларида келиннинг қўшнилари, яқинлари, маҳалла ёки қишлоқ, қўшни маҳалла ва қишлоқ йигитлари араванинг йўлини тўсиб, совға-инъомлар талаб қилади. Бунинг учун йўлга арғамчи тортиб тўсади ва буни Қашқадарёда "Пута", "Пута тутиш", "Хонтаёқ" деб номлашган. Косон туманида тўйнинг эртасига эрталаб куёв билан келин ўринларидан турадилар. Келин келаётганда бошига солиб келган материалдан ўзи учун алоҳида бош кийим "Лачак" тикади. Тўйга келган меҳмонлар ҳамда қариндош-уруғлари тўпланганларидан кейин машҳур "бош боғлаш" маросими ўтказилади. Бунда келиннинг бошига ва устига хотинлик кийимини кийдиради. Бу жараёнда бир идишда ун олиб киради ва келиннинг қўлига ун солиш жараёни бўлади. Бу жараённи бажараётган аёл келиннинг қўлини унга теккизади ва "умринг ун каби оқ бўлсин, қўлинг хамирдан чиқмасин", деб такрорлаб туради. Бунинг яна бир мажозий ҳусусияти ун тўкин-сочинлик ва тўқчилик рамзи ҳисобланади.

Ёш оиланинг ризқи мўл бўлсин каби тилаклар ҳам билдирилади. Шундан кейин келиннинг қўлига ёғ бериб, қизиб турган ўчоққа қўйишни сўрайди. Бу жараён давом этаётганда ҳам "қўлинг ёғлик бўлсин" деб такрорлаб турган. Бу каби удумларни кўплаб келтирсак бўлади. Энг асосийси ўларнинг туб моҳиятида оилани эъзозлаш, улуғ билиш, "эр-хотин қўш ҳўкиз" мақоли асосида оилавий муносабатни ёшлар онгига сингдириш ғояси ётади. Яна бири, Косон туманида никоҳ пайтида нон ушлаб турадилар. Никоҳдан сўнг эса уни иккига бўлиб, ярмини куёв томон, ярмини келин томон вакилларига берганлар. Улар эса бу нонни бир-бирлари билан жипслаштирувчи куч сифатида эъзозлаб, бир парчадан бўлиб еганлар[8:152].

Хулоса ўрнида Қашқадарё вилояти тўй маросимларининг тарихи ва анъаналари ўзига хос эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтсак бўлади. Косон туманида ўтказиладиган тўй маросимининг тарихий шаклланиш жараёнлари бўлса юқорида келтириб ўтканимиз каби қизиқарли тарихга эга. Эндиликда уларни чуқур ўрганишимиз ва ёшлар тарбиясида кенг қўллаш орқали миллийлигимнинг сақланиб қолишига катта ҳисса қўшган бўламиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Тўраев М. Миллий маданиятимизнинг асрий анъанаси. "Фольклор, тил ва маданият масалаларини илмий ўрганишда фан ва инновациялар уйғунлиги". Илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент, 2021, 501-бет.

2. http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/uzbek_national_falklore

3. Давлатов С. Ўзбек маросим-удумларининг этноҳудудий хусусиятлари. –Тошкент, 2019. ЎзР Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси. 124-б

4. Ўша ерда

5. С.Маллахонов. Ўзбекистон номоддий маданий мерос рўйхати. Т.: Камин-Пресс МЧЖ, Адабиёт Учқунлари МЧЖ. Ҳилол Нашр МЧЖ босмахонаси. –2016.72 б

6. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент.: Шарқ, 2002. – 240 б.

7. С.Маллахонов. Ўзбекистон номоддий маданий мерос рўйхати. Т.: Камин-Пресс МЧЖ, Адабиёт Учқунлари МЧЖ. Ҳилол Нашр МЧЖ босмахонаси. –2016.72 б

8. Ҳ.Исмоилов. Ўзбек тўйлари. –Т.:Ўзбекистон, 1992.–189 б

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

UDC 81-26

WORD-FORMATION MODELS IN NETWORK SOCIOLECT IN THE SPEECH OF ENGLISH-SPEAKING YOUTH

N.M. Akramova, student in Doctoral Studies (PhD), Ferghana State University, Ferghana

Аннотация. *Мақолада инглиз тилида сўзлашувчи ёшлар нутқида тармоқ социолектининг сўз шаклланишининг энг машҳур усуллари кўриб чиқилди. Социолектизмларга мисоллар муаллиф томонидан Инстаграм интернет ресурсидан олинган. Таҳлил натижасида инглиз тармоқ социолектининг сўз ясалиш йўллари ҳақидаги маълумотлар умумлаштирилди ва сўз ясалишининг энг кенг тарқалган моделлари аниқланди. Тадқиқот қиёсий ва контекстли таҳлил усулларидан фойдаланган ҳолда амалга оширилди.*

Калит сўзлар: *инглиз тили, ёшлар социолекти, сўз ясалиш моделлари, аффиксация, кесиш, аббревиация, транспозиция.*

Аннотация. *Статья рассматривает самые популярные способы словообразования сетевого социолекта в речи англоязычной молодежи. Примеры социолектизмов были взяты автором из интернет-ресурса "Instagram". В результате проведенного анализа были обобщены данные о способах словообразования английского сетевого социолекта и выявлены наиболее частотные модели словообразования. Исследование было выполнено сравнительно-сопоставительным и контекстуальным методами анализа.*

Ключевые слова: *английский язык, молодежный социолект, словообразовательные модели, аффиксация, усечение, аббревиация, транспозиция.*

Abstract. *The article considers the most popular ways of word formation of the network sociolect in the speech of English-speaking youth. Examples of sociolectisms were taken by the author from the Internet resource "Instagram". As a result of the analysis the data on the ways of word formation of English network sociolect were summarized and the most frequent models of word formation were identified. The research was carried out by comparative and contextual methods of analysis.*

Key words: *English, youth sociolect, word formation patterns, affixation, truncation, abbreviation, transposition.*

Introduction. In the modern language sociolect can be considered an independent phenomenon. This fact is due to its wide spread in the speech of certain social groups and a fairly high level of recognition [1].

Sociolect as a part of the language vocabulary is not a stable and clearly structured component, its content is constantly changing and replenished with new elements due to changes in the socio-cultural, political, economic life of society [2]. Nevertheless, sociolectisms remain an integral part of any language, characterizing its development.

The study of youth sociolect and ways of forming new words in it helps to trace the dynamics of language development and trends in the formation of language consciousness and socio-cultural priorities of today's youth [2], in our study - the modern English youth.

Discussion. The process of word formation of non-standard English vocabulary includes the following important models: affixation; assignment of a new meaning to a literary word; truncation; word formation; abbreviation; transposition [5].

Let us examine in detail each of the methods highlighted. Most of the words belonging to the non-standard register are formed by the principle of affixation. The affixal method is the most productive way of word formation not only in literary language, but also in colloquial vocabulary. For example, the popular word "*unsee*" is formed by adding to the verb "*see*" the negative prefix "*un*", resulting in a new word - "see, discern", which is used in the same meaning in Russian -"разглядеть, рассмотреть". The main peculiarity of the affixal method can be called its tendency to form new words together with already known abbreviations, such as formed by adding the past tense ending "d" to the abbreviation "*LOL*": "*I lol'd*" can be translated into Russian with the verb "орать", which due to changes in language acquired a new meaning "I yelled" - "Я поорал", i.e. laughed.

In English sociolect, as in literary language, the prefix *de-* is added to the base of the verb, which usually means "to deprive" what is indicated by the base of the verb: *to dedigitate* – "перестать бездельничать" - "to stop loitering", *to de-bag* – "снять брюки" - "to take off your pants", etc.

A particularly productive method is suffixation, which consists in creating a new word by adding suffixes. Suffixes are predominantly used to create a stylistic marking of non-standard vocabulary. For example, a popular suffix at the moment is "*ie*": "*selfie*", where the suffix "*ie*" is added to the base "*self*" –

"фото себя" - a photo of yourself; by analogy, "*homie*" is translated as "друг, приятель, братан" - friend, buddy, bro; "*baddie*", which is translated into Russian as "злодей" - villain and "*nightie*" – "женская ночная рубашка" - a woman's nightgown.

The suffixes *-ress* and *-ette* in English sociolect are quite often combined with nouns and express only the feminine gender, so: *chiselette* – "женщина, стремящаяся заставить женить на себе состоятельного мужчину" - "a woman endeavoring to make a wealthy man marry her", *chubette* – "полная девушка, толстуха" - "full girl, fat girl", *gigglette* – "неумная, но внешне привлекательная девушка" - "unintelligent but outwardly attractive girl", *wolfette* – "игривая, кокетливая девушка" - "playful, coquettish girl, etc.

The second most popular after affixation is the inclusion of a new meaning. As an example of such inclusion in an existing word in English is the noun "*joint*". The dictionary gives the following definitions: "place of connection, seam" and the second meaning is "joint". Mainly found in medical literature, the word is used in Internet sociolect to mean "*jail; a marijuana joint*" - «тюрьма; самокрутка с марихуаной». For example: "*Bro got back in joint*" - «*Братан опять угодил в тюрягу*».

Truncation is the most active way of forming new words in youth sociolect. New words are formed by shortening a word or even a word combination; the formed word or word combination is read by the initial sounds of the words, for example, "*fam*" - family, "*rep*" – reputation, "*24/7*" - 24 hours a day, seven days a week.

Word compounding is the principle by which two independent words are combined, for example, "*face + palm*", which is translated into Russian with slight modifications "рука лицо". This method is carried out by combining two bases into one more complex word. Complex words can include not only nouns, but also adjectives and verbs [8].

For example, in the language there are compound nouns that are formed through the addition of a noun and an adjective, such as "*deadlock*" – "тупик" – dead end or "redneck" - "деревенщина" - hillbilly ; through the addition of a verb and a noun, compound nouns can be formed: "*chatterbox*" – "болтун"; through the addition of a noun and an adverb, many new words are formed in English such as "*comeback*" – "возвращение", "*chipskate*" – "скряга"; compound nouns formed through the addition of two nouns: "*breadwinner*" – "кормилец семьи", it can be used in relation to both men and women, "*homebody*" - любитель посидеть дома, "*bullshit*" - "хрень, ерунда"; there are also examples of combining a verb and preposition: "*login*" – "залогиниться". The colloquial vocabulary is also enriched with verbs through the compounding of two nouns: "*sweet-talk*" – "уламывать"; compound adverbs formed by combining a noun and an adverb: "*awesome*" – "круто, потрясно".

Another productive way of word formation is abbreviation [6]. The Internet is a network of instant exchange of large amounts of information, in accordance with network needs there is a need to transfer information very quickly and in a compact form, while also there is need to preserve the content. It is for this reason that letter abbreviations are most popular in online slang, such as "*OMG*" – "Oh My God!" – "О, боже мой!" The abbreviation "*PHAT*", which stands for Pretty Hot And Tempting, is used to describe a beautiful, flamboyant girl. In addition to letter abbreviations, syllabic abbreviations are also found in the online language. For example: "*V-log*" is short for "video-blog". This type of abbreviation is not as popular on the Internet as the letter abbreviation.

Acronyms and incomplete initials in youth sociolect like *b-fool* – "болван, идиот" - "dummy, idiot" < bloody fool, *tommy k* – "кетчуп " - "ketchup" < tomato ketchup, etc.

Transposition is characterized by the way of verbalization, and mostly there is a verbalization of proper names. Both in Russian and English online sociolectisms can be formed from the names of sites, applications, programs, and mean to perform some action with the help of this site, program. For example, "*to google*" – "гуглить" - to search for information in the search engine "Google"; "*to instagram*" – "инстаграмить" - to post photos to "Instagram"; "*to photoshop*" – "фотошопить" - to process photos with the help of "Photoshop".

It is impossible not to mention the method of adjectivation, which is the transition of participles, verbs into the section of adjectives. For Internet sociolect this method is quite popular: "*photoshopped*" – "отфотошопленный", i.e. processed with the help of "Photoshop" program; "*goggled*" – "погугленный" - found with the help of "Google" search engine.

Conclusion. Thus, new words are formed and get into youth sociolect in many different ways. The article under discussion examined the most popular and productive word-formation models at the moment, the priority ones being word formation and the inclusion of new meaning, with the help of which the composition of colloquial English is replenished.

New words emerge to save space and time or to express expression, and as needs grow, so does the demand for new linguistic forms. Some sociolectisms come and go, some remain and even move into the

literary norm. The emergence of new words and phrases is the subject of careful study by linguistic scholars, as there is a continuous development of the language. It is important to note that the described models of word formation of network sociolect in general depend on the needs of native speakers.

REFERENCES:

1. Akramova N.M. , Burkhonova G.G. The study and description of a youth sociolect. LXIII international correspondence scientific and practical conference «European research: innovation in science, education and technology». London, United Kingdom. 2020. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42851070

2. Akramova N.M., Davlyatova G. N. Reasons of new words formation in youth sociolect. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 6. Issue: 1. January 2021. URL: https://www.eprajournals.com/jpanel/upload/202am_7.EPRA%20JOURNALS-6045.pdf

3. Davlyatova G.N., Akramova N.M. Molodyozhnyj sociolekt – odna iz sostavlyayushchih processa razvitiya yazyka. // Sbornik (statej i materialov) I mezhdunarodnoj onlajn nauchno-prakticheskoj konferencii na temu «Vazhnost' ispol'zovaniya innovacionnyh metodov v obuchenii inostrannyh yazykov i problem perevoda». Fergana, 2020. - S.38-41.

4. Homyakov V.A. Nestandartnaya leksika v strukture anglijskogo yazyka nacional'nogo perioda. Avtoref. dokt. Dis. … kand. filol. nauk. – L., 1980.

5. Kubryakova E. S. Osnovy morfologicheskogo analiza. –M.: Nauka, 1974.

6. Limarova E. V. Son L. P. Internet-sleng: slovoobrazovatel'nye processy (na materiale anglijskogo i russkogo yazykov). Chelyabinsk: 2018. 111-119 s.

7. Nikitin M. V. Osnovy lingvisticheskoj teorii znacheniya / M.V. Nikitin.—M., Vysshaya shkola, 1988.— 168 s.

8. Tambovceva K. D. Sposoby slovoobrazovaniya v amerikanskom molodezhnom slenge. M.: 2018. 60-67 s.

9. Slyusareva K. V. Sleng kak yavlenie v sovremennoj lingvistike v kontekste perevoda. Luganskij nacional'nyj universitet imeni Tarasa SHevchenko, 2017. 25 s.

10. Voloshin YU. K. Sleng i perevod. Perevod i sopostavitel'naya lingvistika. M.: 2017. 26-28 s.

UDC 81-13

A REVIEW OF GERMAN GRAMMAR TENSES

N.M.Aslonova, Master, Bukhara State University, Bukhara
Z.N. Djumaniyazova, teacher, Ma'mun University, Khiva

Abstract: *the article discusses different point of view on the differences between English and German grammar in text, features of two languages,*

Keywords: *grammar, umlaut, gender, verb, tense, text, narrative past*

Abstract: *the article discusses different point of view on the differences between English and German grammar in text, features of two languages,*

Keywords: *grammar, umlaut, gender, verb, tense, text, narrative past*

Abstract: *the article discusses different point of view on the differences between English and German grammar in text, features of two languages,*

Keywords: *grammar, umlaut, gender, verb, tense, text, narrative past*

There are three inherent temporal divisions in reality: present, past, and future. In English, the term time is used, but in German, the term Zeit is used. However, in different languages, the grammatical reflections of the three time dimensions varies, as does the quantity of these grammatical reflections. The grammatical term tense is used in English, Tempus (Aktionszeit) is used in German. The tenses are used to describe not just the past, present, and future time dimensions, but also the progress or completion of an event, the repetition of an event, simultaneity, and the sequence of occurrences.

Although the simple past tense (Imperfekt) and the present perfect tense (Perfekt) are used to communicate about past occurrences in both English and German, there are some significant distinctions in how each language employs these tenses. See the links below for more information on the structure and syntax of these tenses. We'll go through when and how to utilize each past tense in German in this section.

We'll start with the "simple past" because it's straightforward. It's called "simple" because it's a one-word tense (hatte, ging, sprach, machte) rather than a compound like the present perfect (hat gehabt, ist gegangen, habe gesprochen, haben gemacht). To be precise and technical, the Imperfekt or "narrative past" tense refers to a past event that is not yet entirely accomplished (Latin perfect), but I've never seen how this applies to its practical use in German. However, it's sometimes helpful to think of the "narrative past" as a term for a set of related occurrences in the past, i.e., a story. This is in contrast to the present perfect, which is used to represent individual events in the past (technically).

The simple past, narrative past, or imperfect tense, which is seen mostly in books and newspapers, is sometimes described as the more "formal" of the two primary past tenses in German. It is used less in speech and more in print/writing. With a few notable exceptions, it is therefore more vital for the average learner to recognize and read the simple past than it is to utilize it. (Helping verbs such as have, sein, werden, the modal

verbs, and a few others, whose simple past tense forms are frequently employed in conversation as well as written German, are examples of such exceptions.)

There are various English counterparts to the German simple past tense. Depending on the context, a statement like "er spielte Golf" might be translated as "he was playing golf," "he used to play golf," "he played golf," or "he did play golf."

In general, the less the simple past is used in conversation the further south you travel in German Europe. "Ich bin in London gewesen," rather than "Ich war in London," is more common in Bavaria and Austria. ("I was in London," says the narrator.) They see the simple past as more distant and frigid than the flawless present, but you shouldn't get too caught up in such subtleties. Both are right, and most Germans are ecstatic when a foreigner can communicate in their language at all.

The present perfect is a two-word compound tense made up of an auxiliary (helping) verb and the past participle. It gets its name from the fact that the auxiliary verb is employed in the "present" tense, as well as the term "perfect," which is Latin for "done/completed," as we explained earlier. (The past perfect [pluperfect, Plusquamperfekt] employs the auxiliary verb's simple past tense.) Because of its major use in conversational, spoken German, this German past tense form is sometimes known as the "conversational past."

Because the present perfect, also known as the conversational past, is frequently employed in spoken German, it's crucial to understand how it's constructed and used. The present perfect is not used exclusively in spoken German, just as the simple past is not used exclusively in print/writing. In newspapers and novels, the present perfect (and past perfect) are also used, but not as frequently as the simple past. The German present perfect is used to signify that "something is finished at the time of speaking" or that the results of a completed past event "carry into the present," according to most grammar texts. That's essential to know, but it's more necessary to understand some of the key differences between German and English present perfect usage.

If you wish to say in German, "I used to live in Munich," for example, you can say, "Ich habe in München gewohnt." - a finished event (you no longer live in Munich). On the other hand, because you're talking about a current event, you can't use the perfect tense (or any past tense) when you say, "I've lived/have been living in Munich for ten years" (you are still living in Munich). In this case, German uses the present tense (with schon seit): "Ich wohne schon seit zehn Jahren in München," or "I have lived in Munich for 10 years." (This is a common grammatical error made by Germans when translating from German to English.

English speakers should also know that a German present perfect phrase like "er hat Geige gespielt" can be translated into English as "he has played (the) violin," "he used to play (the) violin," "he played (the) violin," "he was playing (the) violin," or even "he did play (the) violin," depending on the context. In fact, it would be more accurate to translate a line like "Beethoven hat nur eine Oper komponiert" into the English simple past, "Beethoven composed just one opera," than than the English present perfect, "Beethoven created only one opera." (The latter implies, mistakenly, that Beethoven is still alive and writing.)

REFERENCES:

1. Рузиев Я.Б. Немис тили келаси замон шаклларининг аниқловчи эргаш гапларда қўлланиши, Германистика вароманистиканингЎзбекистонда тараққиёти ҳамда келажаги. Респ. илмий амалий конф. –Бухоро: БухДУ,2008. – С.251-252

2. Ruziev Ya.B. General principles of expressing transpositions of the german verb tense forms LangLit: An International Peer-Reviewed Open Access Journal; - India, Vol. 4, Issue 2, November 2017; p. 186-192

3. Mukhammadovna, A. N. (2021). Comparison of Verbal Category of Tenses in English, German and Uzbek.

4. Рузиев, Я.Б. (2018). Текстовая характеристика выражения будущего времени в немецком языке. *Modern scientific challenges and trends*, 135.

5. Mukhammadovna, A. N. (2022). The usage of german grammar tenses in text. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 287-289. Retrieved from http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/112/95

UO'K 81-13

O'ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARIDA PEDAGOGIK TERMINOLOGIYANING STRUKTUR - SEMANTIK TAHLILI

M.A. Atadjanova, o'qituvchi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek, rus va ingliz tillarida pedagogik terminologiyaning struktur-semantik tahlili haqida fikr yuritiladi. O'zbek, rus va ingliz tillarining so'z yasovchi tipologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida murakkab tuzilmali atamalarni tasniflash amalga oshirildi.*

Kalit so'zlar: *Tilshunoslik, so'zning semantik tuzilishi, metaforik rivojlanish kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy, ko'p ma'noli so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, kontekst, qiyosiy-tipologik, struktur-semantik tahlil, pedagogik atamalar*

Аннотация. *В данной статье рассматривается структурно-семантический анализ педагогической терминологии на узбекском, русском и английском языках. С целью определения типологических особенностей словообразования узбекского, русского и английского языков была проведена классификация сложноструктурных терминов.*

Ключевые слова: *Лингвистика, семантическая структура слов, метафорическое развитие, когнитивные, прагматические, лингвокультурологические, многозначные слова, слова с противоположным значением, контекст, сравнительно-типологический, структурно-семантический анализ, педагогические термины.*

Abstract. *This article discusses the structural and semantic analysis of pedagogical terminology in Uzbek, Russian and English. The classification of complex structural terms was carried out in order to determine the typological features of word formation in the Uzbek, Russian and English languages.*

Key words: *Linguistics, semantic structure of words, metaphorical development, cognitive, pragmatic, linguoculturological, polysemantic words, words with opposite meanings, context, comparative-typological, structural-semantic analysis, pedagogical terms.*

Jahon tilshunosligida so'zning semantik tuzilishi, bir so'z ichidagi qarama-qarshi ma'nolardagi metaforik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari tilshunoslikning kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy yo'nalishlar doirasida tadqiq qilinmoqda. Binobarin, ko'p ma'noli so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar tarjimasi, shuningdek, ularning turli tizimli tillarda konteks bo'yicha ekvivalenti muammolari, so'zlarning ko'p ma'noligini o'rganish enantiosemiya bilan chambarchas bog'liqlikda amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, tillarni qiyosiy-tipologik jihatdan chuqur tadqiq etish, ko'p ma'noli va qarama-qarshi ma'noli so'zlarning semantik belgilarini tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlarni ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik yo'nalishda olib borish lozimligi talab etilmoqda. Turli tizimli tillarda enantiosemiyaning til va nutqdagi semantik hamda strukturaviy xususiyatlarini har tomonlama o'rganish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatida hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelayotgani ijtimoiy muammolarni xorijiy tillar konteksida o'rganish istiqbollarini belgilab berdi.

Globallashuv davrida chet tillarni o'rganish tizimini, fan va ta'lim integratsiyasi jarayonlarini takomillashtirishning muhim omili sifatida qaralishi «nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak»ligi bilan belgilanadi.[1.]

Amalga oshirilgan tadqiqotning maqsadga muvofiqligi, shubhasiz, nazariy va amaliy terminologiyani yanada rivojlantirish uchun muayyan tarmoq terminologiyasining funktsional tashkil etilishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan lingvistik asarlarning ahamiyati bilan belgilanadi. Biz tanlagan mavzu jamiyat uchun hayotiy, birlamchi faoliyat sohasi bo'lgan pedagogika fani bilan bog'liq.

Maxsus lug'atni turli yo'llar va usullar bilan o'rganishingiz mumkin. Agar tadqiqot ob'ekti atamaning ma'nosi bo'lsa va maqsad bir necha tillarda uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bo'lsa, unda semantik-qiyosiy tahlil vazifasini bajarishga yordam beradi. "Semantika" atamasi birinchi marta 1897 yilda M. Breal tomonidan kiritilgan. Semantik-qiyosiy tahlil ancha keyin paydo bo'ldi. Ushbu tadqiqot usuli ikki bosqichdan iborat:

1) atamalar semantikasini bir tilda, keyin esa boshqa tilda o'rganish;

2) o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun bir nechta tillardagi atamalarning semantikasini taqqoslash.

Semantik-qiyosiy tahlil mantiqda qo'llaniladigan deduktiv usulga o'xshab, xususiydan umumiyga, atamalar ma'nosidan alohida atama guruhlari umumiy ma'nosiga va leksik-semantik kategoriyalarga o'xshaydi.

Semantik-qiyosiy tahlil - bu taqqoslangan tillarda umumiy va maxsusni aniqlash uchun ishlatiladigan usullar tizimidir. Bu tahlil eng oddiydan yani nomzodlarni ko'rsatish jarayonini o'rganishdan boshlanadi:

a) atamalarni shakllantirish;

b) atamalarning ma'nolarini shakllantirish.

Terminlarning shakllanishini o'rganishda semantik-qiyosiy tahlil atama yasalish usullariga, atamalarning morfologik tuzilishiga tayanadi, atama ma'nolarining shakllanishini o'rganishda esa bu tahlil etimologiya va til tarixi sohasidagi bilimlardan foydalanadi. So'ngra solishtirilayotgan tillarda nominatsiyaga asos bo'lgan xususiyatlar, ya'ni atamalarning ichki shakli ko'rib chiqiladi. Har bir ob'ektning ko'p belgisi bo'lib, nomda ob'ektning tasviri faqat bitta belgi orqali taqdim etiladi. Shuning uchun, turli tillarda, nominatsiya jarayonida atamalarning ma'nolarini shakllantirishda, sub'ektning turli xil atributlari olinishi mumkin va shunga mos ravishda bu tillardagi atamalarning ichki shakli ham har xil bo'ladi.

Semantik-qiyosiy tahlil terminlarni alohida lingvistik birliklar sifatida emas, balki til umumiy tarkibining to'laqonli qismi sifatida ko'rib chiqadi. Uning asosiy vazifasi individual terminologik tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini belgilash, atamalarning quyidagi funktsiyalarini taqqoslashdan iborat:

1) nominativ - fanning predmet va hodisalarini nomlash (terminlarni nomlash jarayoni) [2,27,103];

2) kommunikativ - muloqot. Bu yerda ushbu tahlil kontekstga asoslangan atamalarning ma'nolarini aniqlash va amalga oshirish doirasini o'rganadi. Ushbu atama ma'lum bir bilim sohasidagi mutaxassislar o'rtasidagi muloqot va o'zaro tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Semantik-qiyosiy tahlil atamalarning nafaqat to'g'ridan-to'g'ri (terminologik), balki majoziy aniqlangan ma'nosini ham o'rganadi;

1) evristik-trening. Mutaxassislikni egallash uchun atamalar vositadir. Ularni assimilyatsiya qilish jarayonini yengillashtirish uchun ushbu tahlil atamalarning leksik-semantik guruhlarini, umumiy ma'noga ega atamalarning "mavzuli" uslublarini ajratib ko'rsatadi. Bu atamalarni o'rganishda bir oz tartib keltiradi;

2) axborot - atamalar axborot manbai va ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish vositasidir. Semantik-qiyosiy tahlil leksik-semantik kategoriyalar va ularning paydo bo'lish sabablarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Agar atama polisemik bo'lsa, uning axborot boyligi ortadi

XX asrning 30-yillaridan terminologiya tilshunoslarning tadqiqot ob'ektiga aylandi. Terminologiyaning nazariy muammolarini muvaffaqiyatli ishlab chiqish, atamalar hamda atamalar tizimlarini yaratish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini shakllantirish uchun mo'ljallangan yangi "terminologiya" ilmiy fanining paydo bo'lishiga yordam berdi [2,28, 27].

Rus ilmiy terminologiyasining asoschisi D.S.Lote. U dastlab o‘zi ishlab chiqqan atama nazariyasiga tayangan holda terminologiyani tizimlashtirish, unifikatsiya qilish va standartlashtirish zarurligi to‘g‘risidagi masalani ko‘tardi [2,22,12]. Olim “ideal atama” haqida quyidagi g’oyani ilgari surgan: atama bir ma’noli, aniq, qisqa, sinonim va tarmoq ichidagi omonimlarsiz bo‘lishi, shuningdek, uyg‘un bo‘lishi kerak [2,21,36]. U o‘zlashtirilgan atamalarning o‘ziga xos tasnifini berdi va murakkab atamalarning imlo qoidalarini xulosa qildi [2,23,4]. Uning tadqiqotlari mahalliy ilmiy terminologiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. V.P.Danilenko D.S.Lottening fikri nomuvofiqligini isbotladi. [2,11,16]. U atamani maxsus so‘z sifatida emas, balki maxsus vazifadagi so‘z sifatida ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqladi. V.P.Danilenko asosan rus terminologiyasini o'rganish bilan shug'ullangan.

Tilshunos L.A.Novikov rus tilidagi so'zlarning semantikasini o'rganar ekan, maxsus lug'atning semantik-qiyosiy tahlilini bosqichma-bosqich amalga oshirishni taklif qildi: bir atamaning ma'nosidan ma'lum bir atama guruhining umumiy ma'nosiga qadar. U atamalarning leksik-semantik kategoriyalarini atroflicha o‘rganib, bu kategoriyalarga o‘z ta’riflarini berdi, shuningdek, atamalarning polisemiya, omonimiya, antonimiya va sinonimiyaning paydo bo‘lishining asosiy sabablarini ko‘rsatdi [2, 25,21].

E.G. Belyavskaya so'zning semantikasini o'rganishda so'zning semanik va semantik tuzilishini farqlashni taklif qildi. Uning nuqtai nazariga biz to‘liq qo‘shilamiz, sinonimlar matnda har doim ham almashtirish funktsiyasini bajaravermaydi va umuman olganda, almashtirish funktsiyasini sinonimlarning xususiyati deb hisoblash noto'g'ri. Uning til birliklarining semantikasini o‘rganib chiqqandan so‘ng kelgan bu xulosasi tarmoq ichidagi sinonimiyani o‘rganish uchun katta ahamiyatga ega, chunki u sinonimlar va ularning semantikasiga yangicha qarashga asoslanadi [2,3,110].

E.S.Kubryakova til birligining motivatsiyasi muammosini uning morfologik tuzilishi nuqtai nazaridan o'rganib chiqdi, unga turtki va motivsiz til birliklariga ta'rif berdi, shuningdek, atama hosil qilish usullaridan biri - morfologik (affiksatsiya) rasmiy operatsiya sifatida ko'rib chiqildi. , ular yordamida turtkilangan atamalar tuziladi [1, 19, 12].

Hozirgacha o’zbek tilida pedagogika fani terminologiyasini monografik tahlil qilishga bag‘ishlangan maxsus asarlar haligacha mavjud emas. Mavjud bo‘lgan ayrim tadqiqotlarda o’zbek tilining lug‘at va atamalari lingvistik tahlilining turli jihatlari ko‘rib chiqilganiga qaramay aspekt; so'zning tuzilishini o'rganish, hali ham yetarlicha o’rganilmagan.

Zamonaviy amaliy so'z yasalishida ma'lum bir leksik-semantik kategoriyaga xizmat qiluvchi so'z yasalish vositalarini aniqlash maqsadidan semantik tamoyilni tahlil qilish tendentsiyasi aniq namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham atama yasovchi affikslar tanlab tahlil qilinadi. Affikslarni ko'rib chiqib, ularning vazifalarini aniqlagandan so'ng, ayrim ishlanmalar va ilmiy tadqiqotlarning yakuniy qismida prefikslar mahsuldorlik darajasi bilan tavsiflanadi: mahsuldor, unumsiz, nounumsiz.

Ayniqsa, o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham pedagogika fanida affiksal so‘z yasash vositalarining umumiy va farqlovchi belgilari, shuningdek, ta’lim sohasidagi muayyan semantik kategoriya va atama guruhlarini ifodalovchi vositalar tahlil qilinib, aniqlanganligini alohida ta’kidlash lozim.

Ushbu tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarining so‘z yasovchi tipologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida murakkab tuzilmali atamalarni tasniflash amalga oshirildi. Shu nuqtai nazardan, biz so'zning quyidagi xususiyatlariga oid nazariyaga amal qilamiz:

1) morfologik tarkibi;

2) tarkibiy qismlarning munosabatlari xususiyatlari;

3) tarkibiy qismlarning sintaktik munosabati xususiyatlari.

Shunday qilib, zamonaviy terminologik tizimlarda atama-iboralar ustunlik qiladi, bu murakkab qo'shma tushunchalarni ko'rsatish, kasbiy ob'ektlar va tushunchalarni mohiyati ma'lum bo'lganligi sababli aniqlashtirish, o'rganilayotgan hodisalarning yangi qirralarini ochish zarurati bilan izohlanadi. “Terminal-iboralar “nominatsiya yaxlitligi” xususiyatiga ega va murakkab kasbiy tushunchalarning barqaror, standart takrorlanadigan tuzilishi bilan bog‘liqdir” [6, 79-80]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilishimiz mumkinki, iboralar shaklidagi atamalar nutqda ma’lum lingvistik qoliplar doirasida shakllanadi va asta-sekin leksik tizimga kirib boradi va shu bilan birga tilda, ayniqsa, adabiy tildan ilmiy kontekstda muntazam takrorlanish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Qiyoslanayotgan tillarda pedagogik atamalarining leksik-semantik yoritilishi o‘zbek va ingliz tillari terminlarining semantik jihatlarini tavsiflashga bag‘ishlangan. Pedagogika va ta’lim sohasidagi atamalarning leksik-semantik guruhlari (mavzuli tasnifi) tahlili asosida ingliz va o‘zbek tillarida mikromaydonni tavsiflovchi pedagogik atamalar bir necha alohida guruhlarga bo‘linadi.

Pedagogika atamalarining tuzilishi o`quv semantikasining mazmunli chegaralarini terminda aks ettirish bilan bog`liq. Zamonaviy ta'lim terminologiyasida batafsil terminologik birikmalar ustunlik qiladi.

Yangi atamalarning yo'naltiruvchi xususiyatlarini o'rganish ta'lim sohasidagi asoslantirilgan atamani idrok etish osonroq, kontseptual va terminologik tizim bilan yaxshiroq bog'langan, tugatuvchi tushunchaning chegaralarini aniq belgilaydi degan xulosaga olib keladi, ya'ni. kontseptsiyani adekvat idrok etishga e'tibor qaratadi, yuqori darajadagi funksionallikni ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, ta'lim sohasi muddatiga qo'yiladigan talablardan biri uning lingvistik ifodasining motivatsiyalangan mohiyatiga rioya qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagiPF-4947-son “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son Farmoni.

2. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. М.: Наука, 1974.- 367с.

3. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. - М.: Высшая школа, 1972.- 370с.

4. Беляевская Е.Г. Семантика слова.- М.: Высшая школа, 1987.-126с.

5. Бельчиков Ю.А. Интернализация терминов. - М.: Высшая школа, 1974.- 240с.

6. Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание- М.: Просвещение, 1989. - 416с

7. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь: Для студ. высш. и сред. пед. учеб. заведений. —М.: Издательский центр «Академия», 2000. 176 с.

8. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. -Тошкент: Фан, 2002. -168 б

UDC 808.3

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS OF HUMAN EMOTIONAL STATE IN ENGLISH

Sh.Farmonova, Master's Student, Karshi State University, Karshi

Annotatsiya. *Tuyg'ular insonning eng murakkab tizimlaridan biridir. Bu maqolada ingliz tilida insoniy tuyg'ulardan biri bo’lgan, ruhiy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qayg'u hissiyoti frezeologik birliklar orqali ifodalanadi.*

Kalit so'zlar: *inson hissiyotlari, frazeologik birliklar, frazeologik ma'no, barqaror birikma*

Аннотация. *Эмоции являются одной из самых сложных систем человека. В данной статье представлена одна из фундаментальных человеческих эмоций в английском языке – грусть как неотъемлемый компонент духовной культуры.*

Ключевые слова: *эмоции человека, фразеологизмы, фразеологическое значение, устойчивое сочетание.*

Abstract. *Emotions are one of the most complex human systems. This article represents one of the fundamental human emotions in English, which is sadness as an integral component of spiritual culture through phraseological units.*

Key words: *human emotions, phraseological units, phraseological meaning, stable combination*

At the present stage of development of phraseological science, the study of phraseological units, including the study of phraseological means of different languages, is of great interest. The specificity of the phraseological meaning, which is generalized holistic and has a high degree of connotation - expressiveness,

evaluativeness, figurativeness - indicates that the connection with the designated object, feature, phenomenon in phraseology is indirect. Words, becoming components of a stable combination or a stable phrase, are semantically transformed, used in a figurative-metaphorical and symbolic sense.

It seems interesting for us to identify the imagery of phraseological units expressing sadness in English. Sadness is one of the basic emotions, which determines the universality of this concept for native speakers of English. The English are also prone to hypochondria, a melancholy mood, proceeding for the most part from satiety with life. The emotion of sadness is experienced as sadness, melancholy, despondency, grief, melancholy, melancholy. Sadness is a mild sadness, it is characterized by a mild, shallow and short-term state, it has the least unpleasant experience, and in some cases, it can even be pleasant (the so-called "light sadness"). Longing is the strongest, most intense and long-lasting feeling, characterized by the greatest unpleasantness of experience. Sadness is hopeless sadness. Deep sadness over the loss of someone or something valuable or necessary is called grief. Grief results in a special type of behavior - grief, which is determined and prescribed mainly by sociocultural norms. Spleen is a gloomy dreary mood, hopeless, languishing boredom. Melancholia is a morbidly depressed state. The main means of creating figurativeness of phraseological units is a metaphor. Metaphor is the transfer of a name according to the similarity of signs in the absence of real connections between direct and figurative meanings. J. Lakoff and M. Johnson note that language means of expressing emotions are highly metaphorical Emotion is almost never expressed directly, but is always likened to something.

Emotions of joy and sadness are metaphorically opposed as "up" and "down". This metaphor is given a physical motivation: a person raises his head when he is happy, and lowers when he is sad. The following English phraseological units are built on this metaphor: hang nose, hang your nose on a fifth, hang your head, with your head down / drooping, lower your arms, lower your wings, lose heart, hang one's head (hang your head), droop one's head (hang your head), have one's head down (hang your head), down in the dumps (in despondency), down in the mouth (in despondency), down in the doldrums (in a bad mood, depressed), low spirits (despondency, low spirits), be at rock bottom (fall into despair). Phraseologism hang / hang your nose is formed not only by a metaphor, but also by another linguistic means - metonymy. The position of the nose as a protruding part of the face in the form of a phraseological unit metonymically denotes the position of the head; a lowered head is a sign of grief, sadness.

The state of sadness in English is represented by the image of a living being that has power over the subject, as evidenced by the following phraseological units: sadness / longing oppresses, longing takes / finds / leans, despondency embraces / overcomes, spleen finds / rolls, take possession of smb. / smb's heart/mind (cover, master). Sadness, like some mythological creature or a real creature, slowly eats a person, his body and soul. Comparison of the emotions of sadness with the "idea of devouring" is an important linguocultural fact. According to E. Neumann, the "idea of devouring" formed the basis of numerous figurative, metaphorical descriptions of various fragments of the world, including emotional ones [5; 41-42]. Emotions are able to physiologically absorb a person: longing eats, longing eats, sadness consumes / wears out the heart, eat one's heart out (torment yourself, torment; wither, languish from longing).

Phraseologisms stone on the soul / on the heart, with a stone on the soul, with a heavy heart, a heavy heart (stone on the heart), with a heavy heart (with a heavy heart), with a leaden heart (with a heavy heart) contain stereotypical ideas about sadness as a heavy, oppressive soul or heart emotional burden. Phraseologisms are formed by a metaphor that likens hard experiences, depression, depression to a stone. Metonymy underlies the English idiom channel fever (sickness for home). The channel component in the phraseological unit structure denotes the English Channel, which separates Great Britain from the continent, which in the minds of the British is the border between their native places and foreign land and is associated with home, homeland. Another common means of creating figurativeness of phraseological units is the use of epithets with the nominees of emotion sadness. Epithet components in phraseological units light sadness, fleeting sadness, quiet sadness / sadness, deep sadness, severe grief, severe despondency, mortal anguish, hopeless longing / sadness, desolate melancholy, immeasurable longing, boundless longing, inconsolable sadness, insatiable sadness express the intensity of the experienced emotions.

In English linguistic culture, sadness is associated with the color blue: blue funk (emotional depression due to disappointment). The British believe that depression, sadness, melancholy are caused by blue demons, which found a linguistic embodiment in the phraseological unit blue devils (despondency, depression, sadness, sadness), which literally translates as blue devils.

Light sadness, characterized by a mild, shallow and short-term state, can be pleasant to a person, which is reflected in phraseological units such as sweet sadness, light sadness. These phraseological units are based on an oxymoron - a definitive combination, the members of which have antonymous or incompatible bases from the point of view of our consciousness. Some phraseological units expressing sadness are formed by a hyperbole based on an exaggeration of the intensity of the experienced emotion:

world sorrow, to die from longing, from longing to abyss / strangle yourself / die, heartbroken. To give more expressiveness to phraseological units, tautology is often used as an expressive means as a duplication of the elements of the expression plan (form): sadness-longing, longing-sadness, longing-grief. There are no tautological combinations in English.

The components of English phraseological units are characterized by the repetition of identical consonant sounds in the initial position: down in the dumps (in despondency), down in the doldrums (in a bad mood, depression), baby blues (postpartum depression), peak and pine (waste and languish). Thus, the figurativeness of English phraseological units expressing sadness is created using various stylistic means as we discussed above.

REFERENCES:

1. Lakaff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By : University of Chicago Press, 1980. 2.
2. Koralova, A. L. The Semantic Nature of Figurative Means in the Modern English Language. 1975

UO'K 81-13

QIYOSLASH MAZMUNINI IFODALAGAN ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLARNING SHAKLLANISHI

A. G'afforov, f.f.n., Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Maqolada qiyoslash mazmunini ifodalagan ergash gapli qo'shma gaplarning hozirgi o'zbek tili ilmiy grammatikasida o'rganilishi, ularning turlari va turli grammatik vositalar orqali shakllanishi to'g'risida fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Qo'shma gap, bog'lovchilar, komponent, belgi, izohlamoq,fe'l shakli, nisbiy so'zlar, o'xshatish, yordamchi so'zlar, qiyoslash ottenkasi, sinonim variantlar, biriktiruvchi vositalar.*

Аннотация. *В статье рассматривается изучение сложных предложений, выражающих сравнение в современной узбекской грамматике, их виды и их образование с помощью различных грамматических средств.*

Ключевые слова: *сложносочиненное предложение, союзы, компонент, признак, толкование, форма глагола, относительные слова, сравнение, вспомогательные слова, оттенки сравнения, синонимы.*

Abstract. *The article discusses the study of compound sentences expressing comparison in the modern Uzbek grammar, their types and their formation by means of various grammatical devices.*

Key words: *compound sentence, conjunctions, component, sign, interpretation, verb form, relative words, comparison, auxiliary words, comparison shades, synonyms.*

Tilshunoslik fanida qo'shma gap mavzusi azaldan muammoli bo'lib keladi va bugungi kunda ham uning muammolari kam deb bo'lmaydi. Buning asosiy boisi shundaki, qo'shma gap fikr ifodasi va sintaktik shaklining eng yuqori va murakkab pog'onalaridan birini tashkil etadi. Umuman, qo'shma gap murakkab va qiziqarli muammo. Professor R.Sayfullayeva aytganidek, qo'shma gapning eng nozik, ko'z ilg'amas tomonlarini bundan 30 yillarcha oldin muhtaram ustoz G'Abdurahmonov o'z asarlarida aytib o'tganlar [2, 8]. Shuningdek, bu masalaning har xil tomonlari, asosan, ularning semantik xususiyatlari M.Asqarova, A.G'ulomov, R.Sayfullayeva, N.Turniyozov, B.Turniyazov, A.Nurmonov, N.Mahmudov kabi olimlarimiz asarlarida tahlil etilgan [3, 4, 7, 8, 9]. Qo'shma gapning umumiy sintaktik strukturasi yolg'iz bir fikr ifodasining til unsurlari vositasida sintaktik jihatdan rasmiylashtirilishi evaziga shakllanadi. Bu jarayonda bosh gapning ma'lum bir unsurini yoki uning umumiy mazmunini to'ldirish va izohlash uchun shakllanayotgan boshqa gap yoki gaplar ikkinchi darajali bo'lib, bosh gapga qaram bo'ladi [6, 54]. R.Sayfullayeva qo'shma gap sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'lishi haqidagi fikrga tanqidiy yondashadi. Chunki sodda gap fikran nisbiy, intonatsiya jihatdan mutlaq tugallikka ega bo'ladi. Qo'shma gap shakliga ko'ra sodda gaplarga o'xshasa-da, ichki tomondan mustaqil sodda gaplardan keskin farqlanadi. Shuning uchun qo'shma gaplar yo nomustaqil sodda gaplardan, yoki predikativ birliklardan tashkil topadi, deyish maqsadga muvofiqdir [5, 33-35].

Ergash gapli qo'shma gaplarning shunday turlari borki, ularda ergash gapdagi mazmunga qiyoslash orqali bosh gapning mazmuni ochiladi. Bunday holda ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan harakat, holat, belgi-xususiyatlarga qiyoslash, o'xshatish orqali ifodalashi mumkin. Ular qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplardir. Aytish kerakki, qiyoslash munosabatining tabiati ikki xil, ya'ni farqni ko'rsatish va o'xshashlikni ko'rsatish. Mazkur qo'shma gaplarning shakllanishi shart maylidagi fe'l shakli, nisbiy so'zlar, ravishdosh va sifatdoshning ayrim shakllari bilan bog'liq. Quyida shu grammatik vositalar orqali shakllangan qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplarning har biriga to'xtalamiz.

1.Qo'shimchalar yordamida qiyoslash mazmunini ifodalash.

Bobosi oqposhshoning zulmidan qo'rqib yashaganday, otasi sho'ronong zulmidan qo'rqib yashardi (N.Jaloliddin. Erkagi bor uy, 36-b.). Bu misolda qiyoslash-o'xshatish mazmunidagi ergash gaplarning sintaktik shakllanishiga tobe gapning sifatdosh shaklidagi kesimiga **-dek, -day** qo'shimchalari vosita bo'ladi. Bunday holda u bosh gapdan oldin, keyin yoki uning o'rtasida kelishi ham mumkin. *Dadam bilan indamay ketyapmiz, bir-birimizga aytadigan gapimiz yo'qday* (S.Siyoyev. Yaxshilarga yondoshdim, 55-bet). Qiyoslash ottenkasi kesimlari **-may, -guncha** qo'shimchalarini olgan konstruksiyalarda ham anglashiladi. - *Onang o'lsin, senga shunaqa tarbiya bermay!* (M.Murodov. Gunoh, 131-b.).

Tiz cho'kib yashagunchha, tik turib o'lgan afzal (Maqol).

2.Yordamchi so'zlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash.

Qiyoslash mazmunini ifodalagan qo'shma gaplarning sintaktik shakllanishi ayrim yordamchi so'zlar vositasida ham amalga oshiriladi. Bunday ergash gaplar bosh gap bilan **go'yo, go'yoki, xuddi, -gani singari, -ganiga o'xshash, -gandan ko'ra** yordamchilari orqali birikadi. *Bu ovoz shunday mayin va yoqimli ediki, go'yo yuzinga tog' shabadasi urilganday bo'ldi* (O.Yoqubov. Tanlangan asarlar, 1-jild, 182-b.). *Nima qilishimni bilmasdan ko'kka shunday tikildimki, xuddi osmonda bir narsa bordek* (O.Yoqubov. Muqaddas, 187-b.). *U go'daklikdan tahqir-u tarsaki ko'rib katta bo'lgandi. Go'yoki uning loyi qo'rquv va vahimaga qorilgan bo'lib, unda qarshilik ko'rsatish va e'tiroz qilish tuyg'usi o'lgan edi* (M.Qo'qonboy. Tog' qizi, 249-bet). Keltirilgan misollardagi ergash gapli qo'shma gaplarning yasalishi birinchi galda -ki bog'lovchisi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchida go'yo, go'yoki, xuddi yuklamalari bilan ham aloqador. Chunki bu yuklamalar o'xshatish mazmunini ta'kidlashdan tashqari, bog'lovchi vosita vazifasini ham bajarmoqda. *To'lagan, xuddi o'sha paytga yetib borishni ko'zlaganday, avtobusga qarab yugurdi* (O.Yoqubov. Muqaddas, 200-b.).

Ayni paytda yuklama yordamisiz ham bemalol qo'shma gap yasalishi mumkin: *To'lagan, o'sha paytga yetib borishni ko'zlaganday, avtobusga qarab yugurdi.*

Ba'zan qo'shma gap komponentlari -ki, go'yo, -ganday yordamchilarining har uchalasi ishtirok etishi orqali birikadi: **-ki** yordamchisi bosh gapning kesimidan keyin, **go'yo** so'zi ergash gap oldidan, **-ganday** esa ergash gapning kesimi tarkibida keladi: *Tomirlarimga shu qadar qon yugurdi**ki**, **go'yo** birdan ko'z oldimni to'sib kelgan qora bulut tarqal**ganday**, hamma yoq nurga cho'mganday tuyuldi* (O.Yoqubov. Muqaddas, 217-b.).

Ergash gap –**gan(i)+kabi, singari, -ganga o'xshab** yordamchilari bilan shakllanadi: *Qaysi bir dono shoir aytganga o'xshab, muhabbat yosh tanlamas ekan* (O.Yoqubov.Adolat manzili,20-b.). *Dunyoga ustun bo'ladigan kabi, tipirchilashing olamni tutadi-ya!* (O'.Hoshimov. Nur borki, soya bor).

-gandan ko'ra yordamchisini olgan ergash gaplarning kesimi ko'pincha bir xil so'z bilan ifodalanadi. Bu qiyoslash ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi:

Kunda-kunda o'lgandan ko'ra, bir yo'la o'lgan yaxshi (O'. Hoshimov. Nur borki, soya bor). Qiyoslash mazmunini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar ba'zan bosh gapning o'rtasida kelib, kirish konstruksiyalariga yaqin vazifani bajaradi: *Bu gaplar, go'yo bir bigiz ediki, uning yuragiga chuqurroq botardi* (M.Qo'qonboy. Tog' qizi, 80-bet).

3. Nisbiy so'zlar vositasida qiyoslash mazmunini ifodalash.

Nisbiy so'zlar ham ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi grammatik vositalarning biri bo'lib, u ko'pgina ergash gaplarni bosh gapga bog'lash vazifasini bajaradi. Qo'shma gap yasalishiga ergash gap tarkibidagi **qanday, qanaqa** va bosh gap tarkibidagi **shunday, shunaqa** nisbiy so'zlari hamda ergash gapning shart maylidagi kesimi vosita bo'ladi: *Uni qopga qanday joylashtirgan bo'lsang, shunday chiqarib olasan* (O'zbek xalq ertaklari,11-b.).

Nisbiy so'zlar har ikki komponentdagi **hol+kesim** birikmasini butunicha izohlaydi: *O'rmon aholisi qanday qiynalib yashayotgan bo'lsa, sen ham xuddi shunday yashaysan* (O'zbek xalq ertaklari,29-b.). Ergashgan qo'shma gapning deyarli hamma turi xilma-xil sinonim variantlar bilan berilishi mumkin. Ergashgan qo'shma gaplar turli sinonim variantlar bilan almashinishi natijasida sodda gapga aylanish yoki biriktiruvchi vositalar almashinib qo'shma gapligicha qolishi mumkin. *Yaxshilik obro' keltirsa, yomonlik zulmatga olib boradi* (Maqol).

Qiyoslash ergash gaplari tarkibida **agar** yordamchisi ishtirok etgan bo'lsa, u gapda qoyoslash mazmuni bilan birga shart mazmuni ham ifodalagani uchun bog'langan qo'shma gap shaklida qo'llab bo'lmaydi: *Agar dunyoda sevgidan bahramand bo'lishdan ortiqroq baxt yo'q bo'lsa, uning g'amiga yo'liqishdan og'irroq jazo ham yo'q* ("Tafakkur gulshani").

Qiyoslash ergash gaplari sodda gap holida ham qo'llanishi mumkin. Bunday gaplarda **yaxshi, durust, ma'qul** kabi so'zlar qo'shib ishlatiladi. *Pinhona iztirob chekkandan ko'ra, oshkora yig'lash kerak // Pinhona iztirob chekkandan ko'ra, oshkora yig'llagan yaxshi.*

Tarkibida **-ki** yordamchisi kelgan o'xshatish ergash gapli qo'shma gap komponentlarining tartibi o'zgarib, ergash gap oldin, bosh gap keyin keladi. Bosh gapdagi **shunday** so'zi va **–ki** yordamchisi

qo‘llanmaydi: *Xonaga shunday jimlik cho‘kkanki, go‘yo bu yerda hayot yo‘q deysiz // bu yerda go‘yo hayot yo‘qday xonaga jimlik cho‘kkan.*

Komponentlarning kesimlari bir xil yoki bir-biriga ma‘no jihatdan yaqin bo‘lib, ular **–gan+dek** yordamchilari orqali birikkan bo‘lsa, uyushiq bo‘lakli sodda gap holida berish mumkin: *Bu tog‘lar bag‘rida yer qa‘ridan qaynab chiqayotgan buloqlar bo‘lganidek, quyuq archazorlar ham bor edi // Bu tog‘lar bag‘rida yer qa‘ridan qaynab chiqayotgan buloqlar va quyuq archazorlar ham bor edi* (O.Husanov. Tog‘da o‘sgan bola. 26-b.). O‘xshatish munosabatli ergash gaplar ko‘pincha boshqa qoshma gaplardagiday bosh gap ichiga kiradi: *Iste‘dodsiz odamlar, o‘z ajdodlarining xizmatini o‘zining baxt-saodatiga aylantirganday,hunar egalariga ko‘p zarar yetkazadilar* (Tafakkur gulshani,62-b.). Komponentlar mazmunan bir-biriga zid bo‘lib, qiyoslansa yoki o‘xshatilsa, unday qo‘shma gaplarni boshqa xil sintaktik sinonimlar bilan berish qiyin: *O‘zgalarni baxtsiz qilib baxtga erishib bo‘lmaganidek, zahmat chekmasdan ilmga ham yetish mumkin emas* (Tafakkur gulshani, 76-b.).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Абдураҳмонов Г. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. – Ташкент, 1960.
2. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан, 1992.
3. Сайфуллаева Р. Эргашган қўшма гапнинг таснифи.//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989, 3-с.
4. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини.-Тошкент, 1994.
5. Турниёзов Н. Қ. Ўзбек тили структурал синтаксисига кириш. - Самарқанд,1989.
6. Турниёзов Н. Қўшма гап синтаксиси. – Самарқанд, 1995.
7. Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. – Самарқанд, 2008.
8. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

UO’K 81-13

OYBEKNING SIMVOLISTIK ShE’RLARI XUSUSIDA

U.Hamdamov, f.f.d., O’zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Oybek poeziyasi, xususan, uning simvolistik yo‘nalashida bitgan she’rlari ayrim namunalarning ilmiy tahlili misolida tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Oybek she’riyati, simvolizm, ijodkor sub’ektivizmi, uslub, “sof lirika”, ko‘ngil she’riyati, tanqidchilik.*

Аннотация. *В данной статье поэзия Ойбека, в частности его стихи, рассматривается в символическом ключе, с использованием научного анализа некоторых примеров.*

Ключевые слова*: поэзия Ойбека, символизм, творческий субъективизм, стиль, «чистая лирика», поэзия сердца, критика.*

Abstract. *This article examines Oybek's poetry, in particular his poems in a symbolic way, using the scientific analysis of some examples.*

Keywords: *Oybek's poetry, symbolism, creative subjectivism, style, "pure lyricism", poetry of the heart, criticism.*

Oybekning she’rlari yuksak simvolizm namunasidir. Bir tomoni, Sharq mumtoz she’riyati an’analarini davom ettirish, boshqa tomoni esa, G‘arb adabiyotiga, xususan, she’riyatiga xos bo‘lgan jihatlarning kirib kelishi 20-yillar avlodi vakillari izlanishlariga juda katta ta’sir qildi. Natijada, masalan, Oybekning ijodida simvolizm yo‘nalishida turkum she’rlar paydo bo‘ldi. Ular, avvalboshda, Cho‘lpon kabi salaf avlod vakillarining ijodlarida bo‘y ko‘rsatgan bo‘lsa, uning shogirdi Oybek ijodida o‘zining yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Simvolizm modern she’riyatning bitta katta yo‘nalishi hisoblanadi. Modernizm yo‘nalishining yirik nazariyotchisi, ispan esteti va faylasufi O. I. Gasset shunday yozadi: "San’at o‘z mohiyatiga ko‘ra savqi tabiiydir. Biz ba’zan turli badiiy tamoyillarni idealistik va realistik deya tasniflaymiz. Biroq san’atning mohiyati real narsalardan uzilish va ularni yakson etish orqali kelib chiqadigan yangi predmetlikning yaratilishida ekanligi inkor etib bo‘lmaydigan dalil bo‘lib qolaveradi. Binobarin, san’at ikki marta savqi tabiiydir: birinchidan, shuning uchun norealki, uning predmeti reallikdan farqlanuvchi yangi hodisa. Ikkinchidan, shuning uchunki, mazkur yangi estetik predmet unsurlaridan biri reallikni mahv etishdir. Ikkinchi reja birinchi rejadan keyingina mumkin bo‘lganidek, go‘zallikning chegarasi ham real dunyo hududidan kechilgandagina boshlanadi” [1. 497]. Boshqa bir maqolasida faylasuf yuqoridagi fikrini yana-da oydinlashtiradi: "Yangi suratlarda (modernizm ilk bor tasviriy san’atda bo‘y ko‘rsatib, so‘ng badiiy adabiyotga ham ko‘chgan – U. H.) aks ettirilgan narsalar to‘g‘risida shuni aytish mumkinki, ular bilan birga kun kechirish mumkin emas. San’atkor ularning "tirik" reallik xususiyatlarini yo‘q etib, bizni ko‘nikkan olamimizga eltuvchi ko‘priklarni buzib, kemalarni yoqdi. U bizni noma’lum dunyo ichiga qamab, shunday

narsalar bilan munosabatga kirishishga majbur etadiki, o‘rtadagi aloqadorlik insonning yetti uxlab tushiga ham kirmagan" [1. 514]. Bu uzun iqtibosni, avvalo, fikrimizni o‘zga bir ilmiy nazar bilan tasdiqlatib olmoq niyatida keltirgan bo‘lsak, qolaversa, adabiyotga (san’atga) nisbatan yangicha qarashning mohiyati bilan o‘rtoqlashmoqchi bo‘ldik. Payqaganingizdek, ispan olimi adabiyotni Belinskiy singari mafkuraning targ‘ibotchisi sifatida emas, balki ko‘ngil olamini anglash orqali o‘zlikni, umuman, insonni, uning imkoniyatlarini idrok etuvchi kashshofning nigohi o‘laroq tushungan. U har bir ijodkorni o‘z uslubiga ega bo‘lishga undaydi va "Uslub bu – inson" degan fikr mohiyatidan so‘z ochadi. Gasset ijodkor o‘z uslubi orqali hayotning biz ko‘nikkan chegaralarini kengaytira olishiga ishonadi. San’atning odamzotga xoslikdan yuksala bilish xususiyatlariga shubha qilmaydi.

Gasset san’atning ekspressionizm, kubizm va boshqa oqimlari haqida: "Ular narsalar tasviridan g‘oyaning tasviriga o‘tdilar: san’atkor tashqi olam uchun ko‘r, u o‘z ko‘z qorachig‘ini ichkariga qaratdi..." deb yozadi. Nigohini ichkariga, ko‘ngilga qaratgan adabiyot hatto sobiq sovet davrida ham turli ko‘rinishlarda jon saqladi. Buni ayniqsa, 30-yillar o‘zbek she’riyatida yaqqol ko‘rish mumkin. Tanqidchi Rahimjon Rahmat bir maqolasida yozadi: "Oybek inson ko‘ngliga sevgi va san’at sevinch, xursandlik va ilohiy osoyishtalik baxsh eta oladigan ikki buyuk kuch ekanligini chuqur tushungan, kishi hayotida ma’naviy qadriyatlar o‘rni beqiyos ekanligini jiddiy anglagan donishmand. U sovet tuzumini adolatli, kishiga baxt bera oladigan ideal jamiyat deb hisoblagan bo‘lishi mumkin, lekin kishi ko‘nglining jamiyatning yaxshi va yomon ekanligiga bog‘liq bo‘lmagan quvonchu azobi borligini va insonning eng katta baxti mana shu evrilishlar orasida ekanligini chuqur anglagan edi" [4. 1996] . Afsuski, ushbu jarayon uzoq davom etmadi va 40-yillardan boshlab adabiyotimiz haddan ziyod siyosatlashtirildi, natijada u mafkuralashdi.

Oybek bir she’rida buloqqa qarata:

She’ringga to‘yolmadim,
Ko‘ksingda yashnolmadim.
Sen toshib yo‘lga tushding,
Men g‘arib borolmadim,

desa-da, uning g‘ayrishuurdagi diqqat-e’tibori o‘z ko‘ngliga, botiniy osmoniga qaratilganini payqash qiyin emas. Buni navbatdagi band yana bir karra isbotlaydi:

Hoy buloq, jo‘shqin buloq!
Ko‘nglim ko‘nglingga inoq.
"To‘xta" desam boqmaysan,
So‘yla yo‘lingmi uzoq! [3. 60]

She’rda parallelizm mavjud bo‘lib, uning birinchi – buloq chizig‘i quyuqroq ishlanganday ko‘rinsa-da, shoirning bundan maqsadi ikkinchi chiziq – ko‘ngil, o‘z ichki olamidir. Buni ayniqsa, "To‘xta" desam boqmaysan, So‘yla, yo‘lingmi uzoq?!" misralari oshkor etib turibdi. Ya’ni shoir agar istasa, buloqning qaergacha oqib borishini bilib olishi mumkin. Biroq ko‘ngil intilishlari manzilini bilish anchagina mushkul ish. Ayni chog‘da shoirning bu holi – bilmasligi – she’riyat. “Dalillar tugagan joyda adabiyot boshlanadi" deydi Dostoevskiy.

Salohiyati, iste’dodi jihatidan adabiyot yaratishga qodir shoirlarning 30-yillardagi she’rlarini o‘rganar ekanmiz, achchiq bir haqiqatning guvohi bo‘lamiz. G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Usmon Nosir, Shayxzodani endi g‘uncha bo‘lganda tomiriga tig‘ urilgan gullarga o‘xshatish mumkin. Yo‘q, bu yerda Hamid Olimjonu Usmon Nosirning fojiali qismatlarini nazarda tutilmayapti, balki ular onglariga, qalblariga tomchi-tomchi quyilgan zahar – mafkura natijasida ijodkor sub’ektivizmi boy berilganiga urg‘u berilyapti. Oybekning nazmini kuzatamiz: 20-30- yillarda o‘z yuragiga nisbatan samimiy bo‘lgan ulkan iste’dodli shoir 40-yillardan boshlab begonalashgan. Ko‘ngildan emas, aqldan, mafkuralashgan ongdan chiqarib yoza boshlagan. Usmon Nosir ijodini ham yilma-yil o‘rganib chiqsak, shunday holga duch kelamiz. Aslida, bu narsa sal avvalroq, Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid ijodkorlar ijodida boshlangan edi. Ular ham xuddi o‘sha — g‘unchalaganda tomiriga tig‘ urilgan gul yanglig‘ sekin-sekin so‘la bordilar. Yo‘qsa, ularning har biri ulkan ijodiy imkoniyatlarga ega, adabiyotni go‘zallik elchisi ekanligini juda teran his kilgan san’atkorlar edilar. Bu gullarning tomirini qirqishga farmon bergan kuch sotsialistik g‘oya bo‘lsa, uni amalga oshirishda ko‘maklashgan vositalardan biri — davr tanqidchiligi edi.

Adabiyotshunos olim Homil Yoqubov "Lirikada izlanish" maqolasida yozadi: "Oybek lirik asarga inson ruhi, o‘z "men"ining ifodasi sifatida yondashadi, lekin ko‘pincha "tuyg‘ular" doirasi birdan-bir reallik bo‘lib, uni qurshagan tevarak atrofdagi hodisalar mazmunini, ob’ektiv haqikatni qamrab olmaydi...

Oybekning tuyg‘ular sohasini sentimental va simvolik usulda fahmlashida o‘zbek adabiyotida reaksion romantizmning namoyandasi Cho‘lpon va XX asrning 10-20-yillarida ijod etgan usmonli-turk simvolistlaridan – Xolid Fahriy, O‘rxon Sayfiy, Yusuf Ziyo, Umar Sayfiddin kabi shoirlarning ma’lum darajada adabiy ta’siri bo‘lgan [Adabiy ta’sir haqidagi olimning yuqoridagi qarashida asos mavjud bo‘lib,

Oybekning shoir sifatida shakllanishida yana Navoiy, ozarbayjon shoiri – Fuzuliy, rus shoirlari – Blok, Bryusov, Pushkin, turk shoirlari – Muhammad Amin, Tavfiq Fikrat, Rizo Tavfiq, Abdulhaq Hamid, Yahyo Kamol kabilarning ijodlari ham muhim o'rin tutadi – H.U].

Bu she'rlarda Oybekning individualizm qobig'iga o'ralib qolishi xalq turmushi ichiga quloch otib kirishiga, uning rang-barang mazmunini ko'rish va ifodalashga imkon bermadi" [7. 10-12].

Bu maqola Oybekning 20-yillar she'riyati tahliliga bag'ishlangan. Biroq aynan mana shunday ruh tanqidchilikda hukmron bo'ldi. Ijodkorni o'z holiga qo'ymadi, uning inson bo'lib o'ylashga, fikrlashga, o'z ko'ngil olamiga bo'ylashga, uni tadqiq etishga imkon bermadi. (Axir, Oybek "Cho'lpon, Shoirni qanday tekshirish kerak?" [1. 1927] degan maqolasini bejiz yozdimi?)

Prof. Ozod Sharafiddinov "Yillar va yo'llar" maqolasida yozadi: "Millatchilik poeziyasiga qarshi kurash o'zbek poeziyasida yangi sotsialistik estetika prinsiplarini tasdiqlash, hayotdan ajralgan, qobig'iga o'ralib qolgan poeziyaga inson bilan, mehnat bilan bog'langan poeziyani qarama-qarshi qo'yish, sinfiy kurashlarda proletariat tomonidan javlon uradigan yangi tipdagi shoirni ulug'lash yo'llari bilan ham bordi" [5. 102]. "30-yillar poeziyasida xalq bilan birgalik tuyg'usi yana-da chuqurlashadi. "Sof poeziya", faqat gullar va bulbullarga mahliyo, faqat "Oh, malak", "Eh, kapalak"dan nariga o'tmaydigan chuchmal poeziya qattiq qoralanadi" [5. 114]. Zamindan — hayotdan uzilgan, Nabijon Boqiy ta'biri bilan aytganda, "havodan oziqlanayotgan gul" mohiyatidagi quruq va sayoz oh-vohlargagina asoslangan bo'lsa "sof poeziya" ham professor Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, qoralovga munosib. Lekin "sof poeziya"ning mohiyatida sub'ektivizm, ya'ni o'z kechinmasi yotgani uchun ham tanqid qilish shu jihatdan noto'g'riki, busiz Ko'ngil adabiyoti, Shaxs adabiyoti, Inson adabiyoti yo'q. "Shoir o'z shaxsiy tuyg'ularining, ichki dardlarining, injiq hasratlari, nola-fig'onlarining enagasi emas..." [5. 114]. Xo'sh, unda kim? Shoir uchun o'z shaxsiy tuyg'ularidan-da qimmatliroq tuyg'u bormikan? Shoir "hujumkor sinfning vakili, millionlab mehnatkash ommaning farzandi, uning ko'zi va qulog'i, uning tuyg'ulari, fikrlari, orzu-umidlarining kuychisi, uning qalbining tarjimonidir" [5. 114]. Bularning deyarli hammasi ("hujumkor sinfning vakili"dan boshqasi) to'g'ri va juda olijanob fikrlar. Ammo bu ishlar jurnalistniki, vatanparvar grajdanniki, aslo shoirniki emas. Axir shoir degani ko'pchilikning manfaatiga mos tushadimi-yo'qmi, baribir o'z qalbining tarjimoni, o'z tuyg'ularining kuylovchisi bo'lmaydimi? Agar o'sha ko'pchilik olomon maqomida bo'lsa, inchunun! Munaqqid yozadi: "30-yillar o'zbek poeziyasining zamonaviyligi, davr bilan hamnafasligi uning tematik diapazonida yaqqol ko'rinadi. Bu davrda poeziya tematikasi 20-yillardagiga qaraganda benihoya kengayib ketdi. Poeziyada aks-sado bo'lmagan biron yirik hodisa, bironta jiddiy voqea qolgani yo'q deyish mumkin" [5. 117]. She'riyatdagi bunday ijtimoiy hozirjavoblikni munaqqid Ibrohim G'afurov quyidagicha sharhlaydi: "Ba'zan kundalik gaplar bilan she'rning nima aloqasi bor, degan gaplar bo'lib turadi. Kundalik gap uchun jurnalist bor, gazeta xabari bor, shunday ekan, she'r o'zining eng oliy vazifasini – inson xususiyatlarini, nozik kechinmalarini obrazda, g'oyada go'zal ifoda qilib berishini bilsin, degan fikrlar yuradi. Ammo shunday davrlar bo'lganki, she'r o'zining ana shu birlamchi vazifasini o'tab turib, zamonning jarchisi bo'lishdek vazifani ham uddalagan" [6. 170]. To'g'ri, lekin san'atdagi buning kabi o'tkinchi kayfiyatlarni rag'batlantirish o'rniga ular mohiyatini chuqur tahlillar asosida ochib berish zarurki, yo'qsa, Oybek, Usmon Nosir, G'afur G'ulomdek iste'dodlar noyob imkonlarini tag'in noasl jarayonlarga sarflashlari hech gap emas. Qolaversa, shoirlar har doim ham "konkret hodisa tufayli tug'ilgan dastlabki his-tuyg'ularni, shodlik va quvonch kayfiyatlarini ifodalash bilan cheklanmay", ba'zan "inson va uning taqdiri, hayotdagi o'rni haqida, hayotning ma'nosi va mohiyati to'g'risida, go'zallik, ezgulik, olijanoblik, baxt haqida chuqur o'ylarni ifodalovchi she'rlar yarata boshladilar. Bularning barchasi poeziyadagi insoniylikni chuqurlashtirdi, unga haqiqiy hayotiylik baxsh etdi va 30-yillarning ko'pgina she'rlariga uzoq umr berdi" [5. 102], deganida Ozod Sharafiddinov haqli edi. Darhaqikat, xuddi shu ruhdagi she'rlar bugun tadqiqotimiz ob'ekti va ular ertaga, undan keyin ham o'z o'quvchilarini topaveradi. Chunki bu she'rlarda shoir o'z "men"ini kollektiv "men"dan ajratib olgan. Demak o'z nomidan o'z kechinmasini, boshidan, demakki, yuragidan o'tkazgan tuyg'ularni she'rga solgan. Bunday she'rlardan simvolsitik xarakterga ega ko'ngil poeziyasi – "sof lirika" vujudga kelgan hamda ular Oybekning, ayniqsa, 30-yillar poeziyasining talay qismini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гассет Х.О. Дегуманизатсия искусства. М.: Радуга, 1991. 497-bet. (Bu va bunday keyingi tarjimalar bizniki – U.H.)
2. Oybek. Cho'lpon. Shoirni qanday tekshirish kerak? Qizil O'zbekiston,1927, 7 may.
3. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'qqiz tomlik. 1-tom. Toshkent: Fan, 1975. 60-bet.
4. Rahmat R. Sifat darajalari. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1996. 23 fevral.Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. 121-bet.
5. Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. 114-bet.
6. G'afurov I. Lirikaning yuragi. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. 170-bet.
7. Yoqubov H. G'oyaviylik va mahorat. – Toshkent: Fan, 1963. 10-12-betlar.

UO'K 81'373

SON KOMPONENTLI ANIQLOVCHILI (ATTRIBUTUV) QO`SHMA SO`ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

A.J. Jumaniyazov, prof., f.f.n., Urganch Davlat Universiteti, Urganch
N.M. Polvanova, o`qituvchi, Urganch Davlat Universiteti, Urganch
F.I. Allaberganova, o`qituvchi, Urganch Davlat Universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada son komponentli qo`shma so`zlar leksik hamda semantik jihatdan o`rganilgan va ingliz tili bilan solishtirib misollar keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *Attributiv, komponent, giperbola, miqdor, hajm, daraja.*

Аннотация. *В данной статье лексически и семантически изучаются сложные слова с компонентом числа, а также даются примеры в сравнении с английским языком*

Ключевые слова: *атрибутивный, компонент, гипербола, объём, степень*

Abstract. *In this article the compound words with the component of number are studied lexically and semantically, also examples are given compared with English language.*

Key words: *Attributive, component, hyperbole, volume, degree.*

Ushbu maqolada aniqlovchili(attributiv) qo`shma so`zlar, jumladan, aniqlovchi komponenti son yoki miqdor-daraja, hajm bildiruvchi so`z turkumlari bilan ifodalangan qo`shma so`zlar borasida ayrim fikr mulohazalar bildiriladi. Bunday qo`shma so`zlarning birinchi komponenti sanoq sonlar (*besh*barg, *qirq*oyoq, *ming*boshi,) yoki miqdor, hajm bildiruvchi (*yakka*bog`, *qo`sh*og`iz, *juft*so`z, *yarti*quloq, *yarim*kalla) so`zlar bilan ifodalangan bo`ladi. Shu ma`noda ushbu qo`shma so`zlarni 2 guruhga ajratishimiz mumkin:

1) Aniqlovchi komponenti son bilan ifodalangan
2) Aniqlovchi komponenti miqdor, hajm, daraja bildiruvchi so`zlar bilan ifodalangan qo`shma so`zlar (Umumma`lumki, "Miqdor" – o`lchash, sanash mumkin bo`lgan narsalarning oz-ko`pligi, soni, chamasi. "Daraja" – ish-harakat, xususiyat yoki holatning me`yori, chegarasini anglatadi, ko`pincha aniqlovchilar bilan ishlatiladi. "Hajm" – biror jismning bo`y, en va balandlik jihatidan katta-kichikligi; fazoda egallab turgan o`rni (kub birligi bilan o`lchanadi))

Dastavval, aniqlovchi qismi sanoq son bilan ifodalangan qo`shma so`zlarga to`xtalamiz. Bunda, odatda, sonlar anglatayotgan ma`nosiga nisbatan aynan(nomlanayotgan songa teng), kamaytirilgan holda, oshirilib yoki ko`chma holatlarda uchraydi.

**Son miqdori va nomi ayni bo`lgan qo`shma so`zlar.** Bunday qo`shma so`zlarda son aniqlovchi vazifasida keladi va son orqali bildirilayotgan ma`lumot nazarda tutilgan yohud e`tibor qaratilayotgan narsa va hodisa haddi bilan ayni yoki barobar bo`ladi. Masalan, *beshburchak* - ta`kidlanayaptiki nomlanayotgan chizma(narsa)da burchak 5 ta, ortiqcha ham emas, kam ham emas. Analog misol sifatida *beshbarg* (yaprog`i 5 ta), *sakkizoyoq* (oyog`i 8 ta), *uchovlon* (3ta og`-ini), *beshkashta* (5 ta kashtasi bor) kabi qo`shma so`zlarni nomlash mumkin. Inventarimizda bu kabi so`zlardan 164 tasi bor. Bunday qo`shma so`zlar kundalik hayotimizning barcha jabhalarida uchraydi va ko`pchilik tillarga xos, ishimizdagi misollar ingliz tilidan olingan:

**O`zbek tilidan misolllar:** *uchburchak, to`rtburchak, beshburchak, oltiburchak, ikkiolon, uchovlon, to`rtovlon…*

Ingliz tilidan misollar: *five-stones, three-wheeler, two-handed, two-seater, one-horse…*

Son orqali hajm yoki miqdor darajasi kamaytiriladigan qo`shma so`zlar. Songa e`tibor berilmaydi, ko`zda tutilgan had, narsalarning soni muloqotda inobatga olib o`tirilmaydi, suhbatdoshlar uchun ko`plik va ozlik ro`l o`ynamaydi. Muloqotda nazarda tutilgan narsa va hodisaning soni yoki haddi, mohiyatiga e`tibor berilmaydi, ahamiyatsiz qoldiriladi. Mazkur hodisa ko`pincha sonlar orqali berilayotgan xabarning (son anglatayotgan til birliklarining) ko`chma ma`nolariga xosdir. Misol sifatida *birtiyin, beshurug`* qo`shma so`zlarini keltirish mumkin.

Misollar: -Biz yashagan davrlarda kichik daftar yoki bir quti gugurtning bahosi birtiyin edi.

- Barcha qilgan mehnatlarim birtiyin bo`ldi.

Keyingi paytlarda qishloq xo`jalik ishlari, dehqonchilikda *beshurug`* so`zi ko`p uchramoqda. Beshurug` nomi bilan qovun yoki tarvuzning urug`i kam lekin aynan besh emas (yuzlagan bo`lishi mumkin) bo`lgan turi tushuniladi.

(Ms: "-Beshurug` farg`ona vodiysida ko`proq ekiladi." (*Qomus info. Online ensiklopediyasi)*

**Sanoq son orqali narsa va hodisa miqdori reallikka(boriga) nisbatan oshirilib ko`rsatiladigan qo`shma so`zlar.** Bunday qo`shma so`zlarda nomlanayotgan son mubolag`a qilinadi. Misol sifatida *qirqo`rim, qirqkokil, mingoyoq, qirqoyoq* so`zlarini keltirishimiz mumkin. Chunonchi, qirqo`rimda soch

o`rimlari o`n tadan oshsa o`rimning ko`pligi qirq soni bilan atalaveradi, qirq qirqni bildirmaydi. Mingoyoq qo`shma so`zi orqali olinayotga m`lumot ham hasharotning mingta oyog`i borligini ko`rsatmaydi. Oyoqlar sonining bir qarashda nechta ekanligi anglanilmasa, nisbatan ko`p bo`lsa, taxminan yigirma tadan oshsa mingoyoq deb aytilaveradi. Og`zaki nutqdan quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin: *mingmehmon, mingchinor, qirqgujum…* Shuni ta`kidlab o`tish lozimki, ushbu so`zlar tilimizda ba`zan qo`shib ba`zan ajratib yoziladi va buning natijasida ularning qo`shma so`z yoki so`z birikmasi ekanligini anglash mushkul kechadi. Bunday holatlar tilshunoslikning stilistika sohasida ko`p uchraydi, ular mubolag`a (giperbola) deb nomlanadi. Yuz marta aytmoq, ming marta ta`kidlamoq, million marta takrorlamoq, birpiyola choyga taklif qilmoq, biro g`iz gap aytmoq iboralarida so`z birikmasi sifatida qo`llanilganligi sabab bu misollar tahlilga tortilmadi.

Ms: *"- Qirqkokil qizchaning chehrasi misol*
Quyosh ham beg`ubor, ko`k-tiniq, toza
Gohida bulutlar suzar erinib
Horg`in yo`lovchiday shoshilmay sira"

(Abdug'ofur Mamatov)

"-Biz mingoyoq, kaltakesak.. va turli qo'ng'izlardan kolleksiya tuzdik." ("O'zbek tili" darsligi)

**Sanoq son va hajm bildiruvchi so`z ko`chma ma`noda ishlatiladi.** Qo`shma so`z tarkibidagi son yoki miqdor bildiruvchi komponent o`zi anglatayotgan yakka narsani nomlamaydi va o`zining tub ma`nosini anglatmaydi ma`no ko`chishi yuz beradi. Birinchi komponentning ma`nosi (son, miqdor) ikkinchi komponent (narsa, hodisa) ma`nosi bilan mushtaraklashib uchinchi bir narsa va hodisa ifodalanadi, ma`no ko`chishi yuz beradi. Masalan, *birpul* – bu yerda ko`zda tutilayotgan narsani hatto bir so`mga ham teng emasligi, hech narsaga arzimasligi nazarda tutiladi. Birpul so`zi aslida so`zlashuv tiliga xos bo`lgan muqim til birligidir, biroq eski zamonlarda birpul deganda nazarda faqat 1 so`m tushunilgan (ma`nodosh), chunki undan katta so`m kupyura muomalada yo`q bolgan.

Ms: -"Tuya birpul, qani birpul
Tuya ming pul, qani tuya
"- Yonimda birpulim ham yo`q"

Hozirda esa muomalada pullar qiymat jihatidan rangbarangligi sababli birpul deganda qaysi qiymat tushunilishi noma`lum. Birpul deganda assotsiativ tarzda 1 so`mga ishora qilinadi xolos. 1 so`m deganda bitta so`m tushunladi lekin birpul deganda bitta pul tushunilmaydi. Biroq rivoyatlarda birpul qo`shma so`zi uchraydi:

- "*Birpul* berib yig`latdim, mingpul berib tindirdim" (ayni ma`nosida)
- "Turdi g`ilay olti yillik toat-ibodatini *birpul* qildi"(ko`chma ma`noda)

Kezi kelganda aytish joizki, birpul atamasiga O`zbek tilining izohli lug`atda qo`shma so`z sifatida izoh berilmagan, biroq "bir" so`zi izohli lug`atda "1) 1 raqami va shu raqam bilan ifodalangan eng kichik son, miqdor; 2) hisob, miqdor, o`lcham, chama ma`nolarini anglatuvchi so`zlar bilan kelib, predmetning miqdorini, o`lchamini anglatadi," – deb izohlangan. "Pul" so`zi esa "oldi-sotdi yoki to`lov muomalalarida narx, baho, qiymat o`lchovi bo`lgan metal yoki qog`oz belgi, aqcha,"-deya ta`riflangan.

Yuqorida keltirilgan misollarni inobatga olgan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, "birpul" atamasining a)bir so`m; b)hech narsa; c)vosita ma`nolarini anglatadi.

O`zbek tilida birinchi komponenti son bilan ifodalangan qo`shma so`zlarni o`rganar ekanmiz, bu borada shu turdagi qo`shma so`zlar ingliz tilida qanday guruhlarga bo`linishi mumkinligi haqida ham qiziqdik. Izlanishlar natijasi shuni ko`rsatdiki, o`zbek tilida son komponentli qo`shma so`zlar 4 turga bo`lingan bo`lsa ingliz tilida ushbu guruhlar soni 2 tani tashkil etadi. Ya`ni ingliz tilida faqat "*son miqdori va nomi ayni bo`lgan qo`shma so`zlar"* hamda "*sanoq son va hajm bildiruvchi so`z ko`chma ma`noda ishlatiladigan qo`shma so`zlar"*ni farqlash mumkin.

Son miqdori va nomi ayni bo`lgan qo`shma so`zlarga misollar:

-*Two-seater* - a vehicle or piece of furniture with seats for only 2 people.

-*Three-day event* - (n) a sport event lasting three days in which people ride horses in various competition

-*Three-wheeler* - (n) a vehicle that has three wheels, especially motorcycle, tricycle.

Sanoq son va hajm bildiruvchi so`z ko`chma ma`noda ishlatiladigan qo`shma so`zlarga misollar:

-*Two-bit* - not very good or not important (Am.Eng.-Informal)

-*Two-star* - a two-star hotel is of an average standard

-*Four-eyes* - (impolite) an insulting word for someone who wear glasses

Quyidagi chizmada har ikkala tildagi son komponentli qo`shma so`zlarning turlari va ularga misollar yaqqolroq tasvirlashga harakat qilamiz:

№		O`zbek tilida	Ingliz tilida
1	**Son miqdori va nomi ayni bo`lgan qo`shma so`zlar.**	*uchburchak, to`rtburchak, beshburchak, oltiburchak, ikkiovlon, uchovlon, to`rtovlon, sakkizoyoq, beshkashta*	*five-stones, three-wheeler, two-handed, two-seater, one-horse*
2	**Son orqali hajm yoki miqdor darajasi kamaytiriladigan qo`shma so`zlar.**	*birtiyin, beshurug`*	___
3	**Sanoq son orqali narsa va hodisa miqdori reallikka(boriga) nisbata oshirilib ko`rsatiladigan qo`shma so`zlar.**	*qirqo`rim, qirqkokil, mingoyoq, qirqoyoq*	___
4	**Sanoq son va hajm bildiruvchi so`z ko`chma ma`noda ishlatiladi.**	*birpul, to`rtko`z*	*Two-bit, five-star, four-eyes*

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, birinchi komponenti son yoki miqdor-daraja, hajm bildiruvchi so`zlar bilan ifodalangan qo`sha so`zlardagi ma`no o`zgarishlari yohud konkret son (ming- aynan mingtani nomlaydi, ismi jismiga monand) bildiruvchi hadlarning nafaqat o`zlari nomlab kelayotgan son, balki, nazdda inobatda turgan sonning oshishi(ming - mingta emas, son jihatidan mingtadan ancha oshiq) yoki kamayishini (ming – mingta emas, son jihatidan mingtaga ancha yetmaydi) bildirish xususiyatlari bilan o`zbek tili ifoda qudratidan darak beradi. Mazkur hodisaning miqdor, daraja, hajm ifodalovchi sifat yoki ravishlar orqali ham aks etishi esa tilimizning oz so`zlar bilan rang-barang ma`nolar kashf eta olishiga ishoradir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1."O'zbek tilining izohli lug'ati"- A. Madvaliyev tahriri ostida,"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2006-2008 1-jild.

2. A.Madvaliyev – "O`zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari".
Toshkent 2017,

3. A.Jumaniyozov, SH.Rahimova – "O`zbek tilidagi attributiv qo`shma so`zlar, yohud bahuvrihilar". Urganch 2018.

UO'K 81-13

F.NITSHENING "ZARDUSHT TAVALLOSI" ASARINING O'ZBEK TILIGA TARJIMASIDA SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Y. Karimova, magistrant, Urganch Davlat Universiteti, Urganch
F.Radjapova, PhD, Urganch Davlat Universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Fridrix Nitshening hayoti va ijodi, "Zardusht tavallosi" nasriy dostonining yaratilish tarixi, asar g'oyasi, asardagi matn uslubi, asar aforizmlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mitti pastor, hamma uchun va hech kim uchun, a'lo odam, metafizika, nigilizm, abadiy qaytish*

Аннотация. *В данной статье речь идет о жизни и творчестве Фридриха Ницше, истории создания прозаического эпоса «Так говорил Заратустра», идее произведения, стиле текста, афоризмах произведения.*

Ключевые слова: *карлик-пастор, для всех и ни для кого, великий человек, метафизика, нигилизм, вечное возвращение*

Abstract. *This article deals with the life and work of Friedrich Nietzsche, the history of the creation of the prose epic "Thus Spoke Zarathustra", the idea of the work, the style of the text, the aphorisms of the work.*

Key words: *dwarf-pastor, for everyone and for no one, great man, metaphysics, nihilism, eternal return*

Mashhur nemis faylasufi Fridrix Nitshe 1844-yil 15-oktabrda Saksoniyaning Rekken shahrida tug'ilgan. Protestant ruhoniysi oilasida dunyoga keladi va taqvodorlik muhitida ulg'ayadi. Gimnaziyadagi o'rtoqlari uni „Ibodatxonadagi 12 yoshli Iso"ga o'xshatib "Mitti pastor" deb chaqirganlar. 1864-yilda u Bonn shahrida klassik filologiya sohasida o'qishni boshlaydi va keyinchalik o'qishi Layptsigga ko'chiriladi. Yigirma to'rt yoshida iqtidorli talaba Bazel shahrida professorlikka tayinlandi. "Musiqa ruhidan fojianing tug'ilishi" nomli ilk noan'anaviy asari orqali u tezda taniladi va falsafaga o'zini baxshida qildi. Uning "Bemavrid mulohazalar" asari faylasuf Artur Shopengauerdan ilhomlanib yozilgan. Bastakor Richard Vagner bilan Nitshe Bayrutda do'stlik tamaltoshini o'rnatadi. Ammo Vagner nasroniylikni qabul qilganligi uchun ko'p o'tmay u bilan aloqalar uzilib qoladi.

1879-yilda sog'lig'ining keskin yomonlashishi tufayli Bazeldagi professorlik faoliyatini tugatadi. Kuchli migren bosh og'rig'i va ko'z og'rig'idan aziyat chekadi. 1888-yilda falaj bo‘lib qoladi, ko‘p o‘tmay aqli zaiflasha boshlaydi. Singlisi Elizabet uning o‘limiga qadar mehribonlik ko‘rsatadi. Vafotidan so‘ng esa Nitshening ijodiy merosi haqida qayg‘uradi. Nitshe kasalmand, odamlarga qo‘shilisha olmaydigan, noqulay inson edi. U o‘zi xayolan yaratgan ideal inson timsoliga butkul berilib, tanholikda yashashni afzal ko‘rardi. U 1900-yil 25-avgustda Vaymarda vafot etdi.

Nitsshe hayotining so‘nggi yillarida quyidagi asosiy asarlarini yaratadi: „**Tong yallig‘i**“ (1881), „**Quvnoq bilim**“ (1882), „**Zardo‘sht tavallosi**“ (1883–1885), „**Yaxshiliklik va Yovuzlik ortida**“ (1886), „**Axloq geneologiyasi**“ (1887), “**Sajda qilinadiganlarni xira tortishi**”(1888), “**Hokimiyatga intilish**”(1906).

“Zardusht tavallosi” nasriy dostoni nemis faylasufi Fridrix Nitshening eng ko’p muhokamalarga sabab bo’lgan va o’quvchilar tomonidan sevib o‘qiladigan asarlaridan biridir. Asar o‘zining hikmatli so’zlarga, obrazlarga boyligi bilan va lirik jihatdan mukammal shaklga egaligi bilan zamonaviy falsafada o‘ziga xos o’ringa ega. Bosh qaharamon sifatida g’arbning buyuk faylasufi Nitshe zardushtiylik dinining asoschisi va sharq mutafakkiri bo’lmish Zardushtni tanlashi e’tiborni tortmay qolmaydi. F.Nitshe sharq falsafasining katta bilimdoni bo’lganini yana bir bor ta’kidlash o’rinlidir. F.Nitshe- sharq tafakkur tarzini chuqur o’rgangan, unga e’tiqod bilan qaragan va keng targ’ib etgan dunyoviy allomalardan biri. U o’z g’oyalariga najot izlaydi. Xususan, Zardusht timsolida erkin va ozod insonni ko’radi. Boshqacha aytganda, adib ta’limoti Sharq falsafasining nitsheyona ifodasidir [1].

Kitobning bosh g’oyasi-komil insonni, ya’ni shaxsning yangi toifasini tarbiyalash nazariyasidir. F.Nitshe o’ta qattiqqo’llik, shavqatsizlik va majburiy tartib intizom bilan tarbiyalash mumkin bo’lgan benihoya qudratli va mukammal shaxsni madh etadi.

Ikki qismdan iborat “Zardusht tavallosi” kitobining birinchi qismi 1883-yili, to‘liq nashri esa 1892-yili chop etiladi. Muallifga juda katta shuhrat olib kelgan ushbu kitob fikr bilan tuyg‘u, aql bilan hissiyot, yuksak falsafiy mushohada bilan ehtirosli badiiyat qorishib, mutlaqo o‘ziga xos nasriy doston sifatida yuzaga kelgan. Ushbu nodir asarni taniqli olim va yirik tarjimon Ibrohim G‘afurov rus tilidan zo‘r mahorat bilan nasriy yo’lda o‘zbek tiliga o‘girgan. She’riy usulda esa Abdihamid Pardayev “Zardush nidosi” deb tarjima qilingan. Shu ma’noda, F.Nitshe asarning ikkinchi nashriga “**Hamma uchun va hech kim uchun**” degan tagsarlavhani bekorga qo’ymagan. Zotan, dostonda ilgari surilgan *a’lo odam* g’oyasi barkamollika, yetuklikka da’vat hammaga, butun insoniyatga tegishlidir. Ammo hech kim bunday yuksak talab va oliy me’yorlarga javob berolmaydi. Boshqacha aytganda, Zardusht tavallosining, Nitshe munojotining zamirida ideal inson g’oyasi mujassam ekani holda, afsuski, bunday barkamol inson haligacha shakllangani yo’q. Zotan, “Alo odam- ilohga yaqin odam”. Ayni chog’da “Alo odam ham eng avvalo odam”. Adibning kitobi hammaga, ayni paytda hech kimga, ya’ni mavjud bo’lmagan ana shu inson- a’lo odamga bag’ishlangan. Nitshening Zardushti birovlar ustidan hukmronlik qilishga intilmaydi, aksincha u o’z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo’lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdoridir [2].

O’ttiz yillik yolg‘izlikdan so‘ng Zardusht o‘z hikmatlarini xalqqa yetkazish uchun tog‘likdagi hayotidan voz kechadi. Yuksak so’z qudrati sohibi Zardusht hayotning turli jabhalari haqida qisqa parchalarda kuylaydi va she’r yozadi hamda shu tariqa “Nitshe” falsafasini targ’ib qiladi. Bu falsafa “Xudo o‘ldi” degan tushunchaga asoslanadi va hayotni din va metafizika [3] orqali anglashga undaydi. “A’lo odam” yoxud “Übermensch” [4] xudoning o‘rnini egallashi va odamlarga o‘z yomon illatlaridan qochishi uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi kerak. “Kuchli iroda” shunda yordam beradi: Kimki yangi narsani o‘ylab topsa va yaratsa, u kuchli inson sifatida dunyoni o‘zgartira oladi. Bu degani eskilik sarqitini yo’q qiloladi. "Abadiy qaytish" g'oyasi odamlarga shunday yordam berishi kerak: Sodir bo'lgan hamma narsa cheksiz ko'p marta sodir bo'lgan va yana va yana sodir bo'laveradi. Shuning uchun inson hayotni sevishi va qabul qilishi kerak. Nitsshe Zardushtda o‘zining nigilizmini[1] yengib, xalqda umid uyg‘otadi. Shu bilan birga asar uning ruhiy tanazzulga uchrashining boshlanishini ko'rsatadi.

Asar to'rt qismga bo'lingan. Birinchi va to‘rtinchi bo‘limlar sujetlarga boy, ikkinchi va uchinchi qismlar faqat Zardusht nutqlaridan iborat. Birinchi qismning boshida Zardushtni shaxs sifatida tanishtiruvchi so‘zboshi berilgan. Birinchi qismda yigirma ikkita, ikkinchi qismida yigirma ikkita, uchinchi qismda o’n oltita nutq bor. Yigirmata nutqdan iborat bo’lgan to'rtinchi qism asarning sahnaviy kulminatsiya nuqtasi va yakuniy qismini tashkil qiladi: Nitsshe Zaratusht sahna bilan xayrlashgunga qadar bu yerda ma’naviy-axloqiy kabaretini namoyish qiladi. Zardusht nutqlarining belgilovchi ritorik elementi bu axloqiy-tarbiyaviy, deyarli qolipga tushgan fikrlar marjoni ya‘ni **aforizm**lardir. Bundan tashqari Nitsshe ko'plab assotsiatsiyalar, metaforalar, o'xshatishlar va allegoriyalar bilan ishlaydi.

[1] **Nigilizm**-(lot. nihil — hech nima) — mavjud ijtimoiy hayot shakli va axloqiy normalarni, madaniy meros hamda ideallarni inkor etish.

O'quvchi navbatma-navbat turfa hayol o'yinlari-yu tiniq ifodalangan hikmatli so'zlarga duch keladi. Kitobning birinchi qismida qo'shiqlar sochmasi bo'lsa, to'rtinchi qismda esa Nitshe antik davr yunon xudosi Dionisning sharafiga aytiladigan madhiya kabi ditiramblardan (erkin vaznli, ruhlantiruvchi she'rga o'xshash matnlar) foydalanadi. Zardusht isbotlash uchun dalil keltirmaydi, nimadandir odamlarni boxabar qiladi. Nutqlarning tuzilishi cherkovda o'qiladigan eng katta ibotad „Liturgiya"ni eslatadi. Masalan, har bir nutq o'ziga xos "Omin", ya'ni "Zardusht shunday gapirdi, tavvallo qiladi, nola qiladi"so'zi bilan tugaydi. Garchi Zardusht obrazi o'zini "Payg'ambar" yoki „Masih" deb tushinilmasa ham har bir nutq oxiridagi bu so'zlar diniy najot haqidagi taasavvurni yuzaga chiqaradi. Kitob uslubiy risola emas hamda hozirgi zamonning barcha falsafiy asarlaridan farq qiladi. She'riy-falsafiy asar bo'lib, o'zining sayqallangan ritorikasi va uslubi bilan o'ziga xosdir. Quyida dostondan parchalar keltiriladi:

1) Zarathustra ist ein Einsiedler, der nach Jahren der Einsamkeit und Selbstbesinnung seine Bergwelt verlässt, um den Menschen seine Weisheit mitzuteilen. Auf seinem Weg begegnet ihm ein Weiser, der, allein im Wald, mit Gott sein Glück gefunden hat. Zarathustra wendet sich schnell von ihm ab und wundert sich, dass der Greis noch nicht vernommen hat, **dass Gott tot ist**.

„Als Zarathustra aber allein war, sprach er also zu seinem Herzen: ‚Sollte es denn möglich sein! Dieser alte Heilige hat in seinem Walde noch Nichts davon gehört, dass Gott todt ist!'" (S.5)

Zardusht uzoq yillik yolg'izlikdan va o'zligini anglagandan so'ng hikmatini xalq bilan baham ko'rish uchun tog'dagi hayotini tark etgan zohiddir. O'rmondagi yo'ldan ketayotib Xudo orqali o'z baxtini topgan bir yolg'iz donishmandni uchratadi. Zardusht tezda undan o'zini olib qochadi. Chunki chol hali Xudoning o'lganini eshitmaganiga hayron bo'ladi.

"Zardusht yolg'iz qolganida, u yuragigashunday dedi: "Bunday bo'lishi ham mumkinmi axir! Bu keksa avliyo hali o'z o'rmonida xudo o'lganini eshitmagan!" (5-bet).

2) In der nächstgelegenen Stadt spricht Zarathustra auf dem Marktplatz zur versammelten Menge: "**Ich lehre euch den Übermenschen**." Um diesen zu erschaffen, müsse der jetzige Mensch und damit alles Bestehende untergehen. Glück, Vernunft und Tugend seien zu überwinden; insbesondere die Genügsamkeit hält Zarathustra für das größte Laster und Zeichen des Mittelmaßes. Auch der Glaube an etwas Göttliches, also etwas, das jenseits des Irdischen liegt, sei ein Irrweg. Der Übermensch würde all dies abwerfen und dadurch einen höheren, mächtigeren Zustand erreichen.

„Vieles krankhafte Volk gab es immer unter Denen, welche dichten und gottsüchtig sind; wüthend hassen sie den Erkennenden und jene jüngste der Tugenden, welche heisst: Redlichkeit." (S. 25)

Zardusht eng yaqin joylashgan shaharning bozor maydonida to'plangan olomonga shunday dedi: "Men sizga "Komil inson" haqida o'rgataman". Bunga erishish uchun hozirgi inson va u bilan birga mavjud bo'lgan barcha narsa yo'q bo'lishi kerak. Baxt, aql va ezgulikga ega bo'lishlari kerak. Zardusht, ayniqsa, tejamkorlikni eng katta illat va o'rtamiyonalik belgisi deb biladi. Ilohiy narsaga, yerga taalluqli bo'lmagan narsalarga e'tiqod qilish ham xatodir. Komil inson bularning barchasini yengib o'tadi va shu tariqa yuqoriroq, kuchliroq mavqega erishadi.

"Ijodkorlar va xudoyjo'ylar orasida ruhan ojiz insonlar ham mavjud. Ular halollikni taniganlardan va eng kichik ezgulik qiluvchilardan o'ta nafratlanadilar"(25-bet).

3) Die Menge lacht Zarathustra aus. Dieser bietet ihr daraufhin einen Gegenentwurf zum Übermenschen an: den "letzten Menschen", ein genügsames, zahmes, sehnsuchtsloses Wesen, das behaglich und durchschnittlich lebt und dabei glaubt, glücklich zu sein. Obendrein behauptet dieser "letzte Mensch", sein Glück "selbst erfunden" zu haben. Sollte er sich durchsetzen, dann werde es weder Arm noch Reich geben, alle Menschen wären gleich, alle Beschwerlichkeit würde vermieden und man würde nur noch zum Vergnügen arbeiten. Dieser Menschentypus mache alles Erhabene klein und sei nicht schöpferisch tätig.

„Von allem Geschriebenen liebe ich nur Das, was Einer mit seinem Blute schreibt. Schreibe mit Blut: und du wirst erfahren, dass Blut Geist ist."29S

Olomon Zardusht ustidan kuladi. Keyin u xalqqa komil insionga muqobil variantni taklif qiladi: "Oxirgi odam", kamtar, yuvosh, , hissiz , qulay va o'rtacha yashaydigan va o'zini baxtli deb hisoblaydigan maxluqotdir. Yuqorida ta'kidlangandek „Oxirgi odam" o'z baxtini o'zida topgan. Agar u g'alaba qozonsa, na boy, na kambag'al bo'lar, hamma odamlar teng bo'lar edi, barcha qiyinchiliklar yengilardi va yana faqat zavq bilan ishlardi. Bunday odam turi hamma ulug'vorligini yo'qotardi va yaratuvchan bo'lmay qolardi.

"Yozilganlarning hammasidan men faqat o'z qoni bilan yozganni yaxshi ko'raman. Qon bilan yoz, shunda anglaysan qon aslida ruh ekanligini. " (29-bet).

4) Die Menge ist begeistert und ruft: "Gib uns diesen letzen Menschen!" Auf den Übermenschen könne sie dagegen gerne verzichten. Zarathustra wird klar, dass er nicht zur Menge reden kann, sondern dass er für die Weitergabe seiner Ideen selbstständig denkende Gefährten braucht, Gefährten, die bereit sind, sich selbst zu finden. Er will also nicht der Hirt einer Herde sein und die Masse führen,

sondern vielmehr ein Räuber, der dieser Herde einzelne, besondere Wesen entreißt und mit sich nimmt. Als erste Gefährten findet Zarathustra einen Adler (das stolzeste Tier) und eine Schlange (das klügste Tier).

Olomon hayajonlanib jar soldi: "Bizga oxirgi odamni ko‘rsat unda!" U komil insonga qarshi tura olsin. Zardusht olomonga gapira olmasligini, biroq o‘z g‘oyalarini yetkazish uchun mustaqil fikrlaydigan, o’zligini tanishga tayyor hamrohlar kerakligini tushunadi. Shunday qilib u suruvning cho'poni bo'lib ommani boshqarmoqchi emas, balki bu suruvdan alohida o’ziga xos maxluqotlarni suruvdan qutqarib olib, o'zi bilan olib ketuvchi qaroqchi bo'lishni xohlaydi. Zardusht birinchi hamroh sifatida burgut (eng mag'rur hayvon) va ilonni (eng aqlli hayvon) topadi.

5) Einmal beißt eine Natter Zarathustra in den Hals, saugt ihr Gift aber wieder auf, als Zarathustra ihr sagt, dass sein "Gift" stärker und grausamer sei als das ihre. Später erklärt er seinen Jüngern: Er selbst sei das Unmoralische schlechthin, er sei noch unmoralischer als die Schlange, die ja als Sinnbild des Bösen gilt. In weiteren Reden macht sich Zarathustra über die Welt seiner Zeitgenossen lustig: Keuschheit und Prüderie, Krieg und Staat, Partnerschaft, Erziehung, das Verhältnis von Mann und Frau etc. Zarathustra geißelt z. B. den Staat als Ersatzreligion, die sich nach dem Tode Gottes etabliert habe und den Menschen ähnlich wie eine Religion entmündige.

„Nicht den Nächsten lehre ich euch, sondern den Freund. Der Freund sei euch das Fest der Erde und ein Vorgefühl des Übermenschen.“ (S. 48)

Bir kuni ilon Zaratushtning bo'ynini chaqib oladi, lekin Zaratusht unga "zahari" unikidan kuchliroq va o’tkirroq ekanligini aytganida yana zaharini so'rib oladi. Keyinchalik u shogirdlariga tushuntiradi: Uning o'zi eng katta axloqsizlikdir, u yovuzlik ramzi bo'lgan ilondan ham axloqsizroq sanaladi. Zardusht keyingi yana bir gapida o‘z zamondoshlari dunyosini masxara qiladi: iffat va sharm- hayo, urush va hokimiyat, hamjihatlik, ta’lim-tarbiya, erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar va hokazo. Zaratusht masalan davlatni xudoning o‘limidan so‘ng joriy etilgan o’rinbosar din sifatida ko‘radi va odamlarni esa xuddi dinga o‘xshatib aytyapti.

“Men sizlarga shunchaki tanish insoningiz haqida emas balki do‘stlik haqida o‘rgataman. Do‘stingiz yer yuzining quvonchi bo‘lsin va komil odamning tuhvasi bo‘lsin” (48-bet).

6) Außerdem verspottet er die Prüderie und Körperfeindlichkeit und wendet sich gegen die Verächter des Leibes: Der Körper und die Leidenschaften seien genauso wie die Gedanken Bestandteile des Menschen und sollten daher nicht zugunsten der Vernunft unterdrückt werden. Auch in Sachen Freitod zeigt sich Zarathustra als unbedingter Verfechter der menschlichen Freiheit: Der Mensch habe das Recht, zu einer ihm selbst passenden Zeit zu sterben, und damit auch, seinen Tod selbst herbeizuführen. Niemand solle zur Geduld und zu einem langsamen Tod gezwungen werden. Die Feigheit sei kein guter Ratgeber, und Zarathustra belächelt diejenigen, die zu ängstlich zum Selbstmord sind.

„ Könntet ihr einen Gott schaffen? - So schweigt mir doch von allen Göttern! Wohl aber könntet ihr den Übermenschen schaffen.“ (S. 66)

Bundan tashqari u sharm-hayo va o’z tanasidan nafratlanish ustidan masxara qiladi va tanasini mensimaydiganlarga qarshiyuzlanadi: tana va hissiyotlar insonning tarkibiy qismi bo’lmish fikrlari kabidir va shuning uchun aql uni nazorat qilolmasa kerak. O'z joniga qasd qilish haqida gap ketganda, Zardusht o'zini inson erkinligining so'zsiz himoyachisi sifatida ko'rsatadi: inson o’z taqdiriga bitilgan vaqtda vafot qilishi va shu tariqa o'z o'limini uning o’zi chaqirib olishi haqida so’z yuritadi. Hech kimni sabrli bo'lishga va sekin o'lishga majburlamaslik kerak. Qo'rqoqlik yaxshi ish emas va Zardusht o'z joniga qasd qilishdan juda qo'rqqanlarga bir kulib qo‘ydi.

„Xudo bir tumsoldir, lekin men siizning tumsolingiz bunyodkor irodangizdan nariga o’tmasligini istardim. Siz xudoni bunyod qila olarmidingiz? – Har qanaqa ilohlar haqida menga gapirib o’tirmang! Lekin siz hech qanday shak-shubhasiz a’lo odamni yaratishingiz mumkin edi.“ olasizmi? - Hamma xudolar haqida sukut saqla! Lekin siz, albatta, supermenni yaratishingiz mumkin.” (66-bet)

7) Überhaupt ermutigt er die Menschen, auf die eigenen Bedürfnisse und Leidenschaften zu hören, tapfer zu sein und Risiken einzugehen, sogar das Risiko des eigenen Todes: Auf Biegen und Brechen am Leben festzuhalten sei zwar weit verbreitet, aber die falsche Einstellung. Er wiederholt auch seine Absage an das Jenseits: Jede Vorstellung, jenseits des Irdischen gebe es etwas anderes, Besseres, sei falsch.

„Wo ich Lebendiges fand, da fand ich Willen zur Macht; und noch im Willen des Dienenden fand ich den Willen, Herr zu sein.“ (S. 91 .)

Umuman olganda, u odamlarni o'z ehtiyojlari va ehtiroslarini tinglashga, mard bo'lishga va tavakkal qilishga, hatto o'z hayotini xavf ostiga qo’yishga chorladi: Hayotda nimanidir bor kuch bilan ushlab qolishga urinish bu bir xomhayoldir. U narigi dunyo mavjud emasligini takror va takror aytadi: Yerdan tashqarida yaxshiroq bir makon bor degan har qanday fikr noto'g'ri.

„Men qayerdaki tirik odamni ko’rsam, u yerda kuchli bo‘lishga iroda topdim. Va yana xizmatkorlar irodasi oldida boshliq bo’lish irodasini ham topdim“(91-bet)

Xulosa qilib aytganda, Nitshe bizni ezgulik va yovuzlikka, tangri va odamlarga, haqiqat va yolg'onga, hatto o'z-o'zimizga ha butkul yangicha yangicha nigoh bilan qarashga undaydi hamda aksar hollarda bu nido-tavallolarga ko'ndiradi. Shu bois kitobni o'qib chiqqach, endilikda o'zingizni, o'z siyratingizni mutlaqo tanimay qolasiz. Shu paytgacha fe'l-atvoringizga xos bo'lgan qandaydir biqiqlik, murosasizlik, aqidabozliklardan asar ham qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Нитше Ф. Зардушт таваллоси. – Т.: "Янги аср авлоди", 2007.
2. Нарзулла Жўраев. Тахайюл, тасаввур, тафаккур. – Т.: "Янги аср авлоди", 2015.
3. Зардушт нидоси [Матн]: таржима / Ф.Нитше. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2017 йил, – 292 б.
4. https://www.getabstract.com/de/zusammenfassung/also-sprach-zarathustra/3946
5. https://www.pileface.com/sollers/pdf/Zarathustra.pdf/

UO'K 808.3

METAFORANING O'RGANILISHIGA DOIR YONDASHUVLAR

A.Kosimov, o'qituvchi, Farg'ona Davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Kundalik hayotimizda metaforalardan qanchalik ko'p foydalansak ham, uning o'ziga xos xususiyatlari va nafaqat nutqimiz, balki ongimizning insonlarni tushunish va anglash mexanizmlarida tutgan o'rni haqida kam ma'lumotga egamiz. Ushbu maqolada metafora atamasining qisqacha tavsifi, Aristotelning metaforaga bergan ta'rifi, shuningdek metaforaning notiqlik san'atida tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, antik davrdan shu kungacha bo'lgan metaforani o'rganishga bo'lgan yondashuvlar haqida ham to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *notiqlik san'ati, "Ritorika", taqqoslash, ongning psixologik mexanizmlari, o'zaro ta'sir nazariyasi, "konseptual metafora nazariyasi".*

Аннотация. *Чем больше мы используем метафоры в нашей повседневной жизни, тем меньше мы знаем о ее специфических особенностях и роли не только нашей речи, но и нашего сознания в механизмах понимания и осмысления людей. В этой статье дается краткое описание термина метафора, определение метафоры Аристотелем и роль метафоры в искусстве речи. Также обсуждаются подходы к изучению метафоры с древнейших времен до наших дней.*

Ключевые слова: *публичное выступление, риторика, сравнения, психологические механизмы сознания, теория взаимодействия, теория концептуальной метафоры.*

Abstract. *The more we use metaphors in our daily life, the less we know about their specific features and the role of not only our speech but also our consciousness in the mechanisms of understanding and comprehending people. This article provides a brief description of the term metaphor, Aristotle's definition of metaphor, and the role of metaphor in the art of speech. Approaches to the study of metaphor from ancient times to the present day are also discussed.*

Keywords: *public speaking, rhetoric, comparisons, psychological mechanisms of consciousness, interaction theory, conceptual metaphor theory.*

Kirish. Metafora - yunoncha "metapherein", "o'tkazish" degan ma'noni anglatadi. "Metafora nutq shakli bo'lib, unda so'z yoki iborani ifodalash uchun bu so'zlarga tegishli bo'lmagan so'zlar orqali narsa yoki hodisani tasvirlash uchun ishlatiladi" [2]. Bir turdagi obyektni bildiruvchi so'z yoki ibora, ikki narsa o'rtasida o'xshashlik yoki o'xshashlikni bildirish uchun boshqasining o'rnida ishlatiladi. "Ikki narsani bir-biriga taqqoslash orqali ikkinchi narsaning o'xshash sifatlari nazarda tutiladi. Bu taqqoslashning aniqroq tavsiflovchi usulidir". [4] Metaforalar adabiy vosita emas, balki ongimizning tubida tushunish va anglash singari mexanizmlar bilan chambarchas bog'liq psixologik vositadir. Masalan, dunyoning sahnaga, sevgi tuyg'usi esa jang maydoniga, hayot shokolad qutisiga o'xshatilishi bu insonning ushbu mavhum tushunchalar haqida tezroq va aniqroq tushunishiga yordam beradi. Ta'kidlash joizki, metaforalarni tushunish mexanizmlari insonning hayot va turmush tarsi bilan chambarchas bog'liqdir, ya'ni bir xil metaforani insonlar turlicha tushunishlari mumkin. Bu ularning hayotida bo'lib o'tgan past-balandliklarning ongga bo'lgan ta'siriga bog'liqdir.

Metafora haqida Aristotelning qarashlari: Metafora va uning xususiyatlari haqidagi o'rganishlar antik davrga borib taqaladi. Aristotel (384-322- yillar) (ba'zi manbalarda "Arastu") metaforalar va ularning kundalik hayotdagi o'rniga birinchi bo'lib e'tibor bergan tarixiy shaxsdir. U o'zining "Ritorika" asarida shunday deydi: *"Bugungi kunga qadar eng katta narsa bu metafora ustasi bo'lishdir. Bu boshqalardan o'rganib bo'lmaydigan yagona narsa; va bu ham daholikning belgisidir, chunki yaxshi metafora o'xshashlikning o'xshashligini intuitiv idrok etishni nazarda tutadi.* Ushbu so'zlari orqali Aristotel metaforalarni inson aqliy daholigining bir "nishona"si sifatida talqin qilgan. "Metafora yaratuvchisining

intuitiv ravishda baholanishi kerak bo'lgan ikkita o'xshashlikka nisbatan o'xshashlikni idrok etish uchun sezgi bilan ijodiy harakatini nazarda tutadi bu esa o'xshashlikdagi o'xshashlikni kashf qilishga olib keladi." [1] Bundan tushuniladiki, insonning tafakkuri va uning aqliy jihatdan sog'lomligi, ongning psixologik mexanizmlari metaforalarning nafaqat yaratilishida, balki uning tushunilishida ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Aristotel o'zining "Ritorika" asarida metaforalarning yana bir xususiyati haqida to'xtalib o'tadi. Notiqlarning tinglovchida iliq taasurot qoldirishi muhim sanaladi. Aristotel notiqning auditoriyani yoki ommani o'ziga jalb etishi uchun hazil - mutoyiba so'zlar bilan lirik chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli til obrazlaridan foydalansa, chog'ishtirish va metaforalarni qo'llasa, nutqining ta'sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko'payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo'ymasligi kerakligini ham ta'kidlaydi. Bunda Aristotel metaforaning afzalliklarini ravshanlik, iliqlik, yengillik, dolzarblik va ifodaning jonliligi va ajablantirish qobiliyatini o'z ichiga olgan nafislik timsoli sifatida muhokama qiladi. Aristotel shuningdek ibratli ma'noga ega va ma'no jihatidan "kuchli" bo'lgan metaforalardan foydalanish, insonlar ongida hayrat va zavq tuyg'usini oshirishda asosiy "qurol" ekanligini ta'kilagan. Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki, "Aristotel metaforalardan noto'g'ri foydalanish inson obro'sini keskin tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkinligi haqida qayta-qayta ogohlantirgan." [3]

Metaforaning o'rganilishiga oid turli xil yondashuvlar: XIII asrda rimlik Giles Aristotelning "Ritorika" asariga mashhur sharh yozgan. Uning fikricha, Aristotel ta'kidlab o'tgan to'rt xil metaforalar quyidagicha:

- "asteyum "(yoki asteycum) [o'rgatish uchun ishlatiladigan kuchli o'xshatish; jonli, hazilli metafora]
- "proverbium" [maqollar, hikmatli so'zlar]
- transumptio [metaforaning eng oddiy shakli, masalan. "Axilles – sher"]
- assimilatio [ma'lum bir o'xshashlik asosida taqqoslash. [9]

Aynan shunday qarashlar sababli, XX asrning boshlarigacha metaforaning asl o'rni faqatgina adabiy tilshunoslik va ritorikada degan "noto'g'ri g'oya" shakllanib keldi. Ammo 1899-yilda fransuz tilshunosi Breal o'zining "Semantika bo'yicha insho" (Essai de Sémantique) asarida metaforani nutq uchun shunchaki "dekorativ element" emasligini ta'kidlaydi. Uning ushbu asari Amerikalik tilshunoslarning ushbu sohada yanada chuqurroq izlanishlar olib borishiga turtki bo'ladi.[6] Shundan so'ng, Richards 1936-yilda o'z asarida "o'zaro ta'sir nazariyasi" haqida to'xtalib o'tarkan, metaforalarning barcha tarkibiy komponentlarining o'zaro ta'sirlari, ularning ma'no ifodalash va taqqoslashdagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi. [5] Keyinchalik Maks Blek (1967) ham o'zining ilmiy izlanishlarida Aristotelning metaforaga nisbatan "qarash"larini juda oddiyligini va uni qabul qilib bo'lmasligini ta'kidladi. [6] Blekning ta'kidlashicha, metafora faqat so'zning ma'nosiga emas, balki kontseptual tuzilish (tafakkur)ning chuqurroq darajasida ishlaydigan aloqa usulidir. U Richardsning o'zaro ta'sir nazariyasini kengaytirib, Richards qisqacha tavsiflagan o'zaro ta'sirlarning nozik tomonlarini diqqat bilan ta'riflab berdi. Agar Aristotelning yondashuvini "metaforaning qiyosiy ko'rinish"i deb hisoblasak, XX asrda Aristotel nazariyasining ba'zi izdoshlari Markus Xester (1967) va Virjil Aldrich (1968) birgalikda "bir buyumni boshqa buyumdek ko'rish" nazariyasini ishlab chiqdilar. Masalan, ikki narsa taqqoslanadi, bu tarjimonni "bir ob'ektni boshqa ob'ekt kabi ko'rishga" undaydi. Ya'ni yuqorida ta'kidlab o'tilganidek metaforalar tarjima qilinganda, mos metafora topilmasa shunchaki izohlab qo'yishning o'zi yetarli deb hisoblanadi. [8]

"Konseptual metafora nazariyasi" va uning ahamiyati: Lakoff va Jonsonning ushbu sohada olib borgan qizg'in ilmiy tadqiqotlari tufayli metaforaning tavsifi haqida yangi nazariya paydo bo'ldi. Ular "konseptual metafora nazariyasi"ni (Conceptual theory of metaphor, CTM) ishlab chiqishdi. Ular Blekning nazariyasini yanada takomillashtirib, yangi nazariyaga asos solishdi va ushbu nazariya 1980 – yillardan beri ushbu sohadagi eng "hukmron" nazariya deb atash mumkin. Shu tariqa ushbu nazariya metaforani "dekorativ element va adabiy til bilan chegaralangan" deb hisoblagan oldingi nazariyalarni almashtirdi. Ushbu nazariya metaforaning konseptual jihatiga urg'u beradi va uning lingvistik jihatlarini pasaytiradi. So'nggi yillarda Lakoff va Jonson insonlar metaforik tarzda o'ylaydi, his qiladi va harakat qiladi, degan g'oyani o'rganib chiqishdi va shu g'oyani ilgari surishadi. Shunday qilib, tilning rasmiy tuzilmalari mustaqil ravishda o'rganilmaydi, balki umumiy kontseptual guruh, turkumlash tamoyillari va qayta ishlash mexanizmlarining aksi sifatida o'rganiladi. Tendal va Gibbsning ta'kidlashicha, "Kognitiv tilshunoslik bizning kundalik kontseptual tizimimizni tuzadigan keng metafora tizimi mavjudligini aniqladi. U mavhum tushunchalarni o'z ichiga oladi va kundalik tilimizning ko'p qismini tashkil etadi." [10]

Yuqoridagi ma'lumotlardan quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin. Metaforalar mavhum tushunchalarni anglash va mavhum fikr yuritishning asosiy mexanizmlaridir. Kundalik hayotimizda ro'y berayotgan ko'p voqea-hodisalarni aynan metaforalar orqali anglaymiz. Metaforalar lingvistik xususiyatga ega emas, aksincha konseptualdir. Konseptual metaforaga esa, bizning metaforik tilimiz yaqqol misoldir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, metaforalar bizga mavhum voqea-hodisalar haqidagi mavzuni aniqroq ifodalash va tushunishda boshqa til obrazlaridan ko'ra ko'proq yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashworth, E.J., 2007, 'Metaphor and the Logicians from Aristotle to Cajetan', *Vivarium*, vol. 45, pp. 311-327.
2. Hausman, C., 2006, 'A review of metaphorical theory and metaphorical reference revisited', *Semiotica 161* vol. 1, pp. 213-230.
3. Ibanez, F.J. & Hernandez, L.P., 2011, 'The Contemporary Theory of Metaphor: Myths, Development and Challenges', *Metaphor and Symbol* vol. 26, pp. 161-185.
4. Lakoff, G., 1986, 'A Figure of Thought', *Metaphor and Symbolic Activity* 1(3), pp. 215-225.
5. Lakoff, G., 2014, 'Mapping the Brain's Metaphor Circuitry: Metaphorical Thought in Everyday Reason', *Frontiers in Human Neuroscience*, vol.8, pp.1-14
6. Mack, B.L., 2014, 'A Secular Bible?', *Method & Theory in the Study of Religion*, vol. 26
7. McGlone, M.S., 2007, 'What is the Explanatory Value of a Conceptual Metaphor?', *Language & Communication*, vol. 27, pp. 109-126
8. Petrilli, S., 2006, 'Meaning, metaphor, and interpretation: Modeling new worlds', *Semiotica* 161(1), pp. 75-117
9. Tendahl, M. & Gibbs, R.W., 2008, 'Complementary perspectives on metaphor, Cognitive Linguistics and Relevance Theory', *Journal of Pragmatics*, vol. 40, pp. 1823-1864.
10. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). *Metaphors we live by*. Chicago: University of Chicago

UDC 81-13

LEXICOLOGY: THE PROCESS OF LOAN CREATION IN THE ENGLISH LANGUAGE

Q.A. Madaminova, teacher, Urgench State University, Urgench
Z.N. Djumaniyazova, teacher, Urgench State University, Urgench
M.S. Urinova, student, Urgench State University, Urgench

Abstract. *The aim of this paper is to present information on English lexicology, the process of loan creation, and categories of borrowings. In the main part, the author presents very briefly an inventory of foreign words used in English. The article finishes with an attempt to predict the future situation of borrowings in English communication.*

Key words: *lexicology, language, word, borrowings, loanwords, vocabulary*

Abstract. *The aim of this paper is to present information on English lexicology, the process of loan creation, and categories of borrowings. In the main part, the author presents very briefly an inventory of foreign words used in English. The article finishes with an attempt to predict the future situation of borrowings in English communication.*

Key words: *lexicology, language, word, borrowings, loanwords, vocabulary*

Abstract. *The aim of this paper is to present information on English lexicology, the process of loan creation, and categories of borrowings. In the main part, the author presents very briefly an inventory of foreign words used in English. The article finishes with an attempt to predict the future situation of borrowings in English communication.*

Key words: *lexicology, language, word, borrowings, loanwords, vocabulary*

Lexicology is the branch of linguistics that studies the stock of words (the lexicon) in a given language. It is quite simply defined as "the study of lexis, understood as the stock of words in a given language [1]. Lexicology deals not only with simple words in all their aspects but also with complex and compound words, the meaningful units of language. Since these units must be analyzed in respect of both their form and their meaning, lexicology relies on information derived from morphology, the study of the forms of words and their components, and semantics, the study of their meanings. A third field of particular interest in lexicological studies is etymology, the study of the origins of words. However, lexicology must not be confused with lexicography, the writing or compilation of dictionaries, which is a special technique rather than a level of language studies [1].

The essential difference between syntax and lexicology is that the former deals with the general facts of language and the latter with special aspects. Syntax is general because it deals with rules and regularities that apply to classes of words as a whole, whereas lexicology is particular because it is concerned with the way individual words operate and affect other words in the same context. Although borderline cases do exist in both lexicology and syntax, e.g., in the case of 'grammatical' or 'function' words, the distinction between the two levels is fairly clear [1].

Lexis and words in the English language are not all native. Thousands of English words are borrowed from numerous languages that have come in contact with English due to a myriad of factors. The Medieval Period or also famously known as the Middle Age is the period beginning with the fall of the Roman Empire as a result of raids by northern European tribes of "barbarians" in the late antiquity of the fifth and sixth centuries (Pounds, 2005). This era continued until the rise of knowledge and culture prosperity called

Renaissance happened between the years 1400 to 1500. During this era, the rebirth of culture appreciation and high interest in acquiring new knowledge had impacted the language in England especially in word borrowing.

Most linguists categorize borrowings in this way:

- *Loanwords* are words that keep their meaning and phonetic shape, when they find their way into another language. The word "pizza", for example, which has its origin in Italian, has the same "shape", in other words, is pronounced and written in the same way in both English and Italian, which makes it a "real" loanword. It is also important that the word is inflected in the same way. The plural forms therefore also have to be identical in both languages.

- A *semantic loan* is a borrowing where "the meaning of a foreign word is transferred onto an existing native word. An example of a semantic loan is the word "God". The word is a native English word and existed in Old English as well, but the Christian meaning it has today is borrowed from the Romans and their religion when they came to the British Isles.

- A calque or a "loan translation" is a "one-to-one translation of a foreign model". An example of a calque is the English word "embody", which has its origin in the Latin equivalent "incorporare" [3]. The word "loanword" is also a calque. The names of the days of the week are further examples of loan translations. They were borrowed from Latin approximately around 400 A.D. All Germanic people, except the Gothic, used the Germanic equivalents of the Roman gods when they named the days of the week, and the names are therefore from Germanic mythology.

The word "calque" can also stand for a "loan transfer", which is almost the same as a loan translation, the only difference being that "at least one part is semantically different from the model". An example of such a calque is the German word "Wolkenkratzer", which literally means "cloudscraper". Here "cloud" is used instead of "sky", while the word "scraper" is correspondingly translated.

A loan creation is another form of borrowing. A loan creation is a rather complicated type of borrowing, since a word or the meaning of word is not actually borrowed. If a new word is created in a language, and there was some sort of influence from other languages, even if only to a small degree, it is called a loan creation.

Usually, words that refer to exotic ideas, concepts or objects are borrowed. An example of this is how names of animals that do not inherently come from Great Britain are often loanwords in English [4]. The name of the animal is borrowed from the language that is spoken in the country in which the animal originally comes from or lives in.

English is borrowing words on a regular basis. The process of importing lexical items from other languages has never stopped, it has only changed its characteristics lately. The main features that are peculiar to it at present are the fact that the frequency of borrowing is considerably reduced and that English seems to be spreading its tentacles and borrow from less and less known languages. To prove this, Jackson and Amvela [1] mention that more than a thousand recent loan words from almost one hundred languages, which shows that "about 25% (of these) are from French, 8% each from Japanese and Spanish, 7% each from Italian and Latin, 6% each from African languages, German and Greek, 4% each from Russian and Yiddish, 3% from Chinese, and progressively smaller percentages from Arabic, Portuguese, Hindi, Sanskrit, Hebrew, Afrikaans, Malayo-Polynesian, Vietnamese, Amerindian languages, Swedish, Bengali, Danish, Indonesian, Korean, Persian, Amharic, Eskimo-Aleut, Irish, Norwegian, and 30 other languages."

With all this diversity of sources, as the study itself demonstrates, the largest supplier of loan words to English remains, at present, French. This may be because of the geographical proximity of France and England. A reason of the same kind, Mexico's vicinity with the United States, might lie behind the frequent borrowing from American Spanish by American English. The increase in importance of Japanese as a source of loans might be the consequence of Japan's having gained more and more power on the global market in general. As far as Latin, a former rich source of loans, is concerned, Jackson and Amvela [1] explain its decline as a provider of words to English both by the fact that, since English borrowed from it so extensively in previous ages, there is relatively little left to be borrowed and by the fact that, rather than borrowing directly from Latin, English often now creates new Latinate words from English morphemes originally from Latin.

The discussion so far about the sources of the English vocabulary has taken into account the native stock of the language and the various sources of borrowing, in different periods of time. Besides importing words from other languages, the English vocabulary has been continuously, enriching by another means – the formation of new lexical items.

REFERENCES:

1. Jackson, H., Amvela, E. Z. - Words, meaning and vocabulary: an introduction to modern English lexicology. – London Bloomsbury Academic, 2007.

2. Lockwood W. B. - Languages of the British Isles past and present. – London, 1999 - 262 p.
3. Oxford English Dictionary. Oxford University Press 2015.

UDC 80

THE SEMANTIC FIELD OF THE CATEGORY "SPIRITUALITY" IN RUSSIAN AND UZBEK

N.Mirhaydarova, teacher, Gulistan State University, Gulistan

Annotatsiya. *Mazkur maqolada "ma'naviyat" semantik maydoniga kiruvchi til brliklarining ular ifodalagan tushunchalar asosidagi izchil tartiblanishi tahlil qilingan, semantik maydonni tashkil etuvchi "ma'rifat" va "axloq" uzvlariga oid leksemalarning ideografik xaritasi belgilangan. Shuningdek, kategoriya sirasidagi tushunchalar orasida iyerarxik munosabatlar mavjudligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *konsept, axloq kategoriyasi, semantik maydon, uzv, ideografik xarita, iyerarxik munosabat, klaster uslubi, semantik chegara, sinonimik qator.*

Аннотация. *В статье анализируется последовательность языковых единиц в семантическом поле «духовность» на основе выражаемых ими понятий и выявляется идеографическая карта лексем «просвещение» и «мораль», составляющих семантическое поле. Он также основан на существовании иерархической взаимосвязи между концепциями внутри категории.*

Ключевые слова: *концепт, этическая категория, семантическое поле, часть, идеографическая карта, иерархическая взаимосвязь, кластерный стиль, семантическая граница, синонимичный ряд.*

Abstract. *The article analyzes the sequence of linguistic units in the semantic field "spirituality" on the basis of the concepts expressed by them and reveals the ideographic map of the lexemes "enlightenment" and "morality" that make up the semantic field. It is also based on the existence of a hierarchical relationship between concepts within a category.*

Key words: *concept, ethical category, semantic field, part, ideographic map, hierarchical relationship, cluster style, semantic border, synonymous row.*

In all sciences, the terminology is a basic word and key denoting the essence, laws and categories of the same science. In this sense, there is no such area of science so that its terms are not developed and published in the form of a separate book.

By the time of independence, especially after the Uzbek language received the status of state, the reform happened related to the terms, which was quite natural.The terms have changed not only in terms of quantity, but also in terms of quality, that is, content. It has already been proven by the science that changing vocabulary and terminology occurs quickly. As a result of the changes in the Uzbek linguistics at the end of XX and early XXI centuries, considerable opportunities were created to fulfill the tasks set before the national language, special attention is paid to the development of linguistic interceptive comparisons expressing various concepts. Currently, it occurs in order to ensure the complete introduction of the state language in our country.

From the first years of independence of Uzbekistan, spirituality has become a national issue as the main point of development of society.

Words with spiritual and moral content are part of the high vocabulary of the Russian language, no wonder M.V. Lomonosov included them in "High County", which was reflected in Russian rusticism (S.I. Ozhegov, V.V. Vinogradov, O.S. Akhmanova, NM Shansky, Nm. Swedov, etc.) Traditional spiritual and moral concepts are learned by consciousness, and are transmitted to the following generations, which contributes to the preservation of the national spiritual culture.

In the global linguistics, many studies have been conducted to study the essence of the concept of "Maanaviyt" ("spirituality"), by such scientists like L.Nyuman, R. Taniyi, T.Gaaka, S.Konnova, K. Kolkunova, T.Malevich, V. Kostomarova. To the most famous theorists of spiritual problems.

Intelligentsia in the times of the Soviet Union can be attributed to E.A. Ambarcumova, G.M. Andreev, P.P. Amelina, V.I. Astakhova, M.N. Rutkevich, S.N. Nadel and others. Russian spirituality was investigated by G.A.Avanesov, V.U. Babushkin, B.C. Barulin, L.P. Bueva, I.I. Garin, A.D. Kosichev, V.A. Kutyrev, A.V. Maslikhin, G.V. Platonov, G.M.Purnycheva, V.N. Shcherbakov, A.K. Paula, L.D. Shumykhina, Z.V. Fomina and others.

In the literature we are studying we can come across with the understandings such as National spiritual and moral values, national-patriotic spirituality. These issues were studied in the works of G. W. Soldatova, V.P. Ilyushchenko, Z.V. Sikevich, D.S. Likhacheva, N.K. Roerich, etc.

The problem of spirituality is paid considerable attention in the works of T.S. Georgieva, I.A. Ilina, V.I. Kopalova, M.N. Kovalensky, B.A. Rybakov, L.A. Shumilina and others.

There are also other studies on the problem of "spirituality" within the framework of socio-humanitarian sciences. In Uzbek linguistics, the development of the spiritual and educational vocabulary of the Uzbek language during the years of independence was partially studied by G. Tojiyeva, M. B. Ahmedova, F. Kh. Yuldashev.

The concept of "spirituality" is derived from the "Spirit". This term in Russian has long been denoted by what is the opposite of the substantial basis of being - "matter". There are many definitions of the concept of "spirituality" within the framework of the terms of philological and psychological.

In the "Dictionary of the Living Great Russian Language" V.I. Dal gives such a definition of spirituality: "Spirituality is the state of spiritual. Spiritual, disembodied, from one spirit and soul consisting ... all attributive to the soul of a person, all mental and moral forces of his, mind and will."

Spirituality, - n, f. The property of the soul, consisting in the predominance of spiritual, moral and intellectual interests above the material. (Explanatory dictionary of the Russian language. S.I. Ozhhegov, 1990)

Spirituality-f. Spiritual, intellectual nature, human essence, opposite to physical, ... (Explanatory dictionary of the Russian language Efremova T., SPb, 2006)

Spirituality is the set of manifestations of the spirit in the world and man and it is expressed in the form of moral values and traditions that are concentrated in religious teachings and practices, as well as in artistic art images.

The concept of spirituality is associated with such concepts that are manifested in personality in its inner world. These are such qualities as:

conscientious
honesty;
truthfulness;
Love for neighbor
mercifullness;
care;
wisdom;
kindness;
sincerity;
belief;
modesty;
compassion;

The development of these qualities gives a person the possibility of internal improvement of the inner "I", allows to gain the height of the spirit. The loss of spirituality is equivalent to the loss of humanity. Spirituality is incompatible with the focus on material interest.

The question of determining the concept of spirituality at all is sharp. So, in modern philosophical dictionaries, this term is almost never found. Neither in the "new philosophical encyclopedia" (2000), nor in the "philosophical encyclopedic dictionary" (1999), nor in the Russian philosophy dictionary (1995), nor in the "new philosophical dictionary" (2001) No definition. Only in the philosophical encyclopedic dictionary "Man" (2001) there is a relevant article written by the famous Russian psychologist D.A. Leontiev, who relied on psychological literature A. Maslou, K.-G. Yunga.

The term "Ma'naviyat" is absent in the "explanatory dictionary of the Uzbek language." There is only a sign of Ma'naviy (spiritual). Ma'naviy 1. Kishining Ichki, Ruxiy hayotiga oid. Ma'naviy exthiyozhlar, Ma'naviy yordam ...

2. Ahloqiy. Kishining ma'naviy qiyofasi.

Ma'naviy (a) 1. Relative to the inner spiritual life of a person. Spiritual needs. Moral help. Yosh o'qituvchining xar bir ishi Zag'chako'z domlaga ma'naviy jihatdan ham, modiy jihattan ham zarba edi. P.Tursun, O'qituvchi. 2. Moral. Man's moral appearance.

Ma'naviyat (ahloqiy xolat; barcha ahoqiy narsalar, hususiyatlar). Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, ahloqiy va sh.k. tasavvurlari va tushunchalari majmui. Maanaviyat-insonning, halqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. (O'zbek tilining izohli lug'ati, A. Madviliev tāhriri ostida, Toshkent, 2006-2008, 555 Bet.)

One of the methods of studying words - concepts in the language picture of the world is a field approach. Lingucultural field is a set of units reflecting the appropriate fragment of culture and combined with a common content (V.V. Vorobyev).

The concept of "spirituality" has a two-way meaning: religious and secular. The field "Spirituality" has an inhomogeneous structure: honesty, morality, faith, spirit, soul, truth, responsibility, conscience, justice.

In Uzbek, there is no alternative to the term "Ma‘naviyat" and the absence of its exact alternative in Russian. The expression " Ma‘naviyat " is translated into Russian as "spirituality". However, their lexicographical interpretation is not suitable for the expression of the word " Ma‘naviyat " and gives the value of the lexeme "Rukhiyat" in Uzbek.

The cause of different interpretation of the term " Ma‘naviyat " in Uzbek language is to a greater degree of reality. The essence of the expression has a national peculiarity and is a reality. Realities of this, the words (and symbol,) of the folk language, which are the names of objects, concepts, phenomena characteristic of the cultural environment, the material life or socio-historical features of a certain people, the nation, the country. Everyone knows that the translation of the realities is impossible. This problem is solved by transmitting sense based on context.

Speaking about the concept of spirituality, we can see an incredible number of discrepancies in the interpretation of this term. If you try to find the meaning of the word "spirituality" in any Internet search system, we will find a lot of links directly or indirectly related to the theme of spirituality related to works on philosophy, history, psychology, pedagogy, linguistics, etc. The term "spirituality" is used in a variety of values, and each author tries to enrich it with his personal-semantic content: for example, the use of the concept of "spirituality" in various qualities.

I begin to meet stunning people, and spirituality in this project is gaining momentum. Let the great domestic culture and spirituality become the basis of the cohesion of Russians. Let the morality and spirituality strengthen, let the human rod be powerful. According to her, the dress should transmit sincerity, spirituality, femininity and purity. Through spirituality and mutual understanding of humanity, we will move forward.

A lot is written about the spiritual crisis, about spiritual growth, about spiritual fall, and spiritual cleansing. Often the concept of spirituality is not just correlated, but replaced with such concepts as morality, mentality, value, meaning, culture, civilization. Nowadays, the task of a modern philologist, having a sufficient number of shades, interchangeable concepts, understand and develop an accurate definition of the concept of "spirituality" both in Russian and in Uzbek.

REFERENCES:

1. Historical - etymological dictionary of the modern Russian language. Chernikh P.Ya. In 2T - 3rd ed. - M.: Russian lang. 1999

2. Local dictionary of the living great Russian language: in 2 tons: V. I. Dal. M., 2002.

3. Russian dictionary of the Russian language, p. I. Ozhegova, N. Yu. Swedova, M., 1992

4.O‘zbek tilining izohli lug‘ati, A. Madvaliev tahriri Ostida, Toshkent, 2006-2008

5.Mirhaydarova N. O’zbek tilidagi “ma’naviyat” kategoriyasining ierarxik va ideografik xususiyatlari, //Til va adabiyot, №8,2021.

UO’K 808.3

SADRIDDIN AYNIYNING “DOXUNDA” ASARIDA QO‘LLANILGAN MAQOLLARNING SEMANTIK TADQIQI

R.Muslixiddinova, talaba, NavDPI, Navoiy
N.J.Yarashova, PhD, NavDPI, Navoiy

Annotatsiya. *Har bir millatning boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan paremiologik birliklar, ya’ni maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish doimo muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada S.Ayniy asarida qo‘llanilgan maqollarning madaniyatimizda tutgan o‘rnini aniqlash, lingvomadaniy jihatdan o‘rganish, semantik jihatdan tasniflash masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *paremiologik birliklar, maqol, matal, ibora, sema, semema.*

Аннотация. *изучение паремиологических единиц, то есть пословиц, поговорок и поговорок, живущих как неотъемлемая часть богатого духовного наследия каждого народа, всегда имеет первостепенное значение для отображения отраженного в них народного быта, образа человеческих чувств. В этой статье С.В работе Айни освещены вопросы определения места пословиц в нашей культуре, их лингвокультурного изучения, семантической классификации.*

Ключевые слова: *паремиологические единицы, пословица, поговорка, фраза, сема, семема.*

Abstract. *the study of paremiological units, that is, proverbs, sayings and sayings that live as an integral part of the rich spiritual heritage of each nation, is always of paramount importance for displaying the national way of life reflected in them, the image of human feelings. In this article, S. Aini's work highlights the issues of determining the place of proverbs in our culture, their linguistic and cultural study, semantic classification.*

Keywords: *paremiological units, proverb, saying, phrase, Sema, semema.*

Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir. Hikmatli so‘zlar, maqollar ─ noma'lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste'dodining masofa bilmas shu'lalari [3]. Badiiy asarlar mazmunan va shaklan jihatdan mutanosib bo‘lsagina, yetuk asar darajasiga chiqa oladi. Paremiologik birliklar barcha tillarda individual o‘rganilgan va hali ham tadqiq etilayotgan hodisadir.

Olim N.M.Shansky frazeologizmlarni to‘rt turga bo‘lib o‘rganadi:

1.Frazeologik chatishmalar; 2.Frazeologik butunliklar; 3.Frazeologik qo‘shilmalar; 4.Frazeologik iboralar [6].

Maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining gavharidir. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o‘rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hatto maqollar bilan, ularni asarlarda qo‘llanishi bilan tilimizda ham tarjima ishlari ham olib boriladi. Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, Q.Samadov, Sh.Shoahmedov, X.Abdurahmonov, M.Sadriddinovalarning ishlari, shuningdek, G‘aybulla as-Salomning 1966-yil nashr etilgan "Til va tarjima", 1961-yilgi "Maqola va idiomalar tarjimasi" ishlari ahamiyatga molikdir. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollarining to‘laqonli sinonimik lug‘ati esa B.Jo‘rayeva tomonidan tuzilgan. "Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo‘lgan o‘ziga xos axloqiy hodisalar kodeksidir" [7]. Maqollar orqali matn mazmuni anglashiladi. Asarlarda turli xil voqea- hodisalar, turli xil shaxslar obrazining tasvirini berishda, voqealarni to‘ldirib kelishda eng maqbul usul maqollarning qo‘llanilishidir. Ayniy har bir asarida maqollardan unumli foydalanadi. "Doxunda" asarida quyidagi maqollarni qo‘llanililganiga guvoh bo‘ldik: *"Boshqalar ham xizmatkoringiz, non-u tuzingiz bilan tarbiya topmoqdalar, ulara ham ba`zan ish buyuring!"" deganimda, u kishi "Alimardon dunyoda ikta emas.* ***"Har bir echki xirmon yancha olsa, ho‘kiz kerak bo‘lmay qolardi"*** *deb, mening uddaburonligimga ishora qildirlar. (27-bet)*

Azimshox xo‘jayin va Alimardon yasovul o‘rtasidagi suhbatda Bek tomonidan aytilgan bu gapning qistirib o‘tilishida, Bekning boshqa yasovullari ko‘p bo‘lsa-da, Alimardonga ko‘proq suyanadi, chunki u o‘z ishini ustasi bo‘lib, vazifasini maromiga yetkazib bajarar edi. Majozga asoslangan bu maqolda xirmon yanchishni faqat ho‘kiz kuchli bo‘lgani sabab (!) yancha oladi, echkining qo‘lidan kelmaydi. Agar echki ham qila olganda ho‘kiz nima kerak, uning ho‘kizligi (kuchliligiga nisbat berilyapti) qayerda qolardi deyilishi "Doxunda"dagi aynan o‘sha vaziyatga Alimardon yasovul qarashi bo‘yicha qolipdek mos tushgan.

"Tuya qancha katta bo‘lsa, yag‘iri ham shuncha katta" *deganlar, – dedi xo‘jayin, – somonim ko‘p bo‘lsa molim ham ko‘p. Bir hovuch somonnni hisobga olmasam buncha molni qanday boqaman. Menga xirmon boshidan ikki qop somon keltirib bergandek gapirasan-a! (22-bet)*

Bu o‘rinda ish yoki boshqa nimadir qanchalik katta yoki ko‘p bo‘lsa, uni muammosi ham shuncha katta bo‘lishi nazarda tutilyapti. Maqol aynan qo‘llangan vaziyat bilan muqoyasa qiladigan bo‘lsak, mol qancha ko‘p bo‘lsa, unga ketadigan xarajat, yemish ham anchayin bo‘ladi; tuya qanchalik katta bo‘lsa, karvonda anchayin tosh bosadi, ammo keyin uni yag‘iri ham bisyor bo‘ladi.

Ikki botmon berib, to‘rt botmon olayotirsiz. Biroz kam kelsa ham zarar ko‘maysiz! – dedi dehqonlardan biri. ─ ***"Hisoblasang qilni qirq bo‘l, bag‘ishlasang qing‘ir bo‘lma!"*** *deganlar, – dedi xo‘jayin. Men senlarga in'om qilmoqchi bo‘lsam, o‘z vaqtida, o‘z joyida bo‘ladi. Hozir hisobni puxta qilish kerak. (22-bet)*

"Hisobli do‘st ayrilmas" maqoli yuqoridagi maqolning birinchi qismiga mos kelsa, saxiylik haqidagi hikmatli so‘zlar ikkinchi qismini to‘ldirib keladi. Hisob-kitob bilan bo‘lgan kelishuv ikki tomonni ham rozi qiladi, biroq saxiylik, xayr-sadaqa haqida gap ketganda chin yurakdan bag‘ishlash haqidagi fikr uqtirilmoqda.

Jonim bilan, ha qanday xizmatingiz bo‘lsa, ko‘nglingizdagidek qilib bajarib berishga va'da beraman, sizning duoyingiz g‘animat, – dedi "muhabbat ulushi"ni eshitgan Alimardonbek. ***"Quruq nafas naydan sado chiqarmaydi"*** *deydilar. Men ham "duoiyi obdor" qilaman. (30-bet)*

Bu jumla hozirgi kunda ko‘p qo‘llaniladigan "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi" maqolining semasi sifatida qo‘llanilmoqda. Xalq orasida "Quruq qoshiq og‘iz yirtar" tarzida uchratishimiz mumkin. ***"Agar kasal sog‘ayadigan bo‘lsa, tabib o‘zi kelib qoladi"*** *deydilar. Darvozli mashhur Sultonxon eshon bu kecha qishlog‘imizga Hojiyoqubbekning hovlisiga mehmon bo‘lib kelgan. Buning o‘zi kasalning sog‘ayish alomatidir. Men hozir borib, shu kishini olib kellib o‘qitaman, sog‘ayib ketadi. (36-bet)* Ushbu maqolda o‘z muammoviy tuguni yechilayotgan voqeaga boshqa kimdir shunchaki qo‘l uchida kelib aralashib va xuddi o‘sha shaxs yoki omil sabab(!) hal bo‘lib ketgandek bo‘lishi kabi hayotiy hodisa tasvirlangan. *G‘aflat uyqusida qolibman, kelganingizni ham bilmabman. Aybga buyurmaysiz, – deb uzr so‘radi. ─ Zarari yo‘q!* ***Tush uyqusi – qush uyqusi*** *deganlar azizlar. Bu har kimga ham nasib bo‘lavermaydi. Bunday uyqu xudoning yaxshi ko‘rgan bandalariga, qushday begunoh odamlarga nasib qiladi. (26-bet)*

Agar ho'kizlardan birini nazr qilmoqchi bo'lsang mayli, o'zim olib boraman. Lekin b u kecha eshon hazratlarini olib borish mumkin emas, chunki yurtning ulamo va fuzalolari u kishining ziyoratlariga kelgan, hozir o'shalar bilan suhbatdalar. Erta ishroq namozidan keyin olib borishga va'da beraman, – deb uni jo'natdi. Darvozaxonaning bir burchagida turib, bu suhbatni eshitayotgan boyning qaroli – Zufar ***"echkiga jon qayg'usi, qassobga yog' qayg'usi"*** *deb qo'ydi o'z-o'ziga.(41-bet)* Bu maqolning dublet shakli "Echkiga jon qayg'usi, qassobga mol qayg'usi" bo'lib, ikkisi ham bir ma'noni beradi. Har kim o'z foydasini o'ylab ish ko'rishi haqidagi bu maqol kontesktdagi "Agar kasal sog'ayadigan bo'lsa, tabib o'zi kelib qoladi" maqolinig mantiqiy yaqinlikdagi o'xshashi desak xato bo'maydi.

Buni jin chalibdi. Vaqti o'tibdi. Kechaning o'zida menga xabar berishing kerak edi. Vaqtida kelib jinlarni bog'lardim, – dedi va uy egasini umidvor qilish niyatida: – hozir ham vaqti, kuchimiz yetguncha harakat qilamiz. Ajab emaski omon *qolsa,* ***"To resha dar obast umedi samarast (Daraxt ildizi suvda ekan, mevadan umid bor.)"*** *deganlar…(42-bet)*

Umidni uzmaslik, kishining bir ishni kelajagiga etimot, ertasiga ishonch ma'nosi bilan sug'orilgan bu maqol asar davomida berilgan "Toki yomon kunni o'ylamasang, yaxshi kun kelmaydi" bilan pobastadir. *Balli! – dedi boy, – o'yla, bitta-yarimta bilan maslahatlashib ham ko'r!* ***"Maslahat bilan bichilgan to'n qisqa kelmaydi"*** *deganlar. Xotin-bolangni och qoldirib zoriqtirib yurma. Yeydigan nonlaring bo'lmasa darrov kelib bug'doy so'ra. (50-bet)*

"Maslahatli osh tarqamaydi", "Maslahat bilan bichilgan to'n qisqa kelmaydi", shuningdek, shu maqolga uzviy bog'liq bo'lgan "Yetti o'lchab bir kes" maqollarida har bir amalni maslahatlashgan holda puxta o'ylab bajarish lozimligi uqtiriladi. Xalq orasida "Maslahatli bilan bichilgan to'n kalta kelmaydi" tarzida ham uchratish mumkin. *Chunki boyning keyingi gaplaridan o'sha bir qop bug'doyni ham xatsiz-garovsiz bermasligini payqagan edi. Bola nonsiz chidayolmaydi. Shuning uchun,* ***"bolta kelguncha, kunda tinch turadi"*** *degan maqolni eslab: "bugunni ko'ray, ertaga nima bo'ladi, ertaga ko'rarman" deb xat berishga rozi bo'ldi. (54-bet)* Maqolda har bir amal o'z vaqtida bo'lishiga ishora qilinadi. Kundani bolta chopadi, to chopilmaguncha shundoq holida turaverishi misol qilingan. Maqolni "bir gap bo'lar" tarzida tushunish ham mumkin. Xalq orasida esa "Bolta kelguncha kunda kutib turadi" shaklida uchratamiz.

To'g'ri to'y ham qarz. Lekin fursatlik qarz. Bir ikki yil kechiksa ham zarar qilmaydi, ***"kech bo'lsa bo'lsin, kuch bo'lmasin".*** *(55-bet)* "Hechdan ko'ra kech" jumlasi yuqoridagi maqolimizning qisman bo'lsa-da sinonimi bo'lib, bir ish kech bo'lsa ham xayrli bo'lsin, yaxshilik bilan bo'lsin, toki kuch, qistov, og'irlik bilan emas, kishi xohishiga ko'ra yaxshilikka bo'lishi ko'zda tutilyapti. Har bir adib o'z asarining badiiy ahamiyatini oshirish uchun albatta emotsional birliklarni qo'llashi tabiiy hol. Sadriddin Ayniyning "Doxunda" asarida qo'llanilgan maqollar kishilarning, ayniqsa, yosh avlod kamolotida muhim ahamiyatga egadir. Asarda ishlatilgan maqollar yoshlarning tafakkur tarzini kengaytiradi, ularni to'g'riso'z, rostgo'y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishiga o'rgatadi, ulug` insoniy fazilatlarni kamol topishida tayanch vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani . – Toshkent, 2001.
2. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз?. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва саньат нашриёти, 1988.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990.
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
5. Sadriddin Ayniy. Doxunda. Asarlar. Sakkiz tomlik. Ikkinchi tom. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.

UO'K 808.3

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA NUTQ FE'LLARINING QIYOSIY TADQIQI

D.Mutalov, o'qituvchi, Al-Bukhari University nodavlat Oliy o'quv yurti, Toshkent

Annotatsiya. *O'zbek va turk tillarida fe'l so'z turkumining asosiy kategoriyalaridan biri mayl kategoriyasi hisoblanadi. Maqolada bu tillardagi so'zlovchining obyektiv borliqqa bo'lgan modal munosabatini ifoda etuvchi fe'l shakllari – mayllar o'zaro qiyoslab tadqiq etish maqsad qilingan.*

Kalit so'zlar: *turk, o'zbek, fe'l, til, mayl, zamon, kategoriya.*

Аннотация. *В узбекском и турецком языках одной из основных категорий категории глагольных слов является категория склонения. Статья нацелена на сравнительное исследование взаимодействия глагольных форм – склонений, выражающих модальное отношение говорящего к предметному бытию в этих языках.*

Ключевые слова: *Турецкий, Узбекский, глагол, язык, склонение, время, категория.*

Abstract. *One of the main categories of the verb category in Uzbek and Turkish languages is the declination category. The article aims to investigate the modal relationship of the speaker in these languages to the object of existence by comparing the forms of verbs – inclinations.*

Keywords: *Turkish, Uzbek, verb, language, declination, time, category.*

O‘zbek va turk tilshunosligida fe’l mayllarini tasniflash va o‘rganishda farqli yondashuvlar mavjud. Shu bilan birga turk tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham turli ilmiy manbalarda fe’l mayllarining turlicha tasniflangani kuzatiladi. Maqolada o‘zbek va turk tilshunosligida fe’l mayllarining tasniflaridagi mushtarakliklar va farqlar tahlilga tortiladi. O‘zbek va turk tilshunosligida xabar maylining boshqa fe’l mayllariga qarama-qarshi qo‘yilgani qayd etiladi. Natijada qiyoslanayotgan tillardagi mayl va zamon kategoriyalarining o‘zaro munosabati, ularning turlari, tuzilish tiplari, soni xususidagi fikr-mulohazalarida bir xillik yo‘qligi, hattoki, ayni bir fe’l shakli uchun butunlay farqli qarash bayon qilgani e’tirof etiladi.

Tilning qudrati shundaki, u hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni o‘zida gavdalantirib, tildagi ma’no nozikligini, ko‘p qirralilikni ko‘rsatadi, ta’kidlaydi. Shubhasiz, bu hodisalarning tildagi ifodasi inson tafakkuridagi o‘ziga xoslikka bog‘liq. Avval ta’kidlanganidek, harakat, zamon, makon, o‘zgarish ob’yektiv va mutlaq bo‘lgani holda uning kishi ongidagi in’ikosi sub’yektiv va nisbiydir. Nutqda ham, demak, nisbiylik, sub’yektivlik ifodalanadi. Tildagi modallik bildiruvchi vositalarning miqdori oz emas. Mayl kategoriyasi nomini oluvchi affikslarning mazmun tarkibidagi subyektivlik va uning ahamiyati, afsuski, mukammal o‘rganilmagan. Ammo mazkur hukmdan biron-bir mayl shaklidagi fe’lda ob’yektiv voqe’lik qayd etilmaydi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Faqat ob’yektivlik sub’yektivlik qobig‘iga o‘rab taqdim etiladi, xolos.

Voqe’likning konstatatsiyasi hodisaning uch zamondan birida amalga oshirilishini ko‘zda tutadi. Ya’ni shaxs harakat, holatning o‘tgan, hozirgi, kelasi zamonlardan biriga taalluqli ekanini ma’lum qiladi. Biroq sub’yektivlikdan xoli ob’yektivlik, real voqe’likka bog‘liq bo‘lmagan sub’yektivlik mavjud emas. Shu sababli tildagi mayl va zamon hodisasini tadqiq etish orasidagi uzviy aloqadorlikni hisobga olishni taqozo etadi.

O‘zbek tilshunosligida, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda mayl va zamon kategoriyalarining mohiyatini tushunish va ta’riflashda ziddiyat yo‘q. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, mayl kategoriyasi harakat yoki holat bilan sub’yekt orasidagi aloqaning voqe’likka munosabatini ko‘rsatadi. Biroq tilshunoslar o‘rtasida mayl va zamon orasidagi chegarani belgilash, bu kategoriyalarni ifodalovchi shakllarni tasnif qilish kabi qator masalalarda yakdillik yo‘q. Tilshunoslarning bir guruhi ayrim formalarni u yoki bu xususiyatlariga ko‘ra mayl kategoriyasiga kiritsalar, boshqalari shu shakllarni bo‘lak jihatlariga asoslanib, zamon kategoriyasi sifatida farqlashadi.

Adabiyotlarga murojaat qilsak, ko‘pchilik ishlarda o‘zbek tilidagi fe’l maylining uch turi qayd etilganini ko‘ramiz: aniqlik, buyruq-istak hamda shart mayli(G‘ulomov, 1964; Tursunov vd, 1992; Rahmatullayev, 1993; Reshetov, 1961). Ba’zi tadqiqotlarda maylning to‘rt turi tilga olinadi. Bunda buyruq va istak mayli ajratib o‘rganiladi (Kononov, 1960: 202). T.Xo‘jayev bu to‘rt maylga yana ikki mayl turini qo‘shadi, ya’ni muallif aytsa ham (aytsa-da) tipidagi shakllarni to‘siqsizlik mayli, aytishi kerak shaklidagi qo‘shilmalarni vazifa mayli deb o‘rganishni tavsiya etadi(1963: 103). A. Hojiyevning ishlarida maylning turlari o‘zgacha ko‘rsatiladi. Tilshunos -moqchi affiksi bilan yasaluvchi yozmoqchi shaklidagi formani alohida mayl turi sifatida farqlaydi hamda uni maqsad mayli deb ataydi. Shuningdek, ishlar edi tipidagi shakllarni yasovchi -ar edi vositasini shartli maylning formanti deb ta’riflaydi. Shunday qilib, A. Hojiyev hozirgi o‘zbek tilida maylning quyidagi besh turi bor, deb hisoblaydi: buyruq-istak, shart, shartli, maqsad va ijro mayllari(1973 : 115). M.Sodiqova fe’l mayllarini stilistik aspektda tahlil qilish uchun quyidagicha guruhlashtirishni maqsadga muvofiq deb topadi: 1) bayon-darak mayli; 2) buyruq mayli; 3) shart mayli; 4) maqsad mayli; 6) gumon-taxmin mayli (1976: 10). Tilshunos -(a)r, -mas (-saykin, -mikin) affikslari bilan hosil bo‘luvchi fe’llarni taxmin-gumon mayli deb hisoblaydi. Xabar maylini esa bayon-darak mayli deb atashni ma’qul topadi.

Sh.Shukurov esa bu mayllardan faqat uchtasini: buyruq-istak, shart va aniqlik mayllarining mavjudligini tan oladi hamda tilga olingan boshqa mayllarning "ajratilishi isbot talab qiladi, " deya ta’kidlaydi(1976: 7).

Sh.Shukurovning talabi o‘rinli bo‘lib, haqiqatdan ham, mayl va zamon kategoriyalarini belgilovchi mezonlar ko‘rsatilmagan. Mayl turlarni ajratishdagi har xillikning sababi ana shundadir. Bir affiks ba’zan mayl, goxida zamon yasovchi qo‘shimcha sifatida qayd etiladiki, rus tilshunos-turkologi N.A.Baskakov buning sababini quyidagicha izohlaydi: Mayl va zamon kategoriyalari genetik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lganligi uchun ularning nafaqat semantik, balki morfologik jihatdan xam qat’iy differensatsiyalashmagani ko‘rinadi. Mayl va zamon kategoriyalarini farqlashda yuzaga kelgan turli fikr-mulohazalar asosi shunga borib taqaladi. Birinchidan, bir vaqtning o‘zida mayl va zamon ma’nolari uchun ikki affiks qator ishlatilmaydi. Ikkinchidan, bir forma bir tomondan mayl ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ish-harakatning zamonga munosabatini ko‘rsatishi mumkin (Baskakov, 1966: 280). Ya’ni bir affiksda ham mayl, ham zamon ma’nosi o‘z ifodasini topadi. kelmoqchi so‘zi maqsad

mayliga xosligi aniq, lekin bu misolda so‘zlovchi so‘zlayotgan vaqtda yoki undan so‘ng bajarilishi maqsad qilingan harakat anglashiladi, ya’ni hozirgi-kelasi zamon ma’nosi mavjud. Chunki bugun, hozir yoki ertaga kelmoqchi deyish mumkin. Biroq aslo kecha kelmoqchi emas. kelgan so‘zi esa xabar maylida bo‘lgani holda uzoq o‘tmishga oid harakatni bildirib, natija ma’nosini anglatishi ko‘p bora tilga olingan.

Bir guruh tilshunoslar xabar mayli sistemasidagi zamon shakllariga batafsil to‘xtalishadi, ammo qayd etilgan xususiyatni hisobga olmay, bo‘lak mayllarning zamonga bog‘liq shakllarini inkor etishadi. Masalan, maqsad mayli «faqat maqsad, mo‘ljal ma’nosini bildirib, zamon ma’nosiga daxli yo‘q» (Shoabdurahmonov vd, 1980: 262). Yoki: «Shart maylining hech qanday zamon ko‘rsatkichiga ega bo‘lmagan borsam, aytsa tipidagi formasi zamon ma’nosiga ega emas va u shart maylining biron zamon formasi sifatida qatnashmaydi». A.N.Kononov, N.A.Baskakov, A.Shcherbak, V.V.Reshetov kabi tilshunoslar esa turkiy tillardagi buyruq maylidan boshqa mayllar sistemasida zamon kategoriyasi mavjudligini e’tirof etishadi(Kononov, 1960; Baskakov, 1966; Sherbak, 1962).

Demak, bu tilshunoslarning fikriga ko‘ra, xabar mayli boy zamon sistemasiga ega bo‘lsa, boshqa mayllar nisbatan kam sonli zamonlar shaklini o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Shukurov, Sh. (1976). O‘zbek tilida fe’l zamonlari taraqqiyoti. Toshkent: Fan

2. Sodiqova, M. (1976). Fe’l stilistikasi. Toshkent: Fan.

3. Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Тошкент, 2019. - 254 б. (Sapaev Q. The current Uzbek language. Tashkent, 2009. - 254 p.)

4. Юлдашев А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. М.: Наука, 1965.-274.

UDC 808.5

RESEARCH OF TRANSLATION PROBLEMS SCIENTIFICALLY-TECHNICAL TERMINOLOGY

U.I. Nishonov, Head of Department, Fergana Polytechnic Institute, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xozirgi kundagi mavjud tarjima muammolari va ilmiy-texnik atamalardagi muammolarni yechimi yoritilgan bo‘lib, ilmiy va texnik matnning asosiy xususiyatlari, materialning taqdim etilishi, formulalarning ravshanligi, tarjima muammolarini oz bo‘lsada bartaraf qilishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *atamalar, ilmiy, texnik, muammo, yechim, sifat, nazariy tushuncha.*

Аннотация. *В данной статье освещаются актуальные на сегодняшний день проблемы перевода и решения задач по научно-технической терминологии, освещаются основные особенности научно-технического текста, изложение материала, ясность формулировок, что в немалой степени помогает устранить проблемы перевода.*

Ключевые слова: *терминология, научно-техническая, проблема, решение, качество, теоретическое понятие.*

Abstract. *this article covers the current problems of translation and the solution of the problems in scientific and technical terms, the main features of the scientific and technical text, the presentation of the material, the clarity of the formulas, help to solve the problems of translation little by little.*

Keywords: *terms, scientific, technical, problem, solution, quality, theoretical understanding.*

Economic and state relations between different countries, the continuous development of science and technology, as well as modern technologies in various industries and fields of activity increase the importance of a foreign language, which acts as a “bridge” between representatives of different cultures and languages. There is an increasing need for specialists who are versed in various fields of scientific and technical translation, specialists who are familiar with the terminology of texts of this kind and are able to competently and adequately carry out both written and oral translation of not only general scientific, but also narrow-profile technical terms. There are many definitions. Komissarov V. N. defines translation as a type of language mediation, which is entirely focused on the foreign-language original. If we mean translation from one language to another, then here translation can be considered as a process and as a result. In the first case, it is an action that makes the translation text appear. Translation as a result, in turn, implies a ready-made translated text.

L. S. Barkhudarov gives the following definition: “Translation is the process of converting a speech work in one language into a speech work in another language while maintaining an unchanged plan of content, that is, meaning”. The Scottish linguist John Catford, who is the founder of the theoretical concept of translation, argues that translation is the replacement of text material in one language with equivalent text material in another.

Based on this definition, it can be concluded that the main problem of translation is the establishment of the nature and conditions of translation equivalence. To date, the vast majority of research is aimed at studying the specifics of translation from English into Russian. Russian translation studies are extremely few. V. S. Slepovich in his work "Translator's Handbook from Russian" says that translation from Russian to English is a much more complex process than from English to Russian, as it requires a more in–depth knowledge of linguistic and national realities. Based on this definition, we can fully assess how difficult and time – consuming the translation of scientific and technical literature is, especially from Russian into English. In this paper we are dealing with the translation of scientific and technical style texts. In this regard, it is necessary to find out what style is, what texts of this subject are and what features they have.

The style of a language is a set of linguistic means. The style of scientific and technical literature, in turn, is distinguished by the presence of special characteristics.

First of all, it's vocabulary. In scientific and technical texts, special terms are used, which are selected in accordance with the field of knowledge to which a particular text belongs for the accurate transmission of thought.

As for grammar, scientific and technical texts abound in the use of passive, impersonal and vaguely personal constructions. Most of the sentences are compound and compound. Consequently, conjunctions, compound prepositions and various phrases are widely used in the language of scientific and technical style. In addition, it is worth noting that the author of the text, trying to convey information and explain certain facts, discoveries, processes, avoids personal verb forms, replacing them with a passive voice. In this regard, it becomes obvious that all processes and phenomena in the text act as subjects, while eclipsing the author of the text. The style of presentation of information. The main feature of the scientific and technical text is the brevity of the presentation of the material and the clarity of the wording. Zhidkov A.V., in turn, highlights the following features of the style of scientific and technical translation: strict consistency and consistency of all components of the idea presented by the author, the content of the text, accessibility to a specialist in a particular field in terms of understanding the stated information, as well as a statement of scientific fact. Having found out what the style of scientific and technical texts is, we should proceed to the definition of scientific and technical translation. Special interest in the study of STP arose back in Soviet times, when Russia began to occupy a leading position in the development of science and technology. There is an urgent need to create and substantiate scientific and technical translation as a separate discipline. According to Melnikova A.I., scientific and technical translation is the translation of special texts of a scientific and technical nature, carried out by specific methods other than the translation of fiction. As for the purposes of translating scientific and technical texts, the main ones are to achieve adequacy and equivalence.

This means that the translation must convey the content of the text into English, while observing all the norms of the translating language. In the monograph "Scientific and technical translation" we are talking about, what an important role scientific and technical translation has played in the international exchange of scientific information lately. In the 1930s and 1950s, special attention was paid to the translation of literary texts, and later, the creation of a general linguistic theory of translation and a more detailed study of scientific and technical began to occupy leading positions among scientists and translators. The authors of this monograph define scientific and technical translation as dynamic and diverse. This is due to the fact that science does not stand still, information requests change, which has a great impact on the ways of translation, as well as the conditions under which scientific and technical translation is carried out change.

New forms of translation are beginning to play an increasingly important role, which, unlike all of us known written and oral translations, impose special requirements, as well as put forward their own conditions and criteria according to which the quality of the translation is evaluated.

After familiarizing yourself with the basic definitions in the field of translation, you should move on to translation problems.

REFERENCES:

1. Ахметова, Г. Д. Некоторые сложности перевода английских технических терминов / Г. Д. Ахметова // Молодой ученый. Ежемесячный научный журнал. – 2015. – №4(84). – М. : ООО «Издательство Молодой ученый», 2015. – 15 с.

2. Бархударов, Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода) / Л. С. Бархударов. – М. : «Междунар. отношения», 1975. – 240 с

3. Винников, Ю. В. Научно-технический перевод / Ю. В. Винников, Ю. Н. Марчук. – М. : Наука, 1987. – 139 с.

4. Климзо, Б. Н. Ремесло технического переводчика. Об английском языке, переводе и переводчиках научно-технической литературы / Б. Н. Климзо. – М. : Р.Валент, 2003. – 288 с.

5. Основы технического перевода [Электронный ресурс]: учебное пособие по английскому языку. Электронные текстовые данные (432 кБ) / М-во образования и науки Росс. Федерации, Волгогр. гос. архит.-строит.ун-т; сост. О.Н. Романова, А.В. Долинская. – Волгоград: Волг ГАСУ, 2011. – http://www.twirpx.com/file/1207008/

UO'K 81-13

JAHON TILSHUNOSLIGIDA ETNOLINGVISTIKANING NAZARIY TADQIQI

Yu.U.Nurova, mustaqil izlanuvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Etnolingvistikaning jahon tilshunosligida o'rganilishi borasida ma'lumot keltirilgan bo'lib, etnolingvistika etnik madaniyat va til o'rtasidagi munosabatlarni o'zaro bog'liqligi haqida fikr yuritadi. Etnolingvistika tilning etnik jihati va etnosning lingvistik xususiyatlarini ifodalash, ichki va millatlararo aloqalardagi etnolingvistik jarayonlar, etnik jamoalarning shakllanishi va faoliyatida tilning o'rni, til va an'anaviy madaniyat, tafakkurning etnik o'ziga xosligi, dunyo tillarining etnolingvistik tasnifini ifodalaydi. Tilshunoslik tabiiy til, uning tuzilishi va qonuniyatlarini o'rgansa, etnolingvistika xalq madaniyatining tildagi ifodasini o'zida namoyon etadi, ya'ni tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar, antroponimlar, nutqiy etiket shakllarini o'rganadi. Etnolingvistika fanning mustaqil tarmog'i sifatida shakllanganligi va turli soha vakillari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *etnolingvistika, marosim nomlari, leksema, nutqiy etiket, etnik omillar, til va madaniyat, mifopetik ijodkorlik, diaxronik etnolingvistika, ma'naviy madaniyati tarixi.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об изучении этнолингвистики в мировом языкознании, а также рассмотрены взаимосвязи этнолингвистики с этнокультурой и языком. Этнолингвистика – это выражение этнического аспекта языка и языковых особенностей этноса, этнолингвистических процессов во внутренних и межэтнических отношениях, роли языка в формировании и деятельности этнических общностей, языка и традиционной культуры, этнического своеобразия мышления, этнолингвистической классификации мировые языки. В то время как языкознание изучает естественный язык, его структуру и законы, этнолингвистика отражает языковое выражение народной культуры, то есть обычаи и традиции, отраженные в языке, паремиологический фонд языка, языковые нормы, знаки и символы. аналогии и метафоры, антропонимы, формы речевого этикета. Этнолингвистика считается самостоятельной отраслью науки и исследований, проводимых представителями различных областей.*

Ключевые слова: *этнолингвистика, обрядовые имена, лексемы, речевой этикет, этнические факторы, язык и культура, мифотворчество, диахроническая этнолингвистика, история духовной культуры.*

Abstract. *This article provides information on the study of ethnolinguistics in world linguistics, as well as the relationship of ethnolinguistics with ethnoculture and language. Ethnolinguistics is an expression of the ethnic aspect of the language and the linguistic characteristics of an ethnos, ethnolinguistic processes in internal and interethnic relations, the role of language in the formation and activities of ethnic communities, language and traditional culture, ethnic originality of thinking, ethnolinguistic classification of world languages. While linguistics studies natural language, its structure and laws, ethnolinguistics reflects the linguistic expression of folk culture, that is, the customs and traditions reflected in the language, the paremiological fund of the language, language norms, signs and symbols, analogies and metaphors, anthroponyms, forms of speech etiquette.*

Keywords: *ethnolinguistics, ceremonial names, lexemes, speech etiquette, ethnic factors, language and culture, mythological creativity, diachronic ethnolinguistics, history of spiritual culture.*

Kirish. Keyingi yillarda tilshunoslik sohasida etnolingvistik tadqiqotlar faollashdi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqlik jihatlarini xalq mentaliteti, ma'naviy madaniyati, xalq bilan bog'liqlikdagi ijodkorlik, mifologiya, xalq og'zaki janrlarda etnolingvistika madaniyat modeli sifatida jahon tilshunosligida qayta tiklangan tadqiqot obyektiga aylandi [1].

Uzoq vaqt bir hududda yashovchi etnosning etnik xususiyatlari, birinchi navbatda, uning tilida, shuningdek, an'anaviy madaniyatida ko'zga tashlanadi. Tilni etnolingvistik nuqtai nazaridan tadqiq etish til va xalq ma'naviyati, til va xalq madaniyati, til va xalq san'ati, xullas, til va xalq o'rtasidagi mental xususiyatlarni ko'rib chiqish uchun imkon yaratadi. Shu sababli etnolingvistik birliklarning leksik tadqiqi jahon tilshunosligida anchagina keng o'rganilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. L.I.Larina "Kursk vohasidagi to'y marosimi terminologiyasini etnolingvistik jihatdan tadqiq etgan" [2]. Ishda hududdagi to'y marosimida qo'llanuvchi atamalar komponent tahlili amalga oshirilgan, mavzuiy guruhlari aniqlangan, leksik-semantik va hududiy jihatlari yoritilgan. Semantik guruhlardagi atamalar Kurs hududidagi ikki yuzdan ortiq to'y marosimlarini kuzatish asosida etnolingvistik tahlil etilgan.

"Rus xalq dialektlarida "insonning mehnatga munosabati" leksik-semantik maydoni"ni etnolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etgan M.A.Yerimina mehnatga inson ma'naviy dunyosini shaklantiruvchi vosita sifatida qaraydi va shu jihatdan bu tadqiqot etnolingvistik yo'nalishda bajarilganligiga urg'u beradi [3]. Ishda rus xalqining mehnatga bo'lgan ijobiy va salbiy munosabatlarini ifodalovchi leksemalar semantik-motivatsion maydonga birlashtirilgan va motivatsion semantika maydoni rus xalqi hayotidan ma'lumot beruvchi etnomadaniy axborot sifatida tahlil etilgan. "Boshqird tilida dafn-xotira marosimini ifodalovchi so'z va iboralar"ning etnolingvistik tadqiqi L.R.Suleymanova tomonidan amalga oshirilgan [4].

Sh.S. Nekushoveva turar joy va xo'jalik binolarini atovchi nominativ birliklar, an'anaviy taom, an'anaviy kiyim-bosh nomlarining leksik-semantik xususiyatlari tadqiqini amalga oshirgan [5].

F.X.Gilfanova etnolingvistik tadqiqotlar bo'yicha doktorlik dissertatsiyasida XIX-XX asrlar rus arxivi hujjatlari asosida tatar tilidagi antroponimlarning etnolingvistik jihatlarini tadqiq etgan. Ishda tar va barabin tatarlari tilidagi an'anaviy antroponimlar etnotarixiy va madaniy jihatdan o'rganilgan, shu asosda bu tildagi antroponimlar tasniflangan [6].

Bosqichlar mayitning keyingi dunyoga borishidagi poklanish darajasini ta'minlovchi marosim so'z va atamalarning izohini to'liq qamrab oladi [7].

M.V.Kalinina Don kazak lahjasidagi kiyim nomlarining leksik-semantik tadqiqini etnolingvistik va lingvokulturologik aspektda amalga oshirgan bo'lib, ularning semantik maydonini shakllantirgan [8]. M.V.Kalinina ushbu maydonga kiruvchi leksemalarni mavzuga aloqadorligiga ko'ra besh turga ajratadi: yadro (ядро), yadrooldi (околядерной), yadroga yaqin (ближней), yadrodan uzoq (дальней) va chekka (крайней) dan o'rin oluvchi birliklar. Y.A.Krivoshapova rus tili va rus xalq dealektlarida qo'llanuvchi hasharot nomlarining etnolingvistik tadqiqini amalga oshirgan [9]. Tadqiqotchi o'z ilmiy ishining dolzarbligini rus tilida hasharot nomlarining etnolingvistik nuqtayi nazardan atroflicha tadqiq etilmaganligi, ushbu guruhga kiruvchi leksemalar rus tilining etimologik, onomasiologik va semasiologik jihatlarini tadqiq etishda o'ziga xos o'ringa ega ekanligi, ushbu leksemalar asosida yasaluvchi so'zlar miqdorining ko'pligi, antropologik paradigmada insonning hasharot dunyosiga bo'lgan munosabatining alohida o'ringa ega ekanligi bilan asoslaydi. Olimaning qayd etishicha, hozirgi slavyan tillarining etnolingvistik xususiyatlari tadqiqi, birinchi navbatda, Moskva etnolingvistik maktabi namoyondalari N.I.Tolstoy va S.M.Tolstoy nomlari bilan bog'liq. Shuningdek, etnolingvistik muammolar T.A.Agapkinova, N.P.Antropov, O.V.Belova, E.L.Berezovich, T.V.Vindina, T.V.Volodina, A.V.Gur, A.F.Juravlyov, V.I.Kovalya, D.Mladenova, A.B.Moroza, S.E.Nikitina, I.A.Podyukov, M.E.Rut, I.A.Sedakova, A.V.Yudinalar tomonidan o'rganilgan [10].

So'z va matnning madaniyatdagi o'rnini tadqiqot obyekti sifatida belgilagan O.A.Dorofeyeva so'zni ma'naviy-ruhiy birlik sifatida ta'riflaydi. Tekst (matn) lotin tilidan olingan bo'lib, murakkab va tarmoqlangan etimologiyaga ega ekanligi, uning etimologiyasida mato (ткань), kiyim (одежда), aloqa (связь), birikma (соединие), tuzilish (строение), bo'g'in (слог), uslub (стиль) ma'nolari mujassamlashganligini asoslashga harakat qiladi [11].

O.V.Chyoxa zamonaviy yunon lug'ati va frazeologiyasini o'rganish asnosida oy va oy taqvimi bilan bog'liq marosim, an'ana, udumlarni ham etnolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etadi. Olim dunyo haqidagi, jumladan, oy va oy davri xususidagi xalq bilimlari, qarashlari majmuasini aniqlashda til ma'lumotlariga e'tibor qaratadi [12].

Shu bilan birga boshqirdlarda qadimdan bepushtlik (farzand ko'raolmaslik) katta kamchilik sanalib, bunda, asosan, ayol aybdor sanalganligi va shu bois holat bilan bog'liq qator nomlar shakllanganligini inobatga olib, olima "bepusht ayol" leksik-semantik guruhini boshqird va turk tillari misolida shaklantiradi, bepushtlikni davolash bilan bog'liq predmet, homilador ayolni himoyalovchi vosita nomlari izohlanadi [13].

Tadqiqotda ta'kidlanishicha, boshqirdlarda homilador ayol Qur'on surasi tushurilgan tumor taqib yurgan, tumor qog'oz teri yoki matoga uchburchak shaklda tikilgan. G.R.Batirshina **"Betes"** atamasining kelib chiqishini qadimgi turkiy yodgorlik (bitig "maktub, kitob") - M.Qoshg'ariy lug'ati asosida izohlaydi: bitig so'zi "tumor, yovuz ruhlardan himoya qilish vositasi" sifatida izohlanganligini ko'rsatib o'tadi.

J.K.Gaponova XIX–XX asr Yaroslav viloyati mologa dialektlarining leksikasini tarixiy etnolingvistik jihatdan o'rgangan. Dissertatsiyada dialektal lug'atlar va ularning nazariy tadqiqiga munosabat bildirilgan, E.V.Berezovich, T.I.Vendina, A.S.Gerd, N.I.Tolstoylarning ilmiy qarashlariga to'xtalingan, mologa dialektlarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, ya'ni Mologa okrug tarixi, dialektlarining fonetik va morfologik xususiyatlari tahlilga tortilgan, mologa dialektlaridagi "Inson" leksik mavzuviy guruhlari aniqlangan [14].

Boshqird tilshunosligida turli ko‘lamda etnolingvistik jihatdan til va madaniyatning bog’liqlik jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, marosim atamalari lug’ati, boshqird dostonlarining leksik va lingvistik xususiyatlari, xalq ertaklari, maqol va matallardagi etnolingvistik birliklar tahlil etilgan.

“Raqam komponentli ruscha leksikaning semantik-motivatsion xususiyatlari” nomli tadqiqot ham etnolingvistik yo‘nalishda bajarilgan bo‘lib, bu bo‘yicha muallif o‘zigacha yaratilgan E.L.Berezovich, K.S.Verxoturova, Y.B.Voronsova, M.A.Yeremina, Y.A.Krivoshapova, T.V.Leontiyeva, V.V.Lipina, K.V.Pyankova, I.V.Rodionova, M.E.Rut, L.A.Feoktistovalar tadqiqotlariga tayangan [15].

Tadqiqotning metodologiyasi. Etnolingvistikaning ijtimoiy fanlar qatoridagi vazifalari, predmeti, obyekti, usullari, boshqa fanlar bilan aloqasini N.I.Tolstoy shakllantiradi [16]. N.I.Tolstoy etnolingvistikaning obyektini til, jamoaviy ong, milliy mentalitet, ma’lum bir etnosda shakllangan “dunyo tasviri” bo‘lgan shakl va ko‘rinishlar, ya’ni xalq madaniyati, uning barcha turlari, og’zaki lug’at va frazeologiya, paremiologiya, folklor matnlari, turli marosimlar, aqliy e’tiqod deb izohlab o‘tadi. Etnolingvistikaning predmeti sifatida esa madaniyatning mazmunini tashkil etuvchi etnik birliklarni ko‘rsatadi. Etnolingvistikaning maqsadi – dunyoning an’anaviy tasvirini, dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini semantik qayta qurishdir deb ta’kidlaydi. N.I.Tolstoy o‘z yondashuvini etnolingvistika deb atagan holda, etnolingvistika so‘zining har bir tarkibiy qismiga aniq ta’rif beradi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy tahlil natijalari orqali shuni ko‘rsatadiki, xalq madaniyatini etnik, mintaqaviy va dialektal shakllarda o‘rganilishi kerak va milliy madaniyatni o‘rganish uchun asosiy manba tildir. Madaniyat, tabiiy til singari, ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan belgilar tizimi, semiotik tizim yoki so‘zning semiotik ma’nosidagi til sifatida tushuniladi. O’zbek tili va o’zbek madaniyati, ayniqsa, paremalar, dialektal shakllari bilan tubdan farq qiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, zamonaviy liberal san’at ta’limi antropologik (yoki antropotsentrik) paradigmaga o‘tish bilan ajralib turadi, ya’ni madaniyat va tilni inson - uning ongi, tafakkuri, predmet-amaliy va ma’naviy faoliyati bilan chambarchas o‘rganish, til paremalogik birliklarini etnolinvsitik tahlil qilish orqali olib boriladi. Ushbu yondashuvda asosiy manba madaniyatning yaxlitligini anglash, ya’ni, uning barcha shakllari va janrlarining (til, marosim, e’tiqod, folklor san’ati, parema birliklari) semantik birligi idrok etadigan va inson madaniyatini yaratadigan etnolingvistikasiga bog’liqdir. Etnik madaniyatni o‘rganishga bunday yaxlit yondashuv etnolingvistika – “odamlarning ongi, mentaliteti, kundalik va marosim harakati, mifologik g’oyalar va mifopetik ijodkorlik prizmasi orqali tilni o‘rganadigan fan” yoki o‘sha mualliflarning boshqa bir formulasida “an’anaviy xalqni o‘rganadigan murakkab fan” yordamida amalga oshiriladi. Ma’naviy madaniyat va uning tilida aks etadi. Xalqning etnik madaniyati mutaxassislarini kasbiy tarbiyalashda etnolingvistika juda dolzarb fandir, chunki an’anaviy xalq madaniyati tilini o‘rganishda bo’shliq mavjud. Diagnostik ma’lumotlarga ko'ra ko’pchilik tildagi etnik birliklarning kelib chiqishini, tilning barcha imkoniyatlarini bilishmaydi, ular etarlicha lingvistik terminologiya, madaniy terminologiya to‘g’risida aniq ma’lumotga ega emas. Kuzatilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zarur uslubiy adabiyotlar (dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari va boshqalar), darsliklar mavjud emas - bu esa xalqning etnik madaniyatini o‘rganishda va shu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy yangilik yaratishda, mutaxassislarini tayyorlash tizimida etnolingvistikaning dolzarbligini yana bir isbotidir.

Xulosa va takliflar. Ko‘rinadiki, til nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni sharhlab, inson hayoti bilan bog’liq holatni ham gavdalantirishga xizmat qiladi. Shu bois til birliklarini etnolingvistik planda tadqiq etish hamma vaqt dolzarblik kasb etadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Батыршина Гульназ Рафаиловна. Терминология родинного обряда башкир (этнолингвистический анализ): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.02 — Москва. 2008. — 25 с

2. Булатова Надежда Дмитриевна. Этнолингвистика в системе профессиональной подготовки специалистов по народной художественной культуре. Дис. ... канд. пед. наук: Москва, 2003. – 162 с

3. Дорофеева Оксана Алексеевна. Слова и текст в языке этноса: автореф. дисс. ... канд. филол. наук.10.02.01 — Саранск. 2008 – 18 с.

4. Гапонова Жанна Константиновна. Лексика Мологских (ярославских) говоров IX-XX вв. (историко-лексикологический и энолингвистический аспекты): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.01 — Ярославль. 2008. — 23 с

5. Гильфанова Фарида Харисовна. Антропонимия сибирских татар в этнолингвистическом аспекте: на материале русских архивных документов XIX-XX вв: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.01. – Казань, 2010. — 43 с.

6. Калинина Маргарита Владимировна. Лексико-семантическое поле “одежда” в донском казачьем диелекте: этнолингвистический и лингвокультурологический аспекты): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.01 — Волгоград. 2008. — 25 с

7. Кривощапова Юлия Александровна. Русская энтомологическая лексика в этнолингвистическом освещении: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.01. — Екатеринбург. 2007. — 23 с

8. Ларина Людмила Иванова. Терминология свадебного обряда курского региона в этнолингвистическом аспекте: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.01 — Воронех. 1990. — 14 с

9. Муратова Римма Талгатовна. Символика чисел в Башкирском языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.02 — Москва. 2009. — 25 с.

10. Некушоева Шахло Саиднуриддиновна. Этнолингвистическое и сравнительное освещение предметно-бытовой лексики шугнано-рушанской группы памирских языков: автореф. дисс. ... канд. филол. наук Душанбе. 2010 – 22 с.

11. Сулейманова Луиза Рауфовна. Лексика и фразеология погребально-поминального обряда в башкирском языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.02. – Языки народов РФ (башкирский язык). Уфа, 2006. – 25 с.

12. Чёха Оксана Владимировна. Новогреческая лексика народной астрономии в сопоставлении с балканославянской: луна и лунное время (этнолингвистический аспект): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.20. — Москва. 2009. — 27 с.

13. Г.Р. Батыршина. Терминология родинного обряда башкир (этнолингвистический анализ): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.02 — Москва. 2008. — 25 с. — С. 9-11

14. Ж.К. Гапонова. Лексика Мологских (ярославских) говоров IX-XX вв. (историко-лексикологический и энолингвистический аспекты): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.01 — Ярославль. 2008. — 23 с. — С. 9-12

1 5. Е.В.Шабалина. Семантико-мотивационное своеобразие русской лексики с числовым компонентом: этнолингвистический аспект: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 10.02.01 — Екатеринбург. 2011. — 24 с

16. Толстая Светлана Михайловна, доктор филологических наук, профессор.Институт славяноведения РАН. Зав. сектором этнолингвистики и фольклора.Этнолингвистика: современное состояние и перспективы. http://www.ruthenia.ru/folklore/Tolstaja.html.

UO'K 808.5

MUROJAAT SHAKLLARINING YOSHGA KO'RA XOSLANISHI

D.D. Pulatova, o'qituvchi, QarDU Pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchining o'zaro munosabatidan kelib chiqib vaziyat uchun mos murojaat birligi tanlanadi, ya'ni bir kishiga nisbatan vaziyatga ko'ra bir necha murojaat birligini qo'llash mumkin. Shunga ko'ra murojaat birliklarining yashash joyi, millati, qarindoshligi, kasb-hunari, ism-familiyasi, yoshi, jinsi, bajarayotgan vazifasi kabilar bilan bog'liq bir nechta mazmuniy guruhlari mavjud. Murojaatda qavm-qarindoshlik nomlari murojaat birligi sifatida ancha faol. O'zbek tilida notanishlarga murojaat qilinganda, taxminiy yoshdan kelib chiqib, qarindosh-urug'chilik leksikoniga oid so'zlar qo'llaniladi.*

Kalit so'zlar: *muloqot, nutq madaniyati, so'zlovchi, tinglovchi, adresant, adresat, murojaat, murojaat shakllari, qavm-qarindoshlik nomlari.*

Аннотация: *В процессе общения, исходя из взаимодействия говорящего и слушающего, выбирается подходящая для ситуации единица обращения, то есть к одному человеку может быть применено несколько единиц обращения в зависимости от ситуации. В соответствии с этим существует несколько содержательных групп единиц обращения, связанных с местом жительства, национальностью, родством, профессией, фамилией, возрастом, полом, выполняемой задачей. Гораздо активнее в качестве единицы обращения выступают имена родственников. При обращении к незнакомым людям в узбекском языке используются слова, относящиеся к родственному лексикону, исходя из предполагаемого возраста.*

Ключевые слова: *общение, культура речи, говорящий, слушающий, адресант, адресат, обращение, формы обращения, имена родства.*

Abstract. *In the process of communication, the appropriate unit of appeal is selected based on the relationship between the speaker and the listener, that is, it is possible to apply several units of appeal to one person, depending on the situation. Accordingly, there are several semantic groups of reference units related to place of residence, nationality, kinship, profession, name, age, gender, and position. In the application, the names of relatives are more active as a unit of reference. In Uzbek, when referring to strangers, words related to the lexicon of kinship are used, depending on the approximate age.*

Keywords: *communication, speech culture, speaker, listener, addressee, addressee, appeal, forms of appeal, names of relatives.*

Ajdodlarimiz qadimdan to'g'ri ta'sirchan, chiroyli gapirishga intilish va ularni odatga aylantirishga ma'rifiy-axloqiy talab sifatida qarab kelganlar. So'zni qadrlash, yaxshi so'zlay olish, so'zlaganda o'ylab, tushunib gapirish, chin so'zlash, tilni tiyish, suhbat sirlarini saqlash ezma va vaysaqi bo'lmaslik kabilarga amal qilish nutq odobining asosiy talablari hisoblangan. Nutqiy muomaladagi bu odatlar xalqimizning o'ziga xos an'anasi sifatida yashab va takomillashib kelmoqda. Shu narsani ta'kidlash kerakki, suhbat jarayonida ohang juda katta vazifani bajaradi. Birgina murojaat so'zlarni turli ohangda talaffuz qilish bilan vaziyatga qarab iltimos, talab, maslahat, ogohlantirish, buyruq, jerkish kabi ma'nolarni ifoda etish mumkin. O'zbek xalqi dunyoda o'z ma'naviyati va madaniyati mavjud bo'lgan turkiy xalqlarning biri sifatida tildan foydalanishda ham qadimiy an'analari, odat va ko'nikmalariga ega. Muloqot inson faoliyatidagi eng murakkab jarayon sanalib bu jarayonning amalga oshishida ma'lum qonun-qoidalar mavjud. Muloqot jarayoni tuzilishini tilshunos olim S.Mo'minov quyidagi bosqichlarga ajratadi [1]:

I.So‘zlovchi faoliyatidagi bosqichlar:
1. Salomlashish va murojaat bosqichi
2. Tanishuv bosqichi.
3. Daromad bosqichi.
4. Muddao bosqichi.
5. Xotima va xayrlashuv bosqichi

II. Tinglovchi faoliyatidagi bosqichlar.
1. Tinglash bosqichi.
2. Munosabat bildirish bosqichi.

Muloqot jarayonining muhim qismini murojaatlar tashkil qiladi. Murojaat esa tanish kishilarga ham, notanishlarga ham bo‘lishi mumkin. Har bir tildagi murojaat birliklari o‘zida o‘sha xalqning qadriyatlari, urf-odatlari, milliy o‘zligi, shuningdek, nutq madaniyatining nozik jihatlarini ko‘rsatib beruvchi nutq birliklaridir. Har bir shaxs hamisha ma'lum ijtimoiy guruhlar doirasida faoliyat ko‘rsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi, ko‘cha-kuyda norasmiy guruhdagi do‘stlar davrasi, o‘quv jamoasi va hokazolardir. Mazkur faoliyat jarayonida, xizmatchilik yuzasidan ko‘plab kishilar bilan rasmiy-norasmiy muloqotga kirishish jarayonida muomala madaniyatining ahamiyati g‘oyatda katta. Muomala madaniyatining yaxshi egallanishi kishilarning bir-birini hurmat qilishi va e'zozlashiga olib keladi. Ayrim ilmiy adabiyotlarda murojaat chaqirish, undash ottenkalarini qamrab oluvchi so‘zlar "Vokativ formadagi so‘zlar" sifatida izohlangan [2]. O‘zbek tilida qo‘llaniladigan murojaat so‘zlarni yoshga ko‘ra xususiyatlari talqin qilinar ekan, rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqqan holda qo‘llaniladi, shu bois rasmiy murojaatlardan norasmiy murojaatda qo‘llaniladigan murojaatlarga qaraganda yoshni chegaralash yoki aniqlash ancha murakkabroq. Masalan, rahbarning o‘z qo‘l ostida ishlayotgan xodimlari bilan muloqoti, professor-o‘qituvchining talaba bilan muloqoti va hokazolarda rasmiy murojaat shakllaridan foydalaniladi: *Hurmatli, Lobar Po‘latovna! Bugungi tadbirimizda ishtirok etganingiz uchun tashakkur! Hurmatli, To‘lqin Do‘stboboyevich, erishgan muvaffaqiyatlaringiz bardavom bo‘lsin.* Ushbu keltirilgan misollardan adresatning va adresantning yoshini aniqlash mushkul.

Norasmiy muloqot – bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o‘sha suhbatdoshlarning fikr-o‘ylari, niyat-maqsadlari, emotsional munosabatlari bilan belgilanadi va bunda o‘ziga xos norasmiy murojaat birliklari qo‘llanadi: -*Yaxshimisiz , og‘ayni? Ishlaringiz joyidami?*

-Ha aka, rahmat, salomatmisiz?

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo‘rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma'no ottenkalari qo‘shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog‘liq. Shunga ko‘ra murojaat birliklarini ijobiy va salbiy ma'no ifodalaydigan murojaat birliklariga ajratish mumkin. Muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro munosabatidan kelib chiqib vaziyat uchun mos murojaat birligi tanlanadi, ya'ni bir kishiga nisbatan vaziyatga ko‘ra bir necha murojaat birligini qo‘llash mumkin. Shunga ko‘ra murojaat birliklarining yashash joyi, millati, qarindoshligi, kasb-hunari, ism-familiyasi, yoshi, jinsi, bajarayotgan vazifasi kabilar bilan bog‘liq bir nechta mazmuniy guruhlari mavjud. Bulardan qavm-qarindoshlik nomlari murojaat birligi sifatida ancha faol qo‘llanadi. Muloqotning boshlanishida ko‘ringan murojaat shakli keyingi muloqot uchun xos bo‘lgan maromni belgilaydi. Murojaatda ko‘pincha shaxsning nominatsiyasi ko‘rinadi, shu sababli nutqiy odatda murojaatga e'tibor katta ahamiyatga ega. Murojaatda aksar hollarda adresatning kasbi, xizmat yuzasidan jamoa orasida tutgan o‘rni, va jinsi bilan bir qatorda yoshi kabi belgilar ham ko‘rinadi. Ilmiy adabiyotlarda ko‘pchilik xalqlar tillarining milliy variantlarida murojaat shakllarini qo‘llash bir qancha omillarga bog‘liq ekanligi ta'kidlanadi. O‘zbek tilidagi murojaat shakllari asosan quyidagi omillar bilan belgilanadi:
1. Ijtimoiy mansublik;
2. Kasb, lavozim, unvonlar;
3. Suhbatdoshlarning tanish –notanishligi;
4. Nutqiy harakat sharoiti;
5. Muloqotchilarning yoshi;
6. Ularning jinsi;
7. Yashash joyi;
8. Uslubiy holat;
9. Muloqotchilar xarakteri.

Odatda, har qanday tasnifda narsa yoki hodisalarga xos bo‘lgan aniq belgilar asosga olinadi. Murojaat birliklarining mazmuniy guruhlanishi haqida shunday fikrlar bor: "Undalmaning atoqli otlar, ism-familiyalar, unvon, laqab, qarindoshlik otlari, yoshga, holatga qarab ishlatiladigan turlari mavjud".

Lug‘at, darslik va qo‘llanmalarda tur va xillari keltirilgan undalma - murojaat shaklining ana shu tur va xillarga bo‘linishdagi asoslari ko‘rsatilmagan.Shu tufayli ham undalma - murojaat shakli ma'lum omillar

asosida guruhlanishi, ularning turlarga bo‘linishiga aniqlik kiritish lozim. Tasnifda turli jihatlar hisobga olinib, aniq omillarga asoslanishi maqsadga muvofiq. Murojaat shakllarini qaysi jihatiga ko‘ra sinflarga ajratish tilshunos olima Z.Akbarova ishlarida keng yoritib berilgan. Ularning tasnifida murojaat shakllari to‘qqiz asosga ko‘ra xillarga ajratilgan [3].

Murojaat shakli nutq qaratilgan ob’yektni ifodalovchi so‘z yoki so‘zlar birikmasi sifatida belgilash tushunchani aniqroq ifodalaydi. Murojaat shakllari ma’lum asoslarga ko‘ra guruhlanadi. Ana shunday jihatlarning biri murojaat - so‘zning mavzuiy asos bo‘yicha tasnifidir. O‘zbek tilidagi murojaat shakllarini semantik jihatdan quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Shaxsning ota-onasiga ishlatiladigan murojaat shakllari;
2. Shaxsning turmush o‘rtog‘iga ishlatiladigan murojaat shakllari;
3. Farzandga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakllari;
4. Shaxsning qarindoshlariga ishlatiladigan murojaat shakllari;
5. Notanish kishilarga ishlatiladigan murojaat shakllari;
6. Kasb-koriga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakllari;

Oiladagi o‘zaro munosabatlarda ota-onaga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakllari alohida ahamiyatga ega. O‘zbek tilida otaga murojaat qilishda ota, dada, ada onaga murojaatda esa ona, oyi, aya, opa murojaat so‘zlari qo‘llaniladi. Hududiy jihatdan o‘rganilganda o‘ziga xoslik mavjud. Masalan:

- *Dada, sizni amakim so‘ragan edilar. (So‘zlashuvdan).*
- *“Qayerdan keldingiz, ona?”-dedi Yo‘lchi. (Oybek “Qutlug‘ qon”).*

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, o‘zbek tilida ota-onaga hamda o‘zidan katta yoshdagi barcha shaxslarga “siz” deb murojaat qilinadi. “Siz” shaklining “sen” ga aylanishi nutqiy odatga to‘g‘ri kelmaydi.

O‘zbek tilida yaqinlik, sevgi va hurmat singari modal munosabatlar -jon qo‘shimchasi vositasida ifodalanadi:

Bahodirjon ishlariz yaxshi ketyaptimi?

Dadajon derazani yopsam maylimi?

Murojaat borasida fikr yuritilganda, er-xotin orasidagi murojaat shakllariga alohida to‘xtalib o‘tish kerak. Ma’lum milliy tushunchalar, diniy aqidalar tufayli yuzaga kelgan, nutqiy odatning turli tematik vaziyatlarida qo‘llanuvchi murojaat shakllari o‘zbek xalqida er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarda xilma-xil ko‘rinishlarda aks etadi.

Er- xotin o‘rtasidagi murojaat shakllarini shunday guruhlash mumkin:

a) Turmush o‘rtoqlariga o‘z ismi bilan murojaat qilish;

Bunda ismga - *xon, - jon, - oy, - bibi* affikslari, ayollar nutqida esa er ismiga “aka” so‘zini qo‘shish hollari ko‘zga tashlanadi. Bunda ko‘pincha yosh aniqroq ifodalanadi. Chunki er-xotinlar Yoshi ulg‘aygan sari farzandlik bo‘lganidan so‘ng ushbu murojaatso‘zlar boshqa variantiga almashadi.

b) Jins anglatuvchi “er”, “xotin” kabi so‘zlar bilan murojaat qilish;

Ko‘proq erkaklar nutqida “xotin” deb murojaat qilish uchraydi:

“*E, nodon xotin, menda pul nima qiladi, sigir-buzoqni sotaman!”* (S. Ahmad).

d) Keksa yoshli kommunikatlarda yoshni belgilovchi so‘zlar bilan murojaat qilish: “*Kampir, sen aralashmay tur birpas*!” (S. Ahmad).

Ko‘rinib turibdiki, bunday murojaatda yosh bilan birga adresatning jinsi ham ifoda qilinyapti;

e) Farzandlardan birining ismi bilan murojaat qilish; Bunda ko‘pincha yoshi katta er-xotinlar o‘rtasidagi muloqotda kuzatish mumkin.

Ko‘pincha tung‘ich farzand ismi bilan ataladi:

“Nigor oyim yugurib erining orqasidan chiqdi: hay, Ra’no! – dedi Maxdumga, -nonlarimizning suvi qochgan, xamir qilishga vaqt oz, bozordan issiq non oldirasizmi?” (A. Qodiriy).

f)Farzandlarning ota-onalariga murojaatlari asosida murojaat qilinadi: *“onasi”, “otasi”, “oyisi”, “dadasi”, “ayasi*” kabi

g) Umr yo‘ldoshining lavozimi, jamiyatda tutgan o‘rniga ko‘ra atash: “*domla”, “begim”, “rais”* kabilar , Kumushning Otabekka “*begim*”, Boburga rafiqalarining “*mirzam”, “hazratim*” deyishlarida ham shunday ma’no yotadi.

h) Er-xotin orasidagi munosabatlarda erkalash munosabatini bildiruvchi murojaat shakllaridan ko‘p foydalaniladi, bunday murojaatlar intim holatlarda ishlatiladi: *jonim, azizim, xonim, go‘zalim, yolg‘izim, farishtam, asalim* singari. Ushbu erkalash munosabatidagi murojaat so‘zlardan ham taxminiy yoshni aniqlash mumkin. Chunki yoshi ulg‘aygan sari er-xotin orasidagi munosabatlarda erkalash so‘zlari deyarli qo‘llanilmaydi. Ushbu so‘zlar o‘rnini boshqa murojaat so‘zlar egallaydi.

i) Faqat undov so‘zlar bilan murojaat qilinadi, bunda ko‘pincha kelinlar farzandli bo‘lgunlariga qadar shunday murojaat qiladilar:

“Hoy, menga qarang, ishdan keyin laqillab yurmang, darrov qayting!”(S. Ahmad).

Bunday guruhlanishni faqat o‘zbek tili uchun xosdir deyish mumkin. Chunki boshqa tillarda er -xotin orasidagi murojaat shakllarida o‘zgachalik mavjud. Bunday murojaat shakllarini boshqa tillar doirasida qiyoslaganimizda o‘ziga xos qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Farzandga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakllari haqida gapirganda shuni aytish mumkinki, o‘zbek tilida bir xil murojaat shakllari xilma-xil ko‘rinishlarga ega. *O‘g‘il, qiz* so‘zlari egalik affikslari bilan kelgandagina qon-qarindoshlik termini hisoblanadi:

1. Odatda, o‘zbek tilida ota-onalar o‘z farzandlarini ismini aytib murojaat qiladilar. Lekin I shaxs egalik qo‘shimchasi bilan o‘g‘lim, qizim formasida murojaat qilganda erkalatish, o‘ziga yaqin tutish, mehribonlik kabi ma’no ottenkalari aks etadi. Bundan tashqari, farzandga murojaatda o‘zbek tilida “qo‘zim, qo‘zichog‘im”, “bo‘talog‘im”, “toychog‘im”, “shunqorim”, “lochinim”, “asalim” va h. murojaat so‘zlari qo‘llaniladi. Ular orqali erkalatish, suyish ma’nolari yuzaga chiqadi. Masalan: *Bu gaplarni qo‘ya turay, kel, Butalog‘im, o‘zingdan gapir. (M. Yusuf).*

Shunqorim, mard lochinim! Bu yoqqa qara-chi, ko‘zlaringga to‘yib boqay.

(S. Ahmad).

2. Buva, buvilar ham o‘z nabiralariga nisbatan *o‘g‘lim, qizim* deb murojaat qiladilar;

3. Qaynota va qaynonalar o‘z kuyovlariga *o‘g‘lim* kelinlariga *qizim* deb murojaat qiladilar;

4. Begona shaxslar tomonidan ham o‘z bolasi tengi bo‘lgan yoshlarga murojaatda ham o‘g‘lim, qizim birliklari qo‘llaniladi. Bundan tashqari, begonalarga qo‘llaniladigan “o‘g‘lim, qizim” murojaat so‘zlari ham mavjud, begona shaxslar tomonidan o‘z bolasi tengi bo‘lgan yoshlarga murojaatda o‘g‘lim, qizim birliklari qo‘llaniladi. Masalan: *O‘g‘lim, malol kelmasa, yordamlashib yuborgin. (so‘zlashuvdan).*

Qarindoshlarga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakllari haqida to‘xtalganda, shuni aytish mumkinki, qarindoshlik terminlari qadim davrlardan boshlab nutq jarayonida bir kishining ikkinchi kishiga murojaati yoki uchunchi kishini anglatish uchun ishlatiladi. Shu jihati bilan qarindoshlik terminlari atoqli otlarga o‘xshab ketadi. Lekin qarindoshlik terminlari atoqli otlardan farqli ravishda bir kishining ikkinchi bir kishiga shaxsiy (xususiy) munosabatini anglatib, har bir shaxsga o‘zining qarindoshlik munosabatini o‘zga shaxsga nisbatan qarindoshlik nuqtai nazaridan kim bo‘lishini anglatishi bilan farq qiladi [4].

Murojaatda qo‘llanadigan qavm-qarindoshlik terminlarini kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Qon-qarindoshlik terminlari;
2. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlari.

Qon-qarindoshlik terminlariga ona, ota, aka, bobo (buva), buvi, tog‘a, xola, amma, amaki, jiyan kabi terminlar kiradi.

Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlarini esa er, xotin, kuyov, kelin, yanga, pochcha, boja, ovsin, qaynona, qaynota, quda qudaxola, qudabuva kabi terminlar tashkil etadi. Shuni ham aytib o‘tish zarurki, qarindosh-urug‘likni anglatuvchi atamalarning hammasi ham murojaat shakli bo‘la olmaydi: qaynona, qaynota, qaynog‘a, qayniegachi, qaynisingil, qayni kabi qarindosh-urug‘ terminlari hech qachon murojaatda qo‘llanmaydi [5].

Adresant yoki adresatning sotsiolingvistik belgisi avvaldan belgilangan birliklarga misol sifatida qarindoshlik nomlarining tematik guruhini notanish adresatga nisbatan murojaat shaklida ishlatilishida ko‘rinadi. Nutqiy odatning bu birliklari ikkilamchi nominatsiya bo‘lib, referantlarning xususiyatlarini o‘ziga xos ravishda aks ettiradi. Turli qarindoshlik belgilarini anglatuvchi murojaatlar adresant va adresatning ijtimoiy xususiyatlarini aniqaydi. Bu so‘zlarni qo‘llovchi adresant oddiy xalq vakili sifatida ko‘zga tashlanadi. Bunday holatlarda adresat faqatgina yoshi va jinsi bilan xarakterlanadi [6].

“Otaxon”, “onaxon”, murojaat shakllari keksa kishilarga qarata qo‘llanadi. Adresatni bunday nomlash uchun asos bo‘lib, uning yoshi xizmat qiladi:

Otaxon, to‘g‘ri aytasiz, hammani birdamlikka chaqirish kerak.

Onaxon, sizga nima yordam kerak? (so‘zlashuvdan).

xon qo‘shimchasi faqat o‘zbek tili uchun xos bo‘lib, boshqa tillarda ushbu qo‘shimchaning ekvivalenti mavjud emas.

O‘zbek tilida notanishlarga murojaat qilinganda, taxminiy yoshdan kelib chiqib, urug‘chilik leksikoniga oid so‘zlar qo‘llanaveradi. *Aka, uka, opa, singil* yosh nisbatan aniqroq tuyulganda *tog‘a, amaki, xola* kabi so‘zlar murojaat ob’yektini atash uchun qo‘l keladi. Bunday murojaat so‘zlar ijtimoiy hayotda faol hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. Filol. fan. dokt….dis. -T., 2000.
2. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriya. Toshkent, 1972.,bet-12
3. Z.Akbarova Murojaat shaklining tasnif asoslari O`TA, 74-76-b.
4. Аҳмедова Н. Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантис-коннотатив тадқиқи. Фил. Фан. Номз. Дис. Тошкент, 2009

5. Содиқова М., Жўраева Ж. сўздан сўзнинг фарқи бор. Тошкент, 1966. 15-бет.
6. Формановская Н. И. Обращение с точки зрения коммуникативно – прагматическогоподхода / Н.И. Формановская //Специализированный вестник КрасГУ.-2000- Вып.11.-с. 64,83-88.
7. Z.Akbarova Murojaat shaklining tasnif asoslari O`TA, 74-76-b.
8. Sh. Iskandarova. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari, fillol. Fan. Nomz..Diss. avtoref. – B 19.
9. Балакай А. А. Этикетные обращения: функционально-семантические и лексикографические аспекты: автореф. дисс. .. канд. филол. наук / А. А. Балакай. - Новокузнецк, 2005.

UO'K 81-13

IBN ARABSHOHNING "AJOYIB AL-MAQDUR FI AXBORI AT-TAYMUR" ASARIDA AMIR TEMUR OBRAZI

M.T. Pulatova, o'qituvchi, Buxoro Davlat Universitetining Pedagogika Instituti, Buxoro

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur" asarida Amir Temur obrazi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *tarixiy asar, axbor, obraz, qiyosiy tahlil, harbiy yurishlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется образ Амира Темура в книге Ибн Арабшаха «Аджойиб ал-макдур фи ахбори ат-Таймур».*

Ключевые слова: *исторический труд, известие, образ, сравнительный анализ, военные походы.*

Abstract. *This article analyzes the image of Amir Temur in Ibn Arabshah's book "Ajoyib al-maqdur fi akhbori at-Taymur".*

Keywords: *historical work, news, image, comparative analysis, military campaigns.*

Ibn Arabshoh Shihobuddin Ahmad Ibn Muhammad Ibn Abdullox Ibn Ibrohim (1388, Damashq — 1450, Qohira) sermahsul tarixnavis va adib, shu bilan birga, muallifning Temur va temuriylar davri hayotiga bag'ishlanib yozilgan «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» nomli tarixiy asari uning muhim ta'lifi hisoblanadi. «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» nomli tarixiy asari uning muhim ta'lifi hisoblanadi. «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur»ning K.Marks nazariga tushishi ham mazkur asarning qimmatli manba ekanligini ko'rsatadi [1].

Mazkur asar Amir Temurga va uning zamoniga bag'ishlangan salmoqli asardir. Ibn Arabshoh Amir Temurga nisbatan dushmanlik ruhidagi mualliflar jumlasidan edi. Bu hol uning asarida to'la aks etdi. Shunday bo'lishi tabiiy edi, chunki jahon tarixidagi eng yirik arboblardan hech biri va hech qachon adabiyotda bir xil, bir ma'noda baholangan emas. Ularning hayoti va faoliyati to'g'risidagi bilimlar jamlanishi jarayonida ularning tarafdorlari bilan g'animlari o'rtasida, tabiiy, bahslar bo'lib turgan, ijobiy va salbiy yoki betaraf tarzdagi va shu kabi turli-tuman fikrlar aytib kelingan.

Ibn Arabshoh o'zining "Al-Ta'lif at tohir fi shiyam al-malik az-Zohir al-qoim bi-nusrat al-haq Abu Sayyid Chaqmoq" asariga yozgan so'z boshisida Temur ishlari xususida «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» («Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari») deb atalgan ilgarigi kitobidagi yomonliklar bayonida bulg'angan qalamini tozalash uchun ushbu kitobni yozganligi haqida gapiradi [2].

Ingliz sharqshunosi X.A.Gibbning (1895yilda tug'ilgan) "Temur haqida yozilgan «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» nomli asari Ibn Arabshoh nomini uzoq vaqt Yevropada doston qildi" [3], degan ta'biri ham o'sha davrda asarga bo'lgan qiziqish kata ekanligidan dalildir. Muallif o'z asarini "Ajoyib al-makdur fi navoib Taymur" ("Temur keltirgan musibatlarda taqdir ajoyibotlari") nomi bilan atalgan bo'lsa-da, ushbu asar keyingi barcha nashrlarida, biografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomuslarning ko'pchiligida «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» («Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari») nomi bilan zikr qilinadi. O'z asarida qofiyaga qat'iy rioya qilgan Ibn Arabshoh sarlavhadagi "navoib" ("musibatlar") o'rniga oddiy qilib "axbor" ("xabarlar")ni qo'yganlar. Hozirgi vaqtda Damashqdagi (Suriya) Az-Zohiriya kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy nusxalaridan biri "Ajoyib al-makdur fi navoib Taymur" («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari») nomi bilan keltirilgan. Asarning boshqa tillarga (fransuz, lotin, ingliz) qilingan tarjimalarida ham Ibn Arabshoh asari "Temur tarixi" nomi bilan atalgan.

Ibn Arabshohning manbalariga kelsak, muallif o'z kitobining muqaddimasida "o'zim ko'rib mushohada etganlarimu, o'zgalardan eshitganlarimni hikoyat qilishga jazm etdim" [4] deb o'zi foydalangan manbalari haqida hech narsa yozmaydi. A.Yu.Yakubovskiy fikricha ham, mazkur asar uchun asosiy manba muallifning shaxsiy kuzatishlari va o'sha davr voqealariga aloqador bo'lgan va ishtirok etgan shaxslarning hikoyatlari hisoblanadi [5]. Garchi shu tarzdagi mulohazalar yuritilsa ham, muallif boshqa manbalardan ma'lum darajada istifoda etganligiga ba'zi dalillar mavjud. Umuman, «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur»ni yozishda muallif tayangan manbalarni to'rt qismga bo'lish mumkin: o'sha davr (ya'ni XIV-XV asrlar)da yaratilgan arab va fors tilidagi ba'zi asarlar: Temur haqida xalq orasida tarqalgan rivoyatu

hikoyatlar: muallif zamondoshlarining hikoyatlar: muallif zamondoshlarining hikoyalari va nihoyat, muallifning shaxsiy mulohazalari.

«Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» («Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari») asari Amir Temur vafotidan keyin sodir bo'lgan hodisalar va ishlar bayoni bilan boshlanadi:

Temur yerlari to'belarini tashlab, o'z gunohlari bilan darak-molikga (do'zaxga) tomon yuzlangani xabarini yetkazdi. Chopar ushbu xushxabar bilan mazkur yil ramazon oyining o'n to'rtinchisida…..[6]

Ushbu misralarda Ibn Arabshoh Amir Temurning o'limidan so'ng uning do'zaxga tomon yuzlashganligini va bunday xushxabarni ramazon oyida aytilayotganini yozadi. Bundan yozuvchining bosh qahramonga nisbatan salbiy munosabatini tushunish mumkin.

Deyarli yarim asrlik davr voqealarini o'z ichiga olgan «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» ko'p sonli bayonlardan iborat bo'lib, voqealar jarayoniga binoan muallif ularni tadrijiy ravishda keltirishga harakat qilgan. Mana shu zikrlarning joylashuvi hamda asarning kompozitsiyasiga asoslanib, bizningcha, uni to'rt bo'limga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bo'limda Temurning nasabi, bolalik va o'spirinlik yillari dastlabki faoliyatiga oid ma'lumotlar keltiradi. Ikkinchi bo'limda Temur Movarounnahrda hokimyatni mustaqil egallagandan (1370yil) boshlab deyarli umrining oxirigacha olib borgan harbiy yurishlari so'zlanadi. Temur vafotidan (1405yil) keyin taxminan 1436yilgacha bo'lgan voqealar uchinchi bo'limda bayon qilinadi.

Oxirgi to'rtinchi bo'limda esa, Temurning sifatlari, shakl-shamoyillari hamda tabiiy xislatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, asarda bosh qahramon sifatlari hamda ko'rinishi quyidachida ta'riflanadi:

Temur baland qadli, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo u qadimiy paxlavonlar avlodlaridan bo'lib, keng peshonali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo'lalik, rangi oqu-qizil yuzli, lekin dog'siz, bug'doy rang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol, o'ng oyoq-qo'li cho'loq va shol, ikki ko'zi bamisoli ikki sham bo'lsada, shodligi bilinmas, yo'g'on ovozli edi; u o'limdan qo'rqmas, yoshi saksonga yetadigan bo'lsada, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazah va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgiyu ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi; u bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmas va o'ziga hosil bo'ladigan yutuqlardan shodlanmas edi [7].

Ko'pgina tadqiqotchilar XIV-XVasr O'rta Osiyo, shuningdek Eron, Ozarbayjon tarixini to'liq tasavvur qilish uchun o'sha davrdagi boshqa tarixchilar yaratgan asarlarni «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» bilan qiyosiy o'rganish zarurligini haqqoniy ravishda ta'kidlaganlar. Darhaqiqat, bu bo'lib o'tgan voqealarning qanchalik to'g'riligini aniqlashda yordam beradi. Shu nuqtai nazardan Temurning bolalik va o'spirinlik yillari haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Boshqa birorta manbada ko'rsatilmasada [8], Ibn Arabshoh Temurning Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or [9] qishlog'ida tug'ilganini zikr qiladi. So'ngra muallif Temur va uning otasi Tarag'ay hayotidan birtalay rivoyatlar keltiradi hamda keyinchalik Temurning o'z atrofiga tengqurlarini to'plab o'lja tushirish bilan shug'ullangani haqidagi ma'lumotlarni keltiradiki, bu xabarlarni u Movarounnahrdaligi paytida eshitgan bo'lsa kerak. Chunki bir tomondan Temur hayotini maqtovlar bilan bayon qilgan rasmiy tarixchilarni uning yoshlik va o'spirinlik yillari haqida hech narsa yozmasdan chetlab o'tishlari, ikkinchi tomondan esa, Ibn Arabshohga aloqador bo'lmagan Kastiliya elchisi Klavixoning ham shu yo'sinda yozishi [10], shuningdek, rus solnomasida ham aynan shu tarzdagi xabarlar keltirilishi [11] bu fikr ma'lum darajada haqiqatga yaqin bo'lib, o'sha paytda bu hikoyalar xalq orasida keng tarqalganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, Ibn Arabshoh yozganidek, "bir qarashdanoq tashqi xususiyatiga qarab otlarning zotli yoki zotsizligini ajratadigan" Temur yoshligidan epchil chavandoz hisoblanib, kamondan yaxshi otgan. U harbiy ishni puxta egallab asta-sekin o'z atrofida to'plangan uncha ko'p bo'lmagan otliq askarlarni o'z qo'shinlarining yerlarida o'lja tushirish va o'tib borgan savdogarlar karvonlarining yo'lini to'sib, mol-mulkini tortib olish uchun yuborgan.

Shaxsiy botirlik hamda boshliqqa xos xislatlari bilan Temur yoshligiga qaramasdan o'z qabilasi barloslar, ayniqsa chig'atoy ko'chmanchi yoshlari orasida shuxrat qozona boshladi. Ibn Arabshoh, uning hamrohlari soni tobora oshaborib, qisqa vaqtda uch yuz kishiga yetganligini zikr qiladi. Shundan keyin sodir bo'lgan voqealar xususida «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur»da keltirilgan ma'lumotlar garchi forscha manbalarda tasvirlaganidek mukammal va tarixlari ko'rsatilib aniq bayon etilmasada, hokimyat yo'lida Temur bilan uning raqiblari o'rtasida yuz bergan kurashlarni qisman aks ettiradi. Jumladan, «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» asarida aytilishicha, Temur sharq-u g'arb iqlimlarini alg'ov dalg'ovga soldi, uning jangu jadalida har bir sulton yutqazib, har bir shoh jangda ham, shaxmat o'yinda ham undan yengilib mot bo'ldi [12].

Bir tomondan mo'g'ul xonlari o'tkazayotgan zug'umlar, ikkinchi tomondan mahalliy hokimlar o'rtasidagi to'xtovsiz nizolar mamlakatni mushkul ahvolga tushurib, faqat oddiy xalq ommasi ahvolini og'irlashtirib qolmay, balki hokim sinflarning manfaatlariga ham putur yetkazardi. Mana shunday og'ir vaziyatda siyosat maydoniga chiqqan Temur Movarounnahrda mo'g'ul xonligidan mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzilmaguncha vaziyatni tuzatish mumkin emasligini to'la angladi va bu yo'lda keskin kurashga bel bog'ladi. Temurning bu g'oyasini mamlakatni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan barcha sotsial kuchlar, ayniqsa har tomonlama kata nufuzga ega bo'lgan feodal zodagonlar astoyidil qo'llab-quvvatladilar.

Movarounnahrni o'ziga bo'ysundirib, hokimyatni mustaqil o'z qo'liga olgan Temurning bundan keyin uyushtirgan harbiy yurishlari talonchilik xarakteridagi urushlar bilan qo'shib olib borildi.

«Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur»da keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda kata o'lja olishga umid bog'lagan Temur o'zining so'nggi, Xitoyga qilgan yurishiga zo'r tayyorgarlik ko'rgan. Bu paytda Samarqandda yashagan Ibn Arabshoh bu voqealardan yaxshi xabardor bo'lganligi uchun ham bu haqda keltirilgan ma'lumotlari o'zining originalligi, to'laligi bilan alohida ilmiy kasb etadi.

Shuningdek, muallifning Temur vafoti va uning vafotidan keyin darhol sodir bo'lgan voqealarga oid keltirilgan ma'lumotlari tarixchilar tomonidan yuqori baholanib, qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan [13].

Xulosa qilib aytganda, Ibn Arabshohning «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» asari Amir Temurga va uning zamoniga bag'ishlangan salmoqli asardir. Ibn Arabshoh shaxsiy sabablarga ko'ra Amir Temurga nisbatan dushmanlik ruhidagi mualliflar jumlasidan edi. Bu hol uning asarida to'la aks etdi. Shunday bo'lishi tabiiy edi, chunki jahon tarixidagi eng yirik arboblardan hech biri va hech qachon adabiyotda bir xil, bir ma'noda baholangan emas. Ularning hayoti va faoliyati to'g'risidagi bilimlar jamlanishi jarayonida ularning tarafdorlari bilan g'animlari o'rtasida, tabiiy, bahslar bo'lib turgan, ijobiy va salbiy yoki betaraf tarzdagi va shu kabi turli-tuman fikrlar aytib kelingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Архив Маркса и Энгельса, т. VI, 185 бет
2. Al-Muarrixun, 22-bet
3. Х.А.Гибб "Арабская литература", 102-бет
4. Ibn Arabshoh «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» (Temur tarixida taqdir, ajobiyotlar) Toshkent-"Mehnat" 1992, 3-bet
5. A.Yu.Yakubovskiy, Timur, 46bet
6. Ibn Arabshoh «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» (Temur tarixida taqdir, ajobiyotlar) Toshkent-"Mehnat" 1992, 5-bet
7. Ibn Arabshoh «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» (Temur tarixida taqdir, ajobiyotlar) Toshkent-"Mehnat" 1992, 65-bet
8. В.В.Бартольд. Соч.том(2) прим 18, 39бет
9. "Ajoyib al-maqdur". 3-bet, А.Якубовскийнинг "Тимур", прим. 45, 53-б. Ibn Arabshohga ishora qilib, Xo'ja Ilg'or qishlog'I ushbu qishloq hokimining nomi bilan atalgan, degan fikri nimaga asoslangani bizga noma'lum.
10. Клавихо, Дневник, 240-бет
11. Никоновская летопись, 151-бет
12. Ibn Arabshoh «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» (Temur tarixida taqdir, ajobiyotlar) Toshkent-"Mehnat" 1992, 86-bet
1 3. В.В.Бартольд. Улуғбек и его время: О погребении Тимура: Л.Зимин, Потребности смерти Тимура: Я.Г.Гульямов, к вопросу о традиции: А.А.Семенов. Надписи на надгробиях Тимура: К.Шахурин. Еще раз о погребении Тимура.

UO'K 81-13

EZGULIKNI MADH ETUVCHI DOSTON

B.B.Rahimova, f.f.n., dotsent, Urganch Davlat Universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Maqolada shoir Matnazar Abdulhakimning "Ko'prik"dostoni tahlilga tortiladi. Dostonning bosh qahramoni Muhammad Hoji Aminaddin o'g'lining ezgu ishlari, ibratli hayoti tasviri orqali umuminsoniy hamda umumbashariy qardiyatlar talqini ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *an'ana, shakl va uslub, mahorat, davr va qahramon, ramziylik, novatorlik, asliyat, doston, mavzu, maktub, g'azal, hikmat, badiyat.*

Аннотация. *В данной статье проведен анализ эпоса Матназара Абдулхакима «Кўприк» («Мост»). Посредством образов благородных деяний, примерной жизни главного героя произведения Мухаммада Ходжи Аминаддин оглы интерпретируются общечеловеческие ценности.*

Ключевые слова: *традиция, форма и стиль, мастерство, период и герой, символизм, новаторство, оригинальность, эпос, тема, письмо, газель, мудрость, художественность.*

Abstract. *The article analyzes the epic "Koprik" by the poet Matnazar Abdulhakim. The main hero of the epic Muhammad Haji Aminaddin's son's noble deeds and exemplary life depict the interpretation of universal and universal values.*

Key words: *tradition, form and style, skill, period and hero, symbolism, innovation, originality, epic, theme, letter, poem, wisdom, art.*

Matnazar Abdulhakim (1948-2010) zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, donishmand shoir, iste’dodli publitsist, mohir tarjimon sifatida o‘zidan boy adabiy meros qoldirgan. 2009 yilda shoirning “Ko‘prik” nomli kitobi nashr qilingan bo‘lib, unda ijodkorning turli janr va mavzulardagi asarlari, jumladan, she’rlar, rivoyat, doston va badiiy publisistika namunalarini qamrab olingan. Ular orasida salmoqli o‘rinni shoirning “Ko‘prik” dostoni egallaydi. Saylanma xarakteridagi bu to‘plamga muallifning 1972 yildan hayotining keyingi o‘n yilligida yozilgan she’rlar, doston va publitsistik asarlar tanlab kiritilgan bo‘lsa-da, ularning mavzu va shakl doirasi keng bo‘lib, nazm namunalari barmoq va aruz (asosan, g‘azallar), publitsistik manzumalar – ijtimoiy va adabiy-estetik maqolalarni qamrab oladi.

Doston “burnog‘i asrning so‘nggi yirik mirobi, Xiva madrasalarida, so‘ngra Farangistonda eng yangi o‘quv tamoyillari asosida tahsil olgan, zamonlar orasidagi mustahkam ko‘prik bo‘lgan, ammo 1937-yildagi qatag‘on qurboni bo‘lgan Muhammad Hoji Aminaddin o‘g‘li xotirasiga bag‘ishlangan”. Doston voqealari shu qahramon tilidan bayon etiladi. Unda qahramom hayot yo‘lining talqini orqali shoirning falsafiy qarashlari aks etadi. Doston tuzilishi jihatdan ham o‘ziga xos: muqaddima, maktub, g‘azal, hikmat, rivoyat, sonet, muxammas kabi poetik shakllardan iborat. Bular orasida folklorizmlar - og‘zaki ijod namunalarining yozma adabiyotda qo‘llanilishi hodisasi alohida o‘rin tutadi. Muallif folklorizmning oddiy (hikmat, maqol, matal kabi) va murakkab (rivoyat, afsona, mif va boshqalar) turlarining ayrimlaridan mahorat bilan foydalanadi. Doston mohiyatini ifodalashda "ko‘prik", "suv", daryo", "inson” kabi tayanch tushunchalar yetakchi bo‘lgani bois folklorizm ko‘rinishlari ham shu istilohlar bilan bog‘liq. Masalan, xalq orasidagi “Ulug‘lar-ko‘prikdir” aforizmi qayta ishlangan, dostonning butun mazmunini ifodalovchi oddiy folklorizm sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, Hoji Aminaddin xarakteridagi insoniylik, eliga mehr, muruvvat kabi fazilatlar uni ramziy ma’nodagi ko‘prik deyishga asos bo‘ladi. Bu esa quyidagi baytda ibratli falsafiy mushohadaga aylanadi:

Marhumlarning ruhi shod bo‘lsin,
Hamjihat bo‘lsinlar tiriklar.
Ko‘prik ko‘priklar tinch bo‘lsinlar,
Bor bo‘lsinlar odam ko‘priklar.

Bu o‘rinda "ko‘priklar” so‘zi tajnis san’ati - ko‘p ma’nolilik hodisasiga asoslangan bo‘lib, birinchi misrada ariq va daryolar qirg‘oqlarini tutashtiruvchi vosita-predmet, ikkinchi misrada zamonlar osha barhayot siymolar ma’nosidadir.

Dostonda suvga aloqador folklorizmlar nisbatan keng qayta ishlashgan. Bu- tabiiy. Asar mavzusi va qahramonining mirob ekanidan tashqari, suvning hayotdagi beqiyos o‘rni ma’lum:

Suv bilan tirikdir har bitta daraxt,
Suv bilan barhayot har bir dona barg.
Odam dono bo‘lsa, suv – obi hayot,
Odam nodon bo‘lsa gar, suv – obi-marg.

Shoir folklor namunalari mazmunini saqlagan holda, badiiy talqinda oddiy va murakkab folklorizmlarga murojaat etadi. Jumladan, “Suv-hayot manbai” hikmati har ikkala folklorizm uchun tayanch asos bo‘lib, murakkab folklorizmning analitik shaklida rivoyatlar talqini salmoqlidir. Binobarin, “analitik folklorizm mazmunan saqlansa ham, biroq shaklan o‘zgartirilgan, ko‘pincha, qisqartirilgan, ishlov berilgan holda keltiriladi”. Dostondan o‘rin olgan uch rivoyatning ikkitasi analitik, uchinchisi sintezlashgan folklorizm namunalaridir.

Asarning birinchi qismidagi ikki rivoyat hazil ruhda yozilgan bo‘lsa ham, ularda katta ijtimoiy ma’no bor. O‘n misrali birinchi rivoyatning olti misrasida uning mazmuni qisman saqlangan holda, qolgan misralar fikrni xulosalaydi va mohiyatni ifodalaydi. Mohiyat esa ilm va suv xosiyatining badiiy talqinidir. Rivoyat qilinishicha, suv boshini aniqlashda qiynalgan dono miroblar “qari eshakka og‘ir yuk ortib, uni bo‘sh qo‘yishdi, Eshak esa pastqam yer-suv soqasini topadi”. Shoir bu voqeaning o‘ziga emas, undan chiqadigan ibratga ishlov beradi va chuqur falsafiy umumlashmaga keladi:

Jahonga mashhurdir shu suvdan ichib,
Xorazmning gurvak, oqqosh, beshagi.
Olim bo‘lgan, o‘zlari beri tursin
Bobolarning hatto qari eshagi,

Uch to‘rtlikdan iborat ikkinchi rivoyatda esa boshqacha holni ko‘ramiz. Unda ham suv mavzusiga diqqat qaratilsa-da, talqinning yangi qirrasi namoyon bo‘ladi, ya’ni rivoyat mazmuni keltirilmay, unga ishora qilinadi va xulosaga urg‘u beriladi. Ma’lumki, mashhur donishmand, shoir va kurashchi Pahlavon Mahmud haqida to‘qilgan rivoyatlarning biri “Polvon yop” ("Pahlavon kanali") deb ataladi va xalq orasida mashhurdir. Unda bu avliyo insonning ilohiy qudratli hassasi tortilgan izlarda kanal paydo bo‘lgani va elga obi hayot bag‘ishlangani hikoya qilingan. Shoir “hassaga ergashib, minglab chaqirimdan Xivaga kadar kelgan Polvonyop”ni qadrlash, “suvsizlik xatari”dan ehtiyot bo‘lish g‘oyasini ilgari surib, bu yo‘lda loqayd olimlarni samimiy istehzo ohangi orqali tadbirkor va bilimdonlikka da’vat etadi:

Olimlar! Bo‘lmangiz bunchalar zolim,
Jaholat yo‘lini yopinglar.
Chorasiz qolsangiz, Pahlavon Piyrning
Hassasini izlab topinglar.

Uchinchi folklorizm G‘avsul A’zam Piyrning ilohiy karomati voqealarining to‘la talqiniga asoslangan bo‘lib, hazrat iltijosi bilan insonlar hayotining Olloh tomonidan saqlab qolingani haqidadir. Bu syujet muallifning Yaratgan borliq va bashariyat haloskori ekanligi to‘g‘risidagi qarashlari bilan sintezlashgan va xotimada umumbashariy mazmun sabr bilan ish ko‘rish va insonni asrash mujassamlashadi (“Shoshilmadim, hatto xudo bo‘lsam ham, shunday hosil bo‘lar boshqalarga baxt”).

Shuningdek, asarda Muhammad Aminaddinga bag‘ishlangan “Muhammad Aminaddin o‘g‘lini kuzatish”, “Muhammad Aminaddining maktablari”, “Muhammad Xoji Aminaddin o‘g‘lining dard bitiklari” nomli she’rlarni kiritilgan bo‘lib, ularda bu xokisor insonning ezgu amallari, el uchun qilgan fidoyiligi madh etiladi.

Xalqni ulug‘lagan, vatanni cheksiz sevgan kishi xor bo‘lmaydi, deydi donishmand xalqimiz. Muhammad Aminaddin ham xalqi bilan yakdillikda birlashdi. Uning baxti ham, kulfati ham xalqi bilan hamohang kechadi. Dostonda shoirning “Bu ziyoli odam Xiva madrasalarida tahsil ko‘rgan, shuningdek, Farangistonda o‘z zamonasining eng yangi o‘quv tamoyillari asosida tahsil olgan xorazmlik birinchi ziyolidir”, deya Muhammad Hoji Aminaddin o‘g‘li bilan faxrlanish tuyg‘usi yuqori o‘rinda turadi. Dostonda Matnazar Abdulhakimning inson va uning hayoti haqidagi falsafiy qarashlari, ayniqsa, mukammal bo‘yoqlarda tasvir etiladi:

Odamlar – nasli pok. Shunday bo‘lmasa
Odam bo‘lmas ular, bo‘lar podalar.
Vatanni balodan qutqarish uchun
Dunyoga keladi aslzodalar.

Haqiqiy aslzoda inson moddiy boylik bilan emas, balki ma’naviy yuksaklikka erishgani, pokligi, fidoyiligi, insof-u diyonatliligi bilan aslzodadir. Vatan ravnaqi uchun jon fido qiluvchilar insonlar chin ma’nodagi aslzodalar sanalishini shoir chiroyli misralarda injuday teradi. Vataniga, xalqiga bo‘lgan mehrining o‘rnini hech narsa egallay olmasligini, e’tiqodi ham faqat xalqi orqali namoyon bo‘lganini misralarda o‘qiymiz va Vatan tushunchasini chuqur anglaymiz:

Bizsiz kerak emas o‘ziga vatan,
Vatansiz ne kerak o‘zimizga biz,
Shu sabab jo qildik vujudga ma’dan,
Dur bo‘lib o‘rnashdik ko‘zimizga biz.

O‘sha mash’um qatag‘on yillari xalqimizni chuqur qayg‘uda qoldirgani barchaga ma’lum. Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Otajon Hoshim, Abdulla Avloniy, Elbek singari xalqni ma’rifatga yetaklovchi qator fidoyi insonlar qatag‘on qurbon bo‘lishdi. Bular qatorida so‘nggi mirob Muhammad Hoji Aminaddin o‘g‘li ham bo‘lgan. Muallif mirobning ezgu fazilatlarini yoritish maqsadida uning ramziy maktublarini she’rga jo qildi:

Firoq zulmatda poyon bo‘lsa bo‘ldi,
Axir mehring namoyon bo‘lsa bo‘ldi.
Xayoling birla har bir lahza Zuhro,
Hayotim kavkabiston bo‘lsa bo‘ldi.
Visol dil qushlarimni sayratur sho‘x,
Misol: bulbilga bo‘ston bo‘lsa bo‘ldi.
Yuzingning tonglaridin tong qolurman,
Soching tun. Dilda ravhon bo‘lsa bo‘ldi.
Qayoqdan qalb bo‘lur hajringda lola,
Uqubatlar chekib, qon bo‘lsa bo‘ldi.
Muhammad gohi Ka’ba, goh farangda,
Nasiybi sen va iymon bo‘lsa bo‘ldi.

Shoir Muhammad Hoji Aminaddin o'g'lining qalbidagi muhabbat tuyg'usini, mehr iforini uning shaxsiyatidagi iymon va diyonat tuyg'ulari bilan qorishganligini juda ohorli misralar bilan tasvirlaydi.

Xulosa o'rnida aytish o'rinli-ki, shoir Matnazar Abdulhakimning "Ko'prik" dostoni asrlarni bir-biri bilan bog'laydigam "odam ko'priklar", ularning ezgu amallari haqidagi madh etuvchi go'zal asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Matnazar Abdulhakim. Ko'prik. –Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2009, 144 b.
2. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent. Fan.2007.B.164.
3. Hamdamov U. Davr ruhining she'riyatda aks etishi // O'zbek tili va adabiyoti.2001.B.20.

UO'K 808.3

LINGVOKULTUROLOGIYA – TILSHUNOSLIKNING YANGI YO'NALISHI

N.E. Rahmatullayeva, o'qituvchi, Namangan muhandislik qurilish instituti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu ish xalqning etnopsixologik xususiyatlari va ma'naviy madaniyatini, parameologiyani, pretsedent matnlarni va ijtimoiy-madaniy kontekstlarni o'rganishga bag'ishlangan lingvokulturologiya haqida.*

Kalit so'zlar: *Lingvokulturologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, milliy qadriyatlar.*

Аннотация. *Данная работа посвящена лингвокультурологии, которая изучает этнопсихологическую характеристику и духовную культуру народа, парамеологию, прецедентные тексты и социокультурные коннотации.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, лингвистика, культурология, этнография, национальные традиции.*

Abstract. *This work is devoted to cultural linguistics, which studies the ethnopsychological characteristics and spiritual culture of the nation, parameology, precedent texts and sociocultural connotations.*

Keywords: *Linguoculturology, Linguistics, Cultural Studies, Ethnography, National Traditions.*

Ona tilining lug'at tarkibi, grammatik tuzilishi va so'z birikmalarining o'ziga xos xususiyatlarini qo'ymoqda. Ana shunday muammolardan biri til tizimini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishdir. Bugungi kunda antropotsentrik yo'nalishning yuzaga kelishi tilshunoslikda tub burilish sifatida baholanib, bu borada ko'plab tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda.

Antropotsentrik paradigma "tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o'rganuvchi, boshqa sistemalar – jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabilar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo'naltirilgan qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar majmuidir. Professor N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "antropotsentrizm tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigagina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antropotsentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir. ... antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi."

Tilshunoslikda e'tirof etilganidek, antropotsentrik paradigma qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalardan keyingi uchinchi paradigma hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmatika va lingvokulturologiya antropotsentrik paradigmaga asoslangan eng muhim sohalar hisoblanadi.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir.

Til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kogaitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalarda ham o'rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya dunyo, xususan, rus tilshunos-ligida eng rivojlangan sohalardan biri bo'lib, bu borada salmoqli tadqiqotlar, bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Mazkur sohaga omd ishlarda tadqiqotchilarning olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar, pretsedent birliklar, intertekstuallik, lisoniy ong, barqaror birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari kabi masalalarga katta e'tibor qaratayotganliklarini kuzatish mumkin.

Tilning frazeologik boyligi ham xalq mentaliteti, madaniyati haqidagi boy ma'lumotlar taqdim etadi. Ularda xalqning miflar, odatlar, marosim va rasm-rusumlar, ma'naviyati haqidagi qarashlari o'zgarmay saqlangan bo'ladi. B.A.Larin frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qurilishi, o'z davri ideologiyasini aks ettirishini yozganida haq edi. Masalan, non komponentli frazeologizmlarni olaylik – *non*

topmoq, birovning nonini yemoq, nonini tuya qilmoq, nonini yarimta qilmoq kabilarda non arxetipi hayot, turmush tarzi, faoliyat turi, farovonlik predmeti va timsoli maqomiga ega. Nonning o‘z peshona teri, o‘z qo‘l mehnati orqali topilishi muhimligi ko‘rinib turibdi. Aks holda bunday salbiy xususiyat jamiyatning tazyiqiga uchraydi. Bu hukmning ostida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy, diniy, ma'naviy tamoyillar yotadi. Non shakli yumaloqligi uning quyosh timsoliga bog‘liqligiga, shuningdek, mehmondo‘stlik, dasturxon atrofidagi insonlar uchun bir xil e'tibor berilishiga ham ishora qiladi.

Lingvokulturologiyaning tadqiqot predmetlaridan biri – tilning paremiologik boyligi hamdir. Darhaqiqat, maqollarning aksar qismi milliy ongi stereotipi hisoblanadi. Odatda maqol va matallar folklorshunoslikda janr sifatida o‘rganiladi. Tilshunoslikda esa endigina o‘rganilmoqda. Pragmatik nuqtai nazardan maqollarning maqsadi qorishiq xususiyatli. Birgina maqolning o‘zida ogohlantirish, ta'qiq, tasalli, maslahat, tanqid, tahdid kabilar jamlangan bo‘lishi mumkin. Maqollarning barchasi ham lingvokulturologiyaning predmeti hisoblanavermaydi. Jumladan, biror xalqqa, madaniyatga tegishli bo‘lmagan, barcha etnoslar uchun birdek tegishli bo‘lgan maqollar shu qatorga kiradi. Mazkur fan tadqiq doirasiga kirish uchun maqol biror xalqning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi lozim.

Nutq madaniyati ham lingvokulturologiyaning muhim predmetlaridan biridir. A.A. Leontev yozadi: «Nutqiy muloqotning milliy-madaniy o‘ziga xosligi mazkur jamiyatda muloqotning usullari, funksiyalari, tashkillanishidagi farqlar, omillar tizimi haqidagi tasavvurlarimiz bilan bog‘liq. Bu omillar jamoaning shakllanishining turli bosqichlariga asoslanadi, turlicha tabiatga ega bo‘ladi, biroq jarayonda o‘zaro bog‘liq ravishda ishtirok etadilar. Bu omillar asosan lisoniy, psixolingvistik va umumpsixologik omillardir».

Etnopsixolingvistika lingvokulturologiya sohasi bilan chambarchas bog‘liq sohalardir. Etnopsixolingvistika muayyan an'anaga oid bo‘lgan xulq-atvorning nutq faoliyatida qanday namoyon bo‘lishini o‘rganadi, turli til egalarining verbal va noverbal fe'l-atvoridagi farqlarni tahlilga tortadi, nutq odobi va “dunyoning rangli manzarasi”ni, madaniyatlararo aloqalarda matn lakunalarini tadqiq etadi, ikkitillilik va ko‘ptillilikni turli xalqlar nutq odobining o‘ziga xos tomoni sifatida talqin qiladi va boshqalar. Etnopsixolingvistikaning asosiy tadqiqot metodi assotsiativ tajriba bo‘lsa, lingvokulturologiya tilshunoslikdagi barcha metodlarni qo‘llay olishi bilan ajralib turadi.

Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, etnolingvistika, neyro-lingvistika, pragmalingvistika kabi yo‘nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi lisoniy faoliyatni uning sohibi bo‘lgan inson bilan uzviylikda tadqiq etish bilan bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия “любовь” (на материале немецкого и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 212 с.

2. Гумбольдт В.фон. Язкк и философия культурк. – М., 1985.

3. Девону луғотит-турк. Индекс – луғат / Ғ.Абдураҳмонов ва С. Муталлибоев иштироки ва таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.

4. Джурабоев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке. АКД. – Ташкент, 1971.

UO’K 81-13

GLOBALLAShUV HODISASI VA ADABIY TAFAKKUR

Z. Sabirova, o’qituvchi, O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda dunyo miqyosida keng va tez sur’atlarda kechayotgan jarayon – globallashuv jarayonining kelib chiqishi, uning iqtisodiy-siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-falsafiy, adabiy-estetik jarayonlarda shakllanishi, adabiy tafakkurga ta’siri haqida fikr yuritiladi. Bu hodisaning nafaqat bir millat, balki dunyo xalqlari hayotidagi kechuvi, ularning turmush tarzi, dunyoqarashida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, aloqalar, bog‘liqliklar hamda globallashuvning adabiy jarayon, adabiy tafakkur bilan qiyosan qisqacha mulohaza qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, universallik, chegaralar yuvilishi jarayoni. o‘zlikni anglash, milliy o‘zlik, adabiy tafakkur, tafakkur kengligi, davr she’riyati, shoir va davr, dunyoqarash.*

Аннотация. *В статье обсуждается процесс глобализации, его происхождение в экономических, политических, социальных, духовных, философских, литературных и эстетических процессах, его влияние на литературное мышление. Это явление кратко рассматривается в контексте жизни не только одной нации, но и народов мира, их образа жизни, изменения мировоззрения, взаимоотношений, взаимозависимостей и литературного процесса глобализации, литературного мышления.*

Ключевые слова: *глобализация, универсальность, процесс отмывания границ. самосознание, национальная идентичность, литературное мышление, широта мысли, поэзия периода, поэт и период, мировоззрение.*

Abstract. *This article discusses the origin of the process of globalization, its formation in economic-political-social, spiritual-philosophical, literary-aesthetic processes, its impact on literary thinking. This phenomenon is briefly considered in the context of the life of not only one nation, but also the peoples of the world, their lifestyles, changes in worldviews, relationships, interdependencies and the literary process of globalization, literary thinking.*

Keywords: *globalization, universality, border washing process. self-awareness, national identity, literary thinking, breadth of thought, poetry of the period, poet and period, worldview.*

Ma'naviyat va moddiyat – bir-birini taqazo qiladigan hamda biri ikkinchisi uchun qulf eshiklarga kalit vazifasini o'taydigan jarayon. Biz – insoniyat – XXI asrning ilk choragida dunyoning istalgan nuqtasida turib, dunyoning istalgan nuqtasida kechayotgan jarayonlardan, yangiliklardan, voqealarning xush-u noxushidan soniyalar ichida boxabar bo'lishimiz mumkin. XX asr intixosida bashorat qilinganidek, XXI asr – "texnika asri"da kompyuter texnologiyasi informatsiyalari, internet, telefon tarmoqlarini kashf qilgan insonning o'zi endi ularsiz yasholmay qoldi. Texnika tilini tushunadigan bitta olim tomonidan yaratilgan dastur butun insoniyat uchun yordamchi bo'la oldi, bo'la olmoqda. Mana shu jarayonlar ichida, zamonaviy til bilan aytganda, globallashuv jarayonida shahd bilan borayotgan inson shakllandi.

O'tmishga nazar solinsa, globallashuv alomatlari qadim zamonlardan shakllana boshlagan. Qadimgi va o'rta asrlar globallashuv alomatlari tarix qatlarida qolib ketgan esa-da, o'sha zamonlardagi globallashuv tomonga bo'lgan siljishlar, sekinlik bilan bo'lsa-da, bor edi. Bu yaqin atrof hudud hamda uzoq mintaqalarda fikrlar, mahsulotlar, badiiy asarlar va san'atning boshqa tur namunalari bilan almashish uchun vosita bo'lgan insoniyat tomonidan amalga oshirilgan birinchi sayohatlariga taalluqlidir.

Bunga eng taniqli va eng qadimgi misollardan biri – Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning bir qismini Evropa va Afrikaning turli mintaqalari bilan bog'lash uchun mas'ul bo'lgan O'rta asrlarda joylashgan Ipak yo'li savdo tarmog'i bo'lsa, boshqa misol sifatida ko'rishimiz mumkinki, chingiziylar imperiyasi davrida barpo etilgan pochta xizmatini eslasak arziydi. Ispaniya xalqining Amerika hududiga kelishi yana bir muhim voqea bo'ldi. Yevropaliklarning ziravorlar va ipak izlashda yangi yo'nalishlarni ochishi Yangi Dunyo mintaqalari bilan to'qnashuviga to'g'ri keldi va yangi almashinuv yo'lini yaratdi, bu har biri alohida bo'lgan zamonaviy davr uchun katta rivojlanishni belgilaydigan muhim aloqani anglatardi. Biroq sanoat inqilobi so'nggi asrlarda ta'siri tezlashtirilgan va muhim jarayonlardan biri bo'lgan voqea bo'ldi. Mashinalar va transport yo'nalishlarining rivojlanishi tufayli turli mintaqalar o'rtasidagi aloqa jarayoni tez sur'atlarda olib borildi.

Savdo, migratsiya, tovarlarni tashish, qishloq xo'jaligining ko'payishi va ushbu bosqichdan keyin paydo bo'lgan ko'plab texnologik ixtirolar dunyo miqyosida insoniyat turmush tarzini o'zgartirdi. Angliyada boshlangan jarayon butun dunyoga ta'sir qilishi, qishloq xo'jaligiga asoslangan iqtisodiyotni sanoatlashgan iqtisodiyotga aylantirishi mumkin edi.

Keyinchalik XX asrning oxirida, axborot davri kelishi bilan sun'iy yo'ldoshlar, internet va butunjahon interneti kabi aloqa sohalarida katta yutuqlar butun dunyo iqtisodiy tizimida tub o'zgarish yasadi. Axborot iqtisodiyotning yadrosi va odamlar, mamlakatlar va qit'alar o'rtasidagi aloqaning yangi shakliga aylanadi. Bugungi kunda dunyo ko'proq o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiluvchidir va mana shu jarayonning markazidir.

Ilmiy izlanishlari zamonaviylikka bag'ishlangan angliyalik mashhur sotsiolog Entoni Giddens tomonidan aytilgan fikrlariga ko'ra globallashuv jarayoni uzoq masofadagi hududlarni bir-birlari bilan bir-biridan bir necha milya masofada sodir bo'ladigan hodisalarni shakllantiradigan tarzda bog'laydigan dunyo darajasidagi ijtimoiy munosabatlarning kuchayishi, deydi (Entoni Giddens, 1990. 64-bet).

Globallashuv atamasining birinchi ishlatilishini 1940-yillarga borib taqalishi mumkin, ammo 1980-yillarning oxiridan boshlab u iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar sohasida ommalasha boshladi. Garvard biznes maktabining professori va iqtisodchisi Teodor Levitt bu davrda ushbu atamani ommalashtirganlardan biri sifatida tanilgan. Lekin xususiy, tor ma'noda globallashuv davri deb eng oxirgi davr yuritiladi.

"Dunyo", "yer shari" ma'nolarini anglatuvchi "globus" so'zidan olingan globallashuv haqida Fransuz tadqiqotchisi B.Bandi fikr yuritar ekan, uning uch o'lchovli ekanligini aytadi. Jumladan:

a) globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;

b) globallashuv – jahonning gomogenlashuvi (bir jinsli) va universallashuvi jarayoni;

d) globallashuv – milliy chegaralarning yuvilib ketishi.

Ushbu fikrlarni davom ettirgan holda aytishimiz mumkinki, globallashuv jarayoni siyosat ham tarixga, ma'naviyat ham g'oyaga, din ham adabiyotga, san'at ham texnikaga birday taalluqlidir. Bularning

barchasining markazida inson turar ekan, u ham boshqaruvchi, ham boshqariluvchi vazifasini o‘taydi. Demak, inson bu jarayon keltirgan yutuqlar egasi bo‘lishi bilan birga uning qurboni ham bo‘lishi mumkin.

Rossiyalik A.Parshev esa globallashuvning asosiy mazmuni haqida gapirar ekan, “boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qo‘shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarini o‘zlashtirishdan iborat”, deydi. Bu atama siyosiy-iqtisodiy atama ekan, adabiyotga, adabiyotshunolikka qanday kirib qoldi? Bu haqda biroz fikr yuritamiz.

Dunyoda “o‘zaro ta’sirlashuv”, bir-biridan “rang olayotgan” globallashuv jarayoni na chegara, na millat tanlaydi. “Foyda buyuk ma’buda maqomini bajarayotgan bu davrning qo‘pol tarozusida san’atning ma’naviyatdagi xizmatlari tosh bosolmaydi, natijada taqdirlanishdan mahrum bo‘lgan san’at sershovqin asr bozoridan chetda yitib ketadi” (5.266.), deganida olmon shoiri va dramaturgi F.Shiller insonning ma’naviy sayozlashuvi, o‘zligidan uzoqlashuvini nazarda tutgan bo‘lsa, ajabmas. F.Shiller e’tiborda tutgan san’atga adabiyot ham kiradi. Adabiyot o‘z qamrov doirasida zamon – makon – inson kayfiyatida sodir bo‘layotgan har qanday hodisani birinchilardan bo‘lib ilg‘aydi va ilg‘agan ham.

Adabiyotshunoslikda globallashuv jarayoni ta’sirini o‘rganish, uni tahlil qilishga yaqin o‘tmishda katta e’tibor qaratila boshlandi. Adabiyotda globallashuv tushunchasi bevosita ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-psixologik vaziyat, ilm-fanning rivoji, jamiyat, jamoat hamda, eng muhimi, insonning atrof javonibga, insonning insonga – millati, dini, irqi, yashash manzilidan qat’iy nazar - ta’siri – bularning barchasini qamrab oladi. Ilk ibtidoiy davrlarda inson, avvalo, o‘zini issiq va sovuq havo, yovvoyi hayvon hamlasidan himoya qilishni o‘rgandi. Sekin-sekinlik bilan o‘zi topgan oshini boshqalarga oldirib qo‘ymaslikni va yana keyinchalik uni o‘ziga yaqin deb bilgan qabiladoshlari bilan baham ko‘rishni o‘rgandi. Vaqt o‘tib, ittifoqdoshlari ko‘paydi, tabiat bilan ancha kelishib, uni tushunib qoldi. Fasllar almashinuvi jarayoni, ov qilishiga qulay joylarni o‘rgandi. Endi inson bo‘layozgan bu odamda qilgan ishlaridan nimadir belgi qoldirish istagi uyg‘ondi. Avval rasm chizdi, keyin rasmlar harflar-u so‘zga aylandi. Bir-birlariga gapirib bergan voqealari asnosida rivoyatlar, afsonalar to‘qildi. Keyin ular matn bo‘lib avval devorga, tosh, loy, yog‘och, qog‘ozga yozila boshlandi. Ibtidoiy odam uchun tabiat hodisalaridan qanday omon qolish o‘sha davrning global muammosi sanalgan. Keyinchalik qavm hududi kattalashdi, dengiz, okean, qit’alar zabt etila boshlandi. Ayni jarayonda turli hududlarda yashovchi odamlar o‘rtasida bir-birlarini o‘rganish, biri ikkinchisi bilan aloqa o‘rnatish boshlangan. Bu kuzatishlar natijasida bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirish boshlandi. Urf-odatlar, an’analar bir-biriga qiyoslandi, keyin esa bir-biriga singdi. Globallashuv jarayoni keng quloch yoya boshladi va adabiyotga ham ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi. Asar qahramonlari, badiiy tasvirlar, obrazlar xatti-harakatlari, yurish-turishdan tortib, kiyinish va aytar so‘zgacha mana shu davr insoni qiyofasini oldi.

Adabiyotda mavjud har qanday asarning mavzu va g‘oyasida o‘z davrining, bevosita dunyoning ham, ijtimoy-iqtisodiy-siyosiy hayoti bilan birga ma’naviy tomonlarini ham aks eta boshladi. Kichik tadqiqotimizda globallashuv davri she’riyatiga diqqat qaratar ekanmiz, adabiyotshunos olim N.Rahimjonovning “Davr va o‘zbek lirikasi” kitobiga mutojaat qilamiz. Unda olim davr she’riyati haqida fikr yuritar ekan: “She’riyatda davr tushunchasining o‘ziga xos xususiyati bevosita inson shaxsi bilan uyg‘unlikda tajassum topdi. Garchand davr tushunchasi orqali insoniyatning o‘tmishi, hoziri, kelajagi yoki inson umrining mazmuni, mohiyati to‘g‘risida gap borsa-da, u eng avvalo, hayot, voqelik va inson shaxsiyati bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi” (2. 8-9.), deydi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, davrni adabiyot bilan bog‘lovchi vosita shoir-ijodkor ekan, demak u umumdunyoviy, umumbashariy voqea-jarayonlarning birinchi tashuvchisidir. Va ijodkor yaratgan bugungi adabiyot namunalari endi milliy adabiyot tushunchasidan ko‘ra dunyo adabiyoti darajasiga ko‘tarildi. Jahon adabiyoti (Weltliteratur) atamasi aslida adabiyotga endi kirib kelgan tushuncha emas. Ushbu konsepsiya birinchi marta 1827-yilda I.V.Gyote tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, uning shogirdi Ekkerman yozib olgan nutqida ishlatilgan. Ushbu nutqda Gyote she’riyat – adabiyot butun insoniyatning umumiy mulki ekanligini ta’kidlab: "Hozirgi kunda milliy adabiyot so‘zi ko‘p narsani anglatmaydi, bizning davrimiz jahon adabiyoti asri bo‘dib, har kim bu asrni tezlashtirish uchun o‘z hissasini qo‘shishi kerak" (1. 219.), deydi. Endi global muammolarni dunyoga olib chiqa oladigan va bir osmon ostida yashayotgan insoniyat uchun yaratiladigan asarlar darkor. Va ayni harakter-xususiyatga ega bo‘lgan asarlargina yashovchan asarlar sirasiga kiradi.

Global muammo sifatida aytishimiz mumkinki, birinchi galda, insonning o‘zligini anglashi va tushunishi. Albatta, tabiiy ofatlar, turli mamlakatlarda kechayotgan qirg‘inbarot urushlar, ocharchilik, inqirozlar hamda inson aralashuvi natijasida kechuvchi jarayonlar ham global muammolar hisoblansada, bularning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan narsa, nazarimizda, insonning o‘zligini anglamasligidir. Delfadagi Appolon ibodatxonasining devoriga o‘yib yozilgan “o‘zligingni angla” xitobini bugungi kun bilan oradagi ikki yarim ming yil ajratib turgan bo‘lsa ham, uning mohiyati o‘z mazmunini yo‘qotgan emas. O‘zlikni anglash natijasida milliy o‘zlik uchun yo‘l ochilsa, milliy o‘zlik esa bevosita umumbashariy o‘zlikni anglash tushunchasi bilan uzviy bog‘lanadi. Sharq-u G‘arb mutafakkirlarining o‘zlikni anglash

yo‘lidagi qilgan harakatlari, chaqiriqlari, bitgan asarlari bugun uchun ham dasturilamal desak arziydi. Attorning ta’rificha, dunyoni qaynab turgan qozonga o‘xshatish mumkin, qachonki inson mana shu qozonda “qaynasa”gina, pishib yetiladi, komillikka erishadi. Bahovuddin naqishband, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Mashrab, Munis, Ogahiy, jaded adabiyotining yetuk namoyondalari, o‘zlab ziyolilari oz hayotlari, taqdirlarini xalqi, insonlar, butun insoniyat taqdiri bilan uzviy bog‘liq deb hisoblaganlar. Inson o‘zligini anglashni ijtimoiy munosabatlarda ko‘rmoqni istagana hazrat Navoiy:

Odame ersang, demagil odame

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ame, deydi. Buyuk Navoiy aytyaptiki, xalq uchun (insoniyat uchun) naf keltiradigan, uning xizmatiga bel bog‘lagan odamgina chin insondir. Bu falsafa na zamon, na-da davr, millat tanlaydi.

Yana shu narsani ta’kidlash joizki, insonni kamolotga mehnat (mehnatlarning eng go‘zali ilm olmoqdir) yetaklaydi. Ilm ma’naviyatni o‘stiradi, tafakkurni kengaytiradi, dunyoni tanitadi, san’atni – adabiyotni qadrlashni o‘rgatadi. Adabiyot esa ijodkor tomonidan davr va dunyoqarash, ma’naviyat, go‘zallik, estetik zavq bilan boyib boradi. “Davr she’riyat (tadqiqotimiz she’ryat bilan bog‘liq – Z.S) deb atalmish ko‘zguda aks etadi. Lekin bu aks shoir shaxsi prizmasidan o‘tgan mahsulidir. Shu bilan birga, she’riyat nafaqat shoir yoki nafaqat davr farzandi, balki u bir vaqtning o‘zida ichki faktor – shoir, ham tashqi faktor – davr naqtalarda kesishgan olamdir” (3. 33.), deydi adabiyotshunos U.Hamdam.

Badiiy adabiyotning bosh mavzusi Inson ekan, eng avvalo, undagi ruhiy, ma’naviy, ahloqiy o‘zgarishlarning birinchi kuzatuvchisi ham adabiyotdir. Zamondosh inson ko‘nglidan kechayotgan o‘y-xayollar, uni qiynayotgan muammolar qanday ko‘rinishda bo‘lsa ham – xoh nasr, xoh nazm – ijodkor-yozuvchi tomonidan badiiy to‘yintirilib, qayta ishlansa, bu adabiy tafakkur mevasi hamda badiiy adabiyot namunasi bo‘la oladi. Bugun kun adabiyoti shular yetarlimi? Yo‘q! Globallashuv davri adabiyotiga yuqorida sanalgan muammolar globallik, global ma’no kasb etishlik masalasi yuklatilsa, u asar dunyo adabiyoti namunasi darajasiga ko‘tarila oladi.

Adabiyotshunos U.Hamdam davr adabiyoti haqida gapirar ekan, globallashuv davridagi adabiyot shu jarayon ta’sirida dunyoga kelgan jahon adabiyotidir. Bunda milliy va jahon adabiyotlarining bir-biriga ta’siri kuchaygan, bir-biridan ilhomlangan, bir-birlarining ko‘zgusida o‘z akslarini ko‘rishi mumkin bo‘lgan adabiyot shakllanadi. Ya’ni faqat o‘z qobig‘ida qolib ketgan, tashqi ta’sirlardan u yoki bu sabab bilan “himoyalangan” adabiyotning tamomila teskarisi bo‘lgan adabiyot globallashuv davri adabiyotiga misol bo‘la olishini aytadi. Va yana shuni ta’kidlaydiki, globalizm adabiy oqim emas, lekin u adabiy oqimlarga jiddiy ta’sir qiladigan umumjahoniy “iqlim” bo‘lib,uning ta’sirida dunyo badiiy-estettik tafakkur tarsi katta o‘zgarishlarga yuz tutdi (4. 75.), deydi.

Globallashuv davri va unda adabiy tafakkur haqida qisqacha xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zimizning milliy adabiyotda o‘zining azaliy qadriyatlariga sodiq qolgan holda zamon bilan hamnafas bo‘lib, umuminsoniy g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlar yaratilar ekan u ham jahon adabiyotining yetuk durdonalari qatorida sanalgay.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eckermann, Johann Peter. (2007). Conversations with Goethe in the Last Years of His Life, Trans. Mahmure Hero, Istanbul: Turkey Is Bank Cultural Publications. 219-bet.

2. Rahimjonov N. Davr va o‘zbek lirikasi. Toshkent. “Fan”. 1979. 8-9-bet.

3. U.Hamdamov. Yangi o‘zbek she’riyati. Toshkent. “Adib” nashriyoti. 2012. 33-bet.

4. U.Hamdamov. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. Toshkent, Akademnashr, 2020. 75-bet.

5. Shiller F. Sobranie sochineniy v 7 t. T. 6. M., GIXL, 1957. S. 265-266.

UO’K 808.3

TURKIY MIFOLOGIYADA KO’K TANGRI DINI VA UNING BOSH ILOHI TANGRI OBRAZI

H.H. Saidova, magistrant, SamDU, Samarqand

Annotatsiya. *Maqolada turkiy xalqlarning eng qadimgi dini bo’lgan tangrichilik hamda uning bosh ma’budi Tengri obrazi genezisi borasidagi fikrlar keltirilgan.Ko’k Tangri dini mavjud bo’lganligini isbotlovchi manbalar va uning bugungi kunda xalq orasidagi ba’zi ko’rinishlari muhokama qilingan.*

Kalit so’zlar: *Ko’k Tangri, turkiy mifologiya, VilgelmToms, tangrichilik ko’rinishlari, osmon, bitiktoshlar, moniylik va tangrichilikning farqi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается генезис Тэнгри, древнейшей религии тюркских народов, и образ Тэнгри, ее главного божества, ′ринов.*

Ключевые слова: *Голубой бог, тюркская мифология, Вильгельм Томс, представления о божестве, небо, надписи, отличие монизма от божества.*

Abstract. *This article discusses the genesis of Tangri, the oldest religion of the Turkic peoples, and the image of Tengri, its chief deity, rins are discussed.*

Keywords: *Blue God, Turkish mythology, Wilhelm Toms, views of divinity, sky, inscriptions, the difference between monism and divinity.*

Turkiy xalqlar tarixi qanchalar qadim,turkiy dunyo hududi naqadar bepoyon bo'lgani kabi bu xalqlarning qadimiy mifologiyasi hamda diniy qarashlari ham shu qadar yuksakdir.Yurtimizga to Islom dini kirib kelgunga qadar bu hududda yashagan xalqlar o'z e'tiqodidan kelib chiqib buddaviylik, moniylik, shomonlik, zardushtiylik kabi dinlarning biriga e'tiqod qilib kelgan.Tarixiy manbalar va dostonlarda Tangri(Tengri)obrazi,Ko'k tangri haqidagi kultlarni ham uchratamiz.Xo'sh,turkiy xalqlarning qadimgi dini bo'lmish Ko'k Tangri(tangrichilik) va Tengri obrazlari qanday kelib chiqqan?Qadimgi turkiylar mifologiyasiga ko'ra Tangri yer va osmonni yaratuvchi va u yagonadir.U turkiylar uchun ota,yer esa ona tarzida tasavvur etilgan. Bu xususda bir qancha olimlar o'z tadqiqotlarida mulohazalar yuritgan.

Qadimgi mifologiya bo'yicha Tengrining paydo bo'lishi bilan, xitoy xalqining afsonaviy ilohi sanalgan Panguning yaratilishida mushtaraklik mavjud[1,335].Bu xususda folkloshunos olim E.Musurmonovning dunyoviy tuxum talqiniga oid maqolasida ma'lumotlar keltirilgan.Tuxum va Tengri haqidagi turkiy mifda keltirilishicha,qadimda ko'k ham yer ham bo'lmaganda ulkan dengiz bo'lgan ekan.Uning ichida oq yorug'lik paydo bo'libdi.Undan tovlanuvchi tuxum vujudga kelibdi.Uning oyoq-qo'li,boshi yo'q ammo harakati bor edi,qanoti yo'q uchar edi,og'zi yo'q biroq tovushi bor edi.Insoniyat yaratuvchisi Tengri uning ichida ko'p vaqt uyquda bo'ldi,uyg'ongach tuxumdan chiqish yo'lini topmadi.Uning ichida faqat po'lat bolg'a va nayzani topdi.Ular yordamida tuxumni yorib tashqariga chiqdi.Tuxumning yuqori qismidan ko'k osmon,ost qismidan esa qo'ng'ir yer yaratildi[2,65].Turkiylarning diniy qarashlaridan paydo bo'lgan miflar shu tariqa ularning e'tiqodidan,turmush tarzidan xabar berib turadi.Bu xalqlar shu tariqa ko'kni,osmonni Yaratuvchi iloh deb tushunib,uning atrofidagi jismlarni muqaddas deb bilgan va unga sig'ina boshlashgan.Shu tariqa tangchilik asta-sekin din sifatida shakllangan.

A.Abdurahmonov qadimgi turkiy xalqlarning Ko'k tangri diniga e'tiqod qilishganligini quyidagicha izohlaydi:"Ko'k tangri turkiy qavmlarning eng qadimgi dinidir.Bu xalqlarning fikricha,ko'k yuzi Tangri bo'lib,u falakning hukmdoridir.Quyosh,Oy va yulduzlar Tengrining atrofidagi ko'kning yuzida joylashgan tushunchalardir.Ko'k Tengri zaminga hayot,odamlarga jon beradi, istasa qaytarib oladi.Hatto turk xoqonlari ham Ko'k Tangrining xohishi bilan taxtga o'tiradilar".Bu fikrlarni davom ettirib,qadimgi manbalar bo'lgan tosh bitiklardan,"O'g'uznoma"dostonidan misollar keltirib,fikrini dalillaydi.Markaziy Osiyo dinlaridan bo'lmish moniylik va tangrichilikni ba'zilar bir deb tushunishadi.Biroq ikkisi orasida farq kuzatiladi."Ko'k Tangri dini moniylikdan mutloq farq qiladi,-deb yozadi A.Abdurahmonov.-Moniylikning osmon jismlariga sig'inishi,ularni xudo darajasida anglashi yangilik bo'lmay,bunday qarashlarqadimgi davrdagi Kichik Osiyo xalqlari,jumladanshumerlar hayoti,xususan,adabiyotida o'z ifodasini topgan.Hatto turkiylarning massaget qavmi ham quyoshni yagona xudo deb tan olishi ta'kidlangan.Ko'k Tangri dini esa butun osmon yuzini Xudo Deb tushunishadi.Tangrining osmonda ekanligiga ishonch bildirishadi.Osmon Tangri hisoblangani uchun shu Osmonda joylashgan Quyosh,Oy,Yulduzlar muqaddas sanaladi" [3,24]. Bu manbaga asosan,Tangri haqidagi nazariyalarimiz oydinlashib boradi.

Turkiy qavmlarning Ko'k Tangri diniga e'tiqodi "O'g'uznoma"dostonida ham ifodalangan.Kunlardan bir kuni O'g'uz xoqon bir yerda Tangriga yolvorar edi.Qorong'u tushdi.Ko'kdan bir ko'k nur tushdi,quyoshdan yorug',oydan yorqinroq edi…Ko'kdan tushgan nur Tangrining mehri,nur orasidan O'g'uzxonga ko'ringan qiz esa Tangrining majozi ekanligini tadqiqotchi A.Abdurahmonov ta'kidlaydi.Yana bu dostonning xotimasi O'g'uzxonning "Ko'k Tangri oldida men o'z burchimni o'tadim,sizlarga beraman yurtimni"so'zlari bilan tugatilganligi bu doston turkiylarning qadimgi dinlaridan biri Ko'k Tangriga e'tiqod qo'yish talablari asosida yaratilganini ifodalaydi [4,42]. Eng qadimgi manbalardan bo'lmish "Kul tegin" yodgorligidagi kichik yozuvda ifodalangan "Tangri toq.Tangridan bo'lgan turk bilka qog'on bu yerda o'lturdim"misralari ham ushbu dinning mavjud bo'lganligini,unga e'tiqod qilganligini shuningdek,shu diniy e'tiqodlarning badiiy asarlarga o'tganligidan anglaymiz [5,134]. Ko'k tangri dinini tangrichilik deb ham atashadi.Tangrichilikda mifologik qarashlarga ko'ra oliy darajaga ega iloh-Tangri (Tengri) hisoblanib, uning siyrati hech kimga ma'lum emas shuning uchun bunda osmon nazarda tutilgan.

I.V.Stebleva qadimgi turkiy mifologiyadagi xudolarni darajalarga taqsimlab keltirishni tavsiya qilgan.Unga ko'ra oliy darajada-Tengri,keyin Umay ona,ortidan-Yer-suv,va nihoyat ajdodlar ruhi.Turkiy mifologiyagada bosh yaratuvchi bevosita osmon bilan bog'liq.Ya'ni Tengrining makoni ko'k bo'lib,u osmondan turib butun borliqni boshqaradi[6,18]. Adabiyotshunos va folklorshunos olim E.Musurmonovning kuzatishicha,Tengri(oltoy tilida Tengri, tengeri; shorslarda tegri; xakas. tigir; tuva. deer; chuvash, tura; yoqut, tang'ara; mongol, tenger, tengri.)atamasi Markaziy Osiyo xalqlari mifologik

fondiga tegishlidir. Bu atama xunlarning "chenli"(osmon),xitoylarning "dingir" atamalariga yaqin. Tengri tushunchasi osmon ruh egasi shaklida animistik qarashlar asosida shakllangan. Shuningdek,"tengri"so'zi daniyalik runshunos olim Vilgelm Toms tomonidan 1893-yili O'rxun bitiklarida o'qilgan birinchi so'z bo'lgan.

Folklorshunos olim M.Jo'rayev ham Tengriga oid tadqiqotlarida Tengri atamasining "Qadimgi turklar"tengri,tangar so'zlarini oliy ruh,xudo ma'nolaridan bo'lak,yuqori olam bilan bog'liq samoviy qahramon nomi sifatida ham qo'llashganini aytib o'tgan.Tengri so'zi xalqimiz orasida hanuzgacha qo'llanilib kelyapti.Mumtoz adabiyotda islom dini qoidalari ta'sirida "Olloh"atamasi qo'llaniladi[6,20-21].Turkiychada Tangri,arab tilida Olloh,forschada Xudo deb lug'atlarda beriladi.Ammo bu uch atamaning ma'nosi bir xil bo'lib,islom dinimizdagi yolg'iz Ollohni ifodalaydi.Turkiylar e'tiqod qilgan tangrichilik dinining ba'zi ko'rinishlari bugungi kunda ham xalq orasida saqlanib qolingan.

Yakkaxudolikka asoslangan turklarning eng qadimgi dini Ko'k tangri haqida Vizantiya tarixchisi Feolifakt Simokatta 595-yilda quyidagi fikrlarini aytib o'tadi."Turklar olovni e'zozlashadi,havo va suvni ulug'lashadi,yerga atab madhiyalar aytishadi,biroq Ko'k va Yerni yaratgan yakkayu yagonaga sig'inishadi va uni Tangri deb atashadi".Har qanday dinda bo'lgani kabi tangrilikning asosiy qoidalari ishlab chiqilgan.Bundan tashqari insoniylikning qoidalari,komillikning shartlati xususida ham izohlar uchraydi.Insoniylikning qoidalarida ota-onangni qadrla,Tangri ular orqali senga hayot bergan;yolg'on gapirma,hasab qilma kabi o'gitlar keltirilgan.Tangrilikning ayrim elementlari Samarqand,Qashqadaryo,Surxondaryo,Toshkentning janubiy tumanlarida haligacha saqlanib qolingan.Bu dinning ilohi birgina Tangri bo'lib,unda ham boshqa dindagi farishtalar kabi Umay, Erlik kabi yordamchilari haqida ham ma'lumotlar mavjud.Bu dinda bobo-momolarning ruhlaridan yordam so'rab iltijo qilishlar,momolardan qo'l olish(asosan ular doiradan foydalanishadi), azalarda uvvos solib yig'lash,tabiatni jonli bilib suv,daraxtlar,o't-o'lan bilan so'zlashish,ziyoratgohlardagi daraxtlarga niyat qilib ip bog'lash,doira yordamida baxshichilik qiluvchi momolarning harakatlari kabilar bo'lgan va ular hozirgacha xalqimiz orasida qo'llanilib kelinmoqda.Kelin-kuyovlarni to'yi kuni olov atrofida uch marotaba aylantirishadi.Ushbu fikrlarlarni umumlashtirsak,qadimgi turkiylarning e'tiqodi bo'yicha sof turkiy mifologik xudolar panteoni vakillaridan biri bosh iloh Tengridir.Va u bilan bog'liq din shakllangan bo'lib,buni ilmiy dalillovchi xalq dostonlari mavjud,Zero, shu vaqtga qadar turkiy mifologiyada asosan,zardushtiylik dini vakillari o'rganilib kelingan.Turkiy xalqlarning sof mifologik jihatdan ham qadimiy tangrichilik dini va unga xos bosh ilohi shuningdek,Islom dinidagi farishtalarga o'xshash yordamchi ma'bud va ma'budalari bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Musurmonov.E.M. Xitoy va turkiy folklorda dunyoviy tuxum talqini, Termiz, 2019, 335-bet.
2. Жетписбаева Б.А.Древне тюрская литература.-Алматы,2001,65с.
3. Abdurahmonov.A.Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005,24-b.
4. Sulaymonov I.I.Turkiy adabiyotning qadimgi davri. O'quv qo'llanma.Samarqand, SamDU nashri,2019,42-b.
5. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'ati nashriyoti,1972,134-b.
6. Musurmanov E.Buyuk Ipak yo'li qadimgi o'zbek-xitoy adabiy aloqalari. Samarqand, 2021,18-22.

UDC: 9(c53)

DEVELOPMENT OF BILATERAL POLITICAL RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND INDIA

B.D.Sayfullayev, basic doctoral student, TSUOS, Tashkent

Аннотация. *Мазкур мақолада Марказий ва Жанубий Осиё минтақасидаги ётакчи давлатлардан Ўзбекистон ва Ҳиндистон ўртасидаги сиёсий муносабатларнинг қарор топиб ривожланиб бориши тарихийли нуқтаи назар ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *Ўзбекистон, Ҳиндистон, глобаллашув, сиёсий, савдо-иқтисодий, ҳуқуқий асос.*

Аннотация. *В статье освещается историческая перспектива становления и развития политических отношений между Узбекистаном и Индией, одной из ведущих стран Центральной и Южной Азии.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Индия, глобализация, политическая, торгово-экономическая, правовая база.*

Abstract. *The article highlights the historical perspective of the establishment and development of political relations between Uzbekistan and India, one of the leading countries of Central and South Asia.*

Key words: *Uzbekistan, India, globalization, political, trade, economic, legal base.*

Relations between Uzbekistan and India are developing among the most important partnerships on the world map of the XXI century. Both countries are striving to improve relations in today's era of

globalization. For India, the Central Asian region, including Uzbekistan, is one of the most important in terms of trade and commerce. For Uzbekistan, India is one of the countries with economic and cultural ties, as well as access to South Asia, as well as direct access to the Indian Ocean and East Asia. As the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev noted: "India is a dynamically developing global state, strengthening its position in the world economy. Over the past four years, bilateral relations with this country have reached a new level.

This country remains one of the priorities of Uzbekistan's foreign policy. Therefore, the scientific study of the political and historical aspects of bilateral relations contributes to the development of relations between the two countries. The establishment of mutually beneficial political relations between Uzbekistan and India began with the official visit of the First President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov to India on August 17-19, 1991. After all, this was the first independent historical visit of the President of Uzbekistan abroad. Agreements on economic, trade, scientific, technical and cultural cooperation, signed by the leaders of the two countries at the meeting, have strengthened the legal basis of multilateral cooperation between the two countries[1].

After Uzbekistan gained independence, relations reached a new level. On December 26, 1991, India was one of the first countries to recognize the sovereignty of Uzbekistan, and on March 18, 1992, a Protocol on the establishment of diplomatic relations between the two countries was signed in Tashkent[2]. In September of the same year, the Consulate of the Republic of Uzbekistan was opened in Delhi, and in 1994 it was transformed into an embassy. The Consulate General of India, which opened in Tashkent on April 7, 1987, also received the status of an embassy in 1992. In January 1993, a branch of the Uzbekiston Havo Yollari was opened in Delhi[3].

In order to expand the scale of cooperation, on May 23-25, 1993, the Prime Minister of India Narasimha Rao paid a state visit to Uzbekistan. During the negotiations, the signing of the Agreement on interstate relations and principles of cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Republic of India, the Agreement on the avoidance of double taxation of profits and property, airlines and trade and economic cooperation served as a legal basis for cooperation. At the same time, the "Department of India" was established at the Tashkent University of World Economy and Diplomacy[4].

In January 1994, on behalf of the independent Republic of Uzbekistan, I. Karimov made his first working visit to India. The talks were held in Delhi with the participation of two leaders and Indian businessmen. Following the talks, the parties signed a Memorandum of Understanding on cooperation in the field of telecommunications between Uzbekistan and India, a Protocol on the establishment of the Uzbek-Indian Center for Scientific and Technical Cooperation between Uzbekistan and India and an agreement on cooperation in the creation of an Indian Cultural Center. Center in Tashkent[5].

When analyzing sources on Uzbek-Indian relations, it should be noted that political consultations between the ministries of foreign affairs played an important role in the formation and development of the legal framework for relations between the two countries, and such meetings were held regularly. since August 1997. In particular, on March 18-20, 1999 Indian Foreign Minister J. Singh was on an official visit to Uzbekistan. During the meeting, an intergovernmental agreement "On mutual encouragement and protection of investments" was signed. The joint statement on strategic partnership signed between Uzbekistan and India in 2011 serves as a solid foundation for further deepening bilateral cooperation in the political, economic, cultural and humanitarian spheres[6].

From the day of the declaration of independence of Uzbekistan to 2018: five visits of the First President of the Republic of Uzbekistan to India in 1991, 1994, 2000, 2005, 2011, four visits of the Minister of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan in 1996, 2003, 2004, 2017; From the moment of proclamation of independence of Uzbekistan until 2018: India to the Republic of Uzbekistan of the First Uzbekistan on March 5, 1991, 1994, 2000, 2005, 2011 Uzbekistan, the Republic of Tashkent, 2003, Uzbekistan and the Republic of Uzbekistan , 2004, Uzbekistan In 2006, 2015, 2016, the Minister of Foreign Affairs of India paid official visits on March 7, 1996, 1999, 2003, 2009, 2010, 2013, 2018 [7].

At a key stage of cooperation at the invitation of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and the President of the Republic of India Ram Kovinda, from September 30 to October 1, the state of Uzbekistan will launch a new bioindication of bilateral relations. At the end of the Uzbek-Indian negotiations in New Delhi, diplomatic exempted passport holders from visa requirements, introduced tourism, agriculture, science and technology, space exploration for peaceful purposes, and the fight against drug trafficking and psychotropic substances. Within the framework of cooperation in the field of healthcare and medical science, the two countries signed 20 agreements in various fields of cooperation[8].

The next meeting of the heads of state will take place on January 17-18, 2019 in Bulak Mamat at the invitation of the Prime Minister of the Republic of India Narendra Modi. On January 18, the head of our state met with the Prime Minister of the Republic of India Narendra Modi within the framework of the

international summit in Gandhinagar. On the eve of the summit, the first meeting of the Uzbek-Indian Business Council Gujaratd was held[9].

Today, in the era of the epidemiological situation caused by the coronavirus pandemic in the world, online videoconferences and summits are being organized between the two countries in order to develop contacts and learn from each other's experience in combating the pandemic. In particular, on December 11, 2020, President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and Prime Minister of India Narendra Modi held a video conference[10].

Following the online negotiations, the Joint Statement adopted a Joint Statement and signed nine agreements on economics and innovation, financial and technical assistance, technical regulation of customs and trade, training and collaborative research, cybersecurity, digital technology and renewable energy[11].

In conclusion, we note that in today's era of globalization, relations between Uzbekistan and India are developing in a new format. In the development of political relations between the two countries, agreements and treaties signed during the official visits of the heads of state and government are the legal basis for strengthening relations.

REFERENCES:

1. Конституциямизнинг яратилиши тарихи. https://constitution.uz/uz/pages/Konstitusiyamizning_ yaratilishi. Accessed 24.02. 2021

2. Uzbek-Indian Relations / http://www.uzbekembassy.in/uzbek-indian-relations/. Accessed 24.05. 2021

3. Маматкулова Д. Prospects for the development of priority areas of uzbek-indian cooperation. http://www.isrs.uz/en/maqolalar/uzbekiston-indiston-amkorligidagi-ustuvor-junalislarni-rivozlantiris-istikbollari. Accessed 25.05. 2021

4. Indian Prime Minister's Visit to Uzbekistan https://idsa.in/idsastrategiccomments/IndianPrimeMinisters VisittoUzbekistan_RDwivedi_250406. Accessed 14.03. 2021

5. Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги Ахборот-қидирув тизими / https://nrm.uz/products?folder=65172_hindiston_respublikasi&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana . Accessed 10.05. 2021

6. India – Uzbekistan Relations. http://www.mea.gov.in/Portal/ForeignRelation/Uzbekistan-January-2012.pdf. Accessed 12.04. 2021

7. Prakash Sh.India-Uzbekistan relations during the 1990's and future prospects//Materials of the IS(21-22 November 2001)-//J.Nehru University-New Dehli.2001

8. Маматкулова Д. Prospects for the development of priority areas of uzbek-indian cooperation. http://www.isrs.uz/en/maqolalar/uzbekiston-indiston-amkorligidagi-ustuvor-junalislarni-rivozlantiris-istikbollari. Accessed 15.05. 2021

9. Ўзбекистон–Ҳиндистон ҳамкорлигидаги устувор йўналишларни ривожлантириш истиқболлари/ http://www.isrs.uz/uz/maqolalar/uzbekiston-indiston-amkorligidagi-ustuvor-junalislarni-rivozlantiris-istikbollari. Accessed 19.04. 2021

10. O'zbekiston – Hindiston strategik sherikligi yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarilmoqda. https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-hindiston-strategik-sherikligi-yangi-yanada-yuksak-bosqichga-kotarilmoqda. Accessed 20.04. 2021

UO'K 82.09

BADIIY MAKON KONSEPSIYASINING STRUKTUR-SEMANTIK MOHIYATI

B.B. To'raeva, PhD, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada badiiy makonning xususiyatlari atoqli qirg'iz adabi Chingiz Aytmatov va o'zbek yozuvchisi Normurod Norqobilov romanlari misolida tahlil qilingan. Badiiy makon badiiy zamon kabi voqelikni yaxlit idrok etishni ta'minlovchi va asar kompozitsiyasini uyushtiruvchi, badiiy obrazning badiiy-g'oyaviy va falsafiy xususiyatlarini ochuvchi, badiiy asar ichki hamda tashqi tuzilishi, tashkil etuvchi har bir unsurning aloqaga kirishini ta'minlovchi adabiy-estetik kategoriya hisoblanadi. Asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat'i nazar muallif olamning zamon-makon modelini yaratadi. Badiiy makon asar zamiridagi ma'no-mazmun teranliklarining kashf etilishiga; tuyg'u, voqea-hodisa va obrazlarni haddi a'losiga yetkazib tasvirlanishida xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *badiiy makon, badiiy zamon, tashqi xronotop, ichki xronotop, ochiq makon, yopiq makon, gorizontal makon, vertikal makon.*

Аннотация. *В статье анализируются особенности художественного пространства на примере романов известного кыргызского писателя Чингиза Айтматова и узбекского писателя Нормурода Норкобилова. Художественное пространство – литературно-эстетическая категория, обеспечивающая целостное восприятие действительности как художественного времени и организующая композицию произведения, раскрывающая художественные, идейно-философские особенности художественного образа, внутреннюю и внешнюю структуру художественного произведения, соединение каждого составного элемента. Независимо от вида и жанра произведения автор создает пространственно-временную модель мироздания. Открытие*

глубины смысла лежит в основе произведения искусства; он служит для изображения эмоций, событий и образов, доводя их до крайности.

Ключевые слова: *художественное пространство, художественное время, внешний хронотоп, внутренний хронотоп, открытое пространство, замкнутое пространство, горизонтальное пространство, вертикальное пространство.*

Abstract. *The article analyzes the features of the artistic space on the example of the novels of the famous Kyrgyz writer Chingiz Aitmatov and Uzbek writer Normurod Norkobilov. Artistic space is a literary and aesthetic category that provides a holistic perception of reality as an artistic time and organizes the composition of a work, revealing the artistic, ideological and philosophical features of an artistic image, the internal and external structure of an artistic work, the connection of each component element. Regardless of the type and genre of the work, the author creates a space-time model of the universe. The discovery of the depth of meaning is at the heart of a work of art; it serves to depict emotions, events and images, taking them to the extreme.*

Key words: *artistic space, artistic time, external chronotope, internal chronotope, open space, enclosed space, horizontal space, vertical space.*

Makon kategoriyasining konseptual kelib chiqishi qadimgi yunon falsafasiga daxldor. Makon – odamlarni atrof-muhitdan muayyan darajada ajratib turuvchi va unda ularning harakatlarini davom ettirish uchun qulay bo‘lgan joy tarzida talqin qilinadi. Aristotelning fikricha, makonda o‘rin almashinuv harakat o‘zgarishining asosiy turi bo‘lib, qolgan barcha turlarning sharti hisoblanadi. Makonda o‘rin almashinuv to‘g‘ri chiziqli va aylanma, uzlukli va uzluksiz, teng va tengsiz harakat bo‘lishi mumkin [3, 208]. Arastu mezoni bo‘yicha badiiy makon xususiyatlarini izohlasak, badiiy asarda makon almashinuvi faylasuf izohlaganidek kechadi. «Asrga tatigulik kun» romanida Sario‘zak cho‘li, Ona Bayit qabristoni, Orol dengizi, Sario‘zak kosmodromi, Nevada kosmodromi, «Paritet» bekati, «Tramplin» orbitasi, To‘qayto‘sh sayyorasi, O‘zbekiston, Samarqand, Xiva, Tinch okeanidagi Aleut orollari, Vladivostok va San-Fransisko shaharlari, Mirzacho‘l; Betpoqdala, Qumbel, Beshog‘och, Bo‘ronli bekatlari nomi keltirilgan, ammo asarda makonlar almashinuvi tez kechmaydi. Voqealar asosan Sario‘zak cho‘li, Ona Bayit qabristoni hamda koinotda aylanma, uzlukli va tengsiz harakat asosida sodir bo‘ladi.

Uchliqoya, Qushqo‘nmas qoyasi, Cho‘ngqoya, Yapaloqdovon, Tuyako‘z vodiysi, Qushqo‘nmas g‘ori, Oqto‘sh dovoni, Kattasoy vodiysi, Donishota qoyasi, Ajinaqoya, Bo‘zzang dashti, Tillavodiy, Burunqoya sharsharasi «Qoraquyun» romanidagi makon nomlari yozuvchi mahoratining ajoyib ifodasi bo‘lib, makonlardagi harakat to‘g‘ri chiziqli va uzluksiz ravishda kechadi. Makonlar qahramonlar taqdiri, insoniy munosabatlar va voqealarga mos nomlangan.

Ichki makon, ya’ni personajning ruhiy olamida ham turli evrilishlar uzluksiz, aylanma va tengsiz holatda bo‘y ko‘rsatib, hayotning barcha qarama-qarshiliklari va ziddiyatlarini qanday bo‘lsa, o‘z holicha ko‘rsatishda yozuvchiga imkon yaratadi. «Ichki makonni orzularning falsafiy kategoriyasi deb atash mumkin. Albatta, ichki makonning turli tasvirlari orzularga qanot bag‘ishlaydi, o‘ziga xos tug‘ma moyillik buyuklik haqida o‘ylashga undaydi. Buyuk orzular haqida o‘ylash, tush motivi atrofdagi dunyodan tashqaridagi cheksiz olam, ya’ni qalbning o‘ziga xos ruhiy holatini aks ettiradi [2, 376]. Yozuvchi megaolam, makroolam va mikroolam xronotopidan hayot deya atalmish bepoyon ummondan o‘zi tanlagan qismlarini oladi va ulardan yangi dunyolar yaratadi.

Badiiy makon deganda faqat asar voqealari kechadigan joy ma’nosi tushunilmaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda yozuvchilarning olamni o‘ziga xos uslubda tasvirlashlari, hayotiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish usullari, tasvirlanayotgan voqealarga, asar personajlariga munosabatlari ichki xronotop sifatida talqin qilinmoqda. «Hayotning badiiy tasviri har doim mavjud «men» (qahramon)ning ichki xronotopi bilan murakkablashadi» [11, 42]. Tashqi xronotop asarda borliqning kichraytirilgan modelini anglatsa, ichki xronotop ko‘ngil atalmish nodir xilqatning noyobligi va qalb sarhadlarining cheksizligini ifodalaydi. Ingliz tadqiqotchisi Michael Holquist fikricha, makon kategoriyasi aslida falsafiy bilimlarni asoslashga xizmat qiladi: dunyoni tushunishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida inson mavjudligining boshqa tomonlarini, birinchi navbatda, o‘zilikni anglash mezonlarini anglatadi [9, 277]. Adabiyotshunos S.Meliev masalaga yanada oydinlik kiritib, yozuvchi qalbidan personaj va kitobxon shuuriga shaffof buloq suvi yanglig‘ oqib o‘tgan tuyg‘uga shunday ta’rif beradi: «Tuyg‘u, ma’lumki, jism va jonda, ko‘ngilda kechmish ruhiy-jismoniy kechinmalar, ruhiy his-tuyg‘ular majmuidir» [8, 168]. «Tasavvufdagi ontologiya, ya’ni olam haqidagi qarashlar ham irfoniy muhabbat tushunchasi bilan bog‘liq ekanligini sezish mumkin. O‘sha tasavvufda keng tarqalgan vahdat ul-vujud ta’limotini olaylik. Bu ta’limotga binoan, Xudovand olamlarini O‘z jamolini va kamolini namoyish etish uchun yaratdi. Ya’ni U O‘z husnini tomosha qilish uchun O‘ziga ko‘zgu yaratdikim, bu bizni o‘ragan moddiy olamdir. Ammo bu ko‘zguning javhari – inson qalbidir» [5, 247]. Bundan anglashiladiki, bizni o‘ragan moddiy olam – tashqi xronotop, ko‘zguning javhari – ichki

xronotopdir. Tashqi va ichki xronotop mushtarakligi asar strukturasidagi ichki yaxlitlikni ta'minlab, obrazlarning individual va umumlashma xususiyatlarini, ularning ichki dunyosini yanada chuqurroq his qilish, tushunishga ko'maklashadi. Ijodkor kitobxon qalbining nozik torlarini chertish orqali uni mahliyo etuvchi ohang yaratadi.

Zamonaviy romanlar badiiy makonida olamning murakkab va serqirra tasviri aks etgan. Badiiy asarda makon tasviri yozuvchi niyati asosida ikki xil ifodani anglatadi: birinchidan, insonning tashqi olam bilan munosabatlarini, ikkinchidan, insonning qalbida yuz bergan tuyg'ularni gavdalantiradi. Ilmiy manbalarda makro va mikromakon terminlari bilan yuritiladi: dunyo tasviri – makromakon, qahramon ruhiy olami – mikromakon. Makro va mikromakon asarda ikkita hikoya o'zanini yaratadi. Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlarida makonning bu turlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Makromakon qahramonning idroki orqali beriladi, ya'ni mikromakon orqali teranlashadi. Ch.Aytmatov qahramonlari asosan ochiq va tashqi makonda, ya'ni tog'u toshlarda, dengizda, hatto koinotda harakatlanishadi. N.Norqobilovning ikki romanida ham dashtu dalalar makon sifatida tanlangan. Har ikki yozuvchi romanlarida makromakon qahramon qalbining sarhadsizligi, ularning ichki dunyosi naqadar kengligini ham anglatishga xizmat qiladi. Edigey Bo'ron, Kazangap, Avdiy, Bo'ston, Arsen; Eshqul polvon, Oqbo'ta, Donishota, Qalaybek mikromakoni aynan makromakon orqali anglashiladi, ya'ni qahramonlar taqdirini yoritishda adiblar ular yashayotgan makon tasviridan fon sifatida foydalanishadi. Aslida badiiy makon ramziy ma'noda insonning ichki, ma'naviy olamini, qalb kechmishini, ruhini, yuksak intilishlarini, qahramon xarakterining ichki tomonini aks ettiradi.

Chingiz Aytmatov romanlarida makonning «yuqori» va «pastki» semiotikasi, uning «ochiqligi» va «yopiqligi» dunyo tartibining universal tamoyillari sifatidagi g'oyalarga asoslanadi. «Asrga tatigulik kun», «Qiyomat» va «Oxirzamon nishonalari» romanlarida borliq tushunchasini belgilab beruvchi asosiy timsol «vertikal» makon: qahramonlar harakati, o'y-fikrlari Oliy Ruh makoniga intilish bilan belgilanadi. Biroq vertikal o'q doimiy ravishda gorizontal bilan kesishadi. Badiiy makonning bunday kengayib borishi hikoya qilishning o'ziga xos yo'sini – qahramon o'zligini anglashi, ichki olamini taftish qilishi va iztiroblari natijasida qilinayotgan munojotidan dalolatdir. N.Norqobilov romanlarida voqealar gorizontal makonda kechadi hamda makonlar almashinuvida turg'unlik kuzatiladi.

Badiiy makon bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va yaxlit tasvirni aks ettiruvchi turli tasvirlar, shakllar va makon turlarini o'z ichiga oladi. Maqolada ilmiy-nazariy adabiyotlar sharhi asosida makonning quyidagi turlarini ajratdik [4; 6;7;10]:

Gorizontal makon dunyoning to'rt tomoni (shimoliy, janubiy, g'arbiy, sharqiy) yoki tomonlar ifodasi (o'ng, chap, oldin, orqa)ni o'z ichiga oladi. «Qoraquyun»da voqealar dashtda, qiru adirlarda, g'orda kechadi. Yozuvchi sharsharaga inson singari kuzatish, voqealarni baholash sezimini singdiradi. «Dashtu dalalarda» romanida dasht va sihatgoh makon sifatida olingan. «Tog'lar qulayotgan zamon» romanida inson va jonzot makoni voqealar rivoji mobaynida ayri tasvirlanib, yechimda qaysidir ma'noda qismatlari o'zaro bog'liq, samoviy jihatdan qardosh ikki mavjudot Uzangilash tizma cho'qqilarida uchrashadilar. Yozuvchi «Asrga tatigulik kun» romanida epik klishe shaklida «Bu o'lkalarda poezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi» jumlasini o'n bir marta, «Poezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...» jumlasini sakkiz marta takror qo'llashini *«Har qanday masofa Grinvich meridianidan o'lchangani singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'lchanadi»,* deya izohlaydi.

Gorizontal makon tasvirlari ham roman koordinata tizimining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, qahramonlarning hayotini idrok qilishga yordam beradi.

1-jadval.

Qahramonlar vertikal makonining yuksak va quyi darajasi

	Vertikal makonning yuksak darajasi	**Vertikal makonning quyi darajasi**
Ch.Aytmatov romanlari personajlari	Edigey Bo'ron, Kazangap, Abutolib, Zarifa, Raymali og'a, Nayman ona, Bo'ston O'rkunchiev; Avdiy Kallistratov, Iso Masih, Guram Jo'xadze, Arsen Samanchin	Sobitjon, Tansiqboev, Abdilxon, jungjanglar, Bozorboy; Ober Kandalov, Grishan, Sandro; Oydana, Ertosh Kurchal; Andrey Krilsov
N.Norqobilov romanlari personajlari	Eshqul polvon, Erali rais; Qalaybek, Oqbo'ta, Oybekach	Itolmas, Qoraqul; O'sarqul, Haydar, Farmonov, Sa'dulla

Vertikal makon – yuqori (osmon, tog'lar) va pastki (dengiz tubi, g'or, yerto'la) makonlarning tasvirlarini ifodalaydi. Roman ichki qurilmasida vertikal makonning o'rni o'ziga xos bo'lib, keng qamrovli obrazlarni o'z ichiga oladi. Vertikal makon hayot mantig'i, tiriklikning mohiyati, uning asl mazmunini anglash va abadiylikka erishish maqsadida personajlarning olam bilan qayta birlashuvini aks ettiradi. Personaj ruhiyatidagi vertikallik ikki holatda – yuksaklik va tubanlik darajasida namoyon bo'ladi. Bu holat

bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar o‘rtasida konfliktni yuzaga keltiradi va voqealar dramatizmini kuchaytiradi.

Ammo romandagi hamma qahramonlarni bu xil tasniflab bo‘lmaydi, chunki ba’zi obrazlar yuksaklik va tubanlik darajalarining oralig‘ida turishadi. Vaziyat taqozosiga ko‘ra ikki holatda ham xarakter qirralari namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, Erman, To‘lanboy obrazlari ruhiyati nihoyatda murakkab.

Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun», «Oxirzamon nishonalari» romanlarida makon vertikal holda zamindan koinotga tomon o‘zgaradi. Savol tug‘iladi: nega yozuvchi voqealarni koinotga ko‘chiryapti? Muxtor Shoxonov bilan suhbatda yozuvchi bu niyatini shunday izohlaydi: «Insoniyat o‘zga sayyoralarda hayot borligini ko‘pdan beri muhokama qilyapti, o‘zlariga o‘xshash aql-idrokli mavjudot borligiga chin dildan ishonyapti... Agar Yer sayyorasining o‘zi sayyoramizdan tashqaridagi aql-idrokli mavjudotlar tomonidan mahdudlikka mahkum etilgan bo‘lsa nima bo‘ladi? Go‘yo ko‘zim yarq etib ochilganday bo‘ldi» [8, 75]. «Tog‘lar qulayotgan zamon» romanida ov rejasi tufayli voqealar shahardan tog‘u toshlarga ko‘chadi. Tog‘u tosh va shahar makoni romanning asosiy makoniy qarama-qarshiliklaridan biri sifatida keltiriladi, shu bilan birga, ushbu «qutblar» peronajlarning bir-biri bilan turli munosabatlarga kirishishida muhim ahamiyat kasb etadi. «Qoraquyun» romanida bosh obraz Ermanning bandilikdagi hayoti chohda kechadi. Itolmas oltin qazuvchi bandi yigitlarni konda majburiy ishlatadi va ularni chohda saqlaydi. Choh va lahim ularning iztirobini teranroq ifodalashda xizmat qiladi.

2-jadval.

Osmon timsolining turli ma’nolarda voqelanishi

Ilohiylik	Shunda men Rabbimga, osmonda Padarimga yolvordim. «Rabbano, – dedim. – Ajal kosasini bu safar menga tutmay qo‘ya qol! Yana o‘zing bilasan, Sening hukmingga tobeman» [II, 202].
Cheksizlik	Bepoyon okean samolyot qanoti tagida hamon chayqalmoqda, to‘lqinlar o‘yini yog‘du sochmoqda edi. Quyosh, tubsiz ochiq osmon, kenglik, shiddatli parvoz – Hammasi okean ustida harakatsiz qotib qolganday...[IV, 8].
Go‘zallik	Ularni tog‘larning tungi manzaralari mahliyo qilib qo‘ydi – oy to‘lgan, yulduzlar milt-milt jimirlar, osmon tiniq moviy-qorong‘u – bahaybat, tumtaygan, ulug‘vor cho‘zilib ketgan o‘rkachli cho‘qqilar [III, 202]
Muqaddaslik	Vino dehqoncha meshlarga solingan edi, unga yer va osmonning ta’mi qo‘shilib ketgandi [II, 37]
Baxtiyorlik	Ularning o‘sha kezlardagi hayoti ko‘m-ko‘k osmon yanglig‘ musaffo edi [III, 196]. Lojuvard osmon, suv hamda shamol og‘ushida mast bo‘lib, boshi gir aylandi... [III, 217]
Ilohiy makon	Sen kimsanki, men va boshqalar haqida qayg‘urasan, xuddi senga osmondan muborak vahiy tushganday [II, 164]
Mo‘jiza, sinoat	Yelizarov odatda bunaqa narsalar xususida maroq ila so‘zlardi. Uning aytishicha, osmonu falakda taram-taram tarmoqlari, sohillariyu oqimlariga ega bo‘lgan ko‘z ilg‘amas ulkan daryolar uzluksiz harakatlanib, yer sharini go‘yo yuvib turar ekan [I,125]
Yaratganga iltijo	«Yo yaximalak, osmonning Hokimi ko‘k Tangri muz dovon uzra yo‘limizni yengil qilgaysan. Chorvamizni qora izg‘iringa giriftor etmagaysan, buning o‘rniga osmondagi qora quzg‘unni olgaysan. [I, 361]
Najot tilash	Ular davra yasab turishar, ba’zan qo‘llarini bir-birlarining yelkalariga tashlashar, ba’zan qamchiday yerga solintirishar, ba’zan esa, bilib bo‘lmas va ko‘rib bo‘lmas, lekin har narsani biluvchi va har nimani ko‘ruvchi ilohiy qudrat eshitsin debmi, qo‘llarini osmonga ko‘tarar edilar [II, 38].
O‘tinch	– Namuncha o‘kirasan, ajdarho? Osmonga qarab bo‘kirganing-bo‘kirgan, ovozimni xudoi-taolo eshitadi deb o‘ylaysanmi? – Edigey nihoyatda jahli chiqqan paytlardagina tuyasini «ajdarho», deb so‘kar edi [I, 30].
Ilhom	Butun kenglikni chulg‘ab olgan beqaror, ko‘kimtir osmon o‘ziga maftun etib, fikrga qanoat bog‘lardi, uzoq yashashga, ko‘p o‘ylashga da’vat etardi...[I, 136].
Quvonch	Kichkintoyning har bir yangi so‘zidan Bo‘stonning boshi osmonga yetar, xursandchiligini ichiga sig‘dirolmasdi [II, 400].
Tavba	Avdiy qichqirar, qo‘llarini osmonga ko‘tarar, menga qo‘shilinglar, yomonlikdan poklanaylik, istig‘for aytaylik, deb yolvorardi [II, 120].
Kibr, man-manlik	– Negaki, xatardan xoli vaqt va makonda odamzod o‘zini osmon chog‘laydi. Bu dunyoga sig‘may, ne istayotganini o‘zi ham bilmaydi [VI, 140].
Iztirob	– Nima, osmon uzilib yerga tushibdimi, buncha o‘ydasan?! [V, 166].
Nola chekish	Dodlagisi, faryod qilib osmonlarni to‘ldirishni istadi, lekin osmon eshitarmidi, bo‘g‘ilarmidi [III, 30]. O, osmon, ayt, dunyoda shundayi ham bo‘larmi?! Oliy osmon ham javob bermasdi [III, 34].
Mutlaq yiroqlik	Siz bizlarni osmondan turib nazorat ostiga olmoqchisiz. Eslatib qo‘yishga jur’at etaman, bunga Yerda deyarli hech kim rozi bo‘lmaydi. Ha, yerda, bizning osiy yerimizda, siz osmoni falakda turib fikr yuritmang, siz darg‘azab odamlardan yiroqdasiz [IV, 97].

Har ikki adib romanlarida vertikal makonning yuqori qismi –osmon timsoli bir necha estetik vazifalarni bajargan: tasviriy (vizual tasvirni aks ettirish), hissiy va psixologik (muallif yoki qahramonning muayyan kayfiyati va his-tuyg‘ularini yetkazish), ramziy (ijodkorlarning individual yondashuvi). Osmon timsoli asarning badiiy olamini yaratishda, qahramonning ichki holati va muallif pozitsiyasini ochishda yordam beradi. Shubhasiz, osmon timsoli asarning muhim detalidir. Harakatdagi yoki turg‘un holatdagi tashqi va ochiq makromakon qahramon ruhiy sezimlaridagi turli holatlarni, ruhiy iztiroblarni ramziy-

falsafiy yo‘sinda tasvirlash imkonini beradi. Osmon ramziy ma’noda abadiylik, yuksak tuyg‘ular, idrok va adolatning timsoli sifatida talqin qilinadi, shuningdek, qalblarni yorug‘lik va nurga to‘ldiruvchi Olloh makoni sifatida ham tushuniladi.

Sivilizatsiya makoniga taraqqiyot jarayonida inson tomonidan yaratilgan makonlar (davlatlar, shaharlar, qishloqlar, tarixiy-me’moriy obidalar) kiradi. Har bir xalqning shakllangan ijtimoiy makon va madaniyati texnogen sivilizatsiya natijasi sifatida qaraladi. Shahar makoni Ch.Aytmatovning “Tog‘lar qulayotgan zamon”, “Oxirzamon nishonalari” romanlarida keltirilgan.

Bundan tashqari, hayotiy, mifologik va fantastik makonlar mavjud. Birinchisi haqiqatda o‘xshashlikka ega, ikkinchisi tushlarda, xotiralarda paydo bo‘ladi, uchinchisi muallifning tasavvurida yaratilgan (ilmiy fantastik asarlar). “Asrga tatigulik kun” romanida g‘ayrizaminiy taraqqiyotga ega To‘qaytosh sayyorasi fantastik makon tarzida tasvirlanib, to‘qayto‘shliklar shimoliy arablarga o‘xshab ketishi, ularning makonida misli ko‘rilmagan rivojlanish mavjudligi, iqlimni o‘z xohishlariga ko‘ra o‘zgartirishlari, gravitatsiyani boshqara olishlari hamda *“koinotda jamiki mavjudotlar yashay oladigan yangi baza tashkil etishning kosmik loyihasini ishlab chiqish”* [I, 89] ustida bosh qotirishayotgani yozuvchi mahoratiga ko‘ra ishonarli tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy makon tashqi va ichki xronotopning bir nuqtada tutashuvini ta’minlaydi, asarda turli semantik vazifalarni bajaradi. Masalan, osmon, tog‘, sahro, yo‘l makon sifatida ifodalanishi mumkin, lekin bu makonlar adabiy qahramonning kelajakdagi taqdirida muhim ahamiyatga ega turfa ramziy timsollar sifatida ham qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho’qqida qolgan ovchining ohu zori. – T.: «Sharq» nashriyot- matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. – B. 75.

2. Bashlyar G. Izbrannoe: Poetika prostranstva. – M.: «Rossiyskaya politicheskaya entsiklopediya» (ROSSPEN), 2004. – 376 s.

3. Yo’ldoshev S. va boshq. Qadimgi va o’rta asr G’arbiy Yevropa falsafasi. – T.: «Sharq», 2003. – 208 b.

4. Kovalenko Yu.D. Kognitivnaya kategoriya xudojestvennogo prostranstva i yeyo reprezentatsiya v romane M.A. Bulgakova «Belaya gvardiya»: Dis. ... kand. filol. nauk. – Omsk, 2002. – 188 s.

5. Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movarounnahr, 2009. –B. 247.

6. Kochetkova M.A. Xudojestvennoe prostranstvo v rasskazax I.A. Bunina 1890-x-1910-x gg. i v povestyax «Derevnya» i «Suxodol»: Dis. ... kand. filol. nauk. – Ulyanovsk, 2005. 183 s.

7. Leonova N.E. Semantika xudojestvennogo prostranstva v proizvedeniyax Djona Steynbeka: Dis. ... kand. filol. nauk. – Moskva, 2004. – 181 s.

8. Meliev S. Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi: Filol.fan.d-ri ...diss. – Toshkent, 2019. – B.168.

9. Michael Holquist. The Fugue of Chronotope. – P. 19-34. / Nele Bemong, Pieter Borghart, Michel De Dobbeleer, Kristoffel Demoen, Koen De Temmerman & Bart Keunen (eds.). Bakhtin's theory of the literary chronotope: reflections, applications, perspectives. UPNE, Lebanon, New Hampshire, USAGent, Academia Press, 2010. – 227 pp.

10. Nikitina I.P. Xudojestvennoe prostranstvo kak predmet filosofsko-esteticheskogo analiza: Dis. ...d-ra filos. Nauk. Moskva, 2003. – 286 s.

11. Tamarchenko N.D., Tyupa V.I., Broytman S.N. Teoriya literaturi. V dvux tomax. Tom 1. Teoriya xudojestvennogo diskursa. Teoreticheskaya poetika: Uchebnoe posobie. –M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2004. – S.42.

12. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun; Qiyomat. Romanlar. Rus tilidan A. Rashidov, I.G’afurov tarj. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 560

13. Aytmatov Ch. Qiyomat. roman. Rus tilidan Ibrohim G’afurov tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 432

14. Aytmatov Ch. Qulayotgan tog’lar (Mangu qayliq) «Ozbekiston», NMIU, 2011. – 536

15. Aytmatov Ch. Kassandra tamg’asi. Roman. Rus tilidan Suyun Qoraev tarjimasi – Toshkent Adabiyot uchqunlari, 2009. – 285

16. Norqobilov N. Dashtu dalalarda. Roman. – Toshkent, 2009. – 224 bet.

17. Norqobilov N.Qoraquyun. roman – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. – 216

UDC 81`13

HISTORY OF THE STUDY OF ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS

N.N. Tolibova, teacher, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya*. Ushbu maqolada frazeologiyaning kelib chiqishi, rivojlanishi, o’rganilishi, frazeologizmlarning shakllanish masalalari haqida so’z yuritilgan. Maqolada shuningdek, frazeologiyaning rivojlanishida o’z hissasini qo’shgan olimlar va ularning frazeologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari tahlili ko’rsatib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *tilshunoslik, til, jamiyat, frazeologiya, ijtimoiy munosabat, ibora, so’z birikmasi, ma’no*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы происхождения, развития, изучения фразеологии, формирования фразеологии. В статье также представлен анализ ученых, внесших вклад в развитие фразеологии, и их исследования в области фразеологии.*

Ключевые слова: *языкознание, язык, общество, фразеология, социальные отношения, словосочетание, словосочетание, смысл.*

Abstract. *In this article the origin, development, study of phraseology, the formation of phraseology are discussed. An analysis of scholars who have contributed to the development of phraseology and their research in the field of phraseology are also represented.*

Keywords*: linguistics, language, society, phraseology, social relations, phrase, meaning*

Introduction. In every national language there are such stable expressions that create the emotional sensitivity and imagery of artistic speech, the emergence of which is associated with the attitudes of peoples to things and events in nature and society: people describe their attitudes to the world of things and events, use linguistic means based on a variety of comparisons in order to express emotionally. The person, object, trait, event, and landscape depicted is often exaggeratedly compared to images familiar to the reader. As a result, the image becomes clearer, the imagery of the expression increases, high sensitivity and emotional feeling occurs. As a branch of linguistics, the most center of diction is to consider the nature of manner and their categorical highlights and to decide the laws of phraseology in discourse. The foremost imperative errand of expressiveness is to recognize phraseological units from the ones that are shaped in discourse and on this premise to distinguish the highlights of phraseological units. Many researchers understand phraseology in two ways: contract and wide, due to certain contrasts between idioma phraseologisms, phraseological combinations, and normal sentences (proverbs and parables, other equivalent phraseologies). When caught on in wide sense, expressiveness incorporates maxims and platitudes, steady sentences ordinary of old stories, and a few shapes of communication. In any case, the address of a broader understanding of expressiveness is still talked about [2,48].

The main tasks of phraseology are: to decide the arrangement of phraseological structure and to think about the characteristic highlights of expressiveness; depiction of homonymy, synonymy, antonymy, polysemy and variation of phraseologies; recognize the highlights of the words utilized in manner and their particular implications; clarify the relationship of expressiveness with word bunches; decide their syntactic part; The think about of the arrangement of modern implications of words in phraseological units and other expressiveness creates the standards of partition of phraseological units, strategies of their think about, classification and portrayal in word references. The phraseological structure of a dialect is classified agreeing to diverse methodological strategies created in diction: auxiliary, semantic, linguistic, useful and methodological. The rule of structural-semantic classification is fundamental.

Materials and methods. Phraseology as a linguistic science was first introduced to science by professor E.D. Polivanov. Polivanov returns to this issue several times and emphasizes the study of the individual specific meaning of lexical words, the formal meaning of the word morphology, the formal meaning of syntactic phrases. Polivanov says that phraseology will find a strong place in the linguistic literature in the future, and in this case our science will be free from a number of shortcomings in solving various problems. Today, Polivanov's discovery is taking place.

V. Vinogradov also created literature on phraseology in different languages. The emergence of such ordered evidence is the basis for the emergence of phraseology as a linguistic science. The question of phraseology was first considered by B.A. Larin and then by D. Polivanov and V. Vinogradov. Research on the sphere phraseology is defined not by the number of scientific papers written, but by their nature. These include monographs, doctoral and candidate dissertations, collections on phraseology, phraseological dictionaries, bibliographic indexes. Indeed, phraseology has become a linguistic science in which not just one sphere but independent research is conducted. The word phraseology is derived from the Greek word - "phrase", logos - "science". Phraseology is a distinct unit of language that includes, depending on its structure, a free link or sentence equivalent, fully or partially semantically reshaped, figurative, correct word combinations [7,97].

A dialect destitute of phraseological expressions is dry, dull and boring, and phraseological expressions bring "life" to the dialect, increment its figurativeness and allure. Fair as he is not indifferent to his condition and behavior, he is not impassive to his claim dialect. One of the most components that decorate a person's discourse and guarantee its sweetness is the phraseological solidarity of the dialect. Phraseological units happen each day in our dialect on a distinctive point.

The improvement of each national dialect is basically due to the inside assets that make up that dialect. Each national dialect has its claim lexical structure and syntactic structure, which creates, improves and always endeavors for flawlessness, primarily on the premise of its possess inside improvement. The lexicon of a dialect is its primary building fabric and improvement of a dialect based on the improvement and extension of that lexicon.

The improvement and development of the lexicon is not as it were due to the ceaseless procurement of modern implications of lexical units in science and innovation, or the development of modern and new terms within the dialect as a result of science and innovation, but too the rise of unused phraseological combinations and whether the existing units have extra meaning, and so on. [7,113].

English language has an extremely rich phraseological treasure, and these expressions are the decoration, beauty and art of the languages to which they belong. Most of them embody the national culture, morals, worldview, dreams, love for their homeland and many other qualities of the peoples to which they belong, which are the highest factors that human society has always aspired to.

Results and discussions. Many scholars consider proverbs outside of phraseology, following in the footsteps of academician V.V. Vinogradov, who did not include proverbs in phraseology. Most scholars, who do not include proverbs, and sometimes proverbs, in phraseology, as a proof of their views, compare them to idioms, to the classification of academician V.V. Vinogradov, phraseological confusions, and do not include them in idioms, confusion. For example, when it comes to whether or not to include proverbs and sayings in phraseology, one must first consider the definition given to phraseology by scholars and then their existing classification. In comparison, proverbs and sayings should be compared not only to one type of phraseology (including idioms, new confusions), but also to other types. Because not meeting the requirement of one round is not meeting the demand of the whole group. A.V. Coonin points out that the difference between proverbs and idioms is that they do not meet the requirements of idioms, but do not conclude that they do not meet the requirements of phraseology in general. He incorporates proverbs from his later work into phraseological units of another type of phraseological expression [4,268].

Academician V.V. Vinogradov uses three types of phraseology:

1. Phraseological compound
2. Phraseological integrity
3. Phraseological confusions

N.N. Shansky used four types of phraseology:

1. Phraseological confusion
2. Phraseological integrity
3. Phraseological additions
4. Phraseological expressions

N.N. Shansky's classification is more perfect than V.V. Vinogradov's classification, according to which articles are included in the fourth type of phraseological expressions. Professor I.R. Galperin also said about the inclusion of proverbs and sayings in the composition of phraseological units: "Phraseological units include proverbs and sayings that have an emotional character."

In the scientific literature, it has been repeatedly stated by scholars that phraseological units are stable expressions, that they are not re-created in the speech process, but are always used in the same composition in a ready state. Therefore, it is impossible not to include proverbs in the structure of phraseologies, because in proverbs, too, all of the above qualities are embodied. The fact that phraseologies are created independently by representatives of the people to whom they belong to express certain meanings and stylistic functions also differs in many cases from the lexical composition of phraseologies created by other peoples for the expression of these meanings and stylistic functions. Such expressions are called alternatives.

Conclusion. In conclusion, it ought to be famous that in spite of the complexity and flexibility of the implications and shapes of phraseological units, in spite of a few troubles in utilizing phraseological units in live discourse, they are likely the foremost striking expression of human feelings could be a tool feelings. The rate of the nearness of phraseological units in a dialect is closely related to the improvement pointer of a specific people culture, since phraseological units and their historical underpinnings are the expression of this culture. Traditions and customs are the undisputed authors of the development of phraseological units in speech. All phraseological units can't be utilized in live discourse without exemption. Most of them get old over time and utilizing them can appear strange. This is often particularly genuine for those learning a remote dialect. In terms of the nearness of phraseological units and phraseological turns in its wide framework, English is likely one of the wealthiest dialects. In its composition diction possesses a really huge layer. All the events that take put within the UK are reflected in expressiveness: political life, sports, social occasions, way of life - typically an deficient list of points reflected within the English phraseological units. Most of them ended up out of date, but they are always being supplanted by modern, dynamic, shinning, and cleverly ones. Hence, we will say with certainty that the phraseological system of the English dialect is advancing day by day.

REFERENCES:

1. Coonin. A.V Some questions of English phraseology. English-Russian phraseological dictionary. M., 1955. 1455 p.
2. Coonin A.V. English phraseology (theoretical course). M., 1970. 344 p.
3. Coonin A.V. Phraseological variance and structural synonymy in modern English // Problems of phraseology and the tasks of its study in higher and secondary schools. Vologda, 1967.1229 p.
4. Coonin A.V. Phraseology of modern English. M., 1972.345 p.
5. Shansky N.M. Phraseology of the modern Russian language: Textbook for universities. 3rd ed. rev. and add. M .: Higher school. 1985.160 p.
6. Vinogradov V.V. On the main types of phraseological units in the Russian language // Academician A. A. Shakhmatov. M.-L., 1974 pp. 21-28
7. Vinogradov V.V. The main types of lexical meanings of the word // Questions of linguistics. 1953. pp. 90-130

UO'K 81-13

ETHEL LILIAN VOYNICHNING INQILOBCHI QAHRAMON OBRAZLAR YARATISHDAGI MAHORATI

X.Turayeva, o'qituvchi, BuxDUPI, Buxoro

Annotatsiya. *Maqolada E.L.Voynich asarlarida ayol xarakterining tasviri yoritilgan bo'lub, adabiyot va uning talqini keng tadqiqot sohasi bo'lib, adabiyot fanida tajriba va ilmiy ma'lumotga ega bo'lgan havaskor kitobxon uchun ham individual idrok masalasi sifatida berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ayol obrazi, romanlar, voqealar, qahramon, tahlil, shaxs, jamiyat.*

Аннотация. *В статье описывается образ женщины в произведениях Е.Л. Войнич, который представляет собой широкое поле исследований в области литературы и его интерпретации и представляется как вопрос индивидуального восприятия для читателя-любителя, обладающего опытом и научными знаниями в области литература.*

Ключевые слова: *Женский образ, романы, события, главный герой, анализ, личность, общество.*

Abstract. *The article describes the character of a woman in the works of E.L. Voynich, which is a wide field of research in literature and its interpretation, and is presented as an issue of individual perception for the amateur reader with experience and scientific knowledge in the field of literature.*

Keywords: *Female image, novels, events, protagonist, analysis, personality, society.*

Kirish:XIX asr oxiri - XX asr boshlari Angliya adabiyoti tarixidagi eng realistik davr hisoblanadi. Bu davr yozuvchilari hayot va borliq qiyinchiliklarini ochib berishga har tomonlama harakat qildilar.

Bunga e'tibor qaratish XIX-XX asrlarning atoqli arbobi Ethel Lilian Voynichning tarjimai holi va ijodiy merosini ko'zdan kechirishning o'ta muhim ma'nosi — hayoti Buyuk Britaniya, Rossiya, Ukraina bilan chambarchas bog'liq bo'lgan iste'dodli britaniyalik yozuvchi, tarjimon, bastakor sifatida tanilgan [1].

E. Voynichga bag'ishlangan adabiy manbalarga ko'ra bir paytlar I.Katarskiy aytganidek, adib nomi haqida g'alati sukunat syujeti yaratilgan.

Sobiq rus davrida E. Voynich tarjimai holi va ijodiy merosining ayrim jihatlari I. Nusinov, Ya. Kirpichev, S. Marvich, T. Shumakova, V. Polek izlanishlarida uchratish mumkin. Afsuski, bu olimlarning aksariyat tahlillari o'sha davr ijtimoiy holatiga mos bo'lgan o'ziga xos ma'naviy identifikatsiyalar bilan cheklangan. Keyingi paytlarda E.Voynichning adabiy ijodida hamdardlik ko'proq rus tadqiqotchilari N.Ignatieva, T.Dudina, A.Mironov va boshqalar tomonidan namoyon bo'lmoqda [2]. Yuqorida zikr etilgan mualliflarning ilmiy tahlili romanlarning adabiy o'ziga xosligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, mazmunini o'rganishni deyarli e'tibordan chetda qoldiradi.

Biz yozuvchining "So'na", "Oyoq kiyimingni yech", "Uzilgan do'stlik" romanlarida o'z qahramonlarini yaratishdagi yuksak mahorati va romanlarini eng yaxshi merosga aylantirish uchun ular bilan qanday tasvirlash va manipulyatsiya qilishga uringanini tahlil qilamiz.

Adabiy dunyoda inqilob va vatanparvarlik mavzusi ko'tarilgan asarni topish qiyin. Bu mavzular Ethel Voynich asarlarida doimo diqqat markazida bo'lgan. Ingliz adabiyoti tarixiga oid fundamental asarlar va ma'lumotnomalarning aksariyatida yozuvchi haqida biror eslatma ham yo'q. Uning romanlari, g'ayrioddiy, qiziqarli mavzudagi hikoyalari, hayotiyligi, dadilligi, muallifning o'ziga xos uslubini tanlaganligi, g'ayrioddiy so'z boyligidan keng foydalanishi uning asarlarinig o'ziga xos xususiyatidir.

Uning asarlarida o'quvchi voqealar sodir bo'layotgan o'sha dunyo vakiliga aylanadi. Ayollarning jamiyatdagi, ayniqsa XIX asrdagi roli mavzusi ayniqsa, E.L.Voynichning "So'na", "Uzilgan do'stlik" va "Oyoq kiyimingni yech" romanlarida yaqqol ochib berilgan. Ayol sifatida Ethel Lilian Voynich o'zi yashagan davrdagi ayollarning eng yaxshi va unchalik ko'rinmas fazilatlarini ko'rsatishni istaydi. Ayollar, odatda zaifa sifatida tasvirlangan va ular salbiy xususiyatlar bilan tasvirlangan.

19-asr jamiyatidagi ayol roli mavzusi ayniqsa Voynich romanlarida ochib berilgan. Ayol bo‘lib, u o‘zi yashagan davrlarda ayolning eng yaxshi va ko‘rinadigan fazilatlarini ko'rsatishni xohladi. Ayol xarakterining tasviri E.L.Voynichning “So’na”, “Uzilgan do‘stlik”, “Oyoq kiyimingni yech” asarlarida ham namoyon bo‘ladi.

E. L. Voynichning "Oyoq kiyimingni yech" romanidan biri. Bosh qahramon Beatris aqlli ayol sifatida tasvirlangan. Ijtimoiy bosimga (onasi tomonidan qo‘yilgan) turmush o‘rtoq tanlash va barcha ayollar uchun qaror qilingan hayotni boshqarishga qaramay, u o‘zi xohlagan narsaga o‘z yo‘lini tanlashga qaror qildi. U o‘z hayot yo‘lini tanlash uchun tashqi kurashga kirishadi. Butun asar qahramonning yagona xususiyati uning qat‘iyatliligidir va bu adabiyotga feministik yondashuvning aniq xususiyatlaridan biridir.

“So‘na” romani 1833 yil revolyutsion voqealar bilan boshlanadi. O‘sha davrda Italiyaning turli qismlarida qurolli qo‘zg‘olon ko‘tarilgan. Avstriya politsiyasi mahalliy hokimiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, misli ko'rilmagan shafqatsizlik bilan qo‘zg‘olonni bostiradi. Ayniqsa, keskin kurash keyinchalik, 1848 yilgacha, inqilobiy to‘lqin butun G’arbiy Evropa va Italiyani qamrab oldi. 1846 yilda ijtimoiy qo‘zg‘olonlardan qo‘rqib, Papa milliy talablarga javob beradigan ko‘rinishga ega bo‘ldi va bir qator liberal islohotlarni amalga oshirdi. Roman harakatining ikkinchi va uchinchi qismlari aynan shu kunlarda sodir bo‘ladi. E.L.Voynich “Yosh Italiya” ichida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni ko‘rsatadi. “So‘na” romanida Jemma, Martini romanining qahramonlari partiyaning eng faol a‘zolari bo‘lib, ular ikkiyuzlamachi papa islohotlari o‘z zolimlarini fosh qilishini va ular bilan jasorat bilan kurashayotganini, boshqalari - mo‘tadil - samarasiz iltimoslar va suhbatlar bilan chegaralanganligini tushundilar. Biroq “So‘na” romanida Italiyadagi milliy-ozodlik harakatining bu bosqichiga xos bo‘lgan xalq qo‘zg‘olonlari, qurolli qo‘zg‘olonlar obrazini uchratmaymiz.

Ochig‘i, yozuvchi o‘z oldiga o‘sha davrning tarixiy voqealarini yaratishni maqsad qilib qo‘ymagan. “So‘na” romanidagi qahramonlarning hech biri haqiqiy tarixiy shaxs emas. Tarixiy shaxslar – Mazzini, Orsini, Renzi nomlari faqat romanda tilga olingan.

Shunisi e‘tiborga loyiqki, na zamondoshlari, na kitobxonlar “So‘na” romanini tarixiy asar sifatida qabul qilmaydi va albatta, XIX asr o‘rtalaridagi Italiya milliy ozodlik harakati tarixi emas, balki kurashga chaqiruvchi inqilobchi obrazi - “So‘na” romanining asosiy mazmuni. E.L.Voynich qahramon inqilobiy xarakter obraziga e‘tibor qaratdi.

Garchi “So‘na” romanning bosh qahramoni bo‘lsa-da, yozuvchi hikoyani qahramonning birinchi kunlaridan to oxirgi kunlarigacha butun hayoti bilan aytib bermagan.

Birinchi qism qahramonning bor-yo‘g‘i bir yil umrini qamrab olgan bo‘lsa, ikkinchi va uchinchisi birgalikda uning hayotining bir yildan ham kamroq vaqtini o‘z ichiga oladi. Biz “So‘na” hayotining eng og‘ir damlarida, uning fe‘l-atvori asosan yorqin namoyon bo‘lgan eng chuqur to‘qnashuvlar soatlarida ko‘ramiz.

Biz bilamizki, “So‘na” qurolli janglarda bevosita ishtirok etadi, garchi muallif uni jangchi, qo‘zg‘olon ishtirokchisi sifatida ko‘rsatmagan. “So‘na” eng katta qahramonligi jangning qiyin qismlarida namoyon bo‘ldi, bu erda qahramonlik go‘yo tuzoqdan mahrum bo‘lgan, jangchi do‘stlar yordamidan mahrum bo‘lgan va uning yagona quroli mafkura bo‘lgan. Muallif o‘z xarakterini jandarmlar bilan janglarda tasvirlaydi. Darhaqiqat, harakatlarda faol jangda, har bir kishi qo'llab-quvvatlangan sheriklarini his qiladi va shu bilan birga, jasorat bilan sodir etilgan bir zumda javob beradi, izdoshlarini o‘ziga tortadi; yiqilgan jangchi o‘z o‘rnini egallashini ko‘radi, kim o‘z bayrog‘ini ko‘tarib, uni yana olib yurishini ko‘radi, qurbonlarning ezgu xotirasi qalbida. Qamoqxonada xuddi shu jasorat ko‘rinmas - do‘stlardan hech kim bu haqda bilmas edi, lekin haqiqiy inqilobchi, hatto bunday sharoitlarda ham, hech qanday mukofot kutmasdan, o‘ziga sodiq qoladi!

Qahramon inqilobchi obrazini yaratish, ozodlik uchun kurash tamoyilini oliy insonparvarlik tamoyili sifatida talqin qilish bilan bir vaqtning o‘zida E.L.Voynich katta mahorat bilan din va uning xizmatchilarining muqaddasligi halolini yirtib tashlaydi. U barcha yolg‘onlarni, ikkiyuzlamachilikni fosh qiladi, u dinni xalq dushmani deb ta‘kidlaydi.

Uning qahramoni hayotidagi barcha burilish nuqtalari din bilan bog‘liq.

"Oyoq kiyimingni yech" - bu Voynichning stilistik jihatdan eng nafis va nozik romani bo‘lib, u ayolning murakkab xarakterini tasvirlaydi, bu erda ayollar erkaklar ustidan hukmronlik qiladi.

"Uzilgan do‘stlik" - “So‘na” bilan bir xil qahramonning hayotidan epizod hikoyasi. Voynich o‘zining barcha romanlarida haqiqiy shaxs va jamiyatning prototipi bo‘lishi mumkin bo‘lgan personajlarni o‘z ijodidan tashqari bajonidil taqdim etgan.

Ingliz yozuvchisi E.L.Voynichning ijodiy ishlari kitobxonlar hurmatini va adabiyotshunos olimlarning e’tiborini talab qiladi, chunki uning adabiyotga qo‘shgan ulkan hissasi haligacha o‘rganilmagan va hatto e’tibordan chetda qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Interpretation Of Woman Image in Modern Uzbek Literature (Based on Utkir Khashimov's Book "Between Two Doors") K Turaeva, A Zarinabonu - Eurasian Research Bulletin, 2022
2. English Translation of Abdullah Qadiri's Novel" Days Gone by" and Its Reflection Skills F Kabilova, TK Tokhirovna - International Journal on Integrated Education
3. O'tkir Hoshimovning"Dunyoning ishlari"asarida kasallik turlari va ularning lisoniy tavsifi M Baxronova - Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2021
4. English translation of Abdullah Qadiri's novel" Days gone by" and it's reflection skills X Тураева - Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2020
5. Analysis of the protagonists of the novel" Days gone by" X Тураева - Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2020
6. Formation and Usage of the Imperative Mood in English T.X. Toxirovna - International Journal on Integrated Education
7. In the work of william shakespeare's 'hamlet'the transfer of the names of the disease in different translations JI Mizrabova, MA Baxronova - IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 2021
8. Bakhronova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 141-144.
9. O'tkir Hoshimovning"Dunyoning ishlari"asarida kasallik turlari va ularning lisoniy tavsifi M Baxronova - Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2021
10. Особенности использования современных технологий в обучении МА Бахронова, ЖЖ Атамурадов - Ученый XXI века, 2017
11. Pulatova M.T. Semantic analysis of the application of military lexical units in the work of Christopher Marlow "Tamburlaine the Great". International Engineering Journal For Research & Development 6 (TITFL), 16.04.2021, 186-190 pages.
12. Pulatova M.T. The correlation of historical truth and imagination in Christopher Marlowe's tragedy "Tamburlaine the Great". Web of scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979 (Volume 2, Issue 12), Dec., 2021, 455-457 pages

UO'K 81.373

XITOY TILI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARIDA "TINCHLIK" SUBKONSEPTI

N.A. Valiyeva, tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Muvaffaqiyatli hayot yo'li sifatida "baxt" konsepti qadimdan insonlarni qiziqtiradi va u barcha millat uchun madaniyatning ajralmas bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Xitoy millati "tinchlik" subkonseptini ifodalovchi frazeologik birliklarni asosan bayram tabriklarida qo'llashadi va ularning komponentlari majoziy ma'no kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Kognitiv tilshunoslik, konsept, subkonsept, felisitologiya, konstanta.*

Аннотация. *Концепт «счастья» как образ жизни издавна интересовал людей и стал неотъемлемой частью культуры всех народов. Китайцы используют фразеологизмы, представляющие субконцепт «мир», в основном в праздничных поздравлениях, а их компоненты имеют переносное значение.*

Ключевые слова: *Когнитивная лингвистика, концепт, субконцепт, фелицитология, константа.*

Abstract. *The concept of "happiness" as a way of life has long been of interest to people and has become an integral part of the culture of all nations. The Chinese use phraseological units to representing the sub-concept of "peace" mainly at holiday greetings, and its components have a figurative meaning.*

Keywords: *Cognitive linguistics, concept, subconcept, felicitology, constant.*

Kirish. Bugungi iqtisodiy globallashuvga madaniy globallashuv hamrohlik qilmoqda, bu esa turli mamlakatlar madaniyatining bir-biriga kirib kelishining muqarrar tendentsiyasini yaratadi. 1998 yilda YuNESKOning "Jahon madaniyati to'g'risida"gi 1998-yildagi hisoboti shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy globallashuv madaniyat rivojiga ulkan va keng ko'lamli ta'sir ko'rsatdi, har xil millatlar madaniyatini o'rganish yetakchi sohaga aylanmoqda. Baxt haqidagi tadqiqotlar 60-yillardan boshlab AQShda keng tus oldi. Amerika va Yevropadagi jamoatchilik fikrini o'rganuvchi tashkilotlari odamlarning baxtiyorligi va qoniqishlari bo'yicha so'rovlar o'tkazdilar, ularning natijalari M.Argyle, X. Cantril, N. Bredbern, A. Kempbell, P. Convers, V. Rogers va boshqalarning "Social Indicators Research" (Ijtimoiy ko'rsatkichlar tadqiqoti), "Personality and Individual Differences" (Shaxs va individual farqlar) va "The Journal of Personality and Social Psychology" (Baxtning psixologik va ijtimoiy psixologik) jurnallarida "baxt" ni o'rganishga bag'ishlangan maqolalar muntazam chop etiladi[9].

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Hozirgi kunda hech kimga sir emaski, butun dunyo bo'ylab Xitoy tili, madaniyati, urf-odati va xatto oshxonasini o'rganish ham urfga kirgan. Turli madaniy elementlar ko'p jihatdan Xitoy madaniyatining xilma-xilligini ko'rsatadi. Qadimdan Xitoy o'ziga ohangrabodek sayyohlarni jalb qilgan, tili, yozuvi, urf-odatlari va madaniyatini qiziqish uyg'otgan. Aynan tili va iyerogliflari o'zgacha bo'lgani sabab bugungi kunga qadar, ham xitoyliklar, ham chet ellik tilshunoslar tomonida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xitoy tili "baxt" konseptini o'rganishga bugunga qadar ko'plab

olimlar tomonidan qiziqish uyg'atgan bo'lib, jumladan S.G.Vorkachyov "Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа" nomli monografiyasida[3,b 142] tadqiqotning o'ziga xos vazifalari - bu rus ilmiy va lingvistik ongida odamning o'z hayotining muvaffaqiyati va mazmuniga munosabatini tartibga soluvchi ma'naviy mohiyat sifatida baxt tushunchasining lingvultural xususiyatlari va semantik tuzilishini tahlil qilish. M.V.Klarin "На путях познания счастья" kabi maqola ishlarda[4, b 5], Yu.S.Stepanov "Константы: Словарь русской культуры" nomli kitobda[5, b 132] muallif asosan "quvonch" konseptiga to'xtalib, uni etimologik tahlil qilib o'tadi.

Xitoyda "baxt" (五福) tadqiqotining rivojlanishi 1980-yillarda boshlangan bo'lib, chet elda 20 yildan ko'proq vaqtdan so'ng tadqiq etilgan va tez rivojlanib, ko'plab natijalarga erishilgan. Dastlabki, "baxt" so'zi bilan statistikaga ko'ra, shu paytgacha （幸福 haqida）11900 ta ilmiy maqola borligi aniqlangan[2, b 12].

Muvaffaqiyatli hayot yo'li sifatida "baxt" konsepti qadim zamonlardan buyon jamoatchilik ongida mavjud bo'lib, deyarli ko'pgina konseptlarning ham tor ma'noda, ham keng ma'noda komponentlariga "mos"dir[3, b 42] biroq, aynan "baxt" konsepti aniq ichki shaklga ega, baxt haqidagi qarashlar etnomadaniy tarzda belgilanadi va birinchi taxminda bir tsivilizatsiyadan boshqasiga farq qiladi[4, b 26]. Demak, "baxt" konsepti madaniyatning konstanti desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Insoniyat yaralibdiki, baxt nima va unga qanday erishish mumkinligi haqida aniq javob bermagan. Bu ko'p jihatdan insoniyat ushbu murakkab va fanlararo savolga har tomonlama javob berish uchun yetarli ilmiy fundamental ma'lumotlarga ega emasligi bilan bog'liq. XXI asrga kelib, insoniyat ilmiy bilimlarning ulkan to'plami yig'ildi, bu esa inqilobiy kashfiyotlarni amalga oshirishga imkon beradi va ilgari erishib bo'lmaydigan bo'lib tuyulgan narsalar endi haqiqatga aylandi. Shu tariqa, hozirda insoniyatga baxt nima va unga qanday erishish mumkinligi haqidagi savolini yechimiga har qachongidan ham yaqinlashishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Aynan insonni ruhiy holati haqida ham ma'lumot olish mumkin, "Sen baxt deganda nimani tushunishingni ayt, men senga kimligingni aytaman" (Yu.S.Stepanov) degan naql ham bekorga emas. "Baxt - bu biz qila oladigan eng yuqori zavq" deydi ingliz pedagogi va faylasufi Jon Lokk. Falsafa va psixologiya rivojlanish tarixida ham "baxt"ni tushunishga bo'lgan harakatlar hozirda, felisitologiyani (baxtning nazariy va amaliy muammolari o'rganuvchi yo'nalish) paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq, "madaniy va psixologik yo'nalishlarda o'z ahamiyatiga ega bo'lishiga qaramay, "baxt" konsepti tilshunoslik sohasida to'liq qamrovda o'rganilmagan" deydi tilshunos S.G.Vorkachev, biz ham mazkur fikrga qo'shilgan holda, xitoy madaniyatining "baxt" konsepti bilan bog'liq yo'nalishi tahlilini amalga oshirmoqchimiz.

Mazkur maqolamiz doirasida xitoy tili frazeologik birliklarda "baxt" konseptini ifodalanishiga to'xtalib, uni leksik-semantik tahlilini ko'rib chiqamiz.

天下太平 tiān xià tài píng [1, b 54]– **tinchlik va hotirjamlik, dunyo tinchligi**

四大天王俗称四大金刚,是佛教 中的神将。南方增长天王,手执宝 剑,司风;东方持国天王,手执琵 琶,司调;北方多闻天王,手持宝 伞,司雨;西方广目天王,手中缠绕 一龙,司顺。四件法宝寓意为:风调 雨顺,天下太平。

Sì dà tiānwáng súchēng sì dà jīngāng, shì fójiào zhōng de shén jiāng. Nánfāng zēng cháng tiānwáng, shǒu zhí bǎojiàn, sī fēng; dōngfāng chíguótiānwáng, shǒu zhí pípá, sī diào; běifāng duō wén tiānwáng, shǒuchí bǎo sǎn, sī yǔ; xīfāng guǎng mù tiān wáng, shǒuzhōng chánrào yī lóng, sī shùn. Sì jiàn fǎbǎo yùyì wèi: Fēngtiáoyǔshùn, tiānxià tàipíng.

To'rt samoviy shoh, buddaviylikda to'rt oltin ma'budlar nomi bilan tanilgan. Janubda Ceng chang (o'sish, rivojlanish) shohi, qo'lida qilich bilan shamolni boshqaradi. Sharqda Te guo shohi, qo'lida pipa (musiqiy asbob) bilan ohangni, (kuy, sokinlik) boshqaradi. Shimolda Duo wen shohi, qo'lida soyabon bilan yomg'irni boshqaradi. G'arbda Guang mu shohi, qo'lida chirmashib olgan ajdaho, yo'nalishni ko'rsatib turadi. Mazkur to'rt yo'nalish yoki ma'budlar birlashganda, ularning to'rt quroli shamolni sokin, yomg'irni mayin qiladi va osmon osti ham tinchlik, hotirjamlikka erishadi.

Mazkur frazeologik birlikdan bilish mumkinki, hotirjamlik ya'ni ichki va tashqi bir-biriga bog'liq, tabiiy ofatlarning bo'lmasligi, tabiatning o'zaro muvozanati bu ham baxtning bir ko'rinishidir. Darhaqiqat, butun dunyoda tinchlik hukm surishi bebaho baxtdir. Qin liu e (清·刘鹗)ning "Lao Sanning sarguzashtlari" nomli kitobida ushbu frazeologik birlik bilan quyidagi jumla keltirilgan: *人人好公，则天下太平；人人营私，则天下大乱 rén rén hǎo gōng, zé tiānxià tàipíng; rén rén yíngsī, zé tiānxià dàluàn. Har bir inson bag'rikenglik ila harakat qilsa, dunyo ham tinch bo'ladi, agar har bir inson o'z manfaatini ko'zlasa, dunyoda tartibsizlik yuz tutadi[15]*.

天官赐福 tiān guān cì fú - **samo ma'budlarining marhamati, osmon marhamati ila balolardan saqlanish.**

旧俗中有"三官",天官赐福, 地官赦罪,水官解厄。天官又称福 神、福星、福判等。天官一身朝服装 束,五绺长髯,慈眉善目。或手执如 意,或怀抱童子,也有的手托"天官 赐福"的条幅。天官雍容华贵,赐福 于民,很受欢迎。

Jiùsú zhōng yǒu "sān guān", tiān guān cì fú, de guān shè zuì, shuǐ guān jiě è. Tiān guān yòu chēng fúshén, fúxīng, fú pàn děng. Tiān guān yīshēn cháofú zhuāngshù, wǔ liǔ zhǎng rán, címéishànmù. Huò shǒu zhí rúyì, huò huáibào tóngzǐ, yěyǒu de shǒu tuō "tiān guān cì fú" de tiáofú. Tiān guān yōngróng huáguì, cì fú yú mín, hěn shòu huānyíng.

Qadimiy rivoyatlarga ko'ra, uch samo ma'budlari bo'lib, samo ma'budi duo qiladi, yer ma'budi gunohlarni kechiradi va suv ma'budi esa balolardan asraydi. Samo ma'budini yana baxt ilohi, baxt yulduzi, baraka ilohi va boshqa nomlar bilan ham atashadi. Samo ma'budi go'zal kiyimli, uzun soqolli va qoshli, mehrili ko'zlari bilan gavdalanadi. Ba'zida qo 'lida yaxshi tilaklar yozuvini ushlagan holda, ba'zida bola quchoqlab turgan, yoki qo'lida "samo ma'budi marhamati" kabi yozuv bilan tasvirlanadi. Samoviy ma'budlar nafis va dabdabali, xalqni duo qiladilar va xalq orasida juda mashhurdirlar.

Avvaldan ma'lumki, Xitoyda ko'pxudolik bo'lib, insonlar ularni turlicha tasvirlashgan va tasavvur qilishgan. Har bir tabiiy unsurning o'z ma'budalari mavjud va rivoyatlarga binoan, ular ham o'zaro tortishib turishadi. Biroq, agar ma'budlar hamjihatlikda, o'zaro kelishishisa, oddiy xalq ham osoyishtalikka, oxir-oqibatga baxt erishadi kabi qarashlar birlamchi bo'lgan. Yuqoridagi maqolda ma'budlarning insonlarga yordami haqida aytib o'tilgan bo'lib, har biri biror og'irini yengil qilgan. Demak, ma'budlarni rozi qilish baxtli hayotning bir qismi sifatida qaralgan. Xitoy tilida "baxt" iyeroglifida xudolarga qurbonlik keltirish kabi ma'no yotishi bejiz emas.

四海升平 sìhǎi shēngpíng – **tinchlik va farovonlik**

四海,在这里泛指天下。《孟子·梁惠王上》:"故推恩足以保四海。"升平,指太平。《汉书·梅福传》:"使 孝武帝听用其计,升平可致。"图中 海水寓"四海","笙"、"瓶"寓"升 平",合为"四海升平",即天下太平 之意。

Sìhǎi, zài zhèlǐ fàn zhǐ tiānxià."Mèngzǐ· liáng huì wáng shàng":"Gù tuī ēn zúyǐ bǎo sìhǎi." Shēngpíng, zhǐ tàipíng."Hàn shū·méi fú chuán":"Shǐ xiào wǔdì tīng yòng qí jì, shēngpíng kě zhì." Tú zhōng hǎishuǐ yù "sìhǎi","shēng","píng" yù "shēngpíng", hé wèi "sìhǎi shēngpíng", jí tiānxià tàipíng zhī yì.

To'rt dengiz butun dunyoga ishora qiladi (天下 tiānxià butun Xitoy, osmon osti). Mengzining"梁惠王上" kitobida "Shunday ekan, dunyoni himoya qilish uchun yaxshilik kifoya qiladi." Maqolda "sheng ping" aynan "tai ping" ya'ni tinchlik, hotirijamlikni ifodalaydi. Han shuning "梅福传" kitobida quyidagicha misol keltirilgan: "Imperator Syaovu tinchlikni targ'ib qilish uchun o'z taktikasini qo'llashi mumkin edi."Ushbu maqolni surati quyidagicha tasvirlangan "dengiz suvi "to'rt dengiz", "sheng" va "ping" esa "tinchlikning yuksalishi"ni o'zida mujassam etgan bo'lib, ular birgalikda "to'rt dengiz"ni tashkil etadi, bu esa butun dunyodagi tinchlikni anglatadi.

Yuqoridagi maqolga keltirilgan Mengzining ta'rifiga sharhini berib o'tsak: "Demak, ezgulikni targ'ib qilish dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlarning ko'nglini ko'tarish uchun yetarli, agar mehrni targ'ib qilmasang, hatto xotin-bola ham tinchlanmaydi." Ezgu amal ham tinchlik uchun, ham ta'lim-tarbiya uchun xizmat qiladi degan fikrni ko'rish mumkin. Albatta, ezgulik ostida esa hotirijamlik va tinchlik yotadi. Maqolda baxt bu tinchlik, baxt bu ko'ngil hotirijamligi va ezgu amal ekanligiga ishora qilinmoqda.

Shu bilan birga maqolda keltirilgan *天下 tiānxià* so'zi nafaqat butun dunyo, osmon osti bal'ki butun Xitoy ya'ni rus tilidagi "поднебе́сная[2]" so'zini ifodalaydi.

Maqola doirasida keltirilgan maqollarda asosan tinchlik, ko'ngil hotirijamligi, sokinlik kabi baxtni tashkil qiluvchi subkonseptlar ifodalangan. Darhaqiqat, har bir inson "baxt"ni o'zicha, dunyoqarashidan kelib chiqqan holda tushunadi, ya'ni qaysi subkonsept ma'lum bir shaxs hayotida birlamchi bo'lsa, u uchun asosan usha baxt hisoblanadi. Biroq, obyektiv jihatdan barcha uchun asosiysi bu tinchlik va hotirijamlik bo'lib, so'ngra yana boshqa subyektiv omillar qo'shilishi mumkin.

Xulosa. Rus tilshunosi A.E. Ogneva, "Концепт «счастье» как аттрактор позитива в когнитивно-дискурсивном пространстве социума" nomli maqolasida "baxtga bo'lgan munosabat bu insonning ma'naviy mohiyatini belgilovchi xususiyatlaridan biri, u haqidagi g'oyalar, fikrlar dunyoqarashning eng qadimiy qatlamini tashkil etib, baxt tushunchasi bilan birga yaxshilik, o'lim, sevgi va xohish-istak kabi tushunchalar shaxsiy ongning aksiologik maydonini tashkil etadi " degan fikrni aytib o'tadi. Demak, baxt bu nafaqat subyektiv, inson o'z holatidan kelib chiqib baxtni his qilishi, bal'ki boshqalarni baxtini ko'rib, quvonishdir.

[2] Поднебе́сная — китайский термин, который использовался для обозначения всего мира, а позднее территории, на которую распространялась власть китайского императора, https://ru.wikipedia.org.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak:

- "Baxt" metafizik konseptlar qatoriga kiradi va uni har bir inson o‘zicha tushunadi, tasavvur qiladi. Aynan shu sababdan ham hozirgacha uning yagona bir formulasi yoki ta'rifi keltirilmagan;
- Aynan baxtni ham falsafiy, ham lingvistik nuqtai nazardan o‘rganishlar natijasida baxtning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganuvchi yo‘nalish felisitologiya yuzaga keldi;
- Xitoy tilida baxt konsepti o‘z ichiga uzoq umr ko‘rish, martaba, quvonch, boylik va omad supkonseptlari bilan bir qatorda tinchlik va farovonlik kabi subkonseptlarni ham oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.黄全信，中华五福吉祥图典，华语教学出版社, – 北京 2003., – С.245.
2.近年来关于幸福感研究的文献综述 李立 中南民族大学 民族学与社会学学院,武汉-2013.
3. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа-Краснодар КТУ, 2002.-142 с.
4. Кларин М.В. На путях познания счастья (вступительная статья) // Аргайл М. Психология счастья. М., 1990. С.5-26.
5. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры – М. : Академиче-ский проект, 2004. 992с
6. Кубрякова Э.С. Об установках когнитивной науки и актуальних проблемах когнитивной лингвистики// Вопросы когнитивной лингвистики.-Москва,2004.-С.10-14.
7. Кубрякова Е.С. Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов. -М., Изд-во Моск. Ун-та, 1997. –С 90-93
8. Попова З Д. Стернин И.А. Язык и национальная картина мира - Воронеж: Истоки, 2002 - 60 с
9. http://www.dslib.net/soc-filosofia/socialno-filosofskij-analiz-fenomena-schastja.html
10. Nasirova, S. A. (2020). Concepts of 中国 梦想" Chinese dream" and 类 命运 共同" community of the one fate of humanity"–A linguistic area. *Journal of Central Asian Social Studies*, *1*(01), 05-14.
11. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). The influence of the political system of china on the formation of social and political terminology. *Journal of Central Asian Social Studies*, *2*(04), 10-17.
12. Насирова, С. А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. In *Китайская лингвистика и синология* (pp. 384-387).
13. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). Features of forming of animated nouns with the affixes in modern chinese language. *Journal of Central Asian Social Studies*, *2*(04), 1-10.
14. Ошанин И. М. (ред.) Большой китайско-русский словарь.Т. 1-4. М.: Наука, 1983-1984. – С.1062.
15. Китайско-русский словарь /Сост. Фу Чонг. – Шанхай, 2004. – 1249 с.
16. http://xh.5156edu.com/html5/79339.html
17. http://chengyu.t086.com/c_b4f4
18. https://ru.wikipedia.org.

UO'K 808.3

XX ASR O'ZBEK HIKOYA VA QISSALARINING INGLIZ TILIGA TARJIMALARIDA BADIIY MAHORAT MASALALARI

N.A.Xalimova, mustaqil izlanuvchi, "Ipak yo'li" turizm va madaniy me'ros xalqaro universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr o‘zbek hikoya va qissalarining ingliz tiliga tarjima masalalarida milliy xos so‘z va kolorit tushunchalarini tahlil qilish orqali, milliy xos so‘z va badiiy mahorat masalalarini o'rganish xususida fikr mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *tarjima nazariyasi, badiiy mahorat masalalari, kolorit tushunchasi, tarjimon, o'zbek adabiyoti, adabiy til*

Аннотация. *В данной статье рассматривается изучение национальных слов и художественных приемов путем анализа концепций национальных слов и оттенков в переводе узбекских рассказов и повестей XX века на английский язык.*

Ключевые слова: *теория перевода, художественные приемы, понятие оттенка, переводчик, узбекская литература, литературный язык.*

Abstract. *This article discusses the study of national words and artistic skills by analyzing the concepts of national words and colors in the translation of twentieth-century Uzbek stories and narratives into English.*

Keywords: *translation theory, artistic skills, the concept of colorit, translator, Uzbek literature, literary language*

Tarjima-millatlar orasida bevosita ma'naviy aloqa qilish vositasi. Chunki u madaniy boyliklar, kishilarning ko‘p asrlik ezgu armonlari, g‘oyasi va qarashlari mujassamlangan asarlarni o‘zga til sohibi bo‘lgan xalqqa yetkazadi. Shuning uchun ham "Ijodkor va tarjimon oldida bevosita o‘zi yaratayotgan kitobning matni ustida ishlash qiyinchiligidan tashqari, yana katta qo‘shimcha mehnat qilish – xorijiy adib ijodi, u yashagan tarixiy davr kabilarga doir barcha ilmiy va adabiy manbalardan xabardor bo‘lish talab qilinadi." Tarjimon har ikkala tilni chuqur bilishi lozim. Lekin, til bilish deganda faqat grammatik qonun

qoidalarni yaxshi bilish nazarda tutilmaydi. Adabiy tildan tashqari, xalq jonli tilini chuqur his qilish, ekstralingvistik omillar–lug'at va grammatikada ko'rsatilmaydigan turmush hodisalari, xalqning tarixi, urf-odatlaridan ham xabardor bo'lishi lozim.

O'zbek adabiyoti namunalarining xorijiy tillarga tarjima qilish jarayonida milliy xos so'zlarning berilishi bilan bog'liq muammolarni aniq badiiy asarlar misolida alohida ko'rib chiqish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. "Asarning milliy o'zgachaligini namoyon etuvchi xos so'z (realiya)lar va ularning badiiy tarjimada berilishi tarjimashunoslikning muhim masalalaridan hisoblanadi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq hech bir tadqiqot mavzusi xos so'zlarning tarjimada berilishi muammosini chetlab o'tmagan."[1] Avvalambor, "Kolorit" terminining kelib chiqishi haqida tilshunos olimlar fikrlarini ko'rib chiqamiz. Har doim ham olimlar fikrlari bir biriga mutanosib kelavermaydi. Xususan G'.Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari"kitobida kolorit termini haqida turlicha mulohazalar taqdim etilgan. Unga ko'ra O.Usmonov va R.Doniyorovlar talqinida kolorit terminini bo'yoq, rang, ma'nosini anglatib lotincha color, italiyancha colorito so'zi orqali rus tiliga, u tildan bevosita o'zbek tiliga kirib kelgan.

"O'zbek qomusida mazkur terminning tasviriy san'atda va badiiy adabiyotda anglatgan ma'nolari aks ettirilgan. Chunonchi, tasviriy san'atda (kartina, freska, mozaika, rangli gravyura) real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligi tushuniladi. Kolorit (rang, bo'yoq) asarning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq bo'lib, san'atkor ifodalamoqchi bo'lgan g'oya va badiiy obrazni yaqqolroq ko'rsatishga xizmat qiladi. Uy-niyat, g'oya, muddaoni ifodalashda, obrazni gavdalantirishda bo'yoqlarga alohida e'tibor beradigan san'atkor kolorist-rassom deb ataladi (U.Tansiqboyev, Ch.Ahmarov va b.). Bu terminning ikkinchi ma'nosi biron narsaning o'ziga xos tomonlari majmuini anglatadi. Masalan, badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma'lum joyning o'ziga xos jihatlari ifodasi. O.S.Axmapovaning "Lingvistik terminlar lug'ati"da kolorit badiiy asarning o'ziga xos xususiyati, personajlarning nutq xarakteristikasi sifatida ta'riflanib, ularning nutqida biron davr tilidan yoki shevalardan olib o'zlashtirilgan tilning o'ziga xos belgilari, biron mamlakat yoki joyning xos tushunchalari (realiya) majmuidan iborat, deb ko'rsatiladi. Jumladan, sharq koloriti, yevropa koloriti va mahalliy koloritga doir so'z va istilohlar misol tariqasida keltiriladi."[2]

"Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xoslikdir. Badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda milly kolorit deb ataladi. Milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atamalar realiyalar boshqacha qilib aytganda milliy xos so'zlar deyiladi. Realiya lotincha so'z bo'lib, buyumga, narsaga oid degan ma'noni bildiradi. Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi". Bir xalqqa xos bo'lgan narsa, tushuncha yoki hodisani ifodalaydigan so'zlar asarda tasvirlayotgan personajlarning moddiy-ma'naviy hayotini haqqoniy, milliy shaklda bayon qilish imkoniyatini beradi. Boshqacha aytganda, bu so'zlar badiiy asarning tarixiy va milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bunday so'zlarni tarjimada aynan o'zidek talqin qilish asl nusxa milliy xususiyatini o'zga tilda qayta tiklashdek murakkab hisoblanadi. Chunki bunday hollarda tarjimon oldida o'z xalqi uchun notanish, binobarin, nomlari ham tilida mavjud bo'lmagan narsa, tushuncha va hodisalarni kitobxonga to'la-to'kis yetkazib berish vazifasi turadi.

"Bolgariyalik tarjimashunos olimlar S.Vlaxov va S.Florin realiya deb narsalar tushunchalar, voqea-hodisa geografik muhitga xarakterli, madaniyat, moddiy va maishiy turmush yoki xalqlar, millatlar, yurt kabilarning ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarini bildiradigan xalq tilidagi so'z va so'z birikmalarini aytadi."

Qudrat Musayev "xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so'zlar deyiladi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi" deb hisoblaydi.

Shuningdek, "tillar orasidagi tafovut esa odatda bir xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlarning ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy ravishda yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy ekvivalentlik munosabatida bo'lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror xususiyatlari bilan o'ziga xos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu hol til birliklarining milliy xususiyatini belgilash baravarida ularning tarjimada o'zaro almashinuvlariga to'sqinlik qiladi."

Abdulla Qahhor hikoyalari mavzu jihatdan rang-barang bo'lishiga qaramay, tasvir usuliga ko'ra ikki yo'nalishga egadir. Bu yo'nalishining birinchisini realistik hikoyalar, ikkinchisini hajviy xarakterdagi hikoyalar tashkil etadi.

Adibning o'tmish mavzusiga bag'ishlangan "O'g'ri", "Bemor", "Anor", "Dahshat" kabi hikoyalari birinchi yo'nalishga mansub hikoyalar hisoblanadi. Biroq bu hikoyalarda ham yozuvchi ba'zi qahramonlar xarakterini yaratishda satirik va yumoristik unsurlardan unumli foydalanadi. Yozuvchi o'tmish mavzusini qalamga olar ekan, davr fojeasini xarakterli, ixcham detallar orqali yoritishga asosiy e'tiborni qaratadi. Yozuvchining mahorati shu ixcham detallar orqali hajman katta bo'lmagan hikoyalarda o'tmishning o'ziga

xos xususiyatlarini ochib bergan. Bu esa tarjimonlar ishini qiyinlashtirgan. Chunki Abdulla Qahhor tarjimoni asarni to'laqonli qayta yaratish uchun muallifga teng qobiliyat va iste'dodga ega bo'lishi kerak edi. Hatto asliyat tilini mukammal bilish, muallif mansub bo'lgan xalqning milliy o'zgachaligi, urf-odatlaridan yaxshi xabardorlik har doim ham tarjimaning mukammal bo'lishiga kafolat bo'la olmaydi.[3]

XX asrning 60-70-yillarida o'zbek adabiyotida shuhrat qozongan yozuvchilardan yana biri O'tkir Hoshimovdir. U nafaqat hikoya janrida balki , roman, qissa va drama janrlarida ham barakali ijod qilgan. Uning " Urushning so'nggi qurboni", "Muhabbat" kabi hikoyalari o'quvchilar orasida mashhurdir. O'tkir Hoshimov ijodining boshlang'ich davrlaridayoq , uning ijodini Abdulla Qahhor tanqidchi va hikoyanavis sifatida e'tirof etadi. Uni ijodidagi yutuqlari bilan tabriklab, unga o'zining tabrik maktubini yo'llaydi. Shu o'rinda "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasiga to'xtalib o'tsak, bu hikoyani o'qimagan odam ushbu hikoyaning nomini eshitib, albatta, ko'z oldiga jahon urushi, jang maydoni, jangda qurbon bo'layotgan askarlarni keltirishi mumkin. Ammo, u hikoyaning asl mohiyatini uni o'qib chiqqanidan so'nggina anglab yetishi mumkin. Bu hikoyada, umuman, jang maydoni askarlar haqida gap bormaydi, yozuvchi hikoyasi orqali urushning salbiy oqibatlarini yoritib berishga harakat qiladi. Urush jamiyatga, ijtimoiy tuzumga, hattoki, oila ahilligiga ham putur yetkazishini ko'rsatib o'tadi. Urush oqibatida yuzaga kelgan yo'qchilik odamlarni qay ahvolga solayotganligi haqida hikoya qiladi. O'g'il o'zi bilmagan holda o'z onasining qotiliga aylanib qolishi va shu kuni urushning ham tugashi bilan hikoya fojeaviy tarzda yakun topadi. Shu bilan birga yozuvchi urushning insonlar hayotida qanchalik fojeali iz qoldirishi mumkinligini ko'rsatmoqchi bo'lgan va u o'z maqsadiga erisha olgan. Ushbu hikoya O'tkir Hoshimovning eng ta'sirli, mashhur hikoyalaridan biri hisoblanadi. O'tkir Hoshimov shu singari hikoyalari bilan o'zbek adabiyotida hikoya janrining rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan. Bu kabi hikoyalardan tashqari O'tkir Hoshimov yana "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", " Tushda kechgan umrlar " nomli romanlari, " Odamlar nima derkin ", " Shamol esaveradi ", " Ikki karra ikki besh ", " Bahor qaytmaydi " " Dunyoning ishlari " nomli qissalari hamda " Qatag'on ", " Inson sadoqati", " To'ylar muborak " kabi dramalari bilan ham mashhurdir.

O'tkir Hoshimov qatorida shuhrat qozongan hikoyanavislardan yana biri Shukur Xolmirzayevdir. U o'zining bir qancha hikoyalardan tashkil topgan " Olis yulduzlar ostida ", " Hayot abadiy ", " Og'ir tosh ko'chsa… " kabi hikoyalar to'plamlari bilan tanilgan. Bundan tashqari uning " Oq otli ", " O'n sakkizga kirmagan kim bor? " kabi qissalari, " So'nggi bekat ", " Qil ko'prik ", "Yo'lovchi" Olabo'ji " kabi romanlari va boshqa shu kabi ko'plab asarlari mavjud. U o'zining talabalik davridayoq, ilk asarlari chop etilgan paytlardayoq, Abdulla Qahhor nazariga tushadi va u Shukur Xolmirzayevni ijodidagi ilk yutuqlari bilan tabriklaydi. Sh. Xolmirzayev o'zining yuqorida nomi keltirib o'tilgan asarlari bilan o'zbek adabiyotining yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Uning boshqa hikoyanavislardan ajralib turadigan jihati shundaki, ustozi Abdulla Qahhordan so'ng hikoya janrini yanada yuqori bosqichlarga ko'tardi. Shukur Xolmirzayev hikoya to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini o'zining turli maqolalarida bildirib o'tgan. Jumladan, bir maqolasida hikoya yozish hikoya haqida maqola yozishdan osonroqdir, deb yozadi: " Chamasi, hikoya haqida yozishdan ko'ra, hikoyaning o'zini yozish qiyin emas ekan, sababi – hikoyangdagi qahramonlar ham, ular xatti-harakati, ana shu harakatdan kelib chiqadigan ma'no ham o'zingniki bo'ladi, bularning hammasi, Annenkov aytmish, "qanoting ostida" turadi. Yozganda ham, yozayotganda ham o'zingni erkin his etasan, nafsilambiri, ruslar " kitob o'zi uchun o'zi javob beradi " deganlaridek, hikoyaning o'zi ham har bir asar kabi o'ziga xos bir olam, sen-yozuvchi- ana shu olam ustida turib, undagi o'zing bino etgan sarguzashtlarni, Flober aytmish " insonlar taqdirini kuzatuvchi xudo singari kuzatasan ", lekin albatta, ular ishiga hadeb bosh suqavermaysan.

Lekin hikoya haqida maqola yozish qiyin ekan, chunki yozganingda beixtiyor uning qonun-qoidalari, vazifasi va o'ziga xos xususiyatlari haqida ham so'zlash lozimligini sezasanki, ana shunday qonun-qoidalarni ko'p eshitgan, ko'p o'qigan, ba'zi tanqidchilar qulog'iga quyaverib, ko'nglini bezillatib qo'ygan ba'zi kishilar oldida, hatto durust-durust yozuvchilar oldida ham, xijolat tortishingni his etasan… Boshqalarni bilmadim-u, lekin men " hikoya haqida " deb sarlavha qo'yishim bilan dilimda mana shunaqangi andishalar paydo bo'ldi…" Yozuvchining mana shu fikrlaridan ham uning qanchalik mahoratli hikoyanavis bo'lganligini va janrga munosabatini bilishimiz mumkin. Maqolasida u o'zining hikoyanavis bo'lib yetishishiga sababchi bo'lgan buyuk klassik hikoyanavislarni ta'kidlab o'tadi. Ular rus adabiyotida Chexov, ingliz adabiyotida Jek London, hind adabiyotida Tagor va o'zbek adabiyotida Abdulla Qahhordir. Mashhur adiblarning hikoyalari Sh. Xolmirzayevda katta taassurot qoldirgan. U ushbu yozuvchilarning asarlarini o'qib, ulardan o'rganib va ilhom olib hikoyanavis sifatida shakllanib borgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan hikoyanavislar 20-asr o'zbek adabiyotida hikoya janriga asos solgan hamda uni taraqqiy toptirgan yozuvchilardir. Hozirgi kunda ham, ya'ni 21-asrda ham hikoya janri rivojlanishda davom etmoqda. Bugungi kun hikoyanavislari O. Muxtor, N. Aminov, S. Siyoyev, F. Musajonov, X. Sultonov, E. A'zamov, N. Eshonqulov, Sh. Bo'tayev va boshqalardir.

Xulosa qilib aytganda, keyingi paytlarda tarjima ishi keng rivojlanib borayotganligi, amaliyotda esa aksincha, badiiy tarjima masalalari kam o'rganilayotganligi, o'zbek adabiyotidan xorijiy tillarga, chet el adabiyotdan o'zbek tiliga tarjimalar chop etilishi dolzarb masaladir. O'zbek xalqi tarixiga oid yozma manbalar ko'pgina xorijiy tillarga tarjima qilingan. Biroq ushbu tarjimalarda kamchiliklar, ma'noni noto'g'ri talqin qilish kabi nuqsonlar uchrab turadi. Bu esa muammoni yechimini topishga yangicha yondashishni taqozo qiladi.[4] O'z ma'naviy merosimizni o'zimiz o'rganib idrok etib qolmay, balki o'zga millat va elatlarning tariximiz, adabiyotimizga qanday munosabatda bo'lganini va bu munosabatlar hozirda qanday tus olganini bilishimiz, o'rganishimizga to'g'ri keladi. Shu maqsadni amalga oshirishda O'zbek hikoya va qissalarining ingliz tiliga qilingan tarjimasini qiyosiy o'rganish zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan hikoyalar asosida tarjima nazariyasining milliy xos so'z va kolorit tushunchalarini tahlil qilish orqali, milliy xos so'z va badiiy mahorat masalalarini o'rganish, o'zbek xalqining ruhiyatini, adabiyotini, o'ziga xos tomonlarini, tilning nozik jabhalarini tushunib yetishimizda birlamchi o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Саломов Ғ. Бадиий таржимада услубий-миллий ўзига хосликни қайта яратиш проблемаси//Таржима санъати. Мақолалар тўплами. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
2. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. –Тошкент: Фан, 1980.
3. Саломов Ғ. Тил ва таржима. –Тошкент:Фан, 1966.
4. Саломов Ғ. Рус тилидан мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. –Тошкент: Фанлар академияси нашриёти,1961.
5.www.arxiv.uz
6.www.ziyonet.uz

UDC: 81 23:398.9

THE NOTION OF NICKNAMES ARE AS AN ANTHROPONOMICAL UNIT IN ONOMASTICS OF THE UZBEK LANGUAGE

Sh.X.Xusinova, Teacher,Urgench State University, Urgench

Аннотация. *Мақолада ўзбек тилида 'лақаб' тушунчасининг ифодаланиши акс етган. Лақаб атамасининг лингвокултурологик хусусиятлари иккала тилда таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *лингвокултурологик жиҳат, етакчи ғоя, ономастика ,диалект, ўхшатиш.*

Аннотация. *В статье описывается понятие «прозвище» в узбекском языке. Анализируются лингвокультурологические особенности прозвищного термина в обоих языках.*

Ключевые слова: *лингвокультурологический аспект, ведущая мысль, ономастика, диалект, аналогия.*

Abstract. *The article demonstrates the representation of 'nicknames' in the the Uzbek language. Linguoculturological aspects of nicknames are analyzed in the Uzbek language.*

Key words: *nicknames, linguoculturological aspect, onomastics, dialects, imitaition*

Introduction. Current linguistics is being investigated deeply than ever. Being involved in this sphere onomastics is one of major direction namely nicknames in both Indo-European and Turkic languages. Majority of researches have been done on nicknames and express the term nicknames are "additional name", "surname", "nickname", "secondary name", "second name of the person". In fact, what is the meaning of a nickname? What exact explanation was given to the term? Aforementioned questions may be given in any thinking mind. The first people who studied the material of nicknames were historians and ethnographers. Both of them explained the essence and function of the nickname in a different way. **Literature review**. By the Uzbek linguist Ernst Begmatov nickname explained as following "A nickname is a name given to a person according to his appearance or character, a certain sign or trait, his social status or lineage furthermore nicknames are also names". Turning to other ideas about nicknames which given by another linguists. According to Propin G.P Russian linguist "A nickname is a name that expresses different characteristics of a person." Another linguist Chobanov M.N defined "A nickname is a word given to a person at different times in his life by people to refer to different characteristics and qualities of a person." A person is known and distinguished by a circle of people with this name. As a result of investigating Alisher Navoi works it should be noted that the word "nickname" is not used in the dictionary of Navoi works, its plural form is *alkab* in Arabic, which is interpreted as "nicknames, names". There is given a simple explanation, "alqob" - 1) names, nicknames; 2) praising and giving compliment. It should be clarified from aforementioned definition of nicknames; following features are taken into account in the definition of a nickname:

- A nickname is also a person's name, it is attached to the person's name;
- A nickname is an additional name given to a person;

- Nickname also means pseudonyms , surname, title;
- Nicknames are given name therefore it is considered as a unit of anthroponomy;
- The nickname refers to a physical, mental, mental talent and profession of its owner, his behavior among people, and a positive or unnatural behavior.
- The nickname is as old as the name in some sources it is older than names.
- A nickname is a name given to a person as a joke
- A nickname is an unofficial name of a person. He lives in more vernacular languages, dialects and dialects.
- Nicknames can be known in a narrower sense among family members, community circle, giver of the nicknames;
- Nicknames can be alive until peoples real name became popular

Research methodology. We used the methods of comparison and description. We have selected Uzbek texts based on textual sources. Current research is regarded as exploratory research and it intends to explore the main aspects of under-researched nicknames which are included in public folklore. Qualitative analysis method helped to collect information for our research.

Analysis and results. Mostly majority of researcher classify nicknames according to their data collection on their hand. Each researcher divides the nicknames into specific groups based on the available material at hand, following their own point of view. From our perspective before classifying nicknames into different groups, it is preferable to divide them into two major groups: Original and relative nicknames. Based on the materials we have investigated, we consider it appropriate to classify as follows:

Original nicknames that motivate a person's physical disabilities.

1. Nicknames with motive deficiencies: Mamatsakov (Payariq), Otajonmanqa (Qarnoq), Avazmuradsakov, Bobosakov (XDH).

2. Original nicknames with hearing impairments: Sadangarang (Qarnoq), Hoshirmat garang (Qarnoq), Jumankar(XDH).

3. Deficiencies in vision: Abdullaso'qir , Saribosh g'ilay, Shomil g'ilay(Shaytanat Toxir Malik)

4. Original nicknames that refer to a person's physical appearance, certain traits and characteristics in their body. There are two such nicknames has the same feature: indicates the presence or absence of a certain sign. However, both are considered negative features: nochva,uzun, qovoq, bo'chka, so'mpi, tayoq. For example: Badal novcha (G'.G', 111,199); Ibrohim uzun (XDH, 383); Nicknames referring to a feature and character associated with a person's appearance. This group of nicknames has two different meanings however has a weakness which indicates the excess or deficiency of a particular character in the nickname holder. But in both cases it is mainly regarded as a defect (fault).

5. Physical deficiencies associated with other diseases: *bald-kal шилик, қўтир,* scurvy, scabies, others. For example:Anvar cho'tir, Khudoyberdi buqoq (B-noma, 11, 169-6.); Anjuman kal (XDH, 381, 380).

6. A group of signs refers to the signs of excess or defect in the human body: *ko'sa ,puchuk, burun , kalla , mo'ylov*. For example: *Po'lat cho'tir askiyachi*

7. Nicknames associated with various other defects: oqoq, cho'loq, chapakay. Nicknames that describe a person's color, appearance: yellow, yellow, black, red, brown, and so on.

II. Nicknames that deal with typical features of a person's character and behavior. This group of nicknames is colorful, depending on the character of the person, his behavior; his attitude to the person can embody characters from the most delicate aspects to the most rugged, awkward features.

III. Imitation nicknames. There exist very interesting nicknames in the language which denote the character and behavior of a particular person, morality and its features in particular plants and certain type of animals characteristics are imitated according to certain behavior of people physically and mentally. A nickname is the name of an object that is being simulated occurs by naming by giving a ratio. For this reason, it is appropriate to call such nicknames imitating nicknames. Followings are might be good example for this notion : chelak, sichqon, shag'al, supurgi, tulki, chumchuq, taka and etc.

IV. Relative nicknames are connected with person's daily work or profession which can be permanent and basic occupations furthermore qualifications in a particular field. Adding to the name of what profession or occupation the person is engaged in, what field he is an expert in his profession was named after his craft. The name of such a person's occupation comes in place of the nickname. In semantics last expressed nicknames in person's physical and mental disability which express such things as laughter, ridicule, discrimination against him, on the other hand the profession represents the positive features of the given nicknames. So it is clear professional nicknames are positive ones than defects. They will have the ability to praise, glorify, and praise the person. Professional nicknames refer to a person's daily occupation. For

example: bo'g'bon,zargar, nonvoy,temirchi, oshpaz ,tegirmonchi, sartarosh, usta, suvchi, aravakash,misgar, bo'zchi, kassob and others.

Conclusion. In our native language nicknames show that importance in our daily life. Nicknames examples are illustrated with linguoculturological elements. These elements show Uzbek mentality, national identity and values, culture and way of thinking. Without any doubt nicknames are considered as inseparable unit of naming people in onomastics in Uzbek folklore. As a result of learning nicknames learner can get deep comprehension about certain culture.

REFERENCES:

1. Ernst Begmatov . O'zbek tili antroponomikasi. Toshkent. 1965, 46-bet
2. Propin G. О некотором особенностях собственных личных имен русском языке //Учение эаписки Иркутского гос.пед.инст. Вмп 4. Иркутск, 1961;
3. Chobanov M.N. Основа азербайджанской антропонимики. С. 28.
4. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 2-tom. Toshkent: Fan, 1983- 171-bet.
5. Abdulla Qodiriy . Obid Ketmon. Toshkent. 1959.199 bet
6. Zahiriddin Muhammad bobur. Boburnoma. Toshkent: Fan, 1983- 75-bet.
7. Xiva davlat hujjatlari .1-tom. Izohlar. Toshkent: O'zFanA nashiryoti,1960 313-374-betlar;

УЎК 808.3

СОНЕТДА ОБРАЗ НАМОЁН БЎЛИШИ

Н.Абдуллаева, катта ўқитувчи, ЎзМУ, Тошкент
Ф.Рахмонова, катта ўқитувчи, ЎзМУ, Тошкент

Аннотация. *Ушбу мақолада сонет жанрининг вужудга келиши ва ривожланиши ва унинг асосий жиҳатлари, муайян лирик жанр сифатидаги муаммолари кориб чиқиладии.*

Калит сўзлар: *Таржима, эртак, достон, мақол, ғазал, туюк, рубоий сонет, образ.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены появление и развитие жанра сонет и его основные аспекты, проблемы как спецефического лирического жанра.*

Ключевые слова: *Перевод, сказка, эпос, пословица, газель, туюк, рубайи, сонет, образ.*

Abstract. *This article discusses the emergence and development of the sonnet genre and its main aspects, problems as a specific lyrical genre.*

Keywords: *Translation, fairy tale, epic, proverb, gazelle, tuyuk, rubaiyat, sonnet, image.*

Ҳеч бир адабий жанр адабиётшуносларнинг тавсияси асосида пайдо бўлган эмас. Эртак, достон, мақол ҳам, ғазал, туюк, рубоий ҳам узоқ даврлар мобайнида шаклланган. Нафақат Шарқ, балки Ғарб адабиётидаги жанрлар ҳам шу тариқа вужудга келган. Сонет, ода, драма, комедия, трагедия жанрларини бирор адабиётшунос кашф этмаган. Адабиётшунослар бор – йўғи мавжуд асарларга хос хусусиятларни аниқлаштириб, умумлаштирган, холос. Жанрлар узоқ асрлар давомида турли элларда, турли тилларда юзага келган. Шарқ ва Ғарб адабиётидаги жанрларнинг ўзаро муштарак жиҳатлари шундан далолат беради. Шарқ адабиётидаги ғазал, рубоий, туюқнинг ҳам, Ғарб адабиётидаги сонет, оданинг ҳам ўзига хос "қолип" и мавжуд. Бу жиҳатдан ғазал ва сонет орасида умумий ўхшашлик сезилади. Демак, ғазалнинг пайдо бўлганига минг йилдан ошган. Сонет эса ўн учинчи аср бошларида Италияда мустақил шеърий жанр сифатида юзага келган. Сонет ўн тўрт мисрали – иккита тўртлик ва иккита учликдан иборат шеърдир. Сонетда мисралар, албатта, ўн бир бўғинли бўлиши ва а-б-б-а, а-б-б-а, в-в-г, д-г-д тарзида қофияланиши шарт. Ғазал эса биринчи байти ўзаро қофиядош, кейинги байтларининг иккинчи мисраси биринчи байтга қофиядош шеър шаклидир. Аён бўладики, ғазал ҳам, сонет ҳам қатъий шаклга асосланади.

Ҳар бир шеърий шакл поэтик образнинг ёрқин ва яхлит чиқишига ёрдам берадиган имкониятларга эга. Шу жиҳатдан қаралса, сонет жанри алоҳида ажралиб туради. Сонетга қўл урган ижодкор ўзи яратаётган образнинг ғоявий-бадиий салмоғини тўлиқ сақлаган ҳолда унинг ёрқин ва яхлитлигини ифодалашга ҳаракат қилади. Ҳалима Худойбердиева сонетлари ана шу жиҳатдан диққатга моликдир.

Маълумки, сонет тезис ва антитезис ҳамда синтездан иборат структура асосида ташкил топади. Поэтик структуранинг мана шундай тартибда барқарор сақлаган ҳолда образнинг яхлитлигини, унга хос хусусиятларни ёрқин ифодалаши жиҳатидан сонет яратиш ижодкордан катта маҳорат ва ўткир поэтик дид талаб этади. Ҳ.Худойбердиева ўз сонетларида бунга эришган, деб бемалол айтиш мумкин.

У сонетларининг бирида ошуфта қалб эгасининг ҳаловатсиз кечаётган умрини икки шўхчан кўз мисолида ифодалашга ҳаракат қилади. Айни пайтда икки шўхчан кўзнинг тун оғушида чақнаган юлдузларга менгзалиши поэтик образнинг ёрқин чиқишига имкон берган. Сонетнинг тезисида

шоира образнинг шеърхон тасаввурида яратилажак қиёфасини мана шу тариқа ёрқин чиқишига эришади:

Ойдин кеча. Юлдуз милтирар,
Ойдин кеча. Чарақлар само.
Жуфт шўхчан кўз мени ўлдирар,
Яна ўзи тирилтар аммо. [1]

Аммо образнинг барча қирралари шоира наздида етарли эмас. Шу боис, у сонетнинг иккинчи бандини ҳам тезисни кучайтирувчи ёрдамчи тезис сифатида келтиради. Унда лирик қаҳрамоннинг икки шўхчан кўздан айрича яшай олмаслиги ифодаланган. Айни пайтда лирик қаҳрамон ўзи мубтало бўлган дарддан фориғ бўла олмаслигидан шикоят қилади. Кўриниб турибдики, икки шўхчан кўздан айрила олмаслик, унга ошуфталиқдан қутула олмаслик каби кечинмаларни айтиш орқали севишган дилларнинг бедаво дардга чалинганлигини эътироф этади. Бу нарса образнинг барча хислатлари мужассамлашган ҳолда яхлит чиқишига олиб келган:

Севмасам гар улар боққан тоб,
Оғир гуноҳ, кўзга қўнгай гард.
Севсам бўлмас ўтига чидаб,
Оҳ, ўртоқжон, бу қандайин дард?

Юқорида келтирилган иккита поэтик тезисда ошуфталик ва унга хос руҳий ҳолатлар ифодаланган бўлса, поэтик антитезисда лирик қаҳрамон икки шўхчан кўздан кечиб, кеча олмаслигини, кечмаса, бир азоб, кетса минг азобга қолишини сонетга хос ёрқинлик билан ифодалайди:

У чақнаса менга тинчлик йўқ,
У чақнаса дудсиз куяман.
Чақнамаса мен ғамга тўлиқ,
Чақнамаса қора кияман...

Сонетнинг тезис ва актитезисида ошуфта юракнипнг аросатдаги ҳолати ифодаланган бўлса, унинг синтезида бундай ҳолат севишган ҳар бир юрак учун абадий ва барқарор эканлиги эътироф этилади:

Кўкда юлдуз маъсум милтирар,
Пастда жуфт кўз мени ўлдирар...

Мазкур синтезнинг моҳияти шундаки, кўкда юлдузнинг маъюс милтираши кишини ўзига қанча мафтун этса, ердаги шўхчан кўз ҳам ошиқни ўзига шунча жалб этади. Мана шу тариқа бутун сонет поэтик структурасида ошуфта қалбнинг беҳаловатлиги, мафтункорлиги тугал ифодасини топган. Сонетга хос поэтик образнинг ёрқин ва яхлит чиқиши бутун асар давомида юзага чиқади. Ундаги ҳар бир поэтик тафсил, чизги образ қиёфасини тўлақонли чиқишига хизмат қилади.

Поэтик образнинг шеърхон тасаввурда ёрқин ифодаланиши унинг яхлитлигини англатади. Бу нарса барча поэтик жанрлар учун етакчи хусусият ҳисобланади. Лекин образнинг сонетга хос яхлитлиги шу билан белгиланадики, унда образ сонет жанрининг мураккаб бадиий структурасида туғилиши шарт. Демак, сонет яратиш учун ижодкор воқеликни ана шу жанрнинг нигоҳи билан қабул қила олиши лозим. Бунда у ўз кечинмаларини сонетга хос композиция, поэтик структура орқали ифодалай олиши зарур. Ҳ.Худойбердиева бу жиҳатдан жанрнинг барча поэтик талабларини мукаммал ўзлаштириб олган. Унинг қуйидаги сонетида ноумид кетган ошиқдек кечирим сўраш мотиви етакчилик қилади.

Сонетнинг поэтик тезисида лирик қаҳрамон ўзининг хатти-ҳаракатларини оқлашга интилади:

Мен Сиздан сўрайман бу кеч кечирим,
Ҳижрон бўлганим-чун, бўлмайин висол.
Гарчанд умрингизнинг тонги, кечини –
Аралаш қилдим мен карталар мисол. [1]

Биров унинг узрлари камлик қилгандек туюлади. Шунинг учун шоира биринчи поэтик тезисни кучайтириш мақсадида иккинчи тезисни келтиради:

Ўйлайсизми, мени қилди деб атай,
Сизга бурилмасдан кетганим-чун тик.
Мен дардли кўксимни ёриб кўрсатай –
Борми унда Сизга зарра ёмонлик.

Сонетнинг лирик кульминацияси антитезис вазифасини ўтайди. Бу қисмда у ошиқнинг севгисини инкор қилиш сабабини айтади. Дарҳақиқат, лирик қаҳрамон ошиқнинг дардига малҳам қўйиш ўрнига оғу берганлигини рўй-рост тан олади:

Гарчанд, оқлай олмас ўзин айбдор дил,

Ишонинг, сезмасдан қолдим мен у чоқ –
Табиб бўлайин деб бўлганим қотил,
Малҳам бўлайин деб урганим пичоқ.

Лирик конфликти кескин драматизм асосига қурилган бу хилдаги сонетларда синтез ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлади. Мазкур сонет синтезида лирик қаҳрамон ўзининг хатти-ҳаракатини, унинг ошиқ учун қай даражада ҳалокатли эканлигини тан олган ҳолда ночор ошиқдан кечирим сўроайди:

Беаёв ишқингиз ўтин ўчирдим,
Кечира олсангиз агар, кечиринг.

Юқоридаги қисқача таҳлилдан шу нарса аён бўладики, сонет жанрида образнинг яхлитлиги тезис ва антитезисда ифодаланган туйғуларнинг ягона синтезга келиши билан юзага чиқади.

Поэтик жанрлар сирасида фақат сонетгина мана шундай мураккаб поэтик структура орқали образни яхлитликка олиб келади. Унинг синтезидаги лўнда поэтик хулоса образдаги яхлитлик ҳамда ёрқинликни таъминлайди.

Хулоса қилиб айтганда ўтган асрнинг 80-йилларида яратилган сонетларда, хусусан, Ҳ.Худойбердиева сонетларида бундай хусусият кўзга аниқ ташланади. Шу жиҳатдан қаралса, XX асрнинг сўнгги чораги ўзбек сонетлари поэтик жиҳатдан мукаммалликка эришган деб бемалол айтиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Худойбердинова Ҳ. Садоқат. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. 8-бет.
2. Уильям Шекспир. Сонеты. С.Я.Маршак. – Харвест, 2011.
3. Казакова О.В. Особенности художественного перевода, 2006.

УДК 808.3

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ МИР Н.В. ГОГОЛЯ – РОДНИК РУССКОЙ ПРОЗАИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

М.Акбарова, студентка, СамГУ, Самарканд
Д.Р. Кадымова, ст.преп., СамГУ, Самарканд

Аннотация. *Кўпгина мамлакатларнинг адабиётшунослари Гоголь меросини ўрганишга ўз ҳиссаларини қўшдилар, эҳтимол бошқа баъзи классикларга қараганда кўпроқ. Аммо у аллақачон тўлиқ ўрганилган деб айта оламизми? Ҳатто бир кун тарихан яқин келажакда биз бу саволга ижобий жавоб учун асос бўлади, дейишимиз даргумон. Тарихнинг ҳар бир янги бурилишида ўтмишнинг буюк ёзувчиларининг асарларини қайта ўқиш ва янгича фикрлаш зарурати туғилади. Классиклар битмас туганмас. Ҳар бир давр буюк меросда илгари сезилмаган қирраларни кашф этади ва унда ўзларининг замонавий ишлари ҳақида ўйлаш учун муҳим нарсани топади.*

Калит сўзлар: *"Қисқартирилган Коинот"," Маниловщина", Гоголнинг ҳазили, Гоголнинг комикси, Гоголдан кейинги давр," ҳақиқий тил "ва" сўзнинг ҳаётийлиги.*

Аннотация. *Литературоведы многих стран внесли свой вклад в изучение наследия Гоголя — возможно, даже больше, чем в отношении некоторых других классиков. Но можем ли мы сказать, что оно уже в полной мере изучено? Едва ли даже когда-нибудь в исторически обозримом будущем у нас появятся основания для утвердительного ответа на этот вопрос. На каждом новом витке истории возникает необходимость заново прочитать и по-новому обдумать творчество великих писателей прошлого. Классика неисчерпаема. Каждая эпоха открывает в великом наследии прежде не замеченные грани и находит в нем нечто важное для раздумий о делах собственных, современных.*

Ключевые слова: *«сокращенная Вселенная», «Маниловщина», гоголевский юмор, гоголевский комизм, послегоголевская эпоха, «достоверный язык» и «живость слова.*

Abstract. *Literary critics of many countries have contributed to the study of Gogol's legacy - perhaps even more than in relation to some other classics. But can we say that it has already been fully studied? It is unlikely that even sometime in the historically foreseeable future we will have grounds for an affirmative answer to this question. At each new turn of history, there is a need to re-read and think about the work of the great writers of the past in a new way. The classics are inexhaustible. Each epoch discovers previously unnoticed facets in the great heritage and finds in it something important for thinking about their own, modern affairs.*

Keywords: *"Abbreviated Universe", "Manilovshchina", Gogol's humor, Gogol's comic, the post-Gogol era, "authentic language" and "liveliness of the word.*

Гоголь был одним из самых удивительных и своеобразных мастеров художественного слова. Среди великих русских писателей он обладал, пожалуй, едва ли не наиболее выразительными приметами стиля. Гоголевский язык, гоголевский пейзаж, гоголевский юмор, гоголевская манера в изображении портрета — эти выражения давно стали обиходными. И, тем не менее, изучение стиля, художественного мастерства Гоголя все еще остается далеко не в полной мере решенной задачей.

Каждый большой художник — это целый мир. Войти в этот мир, ощутить его многогранность и неповторимую красоту — значит приблизить себя к познанию бесконечного разнообразия жизни, поставить себя на какую-то более высокую ступень духовного, эстетического развития. Творчество каждого крупного писателя — драгоценный кладезь художественного и душевного, можно сказать, «человековедческого» опыта; имеющего громадное значение для поступательного развития общества.

Щедрин называл художественную литературу «сокращенной Вселенной». Изучая ее, человек обретает крылья, оказывается способным шире, глубже понять историю и тот всегда беспокойный современный мир, в котором он живет. Великое прошлое невидимыми нитями связано с настоящим. В художественном наследии запечатлены история и душа народа. Вот почему оно — неиссякаемый источник его духовного и эмоционального обогащения. В этом же состоит реальная ценность и русской классики.

Искусство Гоголя возникло на основании, которое было воздвигнуто до него Пушкиным. В «Борисе Годунове» и «Евгении Онегине», «Медном всаднике» и «Капитанской дочке» писатель совершил величайшие открытия. Поразительное мастерство, с каким Пушкин отразил всю полноту современной ему действительности и проникал в тайники душевного мира своих героев, проницательность, с какой в каждом из них он видел отражение реальных процессов общественной жизни.

По следу, проложенному Пушкиным, шел Гоголь, но шел своим путем. Пушкин раскрыл глубокие противоречия современного общества. Но при всем том мир, художественно осознанный поэтом, исполнен красоты и гармонии, стихия отрицания уравновешена стихией утверждения. Пушкин, по верному слову Аполлона Григорьева, «был чистым, возвышенным и гармоническим эхом всего, все претворяя в красоту и гармонию. Художественный мир Гоголя не столь универсален и всеобъемлющ. Иным было и его восприятие современной жизни. В творчестве Пушкина много света, солнца, радости. Вся его поэзия проникнута несокрушимой силой человеческого духа, она была апофеозом молодости, светлых надежд и веры, она отражала кипение страстей и того «разгула на пиру жизни», о котором восторженно писал Белинский.

В первой половине XIX века в России жили и творили многие великие поэты и писатели. Однако в русской литературе принято считать, что с 40-х годов XIX века начинается «гоголевский» период русской литературы. Эту формулировку предложил Чернышевский. Он приписывает Гоголю заслугу прочного введения в русскую изящную литературу сатирического - или, как справедливее будет назвать его, критического направления. Ещё одна заслуга - основание новой школы писателей.

Творения Гоголя, обнажавшие социальные пороки царской России, составили одно из важнейших звеньев становления русского критического реализма. Никогда прежде в России взор сатирика не проникал так глубоко в повседневное, в будничную сторону социальной жизни общества.

Гоголевский комизм - это комизм устоявшегося, ежедневного, обретшего силу привычки, комизм мелочной жизни, которому сатирик придал огромный обобщающий смысл. После сатиры классицизма творчество Гоголя явилось одной из вех новой реалистической литературы. Значение Гоголя для русской литературы было огромно. С появлением Гоголя литература обратилась к русской жизни, к русскому народу; стала стремиться к самобытности, народности, из риторической стремилась сделаться естественною, натуральною. Ни в одном русском писателе это стремление не достигло такого успеха, как в Гоголе. Для этого нужно было обратить внимание на толпу, на массу, изображать людей обыкновенных, а неприятные только исключение из общего правила. Это великая заслуга со стороны Гоголя. Этим он совершенно изменил взгляд на само искусство.

И это гениально ощутил Гоголь. Объясняя в четвертом письме «По поводу «Мертвых душ» причины сожжения в 1845 году второго тома поэмы, он заметил, что бессмысленно сейчас «вывести несколько прекрасных характеров, обнаруживающих высокое благородство нашей породы». И далее он пишет: «Нет, бывает время, когда нельзя иначе устремить общество или даже все поколение к прекрасному, пока не покажешь всю глубину его настоящей мерзости». Гоголь был убежден, что в условиях современной ему России идеал и красоту жизни можно выразить, прежде

всего, через отрицание безобразной действительности. Именно таким было его творчество, в этом заключалось своеобразие его реализма.

Влияние Гоголя на русскую литературу было огромно. Не только все молодые таланты бросились на указанный им путь, но и некоторые писатели, уже приобретшие известность, пошли по этому пути, оставив свой прежний. О своём восхищении Гоголем и о связях с его творчеством говорили Некрасов, Тургенев, Гончаров, Герцен, а в XX веке мы наблюдаем влияние Гоголя на Маяковского, Ахматову, Зощенко, Булгакова и др.

Чернышевский утверждал, что Пушкин является отцом русской поэзии, а Гоголь - отцом русской прозаической литературы.

Белинский отмечал, что в авторе «Ревизора» и «Мертвых душ» русская литература обрела своего «самого национального писателя». Общенациональное значение Гоголя критик видел в том, что с появлением этого художника наша литература исключительно: обратилась к русской действительности. «Может быть, — писал он, — через это она сделалась более одностороннею и даже однообразною, зато и более оригинальною, самобытною, а, следовательно, и истинною». Всестороннее изображение реальных процессов жизни, исследование ее «ревущих противоречий» — по этому пути пойдет вся большая русская литература послегоголевской эпохи.

Художественный мир Гоголя необыкновенно своеобразен и сложен. Кажущаяся простота и ясность его произведений не должна обманывать. На них лежит отпечаток оригинальной, можно сказать, удивительной личности великого мастера, его очень глубокого взгляда на жизнь. И то, и другое имеет непосредственное отношение к его художественному миру. Гоголь — один из самых сложных писателей мира. Его судьба — литературная и житейская — потрясает своим драматизмом. Художественное творчество Гоголя, воплощавшее в ярких, законченных типах все отрицательное, все темное, пошлое и нравственно-убогое, чем так богата была Россия, было для людей 40-х годов неоскудевающим источником умственных и нравственных возбуждений. Темные гоголевские типы (Собакевичи, Маниловы, Ноздревы, Чичиковы) явились для них источником света, ибо они умели извлечь из этих образов скрытую мысль поэта, его поэтическую и человеческую скорбь; его « незримые, неведомые миру слезы », превращенные в « видимый смех », были им и видны и понятны. Великая скорбь художника шла от сердца к сердцу. Это нам помогает почувствовать истинно «гоголевский» способ повествования: тон повествователя насмешлив, ироничен; он беспощадно бичует изображенные в «Мёртвых душах» пороки. Но вместе с тем в произведении встречаются и лирические отступления, в которых изображаются силуэты русских крестьян, русской природы, русского языка, дороги, тройки, далей... В этих многочисленных лирических отступлениях нам ясно видна позиция автора, его отношение к изображаемому, всепроникающий лиризм его любви к отчизне.

Художник должен уметь найти в живом разностильном потоке обиходной речи такие слова, через посредство которых как бы ненароком сами по себе раскрывались бы неуловимые и невидимые черты характера. И Гоголь блистательно демонстрирует это умение, например, в самом начале «Мертвых душ», в главе, посвященной Манилову, Некрасов очень точно назвал речь Гоголя «живою и *одушевленною»*. Она была одушевлена близостью к разговорному просторечью, к стихии народного языка, она несла на себе отсвет того «разума слов», который Гоголь считал отличительной особенностью русского языка.

Одно из самых прекрасных достижений искусства Гоголя — слово. Мало кто из великих писателей владел столь совершенно магией слова, искусством словесной живописи, как Гоголь. Не только язык, но и слог он считал «первыми необходимыми орудиями всякого писателя». Оценивая творчество любого поэта или прозаика, Гоголь прежде всего обращает внимание на его слог, являющийся как бы визитной карточкой писателя. Сам по себе слог еще не делает писателя, но. если нет слога — нет писателя.

Именно в слоге прежде всего выражается индивидуальность художника, самобытность его видения мира, его возможности в раскрытии «внутреннего человека», его стиль. В слоге обнажается все самое сокровенное, что есть в писателе. В представлении Гоголя, слог—это не внешняя выразительность фразы, это не манера письма, а нечто гораздо более глубинное, выражающее коренную суть творчества.

В статье «О «Современнике» Гоголь называет довольно популярного в определенных читательских кругах 40-х годов В. А. Соллогуба. Это был весьма одаренный прозаик, со своей, только ему присущей манерой письма, с характерными приметами языка и стиля. Гоголь отмечает свойственную молодому писателю наблюдательность, даже остроту взгляда на некоторые стороны современного общества, а также точность слога. И тем не менее творчество Соллогуба далеко от

совершенства, ибо собственная душа автора «не набралась еще... содержанья более строгого», и он не сумел глубже, отчетливее «взглянуть вообще на жизнь».[6.54]

Языковое мастерство — чрезвычайно важный, может быть даже важнейший, элемент писательского искусства. Но понятие художественного мастерства, по убеждению Гоголя, еще емче, ибо оно более непосредственно вбирает в себя все стороны произведения – и его форму, и содержание. Вместе с тем и язык произведения никак не нейтрален по отношению к содержанию. Понимание этой очень сложной и всегда индивидуально проявляющейся взаимосвязи внутри искусства художественного слова лежит в самой сути эстетической позиции Гоголя.

Великое искусство никогда не стареет. Классики вторгаются в духовную жизнь нашего общества и становятся частью его самосознания.

Художественный мир Гоголя, как и всякого большого писателя, сложен и неисчерпаем. Каждое поколение не только заново прочитывает классика, но и обогащает его своим непрерывно развивающимся историческим опытом. В этом состоит тайна неувядаемой силы и красоты художественного наследия.

У каждого художника есть творение. Которое он считает главным делом своей жизни, в которое он вложил самые заветные, сокровенные думы, все свое сердце. Таким главным делом жизни Гоголя явились «Мертвые души». Его писательская биография продолжалась двадцать три года. Из них около семнадцати лет были отданы работе над «Мертвыми душами».

Художественный мир Гоголя - это живой родник поэзии, вот уже на протяжении почти полугора столетия двигающий вперед духовную жизнь миллионов людей. И как бы далеко ни ушло после «Ревизора» и «Мертвых душ» развитие русской литературы, но многие ее самые выдающиеся свершения были в истоках своих предсказаны и подготовлены Гоголем.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Вопросы анализа художественных произведений. Под ред. Н. О. Корста. М, 1999.
2. Искусство анализа художественного произведения/ Сост. Т. Г. Браже. М, 2001. – 384с.
3. Литературный энциклопедический словарь/Под ред. Кожевникова В.М. и Николаева В.М. М.. Советская энциклопедия. 2007 г.
4. Маймин Е. А. Опыты литературного анализа. М., 2002.
5. Методика преподавания литературы/Под ред. О.Ю. Богдановой, В.Г. Маранцман. В 2-ух частях. М., «Просвещение» - «Владос». 2005 г.
6. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 1997 г.
7. Гоголь в воспоминаниях современников. - М.: Гослитиздат,2012. - 718с.
8. Н. В. Гоголь в портретах, иллюстрациях, документах/Сост. А.М. Гордин. - М-Л.: Учпедгиз, 2003. - 394с.
9. Гоголь Н.В. в русской критике. Сб. Статей. - М.: Гослитиздат, 2008. - 651с.
10. Гоголь Н. В. «Мёртвые души». М.: Физкультура и спорт, 1999 г. – 384с.

УЎК 81

ХИТОЙ ТИЛИДА 把 "BĂ" ЖАМЛОВЧИ НОМ ҲИСОБ СЎЗИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ, ЭВОЛЮЦИЯСИ

З.З.Артикова, ўқитувчи, Тошкент давлат шарқшунослик университети, Тошкент

Аннотация. *Бой тарихга эга бўлган хитой тилида ҳисоб сўзларнинг мавжудлиги, хитой тибет тилларининг ўзига хослиги ҳисобланади. Хитойда сулолалар, даврлар ўзгариши жараёнида 把"bă" ҳисоб сўзининг ишлатилиш маъносида ҳам ўзгариш содир бўлди. Ушбу ишимизда биз хитой тилидаги ҳисоб сўзлардан бири бўлган 把"bă" ном ҳисоб сўзининг ривожланиш тарихи, унинг ном ҳисоб сўзи ва жамловчи турларинг эволюцияси ҳақида баён этамиз.*

Калит сўзлар: *ном ҳисоб сўзи, донабай ҳисоб сўз, ўлчов бирлиги, от, феъл, тутқич, тарих йўли.*

Аннотация. *Наличие счетных слов в китайском языке, имеющем богатую историю, является особенностью китайско тибетских языков. В Китае значение слова 把 "bă" также изменилось по мере смены династий и эпох. В этой работе мы описываем историю развития одного из китайских счётных слов 把"bă" и его эволюцию составных видов.*

Ключевые слова: *именные счётные слова, штучное счётное слово, единица измерения, существительное, глагол, рукоятка, путь истории.*

Abstract. *The existence of measure words in Chinese, which has a rich history, is one of the peculiarities of Chinese Tibetan languages. As dynasties and eras changed in China, the meaning of the word把"bă also changed. In this article, we describe the history of the noun 把"bă, on of the Chinese measure words, its pies and total types.*

Key words: *nominal counting words, piece cont word, unit of measure, noun, verb, knob, histori path.*

Аннотация. *Мақолада Марк Твеннинг ушбу романидаги сюжет ва конфликт ҳақида сўз юритилади. Бунда асарнинг ташқи ва ички композицияси, воқеани қаҳрамон-ровий тилидан баён қилиниши сюжет композициясини белгилаб беради. Бола психологияси очиш учун муаллиф қўллаган фантазия, портрет, пейзаж каби усуллар сюжетдаги кескинликни оширишга хизмат қилади.*

Калит сўзлар: *образ, композиция, ровий, сюжет, конфликт, портрет, ташқи композиция, ички композиция.*

Аннотация. *В статье рассматривается сюжет и конфликт романа Марка Твена. В этом случае внешний и внутренний состав произведения, повествование рассказа на языке главного героя определяет композицию сюжета. Такие приемы, как фантазия, портрет, пейзаж, используемые автором для раскрытия детской психологии, служат для увеличения напряженности в сюжете.*

Ключевые слова: *образ, композиция, рассказчик, сюжет, конфликт, портрет, внешняя композиция, внутренняя композиция.*

Abstract. *The article discusses the plot and conflict in this novel by Mark Twain. In this case, the external and internal composition of the work, the narration of the story in the language of the protagonist determines the composition of the plot. Techniques such as fantasy, portrait, landscape, used by the author to reveal child psychology, serve to increase the tension in the plot.*

Keywords: *image, composition, narrator, plot, conflict, portrait, external composition, internal composition.*

Кириш. Марк Твеннинг мазкур романи ташқи композициясида анчайин соддалик бор. Яъни у қисмларга ажратилмайди, балки воқеалар 43 та бобда баён қилинади. Воқеалар ровий-муаллиф тилидан, ретроспетив усулда баён қилинади, аммо қатъий хроникал тартибга амал қилинади. "Марк Твендаги болалик концепцияси шундан иборатки, бола эзгулик ғоясининг ташувчиси, самимийлик

ва дунёни англашдаги воситачи бўлиб, секин-асталик билан катта бўлиш баробарида бу хусусиятини йўқотиб боради. Твеннинг Том Сойер, Гек Финн, Том Кенти каби бола образлари катталарга эзгулик, адолат, озодлик тамойиллари ҳақида эслатиб туради" [2.14]. Дарҳақиқат, биз Гекельберри Финнинг Том Сойер билан қочиб, тоғ яқинидаги эски тери заводида Жо Гарпер, Бен Роджерс, Томми Барнс каби болалар билан бирга Том Сойернинг яширин ғорига боришади, у ерда болалар ўз тўдаларини тузишади ва уни "Том Сойернинг тўдаси" деб аташади. Воқеаларнинг шу ерида Том ғорга кирмасдан олдин барча болаларга бу ғор ҳақида ҳеч кимга айтмасликка қасам ичиради [1]. Бир қарашда болаларча содда ва самимий бўлган ушбу ҳаракат замирида катта одамлар орасида аллақачон йўқолиб бўлган ўзаро ишончнинг юксак намнуасини кўрамиз. Иккинчидан, ғорга кирганда улар қароқчилар тўдаси тузишга келиб олишади ва унда ҳам бирларига садоқатликларини бармоқларидан қон оқизиб тасдиқлашади. Бу шунчаки тадбир эмасди, балки болаларда сақланиб қолган ибтидоий кишилар архитипининг юксак намунаси бўлиб, улар агар кимдир бу тўдага хийонат қилса, унинг яқинларини йўқ қилишга қарор қилишади. Шунда Бен Роджерс Гек Финнинг қариндошари йўқ-ку, уни тўдага қўшмасликкерак, деган Гек Мэри бор-ку,у менинг тутинган онам, дея қасамга қўшилади. Диққат қилинса, болалар ўз обрў, ғурури учун ота-онаси ҳаёти билан қасам ичмоқда ва шунга содиқ қилади. Бир қарашда болаларнинг катта қароқчилардек йўл тутиши жамиятда маълум бир ижтимоий мавқега эга катталар учун эриш туюлади. Аммо бир-бирини алдаб, фириб бериб яшаётган, фақат моддий бойликка интилаётган жамият аъзоларига садоқат, дўстликка содиқлик каби маънавий қадриятлардан сабоқ беради.

Асосий қисм. Сюжет воқеалари ичида Гек Финн образи динамик тарзда ўсиб, турли қиёфалар касб этиб боради. Масалан, роман бошида ҳали Мэрининг уйида яшаб юрганда, у озодликка интилувчи, янгича фикрловчи жиддий бола тарзида намоён бўлса, уйдан қочиш тунида, ухлаётганда унга ҳазил қилишлари ёки ғорда Бен Роджерс уни қаторга қўшмасликни сўраганда, бир лаҳзага етимлиги, ночорлиги сезилади. Аммо шунда ҳам ўзини йўқотмай, отаси пайдо бўлганда пулини бутунлай Тетчэрга бериб бориши, отаси калтаклаганда, олибқочиб қамай қўйганда,эски қайик топиб олганда эса яна бошқак иши сифатида намоён бўлади.

Сюжет таркибий қисмларининг ёзувчи кўзлаган маълум бадиий ният асосидаги жойлашуви сюжет композицияси дейилади. Бунда барча таркибий қисмларнинг алоҳида аҳамияти бор. Масалан, аввал тилга олганимиз экспозицияда баён қилинса, ундан эса тугун ўсиб чиқади. Тугуннинг ичида воқеалар ривожи учун муҳим бўлган зиддият яширин бўлади. Мазкур зиддият ўсиб бориб, конфликтга айланади ва у сюжетнинг ўзагини ташкил қилади. Мазкур романда воқеалар ривожи анча узун бўлиб, деярли бутун асар бўйлаб ўтади, унинг орасида пейзаж, портрет, характер, бадиий мантиқ (бу ерда образлар мантиғи, шароит мантиғини ҳам ажратиш лозим бўлади) асослаш,деталь, фабула каби бадиий асар композициясига оид унсурлар ҳам сюжет таркибий қисмининг жойлаширилиши, воқеалар лавҳасининг муяйан тартибда ташкил этилишида муҳим вазифани бажаради [5].

Романнинг биринчи бобида Мэрига асранди ўғил бўлиш ва унинг синглиси бераётган таълим-тарбия, маъанвий маданиятга қарши чиққан бола нутқида тўртинчи бобда ўзгача вазият баён қилинади:

"Ниҳоят, уч ойми тўрт ой ўтгач, қиш ҳам кириб келди. Мен деярли куни мактабга бордим. Секин аста сўз тузишни, ўқишни ва ёзгина ёзишни ўргандим, карра жадвалини олти карра етти – ўттиз беш қисмигача ёдлаболдим. Қолганини ҳам, ўйлайманки, юз йил ўқиш лозим бўлса ҳам, енгиб ўтса бўлади. Умуман олганда, мен математикани у қадар яхши кўрмайман. Дастлаб мен мактабни ёмон кўрардим, секин-аста кўника бошладим. Жонимга текканда, мактабдан қочиб кетган кунларим бўлди. Шунда эртаси куни ўқитувчи таъзиримни берарди. Булар менга анча фойда қилди. Мен анча ўзимни тутиб олдим. Мактабга бориш борган сари осон бўла бошлади ва мен уйдаги тартиб-қоидаларга ҳам аста-секин кўника бошладим" [1].

Сюжет воқеалари давомида биз Гекельберри Финни очиқ кўнгил, интилувчан, самимий, олижаноб, беғараз ҳазиллар қилувчи, шунинг билан бирга ирим-сиримга ишонувчан бола сифатида кўра бошлаймиз. Воқеалар ривожи давомида қиш келишии, қор ёққани ҳақида баён этилар экан эрталабдан кайфитяи йўқлиги, нимадир содир бўлишини билиб, девордан ошиб ерга тушиш пайтида қордаги изларни кўради. Бу излар унинг отасининг этигидан қолган эканлигини, этик товонига ёвуз кучларни чалғитиш мақсадида йирик михлар хоч шаклида қолган эди. Гекельберри зудлик билан ҳакам Тетчэр ҳузурига бориб, унда сақланаётган барча пулларини ҳакамга совға қилади ва бунинг учун унга тилхат ёзиб беради ва унга қайтиб Уотсон хонимнинг негри Жимдан фол кўришни сўрайди. Унда хўкиз қатқоринидан қилинган, сертук соққа бўлиб, унга қараб башорат қилар эди. Мазкур ҳаракатлар остида Гекнинг отаси бу ерда пайдо бўлгани, бола ундан қўрқиши намоён бўлади. Чунки у болани аёвсиз калтаклаган, Гекни отиб юборган, пичоқ кўтариб ўлдираман,

деб қувган. Энди эса пули борлиги ва яхши яшаётганини билиб, уни пойлай бошлаган эди. Шунинг учун дадаси пулини олиб қўймаслиги учун Гек улар (олти мингдоллар)ни Тетчэрга бериб юборади, Жимдан ўз тақдири ҳақида сўради. У эса шундай жавоб қилади:

Сизнинг отангиз нима қилишини билмайди. Баъзан кетишни ўйлайди, баъзан эса қолишни ўйлайди. Сиз эса ҳеч нарсадан ташвиш тортманг, чол нима қилишини ўзи ҳал этади. ... Сизлар ҳаётда кўп алам ва, албатта, керакли даражада қувончлар кўрасизлар" [1].

Эътибор қилинса, ёзувчи Гекнинг отаси ирим қилиб этиги пошнасига хоч шаклини тушунгани, Гекнинг ўзи Жимга йигирма беш цент бериб, соққа ёрдамида фол очиргани баёнида боланинг руҳидаги безовталик, эртанги кунига ишончсилик ва қўрқув борлигини кузатиш мумкин. Лекин уларни бола ҳеч кимга айтолмайди. Лекин улардан қочиб ҳам кетолмайди. Ана изтироб уни доимо қийнаб юради. Бу азоб Гек ва унин отаси ўртасидаги муносабатга оид, холос. Ҳуқуқий томондан олганда буни бола Мэрига айтиши керак ва тегишли чора кўриши лозим. Аммо қонунан бола Мэри қарамоғига ўтмаган эди. Гек буни биларди. Шунинг учун ўз тегишли чораларни кўриб юришга мажбур бўлади. Сюжет линиясидаги ана шу воқеа Гекельберрининг нақадар ақлли, ҳушёр бола эканлигини кўрсатади.

"Отам ёши тахминан элликлар атрофида, кўринишидан ундан ҳам ёшроқ эди. Сочлари узун, таралмаган ва кир бўлиб, бураліб-бураліб осилган ва сочлари орасидан кўзлари гўёки бута орасидан кўрингандек порлаб турарди. Сочлари қора, бирорта оқи йўқ,чаккасидаги узун соқлари ҳам қора эди. Сочлари тўсиб тургани учун юзи яхши кўринмасада, қон йўқ, оппоқ эди, бошқаларники каби оқ эмас, балки қўрқинчли ва жирканадиган оқ,худди балиқ ёки бақа қорнидек оқ эди. Кийимлари эсақараб бўлмас, бутунлай йиртиқ эди. Битта оёғини тиззасига қўйиб олган. Шу оёғидаги этиқ учи ёрилиб кетган, унда икки бармоғи кўриниб турар, вақти вақти билан бармоқларини қимирлатиб ҳам қўярди. Шаляпаси эса полда ётар, у ҳам эски, қора, четлари кенг ва ён четларитепага ҳиёл қайирилган худди қопқоқли кострюльканинг ўзи" [1].

Сюжет воқеалари шундан кейин кескинлашади. Ёзувчи Гекнинг саргузаштларини гавжум шаҳарчадан кимсасиз ўрмонга кўчирар экан, одам ва табиат яқинлигини очиб беради. Гек ва унинг отаси фаол ижтимоий ҳаётдан четда яшар экан, уларда тирик қилиш учун ҳамма нарсага тайёрлик, бошқаларга нисбатан ишончсизлик кучая боради, Бошқа одамлар билан камроқ мулоқот қилинса, одамда ижтимоий маданий ҳаётдан кўра, ёввойи турмуш тарзига кўникиш тезроқ амалга ошишини ҳам кўрсатилади. Бундан ташқари,ота боланинг ўрмонга, хилватга кўчишига оид сюжет линияси ҳам бадиий жиҳат тўла асосланган. Бу бир томондан отанинг ўз фарзандига бўлган оталик ҳуқуқи билан асосланса, икки томондан ундан боласини олиб қўйишларини истамагани учун ҳам узоқларга, одамлар тополмайдиган ўрмонга қочади. Тўғри, бу ерда боланинг ҳақ-ҳуқуқи, унинг танлов имконияти эътиборга олинмаган. Бироқ отанинг маънавий қашшоқлиги бунга имкон бермас эди. Бунинг устига судья болани отасидан айришга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқлигини айтгач ота ўғлини олиб қочиши ҳам ўзининг бадиий манғи ва асосига эга бўлади. Шу маънода сюжетдаги воқеаларнинг бир макондан иккинчи маконга кўчиши сюжет композициясида ўзини тўла оқлаган.

Хулоса: 1. Ўрмонда яшириниб яшаш ва отасининг салбий муносабати Гекнинг эрта улғайишига, ўз ҳаётини ўзи қутқармаса, отаси уни ўлдириб қўйиши мумкинлиги, бунда Мэрининг ёрдами тегмаслигини англашига олиб келади. Гекда бахтиёр болалик ёки болаликнинг қувноқ хотиралари йўқ эди. Ҳамиша кимдандир устун бўлиш, кимдандир қочиши, ўзини оқлаш, бошқлар олдида ўзини мавжудлигини исботлашга бўлган уринган. Гекнинг шахс сифатида эрта шаклланишига асос бўлди. Эрта улғайган бола фожеаси бор эди.

2. Романдаги воқеалар битта асосий образ Гек Фин атрофида шаклланар экан, ёзувчи концентрик сюжет туридан фойдаланган, деган янгилиш фикр келиши мумкин. Агар воқеаларни Гек анча ақт ўтгач айтиббераётганини инобатга олсак, унда ретроспектив сюжет ҳам борлигини кўрамиз. Шу маънодаромандаги умумий сюжет композицияси аралаш сюжет турига мансуб дейилса тўғри бўлади.

3. Романдаги бола ва жамият, ота ва бола конфликти сюжет воқеаларининг ўзигини ташкил этади. Гек отасидан қочиб анча саргузаштларни бошдан ўтказади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.The Adventures of Huckleberry Finn (Tom Sawyer's Comrade) by Mark Twain. A Glass bookclassic. 303 p. http://bookzip.ru

2.Груздева Е. А. Эволюция образа простака в творчестве Марка Твена в контексте просветительской традиции. Автореферат дисс....канд. филол наук. - Казань, 2013. – 24 с. http://core.ac.uk

3.Давлетгиреева Е.И. Анализ сюжета романа М. Твена «Янки из Коннектикута при дворе короля Артура» как одного из экстралингвистических средств достижения сатирического эффекта. http://pgu.ru.

4.Зверев А. М. Мир Марка Твена: Очерк жизни и творчества. - Москва: Детсткая литература, 1985. - 175 с.

5. Ikromkhonova Firuza, Boymanov Xabibulla, Vaxabova Yoqut, Rakhimov Fayziddin. The system of images in a historical novel (on the example of a novel of «Joan of arc»)//Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL 7, ISSUE 11, 2020. – P. 3119-3125. (OAI, CNKI, Open J-Gate, Goople Scholar, World Digital Collectio Gateway, CrossREF).

УДК 81'42

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК

М.Т. Муминов, к.ф.н., доцент, Андижанский государственный университет, Андижан
Н.А. Нархожаева, магистрант, Андижанский государственный университет, Андижан

Annotatsiya. *Maqolada rus va o`zbek tillaridagi ertak matnlari qayd etgan lingvokulturologik xususiyatlarni tadqiq etish, rus va o`zbek tillaridagi ertak matnining lingvopoetik xususiyatlarini taqqoslash masalalari ko`rib chiqilgan.*

Kalit so`zlar: *madaniy tilshunoslik, madaniyat tafakkur, etnos, falklor, til, folklore tipologiyasi, kundalik hayot, tushuncha.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы исследования лингвокультурологические особенности, зафиксированные текстами сказок на русском и узбекском языках, сопоставления языковые особенности сказочного текста русского и узбекского языков.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, культура, менталитет, этнос, фольклор, язык, типология фольклора, быт, концепция.*

Abstract. *The article examines the issues of researching the linguoculturological features recorded by the texts of fairy tales in Russian and Uzbek languages, comparing the linguistic features of the fairytale text of the Russian and Uzbek languages.*

Key words: *cultural linguistics, culture, mentality, ethnos, folklore, language, typology of folklore, everyday life, concept.*

Лингвокультурология – наука, изучающая культуру в языке и раскрывающая взаимосвязь и взаимовлияние языка и культуры.

Изучение культуры и языка народов тесно связано с фольклором. Это объясняется в том, что древнейшие представления о мире зафиксированы в фольклоре, мифологии и влияют на формирование и отражение менталитета.

Фольклор и его традиции складываются и развиваются в тесной связи с жизненным и социально историческим и житейски-бытовым опытом народа. По этой причине фольклор запечатлел особенности народной жизни, национально-исторический характер народа. Национальное своеобразие порождено историческими качествами народа, которому фольклор принадлежит, той ролью, какую он играет в народной жизни. Вместе с тем исследователи уже в первых работах о фольклоре указали и на факты бесспорного сходства фольклора разных народов. Сходство это именуется фольклорной типологией. В мировом фольклоре налицо повторяемость тем, идей, образов и стилевых форм. Такая повторяемость не следствие сходства общественно-исторических условий, в которых возникает и развивается поэтическое условия порождают сходные виды и формы художественного творчества. Типология фольклора – следствие сходства одинаковых ступеней (стадий, этапов, периодов) в едином для всех народов процессе художественного развития. Фольклорная типология - проявление этого единства.

Единство общего исторического процесса отнюдь не предполагает единообразия в формах развития фольклора отдельных народов. Того единообразия, какое здесь подчас хотят видеть, не существует. Напротив, единство общих исторических путей развития разных культур предполагает разнообразие племенных и народно-национальных форм и, прежде всего, в развитии фольклора у каждого народа. Было бы, конечно, ошибкой отрицать взаимодействие разных культур на разных этапах исторического развития народов. Общение всегда влекло за собой и обмен духовными ценностями, но оно не стирало национального своеобразия фольклора у народов. Фольклор одних народов воспринимался другими, подвергаясь существенной переработке.

Самобытность фольклора не подлежит сомнению и тогда, когда фольклор принадлежит родственным народам. Так, сравнительный анализ русских узбекских сказок убеждает в том, что почти нет такого сюжета, который не был бы известен у каждого из этих народов, национальное.

В одном из вариантов русской сказки говорится: жили дед и баба. Дед поехал на сани ловить рыбу. Дед наловил рыбу полный воз. Когда он ехал домой, увидел на дороге лису. Лиса лежала на дороге, как мёртвая. Дед очень обрадовался, так как лисья шкура будет воротником на шубу старухе. Он взял лису и положил её на воз. А лиса выбросила всю рыбу из воза и ушла. Дед приехал

домой и позвал старуху. Старуху посмотрела на воз, а там не было ни воротника, ни рыбы. А лиса собрала все рыбы в кучку. Когда она стала есть рыбы, приходил волк. Он попросил ей научить ловить рыбу. Лиса посоветовала ступать волка на реку и опустить хвост в прорубь. Потом волк пошел на реку, опустил хвост в прорубь и посидел там до утра. Утром его увидела одна баба. Увидев бабу, волк постарался бежать. Он рвался и оторвал себе хвост. А лиса в это время зашла в избу, где жила эта баба, наелась из квашни теста, вымазала голову тестом и пошла. На дороге лиса встретила волка и показала разломанную голову. Наивный волк пожалел лисицу и повез её на спине домой. Когда лисица едет на спине волка, поёт: - Битый небитого везет, Битый небитого везёт! [Смирнов А.М., 1917.;№293].

Сказка «Лиса и волк» записана в Премском крае или на Урале. Её рассказал северный сказочник. Доказательством является язык сказочника, который ярко показывает быт русских крестьян на Севере.

В сказке лиса называет волка «куманёк» и «кум», а волк называет лису «кума». Это является традиционным приветствием и обращением на Севере. Ещё в сказке использованы просторечные слова и разговорные слова: «калачик» (лечь в комок), «не ворохнется» (не двигается), «смекнул» (догадывался), «плетусь» (иду медленно). В сочетании «такой-сякой» баба выражает отрицательную оценку старику, то есть ругает. «Сякой» - разговорное слово, обычно используется в шутливом значении. В речи лиса и волка сказочник часто использовал просторечные слова: «эка», «ужо», «эх» - говорок северных крестьян с отчётливой передачей удивления, сомнения с живыми переходами от одного чувства к другому.

Обычаи и традиции русского народа ещё показаны в словах «коромысло» (предмет для ношения двух ведер на плече), «изба» (деревянный крестьянский дом), «квашня» (деревянная кадка, кадушка для теста). Именно на Руси бабы носили воду коромыслом, крестьяне жили в избе, приготовили тесто в квашне.

Все емком художественном стиле сказки обнаруживает свойства национального искусства слова, естественного с бытовыми привычками людей, с особенностями их психического склада. Именно о таком проявлении национального в художественном творчестве писал А.С. Пушкин: «Есть образ мыслей и чувствований, система обычаев, поверий и привычек, принадлежащих исключительно какому-нибудь народа» [Пушкин А.С.,1964.;39-40].

Теперь возьмём узбекскую сказку. Перевод её на русский язык сделала Л.Сацердатова, даже самый точный, много теряет в передаче национального своеобразия узбекского фольклора, но и по переводу можно судить о своеобразии оригинала.

Узбекская сказка переносит нас в совершенно другой быт. Старик приказывает старухе испечь «лепёшку». (Лепёшка – хлеб, который испечёт в тандыре (небольшая глиняная печь для печения лепёшек). В каждом узбекском дворе есть тандыр, в котором хозяйка рано утром испечёт лепёшку. Тандыр остался нам из предков и сохранился до наших дней). Уважение жены мужа ярко показано в речи старухи: «А ну, муж мой, разломите лепешку!». Но старух и старуха не успели разломать лепёшку. Она вкатилась в дом табунщика и шлепнулась в «дастархан» (скатерть). (Перед едой и, когда придёт гостья в дом, узбекский народ всегда накрывает «дастархан». С этим действием хозяин показывает уважение и почёт гостям. Это является неизменяемой традицией узбекского народа). Лепёшка умчалась от табунщика и прикатилась в хижину «дехканина» (крестьянин).

Особенности узбекских бытовых привычек передается в речах лепёшки через обращения: «Эй, дехканин. Я из муки пёстрого мешка, из масла пёстрой коровы, ешь меня, если меня не съешь, будешь есть тело отца и матери».

В сказке мы можем встречать все профессии и ремесла узбекского народа: «табунщик», «дехканин», «пастух», «табиб», с которыми занимаются до сих пор.

Ещё выразилась национальная специфика узбекской сказки в особом стиле речей волка и лисы: в ласковых названиях («Эй, подруга», «Эй, друг волк», «Что с вами господин волк?»). Столь же специфичны интонационные основы речи («Так тебе и надо. Не жадничай!») и настойчивость, с какой лиса учит волка, и другие свойства узбекской речи.

Культурная самобытность народа в сказке ещё отражена через географических факторов: «бегать в колючих зарослях», «катайтесь в золе», «знахарка-табиб с гор, из долины».

Итак, фольклор разных народов во всех случаях при любом типе сходства обнаруживает единство, повторяемость своих общих свойств при глубоком историческом национальном различии конкретных образно-стилевых форм. Всемирно историческое единство, повторяемость и разнообразие народно-племенных и национальных стилей, трактовок сходных тем, сюжетов,

мотивов, обнаруживает типологию и сложение исторических путей развития и сложения фольклора у каждого народа.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Житникова М.Л. Дом как базовое понятие народного мировидения (лингвокультурологический аспект): автореф.дис. … канд. филол. наук. — Томск, 2006. — 27 с.
2. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс: монография / В. И. Карасик; ВГПУ. — Волгоград:Перемена, 2002. — 477 с.; 2-е изд. — М.: Гнозис, 2004. — 390 с
3. Хроленко А. Т. Основы лингвокультурологии. — М.: Флинта, 2006.
4. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. — 2001. — № 1. — С. 64–73.
5. Юрина Е. А. Образный строй языка. — Томск: Изд-во Том. ун-та, 2005. — 156 с.
6. Смирнов А.М. Сборник великорусских сказок Архива Русского географического общества. Пг., 1917,№293.

УЎК: 81:373

СЎЗЛАРНИНГ ГРАММАТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШДА ТАСНИФИЙ БЕЛГИЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Х.В. Олимова, ўқитувчи, Қарши давлат университети, Қарши

Аннотация. *Ушбу мақолада сўз туркумлари ва ҳар бир сўз туркумининг ўз ички бўлинишида майда гуруҳларнинг ўзига хос грамматик белгилари инобатга олиниши хусусида фикр юритилади. Синтактик вазифа бажарилиши ва сўзнинг гапдаги ўрнини инобатга олиш бир хил кўринишдаги сўзларни туркумлаштиришда қўл келади. Чунки луғат жамғармасидаги ҳар бир сўз фақат биргина сўз туркумига кириши мумкин эканлиги далилланган.*

Калит сўзлар: *сўз туркуми, феъл, грамматик тавсиф, анъана, гуруҳ, синтактик вазифа, атама.*

Аннотация*. В данной статье обсуждается необходимость учета специфических грамматических особенностей малых групп при их внутреннем делении на части речи и каждую группу слов. Выполнение синтаксической задачи и рассмотрение положения слова в предложении помогает классифицировать слова с одинаковым внешним видом. Потому что доказано, что каждое слово в словарном фонде может принадлежать только одной части речи.*

Ключевые слова*: части речи, глагол, грамматическое описание, традиция, группа, синтаксическая функция, термин.*

Abstract*. This article discusses the necessity to take into account the specific grammatical features of Parts of Speech in their internal division of word groups and each Part of Speech. Performing a syntactic task and considering the position of a word in a sentence is helpful in categorizing words of the same appearance. Because it has been proven that every word in the dictionary fund can belong to only one Part of Speech.*

Keywords: *Parts of Speech, verb, grammatical description, tradition, group, syntactic function, term.*

Кириш. Тилшунослик тарихида сўзни тасниф этиш каби чигал ва кўп муҳокама қилинган масала бўлмаса керак. Ҳиндистонлик Панини, юнон Арасту ва араб тилшуноси Сабавайҳ даврларидан бошлаб ҳамма, бу мавзу устида бош қотириб келмоқда. Зеро, сўз маъновий ва грамматик бутунлик сифатида ҳар бир тадқиқотчидан унинг табиатини аниқлаш, шунга қараб лексик ва грамматик тавсифлашни талаб қилади. Бундай тавсифга сўзлардаги бевосита ўхшашлик ва фарқларни аниқлаш ҳамда таснифлаш йўли билан эришиб бўлади. Шунинг учун сўзларнинг таснифий белгиларини ўрганиш ва уларни лексик-грамматик гуруҳларга ажратиш ҳар бир давр тилшунослиги учун муҳим муаммо бўлиб қолаверади.

Мавзунинг долзарблиги ва ҳозирги ҳолати. Ғарб тилшунослигида сўзларни грамматик хусусиятларига нисбатан ўндан ортиқ гуруҳларга ажратиш тажрибаси тарқалди. Машҳур тилшунос С.Д.Кацнельсон ёзганидек, сўзлар "Анъанавий таснифининг тавсифий грамматикага татбиқ этилиши ҳеч қандай гумонни туғдирмайди" [Кацнельсон: 128]. Худди шу анъана ҳозирги замон тадқиқотларида, шу жумладан, функционал ва коммуникатив грамматикаларда ҳам давом этиб келмоқда [Слюсарева: 16].

Сўз туркуми таснифининг муаммоли бўлиши, энг аввало, ушбу таснифнинг ягона бир тамойилга эга эмаслигида. Инглиз тили назарий грамматикасининг биринчи муаллифи бўлган Ҳенри Суит асосий тамойил сифатида морфологик кўрсаткичларни танлайди ва луғавий бирликларни ўзгарувчан ҳамда ўзгармас сўзларга (declinable and indeclinable words) ажратади. Худди шу муаллиф сўзларни синтактик вазифаларига нисбатан ҳам таснифлаш йўлидан бориб, noun-words ва verb-words гуруҳларини фарқлайди. Биринчи гуруҳдан, туб отлардан ташқари, олмош, сон, сифатдош ва бошқалар жой олади. Герундий, инфинитив, сифатдошлар морфологик

кўрсаткичларга асосан "verb-words" гуруҳига киритилади. Ўзгармас сўзлар қаторига эса мустақил гап бўлаги вазифасини бажарадиган равиш билан бир қаторда, бундай имкониятга эга бўлмаган боғловчи, предлог, ундов сўзлари ҳам киритилади.

Тажриба қисми. Даниялик тилшунос Отто Есперсен шакл ва вазифа тамойилларини бирлаштиришнинг имкони йўқлигини таъкидлайди. Унинг фикрича, сўз туркумлари таснифида морфологик кўрсаткичга (ўзгарувчанлик ва ўзгармаслик) таянилганда, must, the, then, for, enough каби сўзларни ягона бир гуруҳга уюштириш лозим бўлар эди. Ушбу муаллиф луғавий бирликларни улар эгаллайдиган синтактик ўринларига нисбатан туркумлашни маъқул кўради. Сўз бирикмасининг бош бўлагини ташкил қилувчи ва гапда эга ўрнида келувчи отларни "бирламчи" (primary) ва иккинчи даражали бўлак ўрнини олувчи отларни "иккиламчи" (secondary) ҳамда ушбу бирламчи ва иккиламчи сўзларни аниқловчи "учламчи" (tertiary) отлар, деб аташни таклиф қилади [Есперсен: 23].

Яна бир тилшунос Чарльз Фриз сўз туркумлари анъанавий таснифини тамоман инкор қилиб, ушбу таснифда фақат сўзларнинг гапдаги синтактик ўрнини асос қилиб олишни тавсия қилган. Ч.Фриз ажратаётган тўртта туркум от, феъл, сифат, равиш атамаларини олган бўлсада, лекин уларнинг тасниф тамойили – синтактик ўринни эгаллашдир. Масалан, 1-гуруҳ сўзларига *The concert was good* ва *The clerk remembered the tax* гапларидаги *concert* ва *tax* сўзлари кирса, 2-гуруҳга шу гаплардаги *was (to be)* ва *remembered* унсурлари киритилади. Ниҳоят, 3-гуруҳдан биринчи гапдаги *good* ўрин олади ва 4-гуруҳга *there* типидаги сўзлар жойлашади [Fries: 42].

Олинган натижалар таҳлили. Ҳақиқатдан ҳам сўзларнинг грамматик хусусиятларини аниқлашда уларнинг таснифий белгилари муҳим ролни ўйнайди. Масалан, *My friend lives in London* гапини олиб, ундаги ҳар бир сўзнинг ўзига грамматик жиҳатдан мос келадиган сўзлар билан ўрин алмаштириши мумкинлигини кўрамиз. Жумладан, *my* сўзи ўрнида *your, his, our, this, their* сўзлари ишлатилишини, аксинча, *brother, family, wife* кабиларнинг қўлланиши таъқиқланганлигини кўрамиз. Бу сўзлар ва уларга ўхшаш *father, teacher, sister* кабилар келтирилган гапдаги *friend* сўзининг ўрнини босиши мумкин. Шу гапдаги lives элементи ўрнига *arrives, stays, works* каби сўзларни қўйишнинг имкони бор. Буларнинг барчаси тил тизимида луғавий бирликларни маълум гуруҳларга ажратиш лозимлигидан гувоҳлик беради.

Айтиш жоизки, сўз туркумлари тил тизимидаги энг йирик гуруҳлардир. Ҳар бир сўз туркуми ўз ички бўлинишига эга ва бунда майда гуруҳларнинг ўзига хос грамматик белгилари инобатга олинади. Бинобарин, от туркумидаги сўзларни саналадиган ва саналмайдиганларга, феъл туркумидагиларни ўтимли ва ўтимсиз феълларга ажратиш анъанаси мавжуд.

Синтактик вазифа бажарилиши ва сўзнинг гапдаги ўрнини инобатга олиш бир хил кўринишдаги сўзларни туркумлаштиришда қўл келади. Чунки луғат жамғармасидаги ҳар бир сўз фақат биргина сўз туркумига кириши мумкин.

Маълумки, лексема нутқда қўлланилар экан бунда у грамматик жиҳатдан тугал шаклланган, яъни грамматик морфема билан бириккан ҳолда намоён бўлади. Бироқ лексема ҳар қандай грамматик морфема билан бирика олмайди. Шунинг учун грамматик категория ҳамда шаклга хилма-хил муносабатига нисбатан лексеманинг қаторлари аниқланади. Шу боис лексеманинг қандай грамматик категория ва унинг шакли маъносига эга бўлиши ҳамда унинг қўшимчалар билан синтагматик муносабатига киришишини сўзларни туркумлашга асос бўладиган меъёр сифатида қараш мумкин.

Тил тизимида луғавий бирликларнинг барчаси семантик, синтактик ва морфологик белгиларга эга бўлиши талаб қилинади. Шунинг учун сўзларнинг тизимда тутган ўрни, моҳияти аниқланар экан, уларнинг худди шу уч белгисига эътибор бериш керак бўлади. Сўзларни туркумлашга оид таснифда эса бу белгилар умумлаштирилади. Чунончи, инглиз тилидаги book ва ўзбек тилидаги "китоб" –маъновий жиҳатдан мустақил сўз типи, атовчи лексема типи, от туркумидаги конкрет от тури. Бу сўз – "фан-маданият" тематик (мавзу) гуруҳига мансуб лексема; синтактик жиҳатдан боғланувчи, мучаланувчи, синтактик вазифаси чекланмаган лексема. Унинг морфологик белгилари ўзгарувчанлик ва сонланувчанликдан иборат.

Сўзларни туркумий таснифлаш имкониятлари тилнинг яхлит система эканлигини яна бир бор далиллайди. Тил тизимида маълум гуруҳдаги ҳодисалар фарқланишида алоҳида сатҳдаги фарқловчи белги билан чекланиб, бошқа сатҳларга мурожаат қилиб ўтиришга эҳтиёж йўқолади. Шу сабаб от, сифат, сон, феъл каби туркумлар морфологик жиҳатдан фарқланар экан, семантик ва синтактик белгиларнинг яқинлиги изланади. Юқоридаги жадвалга таянадиган бўлсак, бу туркумларнинг барчаси тасниф жараёнида бир тўпга, яъни номловчилар тўпига бирлашади. Худди шу сабаб бу туркумга оид сўзларни маъно жиҳатидан фарқлаш анъанавий тилшуносликда катта муаммони туғдирган эди. Ҳозирги кунда маълум бўлдики, морфологик жиҳатдан фарқланувчи

сўзнинг маъновий ва синтактик жиҳатдан яқинлашувини инобатга олиш лозим. Сўз туркуми таснифининг морфологик тамойили А.М.Пешковский, Д.Н.Ушаков, Ф.Ф.Фортунатив, М.Н.Петерсон каби машҳур рус тилшуносларининг ишларида батафсил асосланган. Лекин ушбу тамойил мантиқий изчиллиги билан қанчалик даражада ажралиб туришига қарамасдан, қатор камчиликлардан холи эмас. Морфологик таснифнинг бир тамонламалигини, унинг баъзи ҳолатлардаги сустлигини рус академиклари В.В.Виноградив, Л.В.Щчербалар қаттиқ танқид остига олган эдилар [Кубрякова: 32].

Юқорида эслатилган семантик, морфологик ва синтактик тамойилларнинг бирортаси ҳам тил тизимидаги луғавий бирликларни гуруҳларга тўлиқ тақсимлаш имконини бермайди. Ҳар қандай тамойилнинг татбиқида маълум миқдордаги сўзларнинг туркумлар оралиғида қолиб кетишини кузатиш мумкин. Бу ҳақида бир пайтлар академик Л.В.Щчерба қуйидагиларни ёзган эди: "Сўз туркумлари масаласига келадиган бўлсак, ҳеч бир тадқиқотчидан сўзларни аниқ бир меъёр асосида таснифлаш талаб қилинмайди. У қайси тасниф тил тизимига мос келаётганлигини аниқлаши лозим. ..... айрим сўзларнинг ҳеч қайси туркумга мос келмаслигидан қўрқмаслик керак, демак биз уларни ҳақиқатдан ҳам бирор-бир категорияга киритмаймиз" [Щчерба: 73].

Сўз туркумлари таснифидаги мушкулликларни кўрган тилшунослар ушбу муаммонинг ечимини майдон назарияси татбиқидан излашга мажбур бўлдилар. Майдон назарияси татбиқининг тарафдорлари кўрсатишича, ҳар қандай сўз туркуми таркибида ушбу туркумнинг барча фарқловчи белгиларига эга бўлган сўзлар гуруҳи мавжуд бўлиб, улар шу туркум майдоннинг марказида турадилар. Шунинг билан биргаликда, ушбу туркумга хос белгиларнинг фақат маълум қисмига эга бўлган бирликлар ҳам учрайди. Демак, грамматик майдонда марказий ва сарҳаддош элементлар бир хилда, ўзаро боғлиқликда мавжуд бўладилар. Тадқиқотчиларнинг вазифаси лексик-грамматик майдон ҳудудини аниқлаш, унинг бирликлар грамматик хусусиятларини фарқлаш ва уларнинг қайси хусусиятлари бошқа туркумдаги сўзларга мос келишини билишдир [Щур: 17].

Хулоса. Хуллас, анъанавий равишда ажратиб келинаётган сўз туркумлари таснифи мантиқан изчил эмас. Ажратилаётган сўз туркумлари семантик, синтактик ва морфологик ёндошувларнинг "ўзаро келишуви" натижасидир [Белошапкова: 31]. Бундай "ўзаро келишувлик" анъанаси сўз туркумлари муаммосини тилшуносликнинг доимий муаммоларидан бирига айланиши сабаб бўлмоқда. Турли дарслик, қўлланмаларда сўз туркуми ҳодисасига "Сўз туркуми – бу сўзларнинг лексик-грамматик гуруҳларидир", деган тавсифни учратамиз. Бу тавсиф қанчалик даражада тўғридек кўринмасин, баъзи изоҳларга муҳтождир. Биринчидан, сўз туркумлари ажратилишида туб лексик маънонинг ҳиссаси унчалик сезилмайди. Иккинчидан, грамматик гуруҳлар синтактик ва морфологик кўрсаткичлари асосида фарқланаётганлигини унитмаслик керак. Учинчидан, сўзнинг ўзини ёки сўзформаси гуруҳланаётганлигини аниқлаш лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Fries Ch. The Structure of English. – N-Y.: Brace, 1952.
2. Белошапкова В.А. и др. Современный русский язык. – М.: Высшая школа, 1981.
3. Есперсен О. Философия грамматики. – М., 1958.
4. Замонавий ўзбек тили. Морфология. Т.: Мумтоз сўз, 2008. – Б. 383.
5. Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л: Наука, 1972. – С.128.
6. Кубрякова Е.С. Части речи в ономасиологическом освещении. – М.: Наука, 1978.
7. Слюсарева Н.А. Проблемы функциональной морфологии английского языка. М: Наука, 1986;
8. Иванова И.Б., Бурлакова В.В., Почепцов Г.Г. Теоретическая грамматика современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1981.
9. Ўша дарслик, 383-384 б.
10. Щур Г.С. Теория поля в лингвистике. – М.: Наука, 1974.
11. Щчерба Л.В. О частых речи в русском языке. В кн.: Избранные работы по русскому языку. - Л., 1957. С. 64.

УЎК 808.5

МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ЛИРИКАСИДАГИ ШАКЛИЙ-МАЗМУНИЙ ЯНГИЛАНИШЛАР

Г.М. Орипова, PhD, Фарғона давлат университети, Фарғона
Г.А. Юнусалиева, ўқитувчи, Фарғона политехника институти, Фарғона

Аннотация. *Мақолада мустақиллик даври лирикасидаги шаклий-мазмуний янгиланишлар кичик лирик жанрлар поэтикаси тадқиқи орқали ёритилган. Шеърнинг жанр хусусиятларини белгилашда композицион-структурал ўзгаришлар ва индивидуал поэтик услуб масалаларига эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *жанр, поэтика, поэтик шакл, поэтик маҳорат, шаклий-мазмуний янгиланишлар, композицион-структурал ўзгаришлар, индивидуал поэтик услуб.*

Abstract. *The article explores the formal-semantic updates in the lyricism of the independence period through a study of the poetics of minor lyrical genres. In determining the genre features of the poem, attention is paid to the issues of compositional-structural changes and individual poetic style.*

Keywords: *genre, poetics, poetic form, poetic skill, formal-semantic updates, compositional-structural changes, individual poetic style.*

Аннотация. *В статье исследуются формально-смысловые обновления в лирике периода независимости через изучение поэтики малых лирических жанров. При определении жанровых особенностей поэмы внимание уделяется вопросам композиционно-структурных изменений и индивидуального поэтического стиля.*

Ключевые слова: *жанр, поэтика, поэтическая форма, поэтическое мастерство, формально-смысловые обновления, композиционно-структурные изменения, индивидуальный поэтический стиль.*

Жанр муаммоси ва адабий асарларни таснифлаш, уларнинг жанр белгиларини аниқлашда асосий мураккаблик адабиётдаги тарихий ўзгаришлар ҳамда жанрларнинг ривожланиши билан боғлиқ ҳодисалар ҳисобланади. Жанр (франц. genre - тур, хил) – бир хил жинсга тегишли маълум бир турдаги адабий асарлардир.[1;415] М.М.Бахтиннинг фикрича, жанр адабиёт ривожининг ҳар бир босқичида индивидуал асарнинг яратилиш жараёнида янгидан туғилади ва янгиланади. Шундай экан, "ҳар қандай танқидий ёндашув янги тур занжири, янги жанр моделини кашф этишни англатади".[3;244] Илгари мавжуд бўлган поэтик шакллар негизида юзага келаётган ҳозирги шеърлар шакл ва мазмун жиҳатдан бутунлай янгидир. Профессор Й.Солижонов таъбири билан айтганда: «Бугунги ўзбек шеърияти ўз вазифаси жиҳатидан ҳам, шаклу шамойили ва мазмуни билан ҳам жиддий ўзгаришларга учради. Бинобарин, шеърият янгиликка юз тутди».[4;11]

Мустақиллик даври адабиётининг шаклий-мазмуний янгиланишида шеъриятимизнинг кичик лирик жанрлари алоҳида аҳамиятга эга. Олим Қ.Йўлчиевнинг "Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик" номли монографиясида бирлик ва учлик шеър жанрларининг генезиси ҳамда қиёсий таҳлили тадқиқ этилган ва услубий изланишлар натижасида қайта ишланган жанр эканлиги илмий исботланган.[5;114] Дарҳақиқат, анъанавийлик, такрорланиш ва устуворлик жанрлар учун хос хусусият. Зеро, "шеъриятимиз асрлар давомида амал қилиб келинган поэтик канонларни инкор қилиб, ўзгарган мазмун-моҳиятга мос янги шакл бобида изланишлар даврига кирди. Бу изланишларнинг энг муҳим ва шеъриятимизда туб янгиланишга олиб келган йўналишлари сифатида шеърнинг ритмик-интонацион сатҳида, поэтик ифода йўсини ва субъектив ташкилланишдаги ўзгаришларни кўрсатиш мумкин".[6;274] Ана шундай ўзгаришлар Фахриёрнинг бирликларида кўринади:

Суяк сурар...тақдир ҳам [7;236]

Шеърда қофия орқали оҳангдорликни таъминлаш имконияти бўлмаганлиги боис, унинг ритмик-интонацион сатҳида фикр салмоқдорлиги ва маънодорлик етакчи ҳисобланади. Шоир эвфоник воситалар орқали оҳангдорликни юзага келтирган ва шеърда авлодлар тақдиридаги ўхшашликка ишора қилган ҳолда ***с*** товушига хос аллитерация ҳамда ***я, а*** товушлари такроридаги ассонанс орқали поэтик ғояни сингдирииб юборган.

Иккиликлар мумтоз адабиётимизнинг кичик лирик жанри фарднинг тарихий тараққиёт босқичлари асосида ривожланган шаклий изланишлар маҳсулидир. Улар генезиси халқ оғзаки ижоди жанрлари: мақоллар (*Барвақт қилинган ҳаракат, Ҳосилга берар баракат*), топишмоқлар (*Тўрт оёқли, темир туёқли*), туркий ёзма ёдгорликларимиз (М.Кошғарий "Девони луғотит турк") ҳамда мумтоз адабиётимиз манбаларига таянади. Фарднинг луғавий маъноси профессор Х.К.Баранов тузган арабча-русча луғатда "1) бир, битта, 2) ёлғиз, 3) бир шахс, алоҳида олинган шахс", деб изоҳланган. Фард (арабча, якка) алоҳида ёзиладиган ё иқтибос тариқасида ғазал, қасида ё қитъадан келтириладиган, бир байтдан иборат бўлган лирик жанр, иккала мисраси ҳам қофия, тугал маъноли, фикр кўпинча афористик тарзда ифода этиладиган, ибратли, ҳажми бир байтдан ортмайдиган мустақил адабий асардир.[8;200] Демак, фард шаклий тузилиш жиҳатидан байт сингари икки мисра бўлса ҳам мустақил асар сифатида жанр саналади. Мустақиллик даври лирикасида иккилик шеър жанрининг энг сара намуналари А.Обиджон, С.Саййид, Турсун Али, Улуғбек Ҳамдам, Фахриёр каби шоирлар ижодида учрайди. Турсун Алининг қуйидаги иккилик шеърида лирик қаҳрамон руҳий манзараси ёлғиз қолган инсон ҳолати орқали чизилган:

Бу ерда мен ёлғиз эмасман,
Ёнимда кезинар Ёлғизлик. [9;77]

Шеърнинг иккала мисраси ҳам 9 бўғинли бўлиб, 3+3+3 туроқланишга эга, лекин мисралар ўзаро қофияланмаган. Мумтоз адабиётимиз тарихида ҳам қофияланмаган фардлар Мавлоно

Лутфий ижодида 30 та ҳамда Алишер Навоий ижодида 5 та учраши ҳақидаги маълумотлар М.Ойматованинг "Ўзбек адабиётида фард жанри поэтикаси ва тарихи" номли тадқиқотида текширилган. Турсун Алининг юқоридаги иккилик жанридаги шеъри биринчи ва иккинчи мисралар ўртасидаги мантиқий боғланишга ҳамда синтактик қурилишга эга. И.С.Брагинскийнинг фикрига таянган ҳолда айтиш мумкинки, "Ҳар бир мисра – бу бир синтактик бутунлик. Аммо биринчи ва иккинчи мисрадаги ўзаро боғлиқлик биринчисининг иккинчисига замин тайёрлашида, унга шароит яратишида экспозиция бўлиб хизмат қилишида аниқ ифодаланади". Шундай экан, шеърнинг ритмик-интонацион сатҳида поэтик ифода йўсини ўзига хос тузилишга эга: тезис – хулоса, яъни биринчи мисра тезис ва иккинчи мисра хулоса вазифасини ўтаган. Биринчи мисрадаги "ёлғиз эмасман" бирикмаси иккинчи мисранинг юзага келишига замин ҳозирлаган. Демак, мисралар ўртасидаги синтактик ва семантик алоқалар кучайтирилган. Иккилик жанрининг мухим хусусиятларидан бири мантиқан тугал фикр ифодалашидадир.

Учлик шеър жанрининг тарихий тараққиёт босқичлари ўзбек халқ оғзаки ижоди, мумтоз адабиёт анъаналари ва жаҳон адабиёти ютуқларининг синтези натижасида шаклий-мазмуний жиҳатдан ривожланмоқда. *"Литературный энциклопедический словарь"да қайд этилишича: "Хокку, хайку япон шеъриятида уч қаторли лирик шеър, танка билан бирга "дентосси" ("шеърий анъаналар") ҳаракатининг миллий шакли. Хоккуларда табиат ва инсон ўртасидаги абадий давомийлик тасвирланади.* Ҳар бир хоккуда маълум шеър ўлчови кузатилади: биринчи ва учинчи сатрлар беш бўғинли, иккинчи сатр етти бўғин, жами ўн етти бўғин. Хоккуда қофия мавжуд эмас". Япон шеърияти ҳоккулари таъсирида яратилган учликлар Абдулла Шер ижодида ҳам талайгина.

Бирдан белимда
Даҳшатли оғриқ турди:
Ғўза гуллабди

Шеърда сиқиқ ифода ва иборалар воситасида ифодаланган чуқур маъно миллийлик руҳи асосида бўртиб туради. Пахта яккахокимлиги ҳукмрон бўлган шўро даври воқелигига ишора қилинган ҳолда лирик қаҳрамон белида турган даҳшатли оғриқ халқ бошига тушган пахта билан боғлиқ кулфатларни ёдга солади. Шеърнинг биринчи мисраси 5 бўғин, иккинчи мисраси 7 бўғин ва учинчи мисраси 5 бўғин бўлиб, жами 17 бўғиндан иборат. Мисралардаги *и,а* унли товушлар такрори асосидаги ассонанс ва *б, р, д* ундош товушларига хос аллитерация шеърнинг оҳангдорлигини таъминлашга ва поэтик мазмунни очишга хизмат қилган. Лирик қаҳрамоннинг дардли кечинмалари табиат билан уйғун ҳолда бирлашиб, ***и*** товуши мунгни, ***а*** товуши аламли ҳайқириқни, ***д*** товуши эса дардли оғриқни ифодалаган. Кўринадики, учлик шеър жанри табиатидаги композицион-структурал ўзгаришлар ўзаро адабий таъсир ва индивидуал поэтик маҳорат билан боғлиқ ҳолда кечган.

Тўртликлар ўзбек шеъриятининг тараққиёт тарихида муҳим ўрин татди. Маълумки, тўртлик тўрт мисрадан иборат мустақил шеърий асар. Тўртликнинг тарихи жуда қадимий бўлиб, у дастлаб фольклорда пайдо бўлган. Тўртликлар рубоийдан ўзининг шаклий хамда мазмуний жиҳатлари билан фаркланади. Бу ҳақда академик Наим Каримов "Шарк поэзиясида кенг таркалган рубоий халк шеъриятидаги тўртликлардан шаклий асос олган бўлиб, ўз темаси ва ғоясига, барқарор жанр хусусиятларига, кичик шеърий шаклга эга бўлган мустақил ва мукаммал асардир" дейди. Рубоийлар ***аааа, аааа*** каби шаклий қофияланиш тартибига эга ҳамда аруз вазнининг ахрам ва ахраб тармоқларида ёзилиши унинг ўзига хос хусусиятини белгилайди. Рубоийларда чуқур фалсафий умумлашмалар ифодаланади.

Тўртликларнинг мавзу доираси кенг бўлиб, унда шоир хулосалари лўнда, поэтик ифодаланади. Буни Абдулла Ориповнинг қуйидаги тўртлиги мисолида кўрамиз:

Бугун холи қўйдим яна дафтаримни,
Буни балки кимдир ялқовликка йўйди.
Асли сенга айтар ҳамма гапларимни,
Булбул айтиб қўйди.

Шеър ***абаб*** тарздаги кесма қофияланишга эга бўлиб, биринчи, иккинчи ва учинчи сатрлар 6+6 туроқланиш асосидаги 12 бўғиндан иборат. Тўртинчи сатр эса 2+4 туроқланган ва 6 бўғинни ташкил этади. Бу эса тўртликнинг ўзига хос шаклий жиҳати. Шеърдаги булбул мумтоз адабиётимиз намуналаридаги анъанавий образ бўлиб, шоирнинг услубий изланишлари ва индивидуал поэтик маҳорати асосида янгича мазмун касб этган. Тўртликдаги булбул энди ошиқ эмас, у ҳақиқатни сўйлагувчи шоир. Тўртлик архитектоникаси тезис-антитезис-синтез-хулоса асосига қурилган бўлиб, реалистик тасвир намоён бўлган.

Хулоса қилиб айтганда, мустақиллик даври адабиётидаги кичик лирик жанрларнинг бугунги кундаги ривожи тарихий тараққиёт босқичлари, композицион-структурал ўзгаришлар, индивидуал

поэтик услуб билан боғлиқ ҳолда ҳозирги лирикамизнинг шаклий-мазмуний бойишига хизмат қилмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.http://niv.ru/doc/dictionary/poetic-vocabulary/fc/slovar-198.htm#zag-190. Литературный энциклопедический словарь / под общ. ред. В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – М. : Сов. энцикл., 1987. – 751 с.

2. Поэтика: слов.актуал.терминов и понятий/ [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. – М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. – С. 69.

3. Уэллек Рене, Уоррен Остин. Теория литературы. –М.: «Прогресс»,1978. - Стр.244

4. Солижонов Й. Лирика латофати, насрнинг назокати. – Т.: "Адабиёт учқунлари" нашриёти, 2018. –Б.11

5. Йўлчиев Қ. Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик. Монография. - Т.: "Турон замин зиё", 2016. - Б.114.

6. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияти: Илмий мақолалар.-Т.: "Adib", 2012. – Б.274.

7. Фахриёр. Ислам. Т.: "Akademnashr", 2017. – Б.236.

8. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: "Фан", нашриёти, 1992. – Б.200.

9. Турсун Али. Ой япроғи. – Т.: Шарқ, 2008. – Б.77.

УЎК 81-13

БЎРОН БЕК АСЛОН ИЖОДИДА ИНСОНПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Ф.Ражабов, таянч докторант, НавДПИ, Навоий

Аннотация. *Ушбу мақола нуроталик шоир Бўрон Бек Аслон ҳаёти ва ижодига бағишланган бўлиб, шоир ижодининг етакчи ғоялари, шеърларининг мавзу кўлами ҳақида атрофлича фикр юритилган.*

Калит сўзлар. *Нурота, Шомуродчорбоғ, ижод, шеър, ҳикоя, эстетика, руҳият, инсонпарварлик.*

Аннотация. *Это статья посвящена жизни и творчеству нуротского поэта буря Бека Аслона его творчеству посвящены ведущие идеи творчества поэта, всестороннее размышление о тематическом масштабе его стихов.*

Ключевые слова. *Нурата, Шомуродчорбог, творчество, поэзия, история, эстетика, психика, гуманизм.*

Abstract. *This article is devoted to the life and work of the Nurlat poet storm Beck Aslan, the leading ideas of the poet's creativity, a comprehensive reflection on the thematic scale of his poems are devoted to his work.*

Keywords: *Nurata, Shomurodchorbog, creativity, poetry, history, aesthetics, psyche, humanism.*

Бадиий ижод билан шуғулланиш, шеър ёки ҳикоя ёзиш кишига бериладиган неъматдир. Борлиқни англашнинг юксак эстетик завқи ижод маҳсули ҳисобланади. Шундан кишининг англаш, тасаввур қилиш ва тафаккур имконияти пайдо бўла бошлайди. "Ёзиш - юрак буйруғи, бировни иншо ҳуқуқидан ҳеч ким чеклай олмайди. Зотан ижодкор қисмати – жуда мураккаб феноменологик ҳодиса. Ижоднинг қолипи йўқ. Ижодкор муайян ижтимоий талабга мос стеротиплар ичида ўзлигини йўқотади. Қалам аҳлининг келажагидан башорат бериш мушкул. Ижод сўзга, руҳиятга, кўнгил маъвосига, шон-шуҳратга дахлдор; Юксалиш ва таназзулларни ўзида жамлайди. Инсониятга фойдали самараларни, ўз индивидуал ҳаётига тегишли бесамар ўтган умрни инъикос эттиради"[1, 86].

Нуроталик Бўрон Аслонов ҳам ўз шеърлари орқали мухлисларига эга ижодкорлардан биридир. Бўрон Бек Аслон (Аслонов Бўрон Бекмуродович) 1964 йил 25 январда Нурота тумани Шомуродчорбоғ қишлоғида туғилган. 1981 йил тумандаги 8-ўрта мактабни тугатган. Мактаб давриданоқ ўқишга бўлган интилиши ва қизиқиши, шеърларидаги бир-бирига оҳанг жиҳатдан мос келувчи мисралар яъни қофиялар ёш ўқувчи эътиборини ўзига жалб этган. Бу ҳолни муаллиф шундай хотирлайди: "Менинг ижод қилишимга туртки бўлган омиллар бошланғич синф дарслигидаги шеърлар ва топишмоқлар бўлса иккинчидан 4 синф ўқиш дарслигида ўқитиладиган Ҳамид Олимжоннинг "Семурғ ёки Паризод ва Бунёд" достонини ўқиш жараёнидаги жумлалар, ўқиш жараёнидаги равонлик, қофиялар тизими менга бошқача таъсир қилган". Ёш ўқувчи қалбида ўқишга бўлган қизиқиш ва интилиш туфайли 1977 йил 2 ноябрьда биринчи шеърни мисраларини топгандек бўлдим ва уни шундай мисралар орқали "Пахтага кон Ўзбекистон, Жонга пайванд Ўзбекистон..." ифодаладим:-дейди, муаллиф.

1979 йил 21 августда илк шеърлари шоир Қуддус Муҳаммадий муҳаррирлик қилган Республика "Бинафша" радиожурналида ўқиб эшиттирилган. Шунингдек, Жиззах вилоятининг Пахтакор туманида чиқадиган "Пахтакор" газетасининг 1981 йил 27 ноябр сонида биринчи шеъри "Ҳорма энди"[2, 3] номи билан нашр қилинган.

1982-1984 йилларда Собиқ СССР Ички ишлар вазирлиги қўшинлари сафида ҳарбий хизмат давомида 3426 ҳарбий қисм двизиясида чиқадиган майёр Евгени Рябцев муҳаррирлик қилган "Всегда на стране" газетасида мухбир бўлиб фаолият юритган. 1995 йилда Навоий давлат педагогика институти Ўзбек тили ва адабиёти мутахассислигини ҳамда 2012 йил Навоий вилоят Педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институтида иккинчи мутахассисликни рус тили ва адабиёти бўйича тугатган.

2010 йилда "Чорбоғ гулдастаси"[3, 41] номли илк шеърий тўплами нашр қилинган. 1985 йилдан буён тумандаги 17 умумий ўрта таълим мактабида она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси лавозимида ишлаб келмоқда. Доимий изланишда бўлиб 2003, 2008, 2010-йилларда ўтказилган "Ижодкор ўқитувчи" кўрик танловлари туман, вилоят босқичларида фаол иштирок этган. Шоирнинг ижод олами ранг-баранг бўлиб турли мавзуларни ўзида мужассамлаштиради. Ватан, табиат, ота-она, инсонийлик, меҳр-оқибат каби мавзуларда яратилган шеърлар шоир ижодида етакчилик қилади. Шоир меросини шеърлар, ғазал, туюқ, рубоий, тўртликлар шаклидаги асарлар ташкил қилади.

"Ўзбекистон", "Ўзбекистонман", "Ҳайратдан" шеърларида Ватанга бўлган муҳаббат, "Онани", "Мотамсаро она ҳайкалига", "Отажон" , "Нечун?" шеърларида ота-онанинг беқиёс меҳри, "Меҳнатдан қочиб", "Бошимдаги дўппига", "Тандирга", "Ер дер" каби шеърларида инсон қадр қиммати ва уни англашга бўлган муносабатлар гўзал тарзда ифодаланган.

Адабиётшунос олим филология фанлари доктори, профессор Абдуғафур Расулов[4, 130] "Бадиийлик-безавол янгилик" асарида Эркин Воҳидов ижодига муносабат билдириб шундай дейди: "Эркин Воҳидов шеърлари қалбларга дарҳол йўл топади. Лекин шоир яратган шеърий оламга йўл топиш осон эмас. Бир қарасангиз, шоир ғазаллари оппо-осон: гул, ғунча, сайл, рубобнинг икки тори, гулчеҳралар, қорхат... Бир қарасангиз, Донишқишлоқ латифалари, Матмусанинг ҳазил (таги зил) қилмиш-қидирмишлари! Достонлардаги равонлик, ровийнинг ғаройиб раҳнамолиги, шеърхонни суюб- ардоқлаб воқеалари ичига етаклаши... Ўйлаб кўрилса, осондек туюлган шеър, ғазал, достонлар мағзида олам-жаҳон мураккаблик яшринганлигини ҳис қиласиз"[5, 241]. Бу ҳол айни ижодкор яратган шеърларда ҳам яққол кўринади.

Бир қараганда ижодкорнинг шеърлари осондек туюлади лекин унинг замирида инсон учун муҳим фалсафий мулоҳазалар мужассам. Эҳтимол шоир Эркин Воҳидовни ўзига устоз деб билгани учун ёки ихлос билан шоир ижодини қалбан ҳис қилгани учун гўзал мисралар яратишга эришган. Инсон бор экан аввало ўзини ва ўзлигини унутмаслиги керак. Бу борада шоирнинг "Ҳайратдан" номли шеърида шундай туйғуларни йўқотмасликка чақиради:

Мовий кенгликларга узатади қўл,
Туғилган ерини унитиб инсон.
Кўкка чиқмоқ учун ахтаради йўл,
Чексиз гўша бўлсин деб менга осмон.
Ҳайратдан ёқамни тутаман шу дам,
Ҳурмат этолмасак ер куррамизни.
Бизни олам ичра борлигимиз шу,
Замин отли бўлган сайёрамизни. [3, 7]

Киши мовий кенгликларга қўлини чўзиб, туғилган ерини унитиб, кўкка чиқмоқ учун йўл ахтаради, осмон менга чексиз жой бўлсин деб. Шунда ҳайратдан ёқамни ушлаб, ҳурмат қилмасак еримизни, бизни олам ичида борлигимиз шу-ку, бу замин деб аталадиган сайёрамизни дея, таъкидлайди шоир. Ижодкорнинг "Ер дер" сарлавҳали шеъри эса, ҳаётда содир бўлган воқеа асосида яратилган. Бу ҳақида муаллиф шундай дейди: Кунларнинг бирида икки қўшни икки қарич ер устида тортишиб қолишди. Шунда мен бориб уларга икки қарич ер учун тортишишнинг нима кераги бор арзимаган нарса учун инсонийлигингизни ерга уриб шундай қилишингиз тўғрими? Керак эмас, аслида ҳаммамиз ерникимиз дедим. Шунда икки қўшни ҳам гапга унамади ва менга бу ҳолат таъсир қилди ва ушбу ҳолат таъсирида ушбу шеър яралди:-дейди муаллиф.

Ер дер
Бир қарич ер устида,
Икки қўшни тортишди.
Иккиси ҳам ўр эди,
"Сан-ман"га ҳам боришди.
-Бу ер меники?-дея,
Билмадим яна қанча?
-Мен сендан камми?-дея,
Ёқалашди ҳам анча.

Бу ҳолни кузатиб хўп,
Тилга кириб она-Ер.
Тортишманглар бундай кўп,
Икковинг меники-дер. [3, 11]

"Шеърият нафис туйғулар тўридир. Бу тўрнинг қанчалар нафис, чиройли тўқилиши шоир маҳоратига боғлиқ. Маҳорат жуда зарур, лекин у шеър билан бирга яхлит туғилиши, табиий нутқни бузмаслиги керак. Шеърий мусиқа, товушлар оҳангдошлиги бадиий заифликни яширишга эмас, балки шеърнинг уйғунлиги ва мусиқийлигини таъминлашга хизмат қилиши зарур. Маҳорат ва истеъдод бир-бирини тўлдириб келиши зарурлиги шеъриятнинг бош талабларидан биридир"[6, 77]. Бизнингча, содда мисраларда баён қилинган мавзу ва мулоҳазалар маҳорат билан ифодалангани учун ҳам шоир шеърлари диққатингизни ўзига жалб қилади.

Шоир туюқларида олам ва одам муносабатларини, тўғрилик, софдиллик ғояларини илгари суради.

Уфққа интилар ҳар бир майса, ўт,
Ҳақ эсанг ҳамиша ўз йўлингдан ўт.
Соф бўлмай ўтсак гар бўлиб лоқайд,
Дунёни кул қилур тушган лахта ўт. [3, 31]

Осмонга интилар ҳар бир майса, ўт, тўғри бўлсанг ўз йўлингдан юр, агар соф бўлмай, лоқайд ўтсак, дунёни кул қилур лахта чўғ яъни олов:- дейди шоир.

Шоир рубоийларида эса бош мавзу инсон ва унинг бу ҳаётдаги асосий мақсади эзгу амаллардан иборатлиги хусусида сўз боради. Биров-бировга яхши, ёмон бўлмасин, лекин меҳрли инсон бўлайлик, ҳаммамиздан қолади бу дунё. Барчамиз бу дунёга келиб-кетувчи меҳмонмиз.

Ким-кимга бўлмасин яхши-ю, ёмон,
Бўлайлик доимо меҳрли инсон.
Токи ҳаммамиздан қолар дунёда,
Биз келиб-кетгувчи оддий бир меҳмон. [3, 33]

Ёки тўртликларида ҳам ҳаёт ҳақиқатларига асосланган гўзал ифодаларни кўриш мумкин:

Яралгандан буён кўрмади жаҳон,
Зайлига боққанча ҳар бир замонни.
Ишларим нотўғри, сўзларим ёлғон,
Мен ноҳақ бандаман деган инсонни. [3, 38]

Дунё яралгандан буён ўз майли билан боққан замонни, ишларим нотўғри, сўзларим ёлғон ва ноҳақман деган бандани кўрмадим:- дея ўз кузатишлари натижасида орттирган ҳаётий фалсафаларини баён қилган.

Шоир ана шунда мавзулардаги ибратли мисраларни маҳорат билан яратади. Бу каби мавзулар ҳеч бир китобхонни бафарқ қолдирмайди. Чунки, кишилар ўртасидаги инсонийлик ва меҳр-оқибат ришталарининг йўқолиб бораётганлиги шоирни қайта ва қайта шу мавзуда қалам тебратишига ундаган бўлса ажаб эмас. Ижодкор бугунги кунда ҳам ижод билан банд. Шунингдек, "Юрак мавжлари" ва "Кўнгил кўчаларида" шеърий тўпламлари ҳамда насрда ҳикоя ва ҳажвиялар устида ишламоқда.

Хуллас, Бўрон Бек Аслон ижоди билан танишар экансиз, асосий мавзу инсон ва унинг юксак фазилатлари хусусида сўз боради. Инсоннинг инсонийлиги ва бошқа мавжудодлардан ажралиб турувчи ахлоқи ҳамиша эзгуликка хизмат қилиши даркор. Бу фоний дунёда инсон ҳамиша эзгулик истаб, яхшиликлар қилиб инсонийлик номига доғ туширмаслиги каби мавзулар шоир ижодида етакчилик қилади. Ижодкор томонидан қаламга олинган мавзулар: инсонийлик ва инсонпарварлик, одоб-ахлоқ, яхшилик ва ёмонлик, гўзаллик ва нафосат умрбоқийлиги билан қалби ва руҳи, маънавияти ва маърифати уйғоқ қалбларда мангу яшайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. Т.; 2018. 364 б
2. Аслонов Б. Ҳорма энди. // Пахтакор. 1981, 27 ноябрь
3. Бўрон Бек Аслон. Чорбоғ гулдастаси. Н.; 2010. 41 б
4. Абдуғафур Расулов. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014, 5-сон.
5. Расулов А. Бадиийлик–безавол янгилик: Илмий– адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар.-Т.:"Шарқ",2007.336
6. Холиқова Д. Шеърият-нафис туйғулар санъати // Тил ва адабиёт таълими. 2007. 1-сон.

УЎК 82-94.001.36

АЙРИС МЁРДОКНИНГ «ТУЗОҚДА» РОМАНИДА СЮЖЕТ ВА УНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ФУНКЦИЯЛАРИ

Г.К. Расулова, ўқитувчи, Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти, Тошкент

Аннотация. *Мақолада инглиз адиби Айрис Мёрдокнинг «Тузоқда» романи бадиияти таҳлил этилади. Бунда асосий эътибор романдаги сюжет қурилиши ва сюжет таркибий қисмларининг жойлашувига қаратилади. Экспозициянинг сюжет ривожидаги вазифаси, тугуннинг бошланиши ва образ мантиғидаги ўрни, вазият яратишда тугуннинг таъсири, бош образнинг сюжетдаги ўсиб бориш даражаси, эпизодларнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақида баҳс юритилади.*

Калит сўзлар: *роман, композиция, образ, сюжет, экспозиция, тугун, ечим, мотив, воқеалар ривожи, кульминацион нуқта.*

Аннотация. *В статье анализируется искусство романа «Ловушка» английской писательницы Айриса Мердока. Основное внимание уделяется построению сюжета и расположению сюжетных компонентов. Роль экспозиции в развитии сюжета, начало узла и его роль в логике образа, влияние узла на создание ситуации, степень роста основного образа в сюжете, взаимообусловленность обсуждаются эпизоды.*

Ключевые слова: *роман, композиция, образ, сюжет, экспозиция, узел, развязка, мотив, ход событий, кульминация.*

Abstract. *The article analyzes the art of the novel "The Trap" by the English writer Iris Murdoch. The focus is on plot construction and the placement of plot components. The role of the exposition in the development of the plot, the beginning of the node and its role in the logic of the image, the influence of the node on the creation of the situation, the degree of growth of the main image in the plot, the interdependence, episodes are discussed.*

Keywords: *novel, composition, image, plot, exposition, knot, denouement, motive, course of events, culmination.*

Кириш. XX аср инглиз адабиётининг ёрқин вакили бўлган Айрис Мёрдок романчиликда ўзига хос йўналишга эга. Унинг «Тузоқда» романи муаллиф ижодидаги илк роман бўлиб бўлиб, 1954 йилда эълон қилинган. Роман эълон қилинган йили муаллиф 35 ёшга кирган эди [1]. Унгача эса университетда дарс берган, француз олими Жан Пол Сартр ижоди бўйича диссертация ҳимоя қилган файласуф, адабиётшунос олим эди [2]. Айнан шу хусусият «Тузоқда» романи бош қаҳрамон Жеймс Донакью ҳаётида учрайди. У ҳам ўттиздан ошган, у ҳам адабиётчи ва у ҳам баъзан воқеаликка донишманд кўзи билан қарайди, у ҳам Францияга тез-тез бориб туради ва француз тилидан инглиз тилига асарлар таржима қилади. Бу эса Айрис Мёрдок илк романига жиддий ёндошгани ва унинг бош қаҳрамонига хос хусусиятларнинг баъзиларини ўз ҳаётидан олганлигини кўрсатади. Дарҳақиқат, ҳаётий материал ёки диспозиция, фабула бу реал ҳаётдан олиниб роман учун тайёрланган, аммо ҳали бадиий асарга айланмаган материалнинг турли қисмлари саналади. Ёзувчи уларни қай тарзда сюжетган айлантиргани,бунда сюжет ва унинг таркибида қандай жойлашувлар юз бергани шу пайтгача янги давр нуқтаи назари билан таҳлил этилмаган.

Методологик асос. Аслида «Сюжет (фр. sujet - предмет, асосга қўйилган нарса) – бадиий шаклнинг энг муҳим элементларидан бири, асардаги бир-бирига узвий боғлиқ ҳолда кечадиган, қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатларидан таркиб топувчи воқеалар тизими»[10, 288] бўлиб, асар қайси тур ёки жанрга мансублигидан қатъий назар барча асарда сюжет бўлади. Фақат жанри ва турига кўра турли асарларда сюжет турлича намоён бўлади [7]. Масалан, романда воқеалар ёрқин ифодаланган бўлса, лирика шеърда сюжет кечинма, ўй-фикрлар ҳаракати сифатида юзага чиқади. Тўғри, романда ҳам баъзан персонаж ўй-фикри шаклида ҳам намоён бўлиши мумкин. Аммо бу камроқ учрайди. Асосан қаҳрамонлар ҳарати натижадаги эпизодларнинг мантиқий кетма-кетлигидан иборат шаклий унсур ҳисобланади.

Шу ерда айтиш керакки, эпик асарларда сюжет анча кўламдор, кенг қамровли, ўзига хос ички макон ва вақт доирасида кечади. Шунингдек, воқеа ичидаги образ ва унинг ҳаракати билан боғлиқ бўлгани учун бир эпизод иккинчисидан ичидан «ўсиб чиқади». Масалан, Жеймснинг Магдалена билан суҳбати ва у ердан нарсаларни олиб кетишигап оид суҳбат сюжет линиясидаги бир эпизодик воқеа бўлиб, у ерда Магдаленанинг турмушга чиқиши ва бўлажак эрининг исми келтирилади. Бу образ кейинчалик романда бошқа эпизода фаол образ сифатида иштирок этади. Ёки шу ердаги уйни бўшатиш муаммоси ортидан бош қаҳармоннинг Тинкхем ёнига бориши ҳам сюжетдаги воқеаларнинг ўзаро боғлиқлигини кўрсатади. Лекин барчаси яъни, «сюжет ва унинг компонентлари жойлашуви, ... шахснинг асардаги ўрни, шахснинг бадиий тўқима йўли билан яратилган

характерлар тақдирига алоқаси ҳамда ...шахсларнинг ...тўқима бўлган "таржимаи ҳоли" ҳам умумий композициянинг мазмун-моҳиятидан келиб чиқади» [5,142].

Роман сюжетига диққат қилинса, унда ёзувчи ҳар бир воқеа кечадиган макон, ҳар бир образлар тавсифи ҳақида имкон қадар батафсил маълумот беришга уринганини кузатиш мумкин. Бу эса, бир томондан, Айрис Мёрдокнинг узоқ йиллар университетда дарс бериб, ҳаётни жиддий кузатганини, иккинчи томондан эса ўз романига жиддий ёндашганини кўрсатади. Айниқса, сюжетга асос бўлган воқеа-ҳодисалар, уларнинг романдаги аҳамиятига алоҳида тўхталиш керак бўлади.

Сюжетнинг яна бир хусусияти – бадиий асардаги воқеа-ҳодиса ва персонажлар ҳаётини маълум макон-замон бўйлаб ҳаракатда қилиши, турли шароит ва вазият тасвирини ҳам англатади. Айниқса, романдаги сюжет ва унинг таркибий қисмлари жойлашуви ўзига хос бўлади. Зеро, «сюжет бадиий асар таркибида салмоқли вазифани бажаради. Биринчидан, ҳодисалар қатори (айниқса, ягона ҳаракатни ифодаловчи) конструктив аҳамиятга эга бўлиб, улар тасвирланаётган воқеаларни ягона бир тизимга боғлайди, мустаҳкамлайди. Иккинчидан, сюжетда персонажлар ҳаракати етакчи бўлиб, шу йўл билан улар характери аниқланади.…Ҳодисалар персонажлар учун ўзига хос «ҳаракат майдони» ҳисобланиб, уларни ўқувчи кўз олдида ҳиссий ва ақлий жиҳатдан тенг ҳамда тўлақонли очилиши учун шароит яратади…. Ва ниҳоят, учинчидан, сюжет ҳаётий зиддиятларни аниқлайди ва яратади. Қаҳрамонлар ҳаётини зиддит ва конфликтсиз ёркин сюжетда ифодалаб бўлмайди»[9,189]. Демак, сюжет романдаги воқеа-ҳодиса ва персонажлар фаоллигини таъминловчи, асардаги конфликтлар ва унинг шаклини намоён этувчи муҳим бадиий компонент саналади. Шунинг учун ҳам ҳар қандай роман таҳлилида ундаги сюжет ва унинг таркибий қисмлари, яъни, кириш (пролог), экспозиция, тугун, воқеалар ривожи, кульминацион нуқта, ечим, хотима(эпилог)лар ва улар зиммасидаги бадиий-эстетик вазифага диққат қилиш лозим бўлади. Тўғри, биз текшираётган ушбу романда кириш (пролог), хотима (эпилог) мавжуд эмас. Бу эса одатий ҳол саналади. Аммо қолган асосий қисмлар мавжуд ва бу шарт бўлган сюжет таркиби ҳисобланади.

Бошқа бир манбада эса сюжет ва сюжетология ҳақида янада кенгроқ маълумот берилган. «Фақат саналган уч категория – макон, замон ва ҳодисани кўриб чиққачгина, сюжет тушунчаси (агар сюжет – ҳодисалар қатори бўлса, аввал, ҳодиса нималигини айтиш лозим)га ўтиш зарур, шундан кейингина сюжетологиянинг нисбатан хусусий тушунчаларини ҳақида сўз юритиш мумкин» [8, 178]. Демак, сюжет аниқ макон, замон ва ҳодисада юзага чиқади. Тасвирланаётган воқеликни аниқ макон ва замонда кузатиш ундаги ҳодиса моҳиятини англашга ёрдам берадиган, деган хулосага келиш мумкин.

Баҳс ва мунозаралар. Бадиий асардаги воқеаларда «…руҳ, қалб, идрок бирлиги бадиий макон сифатида юзага чиқади ва ташқи маконни ифодаловчи турли деталлар инсон ички оламига кўчиб, реал маконнинг ботиний шаклини шакллантиради» [6,149]. Шу маънода ёзувчи ташқи оламдан таъсирланиб, ўз ички оламига кўчирган воқелик, муаллиф ботинида қайта ишланиб, ўзига хос макон ва замондаги бадиий воқеликка айланади. Улар қоғозга тушганда эса аниқ жанри, сюжет линияси билан яратилади. Бунда қатор омиллар сюжет унсурлари ифодасини таъминлайди. Масалан, романда экспозициянинг бошланиши сифатида келтирилган қуйидаги парчага эътибор қаратамиз: «When I saw Finn waiting for me at the corner of the street I knew at once that something had gone wrong. Finn usually waits for me in bed, or leaning up against the side of the door withhis eyes closed. Moreover, I had been delayed by the strike. I hate the journey back to England anyway; and until I have been able to bury my head so deep in dear London that I can forget that I have ever been away I am inconsolable» [3, 5]. (Финн мени муюлишда кутарди ва унинг кўринишидан тушундимки, қандайдир кўнгилсизлик юз берган. Одатда Финн мени ўрнида ёки эшик кесагисига суяниб, кўзини юмганча кутиб оларди. Бундан ташқари, йўлдаги иш талаш намойиши ҳам мени ишлаб қолди. Ҳамма вақт Англияга қайтишни ёқтирмайман ва бутун борлигим билан севимли Лондонимга сингиб бу ердан кетганимни унутмагунимча тинчлана олмайман).

Биринчи гапдаёқ муаллиф воқеалар ривожи кутилмаган тус олишига ишора қилади. Бу, аввало, Финн (тўлиқ исми – Питер О`Финн) уни одатдан ташқари жойда, аниқроғи муюлишда кутиб қолганига урғу берилишда кўринади. Макон сифатида Питер О`Финн турган жой ва ровий уни учратган макон (кўча, муюлиш) баён қилинаётган воқеани аниқ ва ёркин тушунишга ёрдам бермоқда. Шунингдек, Финн муюлишда турибди, бунга изоҳ сифатида унинг дўстини қайтишини қаерда кутишини ҳам келтирмоқда. Бу эса ровийнинг ўз нутқидаги тафсилотларга берилишини англатади. Шунга кўра воқеаларни ровий кўламдор ва тафсилотларигача баён қилишдан аниқ кўзлаган мақсади бор дейиш мумкин. Бу аввало, роман воқеалар таъсирчанлигини таъминлайди, иккинчидан, ровий тилидаги бадиийликни кучайтиради. Учинчидан воқеа Лондон ҳаётининг образи сифатида ёркинроқ чиқадиМаълумки, роман ҳажмидан келиб чиқиб, ундаги сюжет

таркибий қисмлари кўлами ҳам каттароқ ва кенгроқ бўлади. Шу маънода юқоридаги парчанинг таркибида тугунга ва сюжет воқеаларининг кейинги ривожига асос бор. Шундан кейин эса Жеймс Донакью ва Финн ўзаро учрашиб, ўрта кўчада китоб тўла чемодонга устига ўтиришади. Бу икки йигитни ижара уйидан ҳайдашаётгани ҳақидаги гап келтирилади. Айнан "ижара уйидан қувилиш", аниқроғи "уйсизлик" романдаги воқеаларнинг асосий мотиви бўлиб, уйдан чиқарилиши ҳодисаси воқеалар тугуни саналади.

Таъкидлаш керакки, «Мотив [moh-teef], вазият, ҳодиса, ғоя,тасвир ёки характер тури. Кўп турли бадиий асарларда, халқ эртакларида ёки афсоналарида учрайди; ёки ҳар қандай умумийроқ мавзуда яратилган асар элементи»дир [4, 162]. Бу ерда эса бадиий асардаги вазият, персонажнинг ҳаракатини таъминлайди. Мотив Финни муюлишда туришга мажбур этган, Жеймсни ўйлантирган куч бўлиб, улар хаёлидан ўтаётган "ижарада яшаш", "кутилмаганда ундан қувилиши" (аслида кутилган бўлади, аммо ровий учун бу ҳамма вақт кутилмагандек бўлаверади) каби вазиятлар улкан шаҳарда яшовчи аксарият одамларга таниш муаммо бўлиб, воқеанинг кейинги ривожи қандай бўлиши барчага қизиқ туюлади. Шу ердан тугун бошланиб, у Жеймс Донакью ва Финннинг Магдалена олдига боришгани, у билан суҳбат жараёни ҳамда юкларини олиб чиқиб кетишгани ҳақидаги хабаргача бўлган эпизодлар сюжет тугуни вазифасида келган.

Фикримиз исботи сифатида, Жеймс Донакьюнинг Тинкхем хонимнинг газета ва бошқа майда-чуйдалар сотиладиган дўконига олдига боришида кўришимиз мумкин: « Mrs Tinckham keeps a newspaper shop in the neighbourhood of Charlotte Street. It's a dusty, dirty,nasty-looking corner shop, with a cheap advertisement board outside it, and it sells papers in various languages, and women's magazines, and Westerns and Science fictionand Ama-zing Stories.At least these articles are displayed for sale in chaotic piles, though I have never seen anyone buy anything in Mrs Tinckham's shop except ice cream, which is also for sale, and the Evening News. [3,11] (Шарлот- стрит ҳудудида Тинкхем хонимнинг газета сотадиган дўкони бор. Чанг босган, кир, ранги униққан кўринимсизгина дўконча эди. Эшигига ташқи томондан эълонлар тахтаси осилган. Ичида турли тиллардаги газета, аёллар журналлари, ковбойлар ва фантастик романлар ҳамда "Ажойиб қисса"лар сотиларди. Ҳар қалай сотиш учун териб қўйилган, аниқроғи, тахлами билан сочилган. Аммо бирор марта ҳам қачондир, кимдир уларни сотиб олганини кўрмаганман. Бу ерда Тинкхем хоним музқаймоқ, яна "Ивнинг ньюс"ни ҳам сотарди).

Сюжет воқеаларининг кейинги қисмидан олинган ушбу парчада тугунда бошланган уйсизлик муаммоси сабаб Тинкхем хоним ёнига келган Жеймс Донакью ушбу дўкон ва унинг аҳволини батафсил тасвирлайди. Бу эса тугундаги муаммонинг ечимига алоқадор бўлиши кутилган аёлнинг кимлигини нисбатан аниқроқ кўрсатарди. Ҳатто, бу ерда кўплаб мушуклар ҳам яшар, Жеймс Донакью уларни ҳар келганда ўз тиззасига олиб силаб ўтириши ҳамда ҳар эътимолга қарши бу ерда унинг спиртли ичимлиги ҳам сақлаши, аёл тинимсиз чекиши, сир сақлай билиш кабилар ҳам кўрсатилган. Тинкхэм хонимхарактеридаги бундай қирралар унинг кичикина дўкони тасвири билан мос келади. Демак сюжетнинг шу ерида Тинкхем хоним ва Жеймс дунёараши ўзаро яқинлигини тавсифларда берилган дейиш мумкин.

Натижалар. қоридаги таҳлил ва талқин натижаларидан кўринадики, сюжет ва унинг таркибидаги турли ҳодисалар бир-бири билан мантиқий боғланиб сюжет линияси ривожига ҳисса қўшади. Бош қаҳрамон бўлган Жеймс Донакьюнинг баъзи характер қирраларини, ички оламини, бошқалар билан суҳбатлашиш жараёнини ёркинроқ очиб беради. Натижада сюжет композицияси ичида обралар тизими ва бу иккисининг роман бадиий-эстетик вазифасини очишдаги ўзаро боғлиқлиги ҳам кўринади. Зеро, сюжет таркибининг жойлашуви бир томондан воқеалар ичида ҳаракатланаётган образга ҳам боғлиқ бўлади. У эса маълум мотив асосида ҳаракатланади.

Хулоса: 1. «Тузоқда» романида сюжет таркибий қисмлари хроникал тартибда жойлаштирилган бўлиб, сюжетнинг ҳар бир қисмига ёзувчи асар бадиий-эстетик концепциясидан келиб чиқиб, алоҳида вазифалар юклаган. Натижада сюжетнинг ҳар қисмида, масалан, экспозиция ёки тугунда вазиятлар батафсил ва атрофлича акс эттирилган. 2. Воқеалар ривожидаги эпизодлар бир-бирига образ мантиғи ва мотив асосида боғлаган бўлиб, бу хусусият роман сюжетини умумий композициядаги етакчилик вазифасини кўрсатади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Peter J. Conradi. Iris Murdoch: A Life. The authorized biography. Harper Collins E-Books. https://vdoc.pub.
2. Iris Murdoch. Sartr: Romantic Realist. – London: Harvester Press,1953. - 78 p. www.philpapers.org.
3. Iris Murdoch. Under the net. First published in 1954. – 202 p. www.massolit.books.ru
4. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. Chris Baldick. Published in the United States by Oxford University Press Inc., New York. 2001. – 236.
5. Икромхонова Ф.И. Ўзбек ва инглиз насрида тарихий асарлар поэтикаси (композиция ва образ). Филология фанлари доктори (DSc) … диссер. Тошкент, 2021. – 255 б.

6. Йўлчиев Қ.В. Лирик шеърда ботиний макон муаммоси. Сўз санъати. Халқаро журнал. 5 сон, 3жилд. 2020. – С.148-152. Doi Journal.10.26739/2181-9297.

7. Тамарченко Н.Д. Теоретическая поэтика: понят ия и определения. Хрестоматия по дисп. "Введение в литературоведение" и "Теория литературы". Москва, 1999**.** – 302 стр. http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Literat/Tamar/index.php

8. Теория литературы. В 2 т. Т. 1. Н.Д.Тамарченко, В.И.Тюпа, С.Н.Бройтман. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. - Москва: Академия, 2004. - 512 с.

9. Хализев Е.В. Теория литературы. - Москва: Высшая школа, 1999. - 400 с.

10. Қуронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 412 с.

УЎК: 8-39/8-5

"КЎҲНА ДУНЁ" РОМАНИДА БАДИИЙ НУТҚ ВА ҚАҲРАМОН ТАЛҚИНИ

З.А. Рахимов, доцент, Фарғона давлат университети, Фарғона

Аннотация. *Мақолада ўзбек адабиётининг ёрқин сиймоларидан бири Одил Ёқубов "Кўҳна дунё" романида бадиий қаҳрамон яратиш орқали узоқ ўтмиш воқелигини бадиийлаштириб, даврнинг мураккаб қирраларини қаҳрамонлар руҳиятига, шу билан бир қаторда, бадиий нутқнинг турфа хил кўринишларини полифоник талқинга сингдириб юборганлиги ҳақида фикр юритилади.*

Калит сўзлар: *тарихий роман, бадиий нутқ, тасвир, ижодкор услуби, маҳорат, руҳият, қарашлар.*

Аннотация. *В статье рассматривается творчество одного из ярких деятелей узбекской литературы Адыла Якубова, который воплотил реальность далекого прошлого, создав художественного героя в романе "Кўҳна дунё" ("Древний мир"). Впитаны сложные грани периода в психику героев. Высказано мнение, что художественная речь пропитана полифонической интерпретацией самых разнообразных проявлений.*

Ключевые слова: *исторический роман, художественная речь, изображение, творческий метод, мастерство, нравственность, взгляды.*

Abstract. *The article examines the work of one of the outstanding figures of Uzbek literature, Odil Yokubov, who embodied the reality of the distant past, creating an artistic hero in the novel "Kuhna dunyo"("The Ancient World") polyphonic interpretation of a wide variety of manifestations.*

Key words: *historical novel, artistic speech, image, creative method, skill, morality, views.*

Бир асрлик тарихга эга бўлган романчилигимиз тараққиёти йиллар давомида шаклланиб, поэтик янгиланиб келмоқда. Шу жиҳатдан истеъдодли ёзувчи Одил Ёқубовнинг тарихий романчилик тараққиётида ҳам ўзига хос маҳоратини алоҳида қайд қилиб ўтиш лозим. Адибнинг "Кўҳна дунё" романидаги талқинлардан узоқ ўтмиш воқелигидан ўқувчини хабардор қилиш билан бирга, ундаги тасвир усулининг ўзига хос ифодасини ҳам кузатамиз.

Ёзувчи "Улуғбек хазинаси" романида оддий халқ вакиллари, ижобий қаҳрамонлар портретини унчалик батафсил чизмасдан, бир-икки характерли белгилар орқали яратган бўлса, аксинча, "Кўҳна дунё"да қаҳрамонлар портретини анча мукаммал тасвирлашга ҳаракат қилади. Романда қаҳрамонларнинг ташқи кўриниши билан ички дунёсини диалектик бирликда тасвирлаб, бир қатор тўлақонли характерлар яратишга муваффақ бўлган.

"Кўҳна дунё" романида Абул Ҳасанак, шоир Унсурий, вазир Али Ғариб сингари сарой амалдорлари ва Пири Букрий каби савдогарлар табақаси вакиллари алоҳида ўрин эгаллайди. Улар улуғ алломалар Беруний ва Ибн Синолар билан ҳамоҳанг ҳолда бизни ўз замонасининг жирканч илдизларидан огоҳ этишга бўйсундирилган. Уларнинг характерида олимларни умуман менсимаслик, донишмандларга муносабатда фақат ўз фойдасини, манфаатини кўзлаш, бу йўлда ҳар қандай тубанликлардан қайтмаслик хусусиятлари устунлик қилади. Ана шундай сарой амалдорлари ўз характер мантиқидан келиб чиқиб, ҳақиқий Ибн Сино ўрнига сохтасини бошлаб келишдан, унинг жирканч ишларига шерик бўлишдан ҳам қайтмайдилар. Асарда худди шундай феъл-атворга эга бўлган Пири Букрий умр бўйи улуғ аллома Берунийга озор беради, унинг севгилиси Райҳонабонуга тажовуз қилади ҳамда олимни қадрдон жорияси Садафбибидан маҳрум қилади.

Асарда ана шундай тубанликлар эгаси бўлган кишиларга яқин турувчи Абу Шилқим ибн Шаҳвоний бутунлай бошқача қараш соҳиби сифатида кўринади. Бу образ ёрдамида ёзувчи гўё Абу Али ибн Сино образини иккилантиргандек бўлади ва шу билан ўз даврида бу улуғ олим қиёфасида турли шахслар бўлганлиги ҳақидаги халқ ривоятлари, афсоналарига таянади. Абу Шилқим ибн Шаҳвоний романда дастлаб улуғ олимга ҳасад қилади, унинг ютуқларини, халқ орасидаги обрў-эътиборини кўра олмайди, кейинчалик ўз ташқи қиёфасининг Абу Али ибн Синога ўхшашлигидан фойдаланиб, унинг мўътабар номини ўзи учун бир ниқоб ва битмас-туганмас бойлик манбаига

айлантиради. Абу Шилқим ибн Шаҳвонийнинг ёвуз кирдикорлари асарда ҳаққоний ва ишонарли тасвирланган. У буюк ҳаким номини ниқоб қилиб, минг-минглаб кишиларни алдайди, мустабид шоҳ Маҳмуд Ғазнавий олдида катта обрўга эга бўлади ва оқибатда ибн Синони чексиз таҳқирлаб, саройдан ҳайдатиб юборади. Шуниси муҳимки, Абу Шилқимнинг риёкорликка асосланган бу хатти-ҳаракатлари ва умуман турли хил алдов ва макр-хийла асосига қурилган ҳаёт йўли, шаҳарлар бўйлаб кезишлари, гоҳ бойлигини қаерга қўйишини билмай қолиши, гоҳ бор-будидан айрилиб ҳақиқий гадога айланиши романда жуда қизиқарли ва таъсирли эпизодларда ўз аксини топган. Асарнинг ютуқлари, ундаги кўп овозлилик (полифония) ҳақида яна кўпгина фикрларни айтиш мумкин. Лекин бу романнинг асосий камчиликларидан бири қаҳрамонлар нутқининг индивидуаллашмаганлигида, кўпгина олимлар, донишмандлар, сарой амалдорлари бир хил оҳанг ва услубда сўзлашларида кўринади. Тўғри, бу асар ҳам мазмундор тилда ёзилган, бу жиҳатдан академик М.Қўшжоновнинг қуйидаги фикрларида асосли қарашлар мавжуд: "Одил Ёқубов ҳаёт билан ҳамнафас ёзувчи. У гоҳ узоқ, гоҳ яқин ўтмишга, гоҳ ҳозирги кун мавзусига мурожаат қилади ва ҳар хил замонга хизмат этадиган ғояларни кўтариб чиқиб, шу орқали ҳаётга ўзининг санъаткорона муносабатини билдиради" (1, 302).

Ҳақли равишда эътироф этилганидек, адибнинг ҳар бир асари ўқувчи қалбини изтиробга солади, уни фикрлашга, мулоҳаза юритишга ундайди. Аслини олганда, адибнинг "Кўҳна дунё" романида ҳам тарих ҳақиқати ўз давридаёқ жуда гўзал талқин этилган. Асарда қаҳрамонлар нутқи мукаммал даражада индивидуаллаштирилган. Фикримизни асослаш мақсадида асардан Маҳмуд Ғазнавий, ибн Сино ва Беруний монологларига тегишли бўлган қуйидаги парчаларни қиёслаб кўрайлик:

Маҳмуд Ғазнавий нутқи: "Эй, яратган эгам!.. Наҳот бу мажусийлар тириклайин ўтда куйиб кетадики, аммо тиз чўкмайди? Қўшиқ айтиб тириклайин ёнғувчи элни биринчи кўришим бу!.."(2, 214).

Абу Али ибн Синонинг ички монологи: "Ё раб! Телба тақдирнинг не ўйини бу? Ёшлик биродари Шокалон бу мусофир юртларда мешкобчилик қилиб юрган бўлса!.." (2, 247).

Беруний нутқи: "Ё парвардигор! Бу инсоф, бу афсус-надоматларни бу ғофил бандангнинг кўнглига ўттиз-қирқ йил муқаддам солсанг бўлмасмиди? Эл бошига мислсиз офат келтирган жангу жадаллар, илм аҳлига қилган хўрлик ва таҳқирлардан аввал инсофга келтирсанг бўлмасмиди? Нечун фақат умрининг сўнгида, кўзига азроил алайҳиссалом кўринганда инсофу адолатга келтирдинг бу қаҳри қаттиқ бандангни?.." (2, 198).

Юқорида келтирилган парчалардан шу нарса маълум бўладики, турли характердаги уч қаҳрамон – Маҳмуд Ғазнавий ҳам, Абу Али ибн Сино ҳам, Беруний ҳам ўз сўзларини Аллоҳга мурожаат билан бошлайдилар, бир-бирига яқин хитоблар, риторик сўроқлар билан қалбларига мурожаат қиладилар. Бунинг замирида ҳаётни, инсонни англашга ҳаракат сезилиб туради.

Маликул Шароб, Бобо Хурмо, Шокалон, имом Исмоил Ғозий, қарматийлар каби персонажлар асарда меҳнаткаш халқ вакиллари сифатида иштирок этади. Оддий халқ вакилларининг зулмга нисбатан исёнкорлик руҳи романнинг илк саҳифалариданоқ бўртиб кўзга ташланади. Маликул Шароб, яъни Қутлуғқадам майхонаси тасвири билан бошланган роман охирига келиб, Маликул Шаробнинг карматийлар деб ном олган меҳнаткаш халқ табақаси билан алоқаси борлиги аён бўлади. Оддий халқ вакилларининг Абу Али ибн Сино, Беруний каби буюк олимларга муносабатида ҳам ёзувчи ўша давр талабидан келиб чиқиб, адолат тарозисини тўғри белгилайди, яъни Берунийнинг карматийлар ҳақида ёзган рисоласини Абдусамад Аввал ўзиники деб эълон қилади ва дорга осилади, шу билан улуғ олим Берунийни ўлимдан сақлаб қолади. Ёки роман охирига келиб, Ибн Сино саройдан қувилиб, жуда хавфли вазиятга тушиб қолганида қарматийлар вакили Маликул Шароб уни қутқаради ва мамлакатдан узоққа олиб кетади. Ёзувчи ана шундай тасвир йўли билан "фақат меҳнаткаш халқ вакилларига олимни, инсонни қадрлаш, асраб-авайлаш туйғуси хосдир, чинакам гуманизм, адолат машъали халқ қўлидадир", деган муҳим ижтимоий-фалсафий ғояни бадиий жиҳатдан асослашга муваффақ бўлган.

Ёзувчи Одил Ёқубовнинг ушбу тарихий романи шу кунгача ўзбек адабиётида яратилган бошқа тарихий романлардан ана шу услубий хусусияти билан ажралиб туради. Романнинг ана шундай хусусиятларидан келиб чиқиб, адабиётшунос Санжар Содиқ шундай ёзади: "Асарнинг бутун моҳиятидан, руҳидан аён бўлишича, унда илм-маърифатнинг, олимнинг, демакки, инсоннинг қадр-қиммати ҳамда уларга адолатли муносабат муаммоси кўтариб чиқилган" (3, 5). Чунки бу асар ўзбек адабиётида тарихий роман жанри доирасини кенгайтирди, услубий ранг-баранглиқни, полифоник тасвир хусусиятини таъминлади ҳамда халқимиз онгини, маънавий оламини яна-да бойитишга хизмат қилди.

Ёзувчи Одил Ёқубов "Диёнат", "Оққушлар, оппоқ қушлар", "Адолат манзили" романларида асосан маънавий-ахлоқий муаммолар – адолат, диёнат, инсон шаъни, инсоф, ор-номус каби масалалар асосий ўрин тутади. Профессор У.Норматов тўғри таъкидлаганидек, "Диёнат, имон-эътиқод худди муҳаббат мавзуи каби сўз санъатининг қадимий ва боқий муаммоларидан. Ҳар бир давр уни янгилайди, янгича мезонлар билан баҳолашни тақозо этади"(4, 110). Дарҳақиқат, ҳақли таъкидланганидек, қайси мавзуда қалам тебратмасин, адиб инсонни, унинг буюклигини, фазилатларини, ботиний оламидаги зиддиятларни талқин этишга интилган.

Ҳар бир адиб, жумладан Одил Ёқубов ҳам бу мавзуни ёритишга ўзича ёндашади. Лекин шуни ҳам унутмаслик керакки, бурч, диёнат, виждон муаммосининг ўзи бадиий адабиётда бирдан-бир мақсад эмас. Бутун бир давр ҳақиқатини ёритиш, муҳим ижтимоий масалаларни кўтариш инсон қалбини бадиий талқин этишга қаратилгандагина муҳим аҳамият касб этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Адабий портретлар. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – 384 б.
2. Ёқубов О. Кўҳна дунё. Роман. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 336 б.
3. Содиқ С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент, "Шарқ", 2005. – 320 б.
4. Норматов У. Ижодкор сеҳри. – Тошкент, "Шарқ", 2007. – 352 б.

УДК 821.161.1

ОСОБЕННОСТИ ИСЛАМСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ В РЕЦЕПЦИИ БУНИНА

А.Х. Рахманова, к.ф.н., доц., Навоийский государственный педагогический институт, Навоий

Annotatsiya. *Ushbu maqolada I.Bunin ijodida Qur'on voqeliklari, harf birikmalari va Muqaddas Kitob ma'nolarining gavdalanish o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi, shoir dunyoqarashining ahamiyati ta'kidlanadi, Qur'onning muqaddas ma'nolarining o'rni oydinlashadi. va uning Bunin she'riy tasavvuriga ta'siri. Maqolada Qur'on suralari mavzusiga to'g'ridan-to'g'ri mos keladigan oyatlar haqida so'z boradi, oyatning Qur'on matniga to'liq mos kelishi ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Qur'on haqiqatlari, axloqiy qadriyatlar, Sharqqa ishtiyoq, iboralar kriptografiyasi, sharqona motivlar, haqiqat muqaddasligi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется специфика воплощения коранических реалий, буквенных сочетаний и значений Священного Писания в творчестве И.Бунина, подчеркивается важность мировосприятия поэта, выясняется роль сакральных смыслов Корана и его воздействия на поэтическое воображение Бунина. В статье рассматриваются стихи, непосредственно созвучные тематике коранических сур, выявляется точное следование стиха кораническому тексту.*

Ключевые слова: *Коранические истины, нравственные ценности, увлеченность Востоком, тайнопись словосочетаний, восточные мотивы, сакральность истины.*

Abstract. *This article analyzes the specificity of the embodiment of the Koranic realities, letter combinations and meanings of the Holy Scriptures in the work of I. Bunin, emphasizes the importance of the poet's worldview, clarifies the role of the sacred meanings of the Koran and its impact on the poetic imagination of Bunin. The article examines verses that are directly consonant with the theme of the Qur'anic suras, reveals the exact adherence of the verse to the Qur'anic text.*

Key words: *Quranic truths, moral values, enthusiasm for the East, secret writing of phrases, oriental motives, sacredness of truth.*

Бунин всегда чувствовал особую предрасположенность к арабскому Востоку и исламской цивилизации. Этот мир потрясал поэтическое воображение писателя, влек его своей загадочностью и новизной, глубиной понимания сакральных истин. Этот «обособленный замкнутый мир со своей концептуальной сферой философских, религиозных, нравственно-этических и эстетических представлений настолько увлекает Бунина, что в его творчестве появляется целый цикл произведений, где восточное видение мира выступает как цельное и единое пространство» [4, 7], осознанное и переведенное в русскую семиосферу бунинского текста.

Подчеркивая неизбежность и высокую необходимость освоения исламской цивилизации в России на рубеже XIX - XX веков, П.Тартаковский замечает, что именно в этот период «начала ощущаться историческая ограниченность модели мира, которую на протяжении долгих и неспокойных веков вырабатывало европейское мышление. Все более неуместным выглядело желание строить историографические, религиозные, правовые, нравственные и эстетические концепции и понятия, основываясь исключительно на опыте общественной жизни Европы» [6,38]. Бунин, по мнению исследователя воплотил «гуманистическую идею исторической связи Востока и

Запада», причем эта идея соотносится с мыслью о том, что Россия начала XX века совершала подлинное духовное восхождение к Востоку древнему и новому - не сопернику, а брату Запада» [6, 19]. Вдохновленный идеей арабского Востока, в 1905 году Бунин издает поэтический сборник «Ислам». Вслед за Пушкиным, он создаёт своё видение Востока, являясь очевидцем многому в своих многочисленных путешествиях по Азии и Африке. Бунин много ездит, его привлекает образ страны, где по-другому течет время, где совершенно необычным представляется и пространство… Он накапливает больший опыт проживания в этом мире и общается с людьми, которые представляли национальные традиции исламской цивилизации. Он посещает Турцию в 1903 году, Египет, Сирию, Палестину в 1906-ом, Алжир, Сахару и Тунис в 1910-ом. Его путешествия – это не только желание понять и познать окружающий его мир, это в первую очередь очередная задумка Гения понять, как устроен мир? Что вместе держит и объединяет людей? «Я обречен познать тоску всех стран и всех времен» [2, 139], – заявлял он. Мысль понять мир и принять его, пустить в него свои корни, прочувствовать его боль и радость, понять насколько хрупка окружающая действительность из-за разлада и непонимания друг друга людьми, из-за разности взглядов и религий, вела поэта Бунина по жизни всегда. Вот почему, для нас совершенно очевидно, что этот сборник не просто поэзия, в которой мы видим иное чувствование времени и пространства, это новое миропонимание и мироощущение Бунина-поэта. Необходимо отметить, что Бунина увлекают идеи Священного Корана – основной Книги мусульманского верования. В Священном Писании он видит не только мир знаков, смыслов и символов, он видит в нем мудрость, идущую из глубины веков, истину последнего послания Бога человечеству. Лучшие его «восточные стихи» этого плана, это своего рода продолжение пушкинской попытки «Подражаний Корану». Всего в 1903-1915 годах он создал около 30-ти стихотворений, навеянных сюжетами и образами Корана. С очерками цикла «Тень птицы» перекликаются и многочисленные бунинские поэтические произведения. В 1902—1909 гг. в издательстве «Знание» (СПб.: Знание, 1906) вышло первое собрание сочинений И. А. Бунина. В третьем томе «Стихотворения 1903—1906г.» (СПб, 1906) отдельный раздел под названием «Ислам» состоял из девятнадцати стихотворений, связанных с притчами и сентенциями Корана, с легендами арабского Востока: «Путеводные знаки» (1903—1906) «Пастухи» (1905), «Мираж» (1903), «Чёрный камень Каабы» (1903—1905), «Мудрым» (1903–1906), «Зелёный стяг» (1903—1906), «Священный прах» (1903–1906), «За измену» (1903—1905), «Авраам» (1903—1906), «Ночь Аль-Кадра» (1903), «Сатана — Богу» (1903—1906), «Джинны» (1903—1906); «Зейнаб» (1903—1906), «Склон гор» (1903—1904), «Белые крылья» (1903—1906), «Гробница Сафии» (1903—1905), «Тэмджид» (1905), «Птица» (1903—1906), «Тайна» (1905). В последующих изданиях эта последовательность не сохранилась. А стихотворения подвергались неоднократным изменениям. При следующих переизданиях поэт всё более решительно их сжимает, сокращает, отсекая строфы (например, в стихотворении «Склон гор» сняты четыре строки), изменяет или вовсе удаляет эпиграфы, меняет названия.

Важное произведение в книге «Ислам», без сомнения, стихотворение Бунина «Тайна». Данное стихотворение, являясь обозначением внутреннего духовного смысла ислама, является и важным обозначением понимания иной веры Буниным. Веры, которая была сложна для понимания многих европейцев, вера, которая с точки зрения Европы, была чем-то инородной для их христианского мировосприятия. Бунин делает Восток ближе, чем кто-либо. Он приоткрывает этим сборником завесу тайны, прикрывающей сложность и непонятность ислама, поэзию Корана – самой важной священной книги мусульман. Тонкий и внимательный Александр Блок, рецензирующий данный сборник, выделил данный текст и отметил: «Истинное проникновение в знойную тайну Востока» [1, 278].

Бунина глубоко волнуют образы и символы Священной Книги, многие понятия и коранические истины. Необыкновенные символы и знаки, буквенное сочетание которых вызывает неутихающие споры, как среди ученых-богословов, так и среди историков и знатоков Корана, потрясли поэтическое воображение поэта. Он обратил внимание на то, что двадцать восемь сур Священной книги открываются загадочными символами и буквосочетаниями, сакральный смысл которых был недостаточно ясен. Кто-то эти буквосочетания называл сокрытыми именами Аллаха, кто-то видел в этом особый шифр, смысл которого или утерян, или сознательно скрыт Богом. Эта тема стала научным объектом исследований многих ученых-богословов и корановедов. Иранский исследователь, Алламе Табатабаи утверждал, что «значение буквосочетаний Корана — это таинство между Аллахом и Пророком и никто кроме них, не знает их значения» [5, 116].

Бунина потрясают эти шифры и коды чужой для него ментальности. Так ли «чужой», если это волнует и тревожит его своей необъясненной тайной и закрытостью? Нам думается, что внутренним чутьем Гения, он понимает важность этих кодов для понимания священных истин

Корана для всего человечества в целом. Бунин делает попытку проникновения в данные коды религиозности и создает еще одно понятие Тайны. Известно, что определенные суры Корана имеют в своем начале эту тайную буквенную кодировку: «Алеф - Лям -Мим». (Коран, 29:1; 30:1, 31:1, 32:1) [3,421] Бунин берет эти слова для эпиграфа своего стихотворения

«Тайна»

Элиф. Лам. Мим. (Коран)

Он на клинок дохнул – и жало
Его сирийского кинжала
Померкло в дымке голубой:
Под дымкой ярче заблистали
Узоры золота и стали
Своей червонною резьбой.
«Во имя Бога и пророка,
Прочти, слуга небес и рока,
Свой бранный клич: скажи, каким
Девизом твой клинок украшен!»
И он сказал: «Девиз мой страшен.
Он тайна тайн: Элиф, Лам, Мим».
«Элиф, Лам, Мим? Но эти знаки
Темны, как путь в загробном мраке:
Сокрыл их тайну Мохаммед…»
«Молчи, молчи! – сказал он строго, –
Нет в мире бога, кроме Бога,
Сильнее тайны – силы нет».
Сказал, коснулся ятаганом
Чела под шелковым тюрбаном.
Окинул жаркий Атмейдан
Ленивым взглядом хищной птицы –
И тихо синие ресницы
Опять склонил на ятаган [2, 63].

Данный поэтический текст рождает особую суть мусульманского востока. Некоторые ученые-богословы отказались от толкования этих буквосочетаний, руководствуясь положением о том, что все, что пришло свыше, нужно воспринимать как непреложную Истину, идущую от Аллаха. Негоже правоверному мусульманину сомневаться в важных Истинах Корана. Аллаху было угодно сохранить эту тайну, следовательно, задача каждого правоверного принять эту аксиому. Ряд ученых-богословов работали над этими таинственными буквосочетаниями аятов священного Корана (Абдуль Джабир Шараре. «Буквосочетания в Коране»; Али Насух Тахир. «Начало сур в священном Коране»; Рашад Халифе «Чудеса Корана: анализ буквосочетаний»). В результате эти таинственные знаки, стали особыми терминами, которые воспринимаются и по сей день как таинства между Аллахом и Пророком, как «буквы-заклинания», как «показатель чуда Корана», как «великое имя Аллаха», как «предупреждение». Табатабаи говорил, что «все эти термины, не достоверны в своих значениях, так как им нет доказательств» [5, 116]. Бунин понимает сакральность данных словосочетаний, очень тонко подмечает их значительность и величие: «Сильнее тайны – силы нет» [2, 125]. Он убирает из своего текста явные арабские намеки и аллюзии, употребляя слова понятные для европейского читателя как «Бог, Господь». Для большинства европейцев «Аллах» было нечто чуждое, иноверное, а слово «Бог», «Господь» – привычное и глубоко духовное. Очевидно, Бунин, внимательно читавший Коран, раньше многих истолкователей и переводчиков пришёл к пониманию, что таинственные арабские буквы могут быть неким кодом духовности, раскрывающим суть и смысл великой Книги человечества. Поэтому «тайна тайн», о великой силе которой упоминает один из участников воссозданного в стихотворении спора, заключается не в значении самих букв арабского алфавита, а в их соотнесённости с различными частями «ясного писания» (владелец кинжала произносит слова из суры «Открывающей»: «Нет в мире Бога, кроме Бога»), а надпись на клинке воспроизводит слова из второй суры, сообщающей, почему смысл «прямого пути» может открыться не всем. «Страшная тайна» букв, вызывающая у непосвящённых мысли о «пути в загробном мраке», вызвана незнанием (или поверхностным знанием) Корана…Вот почему, именно это стихотворение зачастую приводят, как доказательство вовлеченности поэта в восточную ирреальность. Блок, по этому поводу говорил,

что в стихах Бунина звучит «экзотика красок, сонное упоение гортанными звуками чужих имен и слов» [1, 532]

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Блок А. Собр. соч., т. 5. М.-Л, 1962.
2. Бунин И. А. Стихотворения: В 2 т. Т. 2 / Вступ. статья, сост., подг. текста, примеч. Т. М. Двинятиной. СПб.: Пушкинский Дома, Вита Нова, 2014.
3. Коран. Перевод смыслов и комментарии В.И. Пороховой.http:// biblioclub.ru
4. Рахманова А.Х. Концепты жизни и смерти в творческом наследии Бунина // Universum: филология и искусствоведение. 2021. №9 (87). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kontsepty-zhizni-i-smerti-v-tvorcheskom-nasledii-bunina (дата обращения: 30.11.2021).
5. Табатабаи Алламе. Тайны исламского монотеизма. –М.: Изд. «Исток», 2010.
6. Тартаковский П. И. «Арабский цикл» Ивана Бунина // Тартаковский П. И. Русские поэты и Восток. -Ташкент : ТГПИ, 1986.

УДК 808.3

ПОНЯТИЕ "ЗНАНИЕ" В СЕМАНТИКЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

Ш.Д. Рофеева, соискатель, Самаркандский государственный институт иностранных языков, Самарканд

Аннотация. *Мақолада "билим" тушунчаси инглиз ва ўзбек тиллари фразеологик тизимида тадқиқ қилинган. Мақоланинг назарий қисми кўплаб мисоллар билан далилланган.*

Калит сўзлар*: билим, тушунча, концепт, фразеологик бирлик, семантика, стилистик бўёқдорлик.*

Аннотация. *Статья исследует понятие "знание" на фразеологическом уровне английского и узбекского языков. Теоретическая часть статьи подтверждается многочисленными примерами.*

Ключевые слова*: знание, понятие, концепт, фразеологическая единица, семантика, стилистическая окраска.*

Abstract. *The article investigates the notion "knowledge" in the phraseology of the English and Uzbek languages. Theoretical content of the article is proved by numerous examples.*

Key words: *knowledge, notion, concept, phraseological unit, semantics, stylistic meaning.*

Известно, что структура фразеологизмов состоит из нескольких компонентов. Один из них является ключевым, который играет важную роль в формировании фразеологического значения. Касательно исследуемого нами понятия "знание" приведём фразеологизм *аҳмоқ қилмоқ* [М. Садыкова, 1989, с. 26], который содержит ключевой компонент "аҳмоқ" (глупый, дурак). Сочетаясь с глаголом в неопределённой форме он формирует фразеологизм со значением «дурачить, обманывать кого-либо»:

Мен сизга тушуна олмай қолдим, Барнохон, ё мени аҳмоқ қилмоқчимисиз? - деди у (О. Ёқубов).

Среди фразеологических единиц имеются однозначные и многозначные. Однако большинство фразеологических единиц обладают одним значением [Н.М. Шанский, 1986, с.42]. Малое количество фразеологизмов обладают несколькими значениями: *ақли-хушини олмоқ* (или *ақлини олмоқ, ақлини ўғирламоқ*: 1) лишать разума; 2) очаровывать; 3) влюблять [М. Садыкова, 1989, с. 25].

Среди фразеологизмов имеются синонимы, которые обладают разной степенью стилистической окрашенности. Как отмечает Н.М. Шанский, фразеологические единицы отличаются друг от друга стилистической окраской и сферой употребления [Н.М. Шанский, 1986, с.52]. Приведём фразеологические синонимы:

ақли аввалим
ақли жойида = ақли ҳуши жойида
ақли ишлайди
ақли кирди
ақли салим
ақлига балли [М. Садыкова, 1989, с. 24-25]. Все перечисленные фразеологизмы являются синонимами и обозначают степень интеллектуального развития человека.

Приведём примеры фразеологических единиц, раскрывающих понятие "концепт": *one'supper storey(s*) – мозг, ум; *turn of mind* – умственные способности; *grey matter* – извилины мозга; *беш қўлдек билмоқ* – знать; *балойи азим* – шустрый, умный.

В обоих языках существуют фразеологические единицы, выражающие значение "глупость": *not to have a brain in one's head* – тупоголовый, безмозглый*; a proper Charlie* – глупый, рохля, размазня; *cousin Betty* – глупая девочка; *dead from the neck up* – безмозглый, безумный*; dead above the ear* – тупоголовый; *dump Dora* – дурочка, глупышка*; long hair and short wit* [Oxford Dictionary of Idioms, 2004, p. 179] – длинные волосы да короткий ум (о женщинах). Из данных фразеологизмов становится ясным проявление гендерного фактора в некоторых из них. Примеры узбекских фразеологизмов исследуемой тематики: *ақли калта* (или *қисқа*); *бир қайнови кам = бир қайнови ичида* [М. Садыкова, 1989, с. 42] – ему не хватает:

Ҳа, шу қўшнимизнинг қизи. Ўзи сал ҳалигидақа... Бир қайнови камроқми, билмадим? [О.Ёқубов].

Синоним данного фразеологизма: *ақли қасир* – слабоумный человек [М. Садыкова, 1989, с. 25]. Высокий уровень интеллекта описывается в следующих выражениях: *all there* – разум на месте, всё в порядке; *clever Dick* – умный парень, славный малый; *a clever dog* – разумный человек; *a clever head* – умный, разумный; *ақлли-хушли одам*; *ақл тарозиси билан ўлчамоқ* [М. Садыкова, 1989, с. 26].

Низкий уровень интеллекта раскрывается в следующих оборотах: *be (run) in blinkers (wear blinkers*) – слабоумный, туповатый; *have a bad (no head) for smth* – ему не хватает; *a one-track mind* – слабоумный.

Знание всегда приобретает положительную оценку: *мияси бутун (одам)* [М.Садыкова, 1989, с.173] – умный, здравомыслящий человек; *мияси жойида* [М.Садыкова, 1989, с.173] – умный человек, голова на месте; *мияси ишлайди* [М.Садыкова, 1989, с.173] – умный, здравый ум; *калласи ишлайди* [М. Садыкова, 1989, с.134] – он умён. Антонимы данных выражений: *мияси йўқ* [М.Садыкова, 1989, с.173] – безмозглый человек; *мияси суюлган* [М.Садыкова, 1989, с.173] – у него голова не работает; *миясини еб қўйган* [М.Садыкова, 1989, с.174] – он потерял разум:

- Қариб миянгизни еб қўйибсиз, кўздан ҳам қолибсиз! [М.Исмоилий].

Степень умственной успеваемости и уровень интеллекта описан в следующих оборотах английского языка: *a walking encyclopedia* – "ходячая энциклопедия", много знающий человек; *have smth at one's fingers' ends (fingers-ends, finger tips*) – иметь достаточно ума; *a walking dictionary* – "ходячий словарь", человек с богатым словарным запасом; *have swallowed a (the) dictionary* – "он проглотил словарь", много знающий человек.

Глубокие мыслительные процессы демонстрируются в следующей идиоме: *бош қотирмоқ* [М. Садыкова, 1989, с. 51] – глубоко раздумывать о чём-либо:

Бу масала устида илгари ҳам, ҳозир ҳам олимлар бош қотиришди [С. Анорбоев].

Потеря разума происходит в жизни человека вследствие ряда негативных событий, что зафиксировано в ряде соответствующих выражений: *lose one's senses* [А.В. Кунин, 1967, с. 806] – потерять разум, вести себя глупо. Антонимом к нему является ФЕ *in one's senses* [А.В. Кунин, 1967, с.806] – иметь голову на плечах, быть в здравом уме. Приведём ещё пример из этой тематики: *be out (leave out) of one's senses* [А.В. Кунин, 1967, с.806] – потерять разум, одуреть:

"*Copperfield", he said at length in a breathless voice, "have you taken leave out of your senses?" "I have taken leave of you", said I wresting my hand away* [Ch. Dickens, "David Copperfield", ch. XLII].

Ещё один пример: *ақлдан оздирмоқ; ақлдан озмоқ*; *ақлини йуқотмоқ* [М.Садыкова, 1989, с. 24-25]:

Бировни яхши кўриб қолганда қизлар ақлини йуқотиб қўяди, дейишади [П. Қодиров].

Лекин унинг ақлдан озиб, олти ой жиннихонада ётиб чиққанидан хабари бор [П.Қодиров].

Знание составляет основу понимания явлений и объектов окружающего мира: *make sense of something* [А.В. Кунин, 1967, с.806] – понимать, осознавать что-либо [М. Садыкова, 1989, с. 26].

Уровень знаний влияет на кругозор человека: *see far and wide* [А.В. Кунин, 1967, с. 802] – широкий кругозор, знающий человек. Человека с узким кругозором номинирует выражение "*бурнидан нарини кўрмайди*" [М. Садыкова, 1989, с.61]. Людей, знающих многое, номинируют фразеологизмом *ер* (или *ернинг) тагида илон қимирласа билади* [М. Садыкова, 1989, с.94] – он очень умный, он знает всё:

Насимжоннинг хотини янглишмайди. Ер тагида илон қимирласа биладиган қув аёл [Ойбек].

Фразеологизмы, относящиеся к концепту "знание", могут иметь вопросительную форму: *ақлинг жойидами*? [М. Садыкова, 1989, с. 25]; *бу кимдан чиққан ақл*? [М. Садыкова, 1989, с. 66] – обычно с отрицательной оценкой.

В английской лингвокультуре концепт "знание" может описываться глаголом "see" (видеть): *as far as I can see* [А.В. Кунин, 1967, с. 803] – насколько я знаю; *I see* [А.В. Кунин, 1967, с. 803] – понимаю, понятно.

В узбекской фразеологии неразумный человек номинируется фразеологизмом *мошдек (ҳам) ақли йўқ* [М.Садыкова, 1989, с.175] – вообще не имеет разума; *ичини ёрсанг алиф чиқмайди = қорнини ёрсанг алиф чиқмайди* [М. Садыкова, 1989, с.126] – он ничего не знает:

Ғуломнинг ичини ёрса алиф чиқмайдиган олифта чапанига ўхшади-қолди [М.Исмоилий].

Приведём другой пример: *алифни калтак* (или *таёқ) дея олмаслик* [М. Садыкова, 1989, с.88] – не знать ничего:

Мен-ку бундай масалада алифни таёқ дея олмайман, аммо инженерларга ишонаман [Ойбек].

Как видно из примеров, английские и узбекские фразеологизмы, относящиеся к концепту "знание", обладают различной семантикой с разными коннотативными оттенками.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – Москва: СЭ, 1967. – Т.1. – 738 с.; Т.2. – 739-1264 с.

2. Садыкова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Ташкент: Главная редакция Узбекской Энциклопедии, 1989. – 336 с.

3. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – Москва: Высшая школа, 1985. – 160 с.

4. Oxford Dictionary of Idioms. – Second edition. – Oxford: Oxford University press, 2004. – 340 p.

УЎК 81-13

ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИДА ДАРАХТЛАР БИЛАН АЛОҚАДОР ОБРАЗЛАРНИНГ СЕМАНТИК СЕРҚИРРАЛИГИ

Г.Б. Рустамова, таянч докторант, Бухоро давлат университети, Бухоро

Аннотация. *Ўзбек халқ достонлари Мақолада бахшиларимиз томонидан асрлар оша ижро қилиниб, авлодарга етказиб келинаётган, эл ичида машҳур "Ойчинор", "Равшан", "Кунтуғмиш", "Зевархон" ҳамда "Гўрўғли " туркумидан ўрин олган достонларда тасвирланган "ҳаёт дарахти" ва дарахтлар билан боғлиқ бошқа образларнинг маънолар олами, семантик серқирралиги борасида баҳс юритилган ва мисоллар асосида таҳлилга тортилган.*

Калит сўзлар: *халқ достонлари, образ, парадигматик муқобил, "Авесто", Хавма, "ҳаёт дарахти", "Зевархон", "Равшан" достони, "Гўрўғли".*

Аннотация. *В узбекских народных эпосах на основе примеров рассматривается и анализируется мир смыслов, семантическое многообразие других образов.*

Ключевые слова: *народные эпосы, образ, парадигматическая альтернатива, «Авесто», Хавма, «дерево жизни», «Зевархан», эпос «Равшан».*

Abstract. *Uzbek folk epics the world of meanings, semantic diversity of other images is discussed and analyzed on the basis of examples.*

Keywords: *folk epics, image, paradigmatic alternative, "Avesto", Xauma, "tree of life", "Zevarkhan", "Ravshan" epic, "Gorogly".*

Кириш. Миллий анъаналарни асраб-авайлаш ва кенг тарғиб этиш борасида изчил иш олиб борилаётган Янги Ўзбекистонда халқимизнинг энг қадимий қадриятларидан бири бўлган фольклор асарларини илмий тадқиқ қилиб ўрганишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, "адабиётга ва бадиий санъатга, маданиятга эътибор – бу, энг аввало, халқимизга эътибор, келажагимизга эътибор" [1] демакдир. Ҳар бир миллатнинг тараққиётини таъминлайдиган маънавий қувват манбаи ҳисобланган фольклор асарларини чуқур таҳлил қилиш, айниқса, халқ достонларининг сюжетида сақланиб қолган архаик мотивларни мифопоэтик нуқтаи назардан таҳлил қилиш халқ эпосининг генетик асосларини аниқлашга асос бўлади. Бундан ташқари, достонларда тасвирланган "ҳаёт дарахти" ва дарахтлар билан боғлиқ бошқа образларнинг маънолар олами, семантик серқирралигини илмий жиҳатдан асослаш долзарблик касб этади.

Муҳокама ва натижалар. Ўзбек халқ достони "Зевархон"да Шамшод номли дарахт номи билан аталадиган юрт тилга олинган [5]. Шунингдек, достондан ўрин олган Семурғ қуши билан боғлиқ анъанавий мотив фитоним ва орнитоним муносабати, "ҳаёт дарахти"нинг вертикал тузилиши борасидаги мифологик тасвирларни ёдга солади. Фозил Йўлдош ўғли тилидан Музаяна Алавия томонидан ёзиб олинган ушбу достонда "Авесто"даги "ҳаёт дарахти" ҳақидаги гоҳлар билан муштарак бир эпизод мавжудки, бунда Семурғ боқий умр бахш этувчи "оби ҳаёт" сувини олиб келади [5]. Маълумки, "Авесто"нинг учинчи китоби "Ясна"да "ҳаёт дарахти" сифатида тасвирланган Ҳавм ("ҳавма", санскрит тилида "савма") нинг "одил, ўлимни бартараф этувчи"

шарбати "одамларни ҳам ўлмайдиган, сув ва ўсимликларни қуримайдиган қилади" [2]. Яснанинг 9-11-Ҳотлари тўлиқ унинг таърифи ва олқишига бағишланган. Зардуштийлик динининг ибтидоий палласидан сўнгги даврларгача бу дарахт ва унинг шарбати маздапарастларнинг турли маросимларида асосий ўринга эга бўлган. Ҳавм суви ёхуд шарбатини ўлимни енгувчи ёки ўлимни қайтарувчи деб талқин қилганлар ва бу ақидага қаттиқ эътиқод билан ишонганлар. Ҳавм гиёҳлар подшоҳи, сарвари ҳисобланган. "Бундахишн"да келтирилишича, ҳавм дарахтлар ичида энг мумтози, олий ва беқиёсидир. "Ясна"нинг 9-Ҳотида хавмнинг шифобахш шарбатини инсонлар орасидан илк бор татиган Вайвангҳон эканлиги, у бефарзанд бўлиб, айнан шу шарбатни истеъмол қилгандан сўнг, ундан ўғил фарзанд туғилиб, Жамшид дунёга келганлиги билан боғлиқ афсонавий воқеалар ҳам келтирилади [2]. Бу дарахтлар билан боғлиқ эътиқодий тасаввур-тушунчаларнинг илдизи исломгача шаклланган диний қарашларга ҳам бориб туташишини аёнлаштиради. Абадий умр ато этувчи "оби ҳаёт" ёки "ҳаёт дарахтининг шарбати" тўғрисидаги мифологик тушунчалар "Зевархон"достонида қайта жонланади. Семурғ Бағдод шаҳри шаҳзодаси Зевархонни олис Шамшод элига олиб боради. Зевархон ов вақтида Шамшод подшосининг қизи Малика Хубонни кўриб қолиб, унга ошиқ бўлади. "Хаёт дарахти" борасидаги эпик талқинлар халқ достонларида ўзига ҳос тарзда тасвир этилади. Бундан ташқари ўзбек халқ достонларида дарахт номи билан аталган топонимлар ҳам мавжуд. Бобур ҳақида яратилган "Ойчинор" достонида Ойчинор ўғлига *Чинорбек* деб исм қўйгани айтилади [9]. Э.Бегматовнинг таъкидлашича, бу исм форс-тожикча сўздан олинган бўлиб, чинордек басавлат ва умри узоқ бўлсин ёки суянчиқ, кўмакчи бола деган маъноларни англатади ва *Чинорбой, Чиноржон* шаклларида учрайди [3]. Бу билан унинг чинордек узоқ умр кўриш истаги ифода этилгани таъкидланади. Раҳматилла Юсуф ўғлидан ёзиб олинган "Ойгулқизнинг ўлими" достонида Ойгулқиз Нуралидан сўнг қиз фарзанд кўради ва унга Гуланор деб исм қўяди. Достоннинг Эргаш Жуманбулбул ўғли томонидан айтилган вариантида эса Гуланор Нуралидан уч ёш катта эканлиги кўрсатилади. Гуланор исми ҳам форс-тожик тилидан ўзлашган бўлиб, анор гулидек чиройли ёки баданида қизил нор, хол билан туғилган кизларга нисбатан қўлланилади [3]. Кўринадики, халқ достонларида дарахт номлари билан боғлиқ антропонимлар ҳам учрайди.

Кўпинча эртак ва достонларда чинор образи ўзаро параллел парадигматик муқобил сифатида учрайди. Бунга тириклик (мангу ҳаёт) сувининг чинор тагига сепиб юборилгани, натижада чинор дарахтининг узоқ умр кўриши ҳақида афсоналар сюжети таъсир кўрсатгани сезилади. Буни яна чинор дарахти остининг девлар манзили сифатида тасвирланиши ҳам далиллай олади. Масалан, "Айиқполвон" эртагида ҳаёт дарахти ости девлар эгаллаган макон деб кўрсатилгани каби "Малика Айёр" достонида ҳам чинор дарахти остига дев келиб манзил тутади. "Малика Айёр" достони сюжетида чинорнинг шаънига айтилган шеър учрайди. Бунда чинор дарахти топинчи билан боғлиқ қадимий қарашлар ёдга келади.

Йўл устидан манзил солган,
Ҳамма сени сўраб келган,
Балли чинор, балли чинор [7].

Шунингдек, парчада келтирилган тўти, майна сайраб, булбуллар болалаб ётиши, "Сайр этади ҳамма қушлар" каби тасвирлар дарахт ва қуш муносабатининг парадигматик тузилишини ифода этиб, бу ҳам чинор "ҳаёт дарахти" нинг муқобили эканлигига ишора қилади. "Эдиго" достонида бош қаҳрамон Эдигонинг мўжизавий туғилиши, унинг Тукли Азиз ва Сочли Азиз деган иккита илоҳий зотдан дунёга келиши, отаси чилтанларнинг битта вакили, онаси пари авлодидан эканлиги, у туғилгач, онасининг каптар шаклига кириб учиб кетиши ва ҳомиласини чинор тепасидаги Семурғ қушнинг уясида туғиб, ўша ерда қолдириши мотиви келтирилган. Бу ҳам чинор дарахтининг аждодларимиз тасаввурича, ҳаёт дарахтининг эквиваленти эканлигидан далолат беради.

"Равшан" достонида бош қаҳрамон Равшанбек Ширвон юртига Қорахоннинг қизи малика Зулхуморни излаб йўлга тушади. Отаси Ҳасанхоннинг оти Жийронқуш бу йўлда унга ҳамроҳлик қилар экан, "Тол чивиқдан қамчи қилиб Жийронқушни елдиради" [6] ва уч ойлик масофани босиб ўтади. Маълумки, тол чивиқ эрта баҳорда тол дарахтининг илк новдаларидан олинади. Тол чивиқдан қизлар сочларига чамбараклар тақадилар, турли уй-рўзғор буюмлари ясалади, чунки бу новдалар анчайин мустаҳкам ва эгилувчан бўлиб, тез синиб кетмайди. Мазкур ўринда мана шу ҳаётий воқелик билан бирга Равшаннинг руҳий ҳолати, ёр васлига етиш йўлидаги мустаҳкам иродасига ҳам ишора қилинмоқда.

Уч ой деганда Ширвон юртига етиб, бир боғ устидан чиқади. Достондаги боғ тасвири ҳам алоҳида эътиборни тортади: "Равшанбек қараса бир катта боғ, ўзи жуда калондимоғ, тўрт ёғининг девори узун, калта эмас, баравар чоппа-чоқ. Бир ёғи дарахт, бир ёғи олмазор, бир ёғи анжир, бир ёғи анор. Сув тўла ҳовузлар, теварагида катта-катта чинор, масти хуррам бўлиб юрур товуслар" [6].

Равшан боғ Қорахонга тегишли эканини билгач, Зулхуморни излаб қушлардан, дарахтлардан, бўстонлардан уни дараклайди:

Атрофига эккан тоза шамшот, гул,
Шохасида сайраб ўтирар булбул,
Одами йўқ обод жойга етишдим,
Қирқ минг туп хурма бор, қирқ минг туп анжир.

Равшан ўзини “Ирам”, яъни Жаннат боғига тушиб қолгандек ҳис этади. “Бир ёғи анжир, бир ёғи анор”, “Қирқ минг туп хурма бор, қирқ минг туп анжир” ёки “Қирқ минг туп хурма бор, қирқ минг кишмиши” каби тасвирлар шундан далолат қилади. Зеро, хурмо, анжир, узум ва анор дарахтлари жаннатдан чиққан ҳамда анжир ва анор мевалари Жаннат мевалари сифатида қаралади. Бу ҳақида муқаддас Қуръони Карим ва Ҳадиси шарифнинг бир неча ўринларида келтириб ўтилган: “У (сўритокларга) кўтарилувчи ва кўтарилмайдиган боғларни, хурмозор ва меваларни, хилма-хил бўлган экинларни, бир-бирига ўхшаган ва ўхшамаган зайтун ва анорларни яратган зотдир” [12] *(Анъом сураси, 141-оят)*. Али ибн Абу Толибдан қуйидаги ҳадисни келтирилади: “Ер юзида жаннат боғидан тушган беш хил мева бор: анор, анжир, узум, беҳи ва хурмо”. Достондаги боғ васфида “масти хуррам бўлиб юрур товуслар” каби тасвирлар ҳам борки, бу ҳам жаннат боғи сифатида талқин этишга асос бўлади. Маълумки, товусга ҳам жаннатдан чиққан қуш сифатида қаралади. Ривоятларга кўра, илон ҳам даставвал кўриниши товусга ўхшаган ранг-баранг тусли хушсурат жонзот бўлиб, жаннатда яшайди, Иблисни тили остига яшириб, жаннатга олиб киради. Момо Ҳавони йўлдан уриб, васваса солгандан сўнг, Оллоҳнинг ғазабига учраб, судралиб юрувчи бадбашара махлуққа айлантирилади ва жаннатдан қувилади.

Достонда тасвир этилган Равшаннинг кампир билан учрашуви ҳам дарахт билан боғлиқ. Қорахоннинг миршабларидан яшириниб дарахт устига чиқиб олган Равшаннинг аксини кампир обдастадаги сувда кўриб қолади. Кампирнинг беш ўғли бўлиб, Қорахон туфайли ўғилларидан жудо бўлган кампир Равшанга ўз ўғлидек меҳрибончилик кўрсатади. Қуйидаги тасвир орқали эса қадимда инсонларнинг масофани дарахт воситасида ўлчаганликларини кузатиш мумкин: “Шунда кампир ўғлини (Равшанни) бир томнинг устига чиқариб, бир баланд дарахтни кўрсатди; Равшанбекка айтди: Е болам, шу кўринган баланд дарахтдан берисига бориб кела бер, ёру жўра бўла бер… Улар менинг ўзимга қарайди. Шу кўринган дарахтдан бериси катта ўғлимнинг фуқароси эди. Беш ўғлимнинг жойини Қорахон подшо мендан тортиб олиб қўйди. “Катта ўғлингнинг жойи сеники бўлсин”, – деб менга берган” [6]. Дарҳақиқат, қадимги туркийларда йиғоч – ўлчов бирлиги бўлиб, узунликни ва масофани ўлчашда муомалада бўлган. Йиғоч эса дарахтнинг туркийча номидир.

Қалпоқ бозорида Зурхуморни илк марта кўрган Равшанбек “Зулхуморнинг жамолини, нав дарахтдай камолини кўриб томоша қилади”. Бу ўринда ўхшатиш санъати орқали Зулхуморнинг қомати янги бўй чўзган дарахтга қиёсланади, ҳам унинг ёшлиги эътироф этилади.

Зулхумор қирқ канизи билан макон тутган боғ тасвири ҳам алоҳида эътиборни тортади: “Равшанбек қараса бир катта боғ, чир атрофи чоппа-чоғ, бир ёғи боғ, бир ёғи дарахтзор, катта-катта чинор, бариси катта дарахти соядор; ичи тўла сув, ғалт уриб турибди ҳовузлар, пишиб турибди анор. Олмалар пишган, тўпиллаб остига тушган. “Ана олма тушди”, деб қизлар югуришиб, бир-бири билан талашган, қараган кўзлар қамашган” [6]. Достонда сажъ воситасида олма образига урғу берилаётгани бежиз эмас. Олма – ишқ-муҳаббат рамзи. Пишиб етилган, тўпиллаб остига тушган сифатловчилари эса, балоғатга етган ошиқ йигит ва машуқанинг кечинмаларини ифода этади. Дарҳақиқат, Равшан ва Зулхумор шу боғда илк бор бир-бирининг васлига етишади.

Этибор қилинса, афсона, ривоятлар ва эртаклар билан биргаликда достонларда, умуман олганда, халқ оғзаки ижодининг эпик намуналарида ҳам аждодларимизнинг оламнинг горизонтал тузилиши тўғрисидаги тасаввур-тушунчалари акс этганлигини кўриш мумкин. Хусусан, “Чортоқли Чамбил” достонида Гўрўғлининг чамбил юртида афсонавий Ирам боғига ўхшаш боғ барпо қилгани ва бу боғга дунёнинг тўрт бурчагидан дарахт кўчатларини келтириб, эктиргани айтилади: “...яйпоннинг атрофини девор қилдириб, Урганчдан, Хунхордан турли хил меваларнинг кўчатини буюриб келтиргизиб, ер юзидаги ҳар хил боғ гулларидан ҳам кўчат келтиргизибди. Бир ёғини дарахтзор чорбоғ, бир ёғини чаманзор гулбоғ қилдирибди. Ҳамма ниҳолларини пол тахлашиб, жой-жойига эктирди” [4]. Достонда келтирилган тасвир дунёнинг тўрт бурчаги мажудлиги, унинг марказида эса дарахт ўсиши, айнан “ҳаёт дарахти” ҳақидаги қарашларни аёнлаштиради.

“Юнус билан Мисқол” достонида Оға Юнус парини топиш учун йўлга тушган Гўрўғли йўлда Ҳизрдан оқ фотиҳа олади. Фарқис номли дев боғдан келувчи меваларни ҳушбўй ҳидига маст бўлиб боғни қўриқларди. Гўрўғли девни ўлдириб, Ирам боғига етади. Ирам боғидаги “дарахтларнинг кундаси тилладан, шохаси кумушдан, барглари зағфирондан” эканлиги таъкидланади [4].

Гўрўғлининг Оға Юнус парини илк бор кўргандаги ҳолати "қарчиғай қўнган нопармон баргли дарахтнинг шохасига" ўхшатилади.

"Говдароз дев" достонида Говдароз девнинг бир катта дарахт тагида макон тутганлиги айтилади. Бу ҳам "ҳаёт дарахти" остини девлар макон тутганлиги ҳақидаги мифологик қарашлар билан боғлиқ фикрларни тасдиқлайди.

"Беш подшонинг Чамбилга ёв бўлиб келиши" достонида Ҳасанхон Амлоқни тутиб ўлдириб, ибрат учун танасини бир ёввойи дарахтга осиб қўяди:

Ибрат учун бунда сени ўлдирай,
Ханжар уриб қора бағринг тилдирай,
Ҳамма кўрсин сендай тулки айёрни,
Танангни бир дарахт узра илдирай [4].

Вафот этган марҳумнинг жасадини ёхуд гуноҳкорнинг танасини дарахтга осиб қўйиш мотиви ўзбек халқ оғзаки ижодининг бошқа намуналарида ҳам учрайди. Бунинг замирида аждодларимизнинг инсоннинг дарахтдан пайдо бўлгани ва вафотидан сўнг ҳам дарахтга айланиши ҳақидаги мифологик тасаввурлари, иккинчи томондан, дарахтнинг культ сифатида муқаддас саналиши ва гуноҳкор танасининг дарахтга осилгач, покланиб, гуноҳларидан фориғ бўлиши билан боғлиқ инончлари ётади.

"Сарвиноз" достонида [4] дарахтларга эврилиш мотиви акс этган. Зебиш жодугар Гўрўғли султонни кўра солиб жоду ишлатиб дарахтга айланади. Гўрўғли султон ҳам дарров сўтасини ерга уриб, бир чумчуқ бўлиб учиб, дарахтга қўнади.

Хулоса. Хулоса сифатида айтиш мумкинки, ўзбек халқ достонларида учрайдиган дарахтлар билан боғлиқ образлар тизими ранг-баранг. "ҳаёт дарахти" борасидаги эпик талқинлар ҳамда мифологик тасаввурларнинг унсурлари халқ достонларида ҳам учрайди. Достонларда дарахт номлари билан ҳамоҳанг топоним ва антропонимлар хам тилга олинган. Кўпинча эртак ва достонларда чинор образи ўзаро параллел парадигматик муқобил сифатида учрайди. Бунга тириклик (мангу ҳаёт) сувининг чинор тагига сепиб юборилгани, натижада чинор дарахтининг узоқ умр кўриши ҳақида афсоналар сюжети таъсир кўрсатгани сезилади. Эпосларда дарахтзор девлар макони эканлиги, дарахт остини девлар манзил тутганлиги яна "ҳаёт дарахти" борасидаги инончларни ёдга туширади. Достонда тол, чинор, гужум дарахтлари эр кишини ифодаласа, олма, анор каби мевали дарахтлар воситасида маъшуқа, бўйи етган қиз ҳамда фарзанд ғояларини образлантиради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 4-август, 153 (6847)-сони.
2. Авесто. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.50.
3. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. Узбек исмлари маъноси: – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. – 608 б.
4. Go'ro'g'li: O'zbek xalq dostonlari. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li. –Toshkent: Sharq, 2006. – 443 b.
5. Зевархон. Ўзбек халқ достони. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. - Тошкент, 1970. – Б.20.
6. Kuntug'mish. Ravshan: dostonlar. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o'g'li. –Toshent: Sharq, 2011. – B.203.
7. Малика айёр: Достонлар. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. –Б.170.
8. Куръони карим. Ўзбекча изохли таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: Шарқ, 1991. – 496 б.
9. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_xalq_ogzaki_ijodi/Qodir%20Rahimov%20(aytuvchi).%20Oychinor%20(doston).pdf

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ЭЛЕКТРОН КУТУБХОНАСИ: ЯРАТИШ ВА ИШЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ

А.Ўрозбоев, ф.ф.д., Хоразм Маъмун академияси, Хива
Р.Раҳманов, кичик илмий ходим, Хоразм Маъмун академияси, Хива

Аннотация. *Мақолада Хоразм Маъмун академиясида фаолият юритаётган А-ФА-2019-9 – "Қадимий ёзма ноёб қўлёзма ва манбаларни тадқиқ қилиш, уларнинг рақамлаштирилган библиотекасини яратиш" амалий гранти томонидан дастлабки варианти яратилган электрон кутубхонанинг ишлаш тамойиллари ва техник тавсифи берилган.*

Калит сўзлар: *рақамлаштирилган библиотека, электрон манбалар, қўлёзмалар, ноёб манбалар, ёзма манбалар, тасниф, мукаммал тасниф, фонд, электрон база, сайт, жаҳон кутубхоналари, таълим интеграцияси, маънавий мерос, миллий мерос.*

Аннотация*. В статье приведены принципы и технические характеристики электронной библиотеки, первая версия которой создана по практическому гранту А-ФА-2019-9 - «Изучение*

древних письменных уникальных рукописей и источников, создание их оцифрованной библиотеки». действующей при Хорезмской академии Маъмуна.

Ключевые слова: *электронная библиотека, электронные ресурсы, рукописи, уникальные источники, письменные источники, классификация, совершенная классификация, фонд, электронная база данных, сайт, библиотеки мира, образовательная интеграция, духовное наследие, национальное наследие.*

Abstract*. The article provides the principles and technical characteristics of the electronic library, the first version of which was created by the practical grant A-FA-2019-9 - "Study of ancient written unique manuscripts and sources, the creation of their digitized library" operating at the Khorezm Mamun Academy.*

Keywords*: digitized library, electronic resources, manuscripts, unique sources, written sources, classification, perfect classification, fund, electronic database, site, world libraries, educational integration, spiritual heritage, national heritage.*

2017 йил 24 майдаги "Қадимги ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрсида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2995-сон қарорида тўғри таъкидланганидек, мустақиллик йилларида халқимизнинг қадимий тарихи ва бой маданиятини тиклаш, буюк алломаларимиз, азиз-авлиёларимизнинг илмий, диний ва маънавий меросини ҳар томонлама чуқур ўрганиш ва тарғиб этиш, муқаддас қадамжоларини обод қилиш, ёш авлодни уларнинг эзгу анъаналари руҳида тарбиялаш бўйича улкан ишлар амалга оширилди ва изчил давом эттирилмоқда.

Ушбу лойиҳа, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 9 июлдаги "Нодир, алоҳида қимматли ва ноёб нашрлар сақланишини таъминлаш, уларнинг фондини тизимли кўпайтириш ва бойитиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 202-сонли қарори билан белгиланган топшириқларни бажарилишига қаратилади. Айни вақтда маънавий-маърифий соҳадаги ислоҳотлар самарасини ошириш зарурати бу йўналишдаги ишларни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтаришни талаб этмоқда. Бу борада нафақат мамлакатимиз, балки жаҳон миқёсида ғоят ноёб ҳисобланган, ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мероси рўйхатига киритилган қўлёзмалар фондига эга бўлган Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, шунингдек, қадимий ёзма манбалар фондига эга бўлган муассасалар (жумладан, Хоразм Маъмун академияси) фаолиятини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Айниқса, ушбу нуфузли илмий-тадқиқот муассасалари олдида тарихий манбалар билан ишлаш учун маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларга қулай шароитлар яратиш, тарихий-маданий меросимиз намуналарини ҳар томонлама чуқур ўрганиш, буюк аллома ва мутафаккирларимизнинг жаҳон илм-фани ва цивилизацияси ривожига қўшган беқиёс ҳиссасини тарғиб этиш, шу асосда юртдошларимиз, аввало, ёш авлодимизни халқимизнинг буюк маънавий меросига ҳурмат, она юртимизга меҳр ва садоқат руҳида тарбиялашга қаратилган ишларнинг натижадорлигини тубдан ошириш бўйича долзарб вазифалар турибди.

Ушбу амалий лойиҳа Ўзбекистон Республикаси Президентининг жорий йил 10 февралдаги **"Қадимий ёзма манбаларни сақлаш ва тадқиқ этиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"**ги Қарори ва ушбу фаолият билан боғлиқ бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга маълум даражада хизмат қилади. Мазкур Қарорда "Сўнгги йилларда мамлакатимизда Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази, Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказлари ҳамда Ўзбекистон халқаро ислом академияси фаолиятининг ташкил этилиши ўзбек заминида таваллуд топиб, илмий фаолият олиб борган буюк аллома ва мутафаккирлар меросини илмий тадқиқ этиш ва унинг натижаларидан амалий фойдаланиш жараёнида янги босқични бошлаб берди. Янги Ўзбекистон тараққиётининг бугунги босқичида улуғ аллома ва мутафаккирларимизнинг кўплаб бебаҳо асарларини, ноёб ёзма манбаларни сақлаш, ўрганиш ва келажак авлодга безавол етказиш борасидаги ишларни янада жадаллаштириш муҳим аҳамият касб этади" – деб таъкидланган. Муҳими, унда ушбу Қарор "**Халқимизнинг бебаҳо мулки ҳисобланган ноёб ёзма ва тошбосма меросни сақлаш ва тадқиқ қилиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда бу жараёнга рақамли технологияларни кенг жорий этиш мақсади**да" чиқарилгани алоҳида таъкидланган.

Шунингдек, ушбу лойиҳани амалга ошириш жараёнида Хоразм Маъмун академияси, Хоразм вилоят АКМ, "Ичан-қалъа" музей-қўриқхонаси фондлари ҳамда вилоят аҳолиси қўлида сақланаётган ноёб қўлёзмалар ва бошқа тур манбалар ҳеч қандай зарар етказилмаган ҳолда ноёб қўлёзма манбаларни сканерловчи махсус сканер ёрдамида рақамлаштирилди ҳамда

фойдаланувчиларга қулай шаклда электрон платформага жойланди ва халқимиз ушбу қўлёзмалар билан танишиш, улардан илмий тадқиқот жараёнида бемалол фойдаланиш имконияти яратилди. Қўлёзмаларни рақамлаштириш жараёни ҳам фақат соҳа мутахассислари томонидан амалга оширилди. Энг ноёб қўлёзма манбаларнинг нусхалари Хоразм Маъмун академияси қошида фаолият юритаётган доимий музей-экспозицияга қўйилади. Бунда қўлёзманинг асл нусхаси олий даражада ҳимояланади, қолаверса, унинг нусхаси воситасида ноёб манбани ички ва ташқи сайёҳларга таништириш орқали халқимизнинг бой моддий-маънавий меросини жаҳонга тарғиб қилиш имконияти пайдо бўлади.

"Қадимий ёзма ноёб қўлёзма ва манбаларни тадқиқ қилиш, уларнинг рақамлаштирилган библиотекасини яратиш" фундаментал грант доирасида олиб борилаётган техник хизматлар рўйхати билан танишинг:

1. Қадимий ёзма ноёб қўлёзмалар ва манбалар дастлабки сканерлаш жараёнлари "CZUR ET 16 Plus Smart Book Scanner va Epson L1455 A3 Format" туридаги қурилмалар ёрдамида амалга оширилмоқда.



2. Ҳар бир сканерланган саҳифалар масъул мутахасислар ва махсус дастурий таъминотлар ёрдамида китоб шаклидаги форматдан алоҳида юқори сифат билан A4 форматида PDF форматига ўтказилаяпти.



3. Файллар PDF – форматида каталоглаштириб маълумотлар базаси шаклида сақланиб келинмоқда ва сайтга жойлаш мақсадида ҳар бир файлнинг асосий ва сайт учун махсус дастурий воситалар ёрдамида демонстрацион намуналари яратилди.

4. Қадимий ёзма ноёб қўлёзма ва манбаларнинг рақамлаштирилган тизими жорий қилинди.

Жорий тизим http://ms.mamun.uz домени остида иш олиб бормоқда.

5. Тизим домен манзилидан ташқари бир вақтнинг ўзида ижтимоий тармоқларда ҳам махсус канал, бот ва гурухлар яратилди. Шулардан "Telegram ва Facebook" ижтимоий тармоқларда барча хизматлар яратилган.

Telegram канал манзили: https://t.me/msmamunuz

Facebook тармоғидаги манзил: www.facebook.com/groups/1142511456577553/

6. Лойиҳа доирасидаги барча турдаги маълумотларини сақлаш ва уларни қайта ишлаш учун процессор CPU 2.7 GHz 12 ядро 12Mb кеш хотира, тезкор хотира хажми 16 Gb, доимий хотира хажми 2.5 Tb бўлган курилмага тизим ўрнатилди.

Тизимда қуйидаги хусусиятлар мавжуд:

1.Лойиҳа ҳақида умумий маълумотлар:

2.Маълумотлар оқими 3 та тилда ёритилган.



3.Тизимда манбалар бўлимларга ажралган ҳолда жойлаб борилади:



4.Тизимда манбалар қидирув тизми яратилган (бир нечта категорялар бўйлаб қидирув тизими ишлайди)

5.Тизимда маълумотларни дастлабки (демо) версиясини юклаб олиш имкони мавжуд



6. Асосий файлни юклаб олишнинг бир қанча усуллари мавжуд (телефон, телеграм, е-почта)



Тизим ичига жойлаштирилган онлайн чат орқали маълумотларга эга бўлиш:



Веб саҳифа “Yii2 Framework, PHP, HTML5, PHP 7.2 ва MySQL” маълумотлар базаси тизими орқали UZINFOCOM миллий хостингига жойланди. HTTP://MS.MAMUN.UZ домени остида ишламоқда. Веб саҳифа манбаларнинг рақамлаштирилган библиотекаси кўринишига ўтказилиш жараёнида TAS-IX зонасида ва Интернетдан мурожаатлар бемалол амалга оширилади.

Тизим шаклида сайтда қидириш ва меню интерфейсларига эга. Хар бир фойдаланувчи ўзи қизиқтирган манбасини сайтда рўйхатдан ўтиш жараёнини амалга оширади ва мурожаат қилади.

УЎК 808.3

БАДИИЙ АДАБИЁТДА ПСИХОЛОГИЗМ ЕТАКЧИ ТАСВИР УСУЛИ СИФАТИДА

С.С. Усманова, PhD, Фарғона Давлат Университети, Фарғона

Аннотация. *Бадиий психологизм муаммоларига бўлган қизиқиш бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас, илмий тадқиқотлар психологизмнинг янгидан янги имкониятларини кашф этмоқда. Мазкур мақолада бадиий адабиётда психологизм етакчи тасвир усули сифатида талқин қилинади.*

Калит сўзлар: *психологизм, бадиий адабиёт, руҳий тасвир*

Аннотация. *Интерес к проблемам художественной психологии не потерял своей актуальности и сегодня, а научные исследования изучают новые возможности психологии. В данной статье рассматривается психологизм как ведущий метод образности в художественной литературе.*

Ключевые слова: *психологизм, художественная литература, мысленные образы.*

Abstract. *The interest in the problems of artistic psychology has not lost its relevance today, and scientific research is exploring new possibilities of psychology. This article discusses psychologism as the leading imagery method in fiction.*

Keywords: *psychologism, fiction, mental imagery*

XIX аср рус адабиётшунослигида Лев Толстой ижоди таҳлили натижасида бадиий психологизмда “қалб диалектикаси” принцАипини кашф этган Н.Г.Чернишевскийнинг ҳар бир ёзувчи ижодида руҳий тасвирнинг бир неча йўналишлари бўлиши ва улардан бирининг ижодда етакчи ўрин тутиши ҳақидаги фикрлари психологик таҳлилнинг аналитик, динамик ва типологик принципларини тадқиқ этишда бадиий психологизм бобидаги кўплаб кашфиётларга методологик асос бўлди[1]. Ҳар бир бадиий асарда инсон руҳий оламини яратиш учун ёзувчилар ўзига хос усул ва услублардан фойдаланишган, кейинроқ эса улар ёзувчи маҳоратини юзага чиқарадиган асосий услубга айланиб боргани боис адабиётшунослар томонидан атрофлича ўрганила бошланди ва шу тариқа бадиий психологизм термини илмий муомалага киритилди, муайян методологик асосда назарий тадқиқотлар яратилди.

Инглиз адабиётшунослигида С.Г. Жунг, Ж. Каган, Ж.П. Сартр, А. Хэвман, Р. Уеллек, О. Уоррен, Р. Жорж, Ж.Л. Бермудез, Р. Брокхаус, Х. Филлипс, Е. Собер, Лейден каби тадқиқотчилар психологизм ва руҳий таҳлил масалаларини кенг ўрганган бўлсалар, В.М.Жирмунский, Л.Я. Гинзбург, И.В. Страхов, А.Б.Есин, Б.А.Успенский каби рус адабиётшунослари рус ва ғарб адабиёти

мисолида кўплаб тадқиқотлар яратишди. Психологизмга оид назарий адабиётлар ўзбек адабиётшунослари томонидан аввало рус тадқиқотчилари асарлари ва рус тилига таржима қилинган хорижий адабиётлар ўрганилган бўлса, XX асрнинг иккинчи ярмида ўзбек адабиётшунослигида ҳам ушбу муаммога бағишланган қатор тадқиқотлар яратилди. Н.Шодиев ("Руҳият рассоми"), Умуров Ҳ. ("Бадиий психологизм ва ҳозирги замон ўзбек романчилиги"), У.Норматов ("Ўтган кунлар" ҳайрати"), А.Холмуродов ("Роман ва руҳият"), Ш.Ботирова ("Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм муаммолари") каби ўзбек адабиётшунослари томонидан яратилган тадқиқотлар, монография ва илмий мақолаларда ўзбек ёзувчилари асарларида қўлланилган бадиий психологизмга хос унсурлар очиб берилди. Хўш, руҳий тасвир талқини, унинг усул ва унсурлари, ёзувчи услуб ва манералари қандай амалга оширилади? Бадиий психологизм таҳлил усуллари ҳақида гап кетганда, аввало, монолог, қаҳрамонларнинг ҳис-туйғу, кечинма, руҳий изтироблари ва фикрларининг матнда баён қилинишини назарда тутамиз. Бунда қаҳрамон ёки муаллиф баёни, 3-шахс ҳикоя-таърифи, вербал ва новербал ҳаракатлар аҳамиятга моликдир. Табиийки, уларнинг ҳар бири меъёрида ўринли қўллансагина, ёзувчи ўзи истаган бадиий мақсадига эришиши мумкин.

Масалан, буюк рус ёзувчиси Ф.М.Достоевский романлари адабиётшунос М.М.Бахтиннинг "Достоевский поэтикаси муаммолари" монографиясида полифоник романлар сифатида илмий талқин ва таҳлил қилиб берилмагунча психологик романлар сифатида баҳоланарди[2]. Шу билан бирга, немис руҳшунос олими З.Фрейднинг "Руҳий таҳлил"[3] таълимоти Ф.М.Достоевский бадиий услубларидан бўлмиш "руҳий таҳлил"га мос келади. В.Набоковнинг "Лолита"сида онг ва онг ости руҳий таҳлили юксак бадиий даражада қўлланганини ҳам эътироф этиш керак.

XX асрнинг 70-80-йиллар адабиётшунослигида етук ёзувчилар насрий асарларида бадиий психологизм қўлланилишининг муаммоларини ўрганиш қизғин баҳс ва мунозараларга сабаб бўлди. Психологизм муаммосини назарий жиҳатдан ўрганиш бўйича илк тадқиқотлар А.Иезуитовнинг 1970 йилда эълон қилинган "Эстетика ва адабиётда психологизм муаммоси" деб номланган мақоласидан бошланди[4]. Бадиий психологизм масалаларини атрофлича тадқиқ қилган адабиётшунос И.Н.Полосухин "Роман жанрида психологизмнинг кенг қўлланилиш жараёни замонавий чет эл адабиётларида тамойил сифатида намоён бўлишини"[5] таъкидлайди. XX асрда В.М.Жирмунский, Л.Я.Гинзбург, И.В.Страхов, Б.А.Успенский каби рус адабиётшунослари рус ва ғарб адабиёти мисолида психологизм муаммоларига бағишланган кўплаб тадқиқотлар яратган бўлса, А.Б.Есин, И.В. Николаева, И.И. Бурова, Т.П.Усачева, В. Гудонене, Е.Ю. Хонг каби замонавий адабиётшуносларнинг бу борадаги тадқиқотлари муҳим аҳамият касб этмоқда.

А.Б.Есин "психологизм тушунчасини "бадиий адабиёт воситалари кўмагида қаҳрамон ички оламини: унинг фикрлари, кечинмалари, истаклари, эмоционал ҳолатлари ва бошқаларни тасвирлаш, тасвирлаганда ҳам тўла ва теранлиги билан ажралиб турадиган ҳолда кўрсатиш", шунингдек, "қаҳрамонлар ички оламини тўла, чуқур ва батафсил очишга қаратилган восита ва усуллар тизими, услубий яхлитлик" сифатида таърифлайди. Ўзбек адабиётшунослигида Ҳ.Умуров томонидан 80-йилларда бадиий адабиётда психологизмнинг қўлланиши атрофлича тадқиқ этилган "Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги" алоҳида аҳамиятга эга. Ҳ.Умуров М.Храпченконинг психологик таҳлилнинг аналитик, динамик ва типологик принциплари хусусидаги хулосаларини ўрганиб, у таклиф этган типологик принцип бирмунча сунъий эканлигини асослаб беради. Олим ўзбек романчилиги мисолида психологизмнинг аҳамиятини таҳлил эта туриб, бадиий адабиётда турли йўналишдаги принциплар уйғунлашган ҳолда қўлланилиши натижасида алоҳида синтетик принцип намоён бўлишини исботлайди. Адабиётшунос "психологизм асар бадиийлигининг асосий кўрсаткичларидан, ёзувчи услубининг ўзига хослигини таъминловчи бош воситаларидан биридир", дея таъкидлайди. А.Холмуродов эса "Роман ва руҳият" монографиясида ёзувчи О.Ёқубов романлари мисолида психологизм муаммоларини ўрганади ва адабиётшунослар томонидан таҳлил этилган психологик таҳлилнинг динамик, аналитик, типологик, синтетик ва ичдан кўрсатиш принциплари хусусида ўз хулосаларини беради. Бир асрлик тарихга эга бўлган ўзбек романчилигида психологизм ёзувчи бадиий маҳоратини кўрсатувчи услуб сифатида Н.Шодиев, У.Норматов, Ҳ.Умуров, А.Холмуродовлар ишларида тадқиқ этилган. Психологизм – асар муаллифи томонидан қаҳрамон ички дунёсини, унинг ҳис ва фикрлари ҳаракатини, онгли ва импульсив тўлғанишларини бадиий кашф этишда қўлланиладиган поэтик воситалар тизимидан иборат насрнинг ўзига хос хусусиятлари бўлиб, психологик тавсифда шахснинг индивидуаллаштирилган қирралари устунлик қилишини кўплаб адиблар ижоди мисолида кўриш мумкин. Шундай экан, психологизм, аввалambор, бадиий-эстетик қимматга эга эканлиги, муаллиф аксиологияси ва дунёқарашининг кўрсаткичи сифатида аҳамият касб этади. Психологизм адабиёт ва санъатда инсоннинг руҳий кечинмаларини ва ички дунёсини теран тасвирлаш демакдир. Бадиий психологизм тушунчаси Ғарб адабиётига XVIII

асрнинг иккинчи ярмида кириб келди. Бадиий психологизм сентиментализм оқимига жуда яқин бўлиб, айнан эпистоляр романлар, кундаликларнинг юзага келиши билан боғлиқ. XX асрга келиб З.Фрейд ва К.Юнгнинг "руҳий таҳлил" таълимоти, шахс онги, онг ости олами ва руҳияти хусусидаги қарашлари адабиётшуносликка ҳам таъсир этмай қолмади. Олимлар томонидан замонавий дунё адабиётшунослигида бадиий адабиётни психопоэтик нуқтаи назардан таҳлил ва талқин қилувчи бир қанча назарий қарашлар, усул ва методлар ишлаб чиқилди. Тадқиқотчи М.Бобохонов А.Иезуитов томонидан қўлланилган "психологизм" тушунчасининг учта маъносини ажратади. Улар қуйидагича:

1) психологизм "сўз санъатининг туғма белгиси, унинг узвий хоссаси, бадиийлик далолати", "санъатнинг предмети" сифатида;

2) психологизм бадиий ижод маҳсули, муаллиф, унинг персонажлари ва янада кенгроқ – жамият (синф, табақа, ижтимоий гуруҳ, замон ва ҳоказо) психологиясининг ифодаси ва акси сифатида (шу маънода, худди биринчи каби психологизм ҳар қандай чинакам санъат асарида мавжуд);

3) психологизм инсон руҳиятини "аниқ бир мақсадни кўзлаб мужассамлантириш ва фош этишнинг усул ҳамда шакллари", онгли танланган эстетик тамойил сифатида. А.Н.Кудреватих психологизмнинг бадиий ижоддаги ўрнини қуйидагича белгилайди: "Шахс мавзуси санъатда азалдан бош мавзу ҳисобланади. Асосий объекти инсон характери ҳисобланган бадиий адабиёт бу борада муҳим роль ўйнайди ва ундаги бадиий психологизм эса филологиянинг долзарб масалаларидан хисобланади". (Таржима ўзимизники - У.С.) Дарҳақиқат, сўз санъатидаги психологизм ҳодисаси ҳақида тўхталар эканмиз, ижодкор бадиий асардаги қаҳрамонлар руҳиятини уларнинг ҳис -туйғулари, кечинмалари, ҳолатлари ва маънавий-психологик оламидан келиб чиқиб, ижодкор шахсий тажрибасининг бадиий тадқиқини тасаввур этамиз.

Инсон руҳияти ҳақида кенг кўламли илмий тадқиқотлар олиб борган олим С.Л.Рубинштейн бадиий асарда инсон руҳиятининг тасвири ҳақида шундай дейди: "Сўз санъаткорлари қаҳрамон психологиясини тасвирлар экан, айнан унинг кечинмалари – камолотга эришишдаги индивидуал йўлини ҳаётининг бурилиш паллалари сифатида ёритишга интилишлари бежиз эмас. Иттифоқо, инсон кечинмалари – бу унинг реал ҳаётининг субъектив томони, шахс умр йўлининг субъектив аспектидир". Олим фикрига таянадиган бўлсак, бадиий асарда тасвирланган инсоннинг руҳий олами, асардаги образларнинг ички кечинмалари уларнинг маънавий-эстетик жиҳатлари орқали гавдаланади.

Ш.Ботирова ҳозирги ўзбек адабиётида бадиий психологизм мавзусини Улуғбек Ҳамдамнинг "Мувозанат", "Исён ва итоат", "Сабо ва Самандар" романлари мисолида бадиий психологизмнинг маданий-тарихий, фалсафий-психологик, бадиий-эстетик моҳият касб этиш билан бирга, муҳим назарий тушунча сифатида замонавий ўзбек адабиётшунослиги такомили учун хизмат қилишини атрофлича ўрганди.Тадқиқотчи "Психологизм асар муаллифи томонидан қаҳрамон ички дунёсини, унинг ҳис-туйғулари, фикр-мулоҳазалари, онг ва онг ости эврилишлари орқали ифодаланар экан, поэтик воситалар тизимини шакллантиради. Шу боис бирор бир ёзувчи ижоди мисолида бадиий психологизм муаммосини тадқиқ этиш ўша давр адабий жараёнини, муаллифнинг индивидуал услуби ва маҳоратини ойдинлаштиришга имкон беради. Қолаверса, "ҳар бир ёзувчининг бадиий-эстетик дунёси ўзига хос бўлиб, унинг асарларидаги руҳий таҳлил усулларининг янги қирраларини қиёсий ўрганиш масаланинг нақадар муҳим ва долзарблигини кўрсатади", дея таъкидлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Лебедива Е.В. Диалектика души (развитие через противоречия) героя-странника в творчестве позднего Л.Н.Толстого // Вестник Нижегородского университета им.Н.И.Лобачевского, 2009. – №2/ – С.312-315.

2. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Художественная литература, 1972

3. Фрейд З. Введение в психоанализ. В 4-х т. – Москва, 2000.

4. Иезуитов А. Н. Проблемы психологизма в эстетике и литературе // Проблемы психологизма в советской литературе. – Л., 1970. – С. 39–57.

5. Полосухин, И.Н. Проблема психологизма современной английской прозе: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 1975. – С.2. электрон журнал www.journal.fledu.uz. –2018. – №1. –Б.192-195.

УДК 172.12

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ Н.Г.ЧЕРНЫШЕВСКОГО

Л.А.Файзиханова, магистрант, Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент

Annotatsiya. *Maqolada N.G.Cherishevskiyning Belinskiy, Gegel, Feyerbaxlarning mafkuraviy merosiga tayangan va tanqidiy realism nazariyasining butun va izchil rivojlanishi bo`lgan estetik qarashlari berilgan. Chernishevskiy idealistic g'oyani o'zida mujassam etgan va insonning haqiqiy hayoti, amaliy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan san'at nazariyasini yaratgan. Bu nazariya insonga xizmat qiladi va muhim ijtimoiy muammolarni hal qiladi.*

***Kalit so`zlar:*** *etika, estetika, axloq, g`oya, ijtimoiy va umuminsoniy manfaatlar, egoizm, inson tabiati.*

Аннотация. *В статье даны эстетические взгляды Н.Г.Чернышевского, которые опирались на идейное наследие Белинского, Гегеля, Фейербаха и явились стройным и последовательным развитием теории критического реализма. Чернышевский ниспровергнул идеалистическую идею и создал теорию такого искусства, который связано с реальной жизнью и практическими потребностями человека, служит человеку и решает важные общественные задачи.*

Ключевые слова: *этика, эстетика, мораль, нравственность, идея, общественные и общечеловеческие интересы, эгоизм, натурачеловека.*

Abstract. *The article presents the aesthetic views of N.G.Chernyshevsky, which were based on the ideological heritage of Belinsky, Hegel, Feuerbach and were a coherent and consistent development of the theory of critical realism. Chernyshevsky overthrew the idealistic idea and created a theory of such art, which is connected with real life and practical needs of a person, serves a person and solves important social tasks.*

Key words: *ethics, aesthetics, moral, morality, idea, public and universal interests, egoism, human nature.*

Составной частью философского наследия великого русского демократа и мыслителя Н.Г.Чернышевского является учение о морали, знаменующее собой высший этап развития этического знания. Впитав достижения предшествующей этической мысли и переосмыслив их с демократических позиций, Чернышевский создал оригинальное учение о морали, которое стало нравственным обоснованием освободительного движения в России, борьбы против царизма и крепостничества, социального угнетения и неравенства во имя торжества демократических идеалов. Этика Чернышевского способствовала уяснению нравственных задач, стоящих перед передовой интеллигенцией, формированию нескольких поколений демократов.

Историческое значение нравственного учения Чернышевского заключается не только в передовом для своей эпохи решении теоритических проблем, служившим обоснованием демократической борьбы, но и в подготовке идейной почвы для восприятия и развития этики.

Теоритическим основанием этики была для Чернышевского материалистическая философия в ее антропологической форме. В качестве альтернативы господствовавшим религиозно-идеалистическим теориям морали он ставил целью создать нравственное учение, которое базировалось бы на научных основах и обладало такой же достоверностью, как науки о природе. Поэтому он апеллировал к «натуре» человека, его природной сущности, как основанию нравственности. Этот подход к явлениям нравственности генетически восходит к этике Гельвеция и особенно Фейербаха, но интерпретация Чернышевским антропологического принципа применительно к морали имела существенные отличия. В противовес Фейербаху, истолковывавшему межличностные отношения как религиозные, он выступал решительным противником религиозно-идеалистического понимания морали и связывал этические проблемы личности с демократической борьбой за преобразование общества на началах демократизма и социализма, за просвещение и нравственное обновление человека. Этические проблемы, в понимании Чернышевского, не были замкнуты в его антропологии, а находили непосредственный выход в сферу демократических преобразований.

Свои материалистические посылки Чернышевский стремился связать с диалектическим подходом к действительности. В применении диалектики к нравственным явлениям он опирался на учение Гегеля, Белинского и Герцена. Высказывания Чернышевского об этическом и эстетическом идеалах во многом согласуются с выводами Гегеля о соответствии идеала и действительности и Герцена о том, что идеал есть та же действительность, очищенная от случайностей. Диалектические

идеи Чернышевского раскрываются в конкретно-историческом подходе к решению ряда проблем этики, противоречивого процесса ее развития, в создании системы моральных ценностей. Но следует отметить, что ограниченность исходных посылок, порожденных антропологическим принципом, не позволила ему в полной мере развить диалектические идеи в этике, преодолеть метафизичность и схематизм в истолковании ряда ее проблем.

Исходной предпосылкой понимания нравственных явлений было для Чернышевского признание единства законов природы и натуры человека. Это единство, по Чернышевскому, обусловливает то, что явления «нравственности порядка» вытекают из явлений «материального порядка». «Основанием всему, что мы говорим о какой-нибудь специальной отрасли жизни, - писал он, - … должны служить общие понятия о натуре человека, находящихся в ней пробуждения к деятельности и ее потребностях»[1, с.240]. Антропологическое истолкование человека как части природы, подчиняющейся в своем развитии ее закономерностям, служило у него основой материалистического решения вопросы о соотношении материи и сознания, отрицания философского дуализма с его противопоставлением природы и сознания, тела и духа, как якобы имеющимся принципиально различную субстанцию.

Исходя из антропологического принципа, Чернышевский развил взгляд на человека, как имеющего единую, целостную природу: «…на человека надобно смотреть как на одно существо, имеющее только одну натуру, чтобы не разрезывать человеческую жизнь на разные половины, принадлежащие разным натурам»[2, с. 293].

Полемически заостренно противопоставляя свою точку зрения религиозно-идеалистическим концепциям человека, Чернышевский выводил нравственность из природной сущности человек, его стремления избегать страдания, искать удовлетворения своих потребностей, стремиться к пользе, добру.

Антропологический подход к решению данной проблемы привел Чернышевского к признанию человека в качестве единственной реальности, основы нравственных явлений, понимаемых им в расширительном смысле. Но несмотря на «узость» исходных посылок, Чернышевский не ограничивался абстрактными рассуждениями о человеке и его нравственности вообще. В той мере, в какой ему позволял уровень развития общественных отношений, он разрабатывал материалистическую идею зависимости нравственности людей от материальных условий их жизни. «Улучшение общественного и материального положения – вот необходимейшее предварительное средство для возможности распространяться просвещению и улучшаться нравам»[2, с. 842]. Но эта гениальная догадка не получила у него последовательного глубокого научного исследования. Антропологический подход не позволил раскрыть сущность нравственных явлений как результата социального развития.

В центре этики Чернышевского – теория разумного эгоизма, которая означала прежде всего реабилитацию земных и реальных интересов человека. Она была направлена против религиозно-идеалистического понимания, нравственности, игнорировавшего реальные интересы личности, переносившего их в потусторонний мир.

Характерная черта теории разумного эгоизма Чернышевского заключается также в провозглашении высшим нравственным принципом служение общественным и общечеловеческим интересам, что в условиях российской действительности того времени обозначало борьбу за интересы угнетенного народа, как совпадающие с интересами большинства человечества. «Общечеловеческий интерес стоит выше выгод отдельной нации, общий интерес целой нации стоит выше выгод отдельного сословия, интерес многочисленного сословия выше выгод многочисленного»[1, с. 286], - писал Чернышевский.

Принцип разумного эгоизма раскрывается Чернышевским в этических категориях и понятиях – добра, пользы, интереса, любви, дружбы и т.д. Нравственное поведение и поступки людей имеют, по Чернышевскому, своим источником разумный расчет, который определяет полезность того или иного действия человека и является «прочным источником долговременных наслаждений». Отсюда разумность выступает как бы главенствующей категорией, ибо она заложена в сущности человеческой натуры. Стремясь к удовольствию, человек думает о полезности своих поступков, именно таких, которые бы вели к добрым делам и максимально искореняли злые действия. Отсюда Чернышевский рассматривает категорию добра в этике как наиболее общую.

Связующим и переходным звеном от разумности к добру является понятие пользы, составляющее «истинную натуру» добра. Исходя из этих посылок, Чернышевский дает следующее определение добра: «Только то, что составляет натуру человека, признается в науке за истину, только то, что полезно для человека вообще, признается за истинное добро»[1, с. 288]. Но польза, продолжает далее Чернышевский, может дать наслаждения как более или менее преходящие, так и

долговременные. Одни из них окажутся прочными, другие, напротив, очень непрочными. Поэтому не всякие наслаждения могут выражать высшую степень понятия пользы, обобщенное понятие добра. Добро это как бы превосходная степень пользы, как бы очень полезная польза[1, с. 290].

Эта «очень полезная польза» дает личности наивысшее и долговременное наслаждение, которое выражается в счастье. Поэтому категории добра и счастья в учении Чернышевского тесно взаимосвязаны и внутрипереплетены. А так как добро и счастье по-настоящему достижимы на основе разумности, все они представляют собой единое целое, связаны диалектическими переходами друг от друга: «Добро и разумность – это два термина в сущности равнозначащие. Это одно и то же качество одних и тех же фактов, только рассматриваемое с разных точек зрения: что с теоритической точки зрения разумность, то с практической точки зрения – добро; и наоборот: что добро, то непременно и разумно»[3, с. 645].

Из этих построений логически вытекает единство противоположных добру и разумности понятий зла и неразумности. Поэтому честь и достоинство личности заключаются в борьбе на основе разумности за добро и счастье человечества, ибо, по выражению Н.Г.Чернышевского, «одинокого счастья нет». Утверждение добра и счастья, борьба против всего того, что мешает этому утверждению, - в таком однонаправленном процессе Чернышевский видел путь к достижению общественного идеала, идеала утопического социализма.

Важнейшую категорию этики – долг Чернышевский рассматривает, в отличие от Канта, в связи с разумным личным интересом и тем самым снимает противоречие между личными склонностями и общественным долгом. Человеком долга выступает у него герой романа «Что делать?» Рахметов, у которого чувство долга продиктовано «пламенной любовью к добру», к народу, и соответствует его убежденности.

Подчеркивая связь добра и долга, Чернышевский критикует понимание долга как орудия внешнего принуждения (не совпадающего с внутренними стремлениями личности). Эти положения направлены против долга официальной морали господствующего класса, такого долга, который способствовал порабощению личности, игнорировал интересы большинства членов общества, т.е. трудящихся масс.

Чернышевский большое внимание уделял анализу понятий любви и дружбы, которые также основываются на истиной человечности, неотделимы от добра и разумности. Он стремился раскрыть их сущность в контексте реальных отношений людей в обществе, художественных образов. Чернышевский отмечал, что настоящая любовь и дружба, достойные человека, могут существовать там, где есть «равноправность любящих, равное отношение между ними, как людьми»[4, с. 275].

Таким образом, система этических категорий и понятий в учении Чернышевского при всей ее ограниченности, обусловленной идеалистическим пониманием общественных явлений, в основе своей носила прогрессивный характер. Она отражала борьбу мыслителя за свободу человеческой личности, ее человеческое достоинство, пробуждение и развитие в ней всего истинно человеческого. Его концепция была направлена против условия жизнедеятельности, который порабощали человека, подавляли в нем подлинную натуру и тем самым вызывали неразумность его поступков и действий. Только демократическое преобразование общества и просвещение, считал Чернышевский, могут преобразовать человека, вызвать в нем самые разумные и добрые побуждения по отношению к обществу и друг другу, активную борьбу за идеалы человеческого счастья.

Н.Г.Чернышевский неоднократно обращался к критике этического догматизма, «абсолютных» нравственных категорий, принципов и норм, господствовавших в религиозно-идеалистической этике того времени. Классовый антагонизм в обществе находит, по Чернышевскому, отражение в морали, в противоположности интересов эксплуатируемых и эксплуататоров, в различном понимании добра, пользы. Отсюда он заключал, что мораль и ее принципы не абсолютны, а детерминированы общественными условиями жизни людей, исторической эпохой. Так, он считал, что для «эпикуреизма», возникшего в определенную эпоху, время миновало, оно «решительно неблагоприятно для эпикуреизма».

В проведении принципа детерминизма в морали Чернышевский сделал значительный шаг вперед по сравнению со своими предшественниками. Раскрыв принцип детерминизма моральных явлений, их изменение и развитие в процессе общественной жизни, великий демократ в то же время искал критерий действительной ценности, присущей представлениям, принципам и нормам поведения. Разумность как исходная категория в ее абстрактном понимании не могла быть критерием оценки действительности ценности, добра, идеала, счастья. Тождественная добру, она замыкала круг теоритических размышлений автора.

Как демократ Чернышевский понимал, что практическая польза членов общества должна стать общей пользой, причем состоящей не из простой суммы интересов и потребностей представителей классов, сословий или отдельных членов, а из чего-то более высокого, качественно нового. Такой высший критерий в определении моральных ценностей он усматривает в общественном, в общечеловеческом интересе. Тем самым Чернышевский находит правильный выход из замкнутого круга системы эпических категорий в практику демократической деятельности, которая направляется общественным интересом, борьбой за социализм, за счастье большинства членов общества.

Сущность теории разумного эгоизма Чернышевского нашла наиболее адекватное проявление в истолковании им практической деятельности и поведения людей. Исследуя проблему соотношения общественного и личного интересов, Чернышевский все более отходит от решения ее французскими материалистами XVIII в., а также утилитаристами (Бентамом, Миллем и др.), уточняет сущность самого общественного интереса с позиций демократизма.

Ход рассуждения Чернышевского состоит в следующем: человек, как член общества, зависит от жизнедеятельности всего общества, взаимосвязан с другими людьми и нуждается в помощи в их помощи. Вместе с тем он сам должен оказывать помощь другому, чтобы на основе этой взаимопомощи могли сложиться добродетельные отношения между людьми. Однако эти рассуждения, имеющие налет антропологизма, Чернышевский вносит существенный корректив, который приближает его к классовому пониманию проблемы: поскольку интересы «простолюдинов», т.е. трудящихся масс, и привилегированных сословий не совпадают и поскольку интересы и нормы морали трудящихся наполнены здоровым содержанием по сравнению с интересами и моралью эксплуататорских классов, постольку именно они выражают сущность самого общественного интереса. Хотя эти мысли и облекались Чернышевским в утопическую форму, хотя он и не смог увидеть в обществе действительной силы для его преобразования, его понимание общественного интереса содержит несомненные зачатки материализма. Связывая общественный интерес с борьбой крестьянства за освобождение и свои права, Чернышевский видит пути его реализации в изменении социальных основ в жизни, в создании таких общественных условий, при которых восторжествовали бы равенство и свобода, «общее благо» и «общая польза». Вместе с тем это путь решения проблемы соотношения личного и общественного. «Лучше не развиваться человеку, - писал Чернышевский, - нежели развиваться без влияния мысли об общественных делах, без влияния чувств, пробуждаемых участием в них»[5, с. 169].

Хотя теория разумного эгоизма Чернышевского по форме примыкает к учениям западноевропейских мыслителей – Гельвеция о личном интересе и Фейербаха об эгоизме, - она существенно отличается от них своей социальной направленностью, обоснованием в качестве неотъемлемого свойства каждой мыслящей личности борьбы за «общее благо», за претворение в жизнь принципов социализма. Но эти положения были облечены в антропологическую оболочку, что придавало им порой налет искусственности. Чернышевский полагал, что человек, как разумное существо, творит добро себе и другим, ибо разумные поступки – только добрые поступки. Тот же, кто неразумен, наносит вред и себе, и обществу. Тем самым он лишает себя расположения окружающих людей, их помощи, а в конечном счете, и помощи общества. Отсюда удовлетворение потребностей личностью, получение наслаждения органически связано с тем, чтобы другие люди не были лишены этих наслаждений, могли также удовлетворить свои потребности. Тем самым Чернышевский связывает интерес личности, как вытекающий из ее натуры, с общей пользой, со свободным подчинением общему делу. По существу, эгоизм в его действительном содержании в теории Чернышевского исчезает, оставляя формальную сторону выражения, «эгоизм» раскрывается как альтруизм. Следует отметить, что расширительное толкование Чернышевским понятия эгоизма не только не адекватно отражало его содержание, но вело к сближению полярных понятий эгоизма и альтруизма, тем самым затушевывало материальные основы, их порождающие. Здесь проявилось непонимание мыслителем того факта, что и эгоизм, и альтруизм имеют реальные корни в самой противоречивой жизни классового общества.

В теории разумного эгоизма Чернышевский пытался слить эгоизм и самоотверженность личности, рассматривая их как две стороны единого целого. Смешивая полярные понятия, он интерпретировал самоотверженность во имя интересов народа как внутреннюю естественную потребность разумного человека, как порождение «эгоизма». «Разумный эгоист» Чернышевского шел по внутреннему убеждению на величайшие жертвы, вплоть до самопожертвования, чтобы служить общественному делу, борьбе за счастье других людей. Самопожертвование ради других Чернышевский считал величайшим счастьем: «Хороша жизнь, но самое лучшее счастье, - не пожалеть, если надобно, и самой жизни соей для блага людей!»[6, с. 324].

Вместе с тем Чернышевский был далек от отождествления самопожертвования и жертвенности. Самопожертвование человек совершает разумно, по внутренней убежденности, выбирая наилучший вариант поведения, соответствующий его «человеческой натуре». Самопожертвование для великого дела дает высшее счастье индивиду. Жертвенность же, по мнению Чернышевского, часто неразумна, не освящена великой идеей, порой случайна и не вытекает из внутренней естественной природы человека. Чернышевский, исходя из данных предпосылок, резко критикует ненужную, неразумную жертвенность индивида и противопоставляет ей разумность борьбы за общее дело. Таким образом, главным содержанием теории разумного эгоизма является у Чернышевского гармоничное сочетание личного интереса, личной пользы с пользой общества, с общественным интересом.

А.В.Луначарский в статье «Этика и эстетика Чернышевского перед судом современности» писал, что основной вывод Чернышевского о необходимости социальных преобразований во имя земного счастья человека составляет суть этики Чернышевского: «Чтобы сделать жизнь действительно разумной, чтобы она стала счастьем людей, для этого нужен социальный переворот. А раз это так, то единственное подлинное разумное счастье, единственно подлинное оправдание жизни – это участие в демократическом движении, в том, чтобы отдать этой работе свои силы…»[7, с. 46].

Как видим, теория разумного эгоизма Чернышевского отнюдь не эгоистическая, о чем нередко писали и пишут буржуазные авторы. Чтобы правильно оценить эту теорию, важно глубоко вникнуть в то содержание, которое вкладывалось в понятия «эгоизм», «польза», «расчет», «интерес». Чернышевский интерпретирует их не с точки зрения индивидуалистической морали буржуазии и эксплуататорских классов, а с точки зрения демократизма.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Чернышевский Н.Г. Полные собрания сочинений т. VII– Москва, 1950.Гослитиздат, - с. 240.
2. Чернышевский Н.Г. Полные собрания сочинений т. IV– Москва, 1948. Гослитиздат, - с. 293.
3. Чернышевский Н.Г. Полные собрания сочинений т. XIV– Москва, 1949. Гослитиздат, - с.645.
4. Чернышевский Н.Г. Полные собрания сочинений т. XI– Москва, 1939. Гослитиздат, - с. 275.
5. Чернышевский Н.Г. Полные собрания сочинений т. V– Москва, 1950. Гослитиздат, - с.169.
6. Чернышевский Н.Г. Полные собрания сочинений т. XVI – Москва, 1953. Гослитиздат, - с. 324.
7. Луначарский А.В. Статьи о Чернышевском. – Москва, 1958. – с.46

УЎК 81-13

СУҒУРТА ТЕРМИНЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА СИНТАКТИК МУНОСАБАТЛАР

И.Т. Хайдаров, доцент, Тошкент Молия Институти, Тошкент

Аннотация. *Мақолада инглиз ва ўзбек тилларида суғурта терминларининг синтактик муносабатлари, терминологияга оид турли кўринишдаги илмий назарий тадқиқотлар, назариялар, тилшунослик соҳасида терминология терминининг истеъмолга кириши ҳамда оғзаки ҳамда ёзма нутқда қўлланилиши, турли лингвистик ва экстралингвистик омиллар тадқиқ этилган.*

Калит сўзлар: *кўп компонентли терминлар, фразеологик терминлар, сўз бирикмаси шаклидаги терминлар, полилексем терминлар, бирикма, терминологик комплекслар, синтактик усулда ясалган терминлар.*

Аннотация. *В статье рассматриваются синтаксические отношения страховых терминов в английском и узбекском языках, различные теоретические исследования терминологии, теории употребления термина в области языкознания и его употребления в устной и письменной речи, различные лингвистические и экстралингвистические факторы.*

Ключевые слова: *многокомпонентные термины, фразеологические термины, термины в виде словосочетаний, полилексемические термины, составные, терминологические комплексы, синтаксически образованные термины.*

Abstract. *The article examines the syntactic relationship of insurance terms in English and Uzbek, various theoretical research on the terminology, the use of the term in the field of linguistics and its use in oral and written speech, various linguistic and extralinguistic factors.*

Keywords: *multi-component terms, phraseological terms, terms in the form of word combinations, polylexemic terms, compound, terminological complexes, syntactically formed terms.*

Барча тиллар каби ўзбек ва инглиз тилларида ҳам экстралингвистик ва интролингвистик омиллар тил тараққиётининг энг миҳим омиллардан ҳисобланади. Бу каби омиллар тил таркибидаги тушунчаларни у ёки бу тарзда ифодалаш қамровининг янада равнақ топишига ва соҳа, шу жумладан, суғурта соҳаси терминологик тизимида ҳам терминларнинг барқарорлашувига олиб

келади. Дунё тилларини кузатар эканмиз, қарийб барчасининг луғат сатҳи содда ва қўшма сўзлар билан бойитилади. Эътиборга молик жиҳати шундаки, бу тилларда мустақил маъноли икки ва ундан ортиқ сўзларни бир-бири билан грамматик жиҳатдан боғлаб, янги лексик бирикма ёки мутлақ термин ясаш имконияти вужудга келади.

Тилшунос олимлар ва тадқиқотчилар томонодан бизга маълумки, муайян соҳанинг батафсил шарҳи туб ва қўшма, ясама лексемалар воситаси билангина ифодалаш имконсиз. Бу жараён табиий равишда сўз бирикмаларидан кенг фойдаланилиш имкониятини тақдим этади. Терминология соҳасидаги илмий-баҳсли вазиятлар тақозосида ҳам мазкур бирикмалар ечим сифатида ўрни муҳим эканлиги қайд этилган.

Бирикма шаклидаги терминлар масаласи доимо терминологиянинг долзарб ва баҳсталаб масалаларидан бири бўлиб келган. Боиси, ҳозирги ижтимоий жамиятда илмий ва техникавий терминологияда бирикма терминларнинг салмоғи бошқа турдаги терминлардан анча кўп эканлиги билан изоҳланади [1].

Бирикма терминларни ўрганишга бағишланган тадқиқотлар кўплигига қарамай, бу масала ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас. Ҳозиргача бўлган турли манбаларда мазкур бирликлар турлича талқин этилган. Манбаларда "кўп компонентли терминлар", "фразеологик терминлар", "сўз бирикмаси шаклидаги терминлар", "полилексем терминлар", "бирикма терминлар", "терминологик комплекслар", "синтактик усулда ясалган терминлар" каби номланишларни учратамиз [2].

Тадқиқотимизда биз мазкур бирликларни синтактик бирликлар деб номлашни мақсадга мувофиқ деб билдик. "Синтактик деривация сўз бирикмаларидан бошлаб матнгача бўлган худудда воқеланувчи деривациядир" [3].

Р.А. Будагов синтаксис мазмуни хақида шундай дейди: "Синтаксис ўзининг семантик категориясига эга. Семантик категориялар синтаксисда ҳам марказий мақомда бўлади. Мазмуний категориялардан ташқарида синтаксис ўзининг "руҳи" ни йўқотади ва шартли қоидаларнинг жонсиз мажмуасига айланади" [4].

Тиббиёт терминлари устида тадқиқот олиб борган Г. Беженар кўп компонентли терминларни тайёр қолиплар асосида ҳосил бўлишини кўрсатган ҳолда, барча бирикма терминлар аслида фразеологик бирикмалардир,- дея таъкидлайди. Тил белгиларининг синтактик аспектда гапда ўзаро бирикуви тил қоидаларини ҳосил қилади. Сўзларнинг қўшилиши, унда қисмларнинг тартиби маълум бир маъноларни ифода этади, масалан, *ҳаёт* ва *суғурта* сўзларининг ҳар хил тартибда қўшилишидан ҳар хил характердаги, ҳар хил маънодаги белгилар хосил бўлиши мумкин. Лекин фразеологик бирлик турғун бирикма ҳисобланади, шундай экан биз Г.Беженарнинг фикрига қўшила олмаймиз.

Бизнингча, А.Н.Кононов сўз бирикмалари деганда, "маълум бир маъно англатувчи ва синтактик жиҳатдан ўзига хос шаклий бутунликка эга бўлган икки ёки ёки бир неча мустақил сўзларнинг бирикувидан ташкил топган предмет, харакат ва белги ифодасини бера оладиган бирикмаларни тушунади" [5], деган фикри асосли эди.

Чоғиштирилаётган тилларда соҳа терминларининг бирикувида уларнинг сонига қараб уч турга таснифлаш самаралидир, масалан, икки, уч компонентли ва кўп компонентли. Бу каби таснифлаш жараёни терминларнинг, тизим асосида, луғат таркибига киритиш учун аҳамиятли деб ҳисоблаймиз.

1) Икки бирикмали терминлар:

Инглиз тили	**Ўзбек тили**
absolute liability	*- мутлақо масъулият;*
general average	*- умумий ҳодиса;*
particular average	*- хусусий ҳодиса;*
aviation insurance	*- авиасия суғуртаси;*
bank insurance	*- банк суғуртаси;*
brokerage commission	*- брокерлик комиссияси;*
broker's lien	*- брокерлик ҳуқуқи;*
gross rate	*- ялпи ставка;*
additional call	*- қўшимча тўлаш;*
war risk	*- уруш хавфи;*
personal injury	*- шахсий шикастланиш;*
debit system	*- дебит тизими;*

Терминларнинг бирикув таркиби асосида қўлланиши икки тилда ҳам кўзга ташланади. Суғурта терминларнинг от бирикмали синтактик бирикувларнинг бош бўлаги (компоненти) от

билан ифодаланади. Шунинг учун семантик деривацион принципларини ўрганишда ҳоким компонент билан тобе бўлаги (компоненти)нинг қай тарзда муносабатга киришувчи маслаласи ҳам уларнинг термин сифатида шаклланишида муҳимдир. Соҳа терминларига оид сўз бирикмаларининг бири доимий аниқловчи, бири эса аниқланмиш бўлиб келади. Х.Палуанова ўз илмий тадқиқот ишида: "Айнан шу нарса синтактик деривация ҳодисасининг энг юқори нуқтасини белгилайди, зеро алоқа воситаси семантик деривациянинг оператори функциясини бажаради. Оператор – бу семантик деривациянинг мутлоқ хосила унсури хисобланади", деб таъкидлайди.

Биз уларнинг фикрларига қўшилган ҳолда тадқиқотимизни давом эттирдик, натижада кўпгина тадқиқотчилар ўз ишларида синтактик бирикув жараёнини **Adj+N** (Сифат+От) ёки N+N (От+От) модели суғурта соҳасига оид терминлар таркибида ҳам кузатдик.

Adj+N (Сифат+От)

Инглиз тили: *natural loss, collective insurance, continental cover, mathematical reserve, admitted company, guaranteed insurability, bodily injury;*

Ўзбек тилида: *табиий йўқотиш, жамоавий суғурта, минтақавий қоплов, математик резерв, тан олинган компания, кафолатли суғурта, жисмоний жароҳат.*

Инглиз ва ўзбек тилларида **сифат+от** модели асосида ясалган бирикмалар терминларнинг аниқловчи компоненти аниқланмиш компонентининг белгиси, хоссаси, хусусияти каби маъноларни ифодалайди ва лингвистик жиҳатдан икки турга ажратиш мумкин:

а) соф тобе аниқловчидан иборат бирикма терминлар;

б) нисбий тобе аниқловчидан ташкил топган бирикма терминлар.

Соф тобе аниқловчи модели асосида ясалган бирикма терминлар икки тилда ҳам учрайди, бироқ суғурта соҳасида унчалик кўп эмас. Уланинг таркибий қисмидаги тобе бирикма фақат соф сифатдан иборат болиш лозим Гарчи салмоғи кам бўлса-да, лингвистик далил сифатида қуйидагиларни мисол қилиб келтириш мумкин:

Инглиз тилида: *direct check* (тўғридан-тўғри назорат); *direct pay* (тўғридан-тўғри тўлов); *total loss* (умумий зарар); *legal insurance* (расмий, қонуний, чин, ҳақиқий суғурта); *grace period* (имтиёзли давр).

Ўзбек тилида: *соф зарар; ички текширув;ташқи текширув;ялпи нарх; чакана нарх* ва б.

Нисбий тобе аниқловчи модели асосида ҳосил бўлган бирикма терминлар икки тилда ҳам сермаҳсул ҳисобланади. Инглиз тилида бундай шаклдаги терминларнинг аниқловчи тобе қисми ясама сифатлар ёки сифат бўлмаган бошқа сўз туркумлари орқали вужудга келади.

1) Тадқиқотларимиз шуни кўрсатмоқдаки, *нисбий тобе аниқловчи* суғурта терминлари орасида **Ger +N** (герундий + От) ёки **N+Ger** (От + Герундий) кўринишидаги моделлар ҳам фаол эканлигига дуч келдик. Масалан, *waiting period - кутиш муддати, accepting office - қабул қилиш маркази (офиси, жойи), processing centre - (ишни муваффаққиятли) олиб бориш маркази, floating policy - сузиш полиси, protecting club ҳимоялаш клуби* ва албатта *insurance marketing - суғурта маркетинги, risk loading – ҳавф-хатарни* олиш кабилар;

2) **Num.+N** (сон+от) модели бу жуда кам маҳсул, бироқ далил учун етарли. Масалан, *first party* – бу атама инглиз тилида суғурталанган шахс учун қўлланилади; *third party* – суғурта таркибига киритилмаган, лекин мазкур битимдан манфаат олувчи томон.

3) **Par. II +N.** (сифатдош II +от) модели ҳам *нисбий тобе аниқловчи* суғурта терминлари таркибида мавжуд. Масалан, *assigned risk* – белгиланган ҳавф (суғуртасиз автотранспорт воситасининг қонуний жаримаси); *customized vehicle* - жиҳозланган улов (автотранспорт воситасининг тиббий ва техник таъминоти); *leased vehicle* - (узоқ муддатга қонуний) ижарага олинган автотранспорт воситаси; *retained limit* - сақланган чегара миқдори (бахтсиз ҳодисагача бўлган соф зарар).

Қайд этиш жоизки, ўзбек ва инглиз тили суғурта терминологиясида икки компонентли тобе аниқловчили бирикмали терминлар таркибида сифат ясовчи қўшимчалари фаоли ҳисобланади. Ўзбек тилида бу турдаги бирикмали терминларнинг тобе аниқловчи қисми турли шаклдаги қўшимчалар ёрдамида шаклланади. Шундай аффикснарнинг асосийлари қуйидагилар: *-лик, -ли, -сиз, -сиз, -дор, -аро, чи, -ий (вий)* ва ҳ. Намуна сифатида қуйидаги мисолларни ҳавола этамиз. Ўзбек тилида: *воситачи**лик** жаримаси, ваколат**ли** орган, муддат**сиз** тўлов (қарз), тўловчи, томонл**аро** шартнома, тижорт**чи** ташкилот, молия**вий** жавобгарлик, манфаат**ли** шартнома* кабилар.

N+N (От+От)

Мазкур модел орқали вужудга келган синтактик терминларнинг бирикув компонентлари мутлоқ от сўз туркуми бўлиши лозим. Бундан ташқари, ўзбек тилидаги *N+N* бирикма терминларининг тобе қисми бош келишикда қўлланилади.

Инглиз тили: *insurance quota, replacement cost, property damage, grace period, cargo policy;*

Ўзбек тилида: *суғурта квотаси, ўзгартириш қиймати, мол-мулк зарари, имтиёз даври, юк шартномаси.*

Уч бирикмали терминлар:

Инглиз тили	**Ўзбек тили**
motor-vehicle civil liability	*- авто фуқаролик маъсуллиги;*
aggregate liability limit	*- мажбурий жавобгарликнинг чегараси;*
joint-stock insurance company	*- аксияда суғурталаш компанияси;*
lloyd's underwriters association	*- ллойднинг муаллифлар ассоциацияси;*
mutual indemnity association	*-ўзаро мажбуриятлар ассоциацияси;*
affiliated insurance company	*- аффилияция суғурта компанияси;*
comprehensive insurance policy	*- comprehensive insurance policy;*

4) Тўрт ва ундан ортиқ бирикмали терминлар:

Инглиз тили	**Ўзбек тили**
motor-vehicle certificate of insurance	*- мотор транспортини суғурталаш сертификати;*
association of european cooperative insurers	*- европа кооператив суғуртачилари ассоциацияси;*
health insurance association of america	*- америка соғлиқни сақлаш суғуртаси ассоциацияси;*
a written power of attorney	*- ёзма кучга эга ишончнома;*

Синтактик бирикиш жараёнининг мана шу уч шакли *аббревация* усулини вужудга келтиради. Айрим манбаларда ушбу жараён новербал субституция (алмаштириш) деб ҳам аталади. Масалан, ***SAP*** - *Statutory Accounting Principles* (ҳисоблашнинг қонуний тамойиллари); ***ULAE*** - *Unallocated Loss Adjustment Expense* (тақсимланмаган зарарни ҳозирлаш харажати); ***RBC*** - *Risk Based Capital* (таваккалга асосланган маблағ); ***PSN*** -*Provider Sponsored Network* (ҳомийлик тармоғи); ***PPA*** -*Private Passenger Auto* (йўловчининг шахсий улови); ***PIP*** - *Personal Injury Protection* (шахс жароҳати ҳимояси), ***MP*** - *Medical Payments* (тиббиёт тўлови); ***NRSRO*** - *Nationally Recognized Statistical Rating Organization* (Миллий статистик рейтинг тақдим этиш ташкилоти); ***IRIS*** - *Insurance Regulatory Information System* (суғуртанинг тартибга солувчи ахборот тизими); ***HMO*** - *Health Maintenance Organization* (Соғлиқни сақлаш ташкилоти). Ўзбек тилида мазкур жараён бироз каммаҳсул, таржимларнинг қисқармаси ҳисобга олинмаса деярли жуда кам миқдорда учрайди. Чунки терминларнинг шундай шаклда қўллаш транслитерация ҳодисасидир, термин ёки лексик бирликнинг мазкур жараён билан тартибга солиш учун транслитератив сўзларни тартибга солувчи Халқаро стандартлар ташкилоти – ISO (Internationl Standart Organisation) томонидан ишлаб чиқилган йўриқнома бўлиши лозим. Агар шундай хужжат мавжуд бўлмаса, аслият билан изоҳланган термин шаклини таржима орқали қўллаш мақсадга мувофиқ.

Ҳозирги вақтга келиб ўзбек тилига кириб келаётган неологизмларни, янги лексик бирликлар ва янги хорижий терминларни муайян меъёрий ҳужжатлар асосида қатъий тартибга солиш услуби мавжуд эмас. Бу муаммога ечим топиш мақсадида мамлакатимиз мустақилликка эришгандан кейин бир оз муддат фаолият олиб борган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги "Атамашунослик қўмитаси"нинг ваколатларини қайта тиклаш мақсадга мувофиқ, деб биламиз. Чунки тил сатҳини кенгайиши, ўсиши бутун бир миллатнинг ижтимоий тараққиёти билан чамбарчас боғлиқ ҳисобланади.

Бунда ташқари, сўзларнинг боғланиш муносабатига асосан уч турга таснифлаш мақсадга мувофиқ. Мазкур лисоний жараён айрим манбаларда ***изофа*** номи билан қайд этилади. **Изофа** (аслияти: арабча ҳисобланади) — араб, форс ва баъзи туркий тиллар грамматикасида, аниқланмиш билан аниқловчи ўртасидаги боғловчисиз бирикув муносабати; урғусиз боғловчи элемент орқали ифодаланади. Ўзбек тили такибида форс ва айрим бошқа тиллардан ўзлашган лексик бирликлар таркибида кўп ҳолларда нутқ бирлигида ундош товушдан кейин "-и", унли товушдан сўнг эса "-йи" каби товушларни қўллаш билан боғланади. Хусусан, тилшунос олим, А.Ҳожиев "Изофа ҳодисаси аслида эроний тилларга хос бўлиб, туркий тилларда, хусусан, ўзбек тилида аниқловчи ва аниқланмиш муносабатидаги сўз бирикмаларга нисбатан қўлланилади", [6] – деб қайд этади. Баъзи тилшунос олимлар эса ўзбек тилида изофани ифодаловчи сўз бирикмалари компонентларининг

тартиби форс-тожик тилига хос бўлган изофа конструкциялари таркибларининг тартибидан фарқ қилишини таъкидлайди. Ўзбек тили агглютинатив тил бўлгани сабабли, бу тилга хос изофада ҳам барча аниқловчи гуруҳлар агглютинатив қурилишидаги тилларнинг аниқловчи-аниқланмиш тартиби қонуниятига бўйсунади [7].

Тил ўзгарувчан жараён терминларни нутқда доимий равишда содда, равон ва енгил ифода этилишини назорат қилиш имконсиз. Чунки қўп компонентли бирикмалар лисоний қулайликларга монели қилиши кўп тадқиқотларда ўз исботини топган. Бу каби кўп таркибли бирикмали терминлар терминология соҳасида таржимонлар учун кўплаб ноқулайликлар туғдиради. Масалан, таржимон таржима жараёнида нуқнинг компрессивлиги (тежамкорлиги) йўқотиши мумкин, мазкур ҳодиса таржималарнинг адекватлигини йўқотади. Гарчи, элипсиснинг синтактик структураси бўлмасада, кўп таркибли терминларнинг таржима қилишда ушбу ҳодиса вужудга келади. Чунки терминнинг таркибий кўлами катта бўлса кўп қўлланиши натижасида бирикув компонентларининг айрим лексик қисмлари тушиб қолиши мумкин. Натижада эллипсиснинг юзага келиш хавфи ортади. Шунга қарамай, ижтимоий жамиятда уларни оғзаки ва ёзма нутқда қўллаш эҳтиёжи ҳар доим мавжуд бўлган.

Шундай қилиб, соҳа терминологиясида бирикмали терминларнинг амалий аҳамияти уларнинг миқдор кўрсаткичи билан белгиланмайди. Улар ушбу соҳа доир лексик бирикмаларни муфассал, равон ва тушунарли тарзда ифодалаб келиши билан ўзига хос афзалликларга эга ҳисобланади. Синтактик деривация чоғиштирилаётган тилларда суғурта соҳасига оид терминларни ясалишида сермаҳсул усул ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Кубрякова Е.С. Что такое словообразование?.-М.: 1965.-279 с.
2. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фанлари номзоди…дис. автореф.- Т.: 2009.- 26 б.
3. Розиқова Г.З. Ўзбек тилида синтаксик полисимия. Автореф. филол.ф.ном....диссерт. –Тошкент, 1999. -34 Б.
4. Будагов Р.А. Человек и его язык. –М.: МГУ, 1976. –С.176.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. -Т.: 1989.-166 б.
6. Бердиалиев А., Носиров Ҳ. Ўзбек тили изофали конструкцияларининг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти.- Т.: 1988.-№3.-129 б.
7. Ginzburg J. Interrogative investigations: the form, meaning, and use of English interrogatives. — CSLI, 2000.

УЎК 81-13

НИКОҲ ТЎЙИ ҚЎШИҚЛАРИДА КЕЛИН ВА КУЁВ ОБРАЗЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАВСИФЛАНИШИ

Г.Я. Шербекова, таянч докторант, Бухоро давлат университети, Бухоро

Аннотация. *Никоҳ тўйи қўшиқларида келин-куёв образлари фаоллиги, етакчи ўрин тутиши, ифодаланаётган ғояларни ўзида бирлаштириб туриши билан эътиборни тортади. Аммо шундай бўлса-да, уларнинг никоҳ тўйига алоқадор ўлан, ёр-ёр, келинсалом сингари қўшиқ турларида ўзига хос бадиий тасвир, талқин ва тавсиф қилиниши ҳали махсус текширилган эмас. Ушбу мақолада Бухоро никоҳ тўйи қўшиқларида келин ва куёв образларининг бадиий тавсифива талқинлари хусусида сўз юритилади.*

Калит сўзлар: *никоҳ тўйи, тўй қўшиқлари, маросим, урф-одат, ўлан, ёр-ёр, келинсалом, образ, келин ва куёв образлари.*

Аннотация. *В свадебных песнях образ жениха и невесты привлекает внимание своей активностью, ведущей ролью, тем, что в нем сочетаются высказанные идеи. Однако их конкретный художественный образ, интерпретация и описание в типах песен, связанных с их свадьбой, таких как олан, ёр-ёр, келинсалом, до сих пор специально не рассматривались. В данной статье рассматриваются художественно-описательные интерпретации образов жениха и невесты в бухарских свадебных песнях.*

Ключевые слова: *свадьба, свадебные песни, обряд, обычай, улан, ёр-ёр, келинсалом, образ, образ жениха и невесты.*

Abstract. *In wedding songs, the image of the bride and groom attracts attention with its activity, leading role, and the fact that it combines the ideas expressed. However, their specific artistic image, interpretation and description in the types of songs related to their wedding, such as ulan, yor-yor, kelinsalom, have not yet been specifically examined. This article discusses the artistic descriptive interpretations of the images of the bride and groom in the Bukhara wedding songs.*

Keywords: *wedding, wedding songs, ceremony, custom, ulan, yor-yor, kelinsalom, image, images of bride and groom.*

Кириш. Юртимизнинг бошқа жойларидаги сингари Бухоро никоҳ тўйлари ҳам ўзига хос томонларга эга. Бухорода никоҳ тўйи қиз хонадонида бўлиб ўтади. Тўй куни куёв келин уйига жўралари қуршовида салла-чопонда бир жуфт узун ёғоч учига аланга ёқилган “Жар” машъаласи билан ташриф буюради. Бу *“Жар”* маросими бўлиб, унда *“Ҳуй бале!”* қўшиғи айтиб келинади.

Адабиётлар таҳлили. Ўзбек фольклоршунослигида никоҳ тўйи маросими фольклорининг ўзига хос хусусиятлари, жанрлар таркибининг таснифи, тарихий асослари ва поэтикаси масалалари М.Алавия, Б.Саримсоқов, Н.Қурбонова, М.Жўраев, С.Давлатов, Н.Қуронбоева, О.Исмонова, Л.Худойқулова, М.Муродова, Ш.Имомназарова каби олимларнинг илмий асарларида маълум даражада тадқиқ этилган. О.Сафаров Бухоро никоҳ тўйи маросими фольклорини алоҳида тўплаш ва ўрганишга киришиш билан ўзбек никоҳ тўйи маросими фольклори жанрларининг ҳудудий-локал жиҳатларини ўрганишни бошлаб берди. Д.Ўраева эса Бухоро тўйларида мухаммасхонлик ҳақида ўз фикрларини баён этган.

Муҳокама ва натижалар. Никоҳ тўйи қўшиқларида, одатда, келиннинг сурати ва сийрати, гўзаллиги, орастаю саранжомлиги, эпли ва сеплилиги, қизларнинг энг сараси, ақли расо, қуёш ва ойдан зиё олган, латофатли, чиройли, ҳаёли, иболи, андишали, қутлуғқадам экани мадҳ қилинади. Ана шунинг учун унинг ўз яқинларини: ота-онасини, ака-укаю опа-сингиллдарини, дугоналарини қолдириб, ўзга уйга кетаётгани ҳаммани йиғлатиб, қайғуга солади. Қизнинг кетиши у яшаган хонадоннинг ҳувиллаб, бўшаб қолишига сабаб бўлади. Лекин унинг боришидан бошқа хонадон аъзолари хушнуд бўлишади. У гўё бахт тимсоли сифатида янги бир хонадонга кириб боради. Бу хонадон аъзолари келинни авлодларининг довомчиси сифатида эъзозлаб, ардоқлашади.

Қизиғи шундаки, никоҳ тўйи қўшиқларида келин ва куёв образларининг бадиий тавсифланиши ҳамиша уларнинг ижобий хислатларини ифодалашга қаратилган бўлмайди. Баъзан уларнинг сатирик ёки юмористик талқинга асосланган тавсифи ҳам келтирилганига гувоҳ бўлиш мумкин. Масалан:

Келин келди лоладай,
Ҳар кўзи пиёладай,
На салому на алик,
Қўшга қўшган жугонадай.
Ҳуй бале!

Бундай тавсиф ва талқинлар келинни кўз тегишидан сақлаш маъносида айтилган.

Келинни кўринг, келинни,
Келмай туриб тилини.
Келинни кўрдик, кал экан,
Келинни кўрдик, шал экан.
Ҳуй бале!

Ушбу мисраларда келиннинг тили узун, кал, шал экани ҳақидаги маълумотлар ҳам уни ёмон кўзлардан асраш мақсади билан келтирилган.

Қуйидаги мисраларда келиннинг ҳам чиройли, ҳам хунуклиги, яхши ҳам ёмонлиги тенг келтирилаётгани билан эътиборни тортади:

Келин келар лоладай,
Ҳар кўзи шопиёладай.
Кўзга суртган иликдай,
Қошу кўзи пиликдай.
Ҳуй бале!

Аслида куёвнинг ота-онаси, қариндошлари томонидан узоқ суриштириб, қизларнинг энг сараси сифатида танлаб, чиройи ва фазилатларига ишониб келинликка лойиқ кўрилган қиз ҳақида шундай сўзлар халқ орасида жар солиб куйланаётган қўшиқларда айтилиши ғайритабиий туюлади, албатта. Демак, бундан мақсад: келин-куёвни кўз тегишидан, бошқаларнинг ёмон назари тушмаслигидан асраш муддаоси билан боғлиқдир. келинга “кўз тегмаслиги”, учун ижобий эмас, салбий тасвирланади. Шунинг учун бу сатирик кулги қўзғатувчи мисралардан на келин, на унинг яқинлари хафа бўлмайди. Ҳамма қўшиқнинг салбий матнига кўникиб ҳам қолган.

Куёв образи никоҳ тўйи қўшиқларидан “Ёр-ёр” қўшиқларида куёвнинг оғир аҳволда эканлиги тасвирланади.

Чимилдиқнинг ёнидан сичқон қочди, ёр-ёр.
Писта–майиз тополмай куёв қочди, ёр-ёр.

Келин томонидан айтилган “Ўлан” қўшиқларида куёвнинг оғир аҳволда бўлганлиги сабабли келига тилло узук, шода маржонларсиз келганлиги айтиб изза қилинган.

Ҳай–ҳай ўлан, жон ўлан, узук-узук, ёр-ёр.

Қани куёв, тўй олдида тиллоузук, ёр-ёр?
Ҳай–ҳай ўлан, жон ўлан, қийналур жон, ёр-ёр.
Қаникуёв, тўй олдида шода маржон, ёр-ёр?

Қолаверса, куёв ўзи ҳам барқут кийимҳам кия олмай, ҳатто отсиз келганлиги ҳам куйланади.

Ҳай–ҳай ўлан, жон ўлан, чой тутингиз, ёр-ёр.
Қани, куёв, тўй олдида барқутингиз, ёр-ёр?
Куёв болани бой дейдилар, бойлиги қани, ёр-ёр?
Якка михга боғланган оти қани, ёр-ёр?

Ваҳоланки, ибтидоий даврда йигитларнинг отга эга бўлсагина куёвликка лойиқ ҳисобланар эди.

Ўланларда куёв образига сатирик йўналишда берилиб *"соқов", "пучуқ", "оғзи қийшиқ", "гунгалак", "пахмоқ соқол", "оғзи қийшиқ", "гўлахта", "енги йиртиқ", "лаби тиртиқ", "кал"* каби тасвирлар берилган.

Қир устида кўринган у ўтовмикан, ёр-ёр?
Куёв поччам гапирмайди, соқовмикан, ёр-ёр?

Ҳаёт тақозоси билан севган уйлана олмагач йигитнинг ёрини олиб кетган куёв образлари ҳам учраб туради.

Куёв йигит ҳаммадан зўр бўларми, ёр-ёр?
Бировнинг суйган қизин обкетарми, ёр-ёр?

Куёв образининг ижобий тасвири ҳам берилади. Қўша-қўша қўйлар сўйиб тўйлар, уйлар қилган орзу-ҳавасли куёв образи куйланган.

Қўштепадан олти қўй сўйди куёв, ёр-ёр.
Ўнта пешайвонли уй қурди куёв, ёр–ёр.

"Ёр-ёр" қўшиқларида "меҳнаткашлигидан келинга ёқган", "шуҳрати билан элга танилган" куёв образ тасвирини ҳам учратамиз.

Куёв йигит меҳнатда чаққон экан, ёр-ёр.
Бизнинг келин куёвга ёққан экан, ёр-ёр.
Чилдирманинг садоси кўкка етган, ёр-ёр.
Куёв бола шуҳрати элга етган, ёр-ёр.

"Ўлан" қўшиғида куёвга жўралари томонидан "шоир", "меҳнатда синалган қодир" йигит деб тавсиф берилади.

Куёвни сўрасангиз
Шоир йигит ёр-ёр,
Меҳнат билан синалган
Қодир йигит, ёр-ёр.

Куёв моддий жиҳатдан қийин аҳволда бўлса-да, шундай тенгсиз қиз насиб этиши ҳам куйланади.

Куёв йигит томларини толдан ёпган ёр-ёр.
Шундай қизни куёв бола қайдан топган, ёр-ёр.

Бир-бирига талпиниб бир умрга бахтли бўлган келин-куёвлар образи куйланади.

Келин–куёв бирга бўлди, кўнгли тўлди, ёр-ёр.
Бир умрга иккисини бахти кулди, ёр-ёр.

Юқоридаги "Ёр-ёр"га қарама-қарши ҳолатдаги куёв образининг тасвирини ҳам кўриб ўтамиз. Бир-бирига эриша олмаган ёшлар тасвири:

Икки сандиқ рўба-рўй,
Қулфи синиқ, ёр-ёр,
Келин билан куёвнинг
Кўнгли синиқ, ёр-ёр.

Ёки:

Куёв бола куйиб ёнган
Ер ишқида, ёр-ёр.
Куйиб-куйиб адо бўлган
Ёр ишқида, ёр-ёр.

Бахтли, меҳнаткаш куёвга "олтин", "мушк", гўзал ва оқила келинга олтиннинг маънодоши бўлган "тилла", "кумуш" ёки "анбар" сифатлари моҳирона қўлланилган:

Бухорода бугун тўй, дўстлар, келинг, ёр-ёр.
Олтин куёвга тушди тилла келин, ёр-ёр.
Бири олтин, бири кумуш пар бўлибди, ёр-ёр.

Бири мушку бири анбар, ёр бўлибди, ёр-ёр.

"Келин салом"ларда куёв образининг ижобий ҳислатлари куйланган.

Икки қўли қаламли,
Кўрган жойда саломли,
Куёвпоччагабир салом

Ёки,

Тўлиб оққан сойдек,
Ўн тўрт кунлик ойдек,
Куёвболага салом.

Кейинги "Келин салом"да куёв образининг ҳазил-мутойибага йўғрилган тасвирини учратамиз.

Беқасам тўн қийқими,
Йититларнинг шилқими,
Ёр-ёр, чори ёр,
Куёв тўрага бир салом.

Хулоса. Хуллас, Бухоро никоҳ тўйи қўшиқлари ўзбек фольклори контекстида ўрганилганда, унинг ўзига хос ареал белгиларга эгалиги намоён бўлади. Дарҳақиқат, ҳудуд фольклори ҳар томонлама локал хусусиятларга эга бўлиб, бу унинг никоҳ тўйи фольклорида ҳам акс этади. Никоҳ тўйи қўшиқларида келин ва куёв образларининг бадиий тавсифланиши ҳамиша уларнинг ижобий хислатларини ифодалашга қаратилган бўлмайди. Баъзан уларнинг сатирик ёки юмористик талқинга асосланган тавсифи ҳам келтирилганига гувоҳ бўлиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974.
2. Жуманазаров У. Тўй маросим фольклорида олқиш жанри. / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. – Тошкент: Фан., 2010. – Б.100–107.
3. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986
4. Сафаров О. "Келин ўтирсин" ва "Куёв ўтирсин" маросими қўшиқлари (Бухоро никоҳ тўйлари мисолида) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. – №5. – Б.35–36.
5. Худойқулова Л. Сурхондарё тўй маросими қўшиқлари: Филол. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 86-87; Жўраев М. "Келин тушди" маросими. – Тошкент: Республика халқ ижодиёти маркази, 2002. – Б. 7-8.
6. Қурбонова Н. Ўзбек болалар маросим фольклори: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.
7. Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1996.

УЎК 81-13

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА "HEAD/БОШ" КОНЦЕПТИНИ ИФОДА ЭТУВЧИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ УНИКАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

Б.Б. Эштўхтарова, ўқитувчи, Ўзбекистон Миллий университет, Тошкент

***Аннотация**. Ушбу мақолада Инглиз ва ўзбек тилларида "head/бош" концептини ифода этувчи фразеологик бирликларнинг юникал хусусиятлари ва таржима масалалари ҳақида маълумотлар келтирилган.*

***Калит сўзлар:** фразеологизм, антоним, бош, таржима, маъно, тилшунослик.*

***Аннотация.** В данной статье представлена информация об уникальных особенностях и проблемах перевода фразеологизмов, выражающих понятие «голова», в английском и узбекском языках.*

***Ключевые слова:** фразеологизм, антоним, глава, перевод, значение, языкознание.*

***Abstract.** This article provides information on the unique features and translation issues of phraseological units that express the concept of "head" in English and Uzbek.*

***Keywords:** phraseologism, antonym, head, translation, meaning, linguistics.*

Ҳар бир тилнинг фразеологик қатлами ўша тил эгаси бўлган халқнинг урф-одатларию турмушини, дунёқарашини ўзида намоён қилади. Ҳеч кимга сир эмаски, образли, мазмундор, таъсирчан ва бўёқдор иборалар нутқимиз кўрки, тилимизнинг бойлиги ҳисобланади.

Маълумки, фразеологизмлар икки ёки ундан ортиқ сўздан ташкил топган турғун бирикмалар бўлади, бироқ сўзлар каби яхлит бир тушунчани ифода этади. Ушбу ўзига хослик уларни сўзлар билан синонимик қатор ҳосил қила олишини таъминлайди*: Учига чиққан – ўта кетган, турган гап-албатта, енг ичида - хуфия, яширин* кабилар шулар жумласидандир. Шу боис улар сўзлар сингари битта гап бўлаги вазифасини бажаради: Комиссия ҳайрон бўлиб қолди, аммо ҳеч ким мени қайтаришни оғзига олмас эди [3].

Фразеологик бирликлар одатдаги лингвистик бўёқлар асосида шакллантирилмайди. Ҳар бир фразеологик бирлик ягона ўзига хос маънони ифода этувчи компонентлар бирикишидан ҳосил қилинган сўз туркумини ифодалайди. Фразеологик бирликларнинг маъноси таркибий қисмлар ўртасида тақсимланмаган бўлади. Фразеологик бирликлар яхлитликнинг ихтисослашган маъносига эга барқарор сўз туркумлари деб ҳам таърифланади.

Қайд этганимиздек, фразеологизмларда ҳам сўзлар сингари кўп маънолилик мавжуд: *кўзини юммоқ - вафот этмоқ, кечирмоқ, ўзига келмоқ - хушини йўқотгач ўзига келмоқ, эсига тушмоқ, асабийликдан сўнг ўзига келмоқ; ерга урмоқ - қимматини пасайтирмоқ, обрўсизлантирмоқ, бирор нарсанинг қадрига етмаслик.*

Сўзлар сингари фразеологизмларнинг ҳам шакл ва маъно муносабатига кўра турлари мавжуд:

а) **омонимлар**: кўз юммоқ – *вафот этмоқ; кечирмоқ;*

б) **синонимлар**: *тоқати тоқ бўлмоқ - сабр косаси тўлмоқ;*

с) **антонимлар**: *кўкка кўтармоқ - ерга урмоқ, юзи ёруғ - юзи шувут.*

Фразеолгизмлар нутқнинг таъсирчан воситаларидан бўлиб, сўзлашув нутқида ва бадиий адабиётда ундан кенг фойдаланилади. Ушбу шакл орқали фразеологик бирликларнинг ўзига хос хусусиятлари ифодаланади:

Ушбу бўлимда инглиз ва ўзбек тилларида ***head - бош*** концептли фразеологик бирикмаларнинг уникал хусусиятларини таҳлил қиламиз. Инглиз тилидаги Free Dictionary луғатида юникал сўзига қуйидагича таъриф берилади:

1. ***Not the same in any measurable aspect, such as extent or quantity*** *– ҳеч қандай ўлчов жиҳати, масалан, ҳажми ёки миқдори бўйича бир хил эмас.*

2. ***Not the same as another in rank or social position*** *– даражаси ёки ижтимоий мавқеи бўйича бошқасига ўхшамайди.*

3. ***Consisting of ill-matched opponents: an unequal race*** – тенг бўлмаган рақиблардан иборат: тенгсизпойга.

4. ***Having unbalanced sides or parts; asymmetric*** – баланссиз томонлари ёки қисмлари бўлиши; ассиметрик.

5. ***Not even or consistent; variable*** –бир хил ёки изчил эмас; ўзгарувчан.

Юқоридаги таърифлардан кўриниб турибдики, юникал хусусиятга эга бўлиш учун таҳлил қилинаётган лексема ёки фразеологик бирликни ўзига хос, бошқаларида такрорланмайдиган томони мавжуд бўлиши керак. Ушбу бўлимимизда ***head - бош*** концепти билан ифодаланган фразеологик бирликларнинг чоғиштирилаётган инглиз ва ўзбектилларида уникал хусусиятларини таҳлил қиламиз:

1) ***Head-hunting***

Сўзма-сўз таржима: *бош овлаш*.

Бадиий таржима: *мутахассис излаш*.

Ушбу фразеологик бирикма фақат инглиз тилига хос бўлиб, ***head - бош*** ва ***hunt/of+ing*** концептларидан ташкил топган. Ҳозирги кунда дунё бўйлаб head- hunting методи кенг фойдаланилмоқда. *Head hunting* ("бош ови") – бу иш берувчининг илтимосига биноан рақобатдош компаниялардан юқори даражадаги малакали мутахассисларни излаш, танлаш ва жалб қилишни ўз ичига олган кадрлар бизнесининг тури. Онлайн манбаларга кўра, бош овчилар учун ўртача тўлов танланган номзоднинг йиллик даромадининг 15-33 фоизини ташкил қилади. Head hunterлар учун энг кенг тарқалган дастур – бу Россия бозори учун E-Staff Recruiter ва Ғарб бозори учун Job Adder [1].

2) ***Acid head***.

Сўзма-сўз таржима: *кислотали бош.*

Бадиий таржима: *наркотик истеъмол қилувчи, наркоман*.

Ушбу фразеологик бирлик сўзлашув услубига хос бўлиб, тўғридан тўғри таржимасига кўра кислотали бошни тасаввур қилишимиз анча мушкул, аммо у рамзий маънода қўлланган. Кўриниб турганидек иборада аниқ бир маъно йўқ, метафорадан фойдаланиб *бирон нарсадан заҳарланган* маъноси ифодаланган. Маълумки, кислота кимёвий элемент бўлиб, инсон ҳаёти учун зарарли ҳисобланади. Бундай қиёслаш америкаликлар томонидан гиёҳвандликка мурожаат қилиш учун ишлатилади. Масалан: *He's never been the same since he became* ***an acid head*** (*У наркотикни истеъмол қилгандан бери аввалгидек эмас.* Муаллиф таржимаси) [6].

3) ***Be off one's head***

Сўзма- сўз таржима: *бошидан ташқари бўлмоқ.*

Бадиий таржима: *ақлдан озмоқ.*

Ушбу ибора оғзаки нутқда кенг қўлланилади ва бу 1800 йилларнинг ўрталарига тўғри келади. Кейинчалик ***head - бош*** концептининг ўрнига бошқа сўзлардан (*nut, rocker, trolley*) фойдаланилган. ***Nut - ёнғоқ*** 1800 йилларнинг ўрталаридан бошлаб "бош" концептининг ўрнида фойдаланилган; 1800 йилларнинг охирида келиб чиққан *rokker*, тебранадиган стулдан йиқилиб тушган кекса одамга ишора қилади; *trolley*, шунингдек, 1800 йилларнинг охирида келиб чиққан бўлиб, уни Жорж Аденинг "Artie" (1896) асарида ишлатганлиги билан изоҳлаш мумкин: "*Any one that's got his head full of the girl proposition's liable to go off his* ***trolley*** *at the first curve*". (**тарж.**- *Қизнинг топшириғи билан бошини тўлдирган ҳар ким биринчи айланада ўз аравачасидан чиқиб кетиши керак.* Муаллиф таржимаси). Сўнгги, *chump - аҳмоқ*, шунингдек, ***head - бош*** учун жаргон ҳисобланади ва биринчи марта 1859 йилда қўлланилган. Масалан, а) *You're* ***off your head*** *if you think I'll pay your debts; b) I think Jerry's gone off his* ***nut*** *over that car; c) When she said we had to sleep in the barn, we thought she was off her* ***rocker****; d)The old man's been off his* ***trolley*** *for at least a year* (**тарж.**-а) *Агар сизнинг қарзларингизни мен тўлайман деб ўйласангиз аҳмоқ экансиз; b) ўйлашимча Жерри у машинанинг жинниси бўлиб қолган; c) у омборхонада ухлашимизга тўғри келишини айтганида уни ақлдан озган деб ўйладик; d)бу қария тахминан икки йилдан бери ақлдан озган.* Муаллиф таржимаси).

4) ***Head bunger***

Сўзма-сўз таржима: *бош кийими*

Бадиий таржима: инглиз тилидаги English dictionary луғатида 1) *someone who likes loud rock music* – баланд рок мусиқасини ёқтирадиган киши; 2) *an insulting word for someone who you think is crazy* – ақлдан озган деб билган одам учун ҳақоратли сўз [4]. Инглиз тилидаги Etymology dictionary луғатида 1984- йилда "devotee of heavy metal music" (оғир метал мусиқа чолғувчиси) маънода қўлланганлиги келтирилган [4]. New Collegiate Dictionary луғатида 1974-йилда ушбу бирлик "*a musician who performs hard rock; also a fan of hard rock*" (шовқинли рок ижрочиси, шовқинли рокка қизиқувчи киши) таърифи келтирилган [5]. Contemporary Slang луғатида эса қуйидагича таърифи келтирилган: 1) *A devotee of heavy* ***metal rock music*** *who expresses excitement by frenzied shaking and even literal banging of the* ***head*** *in time to the music. The practice and term originated in the early 1970s* (**тарж.-***жазавага тушгандай бошини қимирлатадиган ва ҳаттоки мажозий маънода мусиқага бошини уриш ҳолатига тушадиган шовқинли рок мухлиси. Ушбу фразеологик бирлик 1970 йилларнинг бошларида пайдо бўлган.* Муаллиф таржимаси). 2. *A person who behaves in a relentlessly frenzied or dangerous way. This usage, deriving from the first sense of the term, usually expresses a certain shocked admiration. It has been current among British schoolchildren and students since the late 1970s, and is rapidly becoming "respectable" by its use in the press and elsewhere by adults, typically with reference to political extremists* (**тарж.**- *тинимсиз ғазабланиб турадиган ёки хавфли одам. Ушбу атама, унинг биринчи маъносидан келиб чиққан ҳолда, маълум бир ҳайратга соладиган туйғуни ифода этади. Британиялик мактаб ўқувчилари ва талабалари орасида 1970 йилларнинг охиридан бошлаб оммалашган. Одатда матбуот ва бошқа жойларда катталар томонидан сиёсий экстремистларга мурожаат қилиш орқали тезда "ҳурмат"га эга бўлиб келмоқдалар.* Муаллиф таржимаси) [7].

Ўзбек тилида ҳам бу каби иборалар нутқ ватил бирлигида жуда қўлланилади. *Оёғига бош қўймоқ* ибораси ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғатида луғатида икки хил маъно ифода этган: 1) *Бош урмоқ* маъносида - *Душман қурсин, эсларимни шоширди. Мирза Маҳмуд* ***оёғига бош урдим*** (*Юсуф ва Аҳмад*). 2) *Бош эгиб ҳурмат, эҳтиром билдирмоқ* маъносида - *Агар кўчада бўлмаса эди, Йўлчи шу онда бу гўзал, тоза юракли, жасур, вафодор қизнинг* ***оёқларига бош қўйишга*** *тайёр эди* (*Ойбек, Танланган асарлар*). Хақиқатдан, шарқ мамлакатларида хоҳ катта бўлсин, хоҳ кичик вафо, садоқат, ҳурмат туйғулари инсонлар орасидаги асосий тушунчалар ҳисобланади. Ўзбек маданиятида каттага ҳурматда, кичикка иззатда бўлиш лозимлигини турли ҳикматли сўзлар, мақол, маталлар орқали инсоннинг гўдаклигидан онггига сингдирилади. Юқорида берилган иборанинг

иккинчи маъноси ҳам айнан биз келтирган таърифларни ифода қилади. Мазкур иборанинг биринчи маъноси шафқат, авф сўрашни англатади.

Катта бошини кичик қилиб ибораси орқали камтарлик билан бирор вазифани адо этиш маъноси англашилади. Асосан, обрўли кишини ўзининг мартабасига қарамасдан маълум бир ишни бажаришига нисбатан қўлланилади. Ушбу фразеологик бирикмада ўзаро зид маъно ҳосил қилган иккита сўз (катта-кичик) иборани оҳангдорлигига хизмат қилган. *Аммо-лекин хатосини тан оляпти, кечирим сўраяпти* ***катта бошини кичик қип*** *(А. Кўчимов, Ҳалқа).*

Боши оққан томонга кетмоқ ибораси дуч келган томонга, тўғри келган ёққа қараб кетмоқ маъносини ифодалайди. Одатда мазкур ибора бирор вазиятда нима қилишга боши қотган, қандай йўл тутишни билмаган киши учун қўлланилади.*У кўчага чиқиди, қаерга бораётганини билмай,* ***боши оққан томонга юруб кетди*** *(К. Яшин, Ҳамза).*

Бошига кўтармоқ иборасининг ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғатида икки хил маъноси ифодаланган: 1) қаттиқ шовқин қилмоқ. Синоними: *шовқин солмоқ. Атроф эваракда кўчани* ***бошига кўтариб*** *юрган болаларнинг шовқини тутган (Р. Файзий, Қайнона).* 2) *Юксак даражада иззат-ҳурмат қилмоқ.* Ўхшаши: соясига салом бермоқ. *Жамила ҳола ҳам Ҳамида келган бўлса, "қизим-қизим" деб* ***бошига кўтаради*** *(С.Анорбоев, Пушаймон).* Ушбу ибора ўзаро омонимлик ҳосил қилади. Ушбу маънога зид равишда ерга урмоқ ибораси қўлланилади [2].



Ушбу шаклда ***head - бош*** концепти орқали ифодаланган фразеологик бирликлар келтирилган. Мазкур бирликлар ўзига хос тасвирга эга бўлиб, ўзбек лингвокультурологиясида бундай фразеологик бирлик ифодаланмаслиги билан характерлидир. Бундан ташқари, ўзбек фразеолиясида ҳам бош концепти билан ифодаланган бирликлар мавжудки, улар фақат ўзбек маданияти, урф-одатини ўзида намоён қилади. Бир ёстиққа бош қўймоқ, оёғига бош урмоқ, катта бошини кичик қилиб, боши ёстиққа тегмоқ каби иборалар фақат ўзбек маданиятини ифодалаб, лингвокультурологиясини бойитади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Анастасия Глебова: Как с нуля создать агентство хэдхантинга. URL: http://www.e-xecutive.ru/career/hr-management/1985663-agentstvo-hedhantinga-svoimi-rukami (дата обращения: 25.12.2016)
2. Рахматуллаев Ш. "Ўзбек тили фразеологиясининг баъзи масалалари".-Т.:Фан.1996.
3. https://atelim.com/n-turniyozov-a-rahimov-ozbek-tili.html?part=6
4. https://etymology.en-academic.com/18052/headbanger
5. https://mwc.en-academic.com/27665/headbanger
6. https://ouenglish.ru/english-slang/acid-head
7. https://thorne_slang.en-academic.com/3140/headbanger

УЎК 808.5

БОЛАЛАР АДАБИЁТИДА МАЪНО КЎЧИШИНИНГ ЛИНГВОКОГНИТИВ АСПЕКТИ

Н.Ярашова, PhD, докторант, Навоий давлат педагогика институти, Навоий

Аннотация. *Тил яралибдики, миллатнинг маданий кўзгуси сифатида яққол намоён бўлади. Бу аввало, ўша халқнинг ўзлиги ва менталитетини ифодалаб қолмасдан, унинг урф-одати, анъаналари, турмуш тарзи, тарбиявий жиҳатлари, инсон омилининг устувор эканлиги, унинг қадр-*

қиммати билан юзага чиқади. Бу эса ўз навбатида тил ва маданиятни муштаракликда тадқиқ этиш имкониятини яратади. Тилнинг маданий жиҳатлари ижодий тафаккурнинг ёрқин ифодаси метафораларда ёрқин акс этади.

Калит сўзлар: *болалар насрий матни, кўчимлар, метафора, лингвокогнитив аспект, олам, лисон, манзара, маданият.*

Аннотация. *Когда создается язык, он четко отражается как культурное зеркало нации. Это, прежде всего, выражение не только самобытности и менталитета народа, но и его обычаев, традиций, образа жизни, воспитательных аспектов, приоритета человеческого фактора, его достоинства. Это, в свою очередь, дает возможность вместе изучать язык и культуру. Культурные аспекты языка ярко отражаются в метафорах как ярком выражении творческого мышления.*

Ключевые слова: *детский прозаический текст, миграции, метафоры, лингвокогнитивный аспект, мир, язык, ландшафт, культура.*

Abstract. *When a language was created, it is clearly reflected as a cultural mirror of the nation. It expresses the identity and mentality of the people, but also its customs, traditions, way of life, educational aspects, the priority of the human factor, its dignity. This, in turn, provides an opportunity to explore language and culture together. The cultural aspects of language are vividly reflected in metaphors as a vivid expression of creative thinking.*

Keywords: *children's prose text, migrations, metaphors, linguocognitive aspect, world, language, landscape, culture.*

Бугун тил инсонга оламни танитади, деган тушунча ўрнида, тил инсон дунёни қандай идрок этишини кўрсатади, дейиш тўғрироқ деб қаралмоқда. Тил - маданият кўзгуси, реал ҳаётни, инсониятни, унинг ҳаётини ўраб турган жами мавжудликни акс эттирибгина қолмасдан, тил орқали миллат ўзлигини англайди, бу англаш менталитети, миллий характери, турмуш тарзи, анъаналари, урф-одати, ахлоқий нормалари, қадр-қиммати билан узвийликда кечади. Ушбу омиллар кўп ўринларда миллий-маданий дунёқарашга асосланган метафорик тарзда воқеланади, миллий-маданий бирлик тил ойнасида ҳар бир инсоннинг фикрлаш тарзи, хаёлоти, хатти-ҳаракатлари билан бирлашиб кетган бўлади.

XX аср сўнгида Ж.Лакофф ҳамда М.Жонсон метафораларни инсон тафаккури ҳосиласи сифатида ўрганиб, инсоннинг нутқий фаолияти, фикрлаши қанчалик метафорага бой тарзда ифодаланар экан, тилнинг ўзи ҳам моҳиятига кўра метафорик эканлиги таъкидланади [1]. Метафора нафақат образлилик воситаси, балки бир сўзда икки маънонинг уйғунлашуви, ментал хусусиятлари ифодачиси [2], табиат ва маданиятни бир бутунликда бирлаштирувчи оралиқ ҳалқа, улар ўртасида мисоли кўприк.

Метафоралар нутқнинг безаги, аммо унинг асосий вазифаси ижодкор эмоциясини, ўй-фикрини аниқ, тўғри ва образли тасвирлашдир, аниқроғи, кенг баён этилиши лозим бўлган тасвирни образли яратишдир. Шундай экан, лингвистик метафора тилда аташ маъноси учун хизмат қилса, бадиий метафора таъсирчанликни намоён этади. Бугунги давр жаҳон ва ўзбек тилшунослари томонидан ҳам тилни миллий-маданий жиҳатдан таҳлил қилиш жараёнида бадиий матнларнинг эмоционал-экспрессивлигини оширувчи воситалардан бири метафорани миллий-маданий тадқиқ қилиш муаммоси эътироф этиб келинмоқда. "…нутқда маълум стилистик мақсад учун хизмат қилади. Сўзларни метафорик маънода қўллашнинг асосий вазифаси нутқнинг образлилигини, тасвирийлигини ошириш бўлса, шу образлилик ва тасвирийлик матнда юзага келувчи эмоционал-экспрессивлик коннотатив маънодир" [3].

Она тилимизнинг имкониятларидан фойдаланиш, бетакрор бадиий тасвирлар яратиш, биринчи навбатда, ижодкорнинг сўз қўллаш маҳоратига боғлиқ бўлса, иккинчидан, ижодкор ана шу танланган сўзнинг лексик ва ҳосила маъноларини тўғри англай олиши ҳамда фарқлай билиши ҳам лозим бўлади. Лексик маъно тараққий этиб борар экан, одатда, бир предмет, белги, ҳаракатнинг номини бошқа бир предмет, белги, ҳаракатга кўчириш йўли билан ҳам ривожланади. Бундай кўчиришнинг табиатини, мавқейини ҳар бир тилнинг ўзида мавжуд семантик қонуниятлар белгилайди. Аристотел таъбири билан айтганда, "Метафора бу ғайри оддий номни бир турдан бошқа хилга, ёки хилдан турга, ёки хилдан хилга, ёки ўхшашдан ўхшашга кўчиришдир" [4]. Зеро, метафора коннотатив маънони юзага келтирувчи жараёндир. Шунингдек, метафора бадиий асарларда турли хил поэтик функцияларни бажаради. Айникса, унинг бадиий образ яратишдаги роли диққатга молик. Тўғрироғи, маъно кўчишининг бу тури ўзига хос семантик табиати бўлишидан қатъий назар, у матн доирасида бир хил вазифага эга. Яъни унинг бадиий адабиёт учун образли тасвирий восита эканлигидир. "Фразеологик бирликлар ва метафора мазмунининг режаси

ҳамда уларга бириктирилган маданий коннотациялар туфайли маданий белгиларнинг экспонентларига айландилар" [5]. А.Н.Афанасевнинг фикрича, метафора ўхшаш тасаввурларни уйғотадиган предметларни ўзаро яқинлашиши натижасида пайдо бўлган. Метафора мутлақо озод, бой манбадан олинган, зарурат, эҳтиёж ёки тилнинг қашшоқлигидан пайдо бўлмаган [6].

Шу билан биргаликда метафоралар ҳам тилнинг асосий лингвомаданий бирликларидан бири ҳисобланади. Интертекстуаллик муайян бадиий матн таркибида ўзга матнларга дахлдор унсурларнинг мавжудлиги орқали ҳам муаллифнинг ўқувчига эстетик завқ бериши мақсад қилинади, метафора бирор бадиий матн ичига олиб кирилганда интертекстуаллик акс эттиради. Метафора бадиий асар ғоя ва мақсадини, персонажлар ички дунёсини очишда, асар тилининг ширали ва таъсирчан бўлишида, эмоционаллиги ва мусиқийлигини оширишда муҳим услубий восита ҳисобланади. Турли халқлар тилларида бўлгани каби ўзбек тилида ҳам ана шундай образли ифодаларнинг роли катта. Жумладан, насрий матнда метафораларни қўллаш орқали воқеа-ҳодисанинг интенсивлигини оширишга, қаҳрамонлар характер-хусусиятига имплицит ишора қилишда таъсирчан омил сифатида фойдаланиб, асарлари тасвирийлигини, бадиий-эстетик қуввати оширилган: - Бувижоним, ўқийвериб **миянг суюлиб кетди**, бурнинг оқадиган бўлиб қолди, деяпти. ("Сариқ девнинг ўлими", 4-б.). Ижодкор ўз қарашларида реаллашган хусусий яширин маъноларни мавҳум тарзда ифодалашда, шунингдек, таъсирчан, образли ифодалар яратишда фойдаланган: - Ҳамдамбой нимқоронғида ҳаддан ташқари бадбашара бўлиб кўринаркан. Башанг либос кийиб одам қиёфасида юрган экан у. Ўғирнинг сопидек ингичка бош, чўзиқ юз, каттакон бурун, чақчайган олакўзлар — бамисоли ҳужумга чоғланган **бўғма илон**нинг ўзгинаси дейсиз.("Қасоскорнинг олтин боши", 82-б.).

Айниқса, метафораларнинг коннотатив маъноларидан қаҳрамонларнинг характер-хусусияти, сийрат ва суратини тасвирлашда, асар композициясида воқеалар ривожида ечилувчи мавҳум тушунчаларга ишора қилувчи тугун ҳосил қилишда ва бадиий-ғоявийликка эришишда фойдаланилган: - Икром ёғочоёқ дарсдан қайтаётганда бўр билан бировларнинг эшигига **ёмон сўзлар**ни ёзиб кетади. ("Сариқ девни миниб", 222-б.). // - Мен ойижонимнинг қалбидаги **тубсиз армон**ни ифодаламоқчи бўлувдим. ("Мунгли кўзлар", 212).

Бадиий тасвир воситалари орасида метафоралар энг кўп ижодийликни талаб этиши билан фарқланади. Метафора образнинг нафақат ташқи қиёфаси, балки унинг руҳий оламида кечаётган ҳолатларни тингловчи кутмаган фавқулодда бадиий ҳукм асосида тасвирлаш ёки ифодалашга замин бўлади. Метафорада асар қаҳрамонларининг муҳим хусусиятлари инобатга олинади. Чунки кўп ҳолларда референтларнинг муҳим бўлмаган белгилари ҳатто мана шу тилда сўзлашувчи шахсларнинг хотирасида мавжуд бўлавермаслиги ва уни кўшимча хотирадан қидириш заруриятининг туғилиши коммуникатсия жараёнининг бир текис ва равон кетишига путур етказиши мумкин. Бу ҳол яратилган нарсанинг табиатидаги прототипи номининг кенгайишига ва инсон қўли билан яратилган объектнинг ўша ном билан номланишига олиб келади: - Арзимаган бир нарса учун юзим шувут бўлиб қолди, энди бу ерда қолишим мумкин эмас эди. Болаларнинг ошхонасига кириб, **қозоннинг бошига** ўтириб олдим-да, лаззатли таомлардан тўйиб-тўйиб едим. ("Сариқ девни миниб", 38-б.). Дадам, керак бўлса ишлатарсизлар, бўлмаса бирор **қора кун**имизда асқотиб қолар деб, уч-тўрт марта пул ташлаб келган экан. ("Мунгли кўзлар", 137-б.).

Адабиётшунос олим Б.Саримсоқов "Бадиийлик асослари ва мезонлари" номли китобида метафора ҳамда метафорик образларнинг табиати ва хусусияти ҳақида тўхталиб, "бадиий асардаги кечинма шиддатини ошириш метафорик образга хос… Метафора ижодкорнинг у ёки бу нарса, воқеа-ҳодисага нисбатан ўзининг салбий муносабатини тўғридан тўғри ифодалаш учун ҳам хизмат этади" дея таъкидлайди. Метафоралардаги баҳо муносабатини тадқиқ қилиш инсон омилини ҳисобга олишни тақоза қилади. Чунки баҳолаш субекти (баҳоловчи киши) доим муайян ижтимоий гуруҳга мансуб шахс ва унинг объектни баҳолаши нарса ва ҳодисаларга нисбатан ижобий, салбий, нейтрал муносабатларида ўз ифодасини топади. Баҳолаш айниқса, лингвокультурологик метафоралар семантикасида ёққол намоён бўлади. Лингвокультурологик метафоралар семантикасида нафақат баҳолашнинг образли ифодаланиши, балки ҳиссий-емотив муносабатлар, яъни, нафрат, ғазаб, менсимаслик, эътибор қилмаслик, илтифотсизлик, лоқайдлик, дангасалик ёки аксинча ҳурмат-иззат, эътибор, ҳайрат, меҳрибонлик, ачиниш, қойил қолиш, шунингдек, стилистик буёқдорлик кўзга ташланиб туради. Баҳолаш ва эмотивлик компонентларининг интеграциялашуви эса лингвокультурологик метафораларни экспрессив воситага айлантиради. Лингвокультурологик метафоралар металлар номи билан ҳосил қилинганда ҳам умуминсоний характердаги ижобий баҳо муносабатини акс эттиради. Масалан, одатда "олтин" ҳақида гапирилганида, аввало, унинг денотатив маъноси, яъни Менделев даврий системасининг II гуруҳига мансуб кимёвий элемент; сариқ-қизғиш тусли қимматбаҳо нодир метал; зар: тилла эканлиги кўзга ташланса, "қимматбаҳо",

“тенги йўқ” сингари коннотатив компонентлари ҳам мавжуд. Насрий матнда “олтин” сўзи орқали метафора ҳосил қилинганда, унинг “яхши идрок этадиган, яхши ишлайдиган бош, ўткир ақл; шундай бош, шундай ақл соҳиби” коннотатив ижобий баҳо муносабатини ифодалайди: …бошқа бир томон қандай бўлмасин қалби меҳр-у муҳаббатга лиммо-лим тўлган бу деҳқон йигитининг **олтин бош**ини омон сақлаб қолишга, уни қочиришга интилар эди. (“Қасоскорнинг олтин боши”, 236-б.).

Ушбу ўринда номинатив бирлик ифодалаётган коннотатив маъно у ифодалаётган атрибутив сифат белгиси билан ягона маъно ифодаламаслиги кўзга ташланади. Коннотатив маънони юзага чиқаришда одатда, инсон ва уни ўраб турган атроф-муҳитдаги воқеа-ҳодисалар, нарсаларнинг номлари асос вазифасини бажариб келмоқда. Тилнинг лисоний-маданий феномени саналувчи метафорик мазмун ифодаловчи бирликлар сўзловчининг ҳам тингловчининг ҳам лисоний имкониятини, тафаккур даражасини белгилайди. Метафора инсон психикаси билан узвий боғлиқ бўлиб, хотирасида сўзларнинг маънолари билан уларнинг объектив оламда ўз сезги аъзолари орқали ҳис этган хусусиятлари ҳақидаги яширин маълумотларни тиклайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. М.:Прогресс, 1990. –С.129.

2. Чудинов А.П. Динамика концептуальной метафоры в политической речи // V Житниковские чтения: Межкультурная коммуникация в когнитивном аспекте / 2001. С. 45.

3. Махсумова С. Метафоралар орқали коннотатив-прагматик маънонинг ҳосил бўлиши (Э.Воҳидов шеърлари мисолида). ЎТА, 2009, 5-сон, -Б. 94.

4. Арестотел. Поэтика. Л.,1927. -С. 39.

5. Красных В.В. Этнопсихолингвистика лингвокультурология. М., 2002. -С. 88.

6. Афанасев А.Н. Происхождения мифа. М., 1996. -С. 35.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

UDC 81-13

INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE

I.M. Abdunazarova, assistant, Tashkent State Institute of Dentistry, Tashkent

Аннотация. *Ушбу мақолада чет тилини ўқитишда таълим жараёнидаги услубий янгиликлардан фойдаланиш зарурлиги ёритилган.*

Калит сўзлар: интерфаол усуллар, муаммоли таълим, мунозара, тренинг, "ақлий ҳужум", инновацион ёндашув.

Аннотация. *В данной статье рассматривается необходимость использования методических инноваций в образовательном процессе при обучении иностранному языку.*

Ключевые слова: *интерактивные методы, проблемное обучение, дискуссия, тренинг, "мозговой штурм", инновационный подход.*

Abstract. *This article covers the need to use methodological innovations in the educational process in teaching a foreign language.*

Keywords: *interactive methods, problem-based learning, discussion, training, "brainstorming", innovative approach.*

Rapid implementation of information processes in various spheres of life requires the development of a new model of the education system based on modern information technologies. In pedagogical experience and practice, the term "active methods and forms of learning" has long been used. It unites a group of pedagogical technologies that achieve a high level of activity of students ' learning activities. In today's era of education, another new term has spread - "interactive learning". Modern science of education "came" to the moment when there was an urgent need for new pedagogical technologies that provide the most important thing in the educational process - the development of each child's personality and activity. It is necessary to create and use such learning conditions that the student seeks to get new results of their work and in the future to successfully apply them in practice. Today, we can't help but think about what the future holds for our students. One thing is clear, that the future will require them to have a large stock of knowledge not only in their chosen specialty, but in the field of modern technologies.

The introduction of interactive forms of education is one of the most important directions for improving the training of students in modern universities. For a modern teacher, it is not enough to be competent in their field of knowledge, it is necessary to use methodological innovations in the educational process, which are currently associated with the use of interactive teaching methods. Interactive learning is based on the direct interaction of students with their experience and the experience of their friends. The goal of interactive learning is to increase the effectiveness of the educational process, in which all students achieve high results in learning. Let's consider this problem on the example of teaching students a foreign language, in particular, English. Interactive training involves immersing students in a real environment of business cooperation to solve problems in order to develop the necessary qualities of a future specialist. All participants of the educational process interact with each other, exchange information, solve problems together and model the situation.

1. Discussion in groups. Group discussions are usually conducted on a specific topic and are aimed at finding the right solution and achieving a better understanding. Group discussions contribute to a better assimilation of the material being studied.

2. Training. Training is a form of interactive learning aimed at developing interpersonal communication skills and professional behavior in communication. The advantage of the training is that all participants are actively involved in the learning process.

3. Discussion. During the discussion, participants should discuss issues in public or freely exchange knowledge, opinions, and ideas on controversial issues. Its essential feature is the combination of dialogue-discussion and dispute-the collision of different points of view and positions. Discussion is a person-centered learning process. It is characterized by active interaction of students with each other and intensive, personal-oriented training on the part of the teacher

4. The method of "brainstorming". This is a fairly popular method of solving problems by stimulating creative activity. According to this method, the teacher invites a group of students to give as many answers to the question as possible. "Brainstorming" occurs in three stages. Brainstorming is one of the most popular methods of stimulating creative activity. It is widely used in many organizations to find non-traditional solutions to a variety of tasks.

5. Problem-based learning in the context of problem-based learning, it is not only the problem of education or the problem that is important, but also the teacher's skillful presentation of the issues. Questions in the process of organizing students ' activities will help teach them to reproduce the information received from memory and perform reproductive actions. As a result, it will stimulate the creative thinking of trainees, allowing them to discover and acquire new knowledge, skills and abilities.

6. Games-exercises improve the cognitive abilities of students, contribute to the consolidation of educational material, develop the ability to apply it in new conditions. Examples of games-exercises are crosswords, rebuses, quizzes within the framework of the studied conversational topics. Travel games involve understanding and fixing a particular educational material. Students' activity in these games can be expressed in the form of stories, discussions, creative tasks, statements, hypotheses. Students develop and create diaries, write letters and collect a variety of educational material. Gaming activities are increasingly replaced by role-playing, business games, lessons-conferences, lessons-workshops.

At the same time, any use of modern tools in the learning process is regulated by the requirements for technical devices, and must comply with certain principles. In computational linguodidactics, the following principles of using technical training tools (TSO) are considered relevant):

1. The principle of conditionality. Prescribes a clear definition of the conditions for using the PC, depending on the content, goals and stage of training, age characteristics of users, as well as the training methodology used.

2. The principle of necessity. Determines the use of PC only if it allows to increase the effectiveness of the educational process for any parameter, namely: to increase the speed of learning, activate speech activity, achieve the learning goal in the most rational way, facilitate the work of the teacher or student, reduce the learning time;

3. The principle of informativeness. Reveals the advantages of the computer as a means of reference and information support of the educational process, since the PC allows the user to get the maximum amount of information in the shortest time. In addition, the computer most corresponds to the informative-speech nature of foreign language teaching.

4. The principle of reliability. Indicates the need for experimental testing of each computer program for training, as well as the presence of a stage of organizational preparation for the lesson. Analyzing the experience of using ICT in foreign language lessons, we can draw a number of conclusions: multimedia technologies speed up the learning process; contribute to a sharp increase in students' interest in the subject; improve the quality of learning; allow to individualize the learning process; make it possible to avoid subjectivity in the assessment.

They allow the practical use of psychological and pedagogical developments that ensure the transition from mechanical learning of knowledge to mastering the ability to independently acquire new knowledge. Computer technologies contribute to the disclosure, preservation and development of personal qualities of students. It is very important to foster mutual respect and tolerance for the opinions and actions of other people. Such qualities as sociability, ability to communicate with people, negotiate, find compromises, and work in a team are highly valued in society.

REFERENCES:

1. Farxodjonova N. F. Modernization and integration: social-philosophical analysis. Rol'nauki v formirovanii sovremennoj virtual'noj real'nosti. – 2019.

2. Passov E.I. "The concept of communicative training in foreign language culture" Enlightenment, Moscow 1993.

3. Brown, H. D. (2000). Principles of language learning and teaching. New York: Longman. -P.246

UO'K 37.02

TYUTORNING FAOLIYATI VA O'QITUVCHINING FAOLIYATI, GURUX RAXBARI O'RTASIDAGI FARQ

F.O. Adilova, doktorant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada* ***t****yutorning oliy ta'limdagi o'rni, talabalarning ta'lim faoliyatidagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *himoyachi, rivojlangan davlatlarda tyutorning faoliyati, tyutor va o'qituvchining o'rtasidagi farq.*

Аннотация. *В данной статье освещена роль тьютора в высшем образовании, его значение в образовательной деятельности студентов.*

Ключевые слова: *защитник, деятельность тьютора в развитых странах, отличие тьютора от учителя.*

Abstract. *This article covers the role of tutors in higher education, the importance of students in educational activities.*

Key words: *protector, the activities of the tutor in developed countries, the difference between the tutor and the tutor.*

Tyutor-kim? Tyutor - "tutor" ingliz tilidan tarjima qilingan-o'qituvchi-murabbiy. Ushbu so'zning tarixiga nazar solsak(lot. tueor-g'amxo'rlik qilish, himoya qilish) tushunchalar bilan bog'liq – "himoyachi", "qo'riqchi". Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Oksford va Kembrij universitetlarida o'quv vaqtining katta qismi (75% dan 90% gacha) tyutor bilan mashg'ulotlarga ajratilgan.

Tyutor ishining markazida Tyutor tomonidan ishlatiladigan barcha usullar va usullarni aniqlaydigan individualizatsiya printsipi mavjud. Zamonaviy ta'limda bu kontseptsiya ko'pincha ta'lim sohasida individual yondashuv bilan ajalib turadi. Individual yondashuv: inson bilan ishlash haqiqiy (diagnostika, tuzatish, yagona natija) shaxsiylashtirish: inson bilan ishlash mumkin (atrof-muhit, imkoniyatlar, shaxsiy natijalar yaratish) o'qituvchi – o'qituvchining asosiy ta'lim vositasi va asosiy funktsional vazifasi-doimiy ravishda aniqlangan va tuzatiladigan individual ta'lim dasturini yaratish. Talabalarning bilim olish yo'lida erishgan yutuqlari va yutuqlarini birgalikda tahlil qilishga qarab o'zgarishlar kiritiladi. Tyutor va o'qituvchining, talabaga qaratilgan maqsadi vazifalar: o'qituvchi, darsga kelib, o'zining ta'lim manfaatlari va maqsadlarini amalga oshiradi . Tyutor esa, talabalarning manfaatlaridan kelib chiqib, uning maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi. Tyutor talabalarning bilim qiziqish bilan ishlaydi, individual ta'lim dasturlarini amalga oshirish bilan birga ularni yaxshi natijalarga erishishiga o'ziga xos xususiyatlariga qaratilgan. Tyutoring texnologiyalari qanday texnologiyalar? Tyutorial qo'llab-quvvatlash texnologiyalari-tyutorga talabaning shaxsiy qiziqishi (ehtiyoji) bilan ishlashni tashkil etishga yordam beradigan texnologiyalar va talabaning ta'lim yoki ijtimoiy namunasi sifatida bo'lgan muayyan faoliyatni boshlash uchun shaxsiy qiziqishning shaxsiy qiziqishlarini tarjima qilish. Ammo tyutorning pedagogik psixologiyada (savol-javob texnologiyalari, refleksiv sessiya texnologiyalari, faol tinglash texnologiyalari, moderatsiya texnologiyalari va boshqalar) faol foydalaniladigan texnologiyalar to'plami bo'lishi kerak.

Tyutor- bu talabalarning eng yaqin insoni yo'l boshlovchisi, o'z kasbining mohir ustasi bo'lib erishishi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatadigan shaxs hisoblanadi. Tyutorlar uchun talabaraning turli sohalarda yuksak marralarni zab etishlari, barkamol inson bo'lib rivojlanishi muhim ahamiyatga ega . Xorijiy davlatlarda tyutorning asosiy vazifasi ma'lum tarkibdagi o'quvchilar bilan yo'nalishlar kesimida qo'shimcha o'z ustida ishlash, kengroq shu sohani mustaqil va guruhlar bilan birgalikda o'rganib ma'lum soha bo'yicha yetakchi o'rinni egallashlari uchun xizmat qiladi. Samarqand davlat universitetida ham tyutorlik faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib unda 100 dan ortiq tyutorlar faoliyat yuritmoqdalar. Har bir tyutorga 120-150 ta talabalar biriktirilgan. Talabalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, ularning qiziqishlari inobatga olingan holda to'garaklarga jalb etish ko'zda tutilgan. Tyutorlarning guruh rahbarlaridan farqi shundan iboratki guruh rahbarlari faqat 30-35 ta talaba bilan birga faoliyat olib ma'lum fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlar olib borishardi. Tyutorlar esa 120-150 ta talabalarning yashash tarzlari, qiziqishlari, yurish-turishlari, dars mashg'ulotlariga ishtirok etishlari, sog'lig'ni inobatga olib kerakli yordam ko'rsata olishlari ko'zda tutilgan.Ta'lim jarayonida talabalarning ota-onasi bilan aloqada bolib , ularning hatti-harakatlari, sog'ligi, yutuqlari, kamchiliklari haqida ma'lumotlarni vaqtida yetkazuvchi eng birinchi inson hisoblanadilar.Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida bir qancha to'garaklar o'z faoliyatini yuritmoqda.

Aksariyat o'qituvchilar ta'limdagi innovatsion amaliyotlarni tahlil qiladilar va o'z g'oyalarini tushunishning yangi darajasiga ko'taradilar, o'z tajribasini uzatish vositalarini qidiradilar. Bunday innovatsion amaliyotlarga tyutor yordami kiradi. Ko'pgina ta'lim muassasalarida tyutorlarni qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini joriy etishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Lekin avvalo bu muammoning tarixiga murojaat qilish kerak. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tyutorning pedagogik faoliyatining maqsadi - bu o'quvchini ta'lim makonida shaxsiy qo'llab-quvvatlash, ichki potentsialni ochish va atrof-muhitga moslashish uchun sharoit yaratish haqida umumiy g'oya ishlab chiqilgan.Tyutorlik maqsadini bir qancha kichik-maqsadlarga bo'lish mumkin: talabalar tomonidan mavzu pozitsiyasini tushunish va qabul qilishda yordam berish; sub'ektga marshrutni ishlab chiqishda, kuzatishda, qadamlar yo'nalishini tushunishda, belgilangan joyga borishga intilishda yordam berish; talabaning sub'ekt sifatida rivojlanish mexanizmlarini o'zlashtirishga yordam berish. Tyutorlik maqsadlarini ta'lim funktsiyalari orqali ham ko'rish mumkin: - tashkiliy funktsiya: faoliyatni tashkil etish (muvofiqlashtirish); individual ta'lim dasturini yaratish uchun ta'lim resurslarini izlash; o'quvchilarning yosh xususiyatlarini va psixologik neoplazmalarini hisobga olgan holda shakllanish jarayoni sodir bo'ladigan sharoitlarni yaratish; iqtidorli o'quvchilar bilan maqsadli uzoq muddatli ishlash tizimini qurish va boshqalar.

- o'qitish va tarbiyalash funktsiyalari: bilim, ko'nikma va malakalarni olishda yordam berish, o'zlashtirish, ta'lim dasturini o'zlashtirish; o'quv jarayoni jarayonida shakllangan kompetensiyalar yig'indisi

asosida o'quvchilarning bilim uchun individual mas'uliyatini shakllantirish; o'quvchini ijtimoiy muhitga kiritish;

- o'quvchini tanlash va aks ettirish uchun mas'uliyatni shakllantirish;

- rivojlantiruvchi funktsiya: o'quvchining ta'lim motivlari va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish; tadqiqot jarayoni va uning usullari, faoliyat mazmuni va boshqalarga faol qiziqishni rivojlantirish.Tyutor yaxlit pedagogik jarayonga birlashtiriladi. Tyutor faoliyatining maqsadlari umumiy ma'noda quyidagicha ifodalanishi mumkin - eskort va hamrohning sub'ektiv pozitsiyasi bilan o'quvchining proksimal rivojlanish zonasida bo'lishiga yordam beradigan shunday ta'lim muhitini yaratish. O'qituvchini qo'llab-quvvatlash vazifalari: - talabaning ta'lim motivlari va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish; - individual ta'lim dasturini yaratish uchun ta'lim resurslarini topish; - oilaning ta'lim buyrug'i bilan ishlash; - talabaning ta’limiy va tarbiyaviy aksini shakllantirish.[4] Tyutor va o’qituvchi maqsadlarining xilma-xilligi o’qituvchi faoliyati mazmunini belgilaydi. Faoliyatning mazmuni ko'pincha faoliyatning funktsiyalari nuqtai nazaridan aniqlanadi. Muayyan talaba uchun tyutor yordamini qurish va tashkil etish tanlangan funktsiyalarning ustuvorligiga bog'liq. Tyutorning faoliyatini bitta stsenariyda amalga oshirish mumkin emas: ularning individualligi o'qituvchining ehtiyojlariga qarab turli funktsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Xorijda iqtidorli bolalarni tyutor qo‘llab-quvvatlash funksiyalariga quyidagilar kiradi: nazorat-diagnostika, dizayn, motivatsion, axborot-mazmun, tashkiliy-faoliyat, texnologik, aks ettirish. Tyutorning faoliyatini qo'llab-quvvatlash amaliyotida quyidagi funksiyalari rivojlangan: - talabaning aqliy va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga olgan analitik-refleksiv funktsiya, ularning faoliyatini, barcha natijalarini, muammolarini tahlil qilish va tushunishga qaratilgan. - iqtidorli o'quvchining o'quv va darsdan tashqari faoliyatida turli xil pedagogik loyihalarni izchil amalga oshirish, ularning moyilligini aniqlash va qiziqishlarini, individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, zarur o'zaro munosabatlarni tashkil etish va ta'minlashdan iborat tashkiliy va motivatsion funktsiya.Oliy ta'lim muassasasi va jamiyat o'rtasida; - kompensatsiya funktsiyasi, bunda bir qator hollarda tyutor iqtidorli o'quvchilarning ta'lim faoliyatiga munosabatini o'zgartirishga, ularning o'qituvchilar va ota-onalar bilan uzilgan aloqalarini tiklashga yordam beradigan shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

Tyutor faoliyatining mazmuni loyiha yoki tadqiqot mavzusiga muvofiq o'quvchilarning loyiha va tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali aniqlanishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilar - o'qituvchilar o'quvchilarning o'yin faoliyatiga hamrohlik qilish imkoniyatidan foydalanadilar. Tyutorlik pianino chalishni, ingliz tili, kimyo, tasviriy san’at va hokazolarni o‘rganishda amalga oshiriladi. Tyutor o'quvchilar hayotida shunday vaziyatlarni qurishi kerakki, bunda ularning tarbiyaviy maqsad va motivlarini ularning real harakatlari orqali ko'rsatish mumkin bo'ladi.Tyutorning vazifasi kognitiv tashabbuslar va talabalarning manfaatlarini namoyon qilish uchun makon sifatida ta'lim maydonini qurishdir. Bugungi kunda tyutorlik harakati tarkibiga kirgan katta pedagogik hamjamiyat a’zolari tomonidan qurilayotgan va ko‘paytirishga intilayotgan tyutorlik texnologiyalari individuallashtirish g‘oyasini hayotga tatbiq etishga qaratilgan bo‘lib, har qanday o‘qitishning samarali bo‘lishi mumkin emasligini hisobga olib, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olinadi.

L.V. Bendovaning so'zlariga ko'ra, tyutorning roli repertuarida to'rtta rol (bilimli mutaxassis, va tajribali tarjimoni, yo'riqnoma, yordamchi) mavjud. [11] E.V. Belitskaya tyutorlikning zamonaviy tuzilmasi uchta komponentni o'z ichiga oladi, lekin ularning mazmuni vaqt o'tishi bilan bir muncha boshqacha xususiyatlarga ega bo'lib, tarkibiy qismlarning har qandayining ustunligi ta'limning tyutorlik tizimining turiga bog'liq. [9]

1. Ta’lim makonida o‘quvchilarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashga rahbarlik qilish (ushbu elementning vazifalari: atrofdagi jamiyat, ta’lim muassasasi, bo‘layotgan voqealar va boshqalarning ta’lim salohiyatini ochib berish; o‘quvchilarning ta’lim faoliyati maqsadi va natijasini aniqlash; ta’minlash; dominant bo'lgan individual ta'lim yo'lini qurish orqali ta'lim makonida muvaffaqiyatli o'zini o'zi belgilash).

2. Axloqiy maslahat va qo'llab-quvvatlash (ta'limda zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish texnikasi va texnologiyalarini o'zlashtirishda yordam berishni o'z ichiga oladi, bu elementning asosiy omili hisoblanadi; o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoit yaratish; o'quvchilarning aks ettirish jarayoniga hamrohlik qilish).

3. Tyutorlikning o'zi (bu elementning asosi adabiy manbalarning ta'lim salohiyatini ochib berish, o'quv kurslari; talabalar tomonidan individual ta'lim dasturini shakllantirish va amalga oshirishda ularni tanlashda yordam berish; bunday ko'rinishlarni bartaraf etish yoki kompensatsiya qilishda yordam berish; o'quv jarayoni talabaning noto'g'ri tushunishi, motivatsiyaning etishmasligi , uning fiziologik va psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhitning tabiati, shaxsiy tarix va boshqalar). [9] T.M. Kovalevaning fikricha, tyutorlar uchta rolni birlashtirishga chaqiriladi: ijtimoiy (o'rganishni huquqiy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash), madaniy va mavzuli (mavzular va bilimlarga yo'naltirilganlik) va antropologik. Oxirgi rol tyutor yosh tanlagan kasbga qanday talablar qo'yilishi va oldinga siljish uchun qanday ko'nikmalarga ega

bo'lishi kerak (chet tillarini o'rganish, vestibulyar apparatlarni o'rgatish va h.k.) tushunishga yordam beradi. [9] Tyutorlik ta'lim tizimining tuzilmaviy tarkibiy qismi - bu ta'lim sohasida o'quvchilarning o'zini o'zi belgilashiga rahbarlik qilish, chunki ushbu komponentning funktsiyalari etakchi hisoblanadi. Talabalar tomonidan tanlangan individual ta'lim yo'lini hisobga olish tyutor yordamida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Angliyada tyutorlik ta'lim sifatini oshirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Tyutor tizimining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining malakasiga bog'liq bo'lib, u professional o'qituvchi bo'lmasligi mumkin, lekin u ko'rsatadigan yordam eng yuqori darajada bo'lishi kerak. [6] Tyutor tajribali bo'lishi va nazorat qilinadigan soha yoki fan bo'yicha ma'lum bir malakaga ega bo'lishi kerak. Tajriba vaqt o'tishi bilan to'planadi, ammo malakaga o'qish va o'qitish orqali erishiladi.Demak tajribali tyutor bo'lish uchun turli yashash sharoitlarda ulg'aygan talabalarning ochilmagan qirralarinini to'gri yo'naltirish, faqat talim sohasi bilan cheklanib qolmasdan,balkim turli kasblarni temperamentiga mos tanlashga yordam berishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алтунин А.В. Психологические особенности молодых людей, имеющих установку на повышенный уровень самореализации, в условиях интенсивной личностно значимой деятельности. // Автореферат дисс. кандидата психологических наук . – М., 2012. – 22 с.

2. Андреева Е.А. Сравнительный анализ моделей тьюторства (на примере Англии, Германии, Объединенных Арабских Эмиратов и России). // Автореферат дисс. кандидата педагогических наук. – М., 2012. – 23 с.

3. Афанасьева Т.П. Тьюторство как технология индивидуального сопровождения учащегося в системе предпрофильной подготовки и профильного обучения / Т.П.Афанасьева // Профильная школа. - 2007. - № 2. С.5-15.

4. Байденко В. И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения : метод, пособие / В.И. Байденко. М., 2006. - С. 34.

5. Байденко В.И. Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы / В.И. Байденко, Н.А.Гришанова, В.Ф.Пугач // Высш. образование сегодня. 2005. - № 5. - С.6-8.

6. Барбарига А.А. Британские университеты / А.А. Барбарига, Н.В.Фёдорова - М., 1979.- С. 12.

7. Бедерханова В.П. Становление личностно ориентированной позиции педагога: автореф. дис.докт. пед. наук / В.П.Бедерханова. Краснодар: КГУ, 2002.

8. Беков Х.А., Широбоков С.В., Кирьянов И.И. и др. Терминология в системе дополнительного профессионального образования: Словарь. – М.: ИПК госслужбы, 2013. – 107 с.

9. Белицкая Е.В. Тьюторская система обучения в современном образовании Англии. // Автореферат дисс. кандидата педагогических наук: – Волгоград, 2012. – 24 с.

10. Белякова Н.Ю. Исторический опыт тьюторства в Британской школе / Н.Ю.Белякова // Высшее образование сегодня, 2016. - № 8. - С.64-68.

11. Бендова Л.В. Педагогическая деятельность тьютора в сети открытого дистанционного профессионального образования: дис. канд. пед. наук. - М.. 2016. - 251 с.

UDC 316.6

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

A.A. Akhmedova, senior lecturer, Tashkent Institute of Chemical Technology, Tashkent

Аннотация. *Мақолада бошланғич мактаб ёшидаги болаларга чет тилларини ўргатишда таъсир қилувчи асосий психологик омиллар кўриб чиқилади. Ушбу иш мавзусини танлаш яъни ёш болаларга чет тилларини ўргатишнинг психологик хусусиятлари тасодифий бўлмасдан балки, чет тилларини эрта ўрганиш мамлакатимиз ва Ғарбий Европа таълим сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида тадқиқ этилаётгани асосий омил бўлиб хизмат қилди.*

Калит сўзлар: *психологик омиллар, ёш болалар, чет тилларини ўргатиш, сезгирлик, лингводидактик асослар, ўрганишнинг психолингвистик асослари.*

Аннотация. *В статье рассматривается основные психологические факторы, влияющие на обучение иностранным языкам детей младшего школьного возраста. Выбор темы настоящего работа психологические особенности обучения иностранным языкам детей раннего возраста не случаен, так как раннее обучение иностранным языкам - одно из приоритетных направлений в образовательной политики как нашей стране, так и западноевропейских стран.*

Ключевые слова: *психологические факторы, детей раннего возраста, обучения иностранным языкам, сензитивность, лингводидактические основы, психолингвистические основы обучение.*

Abstract. *The article discusses the main psychological factors influencing the teaching of foreign languages to children of primary school age. The choice of the topic of this work, the psychological features of teaching foreign languages to young children, is not accidental, since early learning of foreign languages is one of the priorities in the educational policy of both our country and Western European countries.*

Keywords: *psychological factors, young children, teaching foreign languages, sensitivity, linguodidactic foundations, psycholinguistic foundations of learning.*

The 21st century is the heyday of information technology. Our country's foreign economic and cultural ties are expanding, the social order of learning foreign languages is being formed, and the need to learn them is growing year by year. This fully applies to the preschool period.

Psychologists and physiologists base the introduction of early foreign language teaching on children's natural propensity for languages and their emotional readiness to learn them. There is evidence in both local [3] and foreign psychology [2] that a child learns a foreign language more easily than an adult. In this case, they are usually related to the sensitivity (sensitivity) of preschool and primary school age children to mastering common languages, in particular foreign languages. The duration of the sensitive period for different researchers is determined in different ways: Eliot - from 1.5 to 7 years, Penfield and Roberts define it from 4 to 8 years. It is at this age that children are characterized by a natural curiosity and the need to learn new things. They tend to be more flexible and faster than the later stages of language material acquisition. With age, a person gradually loses these abilities, his sensitivity to perceive sounds and the ability to imitate them decreases, short-term memory weakens, as well as the ability to see, and most importantly, the ability to hear. A child under the age of nine is a speech therapist. What is most successful at a young age is that a young child learns to pronounce foreign sounds, words, and intonation without stress, provided he or she constantly listens and imitates speech in a foreign language.

Most researchers agree that it is possible to conduct special foreign language classes with children aged 3 to 10 years - it is useless, after 10 years - it is useless to hope for a positive result. It is best to learn a foreign language at the age of 5-8, when the child has already mastered the mother tongue system well and he or she understands the new language. If the methodological system is built very competently from the linguodidactic and psycholinguistic point of view, then the success of mastering the proposed limited language material and creating the necessary conditions for the subsequent mastering of any foreign language is ensured by almost all children. [4].

Thus, different authors indicate different ages at which to start learning a foreign language. At the same time, the recommendations of the International Seminar under the Council of Europe state that it is preferable to start learning a foreign language at the earliest age - 7 years old.

The success of teaching foreign languages to children in primary school depends on the following psychological factors:

- Psychophysiological readiness of the student for the systematic acquisition of the second language;
- Features of cognitive activity and cognitive activity of students;
- Features of the development of high mental functions of the student (memory, attention, thinking, perception, imagination);
- Emotional and personal characteristics of students;
- Arbitrary behavior, the formation of communication skills;
- Positive motivation to learn a foreign language;
- a certain level of knowledge and ideas about the world around [1].

Foreign researchers often emphasize the following qualities that are characteristic of children of primary school age:

- low concentration of attention;
- propensity for kinesthetic forms of work;
- prefer to study the whole, not the individual;
- concentration of attention occurs here and now;
- understanding the situation before understanding the use of a foreign language;
- rapid memorization is accompanied by rapid forgetting;
- mechanical memory takes precedence over logical memory;
- lack of limiting factors in speech;
- not to be afraid of making mistakes and willing to work on them;

A very important advantage of preschool and primary school age is the motivation to move globally in children, which allows you to organize the teaching of foreign languages as a means of communication naturally and effectively and build it as close as possible to the process. the natural process of using your native language. This is possible because almost any language unit can be communicatively valuable using a specially organized game in the learning process. And then the effectiveness of shaping the ability to communicate in a new language in younger students increases due to the interaction of play motivation and interest in school.

The most important feature of any mental and practical activity is attention. In elementary school students, voluntary attention is better developed than voluntary attention, meaning that a child of this age can easily focus on colorful and moving objects, but hardly absorbs boring (unofficial) text. The success of

learning activities depends in many ways on voluntary attention, so it is important for young learners to develop this type of attention.

Psychological processes such as cognition are important for learning a foreign language. It is in the lower classes that the transition from mixed, fragmented perception to the fragmented, meaningful representation of things and events takes place.

A special task for teachers is to develop the ability to construct speech logically and consistently, to reconstruct material into semantic blocks. This is especially important for memory development. The transition to semantic memorization occurs at this age, so children need to be taught specific ways of memorizing language and speech material, distributing it over time.

Closely related to memory and thinking, it is a mental process like imagination. There is a voluntary and voluntary, reproductive and creative imagination. In the creative imagination, situations and images that are not in reality are restored and recreated. One of the above forms of imagination is personalization. Based on it, the learning process and grammatical aspect of foreign speech can also occur.

The main feature of the imagination is to focus on the future. By developing this function in the child, we create the necessary conditions for the formation of his creative abilities [1].

Thus, the introduction of early learning of foreign languages is justified by the natural propensity of children to languages and their emotional readiness to learn them, as well as the advantages of global active play motivation of primary school age children.

The most comfortable age at which it is preferable to start learning a foreign language early in primary school is six years old.

One of the most important psychological factors in the success of teaching a foreign language to children of primary school age is: the psychophysiological readiness of the student for the systematic acquisition of a second language; characteristics of students' cognitive activity and cognitive activity; features of the development of high mental functions of the student (memory, attention, thinking, perception, imagination); emotional-volitional and personal characteristics of students; arbitrariness of behavior, the formation of communication skills; presence of positive motivation to learn a foreign language; a certain level of knowing and understanding the world.

Primary school age, the leading activity of this age, allows to realize the communicative direction of education at an early stage, due to the peculiarities of games.

In the process of mastering new means of communication by students, they develop intellectual, speech and emotional abilities, as well as personal qualities: universal values, interests, will, and so on.

In addition, early learning of a foreign language allows you to have direct access to the values of world culture as quickly as possible, which effectively affects the development of the child as a person.

REFERENCE:

1. Loginova L.I., How to help a child speak English. M. 2002.
2. Penfield V., Roberts L. Speech and brain mechanisms. L. 1964.
3. Rubinshtein S. L. Fundamentals of general psychology. M. 1989
4. Teaching a foreign language to preschoolers / review of theoretical positions. Foreign languages at school. No. 1. 1990. P. 38 - 42.

UO'K 37.02

FUTBOL O'YINIDA HUJUM TURLARI VA QO'LLANILISHI

J.Ch. Amirqulov, o'qituvchi, Termiz davlat unversitetining Pedagogika instituti, Termiz

Annotatsiya. *Maqolada futbol o'yinida hujum turlari va qo'llanilish usullari haqida bayon qilinadi.*
Kalit so'zlar*: futbol, texnik-taktik, jismoniy kuch, tezlik va chidamlilik sifatlari.*
Аннотация*. В статье описаны виды атак и способы их использования в футбольной игре.*
Ключевые слова: *футбол, технико-тактические, физическая сила, скорость, ловкость и выносливость.*
Abstract*. The article describes the types of attacks and methods of use in a football game.*
Keywords: *football, technical-tactical, physical strength, speed, agility and endurance.*

To'pni boshqarayotgan futbolchi harakatlarining asosiy variantlari to'p olib yurish, aylanib o'tish, zarba berish, to'pni uzatish va to'xtatishdan iborat.

O'yinchilarning hamma texnik harakatlari «O'yin texnikasi» bobida mufassal tahlil qilingan. Bu erda esa turli o'yin vaziyatlarida qaysi bir harakatdan foydalanish ma'qulroq ekani haqida ba'zi tavsiyalar berish bilan cheklana qolamiz.

To'pni olib yurish. To'pni egallagan o'yinchining sheriklarini raqiblar to'sib olgan bo'lib, to'pni uzatish imkoni bo'lmasa, u holda mana shu taktik vosita ishlatilgani ma'qul. Bunday vaziyatda o'yinchi

quyidagi maqsadlarda to'p bilan birga maydonda uzunasiga yoki ko'ndalangiga harakat qila boshlashi kerak:

a) sheriklarining ochilishiga, shuningdek, ulardan birortasining hujum zonasiga o'tishiga imkoniyat yaratib berish. Bu holda sheriklarining yangi pozitsiyalarga chiqib olishiga vaqt yetarli bo'lsin uchun harakatlanish tez bo'lmasligi lozim;

b) raqib darvozasiga bevosita xavf solish uchun o'z-o'ziga sharoit yaratish. Bunda akschora ko'rishni qiyinlashtirish uchun to'p maksimal tezlikda olib yuriladi. Bundan tashqari, sheriklarning pozitsiyasi qulayligidan darhol foydalanib qolish uchun to'pni boshqarayotgan futbolchi ularning harakatlanishini e'tibor bilan kuzatib borishi kerak. To'pi yo'q futbolchi to'pni egallagan futbolchiga nisbatan tezroq yugurishini hamma vaqt yodda tutish kerak: shuning uchun ham to'pni uzatish imkoniyati bo'lmagan taqdirdagina uni olib yurgan ma'qul. To'pni ortiqcha ushlab turish hujumning rivojini sekinlashtirib qo'yadi va sheriklar ishini qiyinlashtiradi, chunki ular qulay pozitsiyaga chiqib, to'p olmaganlaridan keyin yana pozitsiya almashtirishga majbur bo'ladilar.

Aylanib o'tish. Aylanib o'tish, ya'ni to'pni boshqa-rayotgan o'yinchining raqib bilan kurashda yutib chiqish maqsadidagi harakatlari mudofaadan individual o'tishning muhim vositasidir. Aylanib o'tish usullari qanchalik xilma-xil va samarali bo'lsa, hujum shunchalik xavfliroq bo'la boradi.

Aylanib o'tishning quyidagi turlari mavjud: harakat tezligini o'zgartirib aylanib o'tish; harakat yo'nalishini o'zgartirib aylanib o'tish; aldash harakatlari (fintlar).

Harakat tezligini o'zgartirib aldab o'tish mana bunday bajariladi: to'pni egallagan futbolchi unga yonidan, oldindan – yon tomondan yoki orqadan – yon tomondan hujum qilayotgan himoyachi yaqinroq kelishini kutib, o'rtacha tezlikda harakat qila boradi. Taxminan himoyachi bilan uchrashiladigan paytda, oraliq 2-3 metrcha qolganda, ya'ni himoyachi bevosita hujum qilish masofasiga kelib qolganida hujumchi harakat tezligini keskin oshiradi. Bunda u go'yo himoyachi bilan shartli uchrashish nuqtasidan o'tib ketib qoladi. Aylanib o'tishning bu turi maydonning yon chizig'i bo'ylab to'p olib ketayotganda yoki to'pi bor o'yinchi diagonal bo'ylab harakatlanayotganida ko'proq foyda beradi. Aylanib o'tishning bu usulini boshqacharoq, muayyan harakat uchastkasida tezlikni kamaytirib ham qilsa bo'ladi.

Harakat yo'nalishini o'zgartirib aylanib o'tishning ikki asosiy varianti bor. Bulardan birinchisi himoyachi to'pni boshqarayotgan o'yinchidan oldinda bo'lganida ishlati-ladi. To'pi bor o'yinchi o'rtacha tezlikda to'ppa-to'g'ri himoyachiga qarab ketaveradi. Taxminan 5-6 *m* qolganda, to'pi bor o'yinchi tezlikni o'zgartirmay olg'a tomon chaproqqa harakat qila boshlaydi. Agar himoyachi harakat yo'nalishi o'zgarganiga e'tibor qilmasa, unda tezlikni birdan oshirib, raqibni orqada koldirib ketish mumkin. Bordi-yu, himoyachi to'pi bor o'yinchining yangi harakat yo'nalishini to'smoqchi bo'lib, shu tomonga o'ta boshlasa, unda to'la tezlikda yo'nalishni o'zgartirib, olg'a tomon o'ngga ketib qolsa bo'ladi. Agar himoyachi to'pni egallagan o'yinchi harakatining yo'nalishlari o'zgarishiga tez e'tibor berib, bu yo'nalishni ham to'sib ulgursa, unda yo'nalishni bir necha bor o'zgartirgan tuzuk. Xullas, muayyan yo'nalishda ilgarilashga himoyachi halaqit bermaydigan bo'lib qolganidagina maksimal tezlikka o'tishni yoddan chiqarmaslik kerak.

Ikkinchi variant himoyachi orqada yoki orqada – yon tomonda bo'lib, to'pi bor o'yinchi bilan bir tomonga harakatlanayotgan va unga etib olayotgan bo'lganda qo'llani-ladi. Himoyachi yaqinlashib qolgan paytda hujumchi to'pni to'xtatadi-da, 180^0 ga burilib, o'tib ketib qolgan himoyachini chetlab harakatda davom etadi. Aylanib o'tishning bu turi maydonda uzunasiga ham, ko'ndalangiga ham to'p olib yurishda qo'llaniladiki, bu to'pi bor o'yinchi uzunasiga va diago-naliga harakatlanib borayotganida ayniqsa foydali.

Aldash harakatlari (fintlar) yordamida aylanib o'tish – o'yin joyi nisbatan chog'roq sharoitda kurash olib borshning eng samarali vositasidir. Fintlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Zarba berib fint qilish. To'pi bor o'yinchi himoyachiga yaqinlasha turib, unga 3-4 *m* qolganda, go'yo to'pni shundoqqina raqibga tepmoqchidek, oyog'ini qattiq orqaga tortadi. Raqib zarba tegishiga chog'lanib, odatda, o'yinchi yonidan utib ketganiga tez e'tibor berolmay qoladi. Bu fint himoyachining yonida bo'sh joy bo'lgan hollardagina qo'llaniladi. Yo'qsa hujumchi o'zi bilan kurashayotgan himoyachining yonidagi himoyachiga ro'para kelib qoladi.

2. Qochib qolib fint qilish. To'pi bor hujumchi to'ppa-to'g'ri himoyachiga qarab ketaveradi. Orada 2-3 *m* masofa kolganida hujumchi chap tomonga ketmoqchidek harakat qiladi-da, keyin maksimal tezlikda himoyachining o'ng tomonidan aylanib o'tib ketishga harakat qiladi. Aylanib o'tishning bu turi maydonning istalgan joyida va turlicha o'yin vaziyatida muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin.

Ayniqsa, o'sib borayotgan organizmni shakllantirish, yosh avlodning jismoniy tarbiyasi uchun atletika muhim ahamiyatga ega: fazilatlar – chidamlilik, kuch, tezlik, qobiliyat, moslashuvchanlik qiyinchiliklarni bartaraf etish qobiliyati, yugurish, sakrash, otish. Mehnat va harbiy ishlarda juda keng qo'llaniladi.

Ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan atletika mashqlari xarakterni shakllantiradi, odamning irodasini kuchaytiradi, qiyinchiliklardan qo'rqmaydi, lekin ularni jasorat bilan yengib o'tishga o'rgatadi. Yengil atletika bo'yicha sport mashg'ulotlari va raqobatbardosh faoliyat talabalarga o'zlarining potensial qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zlarini shaxs sifatida namoyon etish, xarakter va maqbul aqliy sohani shakllantirishga imkon beradi.

Jamoada yengil atletika, jamoa musobaqalarida ishtirok etish ish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Atletika – bu inson uchun tabiiy jismoniy mashqlarni birlashtiradigan sport turi: yurish, chopish, sakrash, otish kabilarni o’z ichiga oladi. Har xil atletika mashqlari va yurish, chopish, sakrash, otish kabilarni o'zgartirish uchun keng imkoniyatlar ushbu mashqlarni turli yoshdagi bolalar va o'smirlarni, turli xil jismoniy tayyorgarlikni o'rgatish uchun muvaffaqiyatli ishlatishga imkon beradi.

Bundan tashqari, ko'plab mashqlar maxsus qimmatbaho uskunalarni talab qilmaydi va oddiy joylarda amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, barcha uchun ham atletika mashg'ulotlari eng ommabop sport hisoblanadi.

Umuman olganda, sportda atletika tizimining tuzilishi sxemada ifodalanishi mumkin:

Mashg'ulotlar (maktab, texnikumlar va oliy ta’lim) ichidagi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish, harakat uslublarini o'rganish va zaif va orqada qolgan yoshlarda jismoniy fazilatlarni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Tuzilishga ko'ra, ular uch qismli darsni eslatadi, ammo tananing asosiy qismga tayyorgarligiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Mustaqil mashg'ulotlar sport xonalarida ham, tashqarida ham amalga oshirilishi mumkin. Ular jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga, oddiy elementlarning texnikasini o'rganishga, o'qituvchining vazifalarini bajarishga qaratilgan.

O'quv mashg'ulotlari asosan sport zallarida o'tkaziladi. Ular yengil atletika bo'yicha musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish va sport mahoratini oshirishga qaratilgan. Ushbu darslarda talabalar yengil atletika turlarini o'zlashtirib, muayyan turdagi yengil atletika uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni optimallashtirishga erishadilar. Uning tarkibida sinflar ham uch qismli darsga o'xshaydi. Tanani asosiy qismga tayyorlash uchun ko'proq vaqt beriladi, chunki u ham miqyosi, ham intensivligida katta ishlarni amalga oshiradi. Asosiy qismda turli yo'nalishdagi turli xil mashqlar mavjud. Yengil atletika turi sifatida musobaqalar har xil sport turlarining eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda ishtirokchi o'z imkoniyatlarini, qobiliyatlarini namoyish etadi, raqobat tajribasini oladi, ularga tayyorgarlik vaqtida erishgan narsalarini ko'rsatadi. Musobaqalar yuqori jismoniy mashqlar, yuqori aqliy zo'riqishlarga ega bo'lishi sababli, ular ekstremal sharoitlarda harakatlarga yaqinlashib, sportchining tanasiga ta'lim ta'sirini ko'rsatmoqda.

Faoliyatning epizodik shakllari bir martalik bo'lishi mumkin (masalan, o'rmonda yoki parkda mashq qilish va yurish, ortiqcha mashq paytida tananing tiklanish jarayonlarini yaxshilash uchun) va sistematik (ertalab mashqlar, gigiena yurishlari). Ushbu turdagi sinflar individual va guruh bo'lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya darslari oliy va o’rta maxsus ta’limalarida yengil atletika darslarini qurishning asosiy shakli hisoblanadi. U uch qismdan iborat: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy.

Tayyorgarlik qismining maqsadi – samarali jismoniy mashqlar orqali, eng kam vaqt bilan, ishtirok etuvchi tananing barcha funktsional tizimlarini o'z ichiga oladi.

Harakatda (yurish, chopish) va joylarda (chiziq, ustun, doira) mashqlarning to'g'ri tanlovi nafas olish organlari, qon aylanishi, metabolizm, mushaklar – skelet tizimini mustahkamlashga yordam beradi.

Darsning tayyorgarlik qismining mashqlari darsning vazifalariga mos kelishi kerak. Yengil atletika darsida bu sport yurishi – sekin harakat qilish, mashq qilish, turli otlar, tezlashuv bo'lishi mumkin. Talabalar darsning asosiy qismida ishtirok etadigan atletika turining tayyorgarlik mashqlaridan foydalanadilar. Agar u yugurish bilan uzoqlashib ketgan bo'lsa, unda tayyorgarlik mashqlari bir, uch, besh qadam, joydan uzunligi, uch, beshdan o'tishi mumkin.

Yuqori tezlikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish va qobiliyatni namoyon etishni talab qiladigan mashqlar darsning asosiy qismining boshida va oxirida kuch va chidamlilik bilan bog'liq mashqlarni bajaradi. Darsning asosiy qismidagi barcha mashqlarning tarkibi ular ko'p qirrali ta'sirga ega bo'lishi kerak.

Hissiy ohangni saqlab qolish va darsda olingan materialni mustahkamlash uchun asosiy qismni mobil o'yinlar bilan to'ldirish tavsiya etiladi, bu darsda o'rganilgan yengil atletika harakatlarini o'z ichiga oladi.

Darsning yakuniy qismi tananing funksional holatini normal faoliyatga olib kelish uchun mo'ljallangan. Yurak – qon tomir, nafas olish, asab tizimlarining qo'zg'alishini kamaytirish, mushaklarning kuchlanishini kamaytirish uchun sekin harakatlanish, turli xil yurish, dam olish mashqlari, to'g'ri turish, e'tibor beriladi.

Mashg‘ulotlardan tashqari darslarning deyarli har qanday shakli atletika yoki umuman, bu sportdan iborat bo'lishi mumkin.

Atletika jismoniy tarbiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat insonni hayotga tayyorlash, tabiat tomonidan yaratilgan jismoniy va aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, balki, eng muhimi, shaxsning axloqiy fazilatlarini jismoniy tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan rivojlanish tajribasi, shakl va usullarning xilma – xilligi tufayli qimmatli ko'p asrlik tajribani o'z ichiga oladi.

"O‘zbekiston ta'lim tizimi" va "atletika" ni alohida tarkibiy qismlar sifatida tasavvur qilish mumkin emas. Ular orasida faqat ajralmas aloqa emas, bu ikki tushunchalar juda chambarchas bog'langan. Shunday

qilib, insonning rivojlanish jarayonida tabiiy ravishda qo'lga kiritgan fazilatlari bilan birgalikda, uning jismoniy faolligi ham muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Тер-Ованесян И.А. Подготовка легкоатлета М.: 2006
2. Лазарев И.В. Практикум по легкой атлетике, учебное пособие М.: 2004
3. Goncharova 0.V.(2015) Yosh sportchilarning jismoniy tayyorlash. O'quv-uslubiy qo'llanma. ITA - PRESS. Toshkent. 36 b.
4. Muminjon N., Dilshodjonugli N. S. Improvement of transformer protection elements //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 6. – C. 394-398.
5. Axatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini boshqarish. –Toshkent, 2005.
6. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. –Toshkent, 2005.

UDC 37.02

THE IMPACT OF CASE STUDIES IN DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS IN EFL CLASSROOM SETTINGS

Z.Z. Zakirova, senior teacher, UzSWLU, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning maqsadi talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida ingliz tilini o'qitishda amaliy misollardan foydalanish samaradorligini muhokama qilish va ularni amalga oshirish bo'yicha umumiy tavsiyalar berishdir. Hozirda ish beruvchilar muammoni hal qilish, tanqidiy fikrlash va shaxslararo munosabatlar kabi ko'nikmalarga e'tibor qaratayotganligi sababli, ushbu maqola tanqidiy fikrlash va amaliy misollar haqida umumiy ma'lumot berish bilan birga ularni qo'llashda e'tiborga olinadigan jihatlariga ham e'tibor qaratadi.*

Kalit so'zlar: *amaliy misollar, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, kognitiv qobiliyatlar*

Аннотация. *Целью этой статьи является обсудить эффективность применения тематических исследований в преподавании английского языка как средства развития навыков критического мышления учащихся и представить общие рекомендации по их реализации. Поскольку в настоящее время работодатели уделяют большое внимание таким навыкам как решение проблем, критическое мышление и навыки межличностного общения, в этой статье представлена общая информация о критическом мышлении и тематических исследованиях с указанием моментов, которые следует учитывать при их применении.*

Ключевые слова: *тематические исследования, критическое мышление, решение проблем, когнитивные навыки*

Abstract. *The aim of this article to discuss the effectiveness of applying case studies into the EFL classroom as a means of fostering critical thinking skills of the students and present general guidelines how to implement them in the EFL context. As, currently, the employers are paying a great attention to transferable skills like problem-solving, critical thinking and interpersonal skills, the learners need to be able to evaluate the situations and give appropriate solutions to the issues accordingly in order to acquire these skills. Taking these views into the account, in this article presents general information about critical thinking and case studies provided with the points to consider in their application in the EFL classroom.*

Key words: *case studies, critical thinking, problem solving, cognitive skills*

Currently the role of a teacher is not only to teach the target language by using some specific techniques and strategies but also to be able to identify the problems and issues in the classroom atmosphere and give adequate solutions to them. With advance in information technology, the learners are becoming more literate and diverse which leads to different opinions maintenance in the classroom. In order to keep balance between the people with different views in the classroom the teacher is required to acquire and develop his critical thinking skills. As is stated above, applying critical thinking in the classroom enables and encourages learners to speculate, criticize, and form conclusions about knowledge they already have as well as information they will acquire in the future. Thus, to activate and increase critical thinking in their students, teachers need to devise tasks and activities, and improve their teaching methods to encourage such thinking.

A case study is an in-depth, detailed examination of a particular case (or cases) within a real-world context (Bromley, D.B. 1986). It is based on the real life or imaginary situation that demands analysis of the situation. By applying this method the students are exposed to cognitive approach to teaching. It requires the learners that they look into the case themselves, identify the problem, and provide possible recommendations or solutions.

Case studies can be modified to different language levels and teaching situations, such as English for specific purposes (ESP) or content-based learning (the context where the study of a subject matter dominated

rather than linguistic skills). Contents may range from everyday issues to high-content cases requiring in-depth subject-matter knowledge. The more complex the case is, the more specific the knowledge and the more specialized the language students will need. High-context cases are therefore suitable for learners who have sufficient proficiency in English and specialized knowledge about the subject.

Here are general guidelines and steps for implementing a case study:

1. The situation should be described and be given in a narrative form.
2. Following questions should be addressed: Who are the main characters and what are their roles? What are the key problems and issues? What background information and relevant facts do others need to know to understand the case?
3. The case – the story should be coherent. There should be sufficient arguments so that the story will sound adequate. The relationship between cause and effect in the events must be clear, and the order of events must be easy for a reader to follow.
4. Paragraphs should be used to structure the information. One aspect of the story should be limited to the discussion in each paragraph and backed up with details. When it is necessary to discuss another aspect, it is recommended to start with a new paragraph.

The case-study method usually involves the following steps:

1. The teacher introduces the situation and, if necessary, relevant vocabulary.
2. Students discuss possible solutions, usually in small groups.
3. Students present and justify the solutions, usually with the whole class.
4. Everyone participates in a feedback session, typically led by the teacher.
5. Students reflect on the case study itself and on the procedure. The duration of each step, particularly the reading and discussion stages, depends on the length and complexity of the case study.

The following issues should be considered before applying case studies:

1. The case study should be realistic and complex enough with sufficient facts and background information, and with the provision of essential supporting documents to solve the case.
2. The manner how solutions will be presented—through whole-class discussions, with presentations, or in a final report should be clearly stated.
3. The cases should correspond to students' linguistic competence, prior knowledge and motivation so that they will be able to understand the language and situation itself reflected in the case.
4. The assessment criteria should be introduced in advance highlighting what skills will be assessed.

In conclusion, when a case study method is implemented in the EFL classroom one can witness that students will be able to develop their linguistic skills alongside with their critical thinking skills. They will be exposed to cognitive skills such as analyzing, synthesizing, arguing, evaluating and formulating through a cognitive approach to teaching. In addition, the teachers should be aware of the ways of implementing case studies in EFL classroom and giving feedback to the learners' responses.

REFERENCES:

1. Bromley, D.B. (1986) The Case-Study Method in Psychology and Related Disciplines. (Chichester, England: Wiley)
2. Giancarlo, C. A., & Facione, P. A. (2001). A look across four years at the disposition toward critical thinking amongmundergraduate students. The Journal of General Education, 50(1), 29–55.
3. Youngblood, N., & Beitz, J. M. (2001). Developing critical thinking with active learning strategies. Nurse Educator, 26(1), 39–42.
4. https://www.teachhub.com/teaching-strategies/2014/09/teaching-strategies-to-promote-critical-thinking/

УЎК 37.02

ОТМ ФИЛОЛОГИК ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ТОПШИРИҚЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ДИДАКТИК ВА ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

М.Э. Ахмедова, п.ф.н. доцент, Тошкент тиббиёт академияси, Тошкент

Аннотация. *Мақолада олий филологик таълим тизимининг она тили ўқитиш методикасида ўқув топшириқларидан фойдаланишнинг мавжуд ҳолати, ўзбек тили ўқитиш методикаси машғулотларида савол, машқ ва топшириқларнинг берилиши таҳлилий ўрганилди, шунингдек, ўқув топшириқларини дидактик ва назарий жиҳатдан такомиллаштириш бўйича олиб борилган тадқиқотлар таҳлил қилинди.*

Калит сўзлар: *дидактик, назарий- педагогик ёндашувлар, олий таълим, ўзбек тили ўқитиш методикаси, замонавий ўқитиш талаблари, ўқув топшириқлари, лингводидактик компетенция*

Аннотация. *В статье нализируется современное состояние использования учебных заданий в методике обучения родному языку системы высшего филологического образования, вопросы,*

упражнения и задания в методике обучения узбекскому языку, а также исследования по дидактическому и теоретическому совершенствованию обучающих задач.

Ключевые слова: *дидактический, теоретико-педагогический подходы, высшее образование, методика обучения узбекскому языку, современные требования к обучению, задания, лингводидактическая компетенция.*

Abstract. *The article analyzes the current state of the use of educational tasks in the methodology of teaching the native language of the system of higher philological education, questions, exercises and tasks in the methodology of teaching the Uzbek language, as well as research on the didactic and theoretical improvement of educational tasks.*

Key words: *didactic, theoretical and pedagogical approaches, higher education, methods of teaching the Uzbek language, modern learning requirements, assignments, linguodidactic competen*

Ўзбекистонда ҳам олий таълим тизимида модул-кредит тизимига ўтиш жараёнлари кечмоқда. Бунга тайёр бўлиш учун талабаларда мустақил ишлаш кўникмаларини ривожлантириш зарур. Тилшунослик фанлари, она тили ўқитиш методикаси компетенциявий ёндашувга асосланмоқда, дарс жараёнида лингивистик компетенцияларни шакллантириш нутқий компетенцияларнинг ривожланишига олиб келиш кўзда тутилмоқда. Халқаро тажрибалар асосида тил ўрганишга қўйилган аниқ талаблар орқали (тинглаб тушуниш), (гапириш), (ўқиш) ва (ёзиш) малакалари шакллантирилади. Она тил ўқитишда мазкур ёндашувдан бироз ижодийроқ фойдаланиш мақсадга мувофиқ, бизнингча. Чунки талабалар тилнинг ташувчилари сифатида муайян нутқий кўникма ва малакаларга эга бўлган ҳолда мактабга келадилар. Талабаларда она тилидан (улар тининг ташувчилари бўлгани учун) баъзи кўникмаларгина шакллантирилади, асосан, улардаги мавжуд кўникмалар ривожлантирилади. Айниқса, бўлажак ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчилари она тилда матн ёки суҳбатни тинглаб тушунади, ўқий олади, гапира олади ва ёза олади. Бундай вазиятда она тили ўқитиш методикасининг асосий вазифаси талабаларда эшитганларини *тўғри тушуна олиш, адабий тилда равон ва мантиқан изчил гапира олиш, матнни ўқиб тушуна олиш* ҳамда *тўғри ва мазмунли ёза олиш* кўникмаларини ривожлантириш лозим. Бу масъулиятли вазифани, албатта, такомиллаштирилган ўқув топшириқлари орқали амалга ошириш мумкин. Шу маънода филологик таълимда она тилида ўқув топшириқларини ишлаб чиқишнинг лингводидактик асосларини такомиллаштириш масаласи ниҳоятда долзарб ҳисобланади.«Таълим тўғрисида»ги Қонуннинг ҳаётга татбиқи шарофати билан ўзбек тилшунослигида она – ўзбек тили қурилиши европавий шаблонлар асосида формал талқин этиш асоратидан қутулиб, ҳозир жаҳон тилшунослари диққатига ҳам сазовор бўлаётган субстанциал таҳлил методологияси асосларига - том маънода ўзбекона таҳлил усулларига - тўла кўчирилди. Фанда тараққиётни белгиловчи ва давлатни, миллатни, бунёдкорларини жаҳонга машҳур қиладиган илмий мактабу йўналишлар тадқиқ манбаига янгича талқин этишнинг қатъий методологик тамойиллари асосида ёндашиш натижаси ўлароқ шаклланади ва ривожланади. Ҳозир ўқув-методик мажмуаларни янгилаш муносабати билан республикамизда олий таълим тизимида ўқитилаётган 50 дан ортиқ тиллар бўйича лингвистик талқинларни ўзбекона (субстанциал) талқин усулларига кўчириб, биринчидан, ўрта таълимда она тили қурилиши бўйича олинадиган талқинлар билан олийгоҳда бериладиган талқинларни уйғунлаштиришга, иккинчидан, жаҳон тилшунослиги силсилагида ўзбек лингвистик мактаби ўрнини барқарорлаштиришга реал имкониятлар мавжуд. Бу олий филологик таълимда нутқий компетенцияни ривожлантиришга асосий эътибор қаратиш лозимлигини кўрсатади.

Нутқий қобилиятни ўзлаштириш муваффақияти мотивацион омиллар ва ўқувчининг умумий таълим кўникмаларини шакллантириш даражасига боғликдир. Нутқ нутқ аъзоларининг ҳаракати жараёнида пайдо бўлади. Руҳий ҳодиса бўлган тилнинг ифода воситалари нутқ ихтиёрига ўтгач, ҳақиқатга айланади. Демак, нутқ нутқ фаолиятинннг маҳсулотидан, маълум шаклга киришидан иборат [1],. "...яхши нутқ тузиш учун наҳв, аруз, мантиқ фанлари ҳамкорлигидан фойдаланиш зарур бўлади. Уларнинг бирортасига аҳамият бермаслик, булардан бирнинг қоидасининг бузилиши, қолган иккитасига таъсир қилмай иложи йўқ" [2].

М.Б.Эльконин концепциясига кўра, болани ривожлантириш жараёнида, аввало, фаолиятнинг мотивацион томонини, кейин эса техник жараённи ўзлаштириш амалга оширилиши керак. Шу билан бирга, олимлар қуйидаги омилларни ҳам ажратиб кўрсатадилар: ижтимоий-сиёсий (тилнинг давлатга хослиги, мактабда ўқиш мажбурияти); касбий қиймат (касбга ўқитиш давлат тилида олиб борилади); ижтимоий обрў, жамоавий масъуллик; коммуникатив (она тилида мулоқот қилиш зарурияти); ўз-ўзини тарбиялашга эҳтиёж, ўзини такомиллаштириш истаги билан боғлиқ сабаблар; утилитар (маълум ҳаётий манфаатларга эришиш воситаси сифатида тилни билиш зарурати);

хавотирланиш сабаблари (синфни орқага тортмаслик, паст баҳо олмаслик); она тили ва адабиёти ўқитувчисига ҳурмат мотиви.

Тил ташувчисининг шаклланиш даражасига таъсир қилувчи психологик шартлар орасида лисоний қобилият алоҳида аҳмиятга эга. Шундай қилиб, тил ташувчисининг шаклланиши фақатгина мактаб таълими жараёни билан чекланиб қолмайди, балки инсоннинг бутун онгли ҳаётида давом этади. Кўпчилик замонавий олимлар "тил ташувчиси" тушунчасинининг тузилиш таркибига қуйидагиларни киритадилар:

- лингводидактик компетенцияси;
- нутқ компетенцияси;
- фан компетенцияси;
- прагматик компетенция;
- коммуникатив компетенция;

Интеллектуал доимий ривожланиш: руҳий жараёнлар (хотира - визуал ва эшитиш, фикрлаш – мавҳум ва мажозий, кузатиш, тасаввур – репродуктив ва ижодий); инсоннинг маънавий бойлиги – доимий маънавий ривожланиш, ахлоқий меъёрлар, аввало, мулоқот меъёрига риоя қилиш; тил анъаналарининг йиғилиб бориши. М.Неппнинг таъкидлашича, бола 2-3 ёшида она тили грамматикасини эгаллай бошлайди, чунки бошқа одамларнинг нутқини англаб, сўзлар комбинацияси ва жумлалар тузилишида онгости сезимлари орқали кодланган объектив қонуниятларни, кўплаб аждодларнинг тажрибасини қабул қилади. Одам онгида нутқи ривожланиши билан бир қаторда, онгостида мумкин бўлган ҳаракатларнинг ички режаси тузилади, муайян вазиятда амалга ошириладиган ҳаракатлар моделлари яратилади .

Л.С. Выготский, И.Я. Зимняя, А.А. Леонтьев, С.Л. Рубинштейнларнинг психологик тадқиқотлар таҳлили тил ташувчисини шакллантиришнинг муваффақияти она тилининг коммуникатив ривожланиш даражасига боғлиқлиги ҳақида гапиришга имкон беради. "Она тилининг коммуникатив ривожланиши" ибораси И.Я.Зимняянинг фикрича, қуйидагиларни таъминлайдиган мураккаб кўп қиррали ҳодиса сифатида кўриб чиқилиши керак:

- луғат ҳажми;
- нутқ қоидаларини эгаллашнинг моҳирлик даражаси;
- фикрини онгли равишда изчил баён қила олиш қобилияти, суҳбатдошининг репликаларига муносиб жавоб бера олиш, эшитганларига муносабат билдириш кўрсаткичларига эга бўлган оғзаки мулоқот шаклларини билиш даражаси;
- кўрсаткичи ўқиш суръати бўлган ўқиш технологияси даражаси;
- ёзма нутқ кўникмаларини шакллантириш даражаси, когнитив қизиқишларини шакллантириш даражаси;
- умумий дунёқараш. Мазкур талабларни амалга ошириш учун она тили таълимида прагматик ёндашувга асосланган ўқув топшириқлар тизимини ишлаб чиқиш лозим. Бунинг учун турли нутқ вазиятига мос фикр ифодалаш имконини берувчи, ўзаро мулоқотнинг самарали бўлишига хизмат қилувчи когнитив-прагматик таълимнинг афзалликларини ўрганиб чиқиш керак бўлади. Мулоқот давомида одатда саволларга тўғри жавоб бергани учун ўқувчиларга рағбат ёки нотўғри жавоб берган тақдирда уларга дашном берилади. Дарсда ўқувчини савол беришга ундаш мумкинми, кўп ҳолларда бунга эътибор берилмайди, имконият яратилмайди. Ўқувчилар томонидан ўқитувчига савол берилса, аксарият ҳолатда рағбатлантирилмайди. Она тили машғулотларида ва бошқа фанларда ҳам ўқувчилар, асосан, жавоб берувчидир. Аслида ўқувчига кўпроқ савол беришни ўргатиш лозим. Мулоқот жараёнида жавоб саволнинг қандай берилганига боғлиқ бўлади. Фикрлаш қобилияти фақат саволларга жавоб бериш қобилияти билан эмас, балки уларни сўраш қобилияти билан ҳам белгиланади. Ўқувчиларда тўғри ва мантиқли савол бера олиш кўникмасини ҳосил қилиш зарур. Бу келажакда тўғри қарор қабул қиладиган фикрловчи кишиларни тарбиялаш учун жуда муҳимдир. Бу борада ғарб педагогикаси мўтадиллик, амалийлик ва эришувчанлик тамойилларига таянади. Прагматизм – таълимни ҳаётга яқинлаштириш, таълим мақсадларига амалда эришиш тарафдори бўлган фалсафий-педагогик йўналишдир. Прагматик фалсафа асосчилари Ч. Пиерз ва Жеймс идеализм ва материализмдан ташқарида турган янги фалсафани яратишни талаб қилишди. Дастлабки прагматистларнинг ғоялари америкалик файласуф ва педагог Д.Дьюин [3] томонидан ишлаб чиқилган.

Прагматик педагогика ҳаётдан олинган мақсадларни ҳимоя қилади. Америка мактаби прагматик таълим зарурлигини исботлай олган ва умумий аҳолининг тараққиёти ва манфаатларига мос келадиган таълим мақсадларини таклиф қила олган. Таълим, Д. Дьюининг фикрича, инсонни ҳаётга тайёрлаш воситаси эмас, у ҳаётнинг ўзи. Тарбия одамларни бирлаштириши, ёшларни ижтимоий тинчлик ва тотувлик руҳида тарбиялаш лозим. Д. Дьюи таълим тизими ижтимоий

муҳитни яхшилаш, жамият турини инқилобий ўзгаришларсиз ўзгартиришнинг ҳал қилувчи воситаси сифатида намоён бўлади. Ўқув мақсадлари Д. Дьюининг услубий кўрсатмалари замонавий назариялар билан ҳамоҳанг. Бу назариётчиларнинг фикрларини умумлаштириб, прагматик педагогикани тарбиялашнинг умумий мақсади шахснинг ўз-ўзини тасдиқлаши, тан олиши, деган хулосага келиш мумкин. Унинг фикрига кўра, таълим ҳаётий муаммоларни қандай ҳал қилишни ўргатиши керак. Она тили таълимида ҳар бир машғулот орқали бериладиган савол, топшириқ ва машқлар ҳам худди шундай ўқувчининг ҳаётий муаммоларини ечишга йўналтириши лозим. Бу борада ўзбек тилшунослигида олиб борилаётган тадқиқотлардан ҳам фойдаланиш лозим.

Прагматика (юн. pragma, pragmatos) тилшуносликнинг нутқда тил белгиларининг амал қилишини ўрганувчи соҳаси; бошқача айтганда, муайян белгилар тизимини ўзлаштириб, ундан фойдаланувчи субъектларнинг айни шу белгилар тизимига муносабатини ўрганувчи фан тармоғи. Прагматика ҳақидаги асосий ғоя америкалик олим Ч. Пирс томонидан ўртага ташланган; яна бир америкалик олим Ч. Моррис ушбу ғояни ривожлантирган ва «Прагматика» терминини семиотика бўлимларидан бирининг номи сифатида амалиётга киритган.

Прагматика инсоннинг ижтимоий фаолиятини ўзида қамраб олувчи нутқ жараёни, муайян алоқа вазияти орқали намоён бўлади. Лингвистик Прагматика аниқ шакл, ташқи кўринишга эга эмас; унинг до-ирасига сўзловчи субъект, адресат, уларнинг алоқа-аралашувдаги ўзаро муносабатлари, алоқа-аралашув вазияти билан боғлиқ кўплаб масалалар ки-ради. Она тили таълмига, хусусан, ўқув топшириқларини такомиллаштиришга ёрдам берадиган жиҳати қуйидагиларда намоён бўлади: Масалан, баённинг ошкора ва яширин мақсадлари (фикрни етказиш, сўроқ, буйруқ, илтимос, маслаҳат, ваъда бериш, узр сўраш, табриклаш, шикоят ва б.); нутқ тактикаси ҳамда нутқ одоби турлари; суҳбат, сўзлашиш қоидалари; сўзловчининг мақсади; сўзловчи томонидан адресатнинг умумий билим жамғармаси, дунёқараши, қизиқишлари ва б. хислатларига баҳо берилиши; сўзловчининг ўзи баён қилаётган хабарга муносабати кабилар савол бериш, топшириқ бажариш, умуман, ўзаро мулоқотда муҳим аҳамиятга эга [1].

Шу ўринда – машқ усуллари – ўқувчининг реал амалий ҳаракатларини таъминловчи, унинг ички муносабатини мужассамлаштирувчи, муносабатни моддийлаштирувчи, иккинчисига кўринадиган таъсирлар туридир. Машқ ва топшириқлар ёрдамида ўқувчиларнинг фаоллиги ташкил этилади ва унинг ижобий мотивлари (иштиёқ) (топшириқлар, талаблар, мусобақалар шаклида алоҳида ва гуруҳ фаолияти учун турли хил вазифалар, намуналар ва мисоллар кўрсатиш, муваффақиятли вазиятларни яратиш) рағбатлантирилади.

Ижодий тафаккур соҳибларини тарбияловчи дарснинг асосини фикрлашга йўналтирувчи ўқув топшириқлари ташкил қилади. Бундай замонавий дарс жавоб бериши керак бўлган умумий талаблар қуйидагилардан иборат:

1. Энг янги илмий ютуқлардан, энг яхши педагогик амалиётдан фойдаланиб, таълим жараёни савол-жавоб асосида дарс ташкил қилиш.

2. Дарсни ўқув топшириқларидан ўринли ва мақсадли фойдаланган ҳолда амалга ташкил қилиш.

3. Ўқувчиларнинг билиш фаолияти учун тегишли бўлган барча шарт-шароитларни яратиш, уларнинг қизиқишлари, майллари ва эҳтиёжларини ҳисобга олиб матнга ёки мавзуга ўқув топшириқлари ишлаб чиқиш.

4. Савол ва топшириқлар тузишда фанлараро боғланишларни эътиборда тутиш.

Хулоса сифатида, грамматика қоидалар эмас, она тилида матн билан ишлашга ўтиш, сўзнинг матндаги маъно товланишларини, талаффузи ва ёзилишини, матн муаллифи аслида нима демоқчилигини англашга олиб борувчи савол ва топшириқлар тизимини яратиш, ўқувчининг адабиётга меҳр қўйишини таъминлайди, она тилининг бўй-у бастини кўради. Грамматик назариялар – қолиплардир, она тили уларга сиғмайди. Биз тилнинг нутқий имкониятларини кўрсатиб беришимиз керак, бу имкониятлар грамматика билан ўлчанмайди. Маълумки, ҳар бир дарс уч мақсадга эришишга қаратилган: ўргатиш, тарбиялаш ва ривожлантириш. Она тили таълимида, асосан, грамматик билимларни ривожлантириш назарда тутилди, Тўғри, грамматикасиз дарс ҳам, дарслик ҳам бўлмайди, бироқ меъёрида бўлиши керак. Тил ўрганишни мураккаб жараёнга айлантириб қўйганмиз, кабий малаклар алоҳида масала, нега она тили ўқитувчиларининг билими паст баҳоланмоқда, чунки биз нотўғри ўлчаяпмиз. ОТМ ўқитувчисидан фан тилшуноснинг билим ва кўникмасини сўралмайди, аслида олимлар ҳам тилшуносликнинг кичкина бир соҳасини билади холос. Ўқитувчидан лингвистиканинг ҳамма соҳасини билишни талаб қилиш нотўғри, албатта.

Бугун ўқувчига ОТМга кириш учун она тили грамматикасидан тақдим этилаётган тест саволларига тадқиқотчи, тилшунослар ҳам қониқарли жавоб бера олмайди, чунки ўқув топшириқлари нотўғри шакллантирилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. С. Усмонов. Умумнй тилшунослик. Тошкент, 1972, 144- бет.
2. Беруний. Танланган асарлар, N1 том, 64- бет. Кейинги кўчнрмалар ҳзм ўша асарнинг 64- бетидан олинди.
3. Джон Дьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы. — Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. — М., 2002.
4. https://qomus.info/encyclopedia/cat-y/yoldosh-uz/

УЎК 316

АЛКОГОЛИЗМ, ИНСОН ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ЖИДДИЙ МУАММОСИ

О. Жаббарова, ўқитувчи, НавДПИ, Навоий

Аннотация. *Алкоголь ва тамаки маҳсулотларининг салбий таъсирларидан инсонлар саломатлигини сақлашга қаратилган ҳуқуқий иқтисодий ва бошқа чора-тадбирларни кенг тарғиб этиш ҳозирги кунда долзарб ҳисобланади. Ушбу мақолада алкогол ва тамаки маҳсулотларини организмга салбий оқибатлари ҳақида фикр мулоҳазалар юритилган.*

Калит сўзи: *алкогол, касалликлар даражаси, ичкиликбозлик, жигарнинг алкоголли циррози, ақлий заифлик.*

Аннотация. *Актуальна широкая пропаганда правовых, экономических и иных мер, направленных на защиту здоровья человека от негативного воздействия алкогольной и табачной продукции. В данной статье рассматривается негативное влияние алкоголя и табачных изделий на организм.*

Ключевые слова*: алкоголь, заболеваемость, алкоголизм, алкогольный цирроз печени, умственная отсталость.*

Abstract. *Widespread propaganda of legal, economic and other measures aimed at protecting human health from the negative effects of alcohol and tobacco products is relevant. This article discusses the negative impact of alcohol and tobacco products on the body.*

Key words*: alcohol, morbidity, alcoholism, alcoholic liver cirrhosis, mental retardation.*

Ҳозирги замонда алкоголизм муаммоси жиддий тус олган, ҳар йили ер юзида миллионлаб одамлар алкоголизмнинг жиддий оқибатлари туфайли ҳаётдан кўз юмади. Алкоголикларда касалликлар даражаси икки-уч марта, соматик касалликлардан ўлим уч-тўрт марта кўп учрайди. Барча сабаблар туфайли ичкиликбозларнинг умр кўриши ўртача 12- 18 йилга камаяди. Ашаддий ичкиликбозлик оқибатида барча ички аъзолар зарарланади, айниқса, энг кўп учрайдиган касалликларга қуйидагилар киради: жигарнинг алкоголли циррози, алкогол кардиомиопатияси, бош мия қон-томирлар атеросклерози, келгусида энцефалопатия ва ақлий заифлик ҳамда бошқа қатор касалликлар алкоголдан захарланиш оқибатида келиб чиқади.

Бундан ташқари, ичкиликбозлик оилада, жамиятда ва давлатга бўлган муносабатларни издан чиқаради, бу нафақат мамлакат гепофондини бузиб, аҳоли саломатлик даражасини пасайтиради, балки жамиятга қарши иллат ҳисобланади. Албатта сурункали ичиш барча нуқтаи назардан қараганда ҳам организм учун ўта хавфли оқибатларга олиб келади, ичкиликбозликни тушунтириш ва оқлаш умуман мантиққа тўғри келмайди. Айниқса, ўсмирлар ва ёшлар, оила қуриш арафасида турган инсонлар, бола яратиш даврида эркак ва аёллар, ҳомиладорлик, сурункали касалликлари мавжуд бўлган ҳамда жигар касалликларини бошидан ўтказган ва бошқалар умуман алкоголли ичимликларни истеъмол қилиши мумкин эмас. Алкогол истеъмол қилиш масаласи ўта мураккаб ва қарама-қаршиликлардан иборат. Афсуски, ичкиликбозлик, арақ ва бошқа спиртли ичимликларнинг зарарлари ҳақида ОАВ орқали кенг тарғибот ишлари олиб борилишига қарамай, бу иллат камаймаяпти, балки унинг миқдори аҳоли сони бошига ортиб бормоқда. Қадимдан маълум, *"ман этилган мева доим ширин туюлади",* шунинг учун ушбу нозик масалага ўта эҳтиёткорлик билан ёндашиб, алкоголга нисбатан муносабатни ва хулқ-атворни ўзгартиришга ҳаракат қиламиз. Алкоголизм (ичкиликбозлик) ва алкоголни даврий истеъмол қилишни бир-биридан аниқ фарқлаш лозим.

Алкоголизм - бу касаллик, у махсус руҳий касалларни даволаш тиб- биёт муассасаларида реабилитация қилинади. Даврий (эпизодик) алкогол истеъмол қилишга маълум анъаналар, байрам ва бошқа тадбирлар, стрессни ёки чарчоқпи енгиш ва бошқалар сабаб бўлиши мумкин. Ибн Сино ўз таълимотида: "Вино-маст одамнинг душмани, уни кам ичиш фойдали, ҳатто заҳарланишга қарши, кўп миқдорда заҳар. Уни ичиш ақлли одамларга мумкин, ахмоқларга ман этилади". Тиббий нуқтаи назардан тавсия: *"Вино (май, шароб)" кичик миқдорда дори, кўп миқдорда заҳарга айланади"*

Сўнгги ўн йилликдаги тадқиқотлар кўрсатадики, кичик миқдордаги соф табиий қизил вино юрак қон томир тизимига атеросклерознинг олдини олиш нуқтаи назаридан ижобий таъсир этади, қонда юқори зичли липопротеидпар миқдори оргиб тож томирлар деворида холестерин тўпланишига йўл қўймайди. Алкоголнинг юқори миқдори юрак ритмини бузади, юрак мушакларига салбий таъсир этиб, ўткир юрак етишмовчилигини чақиради. Истеъмол қилинган алкогол миқдори тоза спирт сифатида мл.да ўлчанади.

Жамиятда "алкоголли ичимликларни истеъмол қилиш маданияти" деган тушунчани киргизиш зарур, хар бир одам ўзи учун аниқлаб олиши лозим, агар у ичишга қарор қилса, умуман ичиш соғлиқ учун жуда хавфли эканини билиши лозим, ўткир ичимликлар эмас, балки дўстлар ва яқинлар билан жуда кам миқдорда соф енгил вино кайфият учун ичиш мумкин. Шифокорлар ичкиликка мойил бўлган одамларнинг хулқ-атворини, ичиш сабабларини ва механизмипи ўргапиб, уларни бартараф этиши ваҳаёттарзини ижобийтомонгаўзгартиришгатаъсир кўрсатиши лозим.

1. Шахснинг маънавий қашшоқлигининг сабаблари: ўқишга лаёқатсизлик; ота-онанинг таълим даражасининг настлиги; ижтимоий фаоллик ва кўллаб-қувватлашнинг йўқлиги; қизиқишлар доирасининг торлиги ва беқарорлиги; маънавий эҳтиёж ва иштиёқнинг йўқлиги; касб танлаш бўйича аниқ фикр ва тасаввурнинг йўқлиги; хулқни шакллантиришга мотивациянинг етишмаслиги; масъулиятли қарорлар қабул қилишдан қочиш; истиқболли ҳаётий имкониятларни бой бериш.

2. Ижтимоий микромуҳитнинг бузилиши: оиланинг тўлиқ эмаслиги; оилавий алкоголизм; салбий руҳий муҳит ва атрофдагиларнинг маънавиятсизлиги, ахлоқсизлиги; ота-онанинг билим даражаси, маълумотининг пястлиги ва нотўғри тарбия.

3. *Шахснинг индивидуал-биологик хусусиятлари:* алкоголизм ва рухий касалликларга ирсий мойиллик; оғир соматик касалликлар ва эрта болаликда турли нейроинфекциялар; миянинг органик бузилишлари; ақлий ривожланмаганлик ва руҳий инфантилизм.

4. Шахснинг асабий-руҳий еа индивидуал-руҳий аномалияларига турли касалликлар киради: неврозлар, психопатиялар.

Агар енгил алкоголизмда одамнинг рухий ҳолати, маънавий-ахлоқий қарашлари тўлиқ бузилмаса ҳам, ичкиликбозга хос ҳаёт стили (хулқи) шаклланади, яъни бунда яшашдан мақсад ва баҳона ҳар куни ароқ топиб ичишга қаратилади. Алкоголли хаёт стили (хулқи) - бу турли вазиятларда такрорланиб турувчи алкоголга бўлган патологик эҳтиёжини кондириш услубидир. Ичкиликбозлик энг асосий ҳаракатлантирувчи ҳаётий кучга айланиб боради. Алкогол бежиз "яшил илон"га қиёсланмайди, сездирмай одамнинг ичига кириб, аста-секин унинг виждони, ор-номуси, уяти ва ғурурини еб тугатади. *Алкоголизм жараёни қандай ривожланиб ва шаклланиб боради?*

Биринчи босқич, алкоголли ичимликларни қанчалик кўп миқдорда ичишга боғлиқ тарзда 1 йилдан 6 йилгача ва ундан ҳам кўпроқ муддат давом этади, ичишга қарамлик ривожланиб, доимий хоҳиш пайдо бўлади. Аста-секин ақлий ва жисмоний иш қобилияти сусайиб боради, масъулият, бурч, ижрочилик каби хусусиятлар йўқолиши сабабли оилада ва ишда низолар келиб чиқади. Бу даврда агар хулқни ўзгартиришга қаратилган аниқ чора-тадбирлар қўлланса, ароқ ичишни тўхтатиш мумкин.

Иккинчи босқич - бу спиртли ичимликларни кўп миқдорда ичишга ружу қўйиш авж олган давр бўлиб, тажаввузкорлик депрессив-сусайганлик холати билан алмашиниб туради, фикри тарқоқ қанча ичаётганини назорат қила олмайди, бу ҳолат 10-20 йил чўзилиши мумкин. Одам озиб кетади, жисмоний ва ақлий имкониятлари тугаб боради, шахснинг маънавий бузилиши, ижодий қобилиятнинг йўқолиши, тез чарчаш, ишга қизиқишнинг йўқлиги, хотиранинг пасайиши, касбий махоратнинг сўниши, одам кўпол, инжик, таъсирчан ва тажанг бўлиб қолади. Иккинчи босқичнинг етакчи белгиларидан бири, абстинент синдромнинг пайдо бўлиши - бу ҳолат ҳушёр пайтда кучли соматовегетатив ва руҳий бузилишларнинг намоён бўлиши билан ифодаланади, навбатдаги алкогол микдорини истеъ.мол қилгандан (похмел) сўнг ўтиб кетади. Алкоголизм профилактикасида замонавий ёндапгувлар икки хил стратегияга асосланади:

1. Алкоголизмга олиб келувчи хавф омилларини камайтириш;

2. Алкоголизмга мойилликни камайтирувчи омилларни кучайтириш.

Маьлумки, баъзи ҳаётий вазиятлар алкогол истеъмол қилишнинг олдини олади ёки аксинча уни кучайтиради. Алкогол истеъмол қилишга олиб келувчи омилларнинг барчаси хавфли ҳисобланади. Алкогол истеъмол қилишни камайтирувчи ҳолатлар ҳимоя омиллари деб аталади.

Инсон ҳаёти давомида қатор хавф омиллари ҳамда ҳимоя омилларига дуч келади, қанчалик хавф омиллари кўп бўлса, нгунчалик алкоголик бўлиш эҳтимоли кучаяди. Алкоголизмнинг ривожланишигаолиб келувчи ягона омил йўқ. Алкоголизмга қарши кураш - бу кўп қиррали чора-тадбирлар маж- муасидан иборат бўлиб, касалликнинг олдини олиш ва хулқ-атворни ижобий томонга ўзгартириш учун шарт-шароитлар яратиш орқали соғлом хдёт тарзини шакллантиришга

қаратилган. Ичкиликбозлик ва алкоголизм бу мамлакатнинг интеллектуал ва маънавий потенциалига путур етказадиган хавф ҳисобланади. Шунинг учун алкоголизмга қарши курашнинг замонавий ва.тео- логик ёндапгувлари, ўз *саломатлигига масъулият* билан қарайдиган, маънавий баркамол ва ижобий хулқ-атворга эга бўлган шахсни шакл- лантиришга йўналтирилади. Бу асосий стандарт барча мақсадли гуруҳларнинг асосини ташкил этади, алкоголизмга қарши курашда ижобий хулқ-атворни шакллантиришда ушбу стандартдан самарали фойдаланиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. O.G. Jabbarova Развитие и распространение национальных видов спорта в Узбекистане. VIII Международная научно-практическая конференция" Международное научное обозрение проблем и перспектив современной науки и образования" США. г.Бостон. 2019. 88-92.

2. Asadullayev A.N. The role of physical education and sports professionals in the organization of a healthy lifestyle in society. Journal of Innovations in Pedagogy and Psychology, 3rd special issue. Tashkent-2020. 31-36.

УЎК 37.02

ИНГЛИЗ ТИЛИГА ЎҚИТИШДА ТЎҒРИ ТАЛАФФУЗГА ЎРГАТИШ КЎНИКМА ВА МАЛАКАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Ш.С. Кодирова, ўқитувчи, Ўзбекистон Миллий Университети, Тошкент

Аннотация. *Мазкур мақолада инглиз тилига ўқитиш тўғрисидаги талаффузларини ўргатиш ва уларнинг кўникма малакаларини шакллантириш бўйича таҳлили ёритилган.*

Калит сўзлар: *инглиз тил, таълим жараёни, педагог, шакиллантириш, ривожлантириш.*

Аннотация. *Эта статья о преподавании английского языка без акцента, которая отражается в анализе формирования их навыков в преподавании.*

Ключевые слова: *английский процесс изучения языка, учителя, формирование и развитие.*

Abstract. *This article on the teaching of the English language without any accent reflected in the analysis of the formation of their skills and their ability to teach.*

Key words*: English language learning process, the teachers, the formation and development.*

After gaining independence, the Republic of Uzbekistan has paid more attention to the teaching of foreign languages, as Uzbekistan has become a full member of the world community and our country has begun to cooperate with foreign countries in all spheres of life. This in turn requires muta sensors who are fluent in English. During the years of independence, we have strengthened cooperation in the field of education with foreign countries, in particular, with the developed countries of the world. Extensive use of new pedagogical technologies in education has become a modern requirement. The newly adopted norms of teaching English are being implemented in accordance with CEFR requirements. The formation of correct pronunciation skills and competencies in the formation of communication competencies in language teaching is a very important date. Proper pronunciation of foreign language phonemes in the process of oral communication creates major difficulties in language learning. In this article, we present our views on the formation of correct pronunciation skills and competencies in teaching English. In teaching English, the main focus is on developing correct pronunciation skills and competencies in students, as the formation of correct pronunciation skills and competencies is crucial for the comprehensibility of speech, clear and complete expression of thought.

Speech, auditory, and visual analyzers are involved in teaching pronunciation in English. The speech analyzer performs the executive function in speech, the auditory analyzer performs the speech control function, and the visual analyzer also participates in the speech control process. These analyzers are interconnected. According to psychologists, a person can hear only the sounds he can pronounce correctly. To do this, a person must first fully master the sound system of these languages when learning other languages. The main difficulty in acquiring pronunciation skills and competencies in learning English arises in the process of interlingual interference, i.e., the misuse of another language material instead of one language material. In many cases, the learner makes mistakes in learning a foreign language under the influence of the mother tongue, which in linguistics is referred to by the term interference. Interference is divided into several types, for example, phonetic interference, grammatical interference, lexical interference, mixed interference. Pronunciation training begins at the initial stage of language teaching. Initially, English sounds are taught, their articulation is developed and brought to the level of automation, while the expression of these sounds in writing is taught. Teaching correct pronunciation is a process that takes place from the beginning to the end of language teaching. In the middle and upper stages of English language teaching, it is necessary to make extensive use of various intonation devices in the formation of dialogic speech skills and competencies, as this is of great importance in mastering rhythmic intonation devices and models in a foreign language.

In the elementary stage, it is important for students to develop the skills of active listening, recognition and differentiation of sounds, chorus and individual pronunciation of sounds in selected phonetic exercises. It is noteworthy that in teaching English pronunciation, emphasis is placed on the use of English speech sounds in syllable types, and exercises on how to pronounce them in syllable types strengthen the relationship between pronunciation and writing.

In conclusion, the teaching of English pronunciation is carried out at all stages of English language teaching, but continuous phonetic exercises, listening comprehension exercises, taking into account the specific characteristics of each stage, lead to the correct formation of correct pronunciation skills and abilities. The teacher should focus on phonetic interference, as it is the most common language phenomenon for a student to use native language sounds in English pronunciation under the influence of the mother tongue. To overcome this shortcoming, it is important for the teacher to conduct regular phonetic charging exercises in each lesson, explain the differences between sounds, and demonstrate the movement and state of the speech organs in correct pronunciation.

REFERENCES:

1. Расулова, Ш. Х., & Каримова, В. В. (2020). Об ономасиологическом аспекте изучения терминов родства женского пола в узбекском и таджикском языках. *Вестник Бохтарского государственного университета имени Носира Хусрава. Серия гуманитарных и экономических наук*, (1-1), 75-78.

2. Karimova V. Brief history of researching terms of kinship in uzbek and english languages //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 156-162.

3. Каримова В. В., Юлдашева Д. А. The Responsibility of a Teacher for Increasing the Probability of Advancing Student Achievement //Молодой ученый. – 2016. – №. 3-1. – С. 41-41.

4. Расулова М. Х. Задача современной высшей школы-научить студентов размышлять //Молодежь и наука: реальность и будущее. – 2019. – С. 463-464.

5. Расулова М. Х. Прием обратной связи на уроках литературы //Молодежь и наука: реальность и будущее. – 2018. – С. 554-555.

6. Расулова М. Х. Опыт применения метода проектов при обучении русскому языку //Молодежь и наука: реальность и будущее. – 2016. – С. 327-329.

7. Расулова М. Х. Проектная работа на занятиях по русской литературе //Молодежь и наука: реальность и будущее. – 2016. – С. 329-330.

8. Расулова М. Х. Нравственное мерило в русской литературе //Молодежь и наука: реальность и будущее. – 2015. – С. 339-340.

9. Расулова, М. Х. "Идейность" безыдейной литературы / М. Х. Расулова // Молодежь и наука: реальность и будущее : Материалы VIII Международной научно-практической конференции, Невинномысск, 03 марта 2015 года. – Невинномысск: Невинномысский институт экономики, управления и права, 2015. – С. 338-339.

УДК 37.02

СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Д.Р. Қаршиева, ўқитувчи, Бухоро давлат университети, Бухоро
А.Н. Асатуллаев, ўқитувчи, Бухоро давлат университети, Бухоро

Аннотация. *Жамиятда инсоннинг саломатлиги, жисмоний баркамоллиги ва соғлом турмуш тарзи маданиятига эгалиги ўта муҳим ижтимоий қадрият ҳисобланади. Мақолада соғлом турмуш тарзи ҳақидаги билимларнинг мавжудлиги, инсоннинг умрини узайтиришда ишончнинг бўлиши ҳақида фикр мулоҳазалар юритилган.*

Калит сўзлар: *инсон саломатлиги, соғлом турмуш тарзи, ижтимоий қадрият, маданият*

Аннотация. *В обществе здоровье человека, физическая подготовленность и культура здорового образа жизни являются очень важными социальными ценностями. В статье рассматривается наличие знаний о здоровом образе жизни, наличие уверенности в продлении жизни человека.*

Ключевые слова: *здоровье человека, здоровый образ жизни, социальная ценность, культура.*

Abstract*. In society, human health, physical fitness and a healthy lifestyle culture are very important social values. The article discusses the availability of knowledge about a healthy lifestyle, the presence of confidence in prolonging a person's life.*

Keywords: *human health, healthy lifestyle, social value, culture*

Саломатлик – инсон камолотининг муҳим таркибий қисмларидан бири бўлиб, шахснинг ҳеч ким даҳл қила олмайдиган ҳуқуқи, ўз-ўзини ривожлантириш, шахсий ва жамият ҳаётида фаол иштирок этиши гарови ҳисобланади. Маълумки, жамиятимизда инсон саломатлиги, жисмоний баркамоллиги, соғлом турмуш тарзи маданиятига эгалиги ўта муҳим ижтимоий қадрият ҳисобланади. Миллат саломатлигини таъминлаш, халқ генофондини бекаму-кўст сақлаш соғлом турмуш тарзи туфайлигина етарлича ижобий тарзда ҳал этилади. Бу эса, жамиятнинг барча

ижтимоий институтлари; оила, ўқув-тарбия масканлари, маҳалла ҳамда мустақил таълим олдига жамиятимиз фуқароларига соғлом турмуш тарзи мазмуни ва моҳиятини англатиш, ёшларни сергак ва билимдон, баркамол шахс қилиб тарбиялаш масаласини кўндаланг қилиб қўяди.

Соғлом турмуш тарзи - бу фаол меҳнат, ижод оғушида яшаш, кучли жисмоний ва руҳий юкламаларни, ўта хавфли ва зарарли таъсир кўрсатувчи омилларни енгил кўтара оладиган ҳар томонлама тараққий этган шахснинг шаклланиш жараёнидир. Фалсафа ва ижтимоий гигиенага оид адабиётларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш муаммоларига сўнги пайтларда катта эътибор берилмоқда. Бу масаланинг ижтимоий-руҳий, тиббий-гигиеник, иқтисодий, шахснинг ўзига алоқадор мотивацион томонлари тадқиқ этилмоқда. Бироқ, соғлом турмуш тарзининг методологик муаммолари ва ижтимоий-гигиеник мезонлари айрим минтақаларнинг ўзига хос томонлари, иқлимий-географик шароитлари, аҳоли турмуш маданиятининг этник хусусиятлари етарлича ўрганилган эмас. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг миллий концепцияси намунавий модели республика аҳолиси ўртасида шакллантириш жараёнини маълум бир тартибда ва илмий асосда олиб боришни имкон яратади, унинг самарадорлигини оширади.

Шу билан бирга соғлом турмуш тарзи намунавий модели – одамлар ўртасида соғлом муносабатларни ҳамда намунавий ҳулқни шакллантириш жараёнини тартибга солиб боради ва тезлаштиради. Одамлар жамиятда ўзларининг мавжуд яшаш тарзларини, гигиеник хулқларини, шунингдек тиббий маданийлиги ва фаолликларини намунавий этап билан қиёслаб кўриш ва унга тегишли ўзгартиришлар киритиб бориш имкониятига эга бўлади.

Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда мотивация омилининг ўрни хақида гап юритмоқчи бўлсак, аввало мотивация атамаси ўз мазмунига кўра шахсни маълум бир фаолиятини бажаришга киришиши учун ҳаракатга келтириш, унинг муҳимлигини асослаш ва англатишдан иборатдир.

Аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш жараёнида мотивация омилининг ўрнини баҳолашда ҳар бир шахсда унинг кундалик ҳаёт фаолиятини тахлил қилиш учун зарур бўлган учта асосий элементнинг мавжудлигига эътиборни қаратиш лозим. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва иқтисодий тараққиёти ўсиб ва ривожланиб бораётган ҳозирги даврда соғлом турмуш тарзининг ижтимоий – гигиеник мезонларини аниқ белгилаб олишнинг аҳамияти жуда каттадир.

Мамлакатимизда соғлом турмуш тарзи мафкураси - инсон саломатлигининг қонунятлари ва билимлари мажмуи эмас, балки, инсон саломатлигини мустахкамлашга бўлган қарашлар тизимидан иборатдир. Маълумки, меъзон – бу шундай бир ўлчамки, унинг ёрдмида биз учун ўлчаниши зарур бўлган жараёнларни шакллантирилган эталон (стандарт) билан таққослаш имкониятига эга бўламиз, уни баҳолай оламиз. Соғлом турмуш тарзидек мураккаб ижтимоий жараёнларни ўлчашда унинг биз учун мақбул ва зарур бўлган ўлчамларини шакллантириш муҳим амалий аҳамиятга эгадир. Ҳар бир инсон ўз тана аъзоларининг заҳиравий имкониятларини ошириш учун, уларни мунтазам равишда чиниқтириб бориши лозим. Саломатлик заҳираларини яратиш учун соғлом турмуш тарзининг қуйидаги қоидаларига амал қилиш тавсия этилади:

· мунтазам равишда жисмоний тарбия ва жисмоний меҳнат билан шуғулланиш. Ҳафтада организмга камида 6 соат жисмоний юклама бериш;

· меъёрий ақлий ва жисмоний юклама билан ишлаш, кучли ақлий меҳнатдан сўнг фаол дам олиш. Меҳнат билан дам олишни галмагал ва мазмунли ташкил қилиш;

· рационал ва таркиб жиҳатдан тенглаштирилган овқатланиш, ортиқча вазндан қутилиш, ҳайвон ёғлари, қанд ва ширинликларни истеъмол қилишини чегаралаш;

Организмнинг заҳиравий имкониятларини оширишни палапартиш эмас, батартиб ташкил қилишга эришиш лозим. Жумладан: турли хил жисмоний машғулотлар ёрдамида юрак ва тана мушакларини ишлашга мажбур қилиш, бундай машғулотларни белгиланган бир вақтда бажариш ва бунда маълум тартибга риоя қилиш, ақлий ва жисмоний меҳнатни галмагал алмаштириб бажаришни одат тусига киритиш, кабилар шулар жумласидандир. Маълумки биз наслимизнинг келажаги – соғлом авлод учун курашар эканмиз ўз мақсадимизга эришиш учун миллатни соғлом турмуш тарзида яшашга ўргатишимиз керак бўлади. Соғлом авлод деганда, биз фақат жисмонан бақувват фарзандларни эмас, балки маънавий жиҳатдан ҳам бой ва соғлом авлодни назарда тутишимиз лозим. Зеро, маънавий соғлом бўлмасдан туриб, жисмонан соғлом бўлиш мумкин эмас. Ҳар иккала тушунча бир бирига мос ва бири иккинчисидан тақазо қилади. Ҳам жисмонан, ҳам маънавий соғлом авлодга эга бўлган халқни эса синдириб бўлмайди. Биз жисмонан соғлом, юксак маънавятли ва ягона миллий ғоя асосида жипслашган миллатни шакллантиришни бош мақсад қилиб қўяр эканмиз уни соғлом турмуш тарзида яшашга ўргатишимиз лозим.

Соғлом турмуш тарзи муаммоси – одамзод олдида турган энг муҳим муаммо – шахсни ҳар томонлама ривожлантириш, меҳнат турмуш ва дам олиш соҳасида, илмий жиҳатдан асосланган, ижтимоий – гигиеник фаоллиги кучайиб боришига ёрдам берадиган, ижтимоий-гигиеник жиҳатдан оқилона бўлган турмуш тарзини шакллантириш муаммосидир. Таълим тизимида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш турли йўналишларда изчиллик билан, муайян дастур асосида, аниқ йўналишларда олиб борилиши лозим. Хусусан, бу аввало олий педагогик таълим жараёнида талабаларга соғлом турмуш тарзига оид муайян тиббий ва гигиеник билимлар бериш, уларда соғлом турмуш тарзини сақлашнинг инсон танаси такомилига таъсири ҳақидаги тушунчаларни шакллантиришга қаратилса, иккинчи томондан, ёшларда қатъий режим асосида гигиеник қоидаларга амал қилиш, ўзи ва ён-атрофдагиларнинг соғлиғини асрашни кундалик одатга айлантириш кўникмаларини таркиб топтириш билан бевосита алоқадордир.

Маълумки, ўзбек оиласида кўп авлодлилик белгилари яққол ифодаланади. Унда фарзанд онгида соғлом ғоя ва билимлар шаклланишида оиланинг катталари - боболар, момолар, яқин қариндош-уруғлар, қўни-қўшнилар, маҳалла ҳам бевосита иштирок этади. Азалий одатларимизга кўра, фарзандларимиз тарбиясига ота-онадан нисбатан бобо, буви, қўшни ва қариндошларнинг таъсири кучлироқдир. Улар оиладаги маънавий муҳитнинг белгиловчилари ҳисобланади. Бу хил тарбия анъанаси ўтмишдан қолган муҳим маънавий-педагогик қадрият ҳисобланиб, буюк аждодларимиз ҳаётида бу хил тарбия услуби шаклланиб, муайян тизим даражасига етган.

Инсон турмуш тарзи ўз ҳаётида рўй берадиган аниқ воқеа-ҳодиса ва турли ўзгаришлар таъсирида шаклланади. Жамиятнинг ривожланиши, ахборот оқимининг ўсиши, тезкор ҳаёт тарзига талабнинг ортиши натижасида ўзаро мулоқот ва муносабатнинг бирмунча мураккаб тус олаётганлиги ўқувчилар руҳиятига таъсир кўрсатмоқда. Оқибатда уларда ўз тақдири, оиласи, жамоаси учун зарур бўлган турмуш тарзига эга бўлиш, ақлий, ҳиссий ва эркинликка интилишга асосланган хатти-ҳаракатлар мажмуини танлашга нисбатан маъсулликлари ортмоқда. Бу хил турмуш тарзи аксарият ҳолларда ўқувчиларда юзага келиши мумкин бўлган турли хил асаб хасталикларининг олдини олишни тақозо этади. Мазкур мақсадга эришиш аввало шахсий ва ижтимоий миқёсда соғлом турмуш тарзини ташкил этиш ҳамда унинг узвийлиги ва узлуксизлигига эришишнинг муҳим йўналишларини амалга оширишни тақозо этади. Сўнгги йилларда олиб борилаётган махсус тадқиқотлар жамиятимизда соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг илмий - услубий асосларини яратиш имконини юзага келтирди. Илмий тадқиқот натижаларимизнинг асосий мақсади педагогика олий ўқув юртлари талабаларида соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг яхлит педагогик тизимини ишлаб чиқиш ва ушбу тизимни амалиётга жорий этишга йўналтирилган илмий методик тавсиялар яратиш такомиллаштириш имконини берадиган педагогик шарт-шароитларни асослаш. Шу асосда ўзи ва атрофдагиларнинг саломатлигини сақлашга оид билим, кўникма, малака ва одатларни эгаллаган шахсни тарбиялашдан иборатдир. Олиб борилган тадқиқот ишининг натижасида қуйидаги қуйидаги амалий натижалар тавсия этилди.Таълим жараёнида педагогика олий юртлари талабаларининг соғлом турмуш тарзига оид билимларидан фойдаланиш фаоллаштирилди, ва амалиётда кенг қўлланилди;

- соғлом турмуш тарзи мазмунини англаб етишнинг аҳамиятини эътиборга олган ҳолда, талабаларда соғлом турмуш тарзига оид тушунчалар, унинг турли сатҳлари муайян ҳодиса сифатида босқичма-босқич шакллантирилди;

- "Соғлом турмуш тарзи" экспериментал курсини ўқитиш жараёнида замонавий педагогик технологиялардан талаб даражасида фойдаланилди, тажриба синов ишлари ўтказилди,бўлғуси педагогларни соғлом турмуш тарзига ўргатишнинг самарадорлиги кафолатланди, талабаларнинг соғлом турмуш тарзига оид маълумотлари ортди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Asadullayev A.N. The role of physical education and sports professionals in the organization of a healthy lifestyle in society. Journal of Innovations in Pedagogy and Psychology, 3rd special issue. Tashkent-2020. 31-36.

2. Asadullayev A.N., Ochilova N.R., Jabborova O.G. Healthy lifestyle (Healthy lifestyle) Academicia an international multidisciplinary research journal (ISSN:2249-7137, январь 2021, 1835-1841).

3. Sharofudinova R.I., Asadullayev A.N., Tolibova Z.X. The Factors and Basic Concepts Determining Community Health. Central Asian Journal of Medical and Natural Science (Volume: 02 Issue: 05 Sep-Oct 2021 ISSN: 2660-4159) 376-379.

4. Asadullayev A.N. Factors that ensure the necessary level of human health. Bulletin of Khorezm Mamun Academy Khiva-2021. 29-31.

5. Qarshiyeva D.R., Amonov M.R., Ismatova R.A., Ochilova N.R. Разработка нового состава шлихтующей композиции. Международная научная конференция «Инновационные решения инженерно-технологических проблем современного производства». Бухара 2019. 514-517 с.

6. Qarshiyeva D.R., Ochilova N.R., Tolibova Z.H. The Role Of Human Healthy And Safe Lifestyle In The Period Of Global Pandemic-Covid 19. The American Journal of Applied sciences, 2020.

УДК 37.02

СТИХОВЕДЧЕСКИЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИРИКИ В ШКОЛЕ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

М. Маматкулова, студент, СамГУ, Самарканд
Н.К. Усманова, ст.преп., СамГУ, Самарканд

Аннотация. *Мақолада лирик асарларни муваффақиятли ўрганишнинг турли услубий жиҳатларини кўриб чиқдик, улар ўрганилаётган асарнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда таҳлил усулларини тўғри, услубий жиҳатдан асосли танлашдан иборат. Ритм, интонацион ифодали ўқиш ҳар қандай адабий таҳлилнинг асосидир, бу ерда ўқитувчининг асоси ва вазифаси нафақат ифодали ўқиш техникасини ўзлаштиришдир: ўқувчилар ифодали ўқиш елементларини ўзлаштириши жуда муҳимдир.*

Калит сўзлар: *услубий жиҳатлар, ўрганиш, жанр, лирик асарлар, таҳлил усуллари, композиция, ритм, интонация, ифодали ўқиш, ўрганиш, хусусиятлар, елементлар, техника, жараён, адабиёт.*

Аннотация. *В статье мы рассмотрели различные методические аспекты успешного изучения лирических произведений, которые заключаются в правильном, методически обоснованном выборе приемов анализа с учетом особенностей изучаемого произведения. Ритм, интонация выразительное чтение – основа всякого анализа литературы, где основой и задачей учителя заключается не только в том, чтобы самому овладеть техникой выразительного чтения: крайне важно, чтобы элементами выразительного чтения овладели ученики.*

Ключевые слова: *методические аспекты, изучение, жанр, лирические произведения, приемы анализа, произведение, ритм, интонация, выразительное чтение, изучение, особенности, элементы, техника, процесс, литература.*

Abstract. *In the article, we have considered various methodological aspects of the successful study of lyrical works, which consist in the correct, methodically justified choice of methods of analysis, taking into account the peculiarities of the studied work. Rhythm, intonation expressive reading is the basis of any analysis of literature, where the basis and task of the teacher is not only to master the technique of expressive reading himself: it is extremely important that students master the elements of expressive reading.*

Keywords: *methodological aspects, study, genre, lyrical works, methods of analysis, composition, rhythm, intonation, expressive reading, study, features, elements, technique, process, literature.*

Лирика как литературный род противостоит эпосу и драматургии, поэтому при ее анализе следует в высшей степени учитывать родовую специфику. Если эпос и драма воспроизводят человеческое бытие, объективную сторону жизни, то лирика — человеческое сознание и подсознание, субъективный момент. Эпос и драма изображают, лирика выражает. Можно даже сказать, что лирика принадлежит совсем к другой группе искусств, чем эпос и драматургия — не к изобразительным, а к экспрессивным[7,38]. Поэтому к лирическому произведению, особенно что касается его формы, неприменимы многие приемы анализа эпических и драматических произведений, и для анализа лирики литературоведение выработало свои приемы и подходы.

Сказанное касается в первую очередь изображенного мира, который в лирике строится совсем не так, как в эпосе и драме. Стилевая доминанта, к которой тяготеет лирика. — это психологизм, но психологизм своеобразный. В эпосе и отчасти в драме мы имеем дело с изображением внутреннего мира героя как бы со стороны, в лирике же психологизм экспрессивен, субъект высказывания и объект психологического изображения совпадают.

Вследствие этого лирика осваивает внутренний мир человека в особом ракурсе: она берет по преимуществу сферу переживания, чувства, эмоции и раскрывает ее, как правило, в статике, но зато более глубоко и живо, чем это делается в эпосе. Подвластна лирике и сфера мышления; многие лирические произведения построены на развертывании не переживания а размышления (правда, оно всегда окрашено тем или иным чувством).

То же самое можно сказать и о встречающихся в лирических произведениях деталях портрета и мира вещей — они выполняют в лирике исключительно психологическую функцию. Так, «красный тюльпан, Тюльпан у тебя в петлице» в стихотворении А. Ахматовой «Смятение» становится ярким впечатлением лирической героини, косвенно обозначая напряженность лирического переживания. Наибольшую сложность для анализа представляют те лирические произведения, в которых мы встречаемся с некоторым подобием сюжета и системы персонажей. Здесь возникает соблазн перенести на лирику принципы и приемы анализа соответствующих явлений в эпосе и драме, что принципиально неверно, потому что и «псевдосюжет», и

«псевдоперсонажи» имеют в лирике совсем другую природу и другую функцию — прежде всего опять же психологическую.

В лирическом произведении мы не анализируем ни сюжета, ни персонажей, ни предметных деталей вне их психологической функции, — то есть не обращаем внимания на то, что принципиально важно в эпосе. Зато в лирике принципиальную значимость приобретает анализ лирического героя. Лирический герой — это образ человека в лирике, носитель переживания в лирическом произведении. Как всякий образ, лирический герой несет в себе не только уникально-неповторимые черты личности, но и определенное обобщение, поэтому недопустимо его отождествление с реальным автором.

Часто лирический герой бывает весьма близок к автору по складу личности, характеру переживаний, но тем не менее различие между ними является принципиальным и сохраняется во всех случаях, так как в каждом конкретном произведении автор актуализирует в лирическом герое какую-то часть своей личности, типизируя и обобщая лирические переживания. Благодаря этому читатель легко отождествляет себя с лирическим героем.

Можно сказать, что лирический герой — это не только автор, но и всякий, читающий данное произведение и в душе испытывающий те же переживания и эмоции, что и лирический герой. В ряде случаев лирический герой лишь в очень слабой мере соотносится с реальным автором, обнаруживая высокую степень условности этого образа. Лирика тяготеет к малому объему и, как следствие, к напряженной и сложной композиции.

В лирике чаще, чем в эпосе и драм применяются композиционные приемы повтора, противопоставления, усиления, монтажа. Исключительную важность в композиции лирического произведения приобретает взаимодействие образа часто создающее двуплановость и многоплановость художественного смысла.

Стилевые доминанты лирики в области художественной речи -это монологизм, риторичность и стихотворная форма. Лирическое произведение в подавляющем большинстве случаев построено на монологе лирического героя, поэтому нам нет необходимости искать в нем речь повествователя (она отсутствует) или давать речевую характеристику персонажей (их тоже нет). Однако некоторые лирические произведения построены в форме диалога «действующих лиц». В этом случае вступающие в диалог «персонажи» воплощают в себе разные грани лирического сознания, поэтому не имеют своей собственной речевой манеры; принцип монологизма выдерживается и здесь. Как правило, речь лирического героя характеризуется литературной правильностью, поэтому анализировать ее с точки зрения особой речевой манеры также нет необходимости.

Лирическая речь, как правило, — речь с повышенной экспрессивностью отдельных слов и речевых конструкций. В лирике наблюдается больший удельный вес тропов и синтаксических фигур по сравнению с эпосом и драматургией, но эта закономерность просматривается лишь в общем массиве всех лирических произведений.

В любом случае лирическое слово очень емко, заключает в себе «сгущенный» эмоциональный смысл. В силу «сгущенности» поэтической семантики лирика тяготеет к ритмической организации, стихотворному воплощению, поскольку слово в стихе более нагружено эмоциональным смыслом, чем в прозе. «Поэзия, по сравнению с прозой, обладает повышенной емкостью всех составляющих ее элементов.

Анализ стихотворных особенностей лирической речи — это во многом анализ ее темповой и ритмической организации, что чрезвычайно важно для лирического произведения, так как темпоритм обладает способностью опредмечивать в себе определенные настроения и эмоциональные состояния и с необходимостью вызывать их в читателе.

Специфика лирического рода оказывает влияние и на содержательный анализ. Имея дело с лирическим стихотворением, важно прежде всего осмыслить его пафос, уловить и определить ведущий эмоциональный настрой. Во многих случаях верное определение пафоса делает ненужным анализ остальных элементов художественного содержания, особенно идеи, которая зачастую растворяется в пафосе и не имеет самостоятельного существования.

Вместе с тем изучение лирических произведений—один из сложнейших вопросов методики. Восприятие лирики дается учащимся труднее, чем усвоение эпоса и драмы, т. к. поэтические образы отличаются неизмеримо большей обобщенностью: каждое отдельное слово в лирике «весомее», чем в прозаическом произведении, язык поэзии характеризует смысловая и эмоциональная насыщенность.

В связи с этим по мнению методистов, встает вопрос о подготовке учащихся к восприятию лирики. Цель их проведения в школе с нерусским языком обучения, заключается в том, чтобы

предупредить трудности восприятия, эмоционально настроить учащихся, расширить круг ассоциаций, способствовать возникновению интереса к изучаемому поэтическому произведению.

В зависимости от особенностей изучаемого произведения вступительные занятия могут носить различный характер. Поэтические произведения требуют прежде всего рассмотрения в контексте своего времени. Иногда необходимо не только сообщить дополнительные историко-литературные сведения, но и активизировать прежние знания и впечатления учащихся.

Так, перед изучением лирических стихотворений Пушкина следует вспомнить некоторые обстоятельства жизни поэта, например: Мрачные настроения часто овладевали поэтом, он называл себя «ссылочным невольником». Например, перед отъездом с юга он пишет стихотворение «К морю», в котором прощается с морской стихией, представляющейся поэту символом свободы.

В методической литературе достаточно полно разработан вопрос о вступительном слове и беседе, сообщающих историко-литературные сведения. Но следует помнить, что привлечение дополнительных сведений требует чувства меры.

Действенный прием, повышающий эффективность вступительных занятий при изучении лирики — привлечение литературно-краеведческого материала. Литературно-краеведческий материал «усиливает интерес к личности писателя, а интерес к личности писателя обычно возбуждает интерес к его творчеству, произведениям».

После вступительных занятий учитель переходит к выразительному чтению, основная цель которого сформировать первое впечатление об изучаемом произведении. Многое зависит от того, насколько эмоционально и выразительно прочтет его учитель. Хорошее чтение высвечивает красоту поэтического произведения, помогает постичь его эмоциональное и эстетическое содержание, ощутить интонационное и ритмическое своеобразие.

При первом знакомстве учащихся со стихотворением учитель читает его без каких-либо, комментариев, не прерывая ими чтения. Стихотворные тексты, небольшие по объему, лучше читать наизусть. Чтение учителя в этом случае принимает характер живого общения, и его не может заменить прослушивание исполнения мастеров художественного слова в грамзаписи, которое целесообразно использовать на заключительных занятиях.

Самый сложный и трудный в методическом отношении этап работы над поэтическим произведением — это его анализ. Успешно проведенный анализ не убивает художественное слово, а помогает открывать в нем незаметные на первый взгляд художественные и смысловые ценности. Разбор произведения приводит к углубленному прочтению и пониманию, т. е. «обнажению смысла там, где он не лежит на поверхности»[12,121].

Идейно-художественный анализ поэтического текста — это анализ его тематики, идейного содержания, композиции, сюжета, языка и стиля—всего того, что носит название анализа «на всех уровнях»[13,94]. Однако учитель не имеет возможности дать исчерпывающий анализ всех сторон произведения. Имея в виду особенности данного стихотворения, он определяет, на каких элементах следует остановиться и сосредоточить особое внимание.

В методике изучения лирики особое место отводится выразительному чтению как органической части анализа текста. Рекомендуется также использование музыкальных произведений с целью воссоздать образ-переживание автора, мир чувств лирического героя. Многозначность слова в лирической поэзии требует внимания к его эмоциональному звучанию.

Мелодия и ритм стиха воссоздаются в звучащем слове. В работе с учащимися старших классов на уроках лирики особенно важно соединить логическое и эмоциональное начала. Уроки литературы дают интересные формы перехода от образного строя произведения к системе теоретических понятий и обратно, но на новом, более высоком уровне.

Решающее условие успешного изучения лирических произведений заключается в правильном, методически обоснованном выборе приемов анализа с учетом особенностей изучаемого произведения. Один из основных инструментов современного учителя – интонация. Разрабатывая методические аспекты выразительного чтения, педагоги опираются на работы К.С. Станиславского, Г.В. Артоболевского, В.Н. Аксенова и др. Выразительное чтение – основа всякого анализа литературы. С него должно начинаться текстуальное изучение всякого произведения. Этот элемент анализа невозможно заменить ни драматизацией, ни прослушиванием аудиозаписей с голосами авторов или артистов. Однако задача учителя заключается не только в том, чтобы самому овладеть техникой выразительного чтения: крайне важно, чтобы элементами выразительного чтения овладели ученики.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Ахматова А.А. Избранное. СПб.2006

2. Абрамович Г. Л. Введение в литературоведение.- М.: Просвещение, 1995.С. 231

3. Анализ художественного текста. Сб. статей. Вып. I.- М.: Педагогика, 1995.С.197
4.Анализ художественного текста. Вып. II. М.: Педагогика, 1996.С.283
5. Ахматова А… Стихотворения и поэмы. Библиотека поэта. Большая серия. /Сост., подготовка текста и примечания В.Жирмунского. Советский писатель, ЛО, 1997.С.187
6. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. М..: Худож. лит., 1995.С.217
7. Беленький Г. И. Теория литературы в средней школе. М.: Просвещение, 1996.С. 196
8. Богданов А. Н., Юдкевич Л. Г. Методика литературоведческого анализа. М.: «Просвещение», 1999.С.234
9.Браже Т. Г. Целостное изучение эпического произведения. М.: Просвещение, 1994.С.317
10. Вопросы преподавания русской литературы в национальной школе/Сб. статей.Вып. I.- М: «Просвещение», 1992. С.281
11. Восприятие учащимися литературного произведения и методика школьного анализа. М., «Просвещение», 1994. С.169
12. Гуковский Г. А. Изучение литературного произведения в школе. М.—Л., «Просвещение», 1996.С.347

УЎК 37.02

ЁШЛАРГА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ЎРНИ

У.А. Мулладжанов, ўқитувчи, Термиз давлат университетининг педагогика институти, Термиз

Аннотация. *Мақола жисмоний тарбия ва спортнинг соғлом турмуш тарзига, айниқса ўсмирлар ва ёшлар саломатлигига таъсир кўрсатадиган томонлари муҳокама қилинган. Барча ёшдаги одамларнинг ҳиссий ахлоқий ҳолатини яхшилайдиган ижобий фазилатлар ўрганилган.*

Калит сўзлар: *Соғлом турмуш тарзи, юриш, спорт*

Аннотация. *В статье рассмотрены аспекты влияния физической культуры и спорта на здоровый образ жизни общества, а в частности на здоровье подростков и молодежи. Положительные качества, которые могут улучшить эмоционально-нравственное состояние людей всех возрастов.*

Ключевые слова: *Здоровый образ жизни, прогулки, спорт*

Abstract. *The article considers aspects of the influence of physical culture and sports on a healthy lifestyle of society, and in particular on the health of adolescents and young people. Positive qualities that can improve the emotional and moral state of people of all ages.*

Keywords: *Accompaniment of turmush style, jurish, sport*

Бугунги кунда ёшлар ўртасида жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш муҳим аҳамиятга эга. Замонавий дунёда соғлом турмуш тарзи ва ёшлар саломатлиги, шунингдек, ёш авлоднинг жисмоний фаоллиги муаммолари долзарбдир. Жисмоний маданият ва спорт ёш организмнинг шаклланиши билан узвий боғлиқ. Биргаликда улар оптимал саломатлигига эришиш учун ўзаро. Саломатлик, ўз навбатида-ҳар бир инсоннинг асосий хусусияти бўлиб, чидамлилик, меҳнат қилиш қобилияти, бошқа жисмоний фаол кишилар билан тенглик кўрсаткичидир. Саломатлик инсондан доимий эътибор ва мустаҳкамлашни талаб этади. Жисмоний фаоллик ва спорт эса уни такомиллаштириш жараёнида асосий омиллардан бири ҳисобланади.

Замонавий жамиятда, нано-технологиялар асрида ўсмирлар ва ёшлар ўтирган ҳолатда вақт жуда катта миқдорда сарфлашади ва натижада тез-тез асаб бузишлар ва беқарор руҳият га олиб келади. Келажакда ёш организмда сурункали касалликларнинг ривожланиши ва умуман саломатликнинг ёмонлашувига сабаб бўлади. Аммо жисмоний фаолият ва спорт ҳаракатсиз турмуш тарзининг салбий оқибатлари ривожланишига тўсқинлик қилиши мумкин. Таълим муассасаларида ўқиш жараёнида ўқувчилар танлаган мутахассислигидан қатъий назар жисмоний тарбия ва спорт машғулотларига қатнайдилар. Бу машғулотлар ёш авлод учун соғлом турмуш тарзи асосларини шакллантиришга, муайян талаб ва қоидаларни ўрганишга ёрдам беради. Соғлом турмуш тарзи инсон фаолиятининг турли қирраларини ўз ичига олади. Ёш организмнинг жисмоний сифатларининг такомиллашуви таълим муассасаларидаги машғулотлар давомида содир бўлади. Яъни, чидамлиликни, иродани ривожлантириш жараёни, жисмоний енгиллик кўриниши мавжуд. Психологик хусусиятлар ва маънавий асосларнинг шаклланиши ҳам соғлом турмуш тарзини олиб боришнинг натижасидир.

Олий ўқув юртларидаги машғулотларда талабалар назарий ва амалий билимлардан амалиётда фойдаланадилар, жисмоний тарбия дарсларида эса ёшлар билим ва кўникмаларни биргаликда қўллайдилар. Жисмоний фаолият жараёнида талабаларнинг ҳар бири учун кўпроқ ёки камроқ даражада етакчилик қобилиятлари ривожланади. Талабалар ўйин вақтида лидерлик сифатларини қўллашлари мумкин. Бу мақсадга эришиш, яъни адолатли ўйинда рақиби устидан ғалаба қозониш

учун талаба ўйлай бошлайди, яъни ўз жамоаси ва рақиб жамоасининг ижобий ва салбий томонларини таққослай бошлайди. Очко жамғариб ғалабага эришиш учун ҳаракатларнинг муайян тактикаси ишлаб чиқилади. Ушбу ҳаракат курси жамоа билан муҳокама қилинади ва майдончада амалга оширилади. Албатта, танланган ҳаракатлар тактикасини ишлаб чиқишнинг икки йўли мавжуд бўлиб, бу жараёнда жамоа ғалаба қозонади ёки мағлуб бўлади. Ҳар бир инсон бир хил вазиятни ўйлайди ва кўради, шунинг учун жамият инсоннинг муайян ғояларини қўллаб-қувватлаши ёки уларни қўллаб-қувватламаслиги мумкин, аммо агар шахс гуруҳдаги кичик талабалар орасида ҳокимиятга эга бўлса, натижада бу шахс етакчилик фазилатларига эга бўлади: одамларни бошқариш, муаммоларни ҳал қилиш ёки кутилмаганда пайдо бўлган, шахсий фикрга эга ва жамиятда муҳим рол ўйнайди. Соғлом турмуш тарзининг таркибий қисмларидан бири-соғломлаштирувчи даволаш жисмоний маданиятидир. Бу мускуллар мустаҳкамлаш учун турли машқлар, шунингдек, танланган юриш йўналишларини ўз ичига олиши мумкин. Терапевтик жисмоний маданият (жисмоний даволаш)-инсон саломатлиги ва мушак оҳангини мустаҳкамлайдиган соғломлаштирувчи машқлар мажмуаси, шунингдек, жисмоний терапия соғлом турмуш тарзи бўлган одамлар учун ва соғлиқ муаммолари бўлган одамлар учун қўшимча жиҳатдир. Юриш камида икки-уч соат давомида доимий ҳаракатда тоза ҳавода бир кишини топиш ўз ичига олади. Турли ёш гуруҳлари учун турли йўналишлар ва юриш турлари мавжуд. Бугунги кунда Скандинавча юриш машҳурлик қозонмоқда, лекин майдони атрофида ҳатто энг оддий юриш тананинг саломатлигига ижобий таъсир кўрсатиши мумкин. 1 соат юрганда тана оғирлигига қараб 300-400 килокалория энергия сарфланади. Соатига 6 км юриш тезлигида ўртача одам учун умумий энергия сарфи 300 килокалория бўлади. Кундалик дам олиш юриш дарслари билан, бир ҳафта давомида умумий энергия истеъмоли тахминан 2000 килокалория бўлади, бу ҳаётда ҳаракатнинг етишмаслиги учун зарур бўлган минимал таълим таъсирини таъминлайди ва тананинг барча мушаклари ва тўқималари ишида иштирок этади.

Агар барча қоида ва қоидаларга риоя қилинса, соғлом турмуш тарзи инсоннинг танасида ижобий динамикани кўришга ёрдам беради. Тананинг барча мушак гуруҳлари юриш жараёнида иштирок етади ва узоқ муддатли ҳаракат (бир соатдан ортиқ) жисмоний хусусиятларни яхшилашга имкон беради: чидамлилик, ишлаш қобилияти, Ирода, фикрлаш ва маънавий уйғунлик. Бундан ташқари, ташқи кўриниш ўзининг собиқ тасаввурларига ега бўлади. Соғлом турмуш юриш пайтида танангизни назорат қилиш, яъни орқангизни тўғри тутиш, қўл ва оёқларингизни назорат қилиш, ошқозонингизни тортиб олиш ва бошингизни ерга тик тутиш керак. Инсон бажарган ишнинг бутун жараёни ана шу хусусиятларга боғлиқ. Яқинларингиз даврасида кучли суръатларда юриш тавсия этилади. Сиз мақсадга эришиш ҳақида ўйлаш ва самарали барча ҳаракатларни амалга ошириш керак. Юриш олдин танани қиздириш ҳақида унутманг. Узоқ муддатли дам олиш юриш машғулотлари учун ижобий хусусиятларга эга бўлади:

- марказий асаб тизими фаолиятини яхшилаш
- юрак-қон томир тизими фаолиятини яхшилаш
- тананинг мушакларини мустаҳкамлаш
- юрак мушагини мустаҳкамлаш ва қон айланишини яхшилаш
- руҳий ҳолатни яхшилаш
- танадаги ёғ миқдорини камайтириш

Агар барча қоидаларга риоя қилинса, соғлом турмуш тарзи инсоннинг танасида ижобий динамикани кўришга ёрдам беради. Тананинг барча мушак гуруҳлари юриш жараёнида иштирок этади ва узоқ муддатли ҳаракат (бир соатдан ортиқ) жисмоний хусусиятларни яхшилашга имкон беради. Бундан ташқари, ташқи кўриниш ўзининг собиқ тасаввурларига эга бўлади. Соғлом турмуш юриш пайтида танангизни назорат қилиш, яъни белингизни тўғри тутиш, қўл ва оёқларингизни назорат қилиш, қорнини тортиб олиш ва бошни ерга тик тутиш керак. Инсон бажарган ишнинг бутун жараёни ана шу хусусиятларга боғлиқ.

Хулоса қилиб айтганда, юқорида айтилганларни умумлаштириб, жисмоний маданият шунчаки сўз эмас, балки, дарҳақиқат, чидамлиликни ривожлантиришнинг мотивацион омили ва ҳар бир ўқувчининг шахсий сифатларини шакллантиришга таъсир этувчи катта психологик жиҳатдир. Албатта, жисмоний фаолиятнинг аҳамияти ҳозирги замонда жуда муҳимдир. Муайян юклар нафақат тана шаклини керакли шаклга келтиришга ёрдам беради, балки кўп йиллар давомида кучли иммунитетни таъминлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳарори "Оммавий спорт тарғиботини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида". 2003 йил 4 ноябр.

2. Усмонхўжаев Т.С. ва бошқ. Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари. Ўқув қўлланма. Т.: Ўқитувчи. 2005.

3. Т.Усмонхўжаев. "1001 харакатли ўйин". Тошкент, УзГосИФК.2009 й.

4. Т.Усмонхўжаев, Ж.Юсупов, Ж.Акрамов. "Жисмоний тарбия". Тошкент, "Ўқитувчи" нашриёти. 2008 й.
5. Винулов А.Д. Плавание. М. 2003.
6. Ибрагимов У., Рафиев Ҳ.Т. Спорт ва назария. Т.: 2008.
7.Кошбахтиев И.А. Основ физического совершенствования студентов. Учебник для преподавателей и студентов вузов. Т.: 1991.
8. Кошбахтиев И.А. Основы оздоровительной физкультуры студенческой молодежи. Т.: 1994.Латипов Р.И. ва бошқ.

UDK 37.02

ХАВФСИЗЛИК СОҲАСИДА "ҲАЁТ ХАВФСИЗЛИГИ АСОСЛАРИ" ҚОИДАЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

Г.С. Муратова, ўқитувчи, Бухоро давлат университети, Бухоро
Н.Р. Очилова, ўқитувчи, Бухоро давлат университети, Бухоро

Аннотация. *Республикамизда ҳозирги кунда аҳолини турли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш уларни юқори даражаларга кўтариш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Мақолада Олий таълим муассасаларида "Ҳаёт хавфсизлиги асослари" фанини ўқитиш нақадар долзарблигини кўришимиз мумкин.*

Калит сўзлар: *ҳаёт, хавфсизлик, фавқулодда вазият, бахтсиз ҳодиса, фалокат, табиий офат.*

Аннотация. *Сегодня в нашей стране одним из приоритетов государственной политики является защита населения от различных чрезвычайных ситуаций и поднятие их на более высокий уровень. В статье мы видим актуальность преподавания предмета «Основы безопасности жизнедеятельности» в высшей школе.*

Ключевые слова: *жизнь, безопасность, чрезвычайная ситуация, авария, катастрофа, стихийное бедствие.*

Abstract*. Today in our country, one of the priorities of state policy is to protect the population from various emergencies and raise them to a higher level. In the article, we see the relevance of teaching the subject "Fundamentals of Life Safety" in higher education.*

Keywords: *life, security, emergency, accident, disaster, natural disaster.*

Юртимизда айни вақтда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар жараёнини, яъни кучли фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий демократик давлат қуришдек эзгу мақсадимизни аҳолининг асосий қисмини ташкил этувчи ёшлар иштирокисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Ёшларга таълим бериш масаласи мамлакатимизда олиб борилаётган давлат сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир. Ҳаёт хавфсизлиги инсоният ҳаётини, табиий бойликларни, атроф муҳитни муҳофаза қилиш муаммоси мамлакатимизда алоҳида эътиборга лойиқ ва долзарб муаммо ҳисобланади. Республикамизда XX асрнинг 60-йилларидан фуқаро мудофааси тизими фаолият кўрсатиб келган. Унинг асосий вазифаси тинчлик даврида ва уруш шароитида мамлакат аҳолисини ялпи қирғин қуроллари ва бошқа ҳужум воситаларидан ҳимоя қилиш, уруш шароитида объектларнинг барқарор ишлашини таъминлаш ҳамда ҳалокат ўчоқларида қутқариш ва тиклаш ишларини ўз вақтида самарали амалга оширишдан иборат эди. Лекин аҳоли ҳаётига фақатгина оммавий қирғин қуроллари эмас, балки бошқа хавф-хатарлар ҳам таҳдид солиб турар эди. Булар турли табиий офатлар, авария, ҳалокатлар эканлиги барчамизга аёндир. Бўлиб ўтган бир нечта табиий ва техноген офатлар (масалан; Чернобил атом электр станциясидаги авария, 25000 одамнинг ёстиғини қуритган Спитак зилзиласи ва бошқ.) фуқаро мудофаасининг ўрни ва вазифаларига бошқача кўз билан қараш керак эканлигини кўрсатиб берди. Фуқаро мудофааси қўшинлари бундай йирик кўламдаги офатларга қарши курашишга тайёр эмас эканлиги, фуқаро мудофааси вазифалари фақатгина ҳарбий давр чегарасида қолишлиги мумкин эмаслиги, улар олдига қўйилган вазифалар кўламини кенгайтириш эҳтиёжи юзага келди. Эндиликда фуқаро мудофааси учун авария, ҳалокат ва табиий офатларнинг оқибатларини тугатиш, авария-қутқарув ишларини олиб бориш билан бирга содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, бундай вазиятларни башоратлаш вазифаси етакчи рол ўйнаши лозим эди. 90-йилларга келиб ядро уруши хавфи камайди, биологик қуроллардан фойдаланиш чеклаб қўйилди, янги-янги замонавий қурол турлари кашф қилиндики, улар одамлар учун хавфли бўлмай, балки иқтисодиёт объектларини ишдан чиқаришга қаратилган эди. Буларнинг ҳаммаси фуқаро мудофааси тизими ўрнида янги бир тизим ташкил этилиши лозимлигини исботлаб берди. Тинчлик шароитида давлатларда содир бўлаётган авария, ҳалокатлар ва табиий офатлар оқибатида юзага келадиган зарарлар миқдори йилдан-йилга ошиб борди. Маълумотларга қараганда, авария ва фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни тугатиш билан боғлиқ тадбирларни ташкил этиш ва амалга ошириш яхши самара бермаган. Энг муҳими, тинчлик даврида фавқулодда вазиятларга (ФВ) жавоб беришга мўлжалланган махсус

тизимнинг йўқлиги эди. Мавжуд тизим, уруш давридаги фавқулодда вазиятларга йўналтирилган ва у бахтсиз ҳодисалар, фалокатлар ва табиий офатларнинг оқибатларини бартараф этишда фаол иштирок этган бўлсада, у ўзига хос хусусиятлар туфайли ушбу иш билан тўлиқ кураша олмади. Фуқаро мудофааси тизимининг самарасизлиги бир қатор муаммолар туфайли юзага келди, уларнинг энг асосийлари қуйидагилар:

- давлат миқёсида фавқулодда вазиятларни олдини олиш ва бартараф этишни бошқариш ва фаолиятини мувофиқлаштириш учун етарли ваколат ва тажрибага эга, доимий давлат органининг йўқлиги;

- фавқулодда вазиятларда шошилинч таъсир кучларининг йўқлиги; Фуқаро мудофаасининг қисқартирилган таркибдаги қисм ва бирлашмаларни жамлаш ва фавқулодда вазият зонасига юбориш узоқ вақт талаб қилиши;

- фавқулодда вазиятлар ҳудудига қутқарувчиларни тезкор етказиб беришни таъминлайдиган махсус мобил транспорт воситаларининг йўқлиги;

- Фуқаро мудофааси тизимида одамларни ҳар қандай вазиятда қутқариш учун махсус универсал тайёргарликка эга бўлган профессионал қутқарувчиларнинг йўқлиги;

- Фуқаро мудофаасининг 2 йиллик хизматга чақирилган қўшин аскарлари ва ҳарбийлаштирилмаган тузилмалар таркибида қутқарувчилар эмас турли соҳа мутахассислари бўлганлиги;

- Фуқаро мудофааси кучларининг қутқарув ва бошқа шошилинч ишларни бажариш учун замонавий техникасининг йўқлиги; эскирган, кам қувватли муҳандислик технологияларидан фойдаланилган, қидирув ускуналари ва қутқарув воситалари мавжуд бўлмаганлиги;

- Фавқулодда вазиятларнинг (ФВ) олдини олиш ва тугатиш соҳасидаги фаолиятни тартибга солувчи қонунчилик базасининг йўқлиги. 1987 йил июль ойида мамлакат раҳбарияти Фуқаро мудофаа тизимини тубдан қайта ташкил этишга оид ҳужжатни ишлаб чиқди. Ушбу ҳужжатда тизим эҳтимоли мавжуд авария, ҳалокатлар ва табиий офатларнинг оқибатларини бартараф этиш, қутқарув ва бошқа шошилинч ишларни бажаришга тайёр бўлиши кераклиги таъкидланди. Шундай қилиб, Фуқаро мудофаа тизимининг фавқулодда вазиятларнинг нафақат ҳарбий, балки тинчлик даврига ҳам мўлжалланиши биринчи марта расмий равишда эълон қилинди. Фуқаро мудофааси тизимини тубдан қайта ташкил этиш комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш орқали таъминланди. Ўзбекистон Республикаси аҳолини табиий ва техноген фавқулодда вазиятлардан ҳимоя қилиш учун муаммоларни ҳал қилишда ўз йўлини танлади. Шу билан бирга бугунги кундалик ҳаётимизда табиий ёки техноген хавфларнинг ҳажми ва хилма-хиллиги жуда кенгайиб кетди. Бу жараён мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини жадаллаштириш учун шарт-шароитлар яратиш билан қаторда аҳолининг муайян даражада саломатлиги ва ҳар томонлама ҳаёт фаолияти хавфсизлигини таъминлашнинг муҳимлигини кўрсатиб берди.

Бундай шароитда "Ҳаёт хавфсизлиги асослари" қоидаларини ўрганиш ва уни ўқитиш орқали соғлом ва тинч турмуш тарзи муаммосини маълум даражада ҳал қилишга, шахсни ҳар томонлама ривожлантиришга, ҳаёт фаолияти хавфсизлигини таъминлаш соҳасида инсонларнинг ижтимоий фаоллигини кучайтиришга илмий жиҳатдан оқилона бўлган турмуш тарзини шакллантириш бугунги куннинг долзарб муаммоларига айланди. Ҳозирги даврдаги юз бериши эҳтимоли бўлган фавқулодда вазиятлар таъсири, кўлами, оқибати, ўзининг мураккаб шароитларга олиб келиши билан фарқланади. Олиб борилган мониторинг ва таҳлилларга назар соладиган бўлсак дунёда охирги ўн йил давомида содир бўлган фавқулодда вазиятларнинг 70% бу – техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардир. XX асрнинг 90-йилларида турли вазиятлар билан боғлиқ равишда юз берган бахтсиз ҳодисаларнинг ортиб бориши, фавқулодда вазиятларнинг кўплаб юз бериши 1991 йилда "Ҳаёт хавфсизликда" шиори остида Бутун жаҳон конгрессининг ўтказилиши ва унда кўрилган масалалар ечимида алоҳида эътибор берилиши зарурати кўрсатиб ўтилди ва таъкидланди. Фавқулодда вазиятлардан жабрланганлар сонини камайтиришнинг асосий йўлларидан бири аҳолининг барча тоифаларини шу жумладан ўқувчиларни фавқулодда вазиятлар шароитида тўғри ҳаракатланишга ўргатишдан иборатдир. Бундай тайёргарлик доимий, мунтазам, узлуксиз тарзда оилада, маҳаллада, мактабгача таълим муассасалари ҳамда умумий ўрта таълим мактабларида ва олий таълим муассасаларида амалга оширилмоғи лозим.

Юқоридаги таҳлиллар натижасини кўрадиган бўлсак, республикамизда аҳолини фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш соҳасида ўқувчиларни "Ҳаёт хавфсизлиги асослари" қоидаларини ўқитиш нақадар долзарблигини кўришимиз мумкин. Мактаб таълим тизимида ўқувчиларни хавфсизлигини таъминлаш борасидаги мустақил фикрлаш кўникмаси билан билимларини эгаллашга эришишида "Ҳаёт хавфсизлиги асослари" қоидаларининг роли каттадир. Чунки ўқувчилар мустақил фикрлаш орқали якка сурат ҳамда мустақил изланишга ўрганадилар. Ҳар бир

мактаб ўқувчиси ҳар қандай шароитда хавфсизлигини таъминлаш борасида билимларга эга бўлиши, зарурий ҳолларда хавфсизлик чоралари бўйича тўғри ҳаракатларни амалга ошира олиши лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Шарафутдинова Р.И., Муратова Г.С., Турсунбаева М.Т. Экологик таълим ва тарбия тушунчаларини шакллантириш тамойиллари - «Биология и интегративная медицина» 2020, 1 (41), 98-105

2. Шарафутдинова Р.И., Муратова Г.С., Турсунбаева М.Т. Талабаларда экологик тафаккур ва тарбия тушунчаларини шакллантириш -«Тиббиётда янги кун» 2020, 1 (29), 105-107

3. Шарафутдинова Р.И., Муратова Г.С., Жумаева Г.А., Мустафаева Ш.А. Спорт тиббиёти фанидан амалий машғулотлар ўтказишда ҳамкорлик таълими усулларидан фойдаланиш - «Современное состояние, проблемы и перспективы медицинского образования» международная учебно-научно-практическая конференция Бухара 2018.

4. Основы психологии общения медицинской сестры ГС Муратова Young scientists' and mentors' non-standart congress, 177-180.2017

УЎК 378.14

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАСИ ПЕДАГОГИКАСИДА ИЖОДИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ МОҲИЯТИ

З.Ҳ. Рашидова, ўқитувчи, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, Тошкент

Аннотация. *Мақолада маданият ва санъат соҳаси педагогикасида ижод, ижодкорлик ва ижодий ишлаб чиқаришнинг аҳамияти ва мазкур жараёнларни ташкил этишни, бошқаришни талабаларга ўргатиш ҳақида фикр-мулаҳозалар билдирилган. Ижодий таълим муассасалардаги педагогларнинг маҳоратини юксалтириш юзасидан таклиф ва тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *маданий-маърифий, маданият, ижод, таълим, педагог, талаба, маҳорат, кўникма, усул, қоблият, ривожланиш.*

Аннотация. *В статье рассматривается значение творчества, творчества и творческого производства в педагогике культуры и искусства, а также обучение студентов организации и управлению этими процессами. Внесены предложения и рекомендации по повышению квалификации педагогов творческих образовательных учреждений.*

Ключевые слова*: культурно-просветительская, культура, творчество, воспитание, воспитатель, ученик, умение, умение, метод, умение, развитие.*

Abstract. *The article discusses the importance of creativity, creativity and creative production in the pedagogy of culture and art, and teaching students to organize and manage these processes. Suggestions and recommendations were made to improve the skills of teachers in creative educational institutions.*

Keywords: *cultural-enlightenment, culture, creativity, education, educator, student, skill, ability, method, ability, development.*

Маданият ва санъат соҳаси педагогикаси ўзининг ижодий хусусиятлари билан бошқа таълим йўналишларидан тубдан фарқ қилади. Чунки, бу жараёнда инсон омили ва лаёқати биринчи ўринда туради. Соҳада педагоглар томонидан талабаларга ижодий ишлар ва ижодий ишлаб чиқариш жавҳаларининг мазмун ва моҳияти назарий ва амалий жиҳатдан ўргатилади. Бунда педагоглардан алоҳида касбий маҳорат ва кўникма талаб қилинади. Айниқса, ҳозирги кунда маданият ва санъат соҳасида янгича йўналишлар кашф этилиб, педагоглар зиммасига янгича тизимли ишлаш вазифаси юкланмоқда.

Президентимиз Ш.Мирзиёев: Бугунги шиддатли замон олдимизга қандай мураккаб вазифаларни қўяётганини барчамиз кўриб, билиб турибмиз. Уларни ҳал этиш ва эзгу мақсадларимизга етиш, дунё миқёсида рақобатбардош бўлиш учун халқимизни, аввалambор, ёшларимизни илм-фан, маърифат ва маънавият, тараққиёт ютуқлари билан қуроллантиришимиз керак. Бугунги кунда олий таълим тизимини янги сифат босқичига кўтариш, соҳадаги мавжуд муаммоларни бартараф этиш, олийгоҳларимизни таълим ва илм-фаннинг йирик марказларига айлантириш бўйича бошлаган катта ишларимизни жадал давом эттиришимиз лозим[1:1] – деган эди.

Албатта, маданият ва санъат соҳасига кадрлар тайёрловчи Олий таълим муассасаларида талабаларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, иқтидорли ёшларни юзага чиқариш орқали таълим муассасаининг рейтингини ошириш кун тартибидаги долзар масалалар сирасига киради. Ўқитувчиларнинг касбий маҳорати ўз навбатида талабанинг иқтидор ва билимини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Мазкур соханинг таълим тизимида ўқитувчининг касбий хусусиятлари ривожланган бўлиши зарур. У фазилати юксак ва серқирра ижод билан шугулланадиган ёки уни тушунадиган мутахассис педагог бўлиши жоиздир. Ўқитувчининг касбий хусусиятларига: ўз

касбини, болаларни севиши, зийраклиги, ҳозиржавоблиги, вазминлиги, педагогик назокати, тасаввури, қобилияти, ташкилотчилиги, нотиқлик маданияти, чукур ва кенг илмий савияси, касбий лаёқатлилиги, маънавий эҳтиёжи ва қизиқиши, интеллекти, янгиликни англай ва қўллай олиши, касбий маълумотни мунтазам оширишга нисбатан интилиши ва бошқа фазилатлари киради. Ўқитувчининг касбий педагогик тайёргарлиги шартли равишда куйидаги йўналишларда олиб борилади:

1) ўқитувчининг шахсий фазилатлар бўйича тайёргарлиги;
2) ўқитувчининг руҳий – психологик тайёргарлиги;
3) ўқитувчининг ижтимоий – педагогик ва илмий – назарий жиҳатдан тайёргарлиги;
4) ўқитувчининг махсус ва ихтисосликка оид услубий билимларни эгаллаб бориши;

Педагогик маҳорат ўқитувчи – тарбиячи шахсий ва касбий сифатларининг йиғиндиси бўлиб, ўқитувчи маҳоратини шакллантиришни таъминловчи омилларни, педагогик-психологик, методик билимларни доимий эгаллаб бориши лозим[2:14]. Маданият ва санъат соҳасининг асосий фаолияти ижодий фаолият ҳисобланади. Ижодий фаолиятни режалаштириш, ташкил этиш ва бошқаришни тўғри йўлга қўйиш ҳамда амалиётда ижрони таъминлашга эришиш учун масъул бўлган ходимдан, мутахассис ёки бошқарувчи раҳбардан талаб этиладиган ўзига хос хусусиятлар бўлиши керак. Буни талабага педагог ўқув жараёнида тушинтириб бориши шарт. Бу хусусиятлар мавжуд бўлгандагина ижодий фаолиятда самарадорликка, ижобий натижаларга, қолаверса, мувофаққиятга эришиш мумкин.

Тилимизда лаёқат, қобилият, истеъдод, иқтидор, салоҳият каби инсон тафаккур даражаларини белгиловчи тушунчалар мавжуд. Шахснинг муайян фаолияти юзасидан лаёқати ва унинг ишни мувофаққиятли бажаришидаги ўзига хос имкониятларини ифодаловчи индивидуал руҳий хусусиятларга қобилият дейилади. Ҳар бир кишида муайян соҳа бўйича бирор хусусият бошқаларга қараганда нисбатан кучлироқ ривожланган бўлиши мумкин. Ана шу унинг қобилиятидир. Қобилиятдаги хусусиятлар туғма бўлади, шу қобилият эгаси билим олиши, малака хосил қилиши орқали уни такомиллаштира бориши ёки аксинча тамбаллик қилиб, бора-бора сўндириб юбориши ҳам мумкин. Ана ўша қоблиятни соҳа педагоги илғай олиши ва вақтида ривожлантириши керак. Акс ҳолда бор иқтидор зое кетади. Қоблият педагог томонидан ўз вақтида сайқалланиб иқтидорга айланади.

Ҳусусан, инсоннинг ўз хатти-ҳаракатларига нисбатан субъектив муносабатига иқтидор дейилади. Иқтидорли инсонлар ишда мардлик, чидамлилик, ўзини-ўзи бошқара олиш, ташаббускорлик каби ҳислат ва фазилатларга эга бўлишади. Ўз хатти-ҳаракатларига ҳамиша танқидий кўз билан қарайдилар, доимо олға интиладилар, ҳеч қачон эришган ютиқлари билан чекланиб қолмайдилар. Ҳар томонлама ривожланган, ниҳоятда кучли ва такрорланмас қобилиятга истеъдод дейилади. Қобилиятни тинимсиз меҳнат туфайли тарбиялаш, такомиллаштириш мумкин. Истеъдодни эса тарбия билан вужудга келтириб бўлмайди. Қобилиятли рассом бир неча кунда ишлаган асарни истеъдодли рассом қисқа вақт ичида яратиши мумкин. Халқимизда бир оққан дарё яна оқади, деган нақл бор. Истеъдод туғма, ирсий неъмат ҳисобланади. Истеъдод эгалари камёб бўлишади, алоҳида-алоҳида олганда танҳо, такрорланмас дейиш мумкин. Демак, истеъдод эгаси ноёб ҳодиса экан, уларни авайлаш ва қадрлаш зарур[3:53].

Маданий-маърифий фаолият педагогик фаолиятнинг бошқа турларидан ўзининг мазмунан мураккаблиги, кўп қирралилиги, шаклан ҳилма-ҳиллиги, иш шаклларининг ўзига хос тарзда бир-бирига чатишиб кетганлиги билан фарқ қилади. Маданий-маърифий соха ходими фаолияти тарбиявий фаолият ҳам ҳисобланади, лекин у тарбиявий ишларни мактаб ва ўқув юртлари педагогик жамоаларида бўлганидек бир ҳил ёшдаги, бир ҳил тайёргарликка эга бўлган ўқувчилар ёки талабалар билан эмас, балки ёши, касби, билим даражаси, қизиқиш ва эҳтиёжлари турлича бўлган кишилар орасида олиб боради.

Ўқув юртларида тарбия жараёни мажбурий машғулотлар орқали амалга оширилса, маданий-маърифий соха ҳодимлари кишиларнинг бўш вақтини мазмунли уюштириш, маънавий эхтиёжларини қондириш, қобилият ва истеъдодларини ривожлантириш мақсадида маданий-маърифий муассасаларда ташкил этиладиган ҳилма-ҳил оммавий тадбирлар ўтказиш йўли билан ҳал қиладилар.

Бу дегани, маданият ва санъат соҳаси педагоги талабага аҳоли маънавий оламини юксалтирувчи, эзгуликка даъват етувчи мутахассисларни тарбияловчи масъулият эгасидир. Маданий-маърифий ишларни амалга ошириш жараёнида ўқитувчидан талабага ижодий фаолият ва ижодий ишлаб чиқариш, ташкилотчилик ва бошқариш унсурларини ўргатиш талаб этилади.

Сабаби, маданий-маърифий соха ходими фаолиятининг яна бир хусусияти маданий-маърифий тадбирларда кишиларнинг ақл-идроки билан бирга уларнинг ҳиссиётига ҳам таъсир кўрсатиш лозим. Яъни, педагогик-психологик маҳорати бўлган, педагоггина бу ишни амалга ошира олади.

Маданият ва санъат жуда кенг қамровли соҳа сифатида бир-бирини такрорламайдиган, бир-бирига ўхшамайдиган, мустақил ижодни талаб этадиган тизимларни бирлаштиради. Яъни, педагог томонидан бирлаштирилади. Бу осон эмас, буни фақат моҳир педагог тўғри тизимга келтира олади. Маданий-маърифий ташкилотлар фаолиятининг асосий йўналишлари қўйидагилар:

Биринчидан, халқ ижодиётини, халқ бадиий ҳунармандчилиги ва амалий санъатини, шунингдек маданий мерос объектларини сақлаш ва тарғиб қилиш, Ўзбекистон Республикасида ўтказиладиган байрамларни, концертларни, ашула ва рақс байрамларини, тақдимотларни, фестивалларни, танловларни, халқ амалий ва тасвирий санъати кўргазмаларини ташкил этишдан иборат. Иккинчидан, илмий-амалий, ахборот-услубий ишларни яратиш, маданий-кўнгилочар фаолиятнинг ва халқ ижодиётининг илғор тажрибасини ўрганиш, умумлаштириш, оммалаштириш, татбиқ этиш ва тарқатиш шу билан бирга энг яхши халқ ижодиёти жамоаларини вилоятлар, ҳудудлар, республика байрамларида, халқаро байрамларда, танловларда, фестивалларда иштирок этиш учун жалб қилиш.

Учинчидан, маданият ташкилотларининг ассоциацияларини (уюшмаларини), шунингдек маданиятни сақлаш ва ривожлантиришга қаратилган инновацион лойиҳаларни, маданий тадбирлар ҳамда ташаббусларни қўллаб-қувватлаши ва ривожлантириши керак.

Шу учта кўрсатилган вазифаларни амалга ошириш педагогнинг қўлидан келиши ва амалга ошириши шарт. Педагоглар соҳанинг асосий жараёни ижодий ишлаб чиқаришнинг моҳиятини илмий жиҳатдан таҳлил қила олиши керак.

Ижодий ишлаб чиқариш – бу инсон билими, қобилияти, истеъдоди, тасаввури ҳамда тажрибасига таянган ҳолда яратилган, жамиятнинг яшаши ва тараққий этиши учун зарур бўлган бойликларни яратиш жараёнидир. У турли хил кўринишда бўлиши мумкин. Масалан, жамият томонидан тан олинган янги бир ғоя, сценарий, асар, спектакльь, кино ёки телекўрсатув, радио эшиттириш, қўшиқ, турли хил шоулар ва ҳоказо. Ушбу тушунча ҳам замонавий жамиятларда маданий бойликлар мавжудлиги хусусиятини ҳамда маданий ижод хусусиятларини акс эттиради.

"Ижодий ишлаб чиқариш" атамасининг маданий бойликларни яратишга нисбатан қўлланилиши ижод тушунчасини қайта идрок этишни билдиради. Ижодий ишлаб чиқариш моддий ишлаб чиқариш билан узвий боғлиқдир. Яъни моддий ишлаб чиқариш маҳсули ижодий ишлаб чиқаришга хизмат қилиши мумкин. Мисол учун биз бирор бир қўшиқ яратишда моддий ишлаб чиқаришнинг маҳсули бўлган воситаларга мурожат қиламиз (чолғу асбоблари, овоз кучайтиргич, овоз ёзувчи ускуна ва ҳ.к.). Бунда ўз-ўзидан маданият маҳсулоти пайдо бўлади. Соҳадаги ижодий ишлаб чиқаришнинг ўзига хос хусусияти ўшандагина намоён бўлади. Маданият ва санъат соҳаси педагогикасининг моҳияти ва ижод манбаси маданият маҳсулоти бўлади. Ана ўша ижод маҳсулини педагог талабаларга тўшинтириши ва ўргатиши зарур. "Маданият маҳсулоти" (ғоя, қўшиқ, асар, китоб, сценарий, компьютер ўйини, сурат ва ҳоказо) маълум бир босқичлардан ўтгач товарга, истеъмол объектига айланади. "Маданият маҳсулоти" ишлаб чиқарилиши, айнан моддий неъматлар ишлаб чиқарилиши каби бозорга қаратилган. Ижодий фаолият иқтисодий муносабатларнинг унсурига айланади ва ушбу муносабатларнинг мантиғини қабул қилади[4:18].

Маълумки, жамият ишлаб чиқаришсиз бўлиши мумкин эмас, зотан ишлаб чиқариш кишиларнинг эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилган. Ишлаб чиқариш фаолияти икки кўриниш моддий ва маънавий ишлаб чиқаришда намоён бўлади. Маданият ва санъат олийгоҳларининг мутахассислик кафедраларида яратилаётган ҳар бир янги ижодий ишни назарий ва методик жиҳатдан ўрганиб бориш керак. Чунки санъат инсон тафаккури ва маданияти белгиси ҳисобланиб, инсонда нафосат ҳис-туйғусининг етук бўлишига олиб борадиган соха. Бунда санъатнинг театр, кино, телевидение, мусиқа, ракс, хонандалик каби турлари ана шу нафосатни инсонларга сингдиришга хизмат қилади. Шунинг учун ҳам санъат, маданият соҳаларига мутахассис тайёрлаб берувчи кафедралар амалга оширилаётган ҳар бир ижодий ишни чуқур таҳлил қилиши, унинг назарий жиҳатларига алоҳида эътибор беришлари керак. Чунки санъаткор мутахассис талабалар билан ишлашда ҳар куни инновация – янгилик яратади. Бу – табиий жараён[5:7].

Соҳада кадрлар тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш жараёнини янада такомиллаштириш, бунда замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан, илғор халқаро тажрибалардан фойдаланиш, маданий-маърифий муассасалар ва ўқув юртларини юқори малакали кадрлар билан таъминлашда сўнги 4-5 йил ичида Янги Ўзбекистонда катта амалиш ишлар амалга оширилди. Маданият ва санъат соҳасини бошқариш жараёнида масъул педагогларнинг хориж

тажрибасини ўрганиши ва унда иштирок этиши учун кенг имкониятлар яратилди. Шундай экан, талабалар билиши муҳим бўлган, давлатимиз раҳбари томонидан олиб борилаётган туб ислоҳотларнинг мазмун-моҳияти, уларнинг натижалари, ютуқлари ва келгусидаги режаларнинг истиқболи ҳақидаги тасаввурлар ва хулосаларни, театрлар, маданият марказлари, маданият ва истироҳат боғлари, бадиий-ижодий жамоалар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришни, халқаро фестиваллар ва маданий анжуманлар, маданий тадбирларни ташкил этишнинг асосий тамойиллари, ўзига хос хусусиятларига доир илмий, назарий, амалий ишларни билишида педагогнинг сиёсий ва касбий маҳорати ниҳоятда катта аҳамият касб этади.

Маданият ва санъат соҳаси педагогикасида ижодий ишлаб чиқаришнинг моҳияти талабаларни ижодий изланишга ундаш ҳисобланади. Ижодий изланиш – педагог бошчилигида қўйилган муаммолар, масалаларни ечиш йўлларини фаол излашни ташкил этишга хизмат қиладиган усулдир.

Буни амалга ошириш учун эса, педагогдан ижодий изланиш методини билиш талаб этилади. Ижодий изланиш методи – педагог бошчилигида қўйилган муаммо ва масалаларни ечиш йўлларини фаол излашни ташкил этишга хизмат қиладиган методлардир. Ижодий ўзлаштириш даражаси – ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини турли ҳолатларда тадбиқ эта олиш, масала ечишнинг турли йўлларини излаш имконини берадиган ўқув материалларини ўзлаштириш даражаси. Маданият ва санъат соҳаси педагогикасида ижодий ишлаб чиқаришнинг моҳияти замирида ижодий изланиш, ўзлаштириш орқали таълим жараёнида ижодкорни тарбиялаш вазифаси туради. Яъни ижодкор ва ижодкорлик алоҳида аҳамият касб этади.

Ижодкор – мустақил яратувчилик хусусиятига эга бўлган ўқувчи ёки талаба. Ижодкорлик – янги моддий ва маънавий қадриятларни яратиш билан натижаланадиган фаолият тури. Ижоднинг ривожлантирувчи функцияси – таълим-тарбия жараёнини ўзаро узвий боғлаб олиб бориш учун хизмат қилиб, шахснинг интелектуал, сезгирлик ва ўз хоҳиши билан интилиш каби жиҳатларига эришганлик даражаларини ўз ичига оладиган ҳодиса[6:25].

Буларнинг натижасида маданият ва санъат соҳаси педагогиги ижодий ишлаб чиқаришда талабаларни ижодий фаоллика йўналтиради. Ижодий фаоллик шахснинг барқарор “ҳаракат мақсади, ҳаракат усуллари, ҳаракат шартлари” компонентларига эга. Ижодий фаолият жараёнида ўзаро алоқалар, ҳаракатлар, мақсадлар, воситалар шартлар каби хусусиятлар амалга ошади.

Билимлар сифати, унинг пухталиги ва тафаккурнинг ижодий компонентлари бевосита ўқитиш характери билан боғлиқ. Шунинг учун ҳам шахс, ўқувчи ва талабанинг ижодий ривожланиши ўқитувчининг анъанавий методларини қайта кўриб чиқишни талаб килади. Таълим муассасаларида таълим жараёни шахс тафаккурининг тузилишини белгилайдиган методологик асос ҳисобланади. Уни изчиллик доирасида узлуксиз таълим тизимида амалга оширади. Бунда ўқув фаолиятидан фойдаланиш, асосий маълумотларни эгаллаш, малакаларни шакллантириш кабиларни ўзига мақсад қилиб қўяди. Ҳар қандай ижодий фаолият билимларини ривожлантиришда бевосита тажрибага таяниш зарур. Шу жиҳатдан ижодий фаолият ўқитиш жараёни билан узвий муносабатда бўлади. Бунинг натижасида ўқишга тайёргарлик, ижодий содир бўлади, билиш турлари ривожланади. Ижодий фаолият жараёнида билимларни ўзлаштиришда ўқув материалларини умумлашган ҳолда қайта ишлаш йўли билан эслаб қолиш ва ёдлашдан иборат бўлади. Бунга мувофиқ ўқитувчини ижодий фаолиятга тайёрлашда учта вазифаси ажратилади.

1. Ўқитишнинг назарий асосларини ўзлаштиришни таъминлаш;
2. Назарий билимларни амалиётга қўллаш қобилиятига тайёрлаш;
3. Ижодий педагогик фаолиятни шакллантириш.

Педагогик адабиётларда репродуктив ва продуктив (ижодий фаолиятлар ҳамда қарама-қарши ва ўзаро бир-бирини тўлдирувчи томонлар мавжуд[7:284].

Тарбиянинг асрлар давомида сақланганлиги ва авлоддан-авлодга ўтганлиги туфайли бугунги ёшлар маданий, маънавий кадриятлар хақида катта тасаввурга эга. Хаёт ўзининг турли-туманлиги билан болани тарбиялайди. Ҳаёт – бу моддий шароит, жамиятнинг ижтимоий тузими, санъат, маданият, шунингдек, ўқув масканлари – мактаб, диний ўқув юртларидир. Маълумки, жамият турли даврда шу замондаги моддий ва маънавий ҳаётга мувофиқ тарзда ривожланиб боради. Аммо, инсоният авлоддан-авлодга ўтиб келаётган халк санъатини, урф-одатларини, анъаналарини, бу – бебаҳо, такрорланмас бойликни авайлаб асради. Тарбия ва ўз-ўзини тарбиялаш инсоният цивилизациясининг ривожида бирдан-бир шарти булди[8:3].

Таълим ва тарбия бериш эса, педагогдан юксак маҳорат талаб қиалди. Юксак педагогик маҳоратни шакллантиришни таъминловчи омиллар қуйидагилар:

а) ихтисослик бўйича ўқув предметини, замон, илм-фан, техника тараққиёти даражасида мукаммал билиши, унинг бошқа ўқув фанлари билан ўзаро алоқадорлигини таъминлаш малакасига эга бўлиши;

б) таълим олувчиларнинг ёш, физиологик, психологик ҳамда шахсий хусусиятларини ҳисобга олиши, уларнинг фаолиятини объектив назорат қилиши ва баҳолаши;

в) таълим жараёнини демократлаштириш ва инсонпарварлаштириш асосида ўз фаолиятини ташкил этиши;

г) ўқув – тарбиявий жараённи замон талаблари даражасида ташкил қилиш учун асосий педагогик – психологик, методик маълумотга эга бўлиши;

д) фанларни ўқитиш жараёнида замонавий ахборот технологиялари имкониятларидан кенг фойдаланиш;

е) жамоани "кўра билиш", ўқувчиларнинг қизиқишлари, интилишлари, улар учрайдиган қийинчиликларни тушуниш ва ҳамдард бўла олиш, ўз вақтида улар фикрини англай билиш, зукколик билан ҳар бир боланинг характер хусусияти, қобилияти, иродасини тушуниш ҳамда уларга муваффақиятли таъсир кўрсатишнинг шакл, усул, воситаларидан хабардор бўлиши;

ж) ўз шахсий сифатлари (нутқининг равонлиги, ташкилотчилик қобилияти, бадиий эҳтиёжи, диди ва ҳоказо)ни такомиллаштириш малакасига эга бўлиши.

Ўқитувчининг педагогик маҳорати педагогика олий таълим муассасаларида шаклланиб боради. Юксак савияли педагогик кадрлар тайёрлашга нисбатан талаблар, уларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, ўз касби билан узлуксиз тараққиётга мослаша оладиган ўқитувчининг шаклланиши, бўлажак ўқитувчи умуммиллий мавқеининг ўсиб боришини таъминлайди[9:15].

Маданият ва санъат соҳаси педагогикасида ижодий ишлаб чиқаришни талабаларга янада теранг ўргатиш учун ижодий ишлаб чиқариш муассасалари ва санъатшунослик илмий-тадқиқот марказлари билан ОТМ ўртасида манфаатли ҳамкорликни йўлга қўйиш керак. Профессор-ўқитувчилар, санъат арбоблари ва халқ артистлари, хорижий маданият соҳаси дипломат корпус вакиллари ва талабаларнинг ўзаро ижодий ишлашиши учун зарур шарт-шароит яратиб бериш керак. Ижодий ОТМда илғор хорижий тажрибаларни таҳлил қилиш орқали олий таълим сифатини ошириш, ўқув дастурларини такомиллаштириш ва замонавий педагогик технологияларни жорий этиш лозим. Талабаларнинг амалиёти кўпроқ тажрибали ва муваффақиятли ўтган ижодий муассаса ёки ташкилотларда олиб борилиши зарур, деб ҳисоблайман.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш. "Ўзбекистон ўқитувчи ва мурабийларига"// газ. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, "Шарқ". 2021 йил, 1 октябрь. №40. (4647)

2. Холиқов А. Педагогик маҳорат. – Тошкент .: "IQTISOD MOLIYA" 2010, 312 б.

3. Ҳайдаров А. Ижодий фаолиятни режалаштириш ва бошқариш– Тошкент. "Камалак" 2019. 192 б.

4. Ўша ерда

5. Холиқулова Г. Олий таълим муассасалари инновацион ривожланишининг концептуал асослари. "Санъат ва маданият таълими – бадиий тараққиётнинг ҳаракатлантирувчи кучи" конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2014, "Наврўз", 285 б.

6. Джураев Р.Х ва бошқ. Педагогик атамалар луғати. – Тошкент 2008, 135 б.

7. Фарманов Ў. Эгамназаров М. Ижодий фаолият тушунчаси, моҳияти ва уни амалга ошириш вазифалари. Олий таълим тизимида илмий-тадқиқот фаолиятини самарали ташкил этиш ва натижавийлигини оширишнинг долзарб масалалари. // Республика илмий анжумани маърузалар тўплами. –Тошкент, "ТошДТУ", 2014. 421 б.

8. Зуннунов А. Педагогика назарияси. – Тошкент. "Алоқачи", 2006, 164 б.

9. Холиқов А. Педагогик маҳорат. – Тошкент.: "Иқтисод молия", 2010,-12 б.

УЎК 37.02

НЕМИС ТИЛИ ДАРСЛАРИДА БЎЛҒУСИ КАДРЛАРНИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ АЙРИМ ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ

К.Я. Рўзиева, ўқитувчи, Тошкент архитектура – қурилиш институти, Тошкент

Аннотация. *Ушбу мақолада немис тили дарс машғулотларида бўлғуси кадрларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг айрим педагогик жиҳатлари кўриб яиқилган.*

Калит сўзлар: *педагогик фаолият, инновация, бўлғуси кадрлар, педагогик маҳорат, немис тили.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются некоторые педагогические аспекты подготовки будущих кадров к инновационной деятельности на уроках немецкого языка.*

Ключевые слова: *педагогическая деятельность, инновации, будущие кадры, педагогическое мастерство, немецкий язык.*

Abstract. *In this article, some pedagogical aspects of the preparation of future personnel for innovative activities in German language lessons are considered.*

Keywords: *pedagogical activity, innovation, future personnel, pedagogical skills, German.*

Ҳозирги даврдаги педагогик концепция таълим-тарбия ишини янгича, анъанавий педагогикадан тубдан фарқ қилувчи талқинига асосланади. Бундай концепциянинг асосий ғоялари янги педагогик технологияларда ўз аксини топган. Таълим-тарбия ишини нафақат педагог томонидан амалга ошириладиган таълим бериш, балки шу фаолият иштирокчиси бўлган ўқувчи ёки талаба томонидан фаол равишда амалга ошириладиган таълим олиш жараёни сифатида тавсифлаш янги педагогик технологияларнинг ўзига хос ғоявий асосини ташкил этади. Унга кўра, таълим-тарбия жараёнида асосий эътибор таълим олувчига тайёр билимларни сингдиришга эмас, балки билимларни мустақил фикр-мулоҳаза юритиш, ўз нуқтаи назарини ифода қилиш, уни ҳимоя қилиш йўли билан эгаллаш, ҳар қандай билимни амалий кўникма ва малакага айлантирган педагогик фаолият жараёнида ривожлантирувчи таълим тамойилини амалга ошириш кўзда тутилади.

Ҳозирги даврда олий таълимнинг мазмунини белгилашда фундаменталлик тамойилига алоҳида эътибор қаратилади. Айнан шу тамойил таҳсил олувчиларга бўлғуси қасбий фаолиятга тааллуқли бўлган кенг қамровли, мукаммал даражада тизимлаштирилган билимларни сингдиришни кўзда тутади. Амалдаги ўқув режаларида ижтимоий-гуманитар, соҳага оид фундаментал фанлар, махсус фанлар ва танлов асосидаги фанларнинг кўзда тутилганлиги талабаларга бериладиган билимлар доирасини аниқ белгилашига имконият яратади. Замонавий олий таълимнинг яна бир муҳим тамойили назарий билимларнинг устиворлигидир.

Илмий билишнинг кўлами, қамровини кенгайтириш, алоҳида муаммоларни чуқурлаштирилган ҳолда тадқиқ этишни тақазо этувчи бундай жараёнлар олий таълимнинг аниқ ўйўналиши, мутахассислик, ихтисослик бўйича ўқитилиши мақсадга мувофиқ. Хусусан чет тилини ўқитишда ҳам йўналиш хусусиятини инобатга олиш, фанлар ўртасидаги мантиқий боғланишларни кучайтириш бўлғуси мутахассисларнинг малакавий тайёргарлигини оширишга замин яратади. Бундай ёндашув касбий фаолият соҳасида кечадиган инновацион жараёнларни таҳлил қилиш, келажакда ана шундай ижодий фаолиятни мустақил равишда олиб бориш учун зарур бўлган малакаларни сингдиришга ёрдам беради.

Ҳозирги даврда мана шундай мезонларни акс эттирувчи методологик ва илмий услубий ёндашувлар шаклланмоқда. Уларнинг қаторига, жумладан, ўқитиладиган фанларни аниқлаш, уларнинг мазмунини белгилашга модулли ўқитиш нуқтаи назаридан ёндашиш, фанларни ўқитишга йўналтиришдан аста-секинлик билан компетентликни шакллантиришга йўналтирилган таълим тизимига ўтиш шулар жумласидандир. Ҳар икки ёндашув ҳам талабаларга кенг кўламли, замон талабига мос келадиган билимларни сингдириш орқали уларда бўлғуси касбий фаолият ҳақида, унинг ривожланиш тенденциялари, табиийки, соҳада олиб борилаётган инновацион фаолият ҳақида атрофлича тушунчаларни сингдиришга ижобий таъсир кўрсатади.

Ўқув режалари, дастурларни яратиш соҳасида қўлланилаётган замонавий усулларнинг таълимнинг пировард натижаларида ҳам акс этишига эришиш учун яхлит таълим тизимининг икки муҳим компоненти – ўқитиш ва таълим олиш фаолиятини такомиллаштириш зарурий талабга айланмоқда. Бўлғуси мутахассисларни ўқитишни касбий фаолият учун зарур бўлган компетентлик даражасини инобатга олган ҳолда амалга ошириш олий таълим соҳасидаги истиқболли йўналишлардан биридир. Касбий компетентлилик мутахассиснинг ўзи фаолият олиб борадиган соҳадаги муаммоларни англаб етиш, уларни юқори савияда ҳал қилиш, ўзи бажарадиган ишлаб чиқариш юзасидан масъулиятни тўлиқ зиммасига олиш учун зарур бўлган малакавий тайёргарлик даражасини акс эттирувчи тушунчадир.

Бўлғуси мутахассисни тадқиқотчилик ўзида мужассам қилувчи новаторлик фаолиятига тайёрлашни профессионал компетентликнинг зарурий талабларидан бири сифатида шакллантириш ғоят мураккаб ва кўпқиррали таълимий жараёндир. Уни юритишни кўп босқичли таълимий вазифа деб қараш мақсадга мувофиқ бўлади.

Дарс жараёнида талабаларни инновацион фаолиятга тайёрлаб боришда бакалавриатнинг барча йўналишлари бўйича касбий фаолият учун умумий бўлган масалаларни акс эттирувчи фанлар доирасида олиб бориладиган машғулотлардан ҳам унумли фойдаланиш мумкин. Бундай фанлар қаторига жумладан, "Немис тили" фанини киритиш мумкин. Мазкур фан бўйича машғулотларда талабаларга инновацион фаолиятнинг назарий масалаларини акс эттирувчи билимлар, уни бевосита юритиш бўйича амалий кўникма ва малакаларни сингдириш мумкин. Чунончи, инновацион фаолиятнинг стратегиясини аниқлаш, тактик ва оператив вазифаларнинг яхлит стратегияга

асосланишига эришиш, ижодий фаолиятнинг ресурс таъминоти, уни оқилона бошқариш йўлларини аниқлаш каби масалаларни ўрганиш бўлғуси мутахассис учун жуда фойдали бўлади.

Кўп жиҳатдан ўта индивидуал қобилият бўлган креатив тафаккур, янгиликни яратиш лаёқатини барча талабаларда бирдай ривожлантиришнинг имкони йўқ. Шу боисдан немис ли дарсларида мазкур фаолиятнинг илмий асослари билан таништириш орқали шу соҳада мустақил ижод қилиш салоҳиятига эга бўлган мутахассисларни сезиларли даражада кўпайтириш, қолган талабаларни эса яратиладиган инновацияларни тўғри баҳолаш, уларни репродуктив фаолиятга тўғри татбиқ қилиш орқали меҳнат фаолиятининг самарадорлигини таъминлашга ўргатиш учун замин яратади. Шуларни назарда тутган ҳолда немис тили дарслари давомида қуйидагиларни мақсад қилиб олиши лозим:

-немис тили дарсларида талабаларга репродуктив ва инновацион фаолиятнинг ўзаро боғлиқлиги, инновацион фаолиятнинг ҳаётий зарурат эканлиги, унинг турлари, инновацион жараён, зарур ресурслар, малакавий тайёргарлик даражаси ҳақидаги назарий билимларни сингдириш;

-талабаларда инновацион фаолият стратегиясини аниқлаш, оптимал ва оператив вазифаларни яхлит стратегия асосида ҳал қилиш инновацион ғоя ва концепцияни яратиш, уни амалга ошириш, яратилган инновацияни жорий этиш учун зарур бўлган кўникма, малакаларни шакллантириш орқали инновацион фаолият маданиятини сингдириш;

-немис тили машғулотларидаги ўқув режасида кўзда тутилган аудитория, аудиториядан ташқари машғулотлар, мустақил ишлар, илмий – тадқиқот ишлари, малакавий амалиёт доирасида талабаларни инновацион изланишларитни йўлга қўйиш, олий ўқув юртида, бошқа корхона ва муассасаларда юритилаётган инновацион фаолиятда иштирок этишларини таъминлаш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик махорат - Т.: ТДПУ, Низомий, 2003.
2. Авлиёкулов Н. Замонавий ўкитиш технологиялари.-Т., 2001.
3. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. Т.: Ўқитувчи, 2004.

УЎК 37.02

НОФИЛОЛОГИК ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТИ ТАЛАБАЛАРИГА ПОТЕНЦИАЛ ЛЕКСИКАНИ ЎРГАТИШНИНГ ЛИНГВОДИДАКТИК МУАММОЛАРИ

Д. А. Рузметова, ўқитувчи, ТДПУ, Тошкент

Аннотация. *Мазкур мақолада инглиз тили потенциал лексикасининг лингводидактик тахлили ва иқтисодиёт йўналишида тахсил олувчи талабаларга инглиз тили потенциал лексикасини ўргатиш усули тўғрисидаги масалалар кўрилган.*

Калит сўзлар*: потенциал лексика, репродуктив лексика, суффиксация, рецептив лексика, сўз ясаш.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лингводидактический анализ английского потенциального словаря, также вопросы о потенциальном словаре английского языка и методике формирования его в вузах экономического профиля.*

Ключевые слова: *потенциальная лексика, репродуктивная лексика, суффиксация, рецептивная лексика, производное слово.*

Abstract. *The article deals with linguadidactic analysis of potential vocabulary also the matters of potential vocabulary in English and its methods of formation in the groups of economics in higher education.*

Key words: *potential vocabulary, reproductive lexicon, suffixion, receptive lexicon, word formation.*

Ўзбекистон ахолисининг интелектуал салоҳиятини юксалтиришда чет тилларни ўқитиш алоҳида аҳамиятга моликдир. Замон талабларига жавоб берадиган мутахассислар таёрлаш учун эса таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштириш, ўқитиш методикасини халқаро стандартлар доирасида ишлаб чиқиш заруратини ўртага чиқарди. Нофилологик (инглиз тилида мутахассислик бермайдиган) олий ўқув юртлари талабалари учун хорижий тилни эгаллаш муҳим бўлиб, ўрганаётган ихтисослигида хорижий манбалар асосидаги янги ютуқлар билан танишиш зарурати юзага келади. Шу боис ҳам, хорижий тилларда ўқиб тушуниш малакаларини шакллантириш шу кунинг устувор масаласи қаторига киради. Чет тилдаги матнни мустақил ўқиб тушуниш жараёнида талабалар асосан лексик қийинчиликларга дуч келади. Лексикани ўргатишнинг асосий муаммоларидан бири – чет тил ўргатиш мақсадида лексик минимумлар танлаб олиш ва уларнинг методик типологиясини яратишдир. Бу масалага олимлар томонидан катта эътибор каратилган. Хусусан, И.В. Раҳмонов раҳбарлигида хорижий тилларда энг кўп ишлатиладиган сўзлар луғати

яратилган, М. М. Фальковичнинг луғат минимуми, Ўзбекистон олий ўқув юртлари учун инглиз тилидан В.П. Поляков ва бошқалар томонидан луғат минимум тузилган.

Чет тилнинг луғат фондида фаҳрли методистлар (В.А. Бухбиндер, Г.В. Рогова, М.А. Педанова, Ж.Ж. Жалолов, Х. Сойназаров) сўзларни икки хил гуруҳга ажратадилар: ***реал сўзлар*** ва ***потенциал сўзлар***. Реал сўзлар мазкур тил вакилининг актив ва пассив қатламини ташкил этиб, тайёр луғавий бирликлар сифатида амал қилади. Методик адабиётларда чет тилдаги лексик минимум, одатда, **актив** ва **пассив** қисмларга ажратилган. Берилган таърифларга кўра **актив лексик** минимум талаба барча мулоқот турларида ишлатиши зарур бўлган лексик бирликлардан иборат. Масалан (money, bank, sum, million).

Пассив лексик минимум – чет тилда ахборотни тинглаб тушуниш ва ўқиш орқали қабул қилиш учун зарур бўлган лексик бирликлар бўлиб, баъзи адабиётларда **рецептив лексика** таркибига киритилади. Маълумки чет тил ўқитиш методикасида потенциал лексика номи билан юритиладиган тушунча мавжуд: ушбу тушунча содда тарзда таърифланган бўлиб, ўқувчи (талаба) нинг орттирган тил тажрибаси ёрдамида ҳозиргача унга нотаниш бўлган сўзнинг маъносини фаҳмлаб олиш имкониятига эга бўлган лексик бирликлар ҳақида фикр юритмоқдамиз.Демак, ўқиладиган матндаги сўзнинг маъноси интернационализм, ясама сўз, қисқартма кабилар учраганда талаба унинг маъносини тахминан ёки тўлиқ фаҳмлай олади (инглиз тилида language guessing, рус тилидаги языковая догадка хақида гап бормоқда).

Потенциал лексика атамаси Г.В. Рогова, Ж. Ж. Жалолов асарларида таърифланган бўлиб, бундай лексик заҳира таркибига интернационализмлар, профессионализмлар, неологизмлар, терминлар, қисқартмалар, қўшма сўзлар киритилган. Шунингдек, илмий-методик адабиётларда турли ўқув юртлари учун актив луғат бойлигининг ҳажми ҳисоблаб чиқилган бўлиб, у қуйидагиларни ташкил қилади:

– мактабгача тарбия муассасасида – 300 лексик бирлик;
– ўрта умумтаълим мактабларида – 1000 лексик бирлик;
– академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида – 1500 лексик бирлик;
– филологик (мутахассислиги чет тил бўлган) олий ўқув юртларида – 5000 лексик бирлик;
– нофилологик олий ўқув юртларида – 3000 лексик бирлик.

Пассив луғат захираси эса ихтисосликлар бўйича чегараланмаган. Потенциал лексика ҳисоб-китобга бўйсуниши қийин деган фикрдамиз, чунки бундай лексика актив ва пассив минимум таркибида ҳам бўлиши мумкин, масалан, bank dollar, company, industry, contract, project… ва бошқалар.

Бугунги кунда нофилологик (нолисоний) олий ўқув юртларида чет тилларни ўқитиш муаммоларига жаҳон миқёсида, хусусан Ўзбекистон шароитида жиддий эътибор қаратилмоқда. Давлат таълим стандартлари, намунавий дастур ва ўқув режаларида чет тил бўйича малакали мутахассисларга юқори талаблар қўйилган. Шунга кўра мутахассислар ўз соҳаси бўйича ўзга тилларда битилган ахборотни ўрганиш ва ундан фойдалана олиш малакаларига эга бўлиш шарт бўлиб, кўникма ва малакалар олий маълумотли мутахассис касбий лаёқатининг таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Республикада молия ва пул кредит муносабатларига, тижорат банклари, фонд биржалари ва бошқа молия муассасалари фаолиятига қизиқиш тобора ортиб бормоқда. Бундай шароитда мазкур соҳаларда фаолият юритадиган шахслар ўз мутахассислиги бўйича чет тилдаги мақолани, машинага берилган патентни ўқий олиши, қўлланма (инструкция)ни таржима қила олиши лозимки, бу нарса тушунган ҳолатда тез ўқиш заруратини юзага чиқаради. Тил ўрганиш жараёнида эса лексикани ўргатиш муҳим босқич бўлиб, тилни ўргатишнинг асосини ташкил қилади. *Лексика* ўрганиладиган, ўргатиладиган сўзлар ва сўз бирикмалари йиғиндисидир. Лексикани мукаммал эгалламай туриб, нутқ фаолиятининг турларини ўрганиб бўлмайди. Руҳшунослар эътироф этишларича, инсон боласи кишилик жамияти орттирган тажрибани сўз орқали ўзлаштиради, чунки тафаккур сўз ёрдамида содир бўлади. Сўз тил бирлиги сифатида тушунчаларни ифодалайди. Тилдаги сўзлар мажмуи лексикани *система сифатида* ташкил этади.

Ҳозирги замон ҳинд-европа тилларида лексика ярим миллионгача сўздан ташкил топади. Тилда 400-500 та сўз ёрдамида мулоқот юритиш мумкин. Маълумотли одам оғзаки ва ёзма фикр баён этиш учун 3000-5000 та сўз ишлатади. Ўқиб ва тинглаб тушунишда унга қараганда анча кўп сўзни билади. Буюк шоир ва ёзувчилар ижодида 20-25 минг сўз қўлланади.

Чет тилнинг луғат фондида фаҳрли методистлар (В.А. Бухбиндер, Г.В. Рогова, М.А. Педанова, Ж.Ж. Жалолов, Х. Сойназаров) сўзларни икки хил гуруҳга ажратадилар: ***реал сўзлар*** ва ***потенциал сўзлар***. Реал сўзлар мазкур тил вакилининг актив ва пассив қатламини ташкил этиб, тайёр луғавий бирликлар сифатида амал қилади. Потенциал сўзлар масаласида эса вазият бошқача: методистлар орасида "потенциал сўз" термини талқинида ягона фикр мавжуд эмас. Эр.

Хампиранинг фикрича: "*Потенциал сўз* – бу шундай бирликки, у тилнинг сермаҳсул модели асосида ясалади, мана шундай моделда юзага келади, аммо ҳали тилга ўтмаган сўз". Унинг фикрича, "потенциал" термини ушбу сўзнинг тил тизими орқали сўз ясалиш моделида берилишини қайд этади. Е.А.Земская эса мазкур ҳодисани қуйидагича таърифлайди: "*Потенциал сўзлар* сермаҳсул сўз ясалиш типлари бўйича ҳосил бўлиб, сўз ясалиш парадигмаларидаги бўш катакларни тўлдиради. Г. В. Рогованинг таърифига кўра потенциал лексикада учта таянч мавжуд бўлиб, булар: *тиллараро таянч* (профессионализмлар, неологизмлар, терминлар, қисқартмалар, қўшма сўзлар), *тил ички таянчи* (сўз ясовчи қўшимчалар ва конверсия йўли билан ҳосил бўлган сўзлар), *тилдан ташқари таянчлар* (схемалар, жадваллар, терминлар, диаграммалар, турли хил формулалар, рамзлар). Кўпгина таърифларга асосланган холда қуйида чет тил лексикасининг классификацияси келтирилган:



Г. В. Рогованинг таърифига кўра потенциал лексикада учта таянч мавжуд бўлиб, булар: *тиллараро таянч* (профессионализмлар, неологизмлар, терминлар, қисқартмалар, қўшма сўзлар), *тил ички таянчи* (сўз ясовчи қўшимчалар ва конверсия йўли билан ҳосил бўлган сўзлар), *тилдан ташқари таянчлар* (схемалар, жадваллар, терминлар, диаграммалар, турли хил формулалар, рамзлар). Шунингдек, Ж. Жалоловнинг потенциал лексика таърифи хусусидаги фикрлари аҳамиятлидир. Муаллифнинг таъкидлашича, –Талаба матнни идрок этганда янги сўз маъносини мустақил фаҳмлаб етса, ушбу сўз потенциал луғат саналади. *Тил тажрибаси* туфайли талаба ушбу лексик бирликларни таниб олиш имконияти бор бўлгани учун мустақил идрок этиб тушуниш кўникмасини эгаллайди. Муаллифнинг таърифларидан келиб чиқиб илмий ижод намунаси сифатида потенциал луғат сирасига қуйидагилар киритилди:

• шакли ва маъноси чет тил ва она тилида муштарак сўзлар (business, market, office, training, export, import, credit, budjet…);

• ўзак ва аффикс қисмлари таниш ясама сўзлар (manage+er, deal+er, import+er, productive+ness, corporat(e)+tion);

• қисмлари олдин ўрганилган қўшма сўзлар (trademark, businessman, intercompany, multinational, postcard);

• конверсия усулидаги сўзлар (to offer – offer, to produce – production, to sell – sale, to pay-payment);

• тўлиқ шакли таниш қисқартма сўзлар (PO (postal office), P/C (paid cash), SB (savings bank), t&d (time and date);

• инглиз ва рус тилидаги бир ўзакли сўзлар (economy, finance, system, manufacture, qualification, agency, auction);

• маъноси контексдан фаҳмланадиган сўзлар

Хусусан, матн асосида потенциал лексикага оид сўзлар билан танишиш бундай сўзларни матндан ажратиш билан якунланади. Ҳар қандай матн, сўзни қанчалик яққол тақдим этмасин, сўзнинг фақат контексдаги маъноси билан ва сўзлар орасидаги алоқанинг битта усули билан таништиради. Ўрганувчи "ўз" матнларини тузишга мўлжалланган сўз ҳақидаги маълумотлар доирасини кенгайтириш учун матндан сўзни ажратиб олиш ва уни мустақил бирлик сифатида қараш керак.

Хулоса қилиб шуни айтиш керакки, бўлғуси мутахассисларга инглиз тилини ўргатишда уларнинг келгусидаги фаолиятида фойдаланиши зарур бўлган нутқ фаолиятига кўпроқ аҳамият бериш зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўкитиш методикаси: Чет тиллар олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.:Ўқитувчи, 1996. – 368 б.

2. Мусаев Қ.М.,Қудратов М.Ш. Инглизча-русча-ўзбекча иқтисодий луғат: 3-т. –Т.: Фан, 2001. – 731 б.

3. Рогова Г.В., Методика обучения иностранным языкам в средней школе.– М.: Просвещение,1991. – 287с.

УЎК 808.5

ЛОТИН ТИЛИ ГРАММАТИКАСИ ВА ЛЕКСИКАСИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИСИНИ ҚЎЛЛАШ

Н.С.Суюндиков, катта ўқитувчи, Тошкент фармацевтика институти, Тошкент
Т.Б.Ахмедова, катта ўқитувчи, Тошкент фармацевтика институти, Тошкент

Аннотация. *Мақолада тиббий олий таълим муассасалари талабаларига лотин тили ўқитишда инновацион таълим технологияларини қўллашнинг назарий асослари ўрганилган.*

Калит сўзлар*: инновация, мустақил таълим, амалий машғулот, педагогик технология, ахборот технологиялари*

Аннотация. *В статье исследуются теоретические основы использования инновационных образовательных технологий в обучении латинскому языку студентов медицинских вузов.*

Ключевые слова*: инновация, самостоятельное обучение, практическая работа, педагогические технологии, информационные технологии.*

Abstract. *The article devoted to the theoretical foundations for the use of innovative educational technologies in teaching Latin to medical students.*

Keywords: *innovation, independent learning, practical work, pedagogical technology, information technology*

Сўнгги йилларда «инновация» термини олий таълим муассасаларида жуда кенг ишлатилмоқда. Бундан мақсад Республикадаги олий таълим муассасаларидаги таълим сифатини чет эл таълим муассасалари билан тенглаштириш ва педагогларнинг илмий салоҳиятини ошириш. Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг педагогик фаолияти уларнинг нафақат билим ва кўникмаларга эгалигидан, балки соҳага оид маълумотларни талабаларга турли хил усулларда педагогик маҳорат билан етказишдан иборатдир. Таълим жараёнида инновацион педагогик ва ахборот технологиялардан фойдаланиб таълимнинг самарадорлигини кўтаришга бўлган қизиқиш, эътибор кундан кунга ошиб бормоқда. Замонавий технологиялар қулланилган машғулотлар талаба (ёки ўқувчи) лар эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари қилишларига қаратилган. Ўқувчи бу жараёнда шахс ва жамоанинг ривожланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади. Ўқув-тарбия жараёнида асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юрутишига олиб келади. Педагогик технологиянинг энг асосий белгиси ўқитувчи ва ўқувчининг белгиланган мақсаддан кафолатланган натижага ҳамкорликда эришишлари учун танланган технологияларга боғлиқ, яъни ўқитиш жараёнида, мақсад бўйича кафолатланган натижага эришишда қўлланиладиган ҳар бир таълим технологияси ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида хамкорлик фаолиятини ташкил эта олса, ҳар иккаласи ижобий натижага эриша олса, ўқув жараёнида ўқувчилар мустақил фикрлай олсалар, ижодий ишлай олсалар, гуруҳ ташкил этиб гуруҳда ишлай олсалар, педагог эса уларнинг бундай фаолиятлари учун имконият ва шароит яратиб берса уларни рағбатлантира олса ана шу ўқитиш жараёнининг асоси ҳисобланади.

• Бунда педагог ўзининг ҳар бир мавзуси учун ўзига хос услуб ва воситалардан фойдаланган ҳолда талабага дарснинг мақсад ва вазифасини етказиш йўлини тўғри танлаши зарур. Педагогнинг ўз фаолиятига ижодий ёндошиши талабаларга билим ва маҳоратини тўлиқ етказишига ёрдам беради. Олий таълимни амалга ошириш жараёнига инновацион технологияларни киритиш қуйидагиларга асосланади

• Олий таълим жараёнида иштирок этувчи ўқувчи шахси устиворлигини таъминлаш;

• Олий таълим мақсадининг натижага эришувини (кафолатланганлигини) амалга ошириш;

• Олий таълим жараёни бошқарилувчи жараён эканлигидан келиб чиққан ҳолда унинг мақсадли бошқарилувига эришиш;

• Олий таълим мазмунини таъминловчи восита, усул шакллари технологиясини ягона бир тизимга келтириш.

Педагогик технологияларга асосланган таълим жараёнида ўқитувчи фаолияти ва ўқувчи фаолияти доираси аниқ белгиланади, таълимни ташкил этишнинг аниқ технологияси кўрсатилади. Инсерт жадвали, асосланган эссе, Т-чизма, амалий кўникмаларни ўзлаштиришда видеофильмлардан, симуляцион марказлардан ва бошқа усулларни қўллаш йўли билан талабаларнинг билим олишига ва касбига нисбатан маъсулиятини оширади ва машғулот давомида талабаларнинг назарий, таҳлилий, ижодий ва замонавий фикрлашини мукаммаллаштиради. Таҳлил қилиш орқали маълумотни эслаб қолиши, билим ва кўникмаларни намойиш этиши ва мавзуни мазмунини тушуниши ва амалиёт билан боғлашга ёрдам беради.

Шунинг учун ҳам инновацион таълим технологияларини таълим жараёнига тадбиқ этиш, таълим самарадорлигини ошириш учун тинимсиз изланиш бугунги куннинг эҳтиёжига айланади. Инновацион таълим технологиялар таълим жараёнининг унумдорлигини оширади, талабаларнинг мустақил фикрлаш жараёнини шакллантиради, ўқувчиларда билимга иштиёқ ва қизиқишларини оширади, билимларни мустаҳкам ўзлаштириш, улардан амалиётда эркин фойдаланиш кўникма ва малакаларини ривожлантиради ва бу ўқув жараённинг янгича руҳда шаклланишига имконият яратади.

Таълим муассаларидаги ўқув жараёнини давлат таълим стандартларига мос равишда илғор педагогик ва замонавий ахборот технологиялари асосида ташкил қилиш, олий таълим муассасаси ўқитувчиларидан ҳам юқори малакани талаб қилади. Мустақил таълим олиш технологияси ўқув психологик концепцияга таянади. Оптимал ўқув жараёнида мустақиллик, эркинлик ва ижодкорлик яхши ривожланади. Бундай шароитда муҳим интелектуал кўникмалар шаклланиши керак. Улардан энг асосийси мустақил ўқиш кўникмасидир. Ҳар қандай таълим олувчи мустақил таълим материалларидан яхши фойдаланишни билавермайдилар. Шу боис ўқитувчи олдида масъул вазифа туради: қисқа муддат ичида таълим олувчини матн ва схемаларни мустақил тушунишга, зарурий ахборотни танлай билиш, бахолаш, таққослаш, таҳлил этиш, муаммоли вазиятни ҳал этишга ўргатиш лозим.

Тадқиқотлар жараёнида талабаларнинг мустақил таълим олиш фаолиятини ташкил қилиш қуйидаги технологик ёндашув асосида амалга оширилди:

• маъруза ва амалий машғулотлар жараènида талабаларни мустақил таълим олиш фаолиятга йўналтириш бериш;

• таълим йўналиши ўқув режасидан фаннинг мустақил таълим учун ажратилган ўқув соатлари асосида ва ўқув дастури бўйича ўзлаштирилган мавзуларни талабаларга тақсимот жадвалини ишлаб чиқиш;

• ўзлаштирилган мавзуларнинг мустақил таълим материалларини ишлаб чиқиш;

• мустақил иш топшириқларини бериш;

• берилган мустақил иш учун топшириқларни бажариш бўйича методик ёрдам беришни ташкил қилиш;

• талабаларни мустақил бажарган топшириқларини ҳимоя қилишга тайёрлаш;

• гуруҳ талабалари ва тегишли ўқитувчилар билан ҳамкорликда мустақил ишларнинг ҳимояларини ўтказиш ва бахолаш.

• Мустақил таълим олиш технологиясини яратиш бир неча алоҳида муаммоларни ҳал этишни кўзда тутади. улар орасида мунтазам билим олишнинг мақсадини қўйиш муаммоси алоҳида ажралиб туради. агарда таълим олиш бўлажак мутахассисларнинг умумий ривожланишини таъминлашга хизмат қилса, мустақил таълим олишнинг мақсади профессионал шаклланиш ва касбий маҳоратини ошириш ҳисобланади. шунинг учун талабаларга ўқув жараёнида билим беришда уларни мустақил таълим олиш (мустақил ҳолда ўрганилган мавзу материалларини мустаҳкамлаш ва кенгайтириш, мустақил ишларни бажаришлари)га йўналтириш лозим. Машғулотларда талабаларни мустақил таълим олишга йўналтиришда уларнинг мустақил таржима ишларини ташкил қилиш асосий омил ҳисобланади. Мустақил таржима ишларини ташкил этишда қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

1. Талабаларга бериладиган мустақил таржима ишлар олий таълим дастурига мос бўлиб, фандан олинадиган билим ва малакаларни мустаҳкамлаши, такомиллаштириши зарур.

2. Мустақил терминларни таржима қилиш талабаларнинг ўтилган мавзуларига мос, улар диққатини тортадиган, қизиқтирадиган бўлиши лозим.

3. Мустақил иш бериш олдидан ўқитувчи уни қандай бажариш кераклиги тўғрисида босқичма-босқич услубий кўрсатма бериши лозим.

4. Ўқитувчи талабаларнинг мустақил ишлари натижаларини кўриб, хатоларини тўғрилаши, мумкин қадар баҳолаши, ишни ўз вақтида бажарган талабаларни рағбатлантириб бориши жоиздир.

Машғулотни бошқариш технологиясида аввалам бор дарснинг мақсади аниқ, касбга йўналтирилган бўлиши билан бирга, қайси восита ёрдамида ва қандай кетма-кетликда бу мақсадга эришиш мумкинлигини кўриш мумкин. Ўқитувчининг фаолияти ўқув материалини ўзлаштириш жараёнининг ташкилотчиси тарзида кўриниб, талаба фаолиятининг фаоллигига аҳамият бериши керак. Бунинг учун материал мазмунининг баёнида ўқитувчи турли хил ўқитиш методлари ва

и
м
к
о
н
и
я
т
л
а

• маъруза матни ва дарслик билан ишлаш, мавзуга оид материалларни қунт билан ўқиб
р
и
қишга ундаш;

и • маъруза жараёнида кўрсатилган ва амалиёт дарсларида ўқитувчи томонидан ечилган
д масалаларни қайта ечиб чиқиш (терминлар таржимаси ва ёзилишни қайта кўчириб чиқиш);

а • ҳар бир мустақил ишни бажаришда ўтилган мавзунинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда
қизиқарли дидактик ўйинлар ташкил қилиш, қизиқарли график масалалар ечиш. Мустақил таълим олишда таълим мазмуни, мустақил таълим материаллари асосий компонент бўлиб, ўқитувчи ва
ф талаба мулоқати асосий омил бўлиб, талабаларнинг мустақил таълим олиш тизимини яратади.

о
й
д
л
а
н
а
д
и
.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Dlafruz Khudoyqulova, Tursunoy Akhmedova. Models and methods application pharmacy terms in translation of scientific texts. Збірник наукових праць ЛОГОΣ2021/3/24.

2. Dlafruz Kabildjanovna Khudoyqulova Albina Ergashevna Abdullaeva. Central asian journal of theoretical and applied sciences. Ulaanbaatar: Mongolian National University of Medical Sciences 2-01. P. 10-13

3. N.S. Suyundikov D.K. Khudoyqulova. The methods of teaching the pharmaceutical terminology in Latin. International conference "Best practices in distance education in learning foreign languages" 2019/5/14. P. 249-250

УЎК 37.02

ОНАЛИК ВА БОЛАЛИКНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШДА "СОҒЛОМ АВЛОД УЧУН" ҲАЙРИЯ ФОНДИНИНГ ЎРНИ

Н.Д. Тоштемирова, ўқитувчи, Қарши Давлат Университети, Қарши

Аннотация. *Ушбу мақолада Ўзбекистонда аналик ва болаликни ҳимоя қилиш тадбирларида "Соғлом авлод учун" хукуматга қарашли бўлмаган хайрия фондининг ташкил этилиши, унинг хизматлари, фонд томонидан амалга оширилган бир қанча ижобий ишлар ҳақида ўтарнинг натижалари ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: *Терроризм, экстремизм, конфессия, Бирлашган миллатлар ташкилоти (БМТ), Европа хавфсизлиги ҳамкорлиги ташкилоти (ЕХҲТ), конвенция, битим, қонун, фармон, қарор.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается создание негосударственного благотворительного фонда «За здоровое поколение» в сфере охраны материнства и детства в Узбекистане, его деятельность, ряд положительных мероприятий, проведенных фондом и их результаты.*

Ключевые слова: *Терроризм, экстремизм, вероисповедание, Организация Объединенных Наций (ООН), Организация по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ), конвенции, соглашения, законы, указы, решения.*

Abstract*. This article discusses the establishment of a non-governmental charitable foundation "For a Healthy Generation" in the protection of motherhood and childhood in Uzbekistan, its activities, a number of positive activities carried out by the foundation and their results.*

Keywords*: Terrorism, extremism, confession, United Nations (UN), Organization for Security and Cooperation in Europe (OSCE), conventions, agreements, laws, decrees, decisions.*

Ўзбекистонда оналик ва болаликни ҳимоя қилиш тадбирларида "Соғлом авлод учун" ҳукуматга қарашли бўлмаган ҳайрия фондининг хизмати катта бўлди. Ўз Рсининг Биринчи Президенти И.А.Каримов 1993 йил 23 апрелда "Соғлом авлод учун" ҳукуматга қарашли бўлмаган халқаро ҳайрия фондини ташкил этиш бўйича ПФ-596-сонли фармонини эълон қилинди. Фонднинг жами 14 та минтақавий филиал ва 100 дан ортиқ таянч масканлари Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида фаолият кўрсатди. Фонднинг ҳукуматга киритган таклифлар асосида 1993-2003 йиллар давомида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 9 та қарори ва 1 та фармойиши қабул қилинди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йил 3 июлдаги 268-сонли "Соғлом авлод учун" халқаро хайрия фонди фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги, шу йил 28 октябрдаги 524-сонли "Соғлом авлод учун" халқаро хайрия фондининг таклифлари тўғрисида"ги, 3 декабрдаги 589-сонли "Ёш авлодни соғломлаштириш муаммоларини комплекс ҳал қилиш тўғрисида"ги, 1994 йил 8 февралдаги 61-сонли "Соғлом авлод учун" халқаро хайрия фонди корхоналари, бирлашмалари, ташкилотларидан имтёзли солиқ олиш тўғрисида"ги, 2000 йил 4 мартдаги 74-сонли "Соғлом авлод учун" халқаро хайрия фондининг иш фаолиятини такомиллаштириш ҳақида"ги, 2014 йил 30 январдаги 20-сонли "Соғлом авлод учун" ҳукуматга қарашли бўлмаган халқаро хайрия фондини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорлари шулар жумласидандир.

Фонднинг мақсади: Мамлакатимизда ёш авлодни соғломлаштириш дастури ва Ўзбекистонда тиббий-ижтимоий патронаж тизимини вужудга келтириш доирасини кенгайтиришдан иборат бўлди.

